



MAKTAB  
KUTUBXONASI

# Jyul Vern

Suv ostida sakson  
ming kilometr





**JAHON**

**SARGUZASHT**

**ADABIYOTI**



**JYUL VERN**  
**SUV OSTIDA**  
**SAKSON MING**  
**KILOMETR**

*Roman*



«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA  
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI  
BOSH TAHRIRIYATI  
TOSHKENT — 2016



UO'K 821.512.133-3

KBK 84(4Fr)

V-47

Tarjimon

**SA'DULLA KAROMATOV**

**Tahrir hay'ati**

Otabek G'ULOMOV (*rahbar*),  
Ahror AHMEDOV (*rahbar o'rinbosari*),  
Ravshan JUMABOYEV, Alisher IBODINOV,  
Nizom KOMILOV, Tohir MALIK, Erkin MALIKOV,  
Anvar OBIDJON, Xudoyberdi TO'XTABOYEV,  
Barnobek ESHPO'LATOV (*hay'at kotibi*).

Rassom

**M. Samoylov**

V 47 **Vern, Jyul**

Suv ostida sakson ming kilometr: Roman/  
J.Vern; tarjimon S.Karomatov; rassom M. Sa-  
moylov. – T.: «Sharq», 2016. – 552 b.– (Jahon  
sarguzasht adabiyoti)

I. Karomatov, Sa'dulla (tarjimon)

II. Samoylov, M. (rassom)

ISBN 978-9943-26-603-2



ISBN 978-9943-26-603-2

UO'K 821.512.133-3

KBK 84(4Fr)

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati, 2007, 2012, 2014, 2016.

# BIRINCHI QISM

## *Birinchi bob*

### HARAKATDAGI SUVOSTI QOYASI

1866-yil hanuz odamlar xotirasidan ko'tarilmagan g'aroyib voqealar bilan mashhur bo'lib qoldi. Bu voqealar haqidagi mishmishlar butun dunyo xalqlari o'rtasida qiziqish uyg'otdi va port shaharlar aholisini tashvishlantirib qo'ydi, dengizchilarni esa hayajonga soldi. Savdogarlar, kema egalari, kapitanlar, shkiperlar<sup>1</sup>, harbiy dengizchilar, hatto Eski va Yangi dunyodagi bir qancha davlatlarning hukumatlarini ham kamdan kam uchraydigan bu hodisa juda qiziqtirib qo'ydi.

O'sha yili bir necha kemalarda kishilar dengizda qandaydir uzun, duksimon bir narsani ko'rishdi. U hajmi va tez harakat qilishi jihatidan kitdan ustun turar; ba'zan yorqin yog'du taratardi.

Turli kemalarning bort jurnallaridagi yozuvlar bu narsa yoki mavjudotning tashqi qiyofasini ifoda etishda bir-biridan juda kam farq qilar edi. Uning misli ko'rilmagan darajada tez harakat qilishini ham bir xilda qayd etar edilar. Boshda uni kit deb o'ylashdi. Ammo fanga ma'lum turli xil kitlarning birortasi bu qadar katta bo'lmagan. Kyuve ham, Laseped ham, Dyumeril ham, Katrfaj<sup>2</sup> ham o'z ko'zlari bilan ko'rmaguncha, shunday bahaybat maxluqning mavjudligiga ishonmagan bo'lur edilar.

Bu mavjudotni o'z ko'zi bilan ko'rgan ba'zi bir kishilar uning uzunligini ikki yuz ingliz futi<sup>3</sup> deb

<sup>1</sup> *Shkiper* – harbiy kemada kema anjomlari mudiri.

<sup>2</sup> *Kyuve, Laseped, Dyumeril, Katrfaj* – naturalist olimlar.

<sup>3</sup> Bir ingliz futi 30,4 santimetrdir.

chamalashdi, lekin bu juda kichraytirib aytish edi, albatta. Boshqalar esa uning uzunligini uch milya, enini bir milya deb, shubhasiz, haddan tashqari mubolag'a qilib yuborgan edilar. Bu bir-birini inkor qiladigan gaplarga qaramay, ko'p sonli axborotlardan xulosa chiqarib, shuni dadil aytish mumkinki, bordi-yu shunday bahaybat maxluq mavjud bo'lgan taqdirda ham u hozirgacha zoologlarga ma'lum bo'lgan hayvonlardan beqiyos darajada kattadir. Shuningdek, uning mavjudligi ham shubhasizdir, bu haqda so'z bo'lishi mumkin emas edi. Tabiiyki, insonga xos bo'lgan sirli hodisalarga qiziqish ishtiyoqi natijasida, butun dunyo bu xabarlardan larzaga kelgan edi.

1866-yilning 20-iyulida Kalkuttadagi kemachilik shirkatiga qarashli «Gubernator Xiginson» kemasi suzib ketayotgan bu bahaybat maxluqni Avstraliyaning sharqiy qirg'og'iga yaqin bir yerda uchratib qoldi.

Boshda kapitan Bekker xaritaga tushmagan suvosti qoyasiga duch keldim, deb o'yladi. Uning geografik koordinatlarini aniq belgilab olishga endi kirishmoqchi bo'lib turganida, to'satdan bu g'alati narsaning ostidan ikkita suv ustuni yuz ellik fut balandlikka vashillab otilib chiqdi. Agar bu suvosti geyzeri<sup>1</sup> bo'lmasa, unda «Gubernator Xiginson» kemasi burun kataklaridan bug' aralash suv otadigan allaqanday noma'lum dengiz maxluqiga duch kelgani aniq.

1866-yilning 23-iyulida bu g'alati mavjudotni Tinch okeanida Vest-Indiya va Tinch okean kemachilik shirkatiga qarashli «Xristofor Kolumb» kemasidagilar uchratib qolishdi. Bu g'alati kit chin-

---

<sup>1</sup> *Geyzerlar* – issiq suv manbalari bo'lib, u ma'lum bir muddatgacha (25 minutdan 3 soatgacha) issiq suv va bug' otib turadi.

dan ham juda katta tezlik bilan harakat qilar ekan. Chunki uch kun mobaynida «Gubernator Xiginson» va «Xristofor Kolumb»dagilar uni yer sharining oraligʻi yetti yuz dengiz milyasiga teng boʻlgan masofadagi ikki nuqtasida koʻrishdi.

Oʻn besh kundan keyin Milliy kompaniyaning «Gelvetsiya» va «Royal Meyl» kompaniyasining «Xanaan» kemalari Atlantika okeanida – Amerika bilan Yevropaning oʻrtasida uchrashib, bu bahaybat maxluqni shimoliy kenglikning 42-gradus 15-minutida va gʻarbiy uzunlikning 60-gradus 35-minutida (Grinvichdan) koʻrdilar. Har ikkala kema-ning kapitanlari bu maxluqning uzunligini kamida uch yuz ellik ingliz futi deb chamalashdi. Forshtevenidan<sup>1</sup> arxershtevenigacha<sup>2</sup> har birining uzunligi uch yuz yigirma besh fut keladigan «Xanaan» va «Gelvetsiya» kemalari undan kichik edi. Aleut orollari atrofida uchraydigan eng yirik kitlarning uzunligi esa hech qachon bir yuz oʻn besh futdan oshmagan.

Ketma-ket kelib turgan bu axborotlar, Atlantika okeani orqali qatnaydigan «Pereyra» kemasidagilarning ham bahaybat maxluqni koʻrgani, «Etna» kemasi u bilan toʻqnashgani haqidagi xabarlar va nihoyat, uch machtali fransuz harbiy yelkan kemasi «Normandiya» ofitserlari tomonidan tuzilgan protokol va ingliz admiralligiga «Lord Klayd» kemasi komandiri Fits-Jems yuborgan batafsil hisobot – mana shularning hammasi jamoatchilik fikrini ostin-ustun qilib yubordi. Baʼzi mamlakatlarda bu favqulodda voqeani gapirib kulishardi. Ammo

---

<sup>1</sup> Forshteven – kema tagtoʻsinining kema burniga kelib taqaladigan uch qismi.

<sup>2</sup> Arxershteven – tagtoʻsinning kema quyrugʻiga kelib taqaladigan qismi.

Angliya, Amerika va Germaniya singari davlatlarda bunga juda qiziqib qolgan edilar.

Barcha poytaxtlarda bahaybat maxluq haqidagi gaplar asosiy suhbat mavzuyi bo'lib qoldi. U haqida estradalarda qo'shiq kuylashardi, jurnallarda karikaturalar bosilardi, hatto uni teatr tomoshalarida tasvirlab ko'rsatishdi. Barcha gazetalarda o'zi chindan ham mavjud bo'lgan, ammo xayolan tasvirlangan bahaybat maxluqlar surati – qutb atrofidagi suvlarda yuradigan dahshatli oq kitdan tortib, go'yo changaliga besh yuz tonnalik kemani olib, dengiz qa'riga g'arq qila oladigan afsonaviy sakkizoyoqlargacha paydo bo'la boshladi. Arxivlardan eski hujjatlar – Aristotel, Pliniylarning<sup>1</sup> bahaybat dengiz maxluqlari bo'lishi mumkinligi haqidagi qadimiy guvohnomalari, Norvegiya dengizchilarining hikoyalari, Paul Geggedning axborotlari va nihoyat rostgo'yligiga hech kim shubha qilmaydigan Xaringtonning 1857-yilda juda katta bahaybat dengiz ilonini ko'rgani to'g'risida aytganlari zudlik bilan qidirib topildi.

O'sha kezlarda olimlar jamoatchiligi orasida, ilmiy jurnallarda ishonuvchilar va ishonmovchilar o'rtasida tinimsiz tortishuvlar qizg'in tus olib ketdi. Bahaybat maxluq to'g'risidagi masala hamma-ning xayolini band qilib qo'ydi. Ana shu tortishuvlar vaqtida qanchadan qancha siyohlar daryo bo'lib oqdi.

Olti oy davomida bu kurash goh u, goh bu tomon fikrini ifodalab, davom etib turdi. Tuturiqsiz matbuot «Braziliya geografiya institutining axboroti»da, «Berlin Fanlar akademiyasining sol-

---

<sup>1</sup> *Aristotel* – qadimgi Gretsiyaning buyuk olim va mutafakkirlaridan biri (eramizgacha 384–322-yillar). *Kay Sekund Pliniy* – rimlik yozuvchi va olim (eramizgacha 23–79-yillar).

nomasi»da, Vashingtondagi Smit institutining jurnalida bosilgan maqolalarni, «Hind arxipelagi» va Petermanning «Axboroti» singari nufuzli jurnallardagi munozaralarni va Yevropadagi eng yaxshi jurnallarning ilmiy xronikalarini masxaralab chiqdi. Jurnalistlar Linneyning<sup>1</sup> maxluq mavjudligini inkor etuvchilardan biri keltirgan: «Tabiat ovsarlarni yaratmaydi» degan mashhur iborasini pesh qilib, «mast-alast dengizchilar tasavvuridagina yaratiladigan bahaybat narsalarni tabiat yaratdi», deb, unga til tekkizmaslikka zo‘r berib olimlarni ko‘ndirmoqchi bo‘lardilar. Nihoyat, ommalashgan satirik haftalikda maxluq eng taniqli yozuvchi qalami bilan shu qadar hajv qilindiki, ommaviy kulgidan so‘ng uning tarafdorlari chekinishga majbur bo‘ldilar. Shunday qilib, kuchli so‘z o‘yini fan ustidan g‘olib chiqdi.

1867-yilning dastlabki oylari davomida bahaybat maxluq masalasi qaytib qo‘zg‘almas qilib ko‘mib tashlanganday bo‘ldi. Ammo shu orada gazetonlarga yangi faktlar kelib yetdi. Endi gap qandaydir mavhum bir ilmiy muammoni hal etish ustida emas, balki juda jiddiy va tamomila real xavfga qarshi kurash ustida borar edi. Bahaybat maxluq yana orolcha, cho‘qqi, suvosti qoyasi deb, ammo qoya bo‘lganda ham harakatdagi, tutqich bermas, jumboqli qoya tarzida tilga oлина boshladi.

1867-yilning 25-martiga o‘tar kechasi Monreal okean kompaniyasiga qarashli «Moraviya» kemasini kenglikning 27-gradus 30-minutida va uzunlikning 72-gradus 15-minutida hech qanday xaritagacha tushmagan qoyaga urildi. «Moraviya» orqadan esayotgan shamol va to‘rt yuz quvvatli mashina

---

<sup>1</sup> *Linney Karl* (1707–1778) – shved naturalisti.

yordamida o'n uch uzul<sup>1</sup> tezlikda suzayotgan edi. Kema korpusi o'ta mustahkam bo'lmaganida, shunday katta tezlikda shiddat bilan kelib urilish kema uchun ham, undagi ikki yuz o'ttiz yetti yo'lovchi va komanda uchun ham halokatli tugashi turgan gap edi.

Bu to'qnashuv ertalab soat beshda sodir bo'ldi. Kun endi yorishayotgan edi. Qorovulda turgan ofitserlar bortga yugurib bordilar. Ular okean sathini sinchiklab ko'zdan kechirishdi. Biroq qudratli paroxod parragi zarbidan hosil bo'ladigani kabi uch kabelt<sup>2</sup> masofada ko'tarilayotgan kuchli to'lqindan bo'lak hech qanday shubhali narsa sezishmadi. «Moraviya» bu yerning aniq koordinatlarini belgilab olgach, yo'lida yana davom etdi. Bu to'qnashuvda kemanding tashqi tomoni shikastlanmagan edi, binobarin, «Moraviya»ning komanda sostavi kema suvosti qoyasiga urildimi yoki cho'kib qolgan biror kema-gami degan masala ustida rosa bosh qotirishdi.

Portga kelib quruq dokka chiqib olgach, «Moraviya»ning tag yog'ochi shikastlangani aniqlandi.

Uch haftadan keyin xuddi shu tarzda yana o'sha hol qaytarilmaganida, bu g'alati voqea ham avvalgilari singari oradan ko'p o'tmay unutilib ketgan bo'lur edi. Faqat bu gal shikastlangan kema mashhur kemachilik shirkatiga qarashli bo'lgani uchun bu voqea bir zumda hamma yoqqa yoyilib, butun dunyoda shov-shuvga sabab bo'ldi.

Kemalari Yevropa bilan Amerika orasida birinchi bo'lib qatnay boshlagan ingliz kemachisi Kyunardning nomi hammaga ma'lum bo'lsa kerak.

---

<sup>1</sup> Ya'ni soatiga o'n uch dengiz milyasi. Bir dengiz milyasi – 1852 m.

<sup>2</sup> *Kabelt* – uncha katta bo'lmagan masofalarni o'lchaydigan dengiz o'lchovi (taxminan 200 metr).

Kyunard kemachiligining yigirma yetti yillik faoliyatida uning kemalari Atlantika okeanini ikki ming martadan ko'proq kesib o'tgan shu vaqt ichida biror marta ham kech qolmagan, kema qatnovini biror marta bekor qilmagan, unga ishonib topshirilgan xat-xabarlardan birontasini yo'qotmagan edi. Kyunard kemachiligining obro'-e'tibori shu qadar zo'r ediki, u raqobatdan ham cho'chimasdi. Bu hodisa ana shu kompaniyaning eng yaxshi kemalaridan biri bilan sodir bo'lgani uchun ham zudlik bilan hamma yoqqa tarqaldi.

1867-yilning 13-aprelida dengiz sathi oynaday silliq va sira shamol yo'q edi. Shu kuni «Shotlandiya» g'arbiy uzunlikning 15-gradusi 12-minutida va shimoliy kenglikning 45-gradusi 37-minutida suzib borar edi. Ming quvvatli mashina kemani o'n uch-u yuzdan qirq uch uzel tezlikda olib ketayotgan edi. «Shotlandiya» parraklari soat tebratkichiday bir maromda aylanib, suvni yorib borardi.

Tushdan keyin choy ichib o'tirishgandi, «Shotlandiya» kemasi o'ng tomondagi parrakdan ancha narida bir narsaning xiyol urilishidan yengil tebranib oldi.

Bu zarb shu qadar kuchsiz bo'ldiki, tryumdan:

«Tryumga suv kirdi. Cho'kyapmiz!» – degan qichqiriqlar eshitilmaganda, bunga kema palubasidagilar e'tibor ham bermagan bo'lardilar.

Yo'lovchilarning sarosimaga tushishi tabiiy edi, albatta. Ammo kapitan Anderson ularni tinchlantirdi. Darhaqiqat, suv o'tkazmaydigan devorlar bilan yetti hujraga ajratilgan «Shotlandiya» kemasi uchun suv o'tkazadigan bitta teshik uncha xavfli emas edi.

Kapitan Anderson zudlik bilan tryumga tushib, beshinchi hujraga suv kirganini aniqladi. Suv oqimining tezligiga qaraganda kema durustgina te-



shilganga o'xshardi, yaxshiyamki, bu hujrada bug' qozonlari yoqilmas edi.

Kapitan Anderson mashinani to'xtatishga far-moyish berib, matroslardan biriga suvga tushishni buyurdi. Matros kema korpusida eni ikki metr kela-digan teshik borligini ma'lum qildi. Bunday teshik-ni dengizda turib tuzatish haqida so'z bo'lishi ham mumkin emas. Shuning uchun ham «Shotlandiya» parraklari suvga yarim botgan holda bir amallab yo'lida davom etdi.

O'sha paytda kema Klir burunidan uch yuz milya narida bo'lib, Liverpool portiga uch kun kechi-kib keldi. Bu hodisa butun Angliyani qattiq tash-vishga solib qo'ygan edi.

«Shotlandiya»ni quruq dokka olib chiqishib, kompaniya injenerlari uni ko'zdan kechirishdi. Ular o'z ko'zlariga ishongilari kelmasdi: kemaning qaye-rigacha suvga cho'kib turganini ko'rsatadigan chi-ziqdan ikki yarim metr pastda kema korpusi teng yonli uchburchak shaklida teshilgan edi. Kema teshilgan joyning atrofi atayin silliqlanganday tep-tekis. Aftidan, kema korpusini teshgan asbob juda mustahkam bo'lsa kerak.

Kemaning qalinligi to'rt santimetr keladigan te-mir qoplamasini teshgan asbob qanday qilib undan chiqdi ekan, buni sira tushunib bo'lmas edi...

«Shotlandiya» bilan sodir bo'lgan hodisa kishi-larning so'nayotgan qiziqishini qayta avj oldirib yubordi. Shu daqiqadan boshlab noma'lum sabab-lar bilan dengizda sodir bo'lgan butun halokatlar-ni bahaybat maxluqqa olib borib taqayveradigan bo'lishdi. Dengiz statistikasi bo'yicha har yili ha-lokatga uchraydigan uch ming kemadan kami-da ikki yuztasi «noma'lum yo'qolganlar» qatoriga qo'shilishini hisobga olganda, tabiiyki, afsonaviy

bahaybat maxluqning gunohi kun sayin og'irlashib boraverdi.

Adolatdanmi, yo'qmi, ko'ngilsizliklarning barchasi uchun javobgarlikni bahaybat maxluqqa yuklay boshlagan jahon jamoatchiligi qit'alararo xabarlarga ko'ra, u tobora ko'proq xavf tug'dirayotganidan tashvishlanib, dengizni qaysi yo'l bilan bo'lmasin bu dahshatli mavjudotdan xoli etishni talab etdi.

## *I k k i n c h i b o b*

### **TARAFDOR VA QARSHILAR**

Yuqorida qayd etilgan voqealar sodir bo'lib turgan kezlarda men Shimoliy Amerikaning Nebraska shtatining odamzod qadami yetmagan yerlarida kezib yurgan edim. Fransiya hukumati meni bu ilmiy ekspeditsiyaga naturalist hamda Parijdagi tabiiyot tarixi muzeyi qoshidagi adyunkt-professor sifatida yuborgan edi.

Nebraskada o'tkazilgan olti oy mobaynida juda qimmatli kolleksiyalar to'plab, 1867-yilning mart oyi oxirlarida Nyu-Yorkka qaytdim. Fransiya birinchi maylarda qaytishim kerak edi. Shuning uchun qolgan vaqt ichida o'zimning mineralogik hamda botanik va zoologik kolleksiyalarimni tartibga solmoqchi bo'ldim.

Men jamoatchilikni tashvishlantirayotgan bu voqealardan, albatta, xabardor edim. Axir butun gazeta va jurnallarning sahifalari dengizdagi bahaybat maxluq haqidagi xabarlar bilan to'lib-toshgan bir paytda boshqacha bo'lishi ham mumkinmidi? Bu jumboq menda ham qiziqish uyg'otdi.

Hodisalarni qanday sharhlashni bilmay, o'zimni har tomonga urardim. Bunda, albatta, bir sir bor:

har bir narsaga shubha bilan qaraydigan odam ham «Shotlandiya»ning teshilgan bortini ko'rgach, bunga ishonchi komil bo'ladi.

Butun Nyu-York hayajonda edi. Voqeadan uncha xabardor bo'lmagan kishilarning suzar orolcha, tutqich bermas suvosti qoyasi degan farazlari e'tibordan tushib qoldi. Chindan ham o'sha suzuvchi qoyaning qudratli mashinasi bo'lmasa qanday qilib bunaqa tezlik bilan harakat qilishiga aql bovar qilmasdi.

Bir vaqtlar cho'kkan ulkan kemalardan biri suv betiga chiqib qalqib yuribdi, degan taxmin ham qolib ketdi, chunki bunday kemalar katta tezlikda oqib yurolmas edi.

Shunday qilib, masalani hal etishning haqiqatga yaqin ikki yo'li qoldi: bahaybat maxluq, yo juda katta jonivor, yoki favqulodda kuchli dvigatelli suvosti kemasi.

Bu so'nggi, haqiqatga birmuncha yaqin taxmin ham har ikkala yarim sharda o'tkazilgan tekshirishlardan keyin puchga chiqdi.

Suvosti kemasi bir shaxsniki deb taxmin qilish mumkin emas, chunki uni qayerdadir baribir yasash kerak edi. Bunday ulkan kemani yasayotganda esa u odamlar e'tiborini jalb etmay sira iloji yo'q.

Shunday dahshatli vayron qiluvchi kuchga ega bo'lgan mexanizmni qurishga faqat biror davlatninggina qurbi yetar edi. Insoniyatga o'lim keltiruvchi qurollarning yangidan yangi turlarini ixtiro qilishga zo'r berilayotgan bizning ayanchli kunlarimizda biron davlatning boshqalardan yashirincha shunday jangovar kema qurib, uni amalda sinab ko'rgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas.

Ammo harbiy kema haqidagi faraz ham yo'q bo'ldi. Chunki barcha hukumatlar o'zlarining bu

ishga aloqalari yo'qligini ma'lum qildilar. Bahaybat maxluqning okeandagi xalqaro kemalar qatnoviga xavf solayotganidan bayonotlarning to'g'riligiga shubha qilmasa ham bo'lardi. Buning ustiga ma'lum bir shaxs ulkan suvosti kemasini maxfiy ravishda yasay olmagach, raqobatchi mamlakatlar har qadamini kuzatayotgan biror davlatning bunday ishni uddalay olishi to'g'risida gapirmasa ham bo'ladi.

Shunday qilib, Angliya, Fransiya, Rossiya, Germaniya, Italiya, Amerika va hatto Turkiyadan ham ma'lumotlar olingach, suvosti kemasi, degan taxmin o'z-o'zidan yo'q bo'ldi.

Tuturiqsiz matbuot kulgi ostiga olganiga qaramay, bahaybat maxluq yana suv yuzasiga qalqib chiqdi va hayajonlangan xayolot yana birin-ketin g'oyat afsonaviy farazlarni to'qiyverdi.

Nyu-Yorkda ko'pgina kishilar mendan hamma ni hayajonlantirayotgan shu masala yuzasidan o'z mulohazalarimni aytib berishimni so'rashdi. Fransiya ketishimdan biroz oldin «Okean tubining sirlari» nomli ikki tomlik kitobimni chiqargan edim. Ilmiy jamoatchilik tomonidan yaxshi kutib olingan bu kitob menga birmuncha kam o'rganilgan tabiiyot tarixi sohasida mutaxassis degan nom olish huquqini berdi.

Mendan o'z fikrimni aytishimni qat'iy iltimos qila boshlashdi. Turli bahonalar bilan men bundan bosh tortib yurdim. Ammo «Nyu-York axboroti»ning qaysar reportyorlari hol-jonimga qo'ymagach, gazetxonlarga okeandagi g'aroyib voqealar haqidagi mulohazalarimni aytib berish uchun va'da berishga majbur bo'ldim.

Mana, nihoyat 30-aprelda gazetada professor Pyer Aronaksning batafsil maqolasi chiqdi va unda bahaybat maxluq haqidagi masala har tomonlama

yoritilib, ma'lum bo'lgan barcha faktlar ilmiy nuqtayi nazardan baholandi.

Shu maqoladan parcha keltiraman:

«Shunday qilib, – deb yozdim men ilgari surilgan barcha taxminlarni birma-bir keltirib, – aqlga sig'adigan boshqa biror taxminga asoslana olmasligimiz tufayli, bahaybat maxluqni juda kuchli dengiz hayvoni deyishdan bo'lak ilojimiz yo'q.

Juda chuqurlikdagi okean hayoti bilan biz mutlaqo tanish emasmiz. Hech qanaqa burg'i hali u yerga yetgani yo'q. Bu tubsiz chuqurlikda nimalar bo'lyapti? U yerda qanday mavjudotlar yashayapti, dengiz sathidan o'n ikki-o'n besh ming metr chuqurlikda<sup>1</sup> qanaqa mavjudotlar yashay oladi? Bu mavjudotlarning tuzilishi qanaqa? Bu haqda hatto biror taxmin ham aytish qiyin.

Bu masalani ikki yo'l bilan yechish mumkin: yo yer yuzidagi barcha mavjudotlar bizga ma'lum, yoki ulardan faqat ayrimlari ma'lum.

Bordi-yu, planetamizda yashayotgan barcha mavjudotlarni bilmasak, tabiatning hali bizga noma'lum sirlari bo'lsa, unda baliq yoki dengiz sutemizuvchilarining juda chuqurlikda o'z qonun-qoidalari bilan yashayotgan va bizga ma'lum bo'lmagan turlari va nasllari borligini inkor etishga asosimiz yo'q. Bunday mavjudotlar okeanning tadqiqotchilar yeta olmaydigan quyi qatlamlarida yashashlari va biror noma'lum ta'sir ostida yoki hech qanday sababsiz vaqt-vaqti bilan suv sathiga suzib chiqishlari mumkin.

Aksincha, bordi-yu, tirik mavjudotlarning barcha turlari bizga ma'lum bo'lsa, unda biz o'rganayotgan bahaybat maxluqni turkumlarga ajratilgan

---

<sup>1</sup> Okeanning eng chuqur yeri 10000 metrdan ortiqroqdir (Tinch okeanda); 12000–15000 metr chuqurlik esa yo'q.

dengiz hayvonlari qatoriga qo'shmog'imiz kerak. Bunday taqdirda men juda ulkan narval<sup>1</sup> mavjud degan fikrni ilgari surardim.

Oddiy narvalning bo'yi ko'pincha o'ttiz futga yetadi. Ana shu uzunlikni beshga, o'nga ko'paytiring, uning kattaligiga qarab qoziq tishida qancha kuch bo'lishi mumkinligini chamalang va shunda sizni tashvishlantirayotgan jumboqqa javob olasiz. Bu hayvon «Xanaan» ofitserlari aytgan hajmga teng keladi, qoziq tishlari «Shotlandiya» korpusidagiday shaklda tesha oladi, uning paroxodni okean tubiga cho'ktirishga yetarli kuchi ham bo'ladi.

Chindan ham narvalning o'ziga xos qoziq tishi, yoki ayrim tabiatshunoslarning tili bilan aytganda, alebardasi bor. Bu alebarda po'latdek qattiq bo'ladi. Ana shunday alebardalarni narvallar bilan jangda ko'pincha mag'lubiyatga uchraydigan kitlarning tanasidan bir necha marta topib olishgan. Bir yonidan kirib, ikkinchi tomonidan teshib chiqqan ana shunday alebardalarni yog'och kemalarning korpusidan mashaqqat bilan sug'urib olishgan.

Parijdagi meditsina fakultetining muzeyida uzunligi ikki-yu chorak metr keladigan alebarda bor. Bu alebarda o'zak tomonining yo'g'onligi qirq sakkiz santimetr.

Shunday qilib, oddiylaridan o'n baravar katta va juda ulkan alebarda yoki qoziq tishli narvalni ko'z oldimizga keltiramiz, soatiga yigirma dengiz milyasi tezligida yura oladi, deb faraz etamiz, uning jismini tezligiga ko'paytiramiz, ana shunda u bilan to'qnashgan har qanaqa kemaning ham halokatga uchrashi sizni taajjublantirmaydi!

---

<sup>1</sup> Narval – kitsimon sutemizuvchi yakkashox dengiz hayvoni. Urg'ochi narvallarning chap jag'ining yuqori qismida katta qoziq tishi bo'ladi.

Pirovardida shuni aytmoqchiman: hozircha boshqa batafsilroq ma'lumotlar yo'q ekan, men bu bahaybat maxluqni oddiy alebardali emas, balki usti po'lat bilan qoplangan, kemaday mustahkam va kuch-quvvatda ham undan qolishmaydigan haqiqiy taranli narval deb hisoblayman!

Bu kamdan kam uchraydigan g'aroyib voqeani... agar u darhaqiqat chin bo'lsa, faqatgina shunday izohlash mumkin. Buning o'zi hali tadqiq etishga muhtojdir».

Ana shu so'nggi ibora qo'rqqulik orqasida yozilgan: men buni olimlik mavqeyimni saqlash va amerikaliklar oldida kulgi bo'lishga turtki bermaslik uchun yozdim. Shunday qilib, men bu bilan o'zimni oqlash chorasini topib qo'ygan bo'lsam ham, ammo bahaybat maxluqning mavjudligiga hech qanday shubham yo'q edi.

Mening maqolam keng tarqalib, katta shov-shuvlarga sabab bo'ldi. Hatto unga bir qancha tarafdorlar ham to'plandi. Jumboqni hal etmoq uchun unda keltirilgan dalillar tasavvur qilib ko'rishga katta imkoniyat berdi. Odamlar g'ayritabiiy narsalarni o'ylashni yaxshi ko'rishadi. Dengiz esa, darhaqiqat, juda ulkan mavjudotlarning o'sishi uchun sharoit yaratib bera oladigan birdan bir qulay muhitdir. Yerdagi fil va karkidon singari yirik mavjudotlar ular oldida arzimagan gap. Sutevizuvchilarning kit singari eng yirik namunasi ham dengizda yashaydi. Nega endi o'sha yerda bahaybat molluskalar, uzunligi yuz metr keladigan dahshatli qisqichbaqasimon omarlar yoki har birining vazni ikki yuz tonnagacha yetadigan qisqichbaqalar yashashi mumkin deb faraz qilmas ekanmiz. Oldingi geologiya davrlarida to'rt oyoqlilar, to'rt qo'llilar, qushlar va o'rimalovchilar juda ulkan bo'lganlar. O'n yillar,

yuz ming yillardan keyingina ular hozirgi hajmgacha kichrayganlar.

Yer qatlami doimiy o'zgarishda bo'lib tursa-yu, shu davr mobaynida dengiz tarkibi o'zgarishsiz qolsa, nega endi unda hayvonot olamining oldingi geologik davrlardan namunalar saqlanib qolmas ekan?! Nega endi dengiz o'z qa'rida umrlari yillar bilan emas, balki asrlar yoki ming yillar bilan o'lchanadigan ana shu dastlabki bahaybat mavjudotlarning so'nggi namunalarini saqlamagan bo'lsin?

Sirasini aytsam, shirin xayolga berilib ketdim. Lekin bu haqda boshqalarga nisbatan kamroq o'y-lardim.

Yana qaytaraman, bu ajoyib hodisaning tabiati to'g'risida boshqa bahs-munozara bo'lmadi. Jamiyat ertaklardagi dengiz ilonlariga sira aloqasi bo'lmagan qandaydir juda katta hayvonning borligiga ishondi.

Biroq ba'zilarga bu masala ilmiy nuqtayi nazardan qiziq bo'lib ko'rinsa, okean kemalarining xavfsizligidan manfaatdor inglizlar va amerikaliklar oldida dengizni bu xavfli maxluqdan tezda xoli etish uchun zarur choralar ko'rish masalasi turar edi.

Moliya va savdo masalalari bilan shug'ullanuvchi matbuot endi bahaybat maxluq bilan bog'liq bo'lgan masalaga faqat shu nuqtayi nazardan yondasha boshladi. «Dengiz sharhlovchisi», «Lloyd gazetasi», «Paketbot», «Dengiz savdosi gazetasi» kabi katta ziyon ko'rish xavfi tug'ilib turgan sug'urta jamiyatlarining mana shu barcha matbuot organlari bahaybat maxluqqa qarshi shafqatsiz urush e'lon qilishni yakdillik bilan talab eta boshladilar.

Jamoatchilik, birinchi navbatda shimoliy amerikaliklar fikri sug'urta jamiyatlari tomonida edi.



Nyu-Yorkda narvalni ovlash uchun ekspeditsiya tayyorlay boshladilar. Bu ekspeditsiya uchun tezyurar «Avraam Linkoln» harbiy kemasini shaylashga qaror qilindi.

Harbiy qurol-yarog'lar tayyorlanadigan barcha yerlarning eshiklari, qaysi yo'l bilan bo'lmasin, tezroq suzib ketishga harakat qilayotgan shu kema komandiri kapitan Faragut uchun keng ochib qo'yildi. Ammo shunday paytlarda odatdagiday, maxluqni qidirib borishga qaror qilingan zahoti aksiga olib, u ko'rinmay ketdi. Ikki oy davomida u haqda hech kim hech nima eshitmadi. Bironta kema uni uchratmadi. go'yo narval unga qarshi yurish boshlanishini sezganday edi. Atlantik okeani suvosti kabellari orqali shu qadar ko'p gapirildiki!.. Hazilkashlar mug'ambir narval juda ko'p telegrammalardan birini olib, shosha-pisha iniga kirib ketdi, deb kulishdilar.

Shunday qilib, harbiy kema safar hozirligini ko'rib, g'ayrioddiy ovga zarur anjomlar bilan jihozlanib bo'lganda, kapitan qayoqqa qarab yurishni bilolmay hayron edi.

Hammaning sabr kosasi to'lay deb turganda, San-fransisko va Shanxay oralig'ida qatnaydigan kema bundan qariyb uch hafta muqaddam maxluqni Tinch okeanning shimoliy qismida uchratgani haqida xabar tarqalib qoldi. Bu xabar juda katta taassurot qoldirdi. Kapitan Faragutga safarni loaqal bir kunga ham kechiktirishga ruxsat berishmadi. Oziq-ovqat kemaga ortilgan, tryumlar ko'mir bilan liq to'la, komanda sostavi shay. O'txonani yoqib, bug' hosil qilish-u, langarni ko'tarib jo'nab ketish qolgan edi, xolos.

Kapitan Faragut hatto yarim kungina kechikkan-da ham uni hech kim kechirmas edi. Sirasini aytganda, uning o'zi ham yo'lga oshiqardi.

«Avraam Linkoln» kemasining jo'nab ketishiga uch soat qolganida menga quyidagi mazmundagi maktubni topshirishdi:

*«Janob professor Aronaksga.*

*«Beshinchi avenyu» mehmonxonasi, Nyu-York.*

*Muhtaram janoblari!*

*Agar siz «Avraam Linkoln»dagi ekspeditsiyaga qo'shilishga rozi bo'lsangiz, Qo'shma Shtatlar hukumati Fransiya Siz orqali ushbu tashabbusga qo'shildi, deb mamnun bo'lur edi. Kapitan Faragut Sizga alohida kayuta ajratib beradi.*

*Sizga astoydil ixlosmand dengiz ministri D.B. Gobson».*

## **Uch inchi bob**

### **«XO'JAM SHUNI ISTASALAR»**

Dengiz ministrining xatini olishimdan uch sekund oldin men Shimoli-g'arbiy muzliklar<sup>1</sup> orqali o'tish to'g'risida qanchalik o'ylagan bo'lsam, narvalni qidirib borish haqida ham shunchalik bosh qotirayotgan edim. Xatni olganimdan keyin oradan uch sekund o'tgach, mening chinakam vazifam, hayotimning yagona maqsadi ana shu xavfli bahaybat maxluqni qidirib borish va insoniyatni undan xalos etish ekanligini tushunib yetdim.

Ayni vaqtda men endigina og'ir safardan qaytib, juda charchagan, dam olishim zarur edi. Vatanimga, yor-do'stlarim huzuriga, Botanika bog'i yonidagi kichkina uyimga, o'zimning qimmatli va bebafo kolleksiyalarimga qaytish orzusida edim. Biroq meni hech nima to'xtata olmadi. men hamma nar-

---

<sup>1</sup> Atlantik okeandan Tinch okeanga Amerika qit'asining shimoliy qirg'oqlari yonidan o'tadigan yo'l.

sani – charchoqni, yor-do‘stlarimni ham, kolleksiyalarimni ham unutdim va hech ikkilanmay Amerika hukumatining taklifini qabul etdim.

«Buning ustiga, – deb o‘yladim men, – hamma yo‘llar Yevropaga olib boradi, binobarin, narval ham meni Fransiya sohillariga yetaklasa ajab emas. Bu katta o‘lja Yevropa dengizlarida qo‘lga tushib qolsa bormi?! O‘shanda uning qoziq tishidan loaqal yarim metrini Parijdagi tabiiyot tarixi muzeyiga olib borardim!»

Ammo hozircha narvalni Tinch okeanning shimoliy qismida qidirishga to‘g‘ri keldi. Bu Fransiya-ga qaytish uchun butun dunyoni aylanib chiqishim kerak, degan gap.

– Konsel! – deya qichqirdim men sabrsizlik bilan.

Konsel mening xizmatkorim. U safar vaqtida hamisha menga hamroh. Bu flamandiyalikka ixlosim juda baland. O‘z navbatida u ham menga shunchalik ixlosmand. U tabiatan sovuqqon, beg‘amroq, xushfe‘l, og‘ir-vazmin, mo‘min-ma‘qul va tirishqoq; turmushda bo‘lib turadigan mayda-chuyda tasodiflarga ortiqcha e‘tibor berib o‘zini diqqat qilavermaydigan, hamma ish qo‘lidan keladigan, hamisha ishga tashna odam. Ismi jismiga monand emas<sup>1</sup>. Iltimos qilishganda ham hech kimga maslahat bermaydi.

Konsel mening kichkina uyimga kelib turadigan olimlar davrasida muttasil bo‘lganidan, talaygina narsalarni o‘rgandi, tabiiyot fani tasnifi sohasida mutaxassisga aylandi. Butun bo‘limlar, guruhlar, sinflar, sinfchalar, turkumlar, oilalar, nasllar, turlar va turchalar narvoniga akrobatlarcha chaqqonlik bilan chiqib tusha olardi. Biroq uning butun bilimi

---

<sup>1</sup> So‘z o‘yini. «Konsel» (consiel) – fransuzcha maslahat degani.

ana shuning o'zidagina iborat edi. Turlarga bo'lish nazariyasini yaxshi bilardi-yu, amaliy bilimdan juda uzoq edi. Nazarimda u tashqi ko'rinishdan kitni kashalotdan ajrata olmasdi.

Shunga qaramay u ajoyib odam!

O'n yil davomida Konsel butun ilmiy ekspeditsiyalarda men bilan birga bo'ldi. Men biron marta uning safar cho'zilib ketdi yoki charchadim deb noliganini eshitmasdim. Konsel istagan daqiqada, qaysi mamlakat bo'lmasin – Xitoymi yoki Kongomi surishtirmay, hech narsadan cho'chimay ketaverardi.

Uning salomatligi juda yaxshi. Bundaylar hech qanaqa kasallikdan qo'rqmaydilar. U mushaklari baquvvat, asablari metin bir odam edi.

Konsel o'ttiz yoshda edi. Uning yoshi xo'jayinning yoshiga o'n beshning yigirmaga nisbatiday gap. Qirq yoshimni shu qadar murakkab majoziy yo'l bilan bildirganim uchun uzr.

Konselning bir kamchiligi bor edi. U ashaddiy rasmiyatchi, men bilan doim uchinchi shaxsda gaplashardi. Shunday kezlarda ko'pincha yuragim toshib ketardi.

– Konsel! – yana chaqirdim va ayni vaqtda shosha-pisha safar hozirligini ko'ra boshladim.

Konselning menga haddan tashqari sodiqligiga imonim komil edi. Odatda men safarga chiqish oldidan hech qachon uning roziligini so'rab o'tirmasdim, ammo bu gal ekspeditsiyaning qancha cho'zilishi ham ma'lum emas, buning ustiga bu ish xavfli edi. Kemani pista po'chog'iday to'ntarib tashlashga qurbi yetadigan maxluqning izidan borish hazilakam gap emas! Dunyodagi eng og'ir-vazmin odam ham bir o'ylab ko'rardi. Ammo Konsel nima derkin?

– Konsel! – uchinchi marta chaqirdim men.

Konsel kirib keldi.

– Xo‘jam meni chaqirdilarmi? – so‘radi u kirgan zahoti.

– Ha, azizim. Safar jabdug‘ini hozirla. Ikki soatdan keyin jo‘naymiz.

– Xo‘jam shuni istasalar, tayyorman, – deb barmaylixotir javob berdi Konsel.

– Har bir daqiqa g‘animat. Butun kerakli narsalarni – ust-bosh, ko‘ylak, paypoqlarni chamadonga sol. Siqqanicha joyla, ammo mumkin qadar tezroq bo‘l!

– Xo‘jamning kolleksiyalari-chi? – luqma tashladi Konsel.

– Ularni keyinga qoldiramiz. Mehmonxonada turib tursin.

– Bug‘u-to‘ng‘izni-chi?

– O‘zlari boqishaveradi. Aytganday, butun hayvonotxonamizni Fransiyaga jo‘natishlarini aytishim kerak.

– Demak, biz Parijga bormayotgan ekanmiz-da? – deb so‘radi Konsel.

– Nima desam bo‘ladi, – deya mujmal javob qaytardim men, – biroz aylanma yo‘l bilan borishga to‘g‘ri kelyapti shekilli...

– Xo‘jam shuni istasalar, har qanday aylanma yo‘l bosh ustiga.

– Albatta bu hech gap emas! Faqat yo‘l biroz olisroq bo‘ladi... Biz «Avraam Linkoln»da jo‘naymiz.

– Xo‘jam shuni istasalar, – deya vazminlik bilan tasdiqladi Konsel.

– Bilasanmi, og‘ayni, gap bahaybat maxluq... o‘sha, mashhur narval ustida boryapti... Biz okeanlarni undan xoli etishimiz kerak!.. «Okean tubining sirlari» ikki tomligining avtori kapitan Faragut

bilan bo'ladigan safardan bosh torta olmaydi... Bu sharaflı vazifa, ammo shu bilan birga xatarlı ham! Narval bizni orqasidan qayoqqa ergashtirib bori-shi noma'lum... Bu maxluq juda injiq bo'lishi ham mumkin. Ammo nima bo'lsa ham biz boramiz! Kapitanimiz – zo'r odam.

– Xo'jam qayoqqa borsalar, men ham o'sha yoqqa boraveraman-da, – dedi Konsel.

– Yaxshilab o'ylab ol! Sendan hech narsani yashirmoqchi emasman. Bu – borsa qaytish qiyin bo'lgan safarlardan.

– Xo'jam shuni istasalar...

Oradan chorak soat o'tganda chamadonlar taxt qilib qo'yilgan edi. Konsel hech narsani unutmadi. Bu ajoyib odam ko'ylak va ust kiyimlarni ham qush va sut emizuvchilarni turlarga ajratgani kabi ko'ngildagiday joylaydi. Yo'lak mulozimi yukimizni mehmonxonaning chiqaverishiga olib borib qo'ydi. Men pastki qavatdagi hamisha odamlar bilan liq to'la idoraga tushdim va jonivorlar hamda quritilgan o'simliklar joylashtirilgan toylarni Parijga jo'natish lozimligini aytdim. Bug'u-to'ng'izga yetadigan miqdorda kredit ochdim va qarzlarimni to'lab, nihoyat aravaga sakrab chiqdim. Bu yerda Konsel o'tirar edi.

Ekipaj Brodvey bo'yidan Yunion xiyoboniga borib, so'ngra To'rtinchi avenyuga qayrildi va undan Katrinstritga yetib, nihoyat O'ttiz to'rtinchi qirg'oqda to'xtadi. U yerdan parom hammamizni – odamlarni, otlar va ekipajni Bruklin-ga, Gudzon daryosining chap qirg'og'ida joylashgan Nyu-York shahar chekkasiga olib o'tdi. Bir necha minutdan so'ng arava to'g'ri ikkita mo'risidan halqa-halqa qalin tutun chiqarayotgan «Avraam Linkoln»ining ko'chma ko'prikchasi oldiga kelib to'xtadi.

Yukimiz bir zumda kemaga ortildi. Men trapdan yugurib bora turib, kapitan Faragutni qayerdan topsa bo'ladi, deb so'radim. Matroslardan biri meni ko'prikkacha boshlab borib, ochiq chehrali novcha dengizchini ko'rsatdi. U menga qo'lini uzatdi.

– Janob Pyer Aronaksmi? – so'radi u.

– Xuddi shunday, – javob berdim men. – Kapitan Faragutmisiz?

– Shaxsan o'zlari. Xush kelibsiz, janob professor! Kayuta sizga muntazir.

Men ta'zim qildim va ketish oldidagi dolzarb daqiqalarda kapitanga xalaqit bermaslik uchun matrosdan ajratilgan kayutani ko'rsatishini so'radim.

«Avraam Linkoln» nazarda tutilgan ekspeditsiya uchun juda mos edi.

U tezlikni soatiga o'n sakkiz-u o'ndan uch mil-yagacha yetkaza oladigan, eng takomillashgan mashinalar bilan jihozlangan tezyurar kema edi. Sirasini aytganda, shu katta tezlik ham gigant narvalni quvishga yetarli emasdi.

Kemaning ichki jihozlari ham uning dengizda suzish sifatlaridan qolishmas edi. Menga ajratilgan kayuta kemaning quyruq tomonidagi ofitserlar bo'lmasida joylashgan bo'lib, u menga juda ma'qul edi.

– Bu yerda yaxshilab joylashib olishimiz mumkin, – dedim men Konselga.

– Xo'jamning ruxsatlari bilan aytmoqchiman-ki, bu yer makonidan ajralgan qisqichbaqa shil-liqqurtning chig'anog'iga joylashib olganday gap bo'lar ekan-da, – dedi mening olim xizmatkorim.

Men Konselni chamadondagi narsalarni chiqarib olish uchun kayutada qoldirib, o'zim jo'nashga tay-yorgarlikni ko'rish maqsadida kema sahniga chiq-dim.

Xuddi shu daqiqada Faragut «Avraam Lin-

koln»ni Bruklin qirg'og'ida saqlab turgan arqonni yechishga buyruq berdi. Chorak soat kechikkanimda «Avraam Linkoln» mensiz suzib ketib, favqulodda qiziq ekspeditsiyaga ishtirok etolmas edim. Sirasini aytganda, har bir narsaga ishonchsizlik bilan qaraydigan odamlar bu ekspeditsiyaning eng haqqoniy tafsilotiga ham ishonmasalar ajab emas.

Kapitan Faragut narvalga qarshi yurishni bir kun emas, hatto bir soat, loaqal bir daqiqaga ham kechiktirgisi yo'q edi.

U kema injenerini chaqirdi.

– Bug' bosimi yetarlimi? – so'radi u.

– Xuddi shunday, kapitan.

– Sekin yurilsin! – buyruq berdi kapitan.

Siqilgan havo harakatga keltirayotgan telegraf orqali bu buyruqni olgan mexanik kemani ishga tushiradigan richagni aylantirdi.

Bug' vishillab silindrlarga o'tdi va porshenlar eshkakni aylantiradigan vallarni harakatga keltirdi. Vintning yassi parraklari borgan sari tezroq aylana boshladi va «Avraam Linkoln»ni kuzatuvchilar bilan liq to'la yuzlab kema va shatakchi paroxodchalar hamrohligida salobat bilan suzib ketdi.

Bruklin qirg'oqlari tomoshaga kelganlar bilan to'lib ketgan edi. Minglab tomoqlarni qirib chiqqan uch marta «ura» sadosi momaqaldiroqning gumburlashiday yangradi. «Avraam Linkoln» Nyu-York joylashgan yarim orol chetidan Gudzon daryosi suviga kirib olguncha minglab dastro'mollar olomon boshi uzra havoda hilpirab, kemani tabriklab turdi.

«Avraam Linkoln» Gudzon daryosi oqimiga qarab pastga suzib, hashamatli uylar zanjirday tizilishgan Nyu-Jersey yoqalab borib, qo'rg'onlar yonidan o'tayotganida, ularning to'pdan o'q uzib berayotgan salutlariga javoban quyruq tomondagi



o'ttiz to'qqizta yulduz bilan bezatilgan bayrog'ini uch marta ko'tarib tushirdi. Shundan so'ng kema yurishini sekinlatib, dengiz kanalining kemalar yuradigan va bakenlar<sup>1</sup> bilan belgilab qo'yilgan loyqa farvateriga kirib, yana minglab tomoshabinlar tabriklayotgan qumloq Sendi-Gukni ortda qoldirib, ochiq dengizga chiqib oldi.

Turnaqator bo'lib kelayotgan kemachi va shatakchilar «Avraam Linkoln»ni chiroqlari Nyu-York portiga kiraverishni yog'du bilan ko'rsatib turgan suzgich mayaklargacha kuzatib kelishdi.

Kunduz soat uch edi. Lotsman narvonchani tashladi, eshkakli qayiq uni tezda kemaga yetkazdi va «Avraam Linkoln» tezligini oshirib, Long-Aylend sohillari bo'ylab suzib ketdi.

Kechqurun soat sakkizlarda Fayr-Aylend chiroqlari ko'rinmay qoldi va kema shitob bilan Atlantik okeanning qoramtir suvi bo'ylab ilgarilab ketdi.

## ***T o ' r t i n c h i b o b***

### **NED LEND**

Kapitan Faragut yaxshi dengizchi, o'zi komandirlik qilayotgan ajoyib kemaga munosib kishi edi. Kema bilan u go'yo bir butun yaxlit tana-yu, kapitan miya vazifasini bajarardi. U narvalning mavjudligiga sira shubhalanmas, binobarin, o'zi bor joyda bu boradagi bahsga mutlaqo yo'l qo'ymas edi. Bahaybat mavluq mavjud va kapitan dengizni undan xoli etadi. U shunga qasam ichgan edi.

Yo kapitan Faragut narvalni o'ldiradi yoki nar-

---

<sup>1</sup> *Baken* – kemalar yuragidan suvlarda xavfli joylarni ko'rsatish uchun langarga bog'lab qo'yilgan suzgich.

val kapitan Faragutni o'ldiradi – boshqacha bo'lishi mumkin emas!

Kema ofitserlari o'z kapitanlarining ishonchiga qo'shilar edilar. Ofitserlarning yaqin orada bahaybat maxluq bilan uchrashish va uning yurish tezligi haqidagi bahslarini eshitib huzur qilardi kishi. Hatto odatda qorovullikda turishni majburiyat ostidagi zerikarli bir narsa, deb hisoblaydigan ofitserlar ham bu galgi reysda ortiqcha navbatchilik qilishga hamisha tayyor edilar.

Hali quyosh osmon gumbazida kunduzgi yo'lini davom ettirar, kemada to'da-to'da bo'lib turgan matroslar bahaybat maxluqni topish niyatida dengizni kuzatmoqda edilar. «Avraam Linkoln» esa hali Tinch okeandan uzoqda edi!

Kema ekipaji narvalni uchratish, uni garpunga<sup>1</sup> ilintirib, kemaga tortib chiqarish va burdalab tashlash ishtiyoqida yonar edi. Komandaning bir qismi butun ishdan bo'sh vaqtini dengiz sathiga diqqat bilan tikilib turish bilan o'tkazar edi. Shuni ham aytish kerakki, kapitan Faragutning o'zi buni ma'qullab, ikki ming dollar mukofot va'da qildi. Bu mukofot narvalni birinchi bo'lib ko'rish baxtiga muyassar bo'lgan yunga, matros, botsman yoki ofitserni kutar edi. Shunday bo'lgach, kema ekipaji qanchalik berilib dengizga tikilib turishini tasavvur qilish qiyin emas!

Menga kelganda, shuni aytishim kerakki, kema bortlarida kun bo'yi astoydil turishda boshqalardan sira qolishmasdim. Yolg'iz Konsel hammani qiziqtirayotgan masalaga befarq qarab, umum ishiga qo'shilmas edi.

Kapitan Faragut o'z kemasini juda ulkan kitlarni

---

<sup>1</sup> *Garpun* – uzun arqonga bog'lab dengiz hayvonlariga otiladigan nayza.

ovlash uchun zarur bo'lgan barcha asbob-uskunalar bilan jihozlagan edi. Bironta kit ovlovchi kema dengizga bunchalik jihozlanib chiqmagan bo'lsa kerak.

Bizda qo'l garpunidan tortib, maxsus to'pdan otiladigan arra tishli o'qqacha – hozirgi zamonning kit ovlaydigan barcha uskunalari bor edi. Kema tumshug'ida o'zining to'rt kilogrammli snaryadlarini o'n olti kilometr masofaga ota oladigan takomillashgan tezotar qurol turar edi.

Xullas, «Avraam Linkoln» komandasining o'lim keltiruvchi qurollari yetarli emas, deb nolishiga o'rin yo'q edi. Bular kamlik qilganday, kemada garpunchilar qirolu Ned Lendning o'zi ham bor edi!

Ned Lend asli kanadalik bo'lib, dunyodagi o'ta epchil kit ovlovchi, bu xatarli hunarda unga teng keladigani yo'q edi. U o'taketgan darajada sovuqqon, chaqqon, shijoatli va farosatli odam edi. Uning dahshatli garpunidan qutulib ketish uchun juda makkor kit, g'oyat mug'ambir kashalot bo'lishi kerak.

Ned Lendning yoshi qariyb qirqqa borib qolgan. Bo'yi salkam olti fut keladigan novcha, baquvvat, badjahl odam. U odamovi, tajang va sal narsaga tezda tutaqib ketardi.

Uning tashqi qiyofasi kishi diqqatini beixtiyor o'ziga jalb qilar, ayniqsa uzoqni aniq ko'ra oladigan ko'zlari yuziga allaqanday o'ziga xoslik baxsh etar edi.

Menimcha, kapitan Faragut mashhur kit ovlovchini ekspeditsiyada qatnashishga jalb etib, juda to'g'ri ish qilgan. Baquvvat qo'l va o'tkir ko'z kerak bo'lib qolsa, uning yolg'iz o'zi butun ekspeditsiyadan ko'ra ko'proq ish qiladi.

Ned Lendni kuchli teleskop, shu bilan birga

hamisha shay turgan o'qlog'liq to'p bilan tenglashtirish mumkin.

Kanadalik, ayni vaqtda, fransuz Ned qanchalik odamovi bo'lmasin, ammo shuni aytishim kerakki, u men bilan tez orada tanishib oldi. Ehtimol, u fransuz tilida gaplashish imkoniyati tug'ilganidan quvongandir. Kanadaning ayrim viloyatlarida Rable<sup>1</sup> vaqtlaridan saqlanib qolgan qadimiy fransuz shevasini men ham huzur qilib tinglar edim.

Ned Lend hali bu shahar Fransiyaga tobe bo'lgan qadim zamonlarda juda ko'p shijoatli dengizchilarni yetkazib bergan eski kvebeklar xonadoniga mansub edi.

Bizning Ned bilan bo'lgan suhbatlarimiz borgan sari jonlana boshladi. Men uning qutb dengizlaridagi sarguzashtlarini miriqib tinglar edim. uning ov va olishuvlar to'g'risidagi hikoyalari shu qadar sodda va shoirona ediki, ba'zan qutb mamlakatlari «iliada»sini ashula qilib aytayotgan allaqanday kanadalik Gomerni tinglayotganday tuyulardi menga.

Men bu jasur kishini hozir bilganimcha ta'riflayapman. Biz eski qadrdon do'stlarmiz va dahshatli sinov kunlarida tug'ilgan do'stligimiz mustahkam va buzilmasdir.

Bahaybat dengiz maxluqi borasida Ned Lending fikri qanday edi? E'tirof etishim kerakki, u narvalning mavjudligiga ishonmas edi va kema-da ko'pchilikning shu haqdagi farazlariga qo'shilmaydigan yagona kishi edi. Bir gal men shu mavzuda gap ochib, uning fikrini bilmoqchi edim, indamay qo'ya qoldi.

Yo'lga chiqqanimizga uch hafta bo'lganda, 30-iyulda, kemamiz Patagoniyadan o'ttiz milya maso-

---

<sup>1</sup> *Rable Fransua* (taxminan 1495–1553-yillar) – Uyg'onish davridagi eng yirik fransuz yozuvchisi.

fada Baya-Blank yaqinida borardi. Kozerog tropigidan oʻtdik va endi Magellan boʻgʻozi bizdan yetti yuz milyaga yetar-yetmas janubda edi. Yana sakkiz kundan keyin «Avraam Linkoln» Tinch okean suvlarida suza boshlaydi!

Men Ned Lend bilan yutda<sup>1</sup> oʻtirar edim. Biz tubiga inson koʻzi yetmagan sirli dengizga qarab, turli mavzularda gaplashib oʻtirar edik. Ittifoqo, sodir boʻlgan qulay bir fursatdan foydalanib, men ulkan narval haqida gapirib qaysi sharoitlarda ekspeditsiyamizning muvaffaqiyat qozonishi yoki muvaffaqiyatsizlikka uchrashi yuzasidan mulohazalarimni aytdim. Ammo Ned Lend churq etmay oʻtirganini koʻrib, uning oldiga masalani koʻndalang qoʻydim:

– Biz qidirib borayotgan bahaybat narvalning mavjudligiga qanday shubha qilishingiz mumkin? Ishonmasligingizga biror asos bormi?

Garpunchi bir lahza menga indamay qarab turdi. Savolimga javob berishdan oldin odaticha, fikrini bir joyga toʻplayotganday peshanasiga urib, koʻzini yumib olgandan keyingina bunday dedi:

– Balki bordir, janob Aronaks.

– Menga qarang, Ned, sizning kasbingiz garpunchilik. Oʻz davringizda yuzlab katta dengiz sutemizuvchilarini koʻrgansiz, binobarin, kitsimon katta bir mavjudotning boʻlishi mumkinligiga boshqalardan koʻra siz koʻproq ishonishingiz kerak-ku, axir!

– Xuddi shu masalada xato qilasiz, janob professor, – deb javob berdi Ned. – Hech narsadan xabarsiz odamga yer sharining ichki pardasida bahaybat hayvonlar bor deyilsa, ishonishi turgan gap. Ammo bu safsataga geolog sira ishonmaydi. Kit ovlovchi ham xuddi shunday. Men ozmuncha kit va nar-

---

<sup>1</sup> Yut – kemada yuqori palubaning quyruq qismi.

vallarning ketidan quvib o'ldirmadim. Ammo ular qanchalik katta va baquvvat bo'lmasin, na dumlari, na shoxlari bilan po'lat qoplangan paroxodni urib teshishga kuchlari yetmaydi.

– Ammo, Ned, narval tishi bilan paroxod bortini teshgan paytlari bo'lgan.

– Yog'ochdan yasalganlarni, professor, yog'och paroxodlarni! – e'tiroz bildirdi Ned. – Ha, yana shuni e'tirof etishim kerakki, men bunga unchalik ishonmayman. Shaxsan men bunaqasini ko'rmaganman. Binobarin, o'z ko'zim bilan ko'rmagunimcha kashalotlar, kitlar yoki narvallar halokat keltirishiga, «Shotlandiya» korpusidagiday teshik ochishiga ishonmayman.

– Menga qarang, Ned...

– Yo'q, professor, yo'q. Nima desangiz deng-u, ammo bu haqda gapirmang. Ehtimol, juda katta sakkizoyoq...

– Aslo mumkin emas, Ned! Sakkizoyoq chig'anoq bilan qoplangan, yumshoq tanli juda katta umurtqasiz jonivor. Uning bo'yi besh yuz fut bo'lganda ham sakkizoyoq umurtqasizligicha qoladi va binobarin, u «Shotlandiya» yoki «Avraam Linkoln» singari kemalar uchun mutlaqo xavfsizdir. Sakkizoyoqlar kemalar uchun xavfli degan mishmishlarga chek qo'yish payti keldi.

– Xullas, janob tabiatshunos, – dedi Ned kinoya bilan, – ulkan narvalning mavjudligiga imoningiz komil, shundaymi?

– Ha, Ned, bunga imonim komil va bu sira rad etib bo'lmaydigan bir necha faktlarga asoslangan. Mening ulkan kitsimon hayvonlar borligiga, ular kitlar, kashalotlar va delfinlar singari umurtqalilar turkumiga kirishiga hamda juda baquvvat tishlari, shoxlari yoki qoziq tishlari mavjudligiga shubham yo'q.

– Hmm! – deya g‘o‘ldiradi garpunchi ishonqiramay boshini qimirlatib.

– Shuni ham bilib qo‘ying, azizim, – deya davom etdim men, – agar shunday maxluq okean qa‘rida – suv sathidan bir necha milya pastda yashasa uning organizmi juda baquvvat bo‘lishi kerak.

– Nega endi? – so‘radi Ned.

– Chunki bunday chuqurlikda g‘oyat katta suv bosimiga bardosh berib turish uchun benihoya baquvvat bo‘lishi kerak.

– Rostdanmi? – dedi Ned ishonchsizlik bilan ko‘zini qisib.

– Ha, xuddi shunday. Buning isboti uchun sizga ba‘zi bir raqamlar keltiraman.

– O, bu raqamlar! – dedi cho‘zib Ned. – Raqamlar bilan istagan narsani isbotlasi bo‘ladi...

– Hamisha va istagan narsani emas, Ned. Mana quloq soling. Bir atmosfera bosimining balandligi o‘ttiz ikki futli bir suv ustuni bosimiga teng deb faraz qilaylik. Haqiqatda esa suv ustunining balandligi ancha past bo‘lishi ham mumkin, chunki dengiz suvi chuchuk suvga nisbatan zichroqdir. Shunday qilib, Ned, suvga sho‘ng‘iganingizda tanangiz dengiz sathidan necha o‘ttiz ikki futli suv ustuniga pastda bo‘lsa, har bir kvadrat santimetriga shuncha atmosfera bosim, ya‘ni shuncha kilogramm og‘irlik tushadi. Demak, uch yuz yigirma fut chuqurlikda bu bosim o‘n atmosferaga, uch ming ikki yuz fut chuqurlikda yuz atmosferaga va o‘ttiz ikki ming futda, ya‘ni taxminan ikki yarim milya chuqurlikda ming atmosferaga teng bo‘ladi. Boshqacha qilib aytganda, agar siz shu chuqurlikda bo‘lsangiz, tanangizning har bir kvadrat santimetrini ming kilogramm yoki bir tonna bosim bosib turadi. Ha, aytganday,

azizim, tanangiz necha kvadrat santimetrlikini bilasizmi?

– Bundan mutlaqo bexabarman.

– Salkam o‘n yetti ming.

– Shunchalik ko‘pmi?

– Aslida esa atmosfera bosimi har bir kvadrat santimetriga bir kilogrammdan ortiqroq kuch bilan ta’sir etadi. U holda tanangizdagi o‘n yetti ming kvadrat santimetrli umumiy sathga o‘n yetti ming besh yuz oltmish sakkiz kilogramm kuch bilan ta’sir etadi.

– Shuncha og‘irlik tushganini sezmaymanmi?

– Ha, siz buni sezmaysez. Bu katta og‘irlik sizni ezib qo‘ymasligining sababi shuki, ichingizdagi havo bu bosim bilan muvozanatlashadi. Shuning uchun siz hech narsani sezmaysez. Ammo suvga tushguday bo‘lsangiz bu muvozanat yo‘qoladi...

– Tushunyapman, – izohim qiziqtirayotganday so‘zimni bo‘ldi u. – Atrofimni suv o‘rab oladi, ammo tanamning ichiga kirmaydi!

– Ha, balli, Ned. Shunday qilib, o‘ttiz ikki fut chuqurlikda o‘n yetti ming besh yuz oltmish sakkiz kilogramm bosim ostida bo‘lasiz; uch yuz yigirma futda bosim o‘n baravar oshadi, ya’ni bir yuz yetmish besh ming olti yuz sakson kilogrammga teng bo‘ladi. Uch ming ikki yuz futda u yuz baravar oshadi va bir million yetti yuz ellik olti ming sakkiz yuz kilogrammga yetadi va nihoyat o‘ttiz ikki ming futda ming baravar ko‘payadi va siz o‘n yetti million besh yuz oltmish sakkiz ming kilogrammlik bosim orasida bo‘lasiz. Boshqacha qilib aytganda, birpasda pachog‘ingiz chiqib, ulkan gidravlik bolg‘a ostidan chiqqanday, yupqa yaproqqa aylanasiz.

– Yo tavba! – deya xitob qildi Ned.

– Shunday qilib, azizim, agar bunday chuqur-



likda uzunligi bir necha yuz metrli umurtqali hayvon yashay olsa, uning millionlab kvadrat santimetr tanasi juda ko'p milliard kilogramm bosimga bardosh bera olishi kerak. Ana endi bu hayvonlarning shunchalik katta bosimda yashashlari uchun mushaklari qanchalik baquvvat va organizmlari qanchalik chidamli bo'lishi kerakligini bir o'ylab ko'ring-a!

– Bundan chiqdi ularning tanasi zirhli kema singari sakkiz duymli qalin temir bilan qoplangan ekan-a, – dedi kanadalik.

– Juda to'g'ri, Ned. Ana endi suvda eng tez yurar poyezdlarimiz kabi tez harakat qila oladigan shunday hayvon kema bilan to'qnashganda qanchalik zarar yetkazishi mumkinligini tasavvur qilib ko'ring.

– Ha... rost-a... – deya bu hisoblardan dovdirab g'oldiradi kanadalik hanuz taslim bo'lgisi kelmay.

– Xo'sh, sizni ishontira oldimmi?

– Siz meni, janob professor, bir narsaga – agar shunday hayvonlar haqiqatan ham okean qa'rida yashasa, ular juda kuchli bo'lishlari kerakligiga ishontirdingiz.

– Oh, qanday qaysar odamsiz-a! Agar ular okean qa'rida bo'lmasa, «Shotlandiya» bilan bo'lgan voqeaga nima deysiz?

– Ehtimol... – dedi ishonqiramay Ned.

– Ha, gapira qoling!

– Ehtimol... bunday voqea bo'lmagandir! – to'ng'illadi kanadalik.

Biroq bu javob garpunchining qaysarligidan dalolat berardi, xolos. O'sha kuni men uni ishontirishga boshqa harakat qilmadim. «Shotlandiya» bilan shunday voqea bo'lgani aniq edi. Kema chinakamiga teshilgan edi. Hatto tuzatib olishga to'g'ri

keldi. O'ylaymanki, shunday maxluqning mavjudligiga bundan ortiq dalil axtarishning hojati bo'lmasa kerak. Bu teshik o'z-o'zidan paydo bo'lmagani ham aniq. Ikkinchi tomondan esa kemanding suv ostidagi tosh yoki qoyaga borib urilgani to'g'risida so'z bo'lishi ham mumkin emas. Modomiki, shunday ekan, dengiz hayvonining dahshatli tishi borligini tan olishdan bo'lak chora qolmaydi.

Shaxsan men yuqorida bayon etilgan fikrlarga asoslanib, bu hayvonni umurtqalilar turkumiga, sutemizuvchilar sinfi va kitsimonlar guruhiga mansub, deb bilaman. Oilasi masalasiga kelganda uni kitlar, kashalotlar va delfinlar oilasiga qo'shish lozim. Nihoyat, qaysi turdanligiga faqat kelajak javob berishi mumkin.

Bu masalani hal etmoq uchun noma'lum maxluqni yorib ko'rish kerak; yorish uchun esa avval uni tutish zarur; tutish uchun uni garpunlash lozim – bu Ned Lendga tegishli; garpunlash uchun uni ko'rish kerak – bu butun ekipajning ishi; ko'rish uchun uni uchratish kerak – mana bunisi endi tasodifga bog'liq.

## *B e s h i n c h i b o b*

### **KO'R-KO'RONA QUVISH**

«Avraam Linkoln» suza boshlagan dastlabki kunlarda hech qanday voqea ro'y bermadi. Faqat bir kuni Ned Lend hayratomuz san'atini namoyish qilishiga juda qulay fursat kelib qoldi. Garpunchi ana o'shanda unga bemalol ishonaverish mumkinligini amalda ko'rsatdi.

Falklend orollariga yaqinlashganda «Avraam Linkoln» Amerika kit ovlovchi kemasi «Monroe»ni

uchratdi. Uning komandasi narval haqida hech narsa eshitmagan edi. Ammo «Monroe»ning kapitani «Avraam Linkoln»da mashhur Ned Lend borligini eshitib, quvib kelinayotgan kitni ovlashda yordam berishini soʻradi. Ned Lendning qanday ishlashini koʻrishga ishtiyoqmand boʻlgan kapitan Faragut garpunchiga «Monroe»ga oʻtishga ruxsat berdi.

Kanadalikning omadi keldi. Bitta kit oʻrniga u ikkitasini garpunladi. Birinchisini yuragiga garpun sanchib, oʻsha zahotiyoq oʻldirdi, ikkinchisini esa bir necha minut taʼqibdan keyin saranjomladi.

Vaqtı soati kelib bahaybat maxluq Ned Lendning garpuniga duchor boʻlsa, undan tirik qutulishi amrimahol!

Kema juda katta tezlik bilan Amerikaning janubi sharqiy sohillari boʻylab suzar edi. 3-iyulda biz Magellan boʻgʻozining kiraverishidagi Dev buruniga yetib keldik.

Biroq kapitan Faragut bu ilon izi boʻgʻozni chetlab oʻtib, Gorn buruni tomon yoʻl oldi.

Ekipaj uning bu ishini yakdillik bilan maʼqulladi.

Darhaqiqat, narvalni bu tor boʻgʻozda uchratish ehtimoldan uzoq edi. Koʻp matroslar bahaybat maxluq «Magellan boʻgʻozidan oʻtishga semizlik qilib qoladi» degan fikrda edilar.

6-iyul kuni tushdan keyin soat uchga yaqin «Avraam Linkoln» Amerika qitʼasi tugaydigan joyda tashlandiq boʻlib qolgan va gollandiyalik dengizchilar oʻzlarining jonajon shaharlari sharafiga Gorn buruni deb atashgan oʻsha yolgʻiz orolcha, oʻsha qoyani aylanib oʻtdi. Kema shimoli gʻarb tomonga yoʻl oldi va uning vinti Tinch okean suvlarini koʻpirtira boshladi.

– Ko‘z-quloq bo‘lib tur! Ko‘z-quloq bo‘lib tur! – deyishardi «Avraam Linkoln» matroslari.

Ular chindan ham ko‘z-quloq bo‘lib turishar edi. Ikki ming dollar mukofotning daragini eshitib, qiziqib qolgan odamlar okean sathidan sira ko‘z uzmas edilar. Ko‘zlar va durbinlar kecha-yu kunduz bir sekund ham tinim bilmas edi.

Niktaloplarning – kechasi ham kunduzdagidek aniq ko‘ra bilish qobiliyatiga ega bo‘lgan kishilarning mukofotni olishga hamma qatori ko‘radiganlarga nisbatan ikki baravar ko‘proq imkoniyatlari bor edi.

Garchand mukofot meni qiziqtirmasa-da, kun bo‘yi dengizdan ko‘z uzmay, qarab turar edim. Sutkasiga uch-to‘rt soatgina uxlab, naridan beri ovqatlanib olib, qolgan vaqtimni qimir etmay palubada o‘tkazar edim.

Goh kemanding old tomonidagi panjaradan engashib, goh kema quyrug‘iga kelib, ko‘zim ilg‘agan joygacha eshkak vallaridan har tomonga sachrayotgan bir xildagi ko‘piklarga suqlanib boqar edim.

Ko‘pincha ufqda kitning qorasi ko‘zga chalinib qolar, shunday paytlarda butun ekipaj bilan birga men ham juda qattiq hayajonlanardim! Bunday kezlarda bir zumdayoq butun ekipaj kema sahniga yugurib chiqar edi. Hamma ham entika-entika ko‘zini katta ochib, kitning har bir harakatini diqqat bilan kuzatar edi. Men ham qarardim, ko‘z oldim xirailashguncha kuzatardim.

Bunday paytlarda tepsa tebranmas Konsel meniga bamaylixotir murojaat qilar edi:

– Xo‘jam, ko‘zlarini yirmay qarasalar yaxshiroq ko‘rardilar.

Biroq har gal ham hayajonimiz bekor ketar edi. «Avraam Linkoln» taxmin qilingan dushmanga ya-

qinlashib, uning oddiy kashalot yoki kitligini ko'rib, yana yo'lida davom etar, komanda esa gunohsiz jonivor boshiga la'natlar yog'dirar edi.

Havo hamisha yaxshi bo'lib turdi. Janubiy yarim sharda iyul shimoldagi yanvarga to'g'ri kelib, odatda bunday kezlarda ayni yog'ingarchilik bo'lishiga qaramay, safarimiz juda yaxshi sharoitda davom etdi. Dengiz sokin, atrof yaqqol ko'rinar edi.

Ned Lend o'sha ishonchsizligida qattiq turib olgan edi. Buni namoyish qilish uchun qorovullikdan bo'shagan soatlarda kit ko'rinmasa dengizga ataylab qaramas edi.

Shunisi alam qilar edi. Chunki uning g'oyat o'tkir ko'zlari ekspeditsiyaga juda katta foyda keltirishi mumkin edi-da.

Ammo qaysar kanadalik yigirma to'rt soatdan o'n olti soatini kayutada o'tkazishni ma'qul ko'rardi.

Men uning beparvoligini yuz marta yuziga soldim.

– Bekordan bekorga ko'zni toliqtirishning nima keragi bor, professor, – deb javob berar edi u menga. – Avvalo, hech qanaqa narvalning o'zi yo'q, bordi-yu, biror jonivor mavjud bo'lganda ham u bilan to'qnashuvga bizda qanday asos bor? Axir biz uni ko'r-ko'rona, tavakkal qilib quvyapmiz. Allaqanday kema, darhaqiqat, bu tutqich bermas hayvonni Tinch okeanda uchratdi ham deylik. Ammo shundan buyon oradan qariyb ikki oy o'tdi. O'sha narvalning xarakteriga qaraganda, u bir joyda uzoq muddat qaqqayib turishni yoqtirmaydi. Siz o'zingiz uni juda tez harakat qiladi, deb aytyapsiz. O'ylaymanki, hech narsani maqsadsiz yaratmagan tabiat, shamol tezligida, harakat qiladigan o'sha mavjudotni tabiatan juda vazmin qilib ham yarat-

magan bo'lsa kerak desam, fikrimga qo'shilarsiz. Binobarin, bordi-yu, bu hayvon mavjud bo'lganda ham, u bu yerdan ancha uzoqda!

Bu fikrni bir nima deb rad etish qiyin edi. Biz darhaqiqat ko'r-ko'rona suzar edik. Ammo boshqa nima ham qila olardik. Ned Lend – haq: bizning bahaybat maxluq bilan uchrashuvimizga deyarli umid yo'q edi. Shunga qaramay, ekspeditsiyaning baribir muvaffaqiyatli tugashiga hech kim shubhalanmasdi.

20-iyulda biz Kozerog tropigini uzunlikning 105-gradusida ikkinchi marta kesib o'tdik, o'sha oyning 27-sida uzunlikning 110-gradusida ekvator-dan o'tdik. O'sha kunning o'zidayoq, kema janubga, Tinch okeanning markaziy havzasi tomon yo'l oldi. Kapitan narvalni quruqliklar va orollardan uzoqda, suvi chuqur zonalarda qidirish kerak, degan qat'iy fikrda edi. Botsmanimizning fikricha, bahaybat maxluq «aftidan dengiz uni qanoatlantiradigan darajada chuqur bo'lmaganidan» bu yerlarga kelmagan.

Shunday qilib, kema Paumotu, Markiz, Sandvichev orollari yonidan o'tdi-da, Rak tropigini uzunlikning 132-gradusida kesib, Xitoy dengizi tomon yo'l oldi.

Mana, nihoyat biz bahaybat maxluq so'nggi marta uchragan joyga yetib keldik! Hammaning yuragi shu qadar tez gupullab urardiki, bu ahvolda yurak kasalligining kemada keng tarqalishi hech gap emas edi. Miyadan ketmaydigan bu fikrdan butun ekipaj vasvasaga tushib qolgan edi. Odamlar uxlashmas, ovqat ham yemas edilar, kuniga yigirma martadan ko'z aldanib qattiq hayajonlanish, lekin har gal kutilgan umid chipakka chiqqanda, ekipajdagilarning asablari buzilar, buning oqibati yaxshi bo'lmasligi aniq edi.

Darhaqiqat, tez orada buning ta'siri sezila boshladi. Har bir kuni yuz yilday tuyulgan uch oy davomida esa «Avraam Linkoln» Tinch okean shimoliy qismining hamma tomonini kezib chiqdi. Kema ko'zga chalingan kitlar ortidan quvar, galsdangalsga<sup>1</sup> burilar, to'satdan to'xtar, mashinani boshqarishni xatarda qoldiradigan darajada bug'ni goh oshirib, goh kamaytirib borardi. Yaponiya sohillaridan tortib Amerika qit'asigacha biron nuqtani ham e'tiboridan chetda qoldirmadi. Ammo bu juda katta masofada hech narsa, ha, hech narsa uchramadi, loaqal o'sha ulkan narvalgami yoki suvosti orolchasigami, halokatga uchragan kema sinig'igami, harakatlanuvchi suvosti qoyagami yoki boshqa biror baloga bo'lsa ham o'xshaydigan narsaga duch kelinmadi. Ha, hech narsaga!

Ola-g'ovur boshlandi. Umidsizlik ishonchsizlikka yo'l ochib berdi. Ekipajni og'ir bir his qiynay boshladi. Buning o'ndan uch qismi xijolat bo'lsa, o'ndan yettisi alam edi.

Har bir kishi bu bo'lmag'ur safsataga ishonib, ahmoq bo'lganidan uyalar edi. Ammo alam hissi uyalishdan battarroq qiynardi. Buning isboti uchun bir yil davomida asta-sekin yig'ilgan dalillar bir kuni o'rtaga to'kib solindi. Endi har bir kishi behuda sarflangan vaqtni qoplash yo'lini axtarardi.

Odamzodning aqliga xos o'zgaruvchanlik bilan kishilar o'zlarini har tomonga urib ko'rar edilar. Sayohatning eng qizg'in tarafdorlari uning ashaddiy dushmanlariga aylandilar. Ishonchsizlik to'l-qini butun kemani – tryumlardan tortib kayutkampaniyalargacha zabt etdi. Agar kapitan Faragut nimagadir o'jarlik bilan qattiq turib olmaganida,

---

<sup>1</sup> Gals – kemaning shamol yo'nalishiga tomon yurishi.

«Avraam Linkoln» o'sha zahoti tumshug'ini janub tomonga burib olgan bo'lur edi.

Biroq bu befoyda izlashlar to'xtovsiz davom etaverishi mumkin emas edi. «Avraam Linkoln»ga ta'na qilish o'rinsiz edi. Kema topshiriqni bajarish uchun nimaiki undan lozim bo'lsa, hammasini qildi. Amerika kema komandasi hech qachon shunchalik g'ayrat va shijoat ko'rsatmagandi. Ekspe-ditsiyaning muvaffaqiyatsizligi uchun deyarli unda ayb yo'q edi. Aftidan, qaytishdan bo'lak chora qolmaganga o'xshaydi...

Kapitan Faragutga kema ekipaji tomonidan tegishli bayonot berildi. U rad etdi.

Matroslar o'z noroziliklarini yashirmas edilar va kemada intizom bo'shshdi. Men kemada g'alayon bo'ldi, deyolmayman. Ammo kapitan Faragut uzoq davom etmagan qarshilikdan so'ng, o'z vaqtida Kolumb qilganiday ekipajdan uch kun sabr qilishni so'rashdan bo'lak iloji qolmadi. Agar shu uch kun mobaynida bahaybat maxluq topilmasa, rulni boshqaruvchi kishi shturvalni aylantiradi va «Avraam Linkoln» orqasiga qaytadi.

Bu va'da 2-noyabrda berilgan edi. Shundan keyin komanda kayfiyati bir zumda ko'tarilib ketdi. Odamlar yana diqqat bilan to'lqinlarga qaray boshladilar. Durbinlar va kuzatuv trubalari yana ishga tushdi. Bu bahaybat narvalga qilinayotgan so'nggi chaqiriq edi.

Shu zaylda ikki kun o'tdi. «Avraam Linkoln» sekin yurib borar edi. Mabodo narval yaqin orada bo'lsa, degan umidda komanda uni jalb etish uchun ming xil narsa o'ylardi.

Kema ortidan to'da-to'da bo'lib kelayotgan akulalarga parcha-parcha yog' tashlanar edi. Kemadagi eshkakli qayiqlar dengizning hamma tomonlarini,



suv sathining har bir kvadrat metrigacha sinchkovlik bilan ko'rib aylanishdi.

4-noyabrning kechki paytigacha ham sir sir-  
ligicha qolaverdi.

Keyingi kuni, 6-noyabr, peshindan keyin belgilangan muddat tugadi. Soat so'nggi bor bong urishi bilan kapitan Faragut bergan so'ziga binoan, kemani janubi sharqqa burishi va Tinch okeanning shimoliy qismidan chiqib ketishi kerak edi.

Shu paytda kema shimoliy kenglikning 31-gradus 15-minuti va sharqiy uzunlikning 136-gradus 42-minutida edi. Yaponiya biz turgan joydan salkam ikki yuz milya masofada edi. Kech kira boshladi. Soat sakkizga zang urdi. Quyuq bulutlar bir haftalik oyning ingichka o'rog'ini o'rab olishdi. Dengiz kemani bir maromda chayqab turar edi.

Shu daqiqada men shtirbortda<sup>1</sup> kema panjara-siga suyanib turardim. Konsel yonimda loqaydlik bilan oldinga tikilib turar edi. Reyga<sup>2</sup> chiqib olgan matroslar qorong'i cho'kishi bilan tobora kichrayib borayotgan ufqni ko'zdan kechirar edilar. Ofitserlar tungi durbinlarini okean sathiga qaratdilar. Ahyon-ahyonda oy nuri bulutlarni yorib chiqib, to'lqinlarga kumushrang jilo berar, biroq shu zahotiyoq bulutlar yog'duni o'z qa'riga olib, yana hamma yoqqa qorong'ilik cho'kar edi.

Men Konselga qaradim. Nazarimda shu davr ichida u ham birinchi marta umum hayajoni ta'siri ostida qolganday bo'lib ko'rindi.

– Ha, Konsel, – so'radim men, – ikki ming dollar ishlab olishning so'nggi imkoniyatlaridan foydalanib qolay deyapsanmi?

– Xo'jamning ruxsatlari bilan u kishiga shu narsani ma'lum qilmoqchimanki, men bu mukofotni

<sup>1</sup> Shtirbort – kemanding o'ng tomoni, chekkasi.

<sup>2</sup> Rey – kema machtasining ko'ndalang to'sini.

olishni xayolimga ham keltirganim yo‘q, – deya javob qaytardi Konsel, – Qo‘shma Shtatlar hukumati xuddi shuningdek yuz ming dollar mukofot va‘da qilganida ham davlati kamayib qolmas edi.

– To‘g‘ri aytasan, Konsel. U yog‘ini surishtir-sang, buning o‘zi bir bema‘nilik va men ham shu ekspeditsiyaga qo‘shilib, yengiltaklik qildim. Qancha vaqtlar bekor ketdi, asablar qanchalik buzildi! Bundan olti oy muqaddam Fransiyaga yetib olgan bo‘lur edik...

– Xo‘jamning kichkina uylariga, – gapimni ilib ketdi Konsel, – uning muzeyiga. Men kolleksiyamizning topilmalarini sinflarga ajratib o‘tirgan bo‘lardim, xo‘jam keltirgan bug‘u-to‘ng‘iz zoologiya bog‘idan o‘rin olib butun Parijning qiziquvchi kishilari diqqatini o‘ziga jalb etgan bo‘lar edi!

– Ha, xuddi shunday bo‘lar edi, Konsel. Mana endi butun bu ko‘rgiliklar yetmagandek yana bizdan kuladilar ham.

– Shubhasiz, – bamaylixotir tasdiqladi Konsel. – Imonim komilki, xo‘jamdan kuladilar. Bilmadim, bu yog‘i gapirib o‘tirishga arzirmikin...

– Gapir, gapiraver, Konsel.

– Menimcha xo‘jamning kulgi bo‘lishlariga o‘zlari sababchi bo‘ldilar.

– Rostdanmi?

– Odam shunchalik katta olim bo‘la turib, tavakkalchilik qilmasligi kerak...

Konsel o‘z maqtovini oxiriga yetkazgani ham yo‘q edi. Atrofdan hukm surayotgan sokinlikni buzib jarangdor ovoz eshitildi.

Bu Ned Lendning ovozi edi.

Kanadalik qichqirardi:

– Ho‘-o‘y! O‘sha narsa mana bu yerda, shamol esayotgan tomonda, qarshimizda!

## *Oltinchi bob*

### SHITOB BILAN

Bu xitobni eshitgan butun ekipaj – kapitan, ofitserlar, matroslar, yungalar, hatto injener va mexaniklar o‘z mashinalarini, o‘tyoqarlar o‘txonalarini tashlab garpunchi tomon yugurishdi.

Kapitan kemani to‘xtatishni buyurdi.

Kecha qop-qorong‘i edi. Kanadalikning ko‘zi o‘tkirligini bilsam ham, shu zulmatda qanday qilib va nimani ko‘rdi ekan, deb o‘zimga-o‘zim savol berardim.

Yuragim shu qadar qattiq tepa boshladiki, hatto yorilib ketishi ham hech gap emas edi.

Biroq Ned Lend yanglishmabdi. Ko‘p o‘tmay hammamiz u qo‘li bilan ko‘rsatayotgan narsani ko‘rdik.

«Avraam Linkoln»dan ikki kabelt uzoqlikda shtirbort tomondan dengiz ichidan yoritilganday edi. Bu oddiy fosfor yog‘dusi bo‘lishi mumkin emas. Bahaybat maxluq juda ko‘p kapitanlar o‘z hisobotlarida ko‘rsatganlariday suv ostida bir necha fut chuqurlikda turib yorqin, ayni vaqtda g‘alati bir yog‘du taratar edi. Bu yog‘duning allaqanday yorqin manbaya bo‘lishi kerak. Okeanning yoritilgan qismi – tuxum shaklida bo‘lib, uning markazida juda yorqin, chekkalariga qarab yorug‘lik kamaya borardi.

– Bu yorug‘lik taratuvchi organizmlar to‘dasidan boshqa narsa emas! – deya xitob qildi ofitserlardan biri.

– Yo‘q, siz yanglishyapsiz! – deb keskin e‘tiroz bildirdim men. Bular tunda yog‘du sochadigan yaltiroq qurtlar va salplar bo‘lsa, hecham shu qadar

yorqin nur tarata olmasdi. Bu yorug'likning, albat- ta qandaydir elektr manbaya bor... Aytganday, qa- rang... Qarang! Surilyapti!.. Bizga qarab kelyapti!

Kema sahnida turganlarning hammasi birdan qichqirib yubordi.

– Ji-im! – Kapitan Faragut buyurdi. – Rul chap- ga! Orqaga yurilsin!

Hamma o'z joyiga otildi.

Buyruq bir zumda bajarildi va «Avraam Linkoln» yarim aylana shaklida burildi.

– Rul o'ngga! Oldinga yurilsin! – buyurdi ka- pitan Faragut.

Vint yana ishlay boshladi va kema yorqin yog'du sochayotgan manbadan tez chekina boshladi.

Men yanglishdim: kema chekinmoqchi bo'ldi, ammo o'ta g'ayritabiiy maxluq undan ikki baravar tezroq yurib bosib kela boshladi.

Biz nafasimizni ichimizga yutib, churq etmay, qotib turardik. Bu qo'rquv emas, balki ajablanish belgisi edi. Hayvon hazillashganday bizni quvib yetdi. U o'n to'rt uzal tezlikda yurib, o'zining elektr nurlarini yorug'lik chiqaruvchi chang singari tara- tib, kemadan o'zib ketdi. So'ngra u uchib borayot- gan ekspress lokomotivi ortidan qoldiradigan halqa- halqa tutunga o'xshash yog'du taratib ikki yoki uch milya masofaga suzib ketdi. Biroq bahaybat max- luq go'yo hamla qilish uchun orqaga tisarilgan- dek to'satdan qorong'ilik ichidan chiqib, «Avraam Linkoln» tomon dahshatli tezlik bilan otildi. Xuddi o'shanday yigirma futlar chamasi narida to'satdan to'xtadi va... o'chdi. U suvga cho'kkani yo'q, u hol- da taralayotgan yog'du asta-sekin so'nardi; unga yorug'lik berayotgan manba kuchi birdan tugab qolganday to'satdan o'chdi.

Birpasdan keyin bahaybat maxluq yana paydo bo'ldi. Endi u «Avraam Linkoln»ni aylanib o'tdimi, ostidan o'tdimi, kemanding boshqa tomonidan chiqdi.

Har daqiqada biz uchun halokatli bo'lgan to'qnashuv yuz berishi mumkin edi.

Meni kemanding manyovrlari hayratga solardi. U bahaybat maxluq bilan jang boshlash o'rniga chap berar, undan qochar edi. Bahaybat maxluqni quvish uchun yuborilgan kema o'zi quvg'in holatiga tushib qoldi.

Men bu mulohazamni kapitan Faragutga aytdim. Uning odatdagi vazmin chehrasida hozir o'ta hayratlanish alomatlari ko'rinardi.

– Bilasizmi, professor, – deya javob qaytardi u menga, – men qanaqa ulkan yirtqich bilan to'qnashayotganimni bilmayman va binobarin, bu zulmatda o'z kemamni tavakkal qilib, xavf ostida qoldirmoqchi emasman. Bu noma'lum maxluqqa qanday hujum qilish kerak, qaysi yo'l bilan himoyaga o'tish kerak? Yaxshisi, tong otguncha sabr qilaylik, ana o'shanda o'rnimiz almashinadi.

– Kapitan, bu mavjudotning tabiati haliyam sizni shubhalantiryaptimi?

– Yo'q, professor. Bu juda ulkan narval bo'lsa kerak, ammo elektr narval.

– Ehtimol, – deya davom ettirdim men, – unga yaqinlashish gimnot<sup>1</sup> yoki suzar minaga yaqinlashishday xavfli.

– Bo'lishi mumkin, – fikrimga qo'shildi kapitan. – Agar u buning ustiga elektr bilan zaryadlangan bo'lsa, unda chindan ham dunyodagi eng xavfli hayvon bo'lishi kerak. Shuning uchun ham ehtiyot bo'lishga qaror qildim.

---

<sup>1</sup> Gimnot – elektr ugol (ilonbaliq).

Kema ekipaji tun bo'yi mijja qoqmadi. Hech kim kema sahnidan jilmadi. «Avraam Linkoln» tezlikda narvalga bas kelolmasligiga qanoat hosil qilgach, yurishini sekinlatdi.

Narval ham o'z navbatida kemaga taqlid qilib, to'lqinda sekin chayqalib turardi, aftidan, jang maydonini tashlab ketgisi yo'q edi.

Ammo negadir yarim kechada u g'oyib bo'ldi yoki aniqroq qilib aytganda – juda ulkan yaltiroq qurtga o'xshab o'chdi. Qochayotganmikin? Bunday bo'lishini orzu qilishdan ko'ra unga yo'l qo'ymaslik kerak edi. Ammo oradan bir soat o'tgach, kichkina teshikdan kuchli bosim bilan o'tayotgan suv tovu-shiga o'xshagan quloqni bitiruvchi ovoz eshitildi.

Kapitan Faragut, Ned Lend va men shu payt kema sahnida edik. Biz atrofimizni o'rab olgan tun zulmati qa'riga tikilganimizcha turardik.

– Ned Lend, – so'radi kapitan, – kitlarning ovoz chiqarishini ko'p eshitganmisiz?

– Ko'p eshitganman, kapitan, ammo hozirgacha bir ko'rinishi ikki ming dollar keltirgan kitni uchratmagan edim.

– Siz chindan ham mukofotga sazovor bo'ldingiz. Biroq ayting-chi, hozir eshitayotganingiz kitlarning burun kataklaridan chiqadigan ovozga o'xshaydimi?

– Ovozi o'xshaydi-yu, ammo haddan tashqari kuchli. Qarshimizda qandaydir kitsimon hayvon turganiga shubha yo'q va ruxsatingiz bilan, kapitan, ertaga ertalab uning qulog'iga aytadigan ikki og'iz so'zim bor, – deb qo'shib qo'ydi garpunchi.

– Agar u sizni eshitishni istasa, Ned, – deb luqma tashladim men, – ammo negadir bunga unchalik ishongim kelmayapti.

– Agar men unga garpunimning to‘rt baravar bo‘yicha keladigan masofada yaqinlasha olsam, – deya e‘tiroz bildirdi kanadalik, – kimligimni ko‘rsatib qo‘yaman.

– Gapingiz to‘g‘ri-yu, ammo buning uchun sizga eshkakli qayiq berishga to‘g‘ri kelar? – so‘radi kapitani.

– Albatta.

– Eshkakchilarning hayotini xavf ostida qoldirib-a?

– Ha, mening hayotimdek, – deya loqaydlik bilan javob qaytardi garpunchi.

Kechasi soat ikkiga yaqinlashganda elektr shu‘la shamol esayotgan tomonda, «Avraam Linkoln»dan besh milya narida yana paydo bo‘ldi. Oradagi shuncha masofa, shamol va dengiz shovqiniga qaramay maxluq dumini shaloplatayotgani va harsilab nafas olayotgani aniq eshilib turardi. Narval nafas olish uchun suv sathiga chiqqanida, uning o‘pkasiga havo shu qadar kuch bilan o‘tar ediki, ikki ming kuchli mashina silindrlariga bug‘ kiryapti, deb o‘ylardi kishi.

– Obbo! Butun boshli otliq askarlar polkining kuchiga teng keladigan kit, chakana kitlarga o‘xshamaydi.

Tun ehtiyot bo‘lib kutish va jangga hozirlik ko‘rish bilan o‘tdi. Kit ovlaydigan qurol-yarog‘lar kema yonlariga qator tizib qo‘yildi. Kapitanning ikkinchi o‘rinbosari bir milyaga garpun ota oladigan garpun to‘plari, eng katta maxluqlarni ham portlaydigan o‘q otib o‘ldiradigan kalta beshotar miltiqlarni shaylab qo‘yishni buyurdi. Ned Lend garpunini charxlab olganidan xursand edi.

Soat oltida tong otdi. Kun g‘ira-shira yorishi bilanoq narval atrofidagi elektr yog‘du yo‘qoldi.

Soat yettida kun chiqdi. Ammo eng yaxshi durbinlar ham yorib o'tolmaydigan qalin tuman atrofni ko'rishni mushkullashtirgan edi. Odamlar qanchalik ranjib, g'azablanganliklarini bir ko'z oldingizga keltiring.

Men bizanning<sup>1</sup> birinchi to'siniga chiqib oldim. Bir necha ofitserlar undan ham balandga ko'tarildilar.

Soat sakkizda tuman to'lqinlar ustidan suzib o'tdi va asta-sekin parcha-parcha bo'lib yuqoriga ko'tarila boshladi.

Avvalgiday to'satdan Ned Lendning ovozi eshilib qoldi.

– O'sha narsa – shamol esayotgan tomonda, kemaning quyruq tomonida! – deb qichqirdi garpunchi.

Hamma o'sha tomonga qaradi.

Darhaqiqat, kemadan bir yarim milya narida uzun qora tanasining taxminan bir metr chasi suvdan chiqib turar edi. Tez harakat qilayotganidan bo'lsa kerak, uning dum tomonida dengiz pishqirib to'lqinlanardi. Menga ma'lum bo'lgan birorta hayvon suvni shu qadar katta kuch bilan urmas edi. Orqasidan kattagina joyda ko'zni qamashtiradigan darajada oppoq ko'pik qoldirar edi.

Kema bahaybat maxluq tomon yurdi. Men ko'zimni uzmay va nafasimni ichimga yutib unga tikilib turardim. «Xanaan» va «Gelvitsiya» o'z reportlarida narvalning hajmini ancha kattalashtirib ko'rsatgan ekanlar. Men uning uzunligini bor-yo'g'i ikki yuz ellik fut chamaladim. Uning yo'g'onligini aytish qiyin edi, ammo har uchala tomonga ham mutanosibday taassurot qoldirdi menda.

---

<sup>1</sup> Bizan – kema ortidagi kichik machta.



Men maxluqni kuzatayotganimda uning burun kataklaridan ikki o'rim suv otilib, qirq metr balandlikka ko'tarildi. Bundan uning qanday qilib nafas olishi to'g'risida ma'lum tasavvurga ega bo'ldim.

Bu sirli mavjudot umurtqalilar to'dasi, sutemizuvchilar sinfi, bir qorinlilar sinfchasi, kitsimonlar guruhiga kiradi, degan xulosaga keldim. Oilasiga kelganda... bunisini hali men bilmas edim.

Kitsimonlar guruhi kitlar, kashalotlar va delfinlar oilasini o'z ichiga oladi. Narvallar ham shu so'nggisiga kiradi. Bu har bir oila yana ko'plab oilachalarga, oilachalar nasllarga, nasllar turlarga bo'linadi. Turlar, nasllar, oilachalar va oilalar – bular haqida hozircha mulohaza yuritishim qiyin, ammo Ned Lendning san'ati va kapitan Faragutning tajribaliligi tufayli yaqin orada bu ma'lumotlarni ham olishimga sira shubhalanmas edim.

Komanda boshliqning buyruqlarini sabrsizlik bilan kutar edi. Kapitan bahaybat maxluqni diqqat bilan ko'zdan kechirgach, kema injenerini chaqirishni buyurdi. U ham tezda yetib keldi.

– Bug'ga yaxshilab o't qalanganmi? – so'radi kapitan.

– Xuddi shunday, kapitan, – javob berdi injener.

– Yaxshi. O'txonaga yana ko'mir tashlang! Bu buyruq uch marta «ura» sadosi bilan qarshi olindi.

Jang soati keldi.

Bir necha minutdan keyin kemaning ikkala mo'risidan buruqsib qop-qora tutun ko'tarildi va kema asta zirillay boshladi.

«Avraam Linkoln»ning qudratli vinti kemani to'ppa-to'g'ri bahaybat maxluq tomon surib ketdi. Maxluq kemaning o'ziga yarim kabeltgina yaqinlashuviga yo'l qo'yib berdi. Shundan so'ng suvga

cho'kmay, bizning kemamiz bilan oldingi oraliqni saqlab, sekin orqaga suza boshladi.

Ta'qib chorakam bir soat davom etdi, ammo shu vaqt ichida «Avraam Linkoln» unga bir fut ham yaqinlasholmadi. Bu tezlik bilan maxluqni quvib yetib bo'lmashligi aniq edi.

Kapitan Faragut jahl bilan qalin soqolini tortqilar edi.

– Ned Lend! – qichqirdi u. Kanadalik unga yaqinlashdi.

– Qani, janob kit ovlovchi, – unga murojaat qildi kapitan, – sizga eshkakli qayiq kerakmi?

– Yo'q, – deb javob berdi garpunchi. – Bu dog'ulini o'zi qo'lga tushmaguncha olib bo'lmaydi.

– Xo'sh, nima qilish kerak?

– Iloji bo'lsa, bug' bosimini oshirish kerak. Ruxsatingiz bilan, men kema tumshug'iga o'rnashib olaman va biz unga yetarli darajada yaqinlashgan zahoti garpun tashlayman.

– Juda soz, Ned, – dedi kapitan va so'zlashuv trubasidan buyruq berdi:

– Bug'ni oshiring!

Ned Lend o'z o'rniga qarab ketdi. O'txonalarga yana ko'mir qalandi va vint minutiga qirq uch mar-ta aylana boshladi. Suvga tashlangan lag<sup>1</sup> kemaning soatiga o'n sakkiz yarim milya tezlikda suzayotganini ko'rsatdi.

Ammo la'nati maxluq ham soatiga o'n sakkiz yarim milya tezlikda suza boshladi.

Bir soat davomida kema shu tezlikda suzsa-da, lekin bu bilan u bir santimetr ham yutmadi. Bu Amerika flotining eng tezyurar kemasi uchun uyat edi.

---

<sup>1</sup> Lag – kemaning bosib o'tgan yo'lini yoki tezligini aniqlaydigan asbob.

Butun komanda qutura boshladi. G'azablangan matroslar bahaybat maxluqni so'kishardi. Biroq u bu gaplardan hazar qilganday churq etmas edi. Kapitan Faragut tortqilayotgan soqolini endi tishlay boshladi.

Injener yana ko'prikcha ustiga chaqirib kelindi.

– Bosimni so'nggi nuqtasigacha yetkazdingizmi? – so'radi kapitan.

– Ha, – javob berdi injener.

– Necha atmosferagacha?

– Olti yarimgacha.

– O'nga yetkazing!

Bu haqiqiy amerikacha buyruq edi. Missisipida raqobatchisini quvib o'tmoqchi bo'lgan biror kompaniya paroxodining kapitani ham bundan oshirib bir nima deya olmas edi.

– Konsel, – dedim men yonimda turgan ajoyib xizmatkorimga, – bu ahvolda osmoni falakka uchib ketishimizni bilasanmi?

– Xo'jam shuni istasalar, – javob berdi Konsel. To'g'risini aytsam, kapitanning bu haddan tashqari jasorati menga yoqdi.

O't qalovchilar o'txonaga yana ko'mir tashladilar. Ventilyatorlar o'txona havosini yangilab turar edi. Bug' bosimi oshdi. «Avraam Linkoln» oldinga otildi. Kema ustunlari pastigacha zirillab titrar va tutun quyuni tor mo'rilardan siqilib zo'rg'a chiqar edi.

Yana lag tashlandi.

– Qancha? – so'radi kapitan.

– O'n to'qqiz-u, o'ndan uch milya.

– Bosim yana ko'tarilsin!

Injener bo'ysunib, buyruqni bajardi. Monometr mili o'n atmosferani ko'rsatar edi. Aftidan, bahaybat maxluq ham «bug'ga o't qalaganga» o'xshardi.

Chunki sira kuchanmay endi u ham soatiga o'n to'qqiz-u, o'ndan uch milya tezlikda suzar edi...

Bu qanaqa quvish? Yo'q, men qanchalik haya-jonlanganimni so'z bilan ta'riflay olmayman.

Hayajondan a'zoyi badanim qaltirardi.

Ned Lend qo'lida garpuni bilan kema tumshug'ida turar edi. Maxluq bir necha marta kema-ning o'ziga yaqinlashishiga yo'l qo'yib berdi.

– Yetyapmiz! Yetyapmiz! – qichqirdi kanadalik.

Biroq garpun tashlash uchun endi qo'l uzatgan-da maxluq to'satdan undan soatiga kamida o'ttiz milya tezlikda uzoqlashdi. Bu kamlik qilganday eng so'nggi tezlikda ketayotganimizda, u bizni mas-xaralaganday atrofimizni gir aylanib chiqdi. Kema ekipaji bunga qattiq qichqiriq bilangina javob bera oldi, xolos.

Kun peshindan og'ganda ham biz bilan narval o'rtasidagi masofa ertalab soat sakkizdagiday edi. Shundan so'ng kapitan Faragut boshqa vositalarni ishga solishga qaror qildi.

– Hali shunaqami! – xitob qildi u. – Bu maxluq «Avraam Linkoln»dan ham tezroq suzadimi? May-li, qani ko'ramiz, konussimon bombadan ham o'zib ketarmikan. Botsman! To'pchi tumshuqdagi qurol oldiga kelsin!

Qurol bir zumda o'qlanib, mo'ljalga to'g'rilan-di. O'q uzildi, ammo u yarim milya narida turgan narvaldan bir necha fut balandlikdan o'tib ketdi.

– Boshqa abjirroq mo'ljalga oluvchi o'tsin, – deya qichqirdi kapitan. – Shu la'nati maxluqni ni-shonga olib urganga besh yuz dollar mukofot!

Oppoq soqolli keksa to'pchi – hozir ham uning osoyishta qarashi va sovuqqon yuzi xuddi kechagi-day ko'z oldimda turibdi – qurolga yaqinlashdi va

diqqat bilan mo'ljalga oldi. O'qning gumburlagan ovozi tinmasdanoq qattiq «ura» ovozi yangradi.

O'q mo'ljalga tekkan edi. U kutilgan natijani bermay, narvalning biqinidan sirg'anib o'tib, ancha yerga borib tushdi.

– Uh, jin ursin! – deya xitob qildi jahli chiqqan keksa to'pchi. – Nahotki, bu iblisning olti duymli zirhi bo'lsa?

– La'nati! – qichqirdi kapitan Faragut. Quvish davom etardi. Kapitan menga yaqinlashib:

– Men narvalni kema titilib ketguncha quvaman, – dedi. – Juda to'g'ri, – deb javob berdim men. – Shunday qilish kerak!

Narval ertami-kechmi, charchoq bilmas bug mashinasi bilan teng kelolmay charchaydi, deb umid qilish mumkin edi. Ammo soat ketidan soat o'tardi-yu, lekin unda charchoq alomatlari sezilmas edi.

«Avraam Linkoln» sharafiga shuni aytish kerakki, u quvishni qattiq turib davom ettirardi. Mening hisobimcha, kema o'sha mash'um kun, 6-noyabrda, kamida besh yuz milya suzdi. Ammo yana kech kirib, toshqin dengiz bir zumda qorong'i pardaga o'raldi.

Shu daqiqada men ekspeditsiyamiz tugadi, endi biz bu ajib hayvonni ko'rolmaymiz, deb o'ylagan edim.

Xato qilgan ekanman.

Kechqurun soat 10 dan 50 minut o'tganda kema-mizdan uch milya narida elektr yog'du yana paydo bo'ldi.

Narval qimirlamay turganday edi. Kun bo'yi charchab, endi to'liqida chayqalib uxlardi. Bundan foydalanib qolish kerak edi. Kapitan baxtini sinab ko'rmoqchi bo'ldi.

U tegishli buyruqlarni berdi. «Avraam Linkoln» hayvonni uygʻotib yubormaslik uchun sekin suzib bordi. Okeanda qattiq uxlab qolgan kitlarni koʻplab uchratish mumkin. Ned Lend xuddi ana shu uxlab yotgan vaqtlarida bir nechtasini garpunlagan.

Kanadalik yana kema tumshugʻidagi oʻz oʻrnini egalladi.

Kema osoyishtalik bilan hayvon tomon ikki ka-belt yaqinlashdi. Shundan soʻng mashina toʻxtatildi va kema oʻz oqimi bilangina ilgarilar edi.

Kemadagi hamma kishilar nafaslarini ichlariga yutib olgan edilar. Kema sahni suv quyganday jim-jit. Okean sathining tuxumsimon yoritilgan yeridan yuz qadamcha berida edik.

Men Ned Lendga qaradim. Shunda uning dahshatli qurolini qulochkashlab turganini koʻrdim.

Kema harakatsiz yotgan hayvonga yanada yaqinroq bordi. Biz bilan uning orasida yigirma qadamcha qolgan edi.

Birdan Ned Lendning qoʻli kuch bilan havoda yarim aylana hosil etdi-yu, garpun uchib ketdi. Men bir narsa xuddi temirga urilganday jaranglagan tovush eshitdim.

Elektr yogʻdu shu zahotiyuq oʻchdi va kattakatta ikkita suv ustuni toʻsatdan kema ustiga tushib, odamlarni va boshqa duch kelgan narsani uloqtirib tashladi.

Qars etgan dahshatli ovoz eshitildi. Panjarani ushlab qolishga ham ulgurolmay, kemadan uchib ketdim.

## *Y e t t i n c h i b o b*

### G'ALATI KIT

To'satdan yiqilib ketganimga qaramay, nima bo'lgani aniq esimda. Oldin suvga cho'ka boshladim.

Suzishni yaxshi bilganim uchun bu tasodifiy cho'kishdan esankirab qolmadim.

Okean sathiga suzib chiqib, birinchi navbatda kemani qidira boshladim. Men yo'q bo'lib qolganimni sezishdimikin? Kapitan Faragut meni qidirish uchun qayiq tushirdimikin? Omon qolishga umid qilsam bo'larmikin?

Qorong'i bo'lganiga qaramay, men sharq tomonda qandaydir qora bir narsani ko'rdim. Turli belgilarni ifodalovchi chiroqlariga ko'ra uzoqlashayotgan edi. Bu kema edi. Tamom bo'lganimni tushundim.

– Bu yoqqa, bu yoqqa! – deb qichqirdim men kemani quvib yetishga harakat qilib.

Ust-boshimni siqa boshladim. Ho'l kiyim badanimga yopishib, harakat qilishga yo'l bermas edi. Nafasim tiqilib, cho'ka boshladim...

– Yordam bering!

Bu mening so'nggi bor qichqirishim edi. Cho'kayotganimni sezib, jonholatda suvni shaloplata boshladim.

To'satdan kuchli bir qo'l yoqamdan ushladi-yu, bir siltab meni suv yuziga tortib chiqardi. Qulog'im ostida aytilgan mana bu so'zlarni eshitdim:

– Agar xo'jam yelkamga tayanishni lozim topsalar, ancha yengil suza oladilar. Men sadoqatli Konselning qo'lidan ushladim.

– Bu senmisan?! – xitob qildim men. – Senmisan?!

– Ha, bu men, – deb javob berdi Konsel. – Xo‘jamning xizmatlariga hamisha tayyorman.

– Demak, o‘sha silkinishda sen ham menga o‘xshab dengizga uchib ketgan ekansan-da?

– Yo‘q. Ammo janob professorning xizmatlarida bo‘lganim uchun, izlaridan borishni burchim deb bildim.

Bu ajoyib odam qilgan oliyjanobligini tabiiy bir hol deb tushunar edi!

– Kema-chi?

– Kema? – qayta so‘radi Konsel yelkasiga ag‘darilib. – Menimcha, xo‘jam uning yordamiga umidvor bog‘lamaganlari ma‘qul.

– Nega?

– Shuning uchunki, men o‘zimni suvga tashlayotganimda qorovulda turgan matros: «Vint bilan rul sindi!» deb qichqirdi.

– Sindi?

– Ha, narvalning tishi sindirdi. «Avraam Linkoln»ga yetgan shikast shuning o‘zi shekilli. Ammo baxtimizga qarshi, u o‘zini boshqarolmay qoldi.

– Demak, halok bo‘libmiz-da?

– Bo‘lishi mumkin, – bamaylixotir javob berdi Konsel. – Ammo bizning ixtiyorimizda bir necha soat bor, shu bir necha soat ichida esa ko‘p ish qilsa bo‘ladi.

Konselning vazminligi va sovuqqonligi meni ruhlantirib yubordi. Men jonliroq suza boshladim. Biroq kiyimlarim harakat qilishga hamon xalaqit berib, pastga tortar edi.

Konsel buni sezdi.

– Xo‘jam ruxsat bersalar, ust-boshlarini kesib yechardim.

Men uning suv sathida turishiga ko‘maklasha-



yotganimda pichoq bilan ust-boshimni yuqoridan pastga kesib, yechib tashladi. O'z navbatimda men ham Konselning ust-boshini xuddi shu yo'l bilan yechib tashladim. Shundan so'ng biz yana yonmayon suza boshladik.

Ammo shuning o'zi bilan mushkulimiz oson bo'la qolgani yo'q. Bizning yo'qolganimizni hech kim sezmay qolishi mumkin, bordi-yu, sezishganlarida ham baribir vint va rulsiz kema shamolga qarshi biz tomon kelolmaydi. Binobarin, faqat kapitani Faragut qayiq yuborishidan umidvor bo'lishimiz mumkin edi.

Biz shu qarorga kelgach, suv sathida mumkin qadar uzoqroq turishga qaror qildik. Har ikkalamiz baravar holdan toymaslik uchun birimiz chalqancha yotgancha qo'lni qovushtirib, dam olayotganda, ikkinchimiz itarib borishga qaror qildik. Har o'n minutda almashib turishimiz kerak edi. Shunday qilganimizda bir necha soat davomida quyosh chiqquncha suv sathida turishimiz mumkin edi.

Qutulishimizga umid kam! Ammo juda nochor holda qolgan paytlarda ham umid qilish insonga xos fazilat-ku, axir.

Kema narval bilan kechqurun soat o'n birlarga yaqin to'qnashdi. Modomiki shunday ekan, biz kun chiqqunga qadar qariyb sakkiz soat suv sathida turishimiz kerak. Bu uncha qiyin ish emas.

Dengiz sokin, to'lqinlanmas edi. Har zamonda zulmat ichida biron narsa ko'rinarmikan deb alanglardim, biroq atrof bo'm-bo'sh, faqat bizning harakatimizdan chayqalgan suvgina yaltirar edi.

Ammo kechasi soat birga yaqin juda qattiq charchadim. Qo'l va oyoqlarimning tomirlari qattiq tortisha boshladi.

Ikkimizni qutqarish tashvishi Konselninggi-

na zimmasiga tushib qoldi. Ko'p o'tmay u bechora hansirab, nafas olishi og'irlasha boshladi. Bu ahvolda uzoqqa borolmas edi.

– Meni o'z holimga qo'y! O'z holimga qo'y! – dedim unga.

– Xo'jamni tashlab-a? Hech qachon! – javob berdi mening sadoqatli xizmatkorim. – Bundan ko'ra o'zim tezroq cho'kkanim afzal.

Xuddi shu paytda sharqqa esayotgan shamol qora bulutning bir chekkasini ochdi, oy mo'raladi. Okeanning sathi uning nurlari bilan birdan yorishib ketdi. Bu sharofatli nur menga qayta kuch bag'ishladi. Men boshimni ko'tarib, ufqni ko'zdan kechirdim.

Kemamizni ko'rdim – u bizdan besh milya narida edi. Bu masofadan u kichik nuqtaday bo'lib ko'rinar edi. Bitta ham qayiq ko'zga chalinmas edi.

Men yordamga chaqirib qichqirmoqchi edim, ammo shishib ketgan lablarimdan ovoz chiqmas edi.

Konsel qichqirdi:

– Yordam beringlar! Yordam beringlar!

Biroz vaqt quloq solib turdik. Bu nima, boshga qon quyilib kelayotganidan quloqda paydo bo'lgan shovqinmi yoki chindan ham bizga kimdir javob berdimi?

– Sen eshitdingmi? – shivirlab so'radim men.

– Ha, ha! Konsel bo'shliqqa qarab umid bilan qichqirdi. Endi hech qanday shubha qolmadi. Konselning qichqirig'iga kimdir javob qaytardi.

Bu ham bepoyon okeanda yo'qolgan bizga o'xshagan allaqaysi baxtiqaroning, kemaga urilgan zarbning yana bir qurbonining ovozimikin? Yoki qorong'ida ko'rinayotgan qayiqdan bizni chaqirishdimikin?

Konsel zo‘r berib tayangani holda beligacha suvdan ko‘tarildi: biroq shu zahoti darmonsizlanib chalqanchasiga suvga yiqildi.

– Nimani ko‘rding?

– Men... men... – deya shivirladi u, – ... keling, yaxshisi gapirmay, kuchimizni saqlaylik...

U nimani ko‘rdiykin? Negadir shu daqiqada xayolinga bahaybat maxluq haqidagi fikr kelib qoldi...

Shu yerda Konsel meni ilgariga itarib borardi. Har zamonda u boshini ko‘tarib, kimnidir chaqirar edi. Unga o‘sha zahoti allakimning ovozi javob qaytarar edi.

Ammo men uncha yaxshi eshitolmay qoldim. Tamoman holsizlandim; panjalarim beixtiyor changak bo‘lib siqildi, kaftlarim endi menga tayanch bo‘lolmay qoldi; zo‘rg‘a og‘zimni ochdim, u sho‘r suvga to‘ldi; sovuq suyak-suyagimdan o‘tib ketgandi. Men hayot bilan vidolashmoq uchun boshimni so‘nggi bor ko‘tardim...

Shu paytda men allaqanday qattiq narsaga kelib urildim. Unga yopishib oldim. So‘ng meni kimdir suvdan tortayotganini, erkin nafas olayotganimni sezdim va... o‘zimdanda ketdim.

Aftidan, tez-tez ishqalashlari tufayli ko‘p o‘tmay o‘zimga keldim.

Ko‘zimni yarim ochdim.

– Konsel! – deya shivirladim.

– Xo‘jam meni chaqirdilarmi? – o‘sha zahoti javob berdi sadoqatli xizmatkorim.

Shu paytda ufqqa yonboshlayotgan oynning so‘nggi nurlarida men boshqa bir tanish qiyofani ko‘rdim.

– Ned Lend! – xitob qildim men.

– Xuddi o‘zi, janob professor. Ko‘rib turganingizday mukofot ketidan quvib yuribman, – javob berdi kanadalik.

– Sizni ham o‘sha zarb dengizga itg‘itdimi?

– Ha, janob professor, faqat mening omadim keldi. Men deyarli o‘sha zahoti suzar orolchaga chiqib oldim.

– Orolchaga?

– Ha. Yoki aniqroq qilib aytganda, o‘sha ulkan narvalingizning ustiga.

– Tushuntiribroq gapirsangiz-chi, Ned!

– Ana shundagina men, – deya so‘zini davom ettirdi kanadalik, – garpunim nega uning terisiga kirmay, ustidan sirg‘alib ketganining sababini tushundim.

– Nega ekan, Ned, nega?

– Shuning uchunki, janob professor, bu maxluqning ustiga po‘lat zirh qoplangan! Kanadalikning so‘zlari mening fikrlarimni ostin-ustun qilib tashladi.

Men apil-tapil o‘rnimdan turib, suvga yarim botib turgan – biz panoh topgan mavjudot yoki narsaning yelkasida qaddimni rostdim.

Tepib ko‘rgach, uning yelkasi yirik sutemizuvchilarning tanasiday qayishqoq emas, balki o‘zidan suv o‘tkazmaydigan, ham qattiq ekanligiga ishonch hosil qildim.

Almisoqdan qolgan hayvonnikiga o‘xshagan bosh suyakda turmaganmikinmiz, degan xayolga ham bordim. Unda bahaybat maxluqni toshbaqa yoki timsohlar singari sudraluvchilar turkumiga qo‘shishim kerak edi.

Ammo bunday qarorga kelish ham qiyin. Negaki men ustida turganim qora yelka tanga bilan qoplangan bo‘lmay, juda silliq va pardozlangan edi. Urganda u temirdan chiqadiganday sado berar va po‘lat taxtalardan parchinlanganday edi.

Hech shubha yo‘qki, siri butun fan olamini haya-

jonlantirgan va har ikkala yarim shar dengizchilarini hayratga solgan hayvon, bahaybat maxluq hech uchramagan afsonaviy tirik mavjudot bo'lmay, tasodifni qarangki, kutilganidan ham hayratliroq narsa, inson iste'dodining mahsuli bo'lib chiqdi.

Bordi-yu, men aqlga sig'maydigan bir hayvon borligini aniqlaganimda ham bu qadar hayratga tushmagan va hayajonlanmagan bo'lur edim. Tabiat mo'jizalar yaratishiga taajjublanmasa ham bo'ladi. Ammo inson qo'li bilan yaratilgan mo'jizaga o'xshagan va g'ayritabiiy narsani ko'rganda aqldan ozib qolish hech gap emas.

Buning ustiga shubhaga hech o'rin yo'q edi. Bilihimcha, po'lat baliq shaklidagi g'alati suvosti kemasining ustida edik. Ned Lendning bu haqdagi fikri to'g'riligi qat'iy aniqlandi. Konsel bilan men uning fikriga qo'shilishdan bo'lak choramiz qolmagan edi.

– Ammo bu kema bo'lsa, – dedim men, – unda uning dvigateli va boshqa har xil mexanizmlari, shuningdek, ularni boshqaradigan odamlari ham bo'lishi kerak-ku?

– Albatta bo'lishi kerak, – deb javob berdi garpunchi, – garchi men bu suzar orolda uch soat mobaynida turib hech qanday hayot belgisini sezmaganim bo'lsam ham.

– O'rnidan qo'zg'algani yo'qmi?

– Yo'q, professor. U to'liqida chayqalib turdi, lekin o'rnidan jilgani yo'q.

– Ammo biz uning juda katta tezlikda suza olishini yaxshi bilamiz-ku. Shunday tezlikda suza olish uchun esa uning ishini boshqaradigan mashina va odamlar kerak-ku, binobarin, men o'zimizni qutqarilgan deb hisoblayman...

– Hmm! – deya g'o'dirladi ishonchsizlik bilan Ned Lend.

Shu payt mening soʻzlarimni tasdiqlaganday, gʻalati kemanding quyruq tomonidan shovullagan tovush eshitildi-yu, u oʻrnidan qoʻzgʻaldi. Aftidan, u yassi parraklarining aylanishi bilan harakatlanadiganga oʻxshaydi. Biz tumshuqdagi uncha katta boʻlmagan doʻngakni zoʻrgʻa ushlab ulgurdik. Baxtimizga kema sekin suzar edi.

– Hozircha u suv sathida suzyapti, – deb toʻngʻilladi Ned Lend, – bir narsa deyishga oʻrin yoʻq. Ammo suvostiga shoʻngʻishni oʻylab qolsa bormi, unda meni birov ikki dollarga olsa ham qimmat derdim.

Kanadalik oʻzini undan ham kamroq baholashi mumkin edi. Aftidan, bu suzar apparatning ichidagi odamlar bilan, kimligidan qatʻi nazar, zudlik bilan aloqa bogʻlashimiz zarurga oʻxshardi.

Men uning ustida biror tuynuk yoki teshik bormikin, deb qidira boshladim. Ammo poʻlat qoplamaning jipslangan chetlaridagi parchinlari hamma yerda bir xil edi.

Oy botdi va biz mutlaqo qorongʻida qoldik. Bu suvosti kemasiga kirish chorasini izlash uchun tong otguncha sabr qilish kerak edi.

Shunday qilib, hammamizning hayotimiz kema rulini boshqarayotgan nomaʼlum kishilar harakatiga bogʻliq boʻlib qoldi. Bordi-yu, ular suvostiga tushmoqchi boʻlib qolishsa bormi, unda biz tamom. Agar shu hol roʻy bermasa suvosti kemasining ekipaji bilan aloqa bogʻlay olishimizga imonim komil edi. Darhaqiqat, bordi-yu, ular kislorodni oʻzlari ishlab chiqarmayotgan boʻlishsa, unda havo zaxirasini toʻlatish uchun vaqti-vaqti bilan okean sathiga chiqib turishlari kerak. Modomiki shunday ekan, kema ichiga havo kirishi uchun qandaydir biror teshik boʻlishi kerak.

Kema o'rtacha tezlik bilan g'arb tomonga suzardi. Uning tezligi soatiga o'n ikki milyadan oshmas edi. Vint parraklari suvda aylanib, har zamon-da oppoq tomchilarni favvora qilib havoga otardi.

Tongotarda soat to'rtga yaqin kema tezligini oshirdi. Bizning kema ustida turishimiz qiyinlashib qoldi. Baxtimizga Ned paypaslab, qoplamaga mahkamlangan kattagina halqani topib oldi. Hammamiz shuni ushlab oldik.

Nihoyat bu uzundan uzoq tun o'tdi. Men chekkan azoblarimning hammasini hozir eslay olmayman, ammo bir narsa xotiramda mustahkam o'rnatib qolgan: ahyon-ahyonda shamol shovqini va to'lqinning shovullagani tingan paytlarda nazarimda allaqanday muzika ovozi, uzuq-yuluq akkordlar, kuy sadolari qulog'imga chalinganday tuyulardi.

Bu suvosti kemasining qanday siri bor ekan?

Unda qanday mavjudotlar yasharkin? Qanaqa dvigatel uning bu qadar tezlik bilan suzishini ta'minlayotgan ekan?..

Tong yorishdi... Bizni ertalabki tuman qurshab oldi. Ammo u ko'p o'tmay tarqalib ketdi.

Suvosti kemasining suvdan chiqib turgan qismini endigina sinchiklab ko'zdan kechirmoqchi bo'lib turganimda u to'satdan sekin suvga cho'ka boshladi.

– Ho', iblislar! – qichqirdi Ned Lend jarangdor temirni kuchining boricha oyoqlari bilan do'pirlatib. – Bizni ichkariga kiritsanglar-chi!..

Ammo uning tovushi vintning quloqni kar qiladigan ovozigacha qo'shib, yo'q bo'lib ketdi. Baxtimizga kema cho'kishdan to'xtadi.

Birdan kema ichidan surib qo'yilayotgan tambaning ovozi eshitildi. Lyuk qopqog'i ochilib, undan

birov qaradi. U bir nima deb qichqirdi-yu, o'sha zahoti g'oyib bo'ldi. Bir necha minutdan so'ng lyukdan sakkizta baquvvat azamat kishi chiqdi. Ular indamay bizni sirli kema ichiga sudrab kirishdi.

## **S a k k i z i n c h i b o b**

### **«HARAKATCHAN HARAKATCHANLIKDA»**

Bu ish shu qadar tez bajarildiki, men ham, o'rtoqlarim ham hatto og'iz ochishgayam ulgurolmay qoldik. Suzar qamoqxonaga sudrab kirayotganlarida ularning holini bilmayman-u, ammo men bir seskanib ketdim.

Biz kimga duch keldik? Shubhasiz, eng yangi tuzumning allaqanday qaroqchilariga duch kelganga o'xshaymiz.

Lyukning ensizgina qopqog'i ketimizdan yopilishi bilan biz zim-ziyo qorong'ilikda qoldik. Kunning yorqin nuriga ko'nikib qolgan ko'zlarim atrof-dagi biror narsani ham ajratolmas edi.

Ned Lend bilan Konsel ham qorovullar qurshovida orqamdan kelishardi.

Trap poygagidagi eshik biz kirishimiz bilan taraqlab yopildi.

Biz yolg'iz qoldik. Qayerdamiz? Bunisini bilolmadim, hatto tasavvur ham etolmadim.

Atrof qorong'i, shu qadar qorong'iki, hatto zulmatda uzoq turganimizdan keyin ham jindak bo'lsa-da, yiltillagan yorug'likni ilg'ab ololmadim.

Shu orada bunday qo'pol muomaladan jahli chiqqan Ned Lend g'azabini yashirolmadi.

– Ming la'nat! – qichqirdi u. – Bu odamlar kaledonning eng ashaddiy yovvoyilaridan ham battar ekan! Odamxo'rliklari qoldi, xolos! Shunday



bo'lganda ham sira ajablanmas edim... Ammo oldindan aytib qo'yay, o'z ixtiyorim bilan meni yeyishlariga yo'l qo'yib bo'pman!

– Tinchlaning, Ned, tinchlaning, – dedi sovuq-qonlik bilan Konsel. – Hali hech gap bo'lmay, qizishishning nima keragi bor. Hozirchalik tovaga tushganimizcha yo'q-ku.

– To'g'ri aytyapsiz, hozircha tovaga tushganimizcha yo'q, – javob berdi kanadalik, – ammo o'choqda yotganimiz aniq! Qorong'ini qarang. Baxtinga pichog'im yonimda, uni ishlatish uchun esa ortiqcha yorug'likning ham hojati yo'q. Bu kallakesarlardan qay biri birinchi bo'lib menga tegsa...

– Ned, shovqin solmang, – dedim men gap-punchiga, – ahvolimizni ham og'irlashtirmang... Kim biladi, balki bizni poylashayotgandir. Yaxshisi, qayerga kelib qolganimizni aniqlashga harakat qilaylik.

Men sekin bir necha qadam tashlagan edim, tunka qoplangan devorga borib tiralib qoldim. Devor tagidan yurib, atrofida bir necha taburetka turgan yog'och stolga qoqilib ketdim. Turmamizning poliga qalin bo'yra to'shalgan bo'lib, yurganda qadam tovushini chiqarmas edi. Yalang'och devorlarda men na deraza va na eshik topdim. Devor tagidan qarama-qarshi tomonga ketgan Konsel men bilan to'qnashdi va ikkalamiz uzunligi yigirma fut, eni o'n futli kayutaning o'rtasiga keldik. Xona balandligini aniqlay olmadik, chunki hatto Ned Lend ham bo'ychanligiga qaramay, shiftga yetolmadi.

Salkam yarim soat o'tdi, ahvolimiz esa o'sha-o'sha. Biroq to'satdan bizning turmamiz yorishib ketdi. Ravshanligi va oqligiga qarab suvosti kemasini atrofida yarqirab turadigan gardish o'sha elektr nurligini bilib oldim.

Avval beixtiyor ko'zimni yumdim. Qaytib ochganimda yorug'lik shiftga mahkamlangan sutrang yarim aylanadan taralayotganini ko'rdim.

– Xayriyat-e, hamma narsa ko'rindi! – xitob qildi Ned.

U himoyaga shaylanganday qo'lidagi pichoqni mahkam ushlab turardi.

– Ha, – deya hazilomuz javob qaytardim men, – faqat taqdirimiz ko'rinmayapti.

– Xo'jamga sabr qilishni maslahat berardim, – dedi Konsel.

Chiroq yorug'ida turmamizni yaxshilab ko'zdan kechirib oldik. Stol va beshta taburetka uning yakka-yu yagona mebeli edi. Yashirin eshik zich yopilgan – men uning o'rini ham topolmadim. Quloqlarimizga tiq etgan tovush eshitilmas edi. Go'yo kemada hamma qirilib bitganday edi. Lekin bir joyda turibmizmi, suzyapmizmi, suv ostidamizmi yoki oldingiday suv sathida suzib boryapmizmi – hech narsani aniqlay olmadim...

Ammo elektr chiroq ma'lum bir maqsadni ko'zlab yoqilgani aniq edi. Komanda sostavidan biror kishining yaqin fursat ichida kirib kelishi aniq edi – bo'lmasa bu zulmatni bekordan bekorga yoritishmasdi.

Adashmagan ekanman. Ko'p o'tmay surilayotgan tambaning ovozi eshilib, eshik ochildi va kayutaga ikki kishi kirdi.

Ulardan biri past bo'yli, muskuldor, keng yag'rinli, boshi katta, qalin qora sochlari hurpaygan, shop mo'ylov, nigohi o'tkir kishi edi. Uning qiyofasida janubliklarga xos harakatchanlik va tetiklik sezilib turardi. Fransiyada bunday fazilatlar provansallarga xos edi.

Ikkinchi noma'lum kishi uzun bo'yli bo'lib, ba-

tafsilroq ta'riflasi arzigudek edi. Buyuk fizionomlarning shogirdlari Grasiola yoki Engelya uning yuziga qarab xarakterini kitobdan o'qiganday aytib berishi mumkin edi. Men ikkilanmay uning eng muhim xususiyatlarini aniqladim: boshini mag'rur tutib turishi va qora ko'zlarining sovuq qat'iyat bilan boqishiga qaraganda u o'ziga ishongan odam; xotirjamligi va rangpar yuzi sovuqqonligini; qoshi ustidagi muskulchalarning tez-tez qisqarib turishi g'ayratliligini; nihoyat chuqur nafas olishi, shuningdek, tabiatan juda baquvvatligi dadilligini ifodalardi edi. Yana shuni qo'shib qo'yishim kerakki, bu odam juda mag'rur, uning osoyishta va qat'iy boqishi oliyjanob fikrlashidan darak berar va umuman tashqi qiyofasi g'oyat samimiy ekan degan taassurot qoldirardi edi.

U kirishi bilan men taqdirimiz haqida tashvishlanmasak ham bo'lishini, bu uchrashuv biz uchun ko'ngildagiday tugashini his etdim.

Bu odamning yoshini o'ttiz beshdan ellikkacha deb taxmin qilish mumkin – ochig'ini aytsam, men buni aniq belgilay ololmadim. U peshanasi keng, qirra burun, lablari xushbichim, tishlari juda chiroyli, ingichka qo'llari kelishgan kishi edi. Xullas, u men uchratgan eng chiroyli erkaklarning mukammal namunasi edi.

Yuzidagi ajralib turadigan o'ziga xos xususiyatlaridan yana birini aytmoqchiman: ko'zlari bir qarashda ufqning to'rtidan bir qismini qamray oladigan katta-katta edi. Keyinchalik bilsam, bu xususiyat ko'zining o'tkirligidan, hatto Ned Lendning ko'zidan ham o'tkirroqligidan ekan.

Bu notanish kishi birovga tikilib qarasa, qoshlari chimirilardi, qovoqlari yaqinlashib ko'zi toraygach, nigohi yanada o'tkirlashib ketardi. Qan-

day qarash-a! U narsalarni yaqinlashtirardi, o'y-laringizning eng yashirin joylarigacha kirib bora olardi, juda qalin suv qatlamlariga ham oynadan qarayotganday nigoh tashlab, dengiz chuqurliklaridagi hayotni kitobda yozib qo'yilgan kabi o'qir edi.

Har ikkalasining boshida suvsar terisidan qilingan qalpoqcha, oyoqlarida tulen terisidan qo'nji uzun dengiz etigi va ustlarida men bilmaydigan allaqanday matodan qulay, gavdaning harakat qilishiga xalaqit bermaydigan hamda chiroyli qilib tikilgan kostum.

Novcha kishi – boshliq bo'lsa kerak – bizga diqqat bilan razm soldi. Shundan so'ng hamrohi tomonga o'girilib, menga noma'lum tilda gaplashdi. Bu juda jarangdor, ixcham, musiqiy, unli tovushlar ko'p ishlatiladigan, tez-tez urg'u beriladigan til edi.

Unisi bosh irg'ab javob berdi va o'z navbatida ikki-uch og'iz tushunib bo'lmaydigan so'z aytdi.

Shundan so'ng boshliq bir nima so'ramoqchi bo'lganday menga qaradi.

Men sof fransuz tilida uning nima demoqchi bo'layotganini tushunmaganimni aytdim. Ammo aftidan, u ham meni tushunmaganga o'xshardi. Og'ir ahvolga tushib qoldik.

– Xo'jamga boshimizdan o'tganlarni gapirib berishni maslahat berardim; zora undan loaqal biron narsa tushunishsa, – dedi Konsel.

Men bu maslahatga amal qildim va so'zlarni donalab, biror voqeani ham tushirib qoldirmay, boshimizdan kechirganlarimizni aytib berdim. Men otlarimiz va kasb-korimizni birma-bir sanab o'tdim, nihoyat pirovardida odob saqlab, noma'lum kishilarga professor Aronaks, uning xizmatkori Konsel va mashhur garpunchi Ned Lendni tanitdim.

O'ychan va yuvosh ko'zli kishi so'zlarimni hurmat yuzasidan diqqat bilan tingladi. Ammo chehrasidan biror o'zgarish sezmadim; mening so'zlarimdan loqal birontasini tushunganini ifodalaydigan hech qanday belgi ko'rinmadi.

Endi ularga fikrimizni inglizcha so'zlab tushuntirish imkoniyati qolgan edi. Men inglizchani ham nemischa singari lug'atsiz o'qib, yaxshigina tushunar edim, biroq fikrimni ifodalay oladigan darajada emas. Ammo bu yerda mumkin qadar yaxshiroq gapirishga harakat qilish kerak edi.

– Endi navbat sizga, – dedim men garpunchiga. – Boshlang, Ned! Ingliz tilining xotirangizda o'rnashib qolgan eng nazokatli so'zlarini topib, mendan ko'ra durustroq natijaga erishishga harakat qiling.

Ned yalintirib o'tirmadi, mening hikoyamni ingliz tilida qaytardi. Aniqrog'i, men aytgan so'zlarning mag'zini tushuntirdi, ammo shaklini tamoman o'zgartirib yubordi.

Kanadalik zo'r ehtiros bilan gapirdi. U bizga nisbatan qilinayotgan zo'ravonlikka qarshi qat'iy norozilik bildirdi va bu insoniy huquqlarga zidligini aytdi; bizni bu kameraga qaysi qonunga asoslanib qamab qo'rganlarini so'radi; bizni ozodlikdan mahrum etganlarga sud ta'qibini aytib, po'pisa qildi; qo'llarini paxsa qilib qichqirdi va nihoyat pirovardida imo-ishora bilan ochlikdan o'layozganimizni tushuntirmoqchi bo'ldi.

Aytayotgan gapi juda to'g'ri edi, ammo biz buni deyarli unutgan edik.

Ming afsuski, garpunchi uning so'zlarini ham menikiday tushunmaganlariga imoni komil bo'ldi. Huzurimizga kelganlar mijja qoqmay turardilar. Af-

tidan ular Faradey<sup>1</sup> tilini Arago<sup>2</sup> tilidan ortiq bilmas edilar.

Tilshunoslik bobidagi butun imkoniyatlarni ishga solgandan keyin ham muvaffaqiyatsizlikka uchraganimdan ajablanib, nima qilishimni bilmay turganimda, Konsel menga murojaat qilib qoldi:

– Agar xo‘jam ijozat bersalar, men xuddi shuning o‘zini nemischa so‘zlab berardim.

– Nima, sen nemischa bilasanmi? – deya hayajondan qichqirib yuboribman.

– Barcha flamandiyaliklar singari. Agar xo‘jam bunga qarshi bo‘lmasalar, albatta...

– Marhamat, Konsel! Gapir tezroq!

Nihoyat Konsel juda osoyishta bir ohangda butun boshimizdan kechirganlarimizni uchinchi marta hikoya qilib berdi. Biroq so‘zlovchining juda chiroyli jumla tuzishlari va notiqona uslubiga qaramay, nemis tili ham qo‘l kelolmadi.

Oxiri devorga suyanib turib maktabdagi uzuq-yuluq xotiralarni eslab, xuddi o‘sha hikoyani lotin tilida so‘zlay boshladim. Sitseron<sup>3</sup> eshitganida, quloqlariga paxta tiqib olib, meni oshxonaga quvib chiqargan bo‘lardimi, ammo men nima bo‘lsa ham so‘zimni oxiriga yetkazdim.

Natijasi oldingiday yana qoniqarsiz bo‘ldi.

Bu so‘nggi urinishimiz ham muvaffaqiyatsizlikka uchragach, notanish kishilar loaqal bizni tinchlantirish uchun barcha mamlakatlar va xalqlar orasida bir xil bo‘lgan imo-ishora ham qilmay, o‘zlarining tushunib bo‘lmaydigan tillarida o‘zaro bir necha so‘z aytishdi-da, chiqib ketishdi.

Ular chiqib ketishlari bilan eshik bekildi.

<sup>1</sup> Faradey – ingliz fizigi

<sup>2</sup> Arago – fransuz fizigi va astronomi.

<sup>3</sup> Sitseron – qadimgi Rim notig‘i va yozuvchisi (bizning eramizgacha 106–43-yillar).

– Bu qabihlik! – deya qichqirdi Ned Lend shu bilan yigirmanchi marta gʻazab oʻtida yonib.

– Nima qilish kerak. Bu galvarslar bilan fransuzcha, inglizcha, nemischa, lotincha gapirilsa-da, biron-tasi churq etib javob bermasa-ya!

– Tinchlaning, Ned, – dedim men hayajonlangan garpunchiga, – gʻazab bilan bir ish qilib boʻlmaydi.

– Toʻgʻri-yu, professor, – deya javob berdi kanadalik zarda bilan, – ammo biz bu temir katak ichida ochlikdan oʻlamiz, bilasizmi!

– Oʻh-hoʻ, – faylasuflarga xos osoyishtalik bilan eʼtiroz bildirdi Konsel, – hali bunga erta.

– Ogʻaynilar, – dedim men, – noumid boʻlmanglar. Bundan ogʻir sinovlarga ham bardosh berdik. Kema kapitani va uning ekipajini qoralashga shoshilmanglar. Ular haqida biror fikrga kelish vaqti ham yetar.

– Mening fikrim hozirning oʻzidayoq uzil-kesil tayyor! – dedi Ned Lend. – Bular razil odamlar!

– Juda soz, ammo ular qayerda tugʻilgan? – barmaylixotir soʻradi Konsel.

– Razillar mamlakatida!

– Azizim Ned, bu mamlakat geografik kartada aniq koʻrsatilmagan, binobarin, eʼtirof etamanki, men bu odamlarning qaysi millatdanligini aniq ayta olmayman. Ammo ishonch bilan shuni aytishim mumkinki, ular ingliz ham, fransuzlar ham, nemislar ham emas. Menda boshliq va uning hamrohi kenglikning harorati past yerlarida joylashgan mamlakatda tugʻilgan degan taassurot qoldi, chunki ular koʻrinishdan janubliklarga oʻxshashadi. Ammo irqiy belgilari yuzlarida yorqin ifodalanmagani uchun qaysi millatga mansubliklarini, ispanmi, turkmi, arab yoki hindumi – qatʼiy aytish qiyin.

– Qarang, barcha tillarni bilmaslik qanchalik yo-

mon, – luqma tashladi Konsel, – agar yagona xalqaro bir til bo‘lganida, qanday yaxshi bo‘lardi-ya!

– Bundan biron naf chiqmas edi, – deya e’tiroz bildirdi Ned Lend. – Nima, zindonbonlarimizning o‘ziga xos tillari halol odamlarning jig‘iga tegish uchun o‘ylab topilganini ko‘rmayapsizmi? Dunyodagi barcha mamlakatlarda og‘iz ochish, tishlarni shiqirlatish, chakakni qimirlatish qanday mazmun ifoda etishini yaxshi bilishadi. Kvebekda, Parijda, Paumotuda, antipodlarda<sup>1</sup> – hamma joyda bu bir mazmun anglatadi: ochman, menga ovqat bering!

– Eh-he, – vazminlik bilan javob berdi Konsel, – shunday gap uqmas odamlar borki...

Xuddi shu payt eshik ochilib xonaga styuard<sup>2</sup> kirdi. U bizga ust-bosh – menga noma‘lum bo‘lgan allaqanday matodan tikilgan kalta kamzul bilan shim olib keldi.

Men kiyimlarni tez kiyib oldim. Sheriklarim ham xuddi shunday qilishdi.

Shu orada styuard gung, ehtimol, garang bo‘lsa ham ajab emas – stol ustiga uch kishiga mo‘ljallab qoshiq-vilka qo‘ydi.

– Mana bu boshqa gap! – dedi Konsel. – Boshlanishi chakki emas.

– Ko‘ramiz, – deya g‘o‘ldiradi ginaxon garpunchi. Bu yerda nima bilan boqishlarini tasavvur qilsa bo‘ladi! Treskaning jigari, suyagi olib tashlangan olabug‘a balig‘i-yu, dengiz itining bir parcha qovurilgan go‘shtimi?

– Birpas sabr qilsak, bilib olamiz, – deb javob berdi Konsel. Kumush qalpoqlar bilan yopilgan idishlar dasturxonga bir tekisda qo‘yildi.

Biz stol atrofiga o‘tirib oldik. Biz madaniyatli

---

<sup>1</sup>Antipodlar – yer yuzining bir-biriga tamoman teskari ikki tomonida yashaydiganlar.

<sup>2</sup>Styuard – kema xizmatkori.



kishilar orasida ekanligimizga shubha yo‘q edi, agar elektr chiroq bo‘lmaganda, Liverpooldagi Adelfi yoki Parijdagi Grand otel-mehmonxonasining oshxonasida o‘tiribmiz, deb o‘ylash mumkin edi.

Ha, aytganday, shuni ta‘kidlash kerakki, non ham, vino ham, umuman yo‘q edi.

Suv juda toza, tiniq edi. Ammo bu quruq suv bo‘lgani uchun Ned biroz ranjidi.

Bizga berilgan ovqatlar orasida baliqdan a‘lo darajada tayyorlangan taomlar ham bor edi. Biroq boshqa taomlar xususida hatto ular tabiatning qaysi dunyosi – o‘simliklar dunyosigami yoki hayvonot dunyosiga taalluqli ekanini ham ajratolmas edim.

Ovqat servizi nafis va chiroyli edi. Har bir qoshiq, vilka, taqsimcha, sochiq va hokazolarda quyidagi shior yozilgan edi:

«Harakatchan N harakatchanlikda»

Harakatchan harakatchan muhitda! Bu shior, suvosti kemasiga tamomila mos edi. «N» – sirli suvosti kapitani ismining bosh harfi bo‘lsa kerak.

Ned Lend bilan Konsel har xil o‘ylar bilan o‘zlarini qiynamas, ochko‘zlik bilan ovqat yeyishardi, men ham shu zahoti ularga ergashdim.

Endi men taqdirimizdan xotirjam edim. Xo‘jayinlar ochlikdan tinkamizni quritmasligiga imonim komil edi.

Ammo bu dunyoda hamma narsa, hatto o‘n besh soat davomida tamaddi qilmagan kishilarning ochligi ham o‘tib ketadi. Qornimiz to‘ygach, qattiq uyqu bosayotganini seza boshladik. Bu tunda o‘lim bilan uzoq olishuvdan so‘nggi tabiiy hol edi.

– Rostini aytsam, men jon deb uxlab olardim, – dedi Konsel.

– Men hozirning o‘zidayoq uxlayapman, – deb javob berdi Ned Lend.

Shunday deb har ikkala hamrohim kayuta poli-

ga solingan bo'yraga cho'zilishdi va shu zahotiy oq qattiq uyquga ketishdi.

Men ular singari osongina uxlay olmas edim. Miyam juda ko'p fikrlar bilan to'lib-toshgan, hal qilinmagan juda ko'p muammolar meni tashvishlantirar, talay kishilar ko'z oldimdan nari ketmas edi. Binobarin, ko'zlarim anchagacha yumilmadi.

Qayerdamiz? Bizni qanday ajib kuch tortib ket-yapti?

Kema tubsiz chuqurlikka cho'kayotganini his etdim – aniqrog'i, menga shunday tuyuldi.

Turli dahshatlar menga tinchlik bermas edi. Bu sirli chuqurliklardagi nimasi bilandir shu suvosti kemasiga o'xshab ketadigan, xuddi shunday katta, xuddi shunday harakatchan, o'zi singari kuchli noma'lum hayvonlar to'dasi ko'z oldimdan nari ketmas edi.

Ammo ko'p o'tmay ular xiralashib, miya mudroq pardasiga o'raldi va men uxlab qoldim.

## ***To'qqizinchi bob***

### **NED LEND G'AZABNOK**

Qancha uxlaganimni bilmayman. Ammo aftidan, juda uzoq uxlagan bo'lsam kerak, g'oyat tiniqib, tetik bo'lib uyg'ondim.

Birinchi bo'lib men ko'zimni ochdim. Do'stlarim hali ham qattiq uyquda edilar.

Miyam dam oldi va yana aniq hamda bexato ishlashi mumkin degan o'y bilan anchagina qattiq to'shakdan turib, hammadan oldin kayutamizni sinchiklab ko'zdan kechira boshladim.

Biz uxlab yotganimizda hech nima o'zgarmapti. Turma turmaligicha, bandilar esa bandiligicha qo-

libdi. Faqat styuard qolgan ovqatlarni stol ustidan yig'ishtirib olibdi. Shunday qilib, taqdirimizning yaqin orada o'zgarishini ko'rsatadigan biron belgi ko'rinmagach, hayajon ichida, nahotki, umrbod shu katakda qamalib yotishga mahkum etilgan bo'lsak, deb o'zimga o'zim savol berdim.

Bu fikr meni shu qadar gangitib qo'yganining yana bir sababi shuki, garchand miyam kechagi dahshatlardan xoli bo'lsa-da, ammo ko'kragimdan nimadir bosardi. Nafas olish og'irlashayotgan edi. Bo'g'iq havo o'pkaning bermalol ishlashiga xalaqit berayotgan edi.

Kayuta anchagina katta bo'lishiga qaramay, aftidan, bu yerning havosidagi kislorodning ko'pini yutib yuborganga o'xshaymiz.

Darhaqiqat, odam bir soat nafas olishi uchun yuz litr havo tarkibidagi miqdorda kislorod kerak bo'ladi. Va bu havo nafas qaytarganimizda ichimizdan chiqadigan uglekislota bilan to'lib, nafas olishga yaroqsiz bo'lib qoladi.

Shunday qilib, bizning turmamizdagi, balki butun suvosti kemasidagi havoni yangilash kerakdir.

Ana shunda birinchi savol tug'ildi: Bunday hol-larda suvosti kemasining komandiri nima qiladi? U kislorodni ximiyaviy yo'l bilan, ya'ni bertolet tuzini qizdirib olarmikin? Bunday bo'lsa, u bu tuz zapas-larini to'ldirish uchun yer bilan aloqa bog'lab turi-shi kerak. Maxsus rezervuarlarda havoni suyultirib, so'ng keragicha ishlatarmikin? Shunday bo'lishi ham mumkin. Yoki ortiqcha harakatdan qochib har yigirma to'rt soatda havo g'amlash uchun suv sat-higa ko'tarilmikin?

Ammo bu usullarning qay biridan foydalana-yotgan bo'lmasin, menimcha, uni zudlik bilan qo'llash vaqti yetdi!

O'pkamga yetarli miqdorda kislorod kirishi uchun ikki hissa tezroq nafas ola boshlagan edim hamki, birdan kayutaga tuz hidi anqib turgan sof havo oqimi otilib kirdi. Bu yod aralashgan, odamni tetiklashtiradigan dengiz havosi edi. Men og'zimni katta ochib, jonholatda bu hayotbaxsh havo oqimidan yuta boshladim. Xuddi shu daqiqada kema sekin silkindi, unchalik qattiq bo'lmasa-da, ammo ancha sezilarli edi.

Suvosti kemasi, temir maxluq, aftidan, toza havodan nafas olish uchun kitga o'xshab suv sathiga ko'tarilganga o'xshaydi...

Shunday qilib, kemada havoni yangilab turish usuli to'la aniqlandi.

To'yib nafas oldim-da, ko'zlarim bilan ventilyatsiya tuynugini yoki bizga hayotbaxsh gaz kirgan yerni qidira boshladim va uni osonlik bilan topdim. Eshik ustida panjara bo'lib, kayutaga havo oqimi ana shundan kirar edi.

Shuni endi ko'zdan kechirib turgan edim, Ned bilan Konsel deyarli bir vaqtning o'zida uyg'onishdi. Ular ko'zlarini uqalab, homuza tortib, o'rinlaridan turishdi.

– Xo'jam yaxshi uxlab turdilarmi? – so'radi Konsel odatdagi o'ziga xos odob bilan.

– Juda soz, azizim, – javob berdim men. – Sizchi, Ned?

– Qotib uxlabman, janob professor. Ammo bu nimasi? Nazarimda dengiz hidi kelyapti shekilli.

Men kanadalikka u uxlab yotganida sodir bo'lgan voqeani gapirib berdim.

– Ha, – dedi u, – «narval» «Avraam Linkoln»ga yaqinlashganda, undan allaqanday g'uvullagan ovoz chiqqanining sababi bu yoqda ekan-da.

– To‘g‘ri aytyapsiz, Ned. U «nafas olgan» ekan.

– Bilasizmi, janob professor, soat nechaligini sira bilolmayapman. Ovqat vaqti bo‘lmadimikin?

– Ovqat vaqti bo‘lmadimikin? Siz nonushtani so‘ramoqchi bo‘layotgandirsiz, Ned. Chunki biz kun bo‘yi ham kechasi bilan uxlaganimiz aniq.

– Siz bilan bahslashib o‘tirmayman, – deya javob berdi Ned Lend, – ammo styuard nimaiki olib kelsa – nonushtami, tushlikmi uni quchoq ochib kutib olardim.

– Ayniqsa unisiniyam, bunisiniyam bitta qilib olib kelsa! – qo‘shib qo‘ydi Konsel.

– To‘g‘ri aytyapsiz, – dedi kanadalik, – unisigayam, bunisigayam haqqimiz bor. Men bo‘lsam nonushtani ham, tushlikni ham birga bersa yo‘q demasdim.

– Juda soz, Ned, sabr qilamiz, – dedim men. – Bu odamlar ochlikdan sillamizni quritmasliklari aniq, bo‘lmasa kecha bizga ovqat berib o‘tirishmas edi.

– Balki, aksincha ular bizni bo‘rdoqiga boqishayotgandir? – e‘tiroz bildirdi Ned.

– Ned, o‘ylab gapiring! Siz chindan ham odamxo‘rlar qo‘liga tushib qoldik deb o‘ylamayotgandirsiz axir?

– Bir martasi hisobga kirmaydi, – deya jiddiy turib javob berdi kanadalik. – Kim biladi, balki bu odamlar anchadan beri yangi so‘yilgan go‘sht yeyishmagandir... Mana endi uchta sog‘lom, kelishgan, miqqigina kishi – janob professor, Konsel va kamina qullari qo‘llariga tushib turibdi...

– Bas qiling, Ned! – men garpunchining so‘zini bo‘ldim. – Bu fikrlarni miyangizdan chiqarib tashlang. Xo‘jayinlarimiz bilan shunday gaplashishni xayolingizga ham keltirmang – bu bizning ahvolimizni og‘irlashtiradi, xolos.

– Nima bo‘lganda ham, – dedi Ned Lend, – men itday ochman, nonushta yoki tushlikni haligacha berishgani yo‘q.

– Azizim Ned, biz bu yerdagi tartib-qoidalarga bo‘ysunmog‘imiz kerak. Menimcha, bizning qorinlarimiz kok<sup>1</sup> soatidan ko‘ra ildamroq ishlayotganga o‘xshaydi.

– Mayli, nima ham qila olardik, qorinlarimiz mi-  
lini suramiz qo‘yamiz-da, shunda hamma narsa jo-  
yida bo‘ladi, – dedi bamaylixotir Konsel.

– Sizga qoyil, Konsel! – deb xitob qildi besabr kanadalik. – Odatdagiday asablargizni ehtiyot qilish payidasiz. Xotirjamligingizga havas qilsa arziydi! Siz arz-dod qilishdan ko‘ra ochlikdan o‘lishni afzal bilasiz.

– Nimaga arz-dod qilish kerak? Bu baribir befoyda.

– Befoyda deganingiz nimasi? Axir arz-dod qilishning o‘zi alamlaringizni ancha yengillashtiradi-ku! Ammo bu qaroqchilar – men ularni odamxo‘r deyishni man etgan janob professorga nisbatan bo‘lgan hurmatim tufayli qaroqchi deb atayapman – bu qaroqchilar meni diqqinafas bo‘lib, hatto ularni bisotimdagi so‘kinishlar bilan ham tanishtirmay shu katalakda indamay o‘tiraveradi, deb o‘ylashayotgan bo‘lishsa, juda katta xato qilishadi! Menga qarang, janob professor, ochig‘ini aytib, sizningcha ular bizni bu qafasda ko‘p saqlasharmikin?

– To‘g‘risini aytganda, Ned, bu haqda siz qanchalik bilsangiz, men ham shu.

– Har holda siz nima deb o‘ylayapsiz?

– Menimcha, biz tasodifan muhim sirni bilib oldik. Agar suvosti kemasining ekipaji ana shu sirni

---

<sup>1</sup> Kok – kema oshpazi.

oshkor qilmaslikdan manfaatdor bo'lsa va bu masala uch kishining hayotidan ko'ra muhimroq deb qarasa, unda biz jiddiy xavf ostidamiz. Agar shunday bo'lmasa, unda dastlabki imkoniyat tug'ilishi bilan noq bahaybat maxluq bizni o'zimiz singari odamlar yashayotgan yerda qoldirib ketadi.

– Yoki bizni kema komandasiga qo'shib, – deya luqma tashladi Konsel, – shu yerda...

– To «Avraam Linkoln»dan ko'ra tezroq suzadigan durustroq boshqa bir kema bu qaroqchilar uyasini zabt etib, – deya Konselning fikrini davom ettirdi Ned Lend, – uning butun ekipajini biz bilan birga grot-machtasining<sup>1</sup> eng baland joyiga osib qo'ygunlaricha...

– Mulohazangiz o'rinli, Ned, – dedim men. – Ammo menimcha, hali hech kim bu suvosti kemasi komandasi tarkibiga kirishimizni taklif qilganicha yo'q. Shuning uchun o'shanda nima qilishimiz kerak, deb fol ochib o'tirishimiz noo'rin. Yana qaytarib aytaman, sabr qilaylik, biror chora ko'rish vaqti kelsa, sharoitga qarab o'ylashib olarmiz; hozir hech narsa qilish kerak emas, sirasini aytganda, bunga zarurat ham yo'q.

– Aksincha, – e'tiroz bildirdi qaysar garpunchi taslim bo'lgisi kelmay, – albatta, bir narsa qilish kerak.

– Xo'sh, nima qilish kerak, Ned?

– Qutulish kerak!

– Yerdagi turmadan qochishning o'zi qancha mashaqqatli, suv ostidagidan esa sira iloji yo'q, – dedim men.

– Xo'sh azizim, Ned, – so'radi Konsel, – xo'jamning bu gapiga nima deysiz? Bilaman, amerikaliklar bahslashishga usta bo'lishadi.

<sup>1</sup> *Grot-machta* – yelkanli kemalarda o'rtadagi eng baland machta.

Garpunchi dovdirab jim bo'lib qoldi. Biz turgan sharoitda qochish chindan ham mumkin emas edi. Ammo kanadalik yarim fransuz-ku, axir. Buni Ned Lend o'z javobi bilan juda isbotlab berdi.

– Janob professor, – dedi u bir necha minut o'ylab olgandan keyin, – siz turmadan qochmoqchi bo'lgan kishilar buning uddasidan chiqolmasalar nima qilish kerakligini bilmaysizmi?

– Yo'q, do'stim.

– Axir bu juda oson-ku. Ular turmada qolish uchun qulay vaziyat vujudga keltiradilar...

– Bo'lmasam-chi! – dedi Konsel. – Suvosti turmasining ostida yoki ustida bo'lgandan ko'ra ichida bo'lgan yaxshi-da, albatta.

– Ammo oldin u yerdan turma egalari, darvozabon va qorovullarni chiqarib tashlaydilar, – deb qo'shib qo'ydi Ned Lend.

– Nima deyapsiz o'zi, Ned! Nahotki, siz chindan ham kemani egallab olishni o'ylayotgan bo'lsangiz?

– Hazili yo'q, jiddiy gapiryapman, – javob berdi kanadalik.

– Buning sira iloji yo'q.

– Nega endi, professor? Qulay fursat kelsa, iloji bor. Bunday fursatdan foydalanib qolmaslikka biron asos yo'q. Menimcha, kemada yigirmadan ortiq kishi yo'q. Bu bir hovuch odam esa biz uchun qo'rqinchli emas!

Garpunchi bilan bahslashib o'tirishdan ko'ra, uning taklifiga indamay qo'ya qolish ma'qulroq edi. Shuning uchun men unga quyidagilarni aytish bilan kifoyalana qoldim.

– Shunday fursat bo'lishini kutamiz, Ned, o'shanda ko'ramiz. Ungacha sabr qilishingizni iltimos qilaman. Bu rejani hiyla bilangina amalga oshirsa bo'ladi, sizning qiziqqonligingiz esa bun-



day fursat kelishini yaqinlashtirmaydi. Bunday fursatni sabr-toqat bilan, jahl qilmay kutishga soʻz berishingiz kerak.

– Soʻz beraman, janob professor, – javob berdi Ned Lend ishonchsiz ohangda. – Hatto ovqatni biz istagan tartib bilan berishmasa ham mendan biron nojoʻya soʻz eshitmaysiz, bironta ortiqcha harakat koʻrmaysiz.

– Shu soʻzlaringizni unutmang, Ned, – dedim men kanadalikka.

Shu bilan oradagi gap tugadi va har birimiz oʻz fikrlarimiz bilan boʻldik. Eʼtirof etishim kerakki, garpunchining shunchalik ishontirishlariga qaramay, baribir umidvor boʻlmadim. Men Ned Lend aytgan baxtli tasodif roʻy berishiga ishonmas edim. Hech shubhasiz, suvosti kemasi koʻp sonli ekipajga ega, binobarin, jang qilishga toʻgʻri kelsa, biz juda kuchli dushman bilan toʻqnashuvimiz aniq edi.

Shunisi ham borki, Ned Lendning rejasini amalga oshirish uchun, avvalo ozod boʻlishimiz kerak, biz esa bandilarmiz. Men eshigi mahkamlangan bu temir qafasdan qanday qilib qutulishni koʻz oldimga keltirolmas edim. Axir suvosti kemasi kapitanining biron siri boʻlsa – bunday boʻlishi esa ehtimoldan xoli emas – unda u bizning kemada hech qanday toʻsiqsiz yurishimizga yoʻl qoʻymasligi aniq.

U bizni nima qilishini: bizdan darhol qutulishni istaydimi yoki uzoq yillar qamab qoʻyib, soʻngra biror inson oyogʻi tegmagan bir parcha yerga tashlab ketadimi – buni oldindan bilib boʻlmas edi. Biz butunlay uning hukmronligida edik va bu taxminlarning hammasi nazarimda haqiqatga yaqin boʻlib koʻrinar edi. Shunday sharoitda ozodlikka umid bogʻlash uchun Ned Lendnikiga oʻxshagan xarakterga ega boʻlish kerak. Ochigʻini aytsam, Ned

Lend qancha o'ylasa, shuncha ko'proq achchiqlanar ekan. Allaqachon la'nat so'zlari bo'g'izga tiqilib turganini, imo-ishoralaridan uning tobora g'azablanayotganini sezardim. U qafasdagi yirtqichday u yoqdan bu yoqqa irg'ishlar, devorni tepar va mushtlar edi.

Vaqt o'tib borardi. Ochlik o'z kuchini ko'rsata boshladi. Styuarddan esa hamon darak yo'q edi. Halokatga uchraganlarga nisbatan bunday e'tiborsizlik yaxshilik alomati emas edi.

Ned Lend ochlikdan qiynalar, borgan sari tajanglashmoqda edi. O'zini tutishga va'da bergan bo'lishiga qaramay, komandadan biron kishi kirganda to'satdan quturib ketishidan qo'r qar edim.

Keyingi ikki soat davomida Ned Lendning qahri borgan sari oshdi. Kanadalik behudaga baqirib chaqirar, temir devorlar esa miq etmay turardi. Bu kemanding biron yeridan loaqal ozgina ham shovqin eshitmadim, go'yo odamlari o'lganday. U bir joyda turar edi, aks holda biz parrakning aylanishidan kema korpusining zirillashini sezgan bo'lardik. Tubsiz suv qa'riga cho'kkan bu kema yerga ortiq sira aloqasi yo'qday edi. Bu sukunat juda dahshatli edi.

Men bu temir qafasda yana qancha vaqt o'tirishimizni o'ylashdan ham cho'chir edim.

Kema kapitani bilan bo'lgan uchrashuvdan so'ng menda paydo bo'lgan umidlar ham asta-sekin so'na boshladi. Mehribon ko'zlari, yuz ifodasidagi ochiqlik, gavda bichimidagi oliyjanoblik – bularning hammasi xayolimdan ko'tarilib ketdi. Endi bu g'alati odamni aftidan u aslida qanday bo'lsa shundayligicha – zolim va shafqatsiz tasavvur etardim. Men uni odamgarchilikdan yuqoriroqda, rahmshafqatdan mahrum, odamlarni bir umr yomon

ko'rishga qasamyod etgan insoniyatning ashaddiy dushmani sifatida ko'z oldimga keltirardim.

Ammo nahotki, bu odam shu tor turmada bizning ochlikdan tinka-madorimiz qurib o'lishimizga yo'l qo'ysa? Bu mudhish fikr butun xayolimni qamrab oldi. Dahshatga tusha boshladim. Konsel hamon osoyishta, Ned tobora ko'proq tutaqib borardi.

Shu payt devor ortidan temir plitalarda qadam tovushi eshitildi. Tamba g'iychilladi. Eshik ochilib, styuard paydo bo'ldi.

Men hayhaylashga ulgurmay, kanadalik bechoraga tashlandi va yerga yotqizib xippa tomog'idan bo'g'ib oldi. Uning baquvvat qo'llarida styuardning nafasi bo'g'ila boshladi.

Konsel garpunchining qo'lidan o'ljasini tortib olishga harakat qilar, unga endi yordamlashay deb turganimda, birdan fransuz tilida aytilgan so'zlardan hammamiz qotib qoldik.

– Tinchlaning, Lend, siz ham janob professor! Quloq solinglar!

## ***O' n i n c h i b o b***

### **G'ALATI ODAM**

Bu kema kapitanining ovozi edi.

Ned Lend shu zahotiyoyq o'rnidan turdi. O'layozishiga sal qolgan styuard xo'jayinining ishorasi bilan kalovlana-kalovlana kayutadan chiqib ketdi. Xo'jayinning hukmi shu darajada ediki, haligi odam kanadalikka nisbatan shubhasiz jo'sh urgan qahrg'azabini biror ishora bilan ham bildirmadi. Men bilan Konsel buning oxiri nima bilan tugashini hayratlanib kutib turardim.

Kapitan ikki qo'lini ko'kragi ustida chalishtirib diqqat bilan bizga ko'z tikdi. Gapiirishga jur'at etolmayotganmikin? Yoki fransuz tilida so'zlaganiga pushaymon bo'layotganmikin? Ajab emas, shunday bo'lsa.

O'tgan bir necha sekund jimlikni hech birimiz buzishga jur'at qilolmadik.

– Janoblar, – dedi nihoyat kapitan, – men fransuzchada ham, inglizchada ham, nemischada ham, lotinchada ham birday erkin gaplasha olaman. Bino-barin, birinchi uchrashuvdayoq sizlarga javob berishim mumkin edi. Ammo men sizlarni sinab ko'rmoqchi, yana bir o'ylab olmoqchi bo'ldim. Har birlaringiz alohida-alohida o'z haqingizda bir xilda gapirib berdingiz. Shundan keyin sizlar chindan ham o'sha o'zlarinigiz hikoya qilayotgan kishilar ekanligingizga shubham qolmadi. Men endi tasodif tufayli ilmiy topshiriq bilan chet el safariga chiqqan, Parijdagi tabiiyot tarixi muzeyining professori janob Per Aronaks, uning xizmatkori va Amerika Qo'shma Shtatlari harbiy floti sostaviga kiradigan «Avraam Linkoln» kemasining garpunchisi kanadalik Ned Lend bilan uchrashganimni bilaman.

Men tasdiq ishorasini bildirib bosh egdim. Kapitan menga savol bilan murojaat qilmagan edi, bino-barin javobning ham keragi yo'q edi.

Bu odam fikrini fransuz tilida bironta so'zni buzmay, sof talaffuzda tushuntirar edi. U so'zlarni juda aniq va chiroyli talaffuz etar, nutqi g'oyat ravon edi. Ammo shunga qaramay men unda vatan-doshimni ko'rolmadim.

U so'zini davom ettirdi:

– Hech shubha yo'qki, janoblar, sizlar meni ikkinchi marta kelishimni ancha cho'zib yubordi, deb hisoblayapsizlar. Ammo kimligingizni bilib olgach,

sizlarni nima qilishim kerakligini o‘ylab ko‘rishim lozim edi. Uzoq vaqt ikkilandim. Falakning gardishi sizni menga – butun insoniyat bilan aloqasini uzgan kishiga to‘qnashtirdi. Sizlar meni yolg‘izlikdan mahrum etdingizlar...

– Beixtiyor? – dedim men.

– Beixtiyor? – ovozini balandlatib qaytardi notanish kishi. – «Avraam Linkoln» izimdan butun dengizlar bo‘ylab beixtiyor quvib yurganmidi? Xuddi o‘sha kemaga siz ham beixtiyor tushib qolganmidingiz? To‘plaringizning o‘qlari ham kemam korpusiga beixtiyor tegdimi? Balki mister Lend ham gapunini menga beixtiyor otgandir?

Bu so‘zlaridan uning ichidan g‘ijinayotgani sezilib turardi. Uning bu barcha ta‘nalariga tamomila o‘rinli javobim bor edi.

– Janob, – dedim men, – hech shubha yo‘qki, sizni deb Amerika va Yevropada qo‘zg‘algan bahs-munozaralardan bexabarsiz. Sizning suvosti kemangiz bilan to‘qnashuv natijasida yuz bergan bir necha hodisalar har ikki qit‘ada jamoatchilik fikrini qo‘zg‘atganini bilmaysiz. Siri faqat sizgagina ma‘lum bo‘lgan jumboqni tushuntirish uchun to‘qilgan sonsanoqsiz farazlarni birma-bir sanab o‘tirmayman. Ammo bilingki, «Avraam Linkoln» kemasi sizni Tinch okeanning eng uzoq joylarigacha quvib borar ekan, u allaqanday bahaybat dengiz maxluqi iziga tushganiga imoni komil va qaysi yo‘l bilan bo‘lmasin undan dengizni xoli qilishi kerak edi.

Kapitanning yuzida tabassumga o‘xshagan holat sodir bo‘ldi. U bosiq ovoz bilan so‘zida davom etdi:

– Janob Aronaks, bordi-yu suvosti kemasiligini bilsa, bahaybat dengiz maxluqi singari quvib, o‘qqa tutmas edi, deyishga jur‘at eta olasizmi?

Bu savol meni dovdiratib qo'ydi, chunki, darhaqiqat, kapitan Faragut sira ikkilanmay shunday qilar edi. U suvosti kemasini ham ulkan narvalday yakson qilishni o'zining burchi deb bilar edi. Bino-barin, men savolga javob bermadim.

Kapitan so'zini davom ettirdi:

– Shunday qilib, sizlarga dushman bilan muomala qilganday muomalada bo'lishga haqqim borligini tushundingizmi?

Men endi tamomila ongli ravishda jim tura-verdim. Har qanday o'rinli dalillaringiz ham kuchli zarba bilan yakson bo'lgandan keyin bu masalada bahslashib o'tirishning nima hojati bor?

– Men uzoq vaqt ikkilandim, – deya so'zini davom ettirdi kapitan. – Mening sizlarga nisbatan mehmondo'stlik qilishim uchun zimmamda hech qanday majburiyat yo'q edi. Agar maqsadim sizlardan qutulish bo'lganida, yana bir marta uchrashib o'tirishimning hojati ham yo'q edi. Men sizlarni qaytarib kema ustiga chiqarib qo'yib, dengizga sho'ng'irdim va... bir vaqtlar sizlarning bo'lganlaringizni ham unutishim mumkin edi. Yo shunday qilishga haqqim yo'qmidi?

– Bu madaniy odamning emas, yovvoyining ishi bo'lar edi, – deb javob berdim men.

– Janob professor, – shu zahoti e'tiroz bildirdi kapitan, – men sizning «madaniy odamning ishi» deb nimani ko'zda tutishingizni bilmayman. Men ma'lum sabablarga ko'ra, jamiyat bilan aloqamni uzdim va buning tub mohiyatini mulohaza qilishga yolg'iz o'zimgina haqli deb bilaman. Men o'sha jamiyat qonunlariga bo'ysunmayman va bundan keyin huzurimda ular haqida sira eslatmasligingizni maslahat beraman.

Bu gap juda keskin qilib aytili. Noma'lum ki-

shining ko'zlari qahr va g'azab bilan yonardi. Mening xayolimga, «bu odamning o'tmishida allaqanday dahshatli sir bor», degan fikr keldi. Axir u bekordan bekorga o'zini insonlar qonunidan baland qo'yib, odam qadami yetmaydigan joyga ketmagan-ku. Hatto suv sathidayoq o'zi bilan kurashmoqchi bo'lganlarni osonlik bilan bartaraf eta olgach, dengiz qa'rida uni quvishga kim jur'at eta olar edi. Uning suvosti monitoriga<sup>1</sup> qaysi kema bardosh bera olardi? Uning kemasining dahshatli tumshug'i zarbiga chiday oladigan zirh bormi? Bu suv hukmdorining xatti-harakatlarini tergashga dunyoda hech kimning kuchi yetmaydi.

Bu g'alati odam o'z o'ylari bilan bo'lib, kayuta bo'ylab yurayotganida, tezlik bilan shu fikrlar xayolimdan o'tdi.

Men unga qiziqish va qo'rquv aralash tuyg'u bilan qarab turardim.

Uzoq jimlikdan so'ng kapitan yana so'zini davom ettirdi.

– Shunday qilib, men ikkilandim, – deya davom etdi u, – ammo nihoyat tabiiy rahm-shafqatni – bunga har bir tirik jon haqli – mening manfaatlari bilan qo'shib amalga oshiraversa ham bo'ladi-ku, degan xulosaga keldim. Tasodif sizlarni bu yerga olib kelgan ekan, mening kemamda qolaverasizlar. Sizlar erkin yurasizlar va shunisi borki, bu juda nisbiy erkinlik evaziga sizlarning oldilaringizga birgina shart qo'yaman. Sizlar bunga bo'ysunamiz deb bergan va'dangiz men uchun kifoya.

– Ayting, kapitan, – men javob berdim. – Shar-

---

<sup>1</sup> *Monitor* – dengiz qirg'oqlarini mudofaa qilish yoki qirg'oq istehkomlariga hujum etish uchun moslashtirilgan zirhli harbiy kema

tingizni har bir vijdonli odam qabul qilaversa bo'ladigan deb ishonaman, albatta.

– Shubhasiz! Mana u, eshiting: ehtimol, ba'zi ko'zda tutilmagan sharoitlarga ko'ra, sizlarni ba'zan soatlab, balki kunlab – buni oldindan aytish qiyin – qamab qo'yishga majbur bo'larman. Har qanday sharoitda ham men zo'ravonlik tomoniga o'tishni istamayman, shuning uchun bunday hollar-da so'zsiz bo'ysunish haqida bergan va'dalaringizga ishonch hosil qilishim kerak. Men bunday taklifni sizga aytish bilan birga ro'y berishi mumkin bo'lgan ko'ngilsizliklar uchun javobgarlikni sizlardan tamoman soqit etaman, chunki sizlar bilishingiz man etilgan narsani hatto ko'rolmaysizlar ham. Shar-timni qabul qilaszilarmi?

Demak, suvosti kemasida jamiyat qonunlari bilan aloqasini uzmagani kishilar ko'rishi lozim bo'lmagan voqealar ham ro'y berib turar ekan-da. Kelajak menga hozirlagan barcha tasodiflarning eng noxushlaridan biri shu desam yanglishmayman.

– Qabul qilamiz, – deb javob berdim men. – Faqat... ruxsat etsangiz, bitta savolim bor edi, kapitan?

– Marhamat.

– Siz kemangizda bizni erkin yura olasiz, dedingiz, shundaymi?

– Ha, mutlaqo erkin yura olasizlar.

– Buni qanday tushunsa bo'ladi, aytib bera olmaysizmi?

– Sizlar kemada bemalol yurishingiz, u yerda bo'layotgan hamma narsalarni, ayrimlaridan tashqari, ko'rishlaringiz, kuzatishlaringiz, qisqasi, xuddi men va hamrohlarim foydalanayotgan erkinlikka erishishingiz mumkin.

Biz bir-birimizni tushunmaganimiz aniq edi.



– Kechirasiz, kapitan, – dedim men, – ammo bu erkinlik mahbusga turmada yurish uchun ruxsat beriladiganday gap-ku. Biz bu bilan qanoatlanib qolmaymiz.

– Xuddi shu bilan qanoatlanib qolishlaringizga to‘g‘ri keladi.

– Nima, biz vatanimiz, oilalarimiz, yor-birodarlarimiz oldiga qaytishdan abadiy voz kechishimiz kerakmi?

– Ha. Ammo jamiyatingizda qonunlar deb atalgan va odamlar unga ko‘r-ko‘rona ergashadigan jirkanch jabr-zulm mashaqqatlaridan voz kechish siz o‘ylagancha qiyin emas.

– Menga qolsa, – xitob qildi Ned Lend, – bu yerdan qochishga intilmayman deb hech qachon va‘da bermayman.

– Men sizdan buni so‘ramayman ham, Lend, – loqaydlik bilan javob berdi kapitan.

– Kapitan, – deb baqirib yubordim men o‘zimni to‘xtata olmay, – hukmronligingizni suiiste‘mol qilyapsiz! Bu – shafqatsizlik!

– Yo‘q, janoblar, bu – yumshoq ko‘ngillik! Sizlar jangdan keyin menga asir tushdingizlar. Men sizlarga hayot in‘om etyapman, vaholanki, okeanga uloqtirib tashlashim ham mumkin edi. Sizlar menga hujum qildingizlar! Sizlar biron kimsa bilishi mumkin bo‘lmagan sirdan – mening borligim to‘g‘risidagi sirdan voqif bo‘ldingizlar! Xo‘sh, mavjudligimni hech kim bilishi lozim bo‘lmagan quruqlikka qaytsak hech qanday qarshiliksiz qo‘yib yuboradi deb o‘ylaysizlarmi? Hech qachon! Sizlarni suvosti kemamda tutib turar ekanman, sizlarning manfaatlaringizni emas, shaxsan o‘zimnikini o‘ylayapman.

Kapitan shunday ohangda gapirdiki, men uni

fikridan qaytarish uchun urinish befoyda ekanligini tushundim.

– Gapning qisqasi, kapitan, sodda qilib aytganda, bizga asirlik yo o‘limdan birini tanlashni tavsiya etyapsiz, shundaymi?

– Juda to‘g‘ri.

– Do‘stlarim, – deya Konsel va Ned Lendga murojaat etdim, – masalaning bu qo‘yilishida bahslashib o‘tirishimiz noo‘rin. Ammo shuni unut-manglar, oramizda bizni shu kema xo‘jayini bilan bog‘lab turadigan hech qanday va‘da yo‘q.

– Hech qanday, – tasdiqladi kapitan.

Shundan so‘ng u so‘zini yumshoqroq ohangda davom ettirdi:

– Endi yana bir-ikki og‘iz gapim bor. Men sizni bilaman, janob Aronaks. O‘rtoqlaringiz haqida bir nima deyolmayman-u, ammo shaxsan o‘zingiz men bilan yo‘liqtirgan tasodifdan xafa bo‘lmaysiz. Hamisha foydalanib yurgan kitoblarim orasida o‘zingizning dengiz tubining sirlari to‘g‘risidagi asaringizni ham topa olasiz. Men uni tez-tez o‘qib turaman. Siz o‘z kitobingizda yerda fan uchun mumkin bo‘lgan bilim darajasiga erishgansiz. Ammo ko‘p narsadan xabaringiz yo‘q, chunki kam narsa ko‘rgansiz. Sizni ishontirib aytamanki, bu yerda ketgan vaqtingizga achinmaysiz. Mo‘jizalar o‘lkasiga sayohat qilasiz. Ajablanish, dong qotib hayratlanish aqlingizning odatdagi holatiga aylanib qolishi mumkin. Ko‘zlaringiz oldida tinmay yangilanib turadigan manzaralar yaqin orada sizni zeriktirmasa kerak. Men butun dunyo bo‘ylab yangi suvosti sayohatiga chiqishga qaror qildim. Balki bu so‘nggisidir – kim biladi? Oldingi sayohatlardagi barcha kuzatuvlarimga yakun yasamoqchiman. Bu ishda siz menga yordam berasiz. Shu bugundan

e'tiboran siz tamoman yangi dunyoga kirib borasiz. Siz hali biron kishi ko'rmagan narsalarni ko'rasiz, men hamda hamrohlarim bu hisobga kirmaydi va planetamiz sizga o'zining so'nggi sirlarini ochadi.

Kapitanning so'zlari menda g'oyat katta taassurot qoldirganligini e'tirof etmay ilojim yo'q. U tuyg'ularimning eng nozik torini chertdi va men bir zumgina bu mo'jizalarni kuzatish yo'qotgan erkimning o'rnini bosolmasligini unutdim.

Biroq keyinchalik bu muhim masalaga yana bir karra qaytishni ko'zlab, quyidagi javob bilan kifoyalana qoldim.

– Kapitan, insoniyat bilan aloqangizni uzgan bo'lsangiz ham insoniy tuyg'ulardan voz kechgandirsiz. Biz halokatga uchraganlarga rahmdillik qilib kemangizdan joy berdingiz. Men ham, do'stlarim ham buni sira unutmaymiz. Ochig'ini aytsam, fan manfaatlari yo'lida xizmat qilish shaxsan men uchun ma'lum darajada yo'qotgan erkim evaziga mukofot bo'la oladi.

Kapitan o'rtamizdagi shartni mustahkamlash uchun menga qo'lini uzatadi deb o'ylagan edim.

Biroq u bunday qilmadi. Shunday qilmagani uchun men unga ichdan achindim.

– Yana bir savol, – dedim men bu g'alati odam endi ketmoqchi bo'lib turganida.

– Qulog'im sizda, janob professor.

– Sizni nima deb chaqirishimiz kerak?

– Sizlar uchun men faqat kapitan Nemo<sup>1</sup>, siz va hamrohlaringiz esa men uchun faqat «Nautilus»<sup>2</sup> yo'lovchilari.

Kapitan Nemo bir nima deb qichqirdi. Kayu-

---

<sup>1</sup> *Nemo* – lotincha «hech kim» degani.

<sup>2</sup> *Nautilus* – lotincha kema degani.

taga styuard kirdi. Kapitan unga o'sha men tu-shunmagan tilda buyruq berdi.

Shundan so'ng kanadalik va Konselga qarab:

– Sizlar o'z kayutalaringizda nonushta qilasiz-lar, – dedi.– Marhamat qilib mana bu kishi bilan borsangiz.

– Yo'q demayman, – dedi garpunchi.

Konsel va Ned Lend o'zlari qariyb o'ttiz soat biz qamalib yotgan qafasdan chiqishdi.

– Endi, professor, navbat bizga. Nonushta tay-yor. Ruxsat bersangiz, sizga yo'l ko'rsatsam.

– Xizimatingizga hozirman, kapitan.

Men kapitan Nemo ketidan ergashdim. Biz elektr chiroqlar bilan yoritilgan oddiy kemalarnikiga o'xshash yo'lakka chiqdik va o'n metrcha yurgach, yopiq eshik oldida to'xtadik.

Kapitan Nemo eshikni lang ochib, oldin menga yo'l berdi.

Men sipohona did bilan jihozlangan va par-dozlangan ovqatxonaga kirdim. Zalning ikki tomo-nida qora yog'och qadab naqshlangan baland eman ravoqlar turardi. Uning tokchalarida san'atkorona ishlangan bebaho billur, chinni, kumush idishlar yaraqlab tovlanardi. Devor koshinlarining rangi shiftdan taralayotgan juda yorqin yog'duni yum-shatardi.

Zalning o'rtasida yasatilgan stol turardi.

Kapitan Nemo menga imo bilan joy ko'rsatdi.

– O'tiring, – dedi u, – ovqatlanib oling; dar-voqe, o'lguday ochsiz-a.

Men yalintirib o'tirmadim.

Nonushtaga baliqdan tayyorlangan bir necha xil taomlar va menga noma'lum bo'lgan allaqanday ovqatlar berishdi.

Bu taomlarning hammasi mazali, ammo tez

ko'niksa bo'ladigan qandaydir ta'mi bor edi. Nazarimda bu masalliqlar fosfoga boy edi, binobarin, ular dengizdan olingandir deb o'yladim.

Kapitan Nemo ko'z uzmay menga qarab turar edi. Undan hech nima so'raganim yo'q, ammo o'zi men bermagan, lekin tilimning uchida turgan savollarga javob bera boshladi.

– Bu taomlarning ko'pini siz bilmaysiz, – dedi u. – Ammo baribir sira xavotirlanmay yeyaberingiz mumkin. Bularning hammasi foydali va to'yimli. Men yerda yetishtiriladigan oziq-ovqatlarni anchadan buyon yemayman, ammo shunga qaramay, o'zimni juda yaxshi his etyapman. Men yeydigan oziq-ovqatlardan tamaddi qiladigan butun ekipajim ham havas etsa arziydigan darajada sog'lom.

– Demak, bu noz-ne'matlarning hammasi dengiz mahsulotimi?

– Ha, professor, dengiz butun ehtiyojimni qondiryapti. Ba'zan men to'r tashlayman, ular biror marta ham bo'sh chiqqan emas. Ba'zan men boshqalarning qadami yetolmaydigan tabiat olamiga ovga boraman va suvosti o'rmonlarimda yashayotgan «qushlar»ni quvaman. Mening podalarim keksa cho'pon Neptunning<sup>1</sup> podalari singari okean kengliklarida bemalol o'tlab yurishadi.

Mulklarim behad katta va ulardan yolg'iz o'zim foydalanaman.

Men kapitan Nemoga taajjublanib qarab, javob berdim:

– To'rlar dasturxoningizga ajoyib baliq keltirayotganini bilib turibman, kapitan. Men qandayligini bilmayman-u, ammo sizning o'z suvosti o'rmonlaringizda «qush» ovlayotganingizni rost

---

<sup>1</sup> Neptun – qadimgi rimliklarda dengiz xudosi.

deb faraz qilaylik; biroq men bir narsaga hayronman. Ozgina bo'lsa ham, dasturxoningizdagi go'sht qayerdan kelyapti?

– Men quruqlikda yashaydigan hayvonlarning go'shtini mutlaqo yemayman, – deya e'tiroz bildirdi kapitan Nemo.

– Bu-chi? – so'radim men bir necha bo'lak qovurilgan go'sht solingan taomga ishora qilib.

– Siz quruqlikda yashaydigan jonivorning go'shtidan deb taxmin qilgan taomingiz dengiz toshbaqasining qovurilgan go'shti, xolos. Mana bu delfinning jigaridan tayyorlangan qaylaning ta'mi sizga cho'chqa go'shtidan qilingan qovurdoqday tuyulishi mumkin. Mening oshpazim – mohir pazanda. Baliq va boshqa dengiz hayvonlari go'shtidan taom tayyorlashda unga teng keladigani yo'q. Mana bu qisqichbaqa konservalarini istagan malayyalik dunyodagi eng zo'r konserva deb baholashi mumkin; mana bu kremning qaymog'i kitning yelinidan olingan, qand – Shimoliy dengizning suv o'simliklaridan; nihoyat mana bu murabbo anemonlardan.

Men ularning hammasidan och bo'lganim uchun emas, kapitan Nemoning gaplariga qiziqib qolganimdan tatib ko'rdim.

– Dengiz, – deya davom etdi u, – meni to'ydiribgina qolmay, kiyintiradi ham. Ustingizdagi kiyimning matosi ayrim dengiz chig'anoqlarining bissuslaridan to'qilgan. U shajaraning qirmizi rangiga bo'yalgan, binafsharang tovlanishi O'rtayer dengizi molluskalaridan biri apliziy shirasi yordamida olingan. Sizga ajratilgan kayutadagi stolcha ustida turgan atir ayrim o'simliklarni qaynatish yo'li bilan olingan. O'rin-ko'rpangizdagi to'shak okeanning eng yaxshi o'tlaridan qilingan. Siz yoza-

digan pero – kit mo‘ylovidan, siyoh – karakatitsa<sup>1</sup> bezlaridan. Hozir men nimadanki foydalanayotgan bo‘lsam, hammasi dengizdan olinyapti va bularning barchasi vaqti kelib yana dengizga qaytadi.

– Dengizni sevasizmi, kapitan?

– O‘-o‘, nimasini aytasiz, sevganda qandoq. Dengiz – bu men uchun hamma narsa. U yer sharining o‘ndan yetti qismini egallab turibdi. Suvi toza va hayotbaxsh. Uning bepoyon kengliklarida odam o‘zini sira yolg‘iz his etmaydi, chunki hamisha atrofida hayot nafasi ufurayotganini sezib turadi. Chindan ham, axir dengizda tabiatning har uchala dunyosi – minerallar, o‘simliklar va hayvonlar bor. So‘nggisiga zoofitlarning<sup>2</sup> juda ko‘p namoyandalari, bo‘g‘inoyoqlarning ikki sinfi, molluskalarning besh sinfi, umurtqalilar, sutemizuvchilar, sudraluvchilarning uch sinfi va son-sanoqsiz baliqlar kiradi. Hayvonot olamining juda ko‘p sinflari o‘n uch mingdan ortiq turlarga egaki, bularning o‘ndan bir qismigina chuchuk suvlarda yashaydi. Dengiz – tabiatning ulkan rezervuari. Yer sharida hayot dengizdan boshlangan, kim bilsin, balki u vaqti kelib yana dengizda tugar? Dengizda – o‘ta osoyishtalik... Dengiz zo‘ravonlarniki emas. Ular dengiz sathida jang qilib, bir-birlarini qirishlari, quruqlikdagi hayot qabohatlarini qaytarishlari mumkin. Ammo o‘ttiz fut chuqurlikdagi suv ostida ularning hukmronliklari tugaydi. Eh, professor, dengiz qa‘rida yashang! To‘la mustaqillik faqat shu yerda, faqat shu yerda inson chinakamiga ozod, shu yerdagina uni hech kim ezolmaydi!

Kapitan Nemo to‘satdan o‘zining otashin so‘z-

<sup>1</sup> *Karakatitsa* – yumshoq tanli dengiz molluskasi.

<sup>2</sup> *Zoofitlar* – jonivor-o‘simliklar. Ilgari ignaterilar, mshankalar, ichakbo‘shlar, bulutlar (suv jonivori) va ayrim qurtlarni shunday deb atashgan.

larini to'xtatdi. U odatdagi vazminligini buzganiga pushaymon bo'lmadimikin? Ortiqcha so'zlab qo'yganidan cho'chimayotganmikin?

Bir necha minut davomida ovqatxonada haya-jonlanib yurdi. So'ngra asablarini jilovlab oldida, yuziga odatdagi sovuq ulug'vorlik ifodasini berib, menga quyidagi so'zlar bilan murojaat qildi:

– Endi, professor, «Nautilus»ni ko'rib chiqmoqchi bo'lsangiz, xizimatingizga tayyorman.

## ***O' n b i r i n c h i b o b***

### **«NAUTILUS»**

Kapitan Nemo eshik tomon yurdi. Men uning orqasidan bordim. Ovqatxonaning oxiridagi ikki tavaqali eshik ochilib, biz qo'shni xonaga kirdik. Bu uy kattaligi jihatidan ovqatxonadan qolishmaydigan kutubxona edi. Palisandr<sup>1</sup> yog'ochidan qilinib, oltin suvi yugurtib pardoziqlangan baland, shiftga yetgan shkaflarda bir xil muqovali juda ko'p kitoblar saqlanardi. Shkaflar uy devorlarini qoplab olishgan. Keng, jigarrang charm sirilgan divanlar kishini dam olishga chorlardi. Ularning yaqinida kitob ostiga qo'yiladigan yengil ko'chma chorpoyachalar turardi.

Ustiga bir quchoq kitob uyib qo'yilgan katta stol xonaning o'rtasini egallab turar edi. Uning ustida eski gazetalarning bir necha nusxalari ham bor edi.

Bu hashamatli zalni shiftga o'rnatilgan to'rtta yarim shar shaklidagi elektr lampalar yoritib turar edi.

Chiroyli jihozlangan juda qulay bu xonani zavq bilan ko'zdan kechirdim.

---

<sup>1</sup> *Palisandr* – ba'zi tropik daraxtlarning qattiq, qimmatbaho yog'ochi.



– Kapitan Nemo, – dedim men, – mana bu kutubxona bilan yerdagi har qanday saroy faxrlansa arziydi. Okean qa'rida shunday ajoyib kutubxonangizning borligi meni hayratga solmoqda!

– Ishlash uchun bundan qulayroq sharoitni qayerdan topasiz, professor? – dedi kapitan. – Parij muzeyidagi kabinetingiz shunchalik osoyishta bo'ladimi?

– Yo'q, albatta... Ochig'ini aytsam, bu zal oldida u juda qashshoq. Bu yerda kamida olti-yetti ming kitob bordir?

– O'n ikki ming, janob Aronaks. Meni yer bilan bog'lab turgan yakka-yu yagona narsa shu. Biroq «Nautilus» birinchi marta suvga sho'ng'igan kundan e'tiboran men uchun dunyo yo'qoldi. O'sha kuni men so'nggi kitob va risolalarni, gazetalarning so'nggi nusxalarini sotib olgan edim. O'shandan beri men uchun insoniyat o'ylashdan va yozishdan to'xtadi. Bu kitoblar, professor, butunlay sizning ixtiyoringizda – ulardan istagan vaqtingizda xohlaganingizcha foydalanavering.

Kapitan Nemoga minnatdorchilik bildirgach, kutubxona tokchalariga yaqinlashdim. Men u yerda aniq fanlarning turli sohalariga doir, falsafa, adabiyotga doir barcha tillarda yozilgan kitoblarni ko'rdim.

Qiziq bir narsa diqqatimni o'ziga tortdi: hamma kitoblar qaysi tilda yozilganidan qat'i nazar, alfavit tartibida turardi. Bu kapitan Nemoning hamma tillarni yaxshi bilishidan dalolat berardi.

Men kutubxonaga inson tafakkuri yaratgan eng ajoyib narsalarni – fan sohasida ham, badiiy proza va poeziyada ham: Gomerdan tortib Viktor Gyugogacha, Ksenofontdan Mishlegacha, Rabledan Jorj

Zandgacha qadimiy va hozirgi zamon avtorlarining asarlarini ko'rdim. Ammo bu kutubxonada ilmiy kitoblar har holda ko'proq edi. Bilishimcha, kapitanining ilmiy mashg'ulotlarining asosiy predmeti tabiiyot tarixi bo'lishiga qaramay, ballistika<sup>1</sup> mexanikasi, gidrologiya<sup>2</sup>, meteorologiya, geografiya, geologiya va hokazolarga oid kitoblar ham kam emasdi. Tokchalarda Gumboldt, Aragoning barcha asarlari, Fuko, Anri Sen Kler-Devil, Shasl, Miln-Edwards, Katrfaj, Tindal, Faradey, Bertello, Abbat Sekki, Petermann, Mori, Agasits asarlari, akademiyalarning «Solnoma»lari, turli geografik jamiyatlarning bulletinlari va hokazolar, xuddi shu faxrli jamoa yonida kapitanning menga ko'rsatgan hurmatidan minnatdor bo'lishim kerakdir, mening o'sha ikki tomligim ham turar edi. Jozef Bertranning «Astronomiya asoslari» kitobi menga bir sanani aniqlab olish imkonini berdi: bu kitob 1865-yilning o'rtalarida chiqqanini bilardim; bundan chiqdi, «Nautilus» shundan oldin suvga tushmagan.

Demak, kapitan Nemo ko'pi bilan bundan uch yil muqaddam suvosti sayohatiga chiqqan!

Bordi-yu, bundan ham keyinroq chiqqan kitoblar topilib qolsa, suvosti kemasining dengizga tushirilgan vaqtini yanada aniqroq belgilab olish mumkin, deb o'yladim o'zimcha. Ammo bu masalalarni bilib olish uchun hali oldinda yetarli vaqt bor, hozir esa «Nautilus» mo'jizalarini ko'rib chiqishni kechiktirgim kelmadi.

– Kutubxonangizdan foydalanishga ruxsat ber-

---

<sup>1</sup> *Ballistika* – artilleriya snaryadlarining uchishini o'rganadigan fan.

<sup>2</sup> *Gidrologiya* – yer sharining suv bilan qoplangan (okeanlar, dengizlar, ko'llar va daryolar) qismining fizik xususiyatlarini o'rganadigan fan.

ganingiz uchun rahmat, kapitan. Bu chinakam fan xazinasi va men undan foydalanaman.

– Bu uy faqat kutubxona bo‘libgina qolmay, balki chekadigan joy ham.

– Chekadigan joy?!– qichqirib yubordim men.– «Nautilus»da chekishadimi?

– Albatta.

– Unday bo‘lsa, kapitan, siz Gavana bilan aloqa bog‘lab turar ekansiz-da?

– Mutlaqo, – javob berdi kapitan Nemo. – Mana bu sigarani chekib ko‘ring, professor, u Gavananiki emas, ammo kashanda bo‘lsangiz sizga ma‘qul tushadi.

Men ko‘rinishdan eng yaxshi Gavana sigaralariga o‘xshagan, ammo rangi ochroq, oltinrang yaproqlardan o‘ralgan sigarani olib, bronza shamdondagi shamdan tutatdim. Ikki kun tamakidan mahrum bo‘lgan ashaddiy kashandaday ochko‘zlik bilan tutundan tortdim.

– Juda zo‘r sigara, ammo... demak, bu tamaki emas ekan-da?

– Yo‘q, – deb javob berdi kapitan. – Bu, tarkibida nikotin ko‘p bo‘lgan turli xil dengiz o‘tlari. Endi Gavana sigaralariga qalaysiz?

– Shu daqiqadan boshlab men ulardan irgana-man.

– Unday bo‘lsa, sigaraning qayerdan kelib chiqqanini surishtirmay, istaganingizcha chekavering. Bular uchun hech qanaqa tamaki monopoliyasi soliqli olgani yo‘q. Ammo bu bilan sigaralar bemazaroq bo‘lib qolmadi, shunday emasmi?

– Juda to‘g‘ri.

Shu payt kapitan Nemo biz boyagina kutubxonaga kirgan joyning ro‘parasidagi eshikni katta ochdi va biz ulkan, yaxshi yoritilgan salonga kirdik.

Bu burchaklari kesik, uzunligi o'n, eni olti va balandligi besh metr keladigan katta zal edi. Shift sathi bilan bir tekisda bo'lgan chiroyli jimjimador naqshli lampalar bu muzeydagi mo'jizalarga yorqin, ammo ko'zni qamashtirmaydigan yog'du sochardi. Ha, bu chinakam muzey edi! Epchil va saxiy qo'llar bu yerga tabiat va san'at xazinasini rassom xonasi-dagiday tartibsiz holdagi go'zalligi bilan yiqqan edi. Buyuk rassomlarning bir xil ramkalaridagi o'ttizga yaqin asarlari odmi gulli mato tortilgan devorlarni bezab turardi. Rasmlar oralig'ida qalqon va qurollar hamda barcha ritsarlik yarog'-aslahalarini taqib olgan haykalchalar turardi.

Men ilgari Yevropa vistavkalarida hamda shaxsiy rasmlar galereyasida tomosha qilib yurganimizda juda bebaho asarlarni ko'rdim. Qadimgi san'atkorlar mahorati bu yerda Rafaelning «Ma'budasi», Leonardo da Vinchining «Qiz bola»si, Korredjioning «Gung»i, Titsianning «Ayol»i, Veronezening «Sehrgarlar sajdasi», Muriloning «Maqtov»i, Golbeynning «Portret»i, Velaskeznining «Monax»i, Riberning «Jafokash»i, Tenersning «Yarmarka»si, Rubensning Flamandiyaning ikki peyzaji, Jerar-Dou, Metsu, Pol Potterlar uslubidagi uchta kichik-kichik asar, Jeriko va Pryudonning ikki kartinasi, Bakyuyzen va Vernening bir necha dengiz manzaralari orqali namoyish qilingan edi. Hozirgi zamon rassomchilik san'ati namunalari orasida men Delakrua, Engr, Dekan, Truayn, Meyssone, Dobini va boshqalar yaratgan asarlarni uchratdim.

Antik haykaltaroshlarining marmar va bron-zadan ishlagan haykallarining bir necha maftunkor nusxalari bu ajoyib muzeyning burchaklaridagi baland tagliklarda turardi.

Kapitan Nemoning oldindan aytib qo'ygan

soʻzlari toʻgʻri chiqa boshladi: «Nautilus»ni koʻrib chiqish uchun qoʻyilgan dastlabki qadamlardayoq men hayratga tushdim.

– Mulozamat koʻrsatmay, yigʻishtirilmagan, tartibsiz xonaga sizni boshlab kelganim uchun meni kechirarsiz, degan umiddaman, professor, – dedi bu gʻalati odam.

– Kapitan,– deya javob berdim men,– ochigʻini aytсам, siz haqiqiy artist ekansiz!

– Oʻ-oʻ, yoʻq, havaskorman, xolos, – eʻtiroz bildirdi u. – Inson tafakkuri yaratgan bu ajoyib asarlarni yigʻish menga quvonch baxsh etardi. Men hormay-tolmay izladim, xarid qilishga oʻch edim. Shuning uchun bu bir qancha juda qimmatbaho narsalarni qoʻlga kiritdim. Bu – men uchun oʻlgan yerdan soʻnggi xotiralardir. Nazarimda, hatto hozirgi zamon rassomlaringiz ham qadimiy sanʻatkorlardir. Buyuk isteʻdod egalarining hozirgisi, qadimgisi boʻlmaydi.

– Mana bu musiqachilar-chi? – soʻradim men Veber, Rossini, Motsart, Betxoven, Gaydn, Meyerber, Vagner, Ober, Guno va boshqalarning ikki eshik oraligʻidagi joyni egallab turgan katta pianino-organning ustida sochilib yotgan partituralariga ishora qilib.

– Bu musiqachilar men uchun Orfey<sup>1</sup> zamon-doshlaridir. Oʻlganlar xotirasida vaqt tafovuti qolmaydi, professor, men esa oʻsha sizning tuproq ostida yotgan yor-birodarlaringiz singari oʻlgan odamman...

Kapitan Nemo jim qolib, chuqur oʻyga toldi. Men unga katta qiziqish bilan indamay qarab turib, yuz

---

<sup>1</sup> Orfey – qadimgi grek mifologiyasidagi ashulachi. U oʻz qoʻshiq-lari bilan daraxtlar va qoyalarni harakatga keltirgan, yirtqich hayvonlarni oʻziga rom qilgan.

tuzilishining o'ziga xos belgilarini qidirardim. U qimmatbaho stolchaga suyangan, meni ko'rmas va aftidan, yonidaligimni ham tamoman unutgan edi.

Men uning xayolini bo'lmaslik uchun bu salonga to'plangan mo'jizalarni ko'rishni davom ettirdim.

San'at asarlari bilan bir qatorda tabiat yaratgan nodir narsalar ham kattagina o'rin egallab turardi. Bular asosan o'simliklar, chig'anoqlar va okeanning boshqa o'simlik va hayvonot dunyosining mahsulotlari bo'lib, aftidan, kapitan Nemo o'z qo'li bilan yig'anga o'xshardi.

Salonning o'rtasida ostidan elektr chirog'i bilan yoritilgan favvora bor edi; suv zarrachalari tridaknaning juda katta chig'anog'idan qilingan hovuzga tushib turar edi. Tridaknaning aylanasi olti metrcha kelardi. Binobarin, u hatto Venetsiya Respublikasi qirol Fransisko I ga tuhfa etgan mashhur chig'anoqdan ham katta edi.

Hovuz atrofidagi mis bilan pardozlangan chiroyli oynaband vitrinalarga tabiatshunos yetti uxlab tushida ham ko'rmagan eng nodir dengiz mo'jizalari qo'yilgan. Bir qarashdayoq qanchalik quvonib ketganimni tasavvur qila olsangiz kerak.

Zoofitlar bo'limi bu yerda poliplar<sup>1</sup> va tikanterililar orqali namoyish etilgan edi. Birinchilari orasida yelpig'ichsimon gorgoniylar, dengiz organchalari, suriya bulutlari, moluk marjonlari, alsi-oniyning ajoyib nusxasi, odamni hayratga soladigan yelpig'ich yaproqlar, Reyunyon orolidan ko'zchalar va madreporlarning juda katta kolleksiyasi bor edi-ki, bular orasida Antil orollaridan olingan «Neptun aravachasi» ayniqsa diqqatni o'ziga tortardi. Bu yerga marjonlarning turli xillari yig'ilgan bo'lib,

<sup>1</sup> Polip – bir joyda qimirlamay yashaydigan dengiz hayvoni.

odatda, ularning toʻdalari butun-butun orollarni, asrlar oʻtishi bilan esa ehtimol qitʼalarni ham vujudga keltirishi mumkin boʻladi. Dengiz yulduzlari-ning bir necha turlari, dengiz koʻzachalari (goloturiy), dengiz tipratikanlari, ilondumlilar va boshqalar bu yerga kosasi tikanaklar hamda nayzachalar bilan qoplangan tikanterililarning namoyandalari sifatida qoʻyilgan.

Mening oʻrnimda asablari zaifroq konxiolog boʻlganida, molluskalar kolleksiyasi oʻrin olgan narigi vitrinani koʻrishi bilanoq yuragi yorilib oʻlardi. Bu eksponatlar bebahodir va ularni tavsiflash uchun butun bir tomni bagʻishlash lozim boʻlur edi. Shuning uchun ham eng diqqatga sazovorlarini sanab oʻtish bilan kifoyalanaman. Kapitan Nemo kolleksiyasida Hind okeanining sidirgʻa qizgʻish jigarrang ustiga mutanosiblik bilan joylashgan oq dogʻli chiroyli bolgʻasi; hamma yogʻi mayda donachalar bilan qoplangan va yaltillab turadigan «imperator spondiliysi», bunga istagan Yevropa muzeyi yigirma ming frankni ayamasi; topilishi deyarli mumkin boʻlmagan avstraliya bolgʻasi; nafas tegsa sochilib ketadigan darajada moʻrt senegal yuraksimonlari – qoʻsh-tabaqa, oq ohak naychalarining chetlari jimjimador va ishqibozlar yuksak baholaydigan bir necha Yavana dengiz leykalari; Amerika suvlarida uchraydigan sariq-yashil, Yangi Zelandiya sohillarida yashaydigan toʻq kulrang, Meksika qoʻltigʻida uchraydigan toshbaqasimon chigʻanogʻi bilan ajraladigan boʻgʻinoyoqlilarning juda koʻp xillari; bulardan tashqari, oltingugurtli juda gʻalati tellinlar, siter va venuslarning qimmatbaho navlari, sadaf tangachali marmar kubarna; yana Hindistonda tanga oʻrnida ishlatiladigan «ilonboshi» chigʻanoqlarining hamma turlari; Sharqiy Hindistonning «dengizga shon-

sharaf» degan eng qimmatbaho chig'anog'i; niho-yat, olimlar juda chiroyli nomlar bilan atashgan na-fis va mo'rt chig'anoqlar – minorachalar, yantinlar, mitrlar, kaskalar, bagretslar, arfalar, tritonlar, pte-rotserlar, patellalar, gialeylar, kleodorlar bor edi.

Ayrim vitrinalarda elektr yog'dusida chaq nab turgan mislsiz chiroyli marvarid shodalari: Qizil dengiz qa'ridan olinadigan pushti rang marvarid, turli molluskalar badanidan chiqadigan va deyarli barcha dengiz hamda okeanlarda uchraydigan ya-shil, sariq, ko'k, qora marvaridlar turardi.

Bu marvaridlardan ba'zilar kaptar tuxumidan kattaroq edi. Ular sayyoh Tavernening Eron shohi-ga uch millionga sotgan marvarididan ham qim-matroq, chiroyda esa men dunyoda eng chiroyli deb hisoblaganim imom Masqatiyning marvarididan ham afzalroq edi.

Xullas, bu kolleksiyani baholash sira mumkin emas edi. Kapitan Nemo bunday kolleksiya uchun millionlarni sarf etgan bo'lishi kerak.

Bu quloq eshitmagan boyliklar qayerdan olingan ekan deb o'ylayotganimda birdan kapitan menga murojaat qilib qoldi:

– Kolleksiyalarimni ko'ryapsizmi, professor?

U chindan ham naturalistning diqqatini jalb etishga molikdir. Ammo men uchun ular yanada qadrliroq, negaki, bularning har birini o'z qo'llarim bilan yig'ganman va yer yuzida bu vitrinalar uchun biror narsa bermagan dengiz yo'q.

– Kapitan, bu boyliklarni har ko'rganda qu-vonishingizning sababini yaxshi tushunaman. Yev-ropa muzeylaridan birontasida ham bunaqa kol-leksiya yo'q! Ammo men zavqlanishimning ham-masini muzeyni ko'rishga sarflasam, unda kemani ko'zdan kechirganda nima qilaman? Men odob va



kamsuqumlikni bir chekkaga yig'ishtirib qo'yib, sirlaringizni bilib olishga harakat qilaman, ammo oldindan aytib qo'yay, «Nautilus»ning o'zi, uni harakatga keltirayotgan kuch, kemaning shu qadar tez yurishini ta'minlayotgan mexanizmlar meni ko'proq qiziqtirmoqda. Bu salon devorida qanday xizmatni o'tashi menga noma'lum bo'lgan asboblarni ko'rib turibman. Men so'ramoqchi bo'lgan...

– Janob Aronaks, – deya mening so'zimni bo'ldi kapitan, – men sizning bu kemada erkin odam ekanligingizni ilgaridan aytib qo'ydim, binobarin, «Nautilus»da sizning borishingiz man etilgan bironta burchak yo'q. Kemani istaganingizcha ko'rishingiz mumkin va men bajonidil sizga hamroh bo'lib, uni ko'rsatishga tayyorman.

– Sizga qanday minnatdorchilik bildirishga ham hayronman, kapitan. Iltifotingizni suiiste'mol qilmaslikka harakat qilaman. Bir narsani bilib olishimga ijozat bersangiz, fizikaga doir mana bu asboblarnimaga ishlatiladi?

– Xuddi shunday asboblarni, professor, kayutamda ham bor, bularning nimaga ishlatilishini o'sha yerda aytib beraman. Ammo hozir sizga ajratilgan kayutaga boraylik. Axir siz «Nautilus»da qanday sharoitda yashashingizni bilishingiz kerak-ku.

Men kapitan Nemoga ergashib tor yo'lakdan ketaverdim. Kema tumshug'iga yetgach, kapitan Nemo meni kayutaga, to'g'rirog'i, karavot, tualet stolchasi, kreslolar va boshqalar bilan jihozlangan juda chiroyli keng xonaga boshlab kirdi.

Benihoya minnatdorchilik bildirdim.

– Sizning kayutangizdan menikiga o'tish mumkin, – dedi kapitan eshikni ocha turib, – meniki-

dan esa biz hozirgina chiqib kelgan salonga kirsam bo'ladi.

Biz kapitanning kayutasiga kirdik. Temir karavot, ish stoli, bir necha stul, umivalnik – butun jihoz shundan iborat edi. Eng zarur narsalar, ortiqcha hech nima yo'q.

Kayuta nim qorong'i edi. Kapitan Nemo stulga ishora qildi:

– Marhamat, o'tiring.

Men o'tirdim. U biroz indamay turdi-da, so'ng so'zlay ketdi.

## ***O' n i k k i n c h i b o b***

### **HAMMA NARSA ELEKTR VOSITASIDA**

– Mana bu yoqqa qarang, professor, – deb so'z boshladi kapitan Nemo xona devorlarida osig'liq turgan asboblarga ishora qilib. – Bular «Nautilus»ni boshqarishga xizmat qiladigan apparatlar. Bu yerda ham salondagiday bular hamisha mening ko'z oldimda bo'ladi va «Nautilus»ning okeanning qayerida turganini va yo'nalishini aniq ko'rsatadi. Mana bu «Nautilus»dagi havo haroratini ko'rsatadigan termometr; bunisi barometr, u havo bosimini aniqlaydi va bu bilan havoning o'zgarishini oldindan aytib turadi, gigrometr atmosferada namlik miqdorini ko'rsatadi; kema yo'nalishini ko'rsatadigan kompas, quyosh balandligiga qarab joyning kengligini aniqlaydigan sekstant; geografik uzunlikni belgilaydigan xronometrlar; nihoyat, kunduzgi va tungi kuzatuv trubalari, «Nautilus» suv sathiga chiqqanda, men bular yordamida ufqni kuzataman.

– Bu asboblarning hammasi, – deb javob berdim men, – kemachilikda ishlatib kelinmoqda va bularning hammasi menga ilgaridan tanish. Biroq

mana bu yerda menga ma'lum bo'lmagan allaqanday asboblar bor. Ehtimol «Nautilus»ni boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ana shularga bog'liqdir. Mana bu harakat qilib turadigan milli katta siferblat manometr emasmi?

– Ha, bu manometr. U kema tashqarisidagi suv bosimini o'lchaydi va bular «Nautilus»ning suvga qancha cho'kkanini ko'rsatib turadi.

– Mana bular zondlarmi?

– Ha, faqat yangi konstruksiyadagisi. Bular turli suv qatlamlaridagi haroratni o'lchaydigan termometrik zondlar.

– Mana bu asboblar-chi? Bularning nimaga ishlatilishiga aqlim yetmay turibdi.

– Buning uchun, professor, oldin sizga ba'zi bir narsalarni tushuntirishga to'g'ri keladi, – deb javob berdi kapitan Nemo.

U birpas jim turdi-da, keyin so'z boshladi:

– Tabiatda itoatkor, tezkor va ishlatilishi qulay kuch bor. Mening kemamdagi hamma ishlarni shu kuch bajaradi: u yog'du beradi, isitadi, mashinalarni harakatga keltiradi. Bu kuch – elektr.

– Elektr deysizmi?! – ajablanib xitob qildim men.

– Ha.

– Biroq sizning kemangiz g'ayritabiiy tezlik bilan suzadi-yu, kapitan. Elektr to'g'risida bizga ma'lum tushunchalar sizning gaplaringiz bilan sira qovushmaydi. Hozircha uning mexanik kuchi juda cheklangan.

– Bilasizmi, professor, – deb javob berdi kapitan Nemo, – mening elektr quvvatidan foydalanish usulim hamma foydalanayotganidan boshqacha. Xafa bo'lmasangiz, bu borada shu gapning o'zi bilan cheklansam.

– Sizning bu gaplaringiz meni qanchalik taajjub-

lantirgan bo'lmasin, zo'rlamayman, kapitan. Aybga buyurmasangiz faqat birgina savolim bor. Axir bu aql bovar qilmaydigan kuchni olish manbayiga xizmat etadigan elementlar, ayniqsa, rux juda tez tugab qoladi-ku. Yer bilan aloqa qilib turmaganingizdan keyin ularning o'rnini qanday to'ldirasiz?

– Bu savolga jonim bilan javob beraman, – dedi kapitan Nemo. – Avvalo shuni bilib qo'yingki, dengiz qa'rida rux, temir, kumush, oltin va boshqa metallarning koni bor, ularni qayta ishlash esa unchalik og'ir emas. Ammo men yerda ishlatiladigan bu metallardan foydalanmayman. Men kerakli miqdordagi energiyani dengizdan olaman.

– Dengizdan?

– Ha, professor, dengizdan. Dengizdan elektr energiyasi olishning yo'llari ko'p. Chunonchi, men turli chuqurlikka tushirilgan o'tkazgichlar orqali ularni o'rab turgan suv qatlamlaridagi har xil suv haroratidan tok olishim mumkin. Ammo men boshqa qulayroq usuldan foydalanishni afzal ko'rdim.

– Qanaqa usuldan?

– Siz dengiz suvi tarkibini bilasiz-a? Uning yuzdan to'qson olti yarim qismi sof suv, taxminan ikkiyu uchdan ikki qismi natriy xloriddir<sup>1</sup>. Bundan tashqari, uning tarkibida biroz magniy xlorid va kalsiy xlorid, bromli magniy sulfat, sulfat kislotasi va uglekalsiy tuzi bo'ladi. Ko'rib turibsizki, xlorli natriy dengiz suvida juda ko'p. Men o'z elementlarimga xuddi mana shu xlorli natriyni ishlataman.

– Xlorli natriyni deysizmi?

– Ha. U simob bilan birikkach, Bunzen elementlarida ruxning o'rnini bosa oladigan amalgama<sup>2</sup> hosil etadi. Simob elementlarda parchalanmay-

---

<sup>1</sup> Natriy xlorid – oddiy osh tuzi.

<sup>2</sup> Amalgama – biror metallning simobdagi aralashmasi

di. Shunday qilib, faqat natriy sarflanadi, uni esa menga dengiz beradi. Sizga yana shuni ham aytib qo'yayki, nima bo'lganda ham natriy elementlari ruxnikidan ikki baravar kuchliroq.

– Sizning sharoitingizda natriyning afzalligini tushunib turibman, kapitan. Dengizda uni istagancha topish mumkin. Bu juda soz. Biroq oldin natriyni xlorli birikmadan ajratib sof holga keltirish kerak-ku! Buni qanday amalga oshirasiz? Shubhasiz, batareyalaringiz xlorli natriyni elektroliz<sup>1</sup> qilishga xizmat eta oladi, biroq adashmasam, elektrolizga undan olinadigandan ko'ra ko'proq natriy sarflanadi. Binobarin, siz yangi olganingizdan ko'proq natriy sarflaysiz-ku!

– Xuddi mana shuning uchun ham, professor, natriyni elektroliz yo'li bilan olmayman, balki toshko'mir yoqib, uning energiyasidan foydalanaman.

– Toshko'mir? Demak, siz baribir yer bilan aloqa bog'lab turar ekansiz-da?

– Yo'q. Istasangiz uni dengiz ko'miri deb atashimiz mumkin.

– Demak, siz suvosti konlaridan toshko'mir olish yo'lini topibsiz-da?

– Siz buni o'z ko'zlaringiz bilan ko'rasiz, professor. Faqat biroz sabr qiling: vaqt bemalolliги ham bardoshli bo'lishingizni taqozo etadi. Faqat bir narsani unutmang: men mutlaqo hamma narsani okeandan olaman. U menga elektr beradi, elektr esa «Nautilus»ga issiqlik, yorug'lik, harakat – xullas, bir so'z bilan aytganda, hayot beradi!

– Ammo nafas olish uchun havodan boshqa hamma narsani.

---

<sup>1</sup> *Elektroliz* – biror eritma orqali tok o'tganda shu eritmadagi moddaning tarkibiy qismlarga ajratilishi.

– O‘-o‘, kerak bo‘lsa, yetarli miqdorda havo olishim ham oson edi, ammo bunga hojat yo‘q, chunki men istagan vaqtimda okean sathiga ko‘tarilishim mumkin. Sirasini aytganda, elektr maxsus rezervuarlarga havo berib turuvchi kuchli nasoslarni harakatga keltiradi, zarurat tug‘ilganda shulardan foydalanib, uzoq muddat suv ostida turishim mumkin.

– Kapitan, – dedim men, – sizning oldingizda faqat bosh egishim mumkin. Aftidan, siz odamlar ancha keyinroq kashf etishi mumkin bo‘lgan elektrning juda katta mexanik kuchini oldinroq ochishga muvaffaq bo‘lganga o‘xshaysiz!

– Bilmadim, odamlar buni umuman kashf eta olarmikin, – deya sovuqqonlik bilan javob berdi kapitan Nemo. – Ammo nima bo‘lsa ham men bu hayratomuz kuchdan qanday foydalanayotganimni bilib oldingiz. Ana shu kuch kemaga doimiy va uzluksiz yorug‘lik berib turadi, bu imkoniyat hatto quyoshda ham yo‘q. Endi mana bu soatni qarang – u elektr soat, to‘g‘ri yurishda eng yaxshi xronometrlardan qolishmaydi. Uning siferblatini italyan soatlari singari yigirma to‘rtga bo‘ldim, chunki men uchun kunduzi ham, kechasi ham, quyosh ham, oy ham yo‘q, faqat dengiz qa‘rida ortimdan qoldiradigan sun‘iy yog‘du bor. Qarang, ertalabki soat o‘n.

– Juda to‘g‘ri.

– Mana bunisi elektrdan foydalanishning boshqa yo‘li. Ko‘z oldingizda osig‘liq turgan siferblat «Nautilus»ning tezligini ko‘rsatishga xizmat qiladi. Lag vintidan siferblatga sim tortilgan, uning mili menga kema qanday tezlikda ketayotganini aytib turadi. Ko‘ryapsizmi, hozir biz ancha sekin – soatiga o‘n besh milya bosyapmiz.

– Qoyil! – xitob qildim men. – Tabiiy kuchni tanlab to‘g‘ri ish qilganingizni endi ko‘rib turib-

man, kapitan. Bugʻ kuchining elektr bilan almash-  
tirilganidan kemangiz faqat yutgan.

– Biz hali kemani tamoman koʻrib boʻlganimiz  
yoʻq, professor, – dedi kapitan Nemo stuldan turar  
ekan. – Charchamagan boʻlsangiz «Nautilus»ning  
quyruq tomoniga yuring.

Darhaqiqat, suvosti kemasining tumshuq qis-  
mini koʻrib boʻlgan edim. Kemaning oʻrtasidan  
tumshugʻigacha joylashgan xonalar oʻz tartibi bi-  
lan quyidagicha edi: kutubxonadan suv oʻtkaz-  
maydigan toʻsiq bilan ajratilgan uzunligi besh  
metrli oshxona; uzunligi besh metrli kutubxona;  
kapitanning xonasidan suv oʻtkazmaydigan, ikkin-  
chi toʻsiq bilan ajratilgan uzunligi oʻn metrli katta  
salon; kapitanning uzunligi besh metrli xonasi; ikki  
yarim metrli mening xonam va nihoyat forshteven-  
gacha choʻzilib borgan uzunligi yetti yarim metrli  
havo saqlaydigan rezervuar.

Umuman, kemaning bu qismining uzunligi oʻt-  
tiz besh metr edi. Suv oʻtkazmaydigan toʻsiqlar-  
ning eshiklari mahkam yopiladigan qilib ishlangan  
boʻlib, bu «Nautilus»ning biron yeri teshilgan taq-  
dirda ham uni suv bosish xavfidan saqlar edi.

Men kapitan Nemoning ortidan yoʻlaklar boʻy-  
lab kemaning oʻrtasiga keldim. U yerda suv oʻt-  
kazmaydigan ikki toʻsiq orasida torgina chuqurlik  
bor edi. Devorga vint bilan mahkamlangan temir  
narvon shiftga olib chiqar edi. Men kapitandan bu  
chuqurlikning nimaga kerakligini soʻradim.

– Eshkakli qayiq turgan joyga olib chiqadi, – deb  
javob berdi u.

– Nima! Sizda qayiq bormi? – taajjublanib qayta  
soʻradim men.

– Boʻlmasam-chi. Juda ajoyib, yengil, choʻk-

maydigan qayiq bor. Unda sayr qilamiz, baliq oviga chiqamiz.

– Qayiqni chiqarish uchun siz suv sathiga ko‘tarilishingiz kerakmi?

– Yo‘q, bunday qilmayman. Qayiq «Nautilus» palubasining maxsus uyasida turadi. Uning suv o‘tkazmaydigan mahkam qopqog‘i bo‘lib, uyada uni mustahkam boltlar tutib turadi. Bu narvon palubaga, qayiq tagidagi ensizgina tuynukka olib boradi. Qayiq ostida ham xuddi o‘shanday tuynuk bor. Ana shu ikki tuynuk orqali qayiqqa o‘taman. Men kirib olgach, «Nautilus»dagi tuynukni yopishadi. Qayiq ostidagi tuynukni maxsus qopqoq bilan o‘zim yopaman. Shundan so‘ng boltlarni burab chiqarman va qayiq juda katta tezlik bilan dengiz sathiga ko‘tariladi. Men yig‘ma qopqoqni ochib machtani qo‘yaman va yelkanni ko‘taraman yoki eshkaklarni olaman.

– Kemaga qanday qilib qaytasiz?

– Men o‘zim qaytmayman. «Nautilus»ning o‘zi keladi.

– Sizning buyrug‘ingiz bilanmi?

– Ha, mening buyrug‘im bilan. Men u bilan elektr simi vositasida aloqa bog‘layman. Kemaga qaytmoqchi bo‘lganimda telegramma beraman.

– Darvoqe, – deya xitob qildim men bu mo‘jizalardan hayratga tushib,– bundan osonroq yo‘l yo‘q.

Kema ustiga olib chiqadigan trap katagining oldidan, uzunligi ikki metr keladigan kayuta yoniga o‘tdik, u yerda Ned Lend bilan Konsel lunjlarini to‘ldirib, ajoyib nonushtani tushirayotgan edilar. Bu kayutaning yonida uzunligi uch metrli oshxona joylashgan edi. Shu yerning o‘zida keng omborxonalar bor edi.



Oshxonada elektr bilan ovqat pishirilar edi. Platina taxtachalarga parchinlangan simlar qizib, oqish rang bo'lib, yopish, qaynatish va qovurish uchun plitalarga kerakli miqdorda harorat berib turar edi. Elektr dengiz suvini qayta ishlab, kemaga yetarli miqdorda juda ajoyib, ichishga yaroqli suv beradigan destillyatsiya apparatlarini ham qizitar edi.

Oshxonaning yonida vannaxona joylashgan edi.

Undan narida kubrik – komanda uchun xona bo'lib, uzunligi besh metr edi; ammo eshigi berk bo'lganidan men u yerdagi ahvolga zimdan qarab «Nautilus»ning ekipajida necha kishi borligini aniqlay olmadim.

Xuddi shu yerda kubrikni mashina bo'lmasidan ajratib turgan suv o'tkazmaydigan to'rtinchi to'siq bor edi. Biz to'siqdagi eshikdan o'tib, yuksak malakali injener kapitan Nemo «Nautilus»ni harakatga keltiradigan mashinalarni o'rnatgan zalga kirdik.

Juda yaxshi yoritilgan zalning uzunligi kami-da yigirma metr kelardi. Zal ikkiga bo'lingan edi. Birinchisida elektr energiya hosil etadigan elementlar, ikkinchisida kema parragini harakatga keltiruvchi mashinalar turar edi.

Zaldagi allaqanday g'alati bir hid meni taajjubga soldi.

Kapitan Nemo sarosimaga tushib qolganimni sezdi.

– Bu natriy olganda ajraladigan gazning hidi, – dedi u. – Hechqisi yo'q, arzimagan noqulaylik. Biz baribir har kuni ertalab butun kemani shamollatib olamiz.

Men «Nautilus» mashinalarini qiziqib tomosha qildim.

– Ko'rib turibsizki, – dedi kapitan Nemo, –

men Rumkorf elementlaridan emas, balki Bunzen elementlaridan foydalanyapman. Rumkorf elementlari menga kerakli quvvatni berolmasdi. Bunzen batareyalari menda ko'p emas, ammo har biri ham juda kuchli. Batareyalar hosil etgan elektr zalning qarama-qarshi tomoniga uzatiladi va u yerdagi ulkan elektr motorlarni harakatga keltiradi. Bular esa o'z navbatida transmissiyalarning juda murakkab sistemasi orqali eshkak valini aylantiradi. Bu valning diametri oltmish santimetr, uzunligi yetti yarim metr. Shunday katta bo'lishiga qaramay, val aylanishining tezligi sekundiga bir yuz yigirmataga yetadi.

– Siz tezlikni...

– Soatiga ellik milya.

Bu yerda allaqanday sir bor edi, ammo surishtirib olishga yuragim dov bermadi. Qanday qilib elektr shu qadar kuchli energiya berishi mumkin? Bu misli ko'rilmagan, deyarli cheklanmagan kuchning manbayi qayerda? Buning siri yuqori tok beriladigan katushkalarining yangi namunalari-damikin yoki transmissiyalar sistemasidami?

Bunga sira aqlim yetmasdi.

– Kapitan Nemo, – dedim, – men muvaffaqiyatlar oldida bosh egaman va bunga qanday erishganingizni o'ylab ham o'tirmayman. Men «Nautilus»ning «Avraam Linkoln» atrofida manyovr qilganini ko'rdim va u naqadar katta tezlik bilan suza olishini bilaman. Ammo birgina tezlikning o'zi bilan ish bitmaydi-ku. Qayoqqa borayotganingni ham ko'rib turish kerak-ku. Kemani yuqoriga, pastga, chapga, o'ngga yo'naltirish imkoniyati ham bo'lishi kerak-ku. Siz bularning hammasini bosim yuzlab atmosferaga yetadigan juda chuqur yerlarda qanday boshqarasiz? Qanday qilib okean sathi-

ga ko'tarilasiz? Nihoyat, o'zingiz tanlab olgan suv qatlamida kemanding to'g'ri harakat qilishiga qanday erishasiz? Bu qadar ko'p savol berib, odobsizlik qilmadimmikin?

– Mutlaqo, professor, – deb javob berdi kapitan biroz ikkilanishdan keyin. – Axir siz bu suvosti kemasidan hech qachon ketmaysiz-ku. Qani, salonga yuring. Mening ishlaydigan xonam o'sha yerda. Ana o'sha yerda «Nautilus» haqida bilishingiz kerak bo'lgan hamma narsani aytaman.

## *O' n u c h i n c h i b o b*

### **BIR NECHA RAQAMLAR**

Bir necha daqiqadan so'ng biz salondagi divanda sigara chekib o'tirar edik.

Kapitan Nemo menga «Nautilus» ham uzunasiga, ham ko'ndalangiga ko'rsatilgan chizmalarni berdi. So'ng tushuntira boshladi.

– Mana bu, janob Aronaks, siz turgan kemanding chizmalari. U uzun silindr shaklida bo'lib, chekkalari konusga o'xshaydi. Ko'rinishdan sigaraga o'xshaydi, sigarasimon shakl Londonda bunday konstruksiya uchun juda qulay hisoblanadi. Silindrning u boshidan bunisigacha uzunligi ropparosa yetmish metr bo'lib, o'rtasida eng keng joyi eniga sakkiz metr. Men tezyurar kemalardagiday odatdagi mutanosiblik bo'yicha enining uzunligiga nisbatini birga o'n qilib olmadim, biroq shunga qaramay men olgan mutanosiblikda ham kema tumshug'idagi qarshilik uncha ko'p emas va siqib chiqarilgan suv suzishga xalaqit bermaydi. Bu miqdorlar «Nautilus»ning maydoni va hajmini hisoblash imkonini beradi. Sirti bir ming o'n bir kvadrat metr, hajmi bir ming besh yuz kub metrdir. Shun-

day qilib, kema suvga to'la cho'kkanda, u bir ming besh yuz kub metr yoki bir tonna suvni siqib chiqaradi.

Suv ostida suzishga mo'ljallangan bu kema planini tuzayotganimda o'z oldimga u suvga tushirilganda hajmining o'ndan to'qqizi dengizga cho'kishi va o'ndan biri esa suvdan chiqib turishi kerak, degan vazifani qo'ydim. Shunday bo'lganda kema o'z hajmining o'ndan to'qqizini yoki bir ming uch yuz ellik kub metr suvni siqib chiqarishi, vazni ham shuncha tonna bo'lishi kerak edi. Binobarin, men ana shu og'irlikdan ortiqchasiga yo'l qo'ymasligim kerak edi. «Nautilus»ning ikkita korpusi bor: biri ichki va ikkinchisi tashqi; ular o'zaro ikki tavrli kesimi bo'lgan temir to'sinlar bilan biriktirilgan; bu to'sinlar kemani juda mustahkam tutadi. Chindan ham shunday qurilma tufayli ichi kovak «Nautilus» quyma jismday mustahkam. Uning qoplamasi egilmaydi; pishiq qilib ulangani va bir xil materialdan bo'lgani uchun eng notinch dengiz ham unga cho't emas. Bu ikki korpus po'lat taxtalardan iborat. Ichki korpus taxtalarining qalinligi salkam besh santimetr va uning vazni uch yuz to'qson tonna. Tashqi korpus, balandligi ellik va eni yigirma besh santimetr hamda og'irligi oltmish tonnali kemaning tag to'sini, mashinalar, ballast<sup>1</sup>, barcha boshqa uskunalar, jihozlar, ichki devorlar va tirgovuchlar – hammasining umumiy vazni salkam to'qqiz yuz tonna, ichki korpusining uch yuz tonnasi bilan qo'shib hisoblaganda, zarur miqdordagi bir ming uch yuz ellik tonna bo'ladi. Tushuna oldingizmi?

– Tushundim.

– Shunday qilib, – deya davom etdi kapitan, –

---

<sup>1</sup> *Ballast* – kemaning muvozanatini saqlash uchun qo'yilgan yuk.

«Nautilus» suv sathida turganida, shu og'irligi bilan uning o'ndan bir qismi tashqarida turadi. Binobarin, agar kemada ana shu o'ninchi qismining og'irligiga teng hajmda, ya'ni bir yuz ellik tonna sig'imli rezervuar bo'lganda va bu rezervuarlar suv bilan to'latilsa, «Nautilus» bir ming besh yuz kub metr yoki xuddi shu miqdor og'irlik – bir ming besh yuz tonnani siqib chiqarib, suvga to'la cho'kar edi. Amalda ham shunday qilinadi. «Nautilus»da rezervuarlar bo'lib, bular uning pastki qismida joylashtirilgan. Kranlar ochib yuborilsa bas, ular suvga to'lib, kema dengiz sathi bilan bab-baravar bo'lib cho'kadi.

– Ofarin, kapitan. Ammo xuddi mana shu o'rinda menimcha asosiy qiyinchiliklar boshlansa kerak. Men siz suvga «Nautilus»ning bir santimetri ham ko'rinmaydigan darajada cho'ka olishingizni tushunib turibman. Ammo siz chuqurlikka tushganda, kemangiz yuqori bosim bilan to'qnashmaydimi? Bu bosim uni ham o'ttiz futli suv qatlamida taxminan bir atmosferaga yoki boshqacha qilib aytganda, kvadrat santimetriga bir kilogrammga teng keladigan kuch bilan pastdan yuqoriga itarmaydimi?

– Juda to'g'ri, professor.

– Bunday paytda siz «Nautilus»ning o'zini suv bilan to'latmasdan turib suv qa'riga cho'kishga qanday majbur qila olishingizga aqlim yetmayapti.

– Janob professor, – dedi kapitan Nemo, – statika<sup>1</sup>ni dinamika bilan chalkashtirish yaramaydi – bu jiddiy nuqsonlarga olib kelishi mumkin. Okeanning eng chuqur joylariga tushish uchun ortiqcha kuch sarflashning hojati yo'q... Siz mening mulohazalarimni diqqat bilan eshityapsizmi?

– Diqqat bilan eshityapman.

---

<sup>1</sup> Statika – nazariy mexanikaning bir bo'limi.

– «Nautilus»ning dengiz tubiga choʻka olishida uning vaznini qancha oshirish kerakligini aniqlash uchun men yuqoridagi suv qatlamlarining ogʻirligi taʼsirida turli chuqurliklarda hajmni qanchalik kamaytirish lozimligini bilishim kerak edi.

– Bu toʻgʻri, kapitan.

– Suvning siqilishini inkor etib boʻlmasa-da, lekin shuni aytish kerakki, bu siqilish juda cheklangan miqdordadir. Soʻnggi maʼlumotlarga qaraganda, chindan ham bosim bir atmosfera oshganda, yaʼni oʻttiz fut chuqurlikda, oʻn milliondan toʻrt yuz oʻttiz olti qismi siqiladi. Suvga ming metr choʻkkanda hajmni qancha kamaytirish hisobini balandligi ming metrli suv ustuni bosimiga, yaʼni yuz atmosfera bosimiga qarab olish kerak. Shunday qilinganda hajmni kamaytirish natijasi yuz mingdan toʻrt yuz oʻttiz olti boʻladi. Binobarin, kema vazni odatdagi bir ming besh yuz tonnadan bir ming besh yuz olti-yuz yuzdan ellik toʻrtgacha koʻpayishi kerak. Shunday qilib, vazni olti-yuz yuzdan ellik toʻrt tonna oshirish talab etiladi.

– Hammasi boʻlib-a?

– Hammasi boʻlib, janob Aronaks, bu hisobni tekshirib chiqish ham unchalik qiyin emas. Sirasini aytsam, menda yuz tonnali zapas rezervuarlar bor. Bular yordamida men juda katta chuqurliklarga choʻka olaman. Suv sathiga koʻtarilish uchun bu rezervuarlarni suv ballastidan boʻshatishning oʻzi kifoya. Bordi-yu «Nautilus»ning oʻndan bir qismini suvdan tashqariga chiqarmoqchi boʻlsam, undan butun rezervuarlarni boʻshatishim kerak.

Aniq raqamlarga asoslangan bu fikrlarga qarshi bir nima deyishim qiyin edi.

– Hisob-kitoblaringizga qoʻshilaman, kapitan, – dedim men. – Darvoqe, uning toʻgʻriligi har kuni

amalda tasdiqlanib turgach, bahslashib o'tirishning o'zi kulgili bir hol bo'lur edi. Ammo menda yana bir shubha tug'ildi.

– Qanday shubha?

– Kemangiz ming metr chuqurlikka cho'kkanida uning korpusi yuz atmosfera bosimga duch keladi. Binobarin, agar siz shu chuqurlikda kemangizni yengillatib olish va suv betiga chiqish uchun rezervuarlarni bo'shatmoqchi bo'lsangiz, unda rezervuarlardan suvni siqib chiqaradigan nasoslar har bir kvadrat santimetrga yuz kilogrammdan qo'shimcha qarshilikka uchraydi. Bu esa nasoslardan shunday kuch talab etadiki...

– Buni faqat elektr bajarishi mumkin, – deya so'zimni bo'ldi kapitan Nemo. – Yana qaytaraman, professor, mening mashinalarimning kuchi deyarli cheklanmagan. «Nautilus»ning nasoslari juda kuchli. Undan chiqqan suv ustunlari «Avraam Linkoln» palubasiga sharsharaday tushganini ko'rganda, bunga ishongan bo'lishingiz kerak. Shunisi ham borki, batareyalar ortiqcha zo'riqmasligi uchun men qo'shimcha rezervuarlardan bir yarim mingdan ikki ming metrgacha chuqurlikka tushmoqchi bo'lsamgina foydalanaman. Agar bordi-yu miyamga okeanning eng chuqur joylariga – uning sathidan sakkiz-o'n ming metrga tushish fikri tug'ilsa, ancha murakkabroq, ammo ayni vaqtda shunchalik ishonchli usullarni qo'llayman.

– Qanaqa usullarni, kapitan?

– Buni tushunib olishingiz uchun avval men «Nautilus»ni qanday boshqarishni aytishim kerak.

– Men buni sabrsizlik bilan kutayman.

– Kemani o'ngga va chapga yoki boshqacha qilib aytganda, gorizonta tekislikda yo'naltirish uchun men kema tumshug'i ostida o'rnatilgan od-

diy ruldan foydalanaman. Bu rul shturval va shturtros-  
roslar yordamida harakatga keltiriladi. Ammo «Nautilus»ni, shuningdek, tik tekislik bo'ylab –  
yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga qarab ham yo'naltirish mumkin. Bu vaterliniya yoniga bema-  
lol harakatlana oladigan qilib o'rnatilgan ikki qa-  
not yordamida amalga oshiriladi. Bu qanotlar tik  
yo'nalishda ham tez harakat qiladi va ular kema-  
ning ichidan richaglar yordamida harakatga keltiri-  
ladi. Qanotlar tag to'singa parallel qilib qo'yilganda  
«Nautilus» gorizontaal yo'nalishda suzadi. Parrak-  
lar yordamida oldinga harakat qilayotgan «Nauti-  
lus» shu qanotlarning qanchalik egilganiga qarab  
yo diagonal bo'ylab pastga tushadi yoki diagonal  
bo'ylab yuqoriga ko'tariladi, aytib qo'yay, bu diago-  
nal uzunligi tamomila menga bog'liq. Buning ustiga  
agar men ko'tarilish tezligini oshirmoqchi bo'lsam,  
vintni to'xtataman va suv bosimi «Nautilus»ni vo-  
dodorod to'latilgan aerostatday tik yuqoriga siqib chi-  
qaradi.

– Qoyil, kapitan! – xitob qildim men. – Ammo  
suvga cho'kib turgan «Nautilus» ko'r-ko'rona bosh-  
qarilsa kerak, albatta.

– Sira unday emas. Rulni boshqaruvchi kishi  
«Nautilus»ning tumshug'ida palubadan oldinga tur-  
tib chiqqan hujrada o'tiradi. Bu hujraning illumina-  
toriga ikki tomoni qabariq qalin oyna solingan.

– Shunday kuchli bosimga bardosh bera oladi-  
mi?

– Ha. Biror narsa tegib ketsa juda mo'rt, ayni  
vaqtda juda mustahkam billur qo'yilgan. Bir ming  
sakkiz yuz oltmish to'rtinchi yili Shimoliy dengizda  
elektr yog'dusida baliq ovlanayotganda yetti milli-  
metrli billur plastinkalar o'n olti atmosfera bosimga  
dosh bergan edi. Men ishlatayotgan oynaning qa-



linligi o'rtasida yigirma bir santimetrغا yetadi, ya'ni bular men aytgan plastinkalardan o'ttiz marta qalin.

– Tushundim. Ammo ko'ra olish uchun qorong'ilikni yoritish kerak, binobarin, men hayronman, qanday qilib qorong'i chuqurlarda...

– Rul boshqaruvchining hujrasi oldida juda katta elektr reflektor o'rnatilgan, – deya mening so'zimni bo'ldi kapitan Nemo, – uning nurlari suvni yarim milyagacha yoritib boradi.

– Ofarin, ming ofarin, kapitan! Endi men olimlar o'rtasida g'ulg'ula solgan o'sha badnom «narval»ning elektr quyoshi nimaligini tushundim. Ha, aytganday, ruxsat bersangiz bir narsani so'ramoqchi edim: «Nautilus»ning «Shotlandiya» bilan butun dunyoga shov-shuv solgan to'qnashuvi tasodifan sodir bo'lganmidi?

– Juda tasodifan, professor. To'qnashuv sodir bo'lganda men suv sathidan ikki metr pastda suzayotgan edim. Ammo hech qanday falokat yuz bermaganini o'sha zahotiyiq ko'rdim.

– Juda to'g'ri. «Shotlandiya» eson-omon portga yetib oldi. «Avraam Linkoln» bilan uchrashuvingiz-chi?

– Janob professor, Amerika flotining bu eng yaxshi kemasiga o'zim ham achinaman, ammo u menga hujum qildi va men himoyaga o'tishga majbur edim. Lekin kemani menga hujum qilish imkoniyatidan mahrum etdim, xolos, u shikastlangan joyini yaqin oradagi portda osonlik bilan tuzatib olishi mumkin.

– O, kapitan, – xitob qildim men, – «Nautilus» darhaqiqat ajoyib kema!

– Ha, professor, – hayajonli ohangda javob berdi kapitan Nemo. – Men uni o'z farzandimday yaxshi

ko'raman. Okean sathida suzayotgan kemalar ming xil xavf-xatarga yo'liqishi mumkin. Har bir tasodif ularga falokat keltirishi mumkin. Ammo bu yerda, dengiz qa'rida inson hech narsadan qo'rqmasa ham bo'ladi. Bosimdan pachoq bo'lib ketishidan cho'chimaydi – negaki bu kema korpusi temirdan ham mustahkam. Uning chayqalishidan «charchaydigan» takelaji<sup>1</sup> yo'q. Shamol yulib ketishi mumkin bo'lgan yelkanlar yo'q. Portlab ketish xavfi bo'lgan qozonlar ham yo'q. Yong'in xavfsiz, chunki uning yog'och qismlari yo'q. U to'qnashuvlardan ham qo'rqmaydi, chunki okean qa'rida yolg'iz o'zi suzadi. Bo'ronlar ham qo'rqinchli emas, negaki okean sathidan bir necha metr chuqurlikda hamisha to'la osoyishtalik hukmron. Siz ajoyib degan kema ana shunaqa, professor! Agar ixtirochi hamisha o'z kemasiga injener-konstruktorga nisbatan ko'proq, injener-konstruktor esa kapitanga nisbatan ko'proq ishonishi rost bo'lsa, mening birato'la ham kema ixtirochisi, ham konstruktori, ham kapitan sifatida «Nautilus»ga qanchalik cheksiz ishonch bilan qarashimning sababini tushunsangiz kerak!

Kapitan Nemo juda ko'tarinki ruhda gapirar edi.

Ko'zlarida chaqnab turgan yolqin, jonli harakatlari uni tamoman o'zgartirib yuborgan edi. Men o'zimni to'xtata olmadim va kapitan Nemoga biroz g'alati tuyulishi mumkin bo'lgan savol berdim:

– Demak, sizning injenerlik ma'lumotingiz bor ekan-da?

– Ha, – deya javob berdi u. – Men yer yuzida yashagan paytimda London, Parij va Nyu-Yorkda o'qigan edim.

– Xo'sh, bu ajoyib suvosti kemasini qanday qilib yashirincha qura oldingiz?

---

<sup>1</sup> Takelaj – kemanding hamma asbob-uskuna va jihozlari.

– Uning har bir qismi, janob professor, dunyoning turli burchaklarida qilingan, buning ustiga zavodlarga ular boshqa maqsadlarda foydalaniladi deb aytilgan. «Nautilus»ning tag toʻsini Fransiya-dagi Krezo zavodida yasalgan; eshkak vali – Londondagi Pena K<sup>o</sup> da; parragi – Glazgodagi Skottda; rezervuarlari – Parijdagi Kayil va K<sup>o</sup> da; dvigatellarini Germaniyadagi Krupp zavodlari; tumshuq qismini shved fabrikanti Motan; oʻlchov asboblarini Nyu-Yorkdagi aka-uka Gart va hokazo. Buyurtmani tayyorlovchilar mening chizmalarimni hamisha boshqa-boshqa nomlar bilan olar edilar.

– Ammo, – dedim men, – bu qismlarni olish bilan ish bitmagan-ku – ularni yigʻish, montaj qilish kerak boʻlgan-ku.

– Men okean oʻrtasida yoʻqolib ketgan va odam yashamaydigan bir orolda ver<sup>1</sup>qurib oldim. U yerda men oʻrgatgan ishchilar, sodiq doʻstlarim oʻzimning kuzatuvimda «Nautilus»ni yigʻishdi. Kema yigʻib boʻlingach, olov bizning oroldagi barcha izlarimizni yoʻq qilib tashladi. Agar qoʻlimdan kelganida, orolchani portlatib yuborardim.

– Kema sizga juda qimmatga tushgan boʻlsa kerak?

– Oddiy temirdan yasalgan kema vaznining har bir tonnasi taxminan bir yuz yigirma besh ming frankdan tushadi. Mening «Nautilus»imning ogʻirligi bir ming besh yuz tonna. Demak, u asbob-uskunalari bilan kamida ikki million frank turadi, unda saqlanayotgan kolleksiyalar va sanʼat buyumlarini qoʻshib hisoblaganda toʻrt-besh million frankdan kam emas.

– Ruxsat bersangiz, yana bir soʻnggi savol, kaptan?

---

<sup>1</sup> Verf – kema yasaydigan va remont qiladigan joy.

– So‘rang, professor.

– Siz juda boymisiz?

– Men juda boyman, hatto Fransiyaning o‘n milliardli davlat qarzini sira qiynalmay to‘lashing mumkin va bu bilan boyligim kamayib, kambag‘allashmasdim ham.

Men bu g‘alati odamga tikilib qoldim. U mening soddadillik bilan ishonayotganimdan foydalanmayotganmikin? Buni kelajak ko‘rsatishi kerak edi.

## ***O‘n to‘rtinchi bob***

### **«QORA DARYO»**

Yer kurrasining uch yuz oltmish bir million kvadrat kilometri suvdan iborat. Bu suvning hajmi bir ming uch yuz yetmish million kub kilometr-ga tengdir. Demak, yer yuzidagi suvning vazni bir ming uch yuz yetmish kvintillion tonnadir.

Bu sonning naqadar kattaligini idrok etish uchun shu narsani bilish kerakki, milliard oldida bir qanchalik kichik raqam bo‘lsa, kvintillion oldida milliard ham shunchalik ushoq sondir yoki boshqa so‘z bilan aytganda, milliardda qancha bir bo‘lsa, kvintillionda shuncha milliard bor.

Yer yangi paydo bo‘lgan kunlarda olov davridan so‘ng suv davri boshlangan. Boshda okean butun yer yuzini qoplagan edi. Keyinchalik, asta-sekin siluriy davrida, tog‘larning paydo bo‘lish jarayoni boshlandi. Okeandan tog‘ uchlari chiqdi. So‘ng orollar paydo bo‘ldi; ular suv toshqinlari natijasida yana yo‘qoldi, so‘ngra yana paydo bo‘lib, mustahkamlandi va qit‘alarni vujudga keltirdi; nihoyat quruqlik biz hozir ko‘rib turgan holga keldi. Quruqlik suvdan bir yuz qirq million olti yuz ming yetti kvadrat metr joyni tortib oldi.

Qit'alarining joylashishiga qarab yer yuzidagi suvni besh asosiy qismga bo'lish mumkin:

Shimoliy Muz okeani,  
Janubiy Muz okeani,  
Hind okeani,  
Atlantika okeani va  
Tinch okean.

Tinch okean shimoldan janubga har ikki qutb doirasi orasida va g'arbdan sharqqa Osiyo bilan Amerika o'rtasidagi uzunlikda bir yuz qirq besh gradus joyni egallab yotibdi. U okeanlar ichida eng osoyishtasi; u vazmin, salobat bilan oqadi va unda suv ortiqcha ko'payib, kamayavermaydi, shu bilan birga seryog'indir.

Mening odatdan tashqari sayohatim ana shu naqa okeandan boshlandi.

– Istasangiz, professor, – dedi menga kapitan Nemo, – qayerda turganimizni – qayerdan sayohatga chiqib ketayotganimizni aniqlab olishimiz mumkin. Hozir soat chorakam o'n ikki. Men hozir «Nautilus»ga zudlik bilan okean sathiga ko'tarilishini buyuraman.

Shu so'zlarni aytib, kapitan elektr qo'ng'iroq tugmachasini uch marta bosdi. Nasoslar rezervuarlardagi suvni siqib chiqara boshladilar. Manometr mili harakatga kelib, siferblat bo'ylab yuqoriga chiqib, bosim tobora kamayib borayotganini ko'rsatardi. Nihoyat, u nolga kelib to'xtadi.

– Biz suv sathiga ko'tarildik, – dedi kapitan Nemo.

Men markaziy trap tomon yurib, uning temir zinapoyalaridan yuqoriga ko'tarildim va ochiq lyukdan «Nautilus» palubasiga chiqdim.

U suvdan sakson santimetrcha chiqib turar edi. «Nautilus»ning urchuqsimon korpusi darhaqiqat

uzun sigarani eslatar edi. Men uning ustki qoplamasi yerdagi oʻrmaslovchilarning badani singari tangachasimonligiga eʼtibor berdim. Barcha kemalar «Nautilus»ni dengiz maxluqi deyishlarining sababini endi tushundim.

«Nautilus» korpusida yarim berkitilgan qayiq palubaning oʻrtasida uncha katta boʻlmagan doʻnglik hosil qilgan edi. Kema tumshugʻi va quyrugʻida devorlari qiya, uncha baland boʻlmagan, qalin qabariq billur oynali ikkita kabina doʻppayib turardi. Old tomonda «Nautilus» rul boshqaruvchisi uchun hujra, orqada yoʻlga yogʻdu sohadigan yorqin elektr proyektor bor edi.

Dengiz juda ajoyib, osmon tiniq edi. Uzun kema keng okean toʻlqinlarida bilinar-bilinmas chayqalardi. Sharqdan esayotgan yengil shabada suv sathini jimirlatar edi. Tiniq, koʻzga yaqqol tashlanib turgan ufq atrofni bemalol kuzatish imkonini berardi.

Dengiz sathi tamoman boʻm-boʻsh edi. Na orolcha, na qoya koʻrinardi. «Avraam Linkoln» ham koʻrinmas edi.

Bizni bepoyon, ulugʻvor boʻshliq oʻrab olgan edi.

Kapitan Nemo peshinda koʻzlarini sekstantga<sup>1</sup> tikdi va quyoshning balandligini aniqladi – bu unga joyning kengligini bildirardi. Kuzatayotganida uning biror muskuli ham qimir etmas va sekstant marmar haykal qoʻlida ham shunchalik qimirlamay turmas edi.

– Peshin boʻldi, – dedi u. – Professor, pastga tushsaksam?

Men dengizga soʻnggi marta nigoh tashladim. Uning suvi sargʻishroq boʻlib, bu Yaponiya sohil-lariga yaqinlashayotganimizdan dalolat berar edi.

---

<sup>1</sup> Sekstant – astronomiya va geodeziyada ishlatiladigan burchak oʻlchash asboblardan biri.

Shundan so'ng kapitanning ketidan salonga tushdim.

U yerda kapitan Nemo xronometr vositasida joyning uzunligini aniqladi. O'zining boyagi burchak o'lchagich bilan kuzatganidagi hisoblarini tekshirdi va «Nautilus»ning qayerda turganini kartada belgilab qo'ydi.

– Janob Aronaks, – dedi u, – biz g'arbiy uzunlikning 137-gradus 15-minutidamiz.

– Qaysi meridiandan hisoblaganda? – kapitanning javobidan uning millati ma'lum bo'lib qolar-mikin degan umidda shoshilib so'radim.

– Menda Parij, Grinvich va Vashington vaqtlariga to'g'rilab qo'yilgan har xil xronometrlar bor, – deya javob berdi u. – Ammo sizning sharafingizga men bugun Parij meridianidan foydalandim.

Bu javobdan men hech narsani aniqlab ololmadim. Minnatdorchilik bildirib, ta'zim qildim. Kapitan so'zida davom etdi:

– Parij meridianidan g'arbiy uzunlikning 137-gradus 15-minutida va shimoliy kenglikning 30-gradus 7-minutidamiz. Boshqacha qilib aytganda, biz Yaponiya sohillaridan taxminan uch yuz milya masofadamiz. Shunday qilib, bugun, sakkizinchi noyabr peshinda biz suvosti ilmiy-tekshirish ekspeditsiyamizni boshlaymiz. Endi, janob professor, men ishingizga xalaqit bermayman. Men sharqi shimoliy – sharq tomon yo'l tutishga va suvostiga ellik metr cho'kishga buyruq berdim. Mana bu katta xaritada kunda bosib o'tilgan yo'l belgilab boriladi. Salon butunlay sizning ixtiyoringizda.

Kapitan Nemo ta'zim qilib chiqib ketdi. Men salonda yolg'iz qolib, xayolga cho'mdim. Ular meni tinmay «Nautilus»ning kapitani sari yetaklar edi.

Vaqt kelib vatanim yo'q deb faxr bilan ayta-

yotgan bu odamning millatini bilib olarmikanman? Kim yoki qanday sabab uning qalbida insoniyatga nisbatan nafrat uyg'otdi? «Jamoatchilik xafa qilib qo'ygan», tan olinmagan olimlardan birimi yoki Konsel aytganday, o'z Vatanidan quvg'in qilingan zamonasining Galiley<sup>1</sup>i yoinki olim – revolyutsionermikin? Bunisini men hali bilmasdim.

Kemasiga tasodifan tushib qolgan meni u mehmondo'stlik bilan kutib oldi, ammo hayotim uning qo'lida ekanligini unutmashimni ta'kidlash uchun bo'lsa kerak, munosabatlarida iliqlik sezilmas edi. Shu bilan birga ko'rishish uchun u biror marta ham qo'lini menga uzatgani yo'q.

Bir soatlar chamasi men shu xayollarga g'arq bo'lib, uning odamni hayajonlantirayotgan sirini bilib olishga intilardim.

So'ng ko'zim stol ustidagi xaritaga tushdi. Kapitlan Nemo uzunlik va kenglikni belgilagan joyga barmog'imni qo'ydim.

Okeanning ham qit'alar singari o'z daryolari bor. Bu oqimni boshqa suvdan rangi va haroratiga qarab ajratish mumkin. Eng ko'p uchraydigan okean oqimi – Golfstrimdir.

Fan besh asosiy oqimni xaritaga tushirgan: biri – Atlantika okeanining shimoliy qismida, boshqasi, janubida, uchinchisi, Tinch okeanning janubiy qismida, to'rtinchisi shimolida va nihoyat beshinchisi Hind okeanining janubiy qismidir. Ehtimol Kaspiy va Orol dengizlari hamda Osiyodagi katta ko'llarning suv havzasi bitta bo'lgan uzoq o'tmishda Hind okeanining shimoliy qismida oltinchi oqim ham bo'lgandir.

**Xaritaga** «Nautilus»ning turgan yeri nuqta

---

<sup>1</sup> Galiley (1564–1642) – Yer Quyosh atrofida aylanadi, degan ta'limoti uchun ruhoniylar ta'qib etgan buyuk italyan olimi.



qo'yib belgilangan punktdan ana shu oqimlardan biri – Kuro-Sivo o'tgan edi, bu yaponchada «qora daryo» degani; u Bengal qo'ltig'idan chiqib, tropik quyoshining tikka nurlaridan haroratlanib, Malakk bo'g'oziga o'tadi, Osiyo qirg'oqlari bo'ylab boradi va Tinch okeanning shimoliy qismidan burilib o'tib Aleut orollariga yetadi.

Bu oqim xushbo'y daraxtlar va boshqa tropik o'simliklarning novdalarini oqizib borar, to'q yashil va sovuq okean suvlaridan o'zining yorqin ko'k rangi hamda yuqori harorati bilan ajralib turar edi.

«Nautilus» ana shu oqim bo'ylab suzib o'tishi kerak edi. Bu oqimni xaritadan kuzata turib, Tinch okeanning bepoyon bo'shliqlarida uning jimirlab yo'q bo'lib ketishini shu qadar berilib o'ylabmanki, qayerda turganimni unutib, salonga Ned Lend bilan Konsel kirib kelganini ham payqamabman.

Mening ajoyib hamrohlarim ko'zlari oldidagi xazinani ko'rib, dong qotib qolishdi.

– Biz qayerdamiz? – xitob qildi kanadalik. – Nahotki Kvebek muzeyida bo'lsak?

– Xo'jamning ruxsatlari bilan, – dedi Konsel, – to'g'risini aytsam, o'zimizni Somerar mehmonxonasida deb his etyapman.

– Do'stlarim, – dedim men, – Kanadada ham, Fransiyada ham emassiz, balki suv sathidan ellik metr pastroqda suzayotgan «Nautilus»dasiz.

– Bu gapni xo'jam aytganlaridan keyin ishonishga to'g'ri keladi, – deb javob berdi Konsel, – ammo rostini aytsam, bunday salon mendaqa flamanzialikni ham hayratga soladi!

– Istaganingcha hayratlanishing mumkin, og'ayni. Ayni vaqtda vitrinalarga ham bir qarab qo'y – u yerda senga o'xshagan tasnifchi uchun ish topilib qoladi.

Tasniflashga kelganda, Konselni qayta undashning hojati yo'q edi. Vitrinalar ustiga engashib, tabiatshunoslar tilida allanimalar deb g'oldiray boshladi: sinf, turkum, turkumcha, oila, nasl, tur...

Shu orada konxiologiya bilan ishi bo'lmagan Ned Lend kapitan Nemo bilan uchrashuvimni va undan kimligini, qayerlik ekanini, qayoqqa ketayotganini, bizni qanaqa chuqurliklarga olib tushishini bilgan-bilmaganimni surishtira boshladi.

Kanadalik javobimni ham kutmasdan ketma-ket savollar yog'dirib tashladi.

U gapirib bo'lgach, bilganlarimni birma-bir so'zladim va men undan, shuningdek, bu vaqt ichida ko'rgan-bilganlarini so'radim.

– Hech narsa eshitganim ham, ko'rganim ham yo'q, – deb javob berdi kanadalik. – Hatto kema komandasidan ham hech kimni uchratmadim. Balki u ham elektrdandir.

– Elektrdan?..

– Xudo haqqi, bunga ishonsa bo'ladi... Ammo ayting-chi, janob professor, – so'radi Ned Lend oldingi niyatidan qaytmay, – bu kema ekipajida necha kishi bor? O'n kishimi, yigirmatami, elliktami, yuztami?

– Bir narsa deya olmayman, Ned. Menga qarang, «Nautilus»ni qo'lga olish yoki undan qochib ketish to'g'risidagi fikrni miyangizdan chiqarib tashlang. Bu kema hozirgi zamon texnikasining mo'jizasi va men uni sinchiklab ko'zdan kechira olmasam butun umrim bo'yi pushaymon bo'lib yurardim. Ko'plar biz bilan sizga mo'jizalar orasida sayohat qilib yurish imkoniyatimiz borligigagina ham havasi kelgan bo'lar edi. Xullas, og'irroq bo'lib yuring. Keling, yaxshisi, hozircha atrofimizda nimalar bo'layotganini kuzatib boraylik.

– Kuzatib boraylik? – qichqirib yubordi gar-punchi. – Axir bu temir turma ichida hech narsani ko‘rolmaysan kishi! Biz ko‘r odamga o‘xshab yurib-miz!

Ned Lend gapini tugatmay to‘satdan salonga zim-ziyo qorong‘ilik cho‘kdi. Shiftdagi yog‘du shu qadar tez o‘chdiki, tim qorong‘ilikdan birdan ravshan yorug‘likka chiqqanda bo‘ladiganday ko‘zlarim og‘ridi.

Bizni yaxshilik kutyaptimi yoki noxushlikmi – bunisini bilmay, qimirlashga ham botinolmay qotib qoldik. Biroq shu payt bir narsaning sharaqlagan ovozi eshitildi, «Nautilus»ning temir devorlari surilganday bo‘ldi.

– Tamom bo‘ldik, – dedi Lend.

Salon birdan yorishdi. Yorug‘lik uning har ikki tashqi tomonidan, devorlardagi tuxumsimon tuxnuklardan tushdi. Suvning tubi elektr proyektor bilan yoritilgan edi. Bizni dengizdan ikkita billur oyna ajratib turardi. Boshda oyna mo‘rt, sinib ketadi deb bir cho‘chib tushdim. Ammo derazalardagi qalin mis hoshiyani ko‘rib tinchlandim: u derazalarni juda mustahkam saqlashi kerak.

«Nautilus»dan bir milya masofadagi manzara bemalol ko‘rinardi. Qanday ajoyib manzara! Shaffof suv qatlamlarini yoritib turgan elektr nurlarining ajoyib jilvasini, goh soya tashlab, mayin jimirlab nim rang tovlanayotgan mislsiz bo‘yoqlarni ta‘riflashga har qanday odam ham ojiz bo‘lsa kerak!..

Dengiz suvining tiniqligini hamma biladi. U eng toza buloq suvidan ham tiniqroq. Undagi erigan va erimagan mineral tuzlar bu tiniqlikni yanada oshirib ko‘rsatardi. Okeanning ayrim yerlarida, chunonchi Antil orollari atrofida bir necha o‘n metr

chuqurlikdagi suv qatlamlaridan o'zandagi qum zarrachalarigacha yaqqol ko'rinib turadi.

Dengiz qa'rida charaqlab turgan elektr yog'du «Nautilus» atrofidagi suyuqlikni yoritilgan suvga emas, balki suyuq alanga selobiga aylantirganday tuyular edi.

Agar Erembergning, suvning chuqur qatlamlari yorug'lik taratadi, degan taxminini to'g'ri deb bilsak, unda tabiat suv qa'ridagi aholiga misli ko'rilmagan go'zal manzarani tomosha qilishni in'om etibdi. «Nautilus»ning oynasidan yorug'likning suvdagi jilosiga qarab bunga imonim komil bo'ldi.

Salonning har ikki tomonidan ko'z ko'rmagan va tadqiq etilmagan olamga bittadan oyna ochilgan edi. Salondagi qorong'ilik tashqaridagi yorug'likni yanada yorqinroq ko'rsatar va biz akvariumning ulkan oynasidan qarayotganday edik.

«Nautilus» xuddi bir joyda to'xtab turganday edi. Ko'z oldimizda suzib ketayotganimizni ko'rsatadigan bironta harakatsiz narsaning yo'qligidan shunday tuyulardi. Biroq ahyon-ahyonda suvosti kemasi tumshug'i taratgan suv irmoqchalari ko'z oldimizdan juda katta tezlik bilan o'tib turardi.

Biz zavq bilan hayratga tushganimizni qay so'z bilan ifodalashni bilmay oynaga yopishgancha mahliyo bo'lib turardik.

Birdan Konsel so'z boshladi:

– Xo'sh, og'aynixon Ned, tomosha qilmoqchi edingiz shekilli? Ko'ring endi!

– Juda ajib, diqqatga sazovor, – dedi kanadalik bu g'alati manzarani ko'rgach, o'zining nafrati va qochish haqidagi niyatini ham unutib.

– Bu ajoyib manzara shuncha yo'ldan kelib ko'rishga arzir ekan!

– Kapitan Nemoning hayotini endi tushundim! – hayajonlanib gapirdim men. – U o‘ziga maxsus bir olam yaratib, uning mo‘jizalariga mahliyo bo‘lib, ulardan bahra olmoqda.

– Biroq baliqlar qani? – so‘radi kanadalik, – baliqlar ko‘rinmaydi!

– Sizga baribir emasmi, Ned? – javob berdi Konsel. – Axir ularni bilmaysiz-ku.

– Bilmaysiz deganingiz nimasi? Axir men baliqchiman-ku! – hayajonlanib qichqirdi Ned Lend.

Ikki do‘st o‘rtasida bahslashuv boshlandi. Ularning ikkisi ham baliqlarni bilishardi-yu, ammo har biri o‘zicha. Hammaga ma‘lumki, baliqlar umurtqalilar turkumining birinchi sinfini tashkil etadi. Fan ularni juda aniq belgilab berdi: «Sovuq qonli, jabrasidan nafas oladigan va suvda yashashga moslashgan». Baliqlar ikki sinfchaga bo‘linadi: qiltanoqlilar, ya‘ni orqa suyagi qiltanoqli umurtqadan iboratlar va kemirchaklilar, ya‘ni orqa suyagi kemirchakli umurtqalilardan iborat bo‘lganlari.

Ehtimol, kanadalik baliqlarning bunaqa bo‘linishini eshitgandir ham, ammo, shubhasiz, Konsel bu haqda anchagina ko‘p narsa bilardi. Ned bilan do‘stlashib qolgani uchun unga ba‘zi narsalarni astoydil ma‘lum qilish maqsadida aytdi:

– Do‘stim Ned, siz baliqlarga dahshat solasiz, siz epchil va dovyurak baliqchisiz. Hayotingizda dengiz jonivorlarini ko‘plab tutgansiz. Ammo men garov o‘ynayman, siz ularni qanday tasniflashni tasavvur ham etolmaysiz.

– Bekorlarni aytibsiz, – dedi juda jiddiy ohangda kanadalik. – Baliqlar yeb bo‘ladigan va yeb bo‘lmaydiganlarga bo‘linadi.

– Bu yeb to‘ymaslar tasnifi, – deb kuldi Konsel, –

qani, ayting-chi, qiltanoqli baliqlar bilan kemirchaklilar orasidagi farqni bilasizmi?

– Bilsam ham ajab emas.

– Shu sinflarning qismlarga bo‘linishini-chi?

– Yo‘q, bundan xabarim yo‘q!

– Unday bo‘lsa quloq soling, Ned, unutmang.

Qiltanoqli baliqlar olti guruhga bo‘linadi. Birinchi guruhi tikantukli baliqlar bo‘lib, ularning yuqori jag‘i yaxlit qimirlaydi hamda taroqsimon jabrasi bor. Bu guruh o‘n besh oilani, ya‘ni bizga ma‘lum bo‘lgan barcha baliqlarning to‘rtidan uch qismini o‘z ichiga oladi. Oddiy olabug‘a baliq shu guruhning namunasidir.

– Ancha mazali baliq, – deya luqma tashladi Ned Lend.

– Ikkinchi guruhi, – deb so‘zini davom ettirdi Konsel, – teshik pufaklilar. Ularning qorin suzgichlari qorinlarining tagida, ko‘krak suzgichlarining pastida bo‘lib, yelka suyaklariga birikmagan. Bu guruh besh oilani o‘z ichiga oladi va bularga chuchuk suvda yashaydigan baliqlarning ko‘pchiligi kiradi. Zog‘ora baliq va cho‘rtanbaliq shu oilaning namunasidir.

– Ffu,– dedi kanadalik irganganday,– chuchuk suvda suzadigan baliqlarni yoqtirmayman.

– Uchinchi guruhi, – dedi Konsel, – yumshoq tuklilar bo‘lib, ularning qorin suzgichlari ko‘krak suzgichlarining tagida va bevosita yelka suyaklariga birikkan bo‘ladi. Bu guruhda to‘rt oila bor. Bu guruh namunasi qalqon baliqdir.

– Mana bu ajoyib baliq! – deya xitob qildi gapunchi baliqlarga hamon faqat taom nuqtayi nazaridan yondashib.

– To‘rtinchi guruh, – uning gapiga e‘tibor bermay davom ettirdi Konsel, – faqat ilonbaliqlar oi-

lasidan iborat bo'lib, ularning tanasi cho'zinchoq, qorin suzgichlari yo'q, qalin hamda ko'pincha shil-liq teri bilan qoplangan.

– Bemaza, – deya luqma tashladi garpunchi.

– Beshinchi guruhi, – dedi Konsel, – taram-taram jabralilar. Ularning jag'lari yaxlit qimirlaydi, ammo jabralari uning aylanasi bo'ylab taram-taram bo'lib, ikkitadan joylashgan. Bu guruhda faqat bir-gina tikanlilar oilasi bor. Uning namunasi otbaliq.

– Ffu, yaramas! – xitob qildi kanadalik.

– Oltinchisi va so'nggisi, – dedi Konsel, – tu-tash jag'lilar bo'lib, ularning jag' suyaklari jag' oralig'iga qimirlamaydigan bo'lib birikkan va tang-layning ko'tarilgan joyi bosh suyak bilan birikkan. Bu guruhda ikki oila – qattiqterililar va tirjaygan-toshlilar bor. Namunasi – oybaliq.

– Qozonni faqat bulg'ay oladigan baliq, – deb qo'shib qo'ydi kanadalik.

– Gaplarimga tushundingizmi, og'ayni? – deb so'radi dono Konsel.

– Hech baloni tushunmadim, Konsel, – deb ja-vob berdi garpunchi. – Ammo davom ettiravering: siz aytayotgan gaplar juda qiziqarli.

– Kemirchakli baliqlar sinfchasiga kelganda, – deya vazmin davom ettirdi Konsel, – shuni aytish kerakki, u bor-yo'g'i uch guruhni o'z ichiga oladi.

– Qancha oz bo'lsa, shuncha yaxshi, – dedi Ned.

– Birinchisi, dumaloq og'izlilar, ya'ni jag'i bir butun aylana bo'lib birikkan, jabralari esa ari iniday ilma-teshik bo'lib ochiladi. Bu guruhda faqat birgi-na oila bor. Namunasi – ilonbaliq.

– Yomon baliq emas, – dedi Ned Lend.

– Ikkinchi guruhi – akulalar va skatlar<sup>1</sup> bo'lib,

---

<sup>1</sup> Skat – o'zi yapaloq, dumi ingichka dengiz balig'i.

bularning jabralari ham dumaloq og'izlilarnikiga o'xshaydi-yu, ammo pastki jag'lari qimirlaydi.

– Qanday qilib! – hayajon bilan so'radi Ned.

– Akula bilan skat bir guruhga kiradimi? Bila-sizmi, do'stim Konsel, agar skatlar tirik qolsin de-sangiz, ularni akulalar bilan bir guruhga qo'shishni zinhor maslahat bermasdim sizga.

– Uchinchi guruhi, – deya parvo qilmay so'zini davom ettirdi Konsel, – osyotra guruhi bo'lib, ular-ning jabralari ustidagi soyabonchasi bilan bir joy-dan ochiladi. Bu guruhda to'rtta oila bor. Namuna-si – osyotra balig'i.

– O'-o', Konsel, sarasini pirovardida aytaman deb, asrab qo'ygan ekansiz-da. Bo'ldingizmi?

– Ha, Ned, bo'ldim. Ammo shuni unutmangki, bu bilganlaringiz hech gap emas, chunki hali gu-ruhlar guruhchalarga, oilalar oilachalarga, nasllar, turlar, xillarga<sup>1</sup> bo'linadi.

– Hu ana, Konsel, ko'ryapsizmi, xuddi aytga-ningizday bir necha xillar, – dedi kanadalik yuzini oyna tomon burar ekan.

– Ha, baliqlar! – xitob qildi Konsel. – Xuddi ak-varium ichida o'tirgandaymiz-a.

– Yo'q, – deya e'tiroz bildirdim men, – akva-rium qafasday gap, bu baliqlar esa ko'kdagi qush-lar singari erkin.

---

<sup>1</sup> Jyul Vern tomonidan keltirilgan baliqlar tasnifi hozir ancha es-kirib qolgan. Dumaloqog'izlilarga mansub bo'lgan ilonbaliqlar sinfi-dan mustaqil sinf sifatida ajratilgan; baliqlar sinfchalarga bo'linadi: 1 – ko'ndalang og'izlilar, bularga akula va skat kiradi; 2 – xime-ralar (qadimgi grek mifologiyasida – juda katta bahaybat hayvon); 3 – suyak skeletlilar – bularga osyotra baliqlari guruhi va chinakam suyaklilar guruhi; so'nggisi, ochiq-pufaklilar, yumshoq tuklilar, qat-tiq tuklilar, qattiq jag'lilar, tutash jag'lilar va taram jabralilar kira-di; 4-sinfchaga ham suvda, ham quruqlikda nafas oladigan baliqlar kiradi. Shuningdek, Jyul Vernning baliqlar tasnifiga doir keltirgan boshqa misollari ham ancha eskirgan.



– Qani, Konsel, menga mana bu baliqlarning nomini ayting-chi, – iltimos qildi Ned Lend.

– Bunisi menga taalluqli emas, – deb javob berdi Konsel.– Bu masalada xo‘jamga murojaat etasiz.

Darhaqiqat, tasniflashda suyagi yo‘q bu odam tabiatshunos emas edi va tunesni puzankadan ajrata olarmikan, bilmadim. Bu masalada u istagan baliqning nomini ikkilanmay ayta oladigan amaliyotchi kanadalikning tamomila aksi edi.

– Bu spinorog, – dedim men.

– Xitoy spinorogi, – deb qo‘shib qo‘ydi Ned Lend.

– Spinoroglar nasli, qattiqterililar oilasi, tutash-jag‘lilar guruhi, – deya shivirladi Konsel. To‘g‘risini aytsam, Konsel bilan Ned Lendni qo‘shsa yaxshi bir naturalist chiqardi!

Kanadalik xato qilmagan edi. Yalpoq, terilari g‘adir-budur, juda ko‘p spinoroglar dumlaridagi to‘rt qator tikanaklarini jilpanglatib «Nautilus» atrofida o‘ynoqlab yurgan edilar.

Yelkalari kulrang va qorinlari oppoq spinoroglarining tanasiday chiroyli narsa bo‘lmasa kerak. Spinoroglarning yonida shamolda hilpirab turgan bir en matoday skatlar suzishar edi. Ularning orasida yelkasi sarg‘ishroq, qorni och pushti rang va ko‘zi ustida uch nayzasi bo‘lgan Xitoy skatini ham ko‘rdim; bu xil skat juda kam uchraydi. Laseped Xitoy skatlari borligiga umuman ishonmas, chunki bularni u faqat Yapon suratlari to‘plamidagina ko‘rgan edi.

Ikki soat davomida «Nautilus»ni butun boshli suvosti armiyasi kuzatib bordi. Rangining zeboligi va tez harakat qilishi bilan bir-birlaridan qolishmaydigan baliqlar orasida men yashil guban, yelkasida qo‘shaloq qora chizikli sulton, tanasi ko‘k va boshi kumushrang yapon makreli, nomining o‘zi

har qanday ta'rif-tavsifning o'rnini bosadigan yaltiroq to'q ko'k balilqlar, suzgichlari ko'k va yashil tovlanadigan yo'l-yo'l sparlar, dumining atrofi qora chizikli sparlar, oltita «kamar» taqqanday chipor sparlar, ayrimlarining uzunligi bir metrga yetadigan loyxo'rak baliqlar, ko'zlari yonib turgan, og'zi keng va uzunligi olti futli murenni ko'rdim.

Biz hayajonimizni bosolmasdik. Ned baliqlarining otini atar, Konsel ularni o'sha zahoti klassifikatsiyalar, men esa ularning go'zalligi va tez harakat qilishiga mahliyo bo'lib turar edim. Men tirik baliqlarni o'zining tabiiy muhitida ko'rishga hech qayerda muyassar bo'lolmagan edim.

Ko'z oldimizdan o'tgan barcha xillarni, Yapon va Xitoy dengizlaridagi butun baliqlar kolleksiyasini birma-bir sanab o'tirmayman. Nazarimda, elektr yog'dusi ularning diqqatini jalb etib, «Nautilus» atrofiga to'da-to'da bo'lib kelishar edi.

To'satdan salon yorishdi. Temir darcha bekindi. Jozibador manzara yo'qoldi, biroq men hamon shirin orzular og'ushidan chiqolmagan edim. Salonda osig'liq turgan asboblarga ko'z tashladim, kompas mili ilgarigiday sharqi shimol – sharq yo'nalishida turardi, manometr ellik metr chuqurlikda bo'ladigan besh atmosfera bosimni, elektr lag esa soatiga o'n besh milya tezlikni ko'rsatar edi.

Men kapitan Nemoni kutar edim. Ammo u kelmadi. Xronometr kech soat beshni ko'rsatar edi.

Ned Lend bilan Konsel kayutalariga qaytib ketishdi. Men ham xonamga qaytib ketdim. Stol ustida tushlik ovqat turar edi. Taom toshbaqa sho'rvasi, jigari alohida pishirilgan sulton go'shtidan qilingan juda mazali kabob, dumaloq bosh tikan ko'zlining sulaymonbaliqnikiidan xushta'mroq qovurmasidan iborat edi.

Kechqurun men kitob o'qish bilan band bo'ldim. Uyqu bosa boshlagach, karavotga cho'zilib, qattiq uxlab qolibman. Bu payt «Nautilus» «Qora daryo» oqimi bo'ylab sirg'alib borar edi.

## **O' n b e s h i n c h i b o b**

### **TAKLIFNOMA**

Ertasi kuni, 9-noyabrda, o'n ikki soatlik uyqudan so'ng uyg'ondim. Konsel odaticha xo'jasi qanday uxlab turganini bilish va xizmatga hozirligini aytish uchun keldi. U go'yo butun umri davomida uyqudan boshqasini bilmaydiganday dong qotib uxlayotgan kanadalik do'stini yolg'iz qoldirgan edi.

Men dilkash Konsel savollariga istar-istamas va to'mtoq javoblar berib, bu bilan uning istagancha gapirib olishiga imkon berdim. Kechagi manzarani ko'rayotganimizda kapitan Nemoning kelmaganiga allanechuk bo'ldim va u bilan bugun uchrasharman, deb umid qildim.

Men bissus matosidan qilingan kostumimda edim. Bu kiyim to'g'risida Konsel o'zining bir qancha mulohazalarini bildirdi. Men unga bu mato qoyalarda ayrim chig'anoqlar ilashib turadigan ipak tolalardan tayyorlanganini aytdim. Bissusdan juda yumshoq va issiq mato olsa bo'ladi. Shunday qilib, «Nautilus» ekipajini dengizning o'zi kiyim-bosh bilan ta'minlar va uning paxtaga ham, qo'y juniga ham, ipak qurtiga ham hech qanday ehtiyoji yo'q edi.

Men kiyinib salonga chiqdim. U yerda hech kim yo'q edi.

Oyna ostiga to'plangan qimmatbaho narsalarni diqqat bilan ko'zdan kechira boshladim.

Eng noyob dengiz o'simliklari bilan to'latilgan,

quritilganiga qaramay, juda ajoyib va yorqin bo'yoqlari saqlanib qolgan gerbariylarni titkiladim.

Butun kun shu yo'sinda o'tdi. Kapitan Nemo ko'rinmadi. Salondagi temir derazalar ochilmadi. Ehtimol, bu ajoyib mo'jizalar tez me'damizga tegishidan qo'rqishayotgandir.

«Nautilus» oldingiday sharqi shimol – sharq yo'nalishida ellik-oltmish metr chuqurlikda soatiga o'n ikki milya tezlik bilan borar edi.

Keyingi kun, 10-noyabr ham xuddi shunday yolg'izlik bilan o'tdi. Men «Nautilus» komandasi-dan biron kishini ham ko'rmadim. Ned bilan Konsel deyarli kun bo'yi men bilan birga bo'lishdi. Kapitanning ko'rinmayotganidan ular ham tashvishda edilar. Balki bu g'alati odam betob bo'lib qolgandir? Yoki bizga nisbatan qarorini o'zgartirdimikin?

Haqiqatan ham, Konsel aytganday, bizning shikoyat qiladigan yerimiz yo'q edi. Tamomila erkin odamlarmiz, bizga to'ygunimizcha shirin taomlar berishadi. Xo'jayinimiz kelishilgan shartlarga qat'iyon amal qilayotgan edi. Buning ustiga hozirgi g'ayriodatiy holatimizdan shu qadar mamnun edikki, taqdirdan noliy olmasdik.

Shu kundan boshlab barcha voqealarni yozib bordim – bu menga endilikda ular haqida juda aniq gapirib berish imkonini bermoqda. Yana bir qiziq narsaga e'tibor bering: men kundaligimni dengiz o'simliklaridan tayyorlangan qog'ozga yozar edim...

O'n birinchi noyabr erta tongda toza havo oqi-mining kirib kelishi biz kislorod zapaslarini to'ldirish uchun okean sathiga chiqqanimizdan dalolat berar edi.

Men trap tomon yurdim va «Nautilus» palubasi-ga chiqdim.

Ertalab soat olti. Havo bulut. Dengiz kulrang,

ammo sokin; uning sathi bilanar-bilinmas jimirlar edi.

Kapitan Nemo yuqoriga chiqarmikin, degan savol menga tinchlik bermas edi. Hozircha kema ustida oynaband xonasiga qamalib olgan rul boshqaruvchidan bo'lak kishi ko'rinmas edi.

To'ntarib qo'yilgan qayiq hosil etgan do'nglikka o'tirib, tuz hidi anqib turgan dengiz havosidan to'yib-to'yib nafas olar edim.

Quyosh nuri ta'sirida asta-sekin tuman ham tarqaldi. Sharq tomondan ufqqa yorqin yog'du sochib quyosh ko'tarildi. Dengiz uning nurlaridan charqalab ketdi. Parquga o'xshagan parcha-parcha bulutlar bugun shamol bo'lishidan darak berib, juda ajoyib bo'yoqlarda tovlanar edi.

Ammo hech qanday bo'ronlarni ham pisand qilmaydigan «Nautilus» uchun shamolli kun nima degan gap?

Ortimdan oyoq tovushi eshitilganda, barq urib chiqayotgan quyoshni tomosha qilayotgan edim. Kimdir palubaga chiqdi.

Kapitan Nemomi deb, endi ta'zim qilishga shaylangan edim, uning yordamchisi ekan. Men uni ilgari, kapitan bilan birinchi uchrashuvda ko'rgan edim. U meni ko'rmaganday palubaga chiqdi. Juda o'tkir durbinni ko'zlariga tutib, zo'r diqqat bilan ufqni ko'zdan kechira boshladi. So'ngra lyukka yaqinlashib, quyidagi so'zlarni aytdi, – men bu so'zlar talaffuzini aniq eslab qoldim, chunki, har gal bu vaziyatda ular qaytarilardi:

– Hautron respoc orni virch!

Men bu so'zlarning ma'nosini bilmayman.

Yordamchi shu so'zlarni aytib, zinadan pastga tushib ketdi. «Nautilus» hozir suvga cho'ktiriladi deb o'ylab, men ham tezda pastga tushdim.

Xullas, besh kun hech qanday o'zgarishsiz shu zaylda o'tdi. Har kuni ertalab men palubaga chiqar edim. Har kuni ertalab boyagi kishi haligi so'zlarni aytardi. Ammo kapitan Nemo ko'rinmas edi.

16-noyabr kuni endi uni ko'rishdan umidimni uzib turganimda Konsel va Ned Lend bilan xonamga kirib, stolim ustida menga atalgan xatni ko'rib qoldim.

Men shoshilganча konvertni ochdim. Xat fransuz tilida puxta va chiroyli yozilgan edi, ammo harflar nemis alfavitining gotik harflariga o'xshar edi.

Xatning mazmuni quyidagicha:

*«Janob professor Aronaksga.*

*16-noyabr 1867-yil.*

*Kapitan Nemo professor Aronaksni ertaga ertalab Krespo oroli o'rmonlarida bo'ladigan ovda ishtirok etishga taklif etadi. Janob professorning hamrohlari ham bu ekskursiyaga qo'shilish istagini bildirishsa, kapitan Nemo g'oyat mamnun bo'lur edi.*

*«Nautilus» komandiri kapitan Nemo».*

– Ov! – deya qichqirib yubordi Ned.

– Ha, yana Krespo oroli o'rmonlarida-ya! – deb qo'shib qo'ydi Konsel.

– Demak, bu odam ba'zan quruqlikka ham chiqib turar ekan-da? – so'radi Ned.

– Menimcha, juda aniq aytilgan, – deb javob berdim men xatni qayta o'qigach.

– Mayli, unday bo'lsa taklifni darhol qabul qilish kerak, – dedi kanadalik. – Quruqlikka chiqqanimizdan keyin esa vaziyatga qarab nima qilishimiz kerakligi rejasini tuzamiz. Bularning hammasini yig'ishtirib qo'yib, bir parcha toza go'shtdan jon deb tanovul qilgan bo'lardim.

Men kapitan Nemoning qit'alar va orollarga

nisbatan nafrat bilan qarashi haqidagi soʻzlari-yu, oʻrmonga, ovga taklifi oʻrtasidagi yaqqol qarama-qarshilikka eʼtibor ham bermay, quyidagi javob bilanlangina cheklandim:

– Kelinglar, yaxshisi, avval Krespo orolining qanaqaligini bir koʻrib olaylik.

Xaritadan qidirib shimoliy kenglikning 32-gradus 40-minuti va gʻarbiy uzunlikning 167-gradus 50-minutidan bu orolni topdim. Uni 1801-yilda kapitan Krespo ochgan edi. Eski ispan xaritalarida u Rokko de la Plata deb atalgan boʻlib, buning tarjimai «kumush qoya» demakdir. Bu orolcha biz chiqqan yerdan taxminan bir ming sakkiz yuz milya masofada edi; shunday qilib «Nautilus» oldingi yoʻlini biroz oʻzgartirib, janubi sharq tomon suzayotgan edi.

Men doʻstlarimga xaritadan Tinch okeanning shimoliy qismida arang koʻrinayotgan kichkinagina nuqtachani koʻrsatdim.

– Oʻz-oʻzidan ayonki, kapitan Nemo baʼzan quruqlikka chiqqanda ham, u buning uchun odam qadami yetmagan joyni tanlar ekan.

Ned Lend indamay bosh qimirlatib qoʻya qoldi. Soʻngra u Konsel bilan chiqib ketdi.

Vazmin va soqovga oʻxshagan styuard bergan kechki taomdan keyin biroz notinchroq uxladim.

Ertasi kuni, 17-noyabrda, uyqudan turib, «Nautilus»ning harakatsiz turganini sezdim. Apil-tapil kiyinib, salonga chiqdim va u yerda kapitan Nemo-ga duch keldim.

U meni koʻrib oʻrnidan turdi, taʼzim etib, u bilan hamroh boʻlishga roziligimni soʻradi.

Sakkiz kun koʻrishmaganimiz haqida ogʻiz ochmagani uchun bu toʻgʻrida bir narsa deyishga iymandim va loʻnda qilib hamrohlarim va oʻzim u bilan borishga roziligimizni aytdim.

– Ruxsat eting, kapitan, – deb qo‘shib qo‘ydim men, – bitta savolim bor.

– Marhamat, professor, – dedi u. – Qo‘limdan kelsa javob beraman.

– Yer bilan aloqangizni uzgan ekansiz, kapitan, – deb so‘radim men, – Krespo orolida o‘rmoningiz borligini qanday tushunsa bo‘ladi?

– Bilasizmi, professor, – deb javob berdi kapitan, – mening o‘rmonlarim quyoshning issig‘iga ham, nuriga ham muhtoj emas. Ularda arslonlar ham, sherlar ham, qoplonlar ham, umuman to‘rt oyoqlilar yo‘q. Bu o‘rmonlarning borligini yolg‘iz o‘zingina bilaman. Ular ham faqat men uchungina mavjud... Bular yerdagi emas, suv ostidagi o‘rmonlar.

– Suv ostidagi o‘rmonlar?! – deya qichqirib yubordim men.

– Ha, professor.

– Siz meni o‘sha yoqqa borishga taklif etyapsizmi?

– Xuddi shunday.

– Yayov-a?

– Hatto oyoqlaringizni ham ho‘llatmay.

– Ov ham qilamizmi?

– Ha, ov qilamiz.

– Miltiqdami?

– Miltiqda. Men kapitan Nemoga qaradim, undan biron mazmun uqib ololmadim.

«Bu odamning, – deb o‘yladim o‘zimcha, – jinni bo‘lganiga imonim komil; u sakkiz kun davom etgan tutqanoqdan keyin hozirgina turib kelgan, ehtimol, shu topda ham o‘ziga kelmagandir. Attang! Menga qolsa, bu odam g‘alatiroq bo‘lsa ham jinni bo‘lmasa yaxshi edi».

Mening o‘ylayotganlarimni yuzimdan ham oson-



lik bilan uqib olish mumkin bo'lgandir. Kapitan Nemo indamay, orqasidan yurishga ishora qildi va men barcha ko'ngilsiz tasodiflarga ham tik boqishga tayyor odamday uning izidan yurdim.

Biz oshxonaga bordik, u yerda nonushta tayyor turar edi.

– Janob Aronaks, – dedi kapitan, – marhamat, o'tiring va sira tortinmay ovqatlanib oling. Men sizga suvosti sayohati va'da qildim, suvosti restorani emas. Shuning uchun ham durustroq nonushta qilib olishni taklif etyapman, chunki faqat kechga borib ovqatlanamiz.

Men maslahatga amal qilib, nonushtani zo'r qilib oldim.

Nonushta ustiga dengiz o'tlari solingan turli xil baliq taomlardan iborat edi. Nonushtadan so'ng biz suv ichdik, kapitanga qarab men ham suvga «parda-simon rodomeniya» deb ataladigan suv o'ti sharbatidan bir necha tomchi soldim.

Boshda kapitan Nemo nonushta ustida indamay o'tirdi. So'ngra dedi:

– Menimcha, professor, siz mendan Krespo oroliga ovga borishga taklifnoma olganingizda meni betayin deb hisobladingiz. Sizni suvosti o'rmoniga taklif etayotganimni bilganingizda esa meni jinniga chiqarib qo'ydingiz. Janob professor, odamlar to'g'risida bunaqa yengil-yelpi hukm chiqarish yaramaydi!

– Ammo, kapitan, ishoning, men...

– Marhamat qilib eshitsangiz, meni betayinlikda yoki telbalikda ayblab bo'ladimi, yo'qmi, keyin hukm chiqaravering.

– Qulog'im sizda.

– O'zingizga ham ma'lumki, professor, odam nafas olishi uchun yetarli miqdorda havo olib tush-

gan taqdiridagina suv ostida turishi mumkin. Suv o'tkazmaydigan kiyim va boshlarini saqlash uchun temir shlem kiyib olgan ishchi-g'avvoslar suvosti ishlarini olib borayotganda havoni yuqoridagi nasosga ulangan maxsus shlang orqali olib turadilar.

– Ha, bu ust-bosh skafandr deb ataladi.

– To'g'ri. Ammo skafandr kiygan g'avvos erkin emas.

U nasoslar orqali havo kelib turadigan rezina shlang bilan ulangan. Bu uni yerga bog'lab qo'ygan haqiqiy zanjir. Agar biz shlang bilan «Nautilus»ga bog'langanimizda edi, uzoqqa borolmasdik.

– Bundan boshqa qanaqa yo'l bor? – so'radim men.

– Rukveyrol-Deneyruz qurilmasidan foydalanish kerak. Bu qurilmani, janob professor, sizning ikki vatandoshingiz yaratgan va men uni shu qadar takomillashtirdimki, endilikda u bilan tamomila bo'lak fiziologik sharoitlardagi suvosti muhitiga tushishingiz mumkin, bunda sog'lig'ingizga zaracha ham putur yetmaydi. Bu apparat ichiga ellik atmosfera bosimda dam berilgan qalin tunuka rezervuardan iborat. Rezervuar tasma yordamida g'avvosning yelkasiga soldat xaltasiday taqib olinadi. Uning yuqori qismida chigirtka tukiga o'xshash moslama bo'lib, bu havo bosimini normal holatga yetkazadi va shundan keyingina klapan orqali chiqaradi. Rukveyrol-Deneyruzning odatdagi qurilmasida rezervuarga ulangan ikkita rezina naycha g'avvosning og'zi va burniga kiygizilgan maxsus maskaga olib boriladi. Bu naychalardan biri rezervuardan havo olishga, ikkinchisi karbonat angidrid chiqarishga xizmat qiladi. G'avvos nafas olayotganda yoki chiqarayotganida naychalardan goh birini, goh boshqasini tili bilan ochib turadi. Ammo dengiz

ostida suvning yuqori qatlamlari bosimiga ko'proq bardosh bersin deb men bu maskani mis shlem bilan almashtirdim va nafas olish hamda chiqarish naychalarini shunga mosladim.

– Juda soz, kapitan. Ammo siz o'zingiz bilan olib tushgan havo tez tugab qolishi kerak, unda kislorod miqdori o'n besh protsentsdan pastga tushgandan keyin esa nafas olish uchun yaramay qoladi-ku.

– Gapingiz to'g'ri, professor. Men oldin aytgan edim-ku, «Nautilus» nasoslari rezervuarga havoni juda kuchli bosim bilan siqib kiritish imkoniyatini beradi. Bunday sharoitda rezervuardagi zapas havo to'qqiz-o'n soat nafas olishga yetarli bo'ladi.

– Boshqa e'tirozim yo'q, – dedim men. – Faqat ruxsat bersangiz, bir narsani so'rasam, siz okean qa'rida yo'lingizni qanday yoritassiz? U yerda zulmat hukm sursa kerak, axir!

– Rumkorf apparati bilan, professor. Siqilgan havo to'latilgan rezervuar yelkaga, bu apparat esa belga osiladi. U Bunzen elementidan iborat bo'lib, uni men odatdagiday kaliy bixromat bilan emas, balki natriy bilan zaryadlayman. Induksion g'altak olinayotgan tokni yig'ib, so'ng uni maxsus konstruksiyali fonarga yuboradi. Bu fonar ilonsimon shisha naychadan iborat bo'lib, ichiga karbonat angidrid to'ldirilgan. Apparat elektr toki hosil qilganda gaz yorqin oq nur taratadi. Shunday qilib, men suv ostida ham nafas olaman, ham ko'raman.

– Kapitan Nemo, mening barcha e'tirozlarimga siz shu qadar aniq va to'la javoblar beryapsizki, endilikda biron narsadan shubhalanishga o'rin qolmadi. Biroq Rukveyrol va Rumkorf apparatlari bilan men o'zimni mag'lub hisoblasam ham, suvosti ovida bizni qurollantirishga va'da bergan miltiqlaringiz bilan sizni yengish umididaman.

– Biroq bu miltiqlar porox bilan zaryadlangan o‘t ochuvchi qurollar emas, – dedi kapitan.

– Demak, sizning qurollaringiz siqilgan havo bilan ishlar ekan-da?

– Albatta. Axir o‘zingiz o‘ylang, selitra ham, oltingugurt ham, ko‘mir ham bo‘lmagan «Nautilus»da qanday qilib porox tayyorlashim mumkin?

– To‘g‘ri-yu, ammo otishma suv ostida – havoga nisbatan bir ming sakkiz yuz ellik marta zichroq muhitda bo‘lgach, o‘q juda katta qarshilikni yorib o‘tishi kerak-ku.

– Bu qarshilik mening qurolimdan otishga to‘sqinlik qilolmaydi. Sirasini aytganda, Fultondan keyin ingliz Filipp Kols va Berley, fransuz Fursi va italyan Landi tomonidan takomillashtirilgan qurol-dan o‘sha sharoitda ham o‘q uzib bo‘ladi. Ammo yana qaytarib aytaman, porox bilan emas, men uni o‘z qurollarimda siqiq havo bilan almashtirdim, buning zapasi esa albatta «Nautilus»ning elektr nasoslari tufayli cheklanmagan.

– Ammo bu zapasni har gal o‘q uzgandan so‘ng yangilab turish kerak-ku.

– Nima bo‘pti, axir yelkamda Rukveyrol rezervuari turgach, qurolimni istagancha zaryadlayveraman-da. Buning uchun murvatni burasam bas. Hali o‘zingiz ko‘rasiz, professor, suvosti siqiq havo ham, o‘q ham unchalik ko‘p sarf bo‘lmaydi.

– Biroq, menimcha, nim qorong‘ida, zich suyuq muhitda uzilgan o‘q uzoq masofaga yetib borib, o‘ljani o‘ldirolmasa kerak.

– Aksincha, professor, mening qurollarimdan otilgan o‘qning barchasi o‘ldiradi. O‘ljaga o‘q sal tegib o‘tsa ham u yashin urganday qulaydi.

– Nega?

– Chunki mening qurollarimdan oddiy o‘q emas,

balki avstriyalik ximik Lyonibrek kashf etgan maxsus snaryadlar otiladi. Bu – o‘rtasida qo‘rg‘oshin va po‘lat qobiqli shisha soqqalardir. Boshqacha qilib aytganda, Lyonibrek o‘qlari ichida juda yuqori quvvatli elektr zaryadi bo‘lgan kichkina leyden bankalaridan boshqa narsa emas. U ozgina turtki bilan razryadlanadi va qanchalik katta hayvon bo‘lmasin, o‘sha zahoti o‘ldiradi. Shuni ham aytishim kerakki, bu shishachalar to‘rtinchi nomerli pitradan katta emas va o‘qdonga kamida o‘nta zaryad sig‘adi.

– Yengildim, – dedim men stol ortidan tura-yotib. – Siz mening barcha e‘tirozlarimni chil-parchin qilib tashladingiz. Men uchun qo‘lga qurol olib, siz boshlagan yerga orqangizdan boraverishdan bo‘lak chora qolmadi.

Kapitan Nemo meni «Nautilus» tumshug‘iga boshlab bordi. Ned Lend va Konsel kayutasi yonidan o‘ta turib, ularni chaqirdik. Ular shu zahoti bizga qo‘shilishdi.

Biz hammamiz birga mashina zali orqasida joylashgan kameraga kirdik. Bu yerda bizlar suvosti sayohatiga chiqish uchun skafandrlar kiyishimiz kerak edi.

## *O‘n oltinchi bob*

### **SUVOSTI TEKISLIGI BO‘YLAB SAYR**

Bu kamera «Nautilus»ning ham qurolxonasi, ham kiyim yechadigan xonasi xizmatini o‘tar edi. Uning devorlarida ovchilar uchun o‘n ikkita skafandr osig‘liq turar edi.

Ned Lend skafandrlarga qarab, yuzini norozi qi-yofada burishtirdi. Uning bu og‘ir kostumni kiyib olishga sira tobi yo‘qligi shundoq ham bilinib turar edi.

– Shuni bilingki, Ned, – dedim men jasur kanadalikka, – Krespo orolining o‘rmonlari suv ostida!

– Bunisi qiziq bo‘ldi-ku! – norozi ohangda cho‘zib gapirdi garpunchi bir parcha toza go‘sh haqidagi orzusi chippakka chiqqanini ko‘rib. – Siz, janob professor, – deb so‘radi u mendan, – shu egarjabduqning ichiga kirmoqchimisiz?

– Albatta, azizim Ned.

– Har kimning ixtiyori, – dedi Ned Lend yelkalarini qisib, – ammo meni, bordi-yu, kuch bilan majbur qilishmasa, o‘zim uning ichiga sira ham kirmayman!

– Sizni hech kim majbur qilmaydi, mister Lend, – dedi noxushlik bilan kapitan Nemo.

– Konsel boradimi? – so‘radi Ned.

– Konsel xo‘jasi izidan suvgagina emas, balki o‘tga ham tushadi! – javob berdi Konsel.

Kapitanning topshirig‘i bilan ikki matros bizga yaxlit rezinadan qilingan bu suv o‘tmas og‘ir ustboshni kiyib olishda yordamlashish uchun keldi. Yuqori bosim uchun mo‘ljallangan skafandrlar o‘rta asr ritsarlarining zirhli kiyimiga o‘xshardi-yu, ammo egiluvchanligi bilan farq qilardi.

Kiyim kamzulcha bilan ishton hamda tag charm o‘rniga qo‘rg‘oshin qoqilgan qalin choriqlardan iborat edi. Kamzulning matosi mis halqalarga tortilgan bo‘lib, bu ko‘krak qafasini suv bosimidan saqlash va erkin nafas olish uchun xizmat qilar edi. Barmoqlarning bemalol harakat qilishi uchun kamzulning yenglariga yumshoq qo‘lqoplar tikilgan.

Kapitan Nemo, uning matrosalaridan biri, ko‘rinishidan chinakam Gerkules deysiz, aftidan, juda baquvvat ham bo‘lsa kerak, Konsel va men – hammamiz birpasda skafandrlarni kiyib oldik. Boshimizga mis shlemni ilib olishimiz qoldi, xolos.

Ammo ungacha kapitandan menga beriladigan qurolni ko'rib olishga ruxsat etishni so'radim.

Matroslardan biri menga ko'rinishdan oddiy miltiqqa o'xshagan, qo'ndog'i odatdagidan kattaroq, ichi bo'sh va po'latdan yasalgan qurolni uzatdi. Uning qo'ndog'i siqilgan havo uchun rezervuar vazifasini o'tab, tepkini bosganda rezervuarining qopqog'i surilib, miltiq og'ziga havo kirardi. O'qdonga yigirmatacha elektr o'q sig'ardi. Bu o'qlar maxsus prujina yordamida avtomatik suratda joylanardi. Quroldan bir o'q otilishi bilanoq o'rniga boshqasi kelib turar edi.

– Kapitan Nemo, – dedim men, – bu juda ajoyib, buning ustiga tuzilishi ham oddiygina qurol ekan. Uni amalda sinab ko'rmagunimcha ko'nglim o'rniga tushmaydi. Ammo biz qanday qilib suvostiga tushib olamiz?

– «Nautilus» hozir suv tagida, o'n metr chuqurlikda turibdi. Biz chiqishimiz mumkin, professor.

– Biroq kemadan qanday qilib chiqamiz?

– Hozir ko'rasiz.

Shunday dedi-yu, kapitan Nemo boshiga mis shlemni kiyib oldi. Konsel bilan men ham xuddi shunday qildik. Ha, aytganday, Ned Lend xayrlasha turib ovimizga kinoya bilan omad tiladi. Kamzulning yoqasida rezbali mis halqa bo'lib, sharga o'xshagan shlem unga burab mahkamlanar edi. Shlemning uchta qalin oynasidan boshni aylantirib, oldinga va yon tomonlarga qarash mumkin edi.

Rukveyrol apparatining havo jo'mragini ochib, belimdagi tasmaga Rumkorf lampasini ildim va qo'limga qurolni oldim. Og'ir skafandr, ayniqsa tagiga qo'rg'oshin qoqilgan choriqlar meni polga

mixlab qo'yganday edi. Nazarimda bir qadam ham jilolmaydiganday edim.

Ammo, aftidan, bu xuddi shunday bo'lishi kerakday tuyuldi keyinchalik. Meni kiyim yechadigan xonaning yonidagi kichkina kabinaga sudrab kirishdi. Hamrohlarimni ham mening ketimdan xuddi shunday itarib kirgizishdi. Kirishimiz bilan orqamizdan eshik yopilganini eshitdim va biz zim-ziyo qorong'ilikda qoldik.

Bir necha minutdan so'ng quloqlarimga qattiq hushtak tovushi chalindi. Oyoqlarimdan ko'kragingacha sovuq bir narsa chiqayotganini sezdim. Aftidan, mashina zalidagi dengiz suvini ochadigan jo'mrakni burashganga o'xshaydi va hozir biz turgan kabinaga suv kira boshlagandi. Suv tepagacha chiqib, kabina to'lgach, «Nautilus» bortidagi ikkinchi eshik ochildi va nim qorong'i yorug'lik ko'rindi. Birozdan keyin biz dengiz tubida yurib borardik.

Dengiz tubida sayr qilib yurganda olgan taassurotларimni qanday tasvirlasam ekan? Hatto rassom mo'yqalami ham chizib ko'rsatishga ojizlik qiladigan suv stixiyasidagi ajoyib go'zalliklarni, o'z ko'zim bilan ko'rgan mo'jizalarni qay til bilan bayon etay?

Kapitan Nemo oldinda borar edi. Matros saf oxirida kelardi. Konsel bilan men mis shlemdiligimizga qaramay, go'yo taassurotларimizni bir-birimizga aytsa bo'ladiganday yonma-yon borar edik. Men skafandr, qo'rg'oshin choriqlar, siqilgan havo to'latilgan rezervuarlar va ichida boshim pista po'chog'idagi mag'iz singari liqillab turgan mis shlemning og'irligini ortiq his etmas edim. Barcha bu narsalar suvga cho'kkach, ular siqib chiqargan suv miqdorichalik yengillashdi. Harakat qilishimga imkoniyat bergani uchun men fizikaning o'z vaqti-



da Arximed ochgan bu qonuniga sajda qilishga ham tayyor edim.

O'ttiz futli suv qatlami ostida bo'lishimizga qaramay, dengiz tubiga taralayotgan yorqin yog'du meni hayratga soldi. Quyosh nurlari shunchalik qalin suvni yorib o'tib, uni rangsizlantirgan edi. Men mayda narsalarni ham yuzlab metr masofadan aniq ko'rar edim. Undan u yog'iga narsalar xiralashib, bo'yoqlar jimirlab qorayardi va nihoyat allalqanday moviynamo rangga aylanardi-da, ko'zdan g'oyib bo'lar edi. Atrofimni o'rab olgan muhit o'sha-o'sha havoga o'xshardi-yu, ammo yerdagi atmosferaga qaraganda zichroq, musaffolikda ham undan qolishmasdi. Boshim uzra sokin dengiz sathini ko'rib turar edim.

Biz zich o'rnashib olgan mayda qum ustida borar edik. U to'liqin sohilda qoldiradigan g'adir-budur emas, nihoyat darajada silliq qum edi. Ko'zni qamashtiradigan bu gilam quyosh nurlariga chinakam reflektor xizmatini o'tar edi. Qalin suv qatlamlarining har bir zarrasigacha yaltillab turishining boisi ham shunda edi. Hozir men o'ttiz fut chuqurlikda suv sathida havo ochiq bo'lgan kundagiday yorug' edi desam, ishonisharmikin?

Chorak soat davomida biz milliardlab ko'zga ko'rinmas darajada mayda chig'anoqlardan iborat qum-gilam ustida bordik. «Nautilus» korpusi ortda qolib, arang ko'rinardi; uning uzoqqa nur tarata oladigan yorqin projektori tunda bortga qaytishimizga yordam berishi kerak edi.

Biz hamon ilgarilab borardik, bepoyon qum tekislikning oxiri yo'qday tuyular edi. Men qo'llarim bilan suyuqlik pardasini ikki yoqqa surib qo'yishim bilan ular o'sha zahoti ortimdan yana zichlashib

olar va suv bosimi zudlik bilan qumdagi oyoq izlarimni tekislab yo'q qilar edi.

Nihoyat, uzoqda allaqanday shakllar elas-elas ko'rina boshladi. Yaqinroq borganda zoofitlar bilan qoplangan suvosti qoyalari ko'rindi. Bu yerda suyuqlik muhitigagina xos yorug'likdan ko'zlarim qamashib ketdi.

Ertalab soat o'nlar chamasi edi. Suv sathiga qiya tushayotgan quyosh nurlari prizma orqali o'tganday sinib, qoya chetlarini, polioplarni, o'simliklarni o'z spektrining yetti rangi bilan jilolantirar edi. Suvda binafsha, ko'k, havorang, yashil, sariq, zarg'aldoq va qizil bo'lib tovlanayotgan yorqin ranglar mohir rassomning bo'yoq taxtachasiday ko'zni quvontirar edi.

Men o'z tuyg'ularim, quvonch va hayajonlarimni Konselga aytolmasligimga achinardim... Kapitan Nemo matros bilan gaplashayotgan imo-ishora tilini bilmaganimga achinardim! Shunda ham jim turolmasdim. O'zimga o'zim gapirib, baqirib-chaqirib allanimalar derdim va bu bilan qimmatli havo zapasini sira ayamay behuda isrof qilar edim.

Konsel ham men singari bu ajoyib manzara oldida dong qotib qolgan edi.

To'g'risini aytsam, bu ajoyib odam zoofitlar va molluskalarni ko'rib, nazarimda ularni zudlik bilan tasniflay boshlagan edi.

Suv tubi ko'plab poliopl va tikanterililar bilan qoplangan. Turli xil marjon izidlar, tanholikda yashaydigan terili marjonlar – kornulariylar, ilgari «oq marjonlar» deb atalgan o'tkir ko'zli marjonlar gruppasi, shampinonga<sup>1</sup> o'xshagan marjon fungiylar, og'zining atrofini tikanaklar toj singari qoplagan aktiniylar – bularning barchasi chinakam

---

<sup>1</sup> *Shampinon* – yemishli zamburug'ning bir turi.

gulzorga o'xshar edi. Ammo ko'k tikanaklari jimjimador, yoqali porpitlar, qumda behisob yulduzlar olamini tashkil etgan dengiz yulduzlari, shoxlab ketgan va burama nur taratadigan ofiurlar – astrofitonlar bu dengiz bog'ining eng yaxshi bezaklari hisoblanar edilar.

Men boshmoqlarim bilan dengiz tubini qoplagan minglab molluskalar: bolg'achalar, donatsiyalar, sakrayotgan taroqchalar, troxuslar, strombuslar, dengiz quyonlari – apliziylar va bitmas-tuganmas boylıklarga serob okeanning boshqa jonivorlarini har bosib olganimda astoydil xafa bo'lar edim.

Ammo oldinga yurishimiz kerak edi va shuning uchun ham biz ketaverdik.

Tepamizda havorang tikanakli fizaliylar guruhi va och pushti yoki shaffof shlapali, chetlariga ko'k chiziq tortilgan meduzalar bamaylixotir suzib borardilar. Shuningdek, meduza-pelagiyani ham uchratdik. Hozir qorong'i bo'lganida o'zining fosfor nurlari bilan yo'limizni yoritgan bo'lar edi.

Barcha bu mo'jizalarni men chorak milcha borar-bormas masofada ketaturib yo'l-yo'lakay ko'rdim. To'xtamay ildam borayotgan kapitan Nemodan ortda qolmaslik kerak edi.

Ko'p o'tmay yer tusi o'zgardi. Qumloq amerikaliklar «zanjir» deb atovchi yopishqoq loyqa qatlam bilan almashdi. Bu loyqa tosh yoki ohakli chig'anoqlardan iborat edi. So'ngra suv o'tlari bilan qoplangan yalanglikdan o'tdik. Suvosti o'tloqlari qalin o'simliklar bilan qoplangan bo'lib, oyoq osti chapdast usta to'qigan yumshoq gilam to'shalganday edi.

Oyog'imiz ostidagina emas, tepamizda ham o'simliklar yoyilib yotardi. Biz usti suv o'simliklari bilan yopilgan berk yo'lkadan borayotganday edik.

Bu yerda fukuslarning uzun tasmalari, sharsimon yoki naychaga o'xshash laurensiyalar, yaproqlari yupqa kladosteflar, kaktuslarning yelpig'ichiga o'xshagan keng yaproqli rodomeniyalar bor edi.

Yashil suv o'simliklari dengiz sathiga yaqin, qizillari o'rta chuqurlikda, jigarrang va qoralari esa okeanning ancha chuqur qatlamlarida gulzor va bog'larni tashkil etar ekan.

Suv o'simliklari – tabiatning chinakam mo'jizasi. Qariyb ikki ming a'zosi bo'lgan bu oilaga dunyodagi eng kichik o'simliklardan tortib eng yirigigacha taalluqlidir. Chunonchi, qirq ming donasi besh kvadrat millimetr yerga joylashadigan mikroskopik o'simliklar bilan birga uzunligi besh yuz metrdan ortiq suv o'simliklari ham bor.

Biz «Nautilus»dan chiqib ketganimizga bir yarim soatcha bo'ldi. Kun peshinga yaqinlashyapti. Men buni quyosh nurlari suvda sinmay, tik tushib turganidan bildim. Ta'rifga sig'mas zumrad bo'yoqlar bizning gumbazimizdan yo'qoldi. Biz bir maromda qadam tashlab borar edik va qadamlarimizning ovozi aniq eshitilib turar edi. Tiq etgan tovush ham quloq odatlanmagan darajada tez yoyilar edi. Ha, suv chindan ham tovushni havoga nisbatan yaxshi o'tkazadi va unda tovush to'rt marta tezroq tarqaladi.

Shu orada suvosti sezilarli darajada qiyalashib borardi. Biz yuz metr chuqurlikda bo'lib, o'n atmosfera bosim ostida edik. Ammo, aftidan, skafandrim shu sharoitga moslashtirilganday yuqori bosim menga sira ta'sir etmas edi.

Barmoqlarimning bo'g'inlari bilinar-bilinmas siqilayotganinigina sezardim, xolos. Ammo bu biroz noxush holatga ham ko'p o'tmay o'rganib qoldim. Bu ust-boshga odatlanmaganimga qaramay, ikki

soat yurib sira charchamagan edim. Suv o'rab olgan bu kiyimda men odatdan tashqari oson harakat qilardim<sup>1</sup>.

Uch yuz fut chuqurlikdan ham quyosh nurining jimirlab turganini ko'rdim, ammo u endi arang ko'zga tashlanar edi. Kunning yorqin yog'dusi o'rnini qizg'ish qorong'ilik – kun bilan oqshom o'rtasidagi holat egalladi. Biroq biz yo'lni aniq ko'rib turar edik va hozircha Rumkorf lampalarini ishga solishga hojat yo'q edi.

Kapitan Nemo to'satdan to'xtadi. U yaqinlashuvimni kutib turdi va barmog'ini oldinga cho'zib, nim qorong'ida aniq ko'zga tashlanayotgan allaqanday qora narsani menga ko'rsatdi.

«Bu Krespo orolining o'rmoni bo'lsa kerak», o'yladim men va xato qilmagan edim.

## ***O'n yettinchi bob***

### **SUVOSTI O'RMONI**

Shunday qilib, nihoyat o'rmon etagiga yetib kelдик. Kapitan Nemoning ko'z ilg'amas mulkidan eng chiroyli yeri shu bo'lsa ham ajab emas. Bu o'rmonni u o'zining shaxsiy mulki deb hisoblab, dunyo paydo bo'lgan dastlabki kunlardagi dastlabki odamlarnikiday huquq da'vo etgan edi. Sirasini aytganda, suvosti mulkiga egalik qilish huquqini undan kim ham tortib olar edi? Yana boshqa bir jasurroq kishi qo'liga bolta olib, mudroq o'rmonni chopishga jur'at eta olarmikin?

Krespo orolining o'rmoni daraxtga o'xshagan ulkan o'simliklardan iborat edi. Uning keng may-

---

<sup>1</sup> G'avvosning ishi juda og'ir jismoniy mehnat bo'lib, uzoq mashq talab etadi. J.Vern qahramonlari g'avvos kiyimlarida istagan chuqurlikda sayohat qilishlari romanlardagina bo'lishi mumkin.

doniga kirishimiz bilanoq, shoxlarning turish holatini ko'rib, hayron bo'ldim. Bunaqasini sira ko'rmagan edim!

Suv tubiga gilamday to'shalgan o't-o'lanlar ham, daraxtlarning shoxlari ham egilmasdan, qayrilmasdan, gorizontal holatda yer bag'irlamay, hammasi tikka – okean sathiga qarab ko'tarilgan edi. Eng ingichka novdalar ham bir tola temir xivichday yuqoriga ko'tarilib turar edi. Fukuslar va boshqa suv o'simliklari ularni o'rab olgan muhitning zichligidan dengiz sathi tomon juda tik o'sgan edi. Bu o'simliklarni men bir tomonga surib qo'yganimda ham, qo'limni olishim bilan ular yana oldingi holatiga qaytar edi.

Birozdan so'ng men atrofimizni o'rab olgan nim qorong'ilikka ko'nikkanday, o'simliklarning bu g'alati tikka holatiga ham o'rganib qoldim. O'rmon «tuprog'i» qirrali toshlar bilan qoplangandi. Suvosti o'simlik dunyosi nazarimda juda ko'p va xilma-xil edi.

Men boshda o'simlik olami bilan hayvonot dunyosini ajrata olmay qoldim: hayvonot bilan o'simliklarni chalkashtira boshladim. Zoofitlarni suv o'simliklari – gidrofitlar bilan chalkashtirdim yoki buning aksi bo'ldi. Mening o'rnimda boshqa kishi bo'lganda ham bu masalada xato qilmasmidi? Axir, bu suvosti dunyosida hayvonot olami bilan o'simliklar shu qadar bir-biriga chirmashib ketganki, asti qo'yaverasiz!<sup>1</sup>

Men jamiki o'simliklar tuproqdan unib chiqqan emas, balki unga yopishibgina turganini ko'rdim. Buning sira ajablanadigan yeri yo'q: ildizsiz bu o'simliklarga tuproqdan hayot kechirishlariga ozuqa

---

<sup>1</sup> XVIII asrning oxiri va XIX asrning boshlarida olimlar o'rtasidagi xato tushuncha.

emas, balki tayanch nuqtasi kerak edi, xolos. Shuning uchun ham ular toshlarda ham, qumda ham, shag'alda ham, chig'anoqlar ustida ham birday turaveradi. Bu o'simliklar ularni o'rab olgan suvda o'sadi, nafas oladi va ozuqa topadi. Ko'pchiligining kichkinagina yaproqlari juda g'alati jimjimador shaklda bo'ladi. Bu yaproqlarning ranglari ham pushti, och qizil, yashil, qo'ng'ir, ko'kish-sariq va jigarranglarning uyg'unlashuvidan iborat. Men bu yerda «Nautilus» kolleksiyasida ko'rganlarimga yana duch keldim. Endi ularni kolleksiyadagidek qotirilgan holda emas, balki hayotligicha ko'rdim. Bular yoyib qo'yilgan yelpig'ichga o'xshash suv tovuqlari, to'q qizil seramiyalar, laminariyalar, tez o'sadigan yosh novdalar, o'n besh metr balandlikda gullaydigan ipsimon nereotsisteylar, poyasining yuqori qismi yo'g'onlashib boradigan atsetabulyariy to'plari va gulsiz boshqa ko'pgina dengiz o'simliklari edi. «Juda g'alati olam-da, – degan edi bir naturalist suvosti dunyosi haqida, – bu yerning hayvonlari gullaydi, o'simliklari esa gulsiz!»

Kattaligi jihatidan iqlimi o'rtacha mintaqadagi daraxtlardan qolishmaydigan o'simliklar ostida chinakam gullarga o'xshash butalar ustida, ilon izi jo'yaklarda meandrinlar gullab yotgan qator zoolitlar, sarg'ish va oqish tutqichlari bo'lgan yulduzsimon kariofilliya – marjonlar ko'zga tashlanar va nihoyat shunga o'xshash yerdagi chorbog' da baliqpashshalar kolibri<sup>1</sup> to'dalari singari guldan gulga uchib yurar, oyoqlarimiz ostidan esa loyxo'raklar, sariq lepisakantlar uchar, xo'rozlar va monosentrlar gala-gala bo'lib ko'tarilardilar.

Kunduzi soat birga yaqin Nemo dam olishga

---

<sup>1</sup> *Kolibri* – tropik mamlakatlarda yashovchi rang-barang patli kichkina qush.

ishora qildi. Biz poyalari gotik uslubda qurilgan ibodatxonaning nayza cho'qqilari kabi yuqoriga qarab ko'tarilgan alariy ostida cho'zilishdik.

Juda huzur qilib dam oldik. Faqat gaplashib o'tirishning iloji yo'q edi. Chunki gapirish ham, eshitish ham mumkin emas edi. Men o'zimning ulkan mis boshimni Konselning xuddi shunaqa boshiga yaqinlashtirdim va dilkash do'stimning ko'zlari hayratdan chaqnab turganini ko'rib qanoat hosil qildim. U o'zining g'oyat mamnunligini bildirish uchun metall shlemi ichida boshini kulgili holatda liqillatib qo'ydi.

To'rt soatlik sayrdan keyin ham qornim ochmaganiga hayron edim. Oshqozonim bu qadar bardosh berayotganining sababini tushunolmasdim. Ammo g'avvoslarda bo'ladiganday meni ham uyqu bosa boshladi. Qalin oyna ortida ko'zimni yumdim. Yurish natijasida yengilib kelgan mudroq ustun chiqqa boshladi. Kapitan Nemo bilan barzangi matros namuna ko'rsatganday birinchi bo'lib qum ustida cho'zilib, tezda uxlab qolishdi.

Qancha uxlaganimni bilmayman. Ko'zimni ochsam, kapitan Nemo o'rnidan turgan ekan. Homuza tortib turgandim, birdan o'zimdan bir necha qadam narida bo'yi rosa bir metr keladigan katta dengiz qisqichbaqasiga ko'zim tushib qoldi; aftidan, menga hujum qilmoqchi bo'lib, qiyshiq ko'zlarini baqraytirib turardi. Skafandrim uning tishidan himoya eta oladigan darajada qalin bo'lishiga qaramay, baribir qo'rqqanimdan titrog'imni bosolmas edim. Shu payt Konsel bilan «Nautilus» matrosi uyg'onib qolishdi.

**Kapitan Nemo dahshatli maxluqqa ishora qilishi bilan matros qisqichbaqani o'sha zahotiyiq miltiq qo'ndog'i bilan urib o'ldirdi.**



Ulkan bo'g'inoyoqlini ko'rgach, bu zim-ziyo chuqurlikda skafandrim ulardan himoya etolmaydigan boshqa dahshatliroq maxluqlar yashashi mumkinligini o'yladim.

Ehtiyot bo'lishga qaror qildim.

Bu dam olishimiz sayrimizning xotimasi deb xato o'ylagan ekanman. Kapitan Nemo «Nautilus» tomon yurmay, yana olg'a ketdi.

Okean tubi borgan sari chuqurlashardi, binobarin, biz qiyalab yurib, tobora dengiz qa'riga tushar edik. Yuz ellik metr chuqurlikda ikki tik qoya oralig'idagi pastlikka yetib kelganimizda, soat uchlar chamasi edi. G'avvoslik kostumimiz takomillashtirilgani tufayli tabiat insonning suvostiga qiladigan sayohatlariga belgilagan chuqurlikdan to'qson metr pastroqqa tushgan edik.

Chuqurlikni belgilab beradigan biror asbobim bo'lmasa-da, biz yuz ellik metr suvostiga tushganimizni aniqladim. Chunki men eng tiniq suvda ham quyosh nuri bundan chuqur masofaga o'tolmasligini bilardim. Xuddi shu chuqurlikda bo'lgan paytimizda atrof zim-ziyo edi. Ammo birdan oldinda yorqin shu'la taraldi. Kapitan Nemo o'zining elektr fonarini yoqqan edi. Unga ergashib hamrohi ham fonarini yoqdi. Shundan so'ng Konsel bilan men ham fonarlarimizni yoqdik; biz vklyuchatelni burdik va ichiga gaz to'latilgan ilonsimon trubka elektr tokidan quvvat olib, yorug'lik tarata boshladi.

Bizning to'rtta fonarimizdan chiqqan yorug'lik dengizni yigirma besh metr radiusida yoritdi.

Kapitan Nemo hamon qorong'i o'rmonning ichkarisiga kirib borardi. Daraxtlar borgan sari kamayardi. O'simlik olami hayvonot dunyosidan ko'ra tezroq siyraklashar edi. Biz endi dengiz o'simlik-

larini deyarli uchratmasak-da, zoofitlar, bo'g'in-oyoqlilar, molluskalar va baliqlar atrofimizda g'ujg'on o'ynardi.

Elektr fonarlari dengiz jonivorlarining diqqatini jalb etsa kerak, degan fikr xayolimdan o'tdi. Ammo ular bizga yaqinlashsalar-da, bemalol ov qilsa bo'ladigan masofaga kelmas edilar.

Kapitan Nemo bir necha bor to'xtab, miltiq qo'ndog'ini yelkasiga tiraganini ko'rdim. Ammo mo'ljalga olib, o'q uzmay miltiqni tushirar edi.

Nihoyat, tushdan keyin soat to'rtlarga yaqinlashganda biz ajoyib sayrimizda mo'ljallagan yerga yetdik. To'satdan oldimizda qorong'i g'orlar o'yilgan ulug'vor qoyalar uyumidan iborat ulkan granit devor paydo bo'ldi. U deyarli tik ekan. Bu Krespo orolining etagi edi. Bu – yer edi.

Kapitan Nemo to'xtadi. Bizga ham to'xtash ishorasini qildi. Menda bu devordan oshib o'tish istagi qanchalik kuchli bo'lmasin, to'xtashga to'g'ri keldi. Kapitan Nemoning mulki shu yerda tugar edi. U chegara hatlab nariga o'tishni istamas edi.

Bu to'siqning naryog'ida u borishni istamaydigan boshqa dunyo boshlanadi!

Biz orqaga qaytdik. Kapitan Nemo yana kichkina otryadimizning oldiga tushib, ikkilanmay olg'a boshladi. Nazarimda biz «Nautilus»ga boshqa yo'l bilan qaytayotgan edik.

Bu yangi, juda tik, binobarin, g'oyatda charchatadigan yo'l dengiz sathiga bizni tez yaqinlashtirardi. Ammo suvning yuqori qatlamlariga biz ko'ngilsiz oqibatlarga olib keladigan darajada tez ko'tarilganimiz yo'q: ma'lumki, bosimning to'satdan o'zgarishi odam organizmida qondan azot ajralib chiqishiga – qonning qaynashiga olib keladi.

Bu xavf katta chuqurlikdan suv sathiga tez

ko'tariladigan barcha ehtiyotsiz g'avvoslar uchun halokatlidir.

Ko'p o'tmay biz yana suvning yorug' qatlam-lariga kirdik. Quyosh shafaqda pastlab turganidan uning nurlari suvda sinib, o'simliklar atrofida ka-malak singari tovlanib, jilvalanardi.

Biz turli-tuman baliqchalar qurshovida o'n metr chuqurlikda borar edik; ammo shu paytgacha o'q uzsa arzigudek biror suv maxluqi ko'zimizga cha-lingani yo'q.

To'satdan men kapitan Nemoning miltiqni yana yelkasiga tirab, suvosti butasi ostida qimirlayot-gan allaqanday mavjudotni mo'ljalga olayotganini ko'rib qoldim. U tepkisini bosdi. Kuchsiz hushtak tovushi eshitilib, bizdan besh qadam narida alla-qanday maxluq yiqildi.

Bu dengiz suvsari<sup>1</sup> – dengizning yagona to'rt-oyoqlisi edi. Uzunligi bir yarim metr, yelkasi to'q qo'ng'ir, qorni kumushrang bu jonivorning terisi rus va xitoy bozorlarida juda ham yuqori bahola-nadi. Uzun tanasi silliq, oyoqlari kalta-kalta, yassi boshli, tumshug'i pachoq, quloqlari kichkina, oyoq panjalarining orasi parda bilan chirmashgan va dumi uzun bu maxluqni men qiziqib ko'zdan ke-chirdim. Keyingi paytlarda juda kamyob bo'lib qol-gan bu qimmatbaho yirtqich hayvonni baliqchilar ovlashga zo'r berib intiladilar. U endilikda Tinch okeanning shimoliy qismlaridagina uchrab, keyin-chalik tamoman yo'q bo'lib ketsa ham ajab emas.

Matros suvsarni yelkasiga ko'tarib oldi va biz yana yo'lda davom etdik.

Bir soat davomida qum tekisligi bo'ylab bordik. Ba'zi o'rinlarda u dengiz sathidan ikki metr yer-gacha ko'tarilgan edi. Shunda men aksimizni oyna-

<sup>1</sup> Dengiz suvsari Komandor oroli sohillariga yaqin zonada ya-shaydi.

dagiday yaqqol ko'rdim – go'yo tepamizda bir to'da odamlar bizning barcha harakatlarimiz va imo-  
ishoralarimizni qaytarib borar... ammo boshi pastda  
va oyoqlari yuqorida edi.

Yana bir narsa diqqatni jalb etar edi: tepamiz-  
da ketma-ket bulutlar galasi kelib suvda erib ket-  
ganday bir zungina yorug'lik yuzini to'sardi. Bu  
g'alati manzaraning sababini o'ylab, shunga amin  
bo'ldimki, «bulutlar»ning bunday taassurot qoldi-  
rishi ustimizdagi to'lqinlanayotgan suv qatlami  
qalinligining o'zgarishidan bo'lak narsa emas. Qa-  
rab turib to'lqinlar qirrasidagi ko'pik mavjlarini  
ko'rdim. Suv shu qadar shaffof ediki, men hatto suv  
ustida lip-lip o'tayotgan katta dengiz qushlarining  
soyalarini ham aniq ko'rib turardim.

Xuddi ana shu payt ovchiga ko'rish sira nasib  
etmagan ajoyib o'q uzishning shohidi bo'ldim. Qa-  
notlarini keng yoyib parvoz qilib kelayotgan alla-  
qanday katta bir qush suvga yaqinlashar edi. U aniq  
ko'rinib turardi. Qush dengiz sathidan bir necha  
metr yuqorida uchayotganda, matros qurolini yel-  
kasiga tirab, unga qarab o'q uzdi. Qush dengizga  
shu qadar zarb bilan quladiki, suv qarshiligini kesib,  
deyarli merganning qo'liga kelib tushdi. Bu dengiz  
qushlari gruppasining ajoyib namunasi yirik albat-  
ros<sup>1</sup> edi.

Ikki soat davomida biz goh qum tekisligi, goh  
suv o'simliklari bilan qoplanib, yurishni mushkul-  
lashtiradigan yaylovdan bordik. Ochig'ini aytsam,  
bizdan yarim milyacha naridagi allaqanday xira  
yog'duga ko'zim tushganda, holdan toyayozgan  
edim. Bu «Nautilus» projektori edi. Ko'pi bilan yi-  
girma minutdan so'ng biz kema bortiga yetishimiz  
mumkin edi. U yerda ko'kragimni to'ldirib nafas

---

<sup>1</sup> Albatros – yirik dengiz qushi.

olish umidida edim, chunki rezervuardan shlem orqali o'tayotgan siqiq havoda endi yetarli kislorod yo'qday tuyulardi menga. Ammo kemaga qaytishimizni biroz kechiktirgan bir uchrashuvni hisobga olmagan ekanman. Men kapitan Nemo ortidan yigirma metrcha masofada borar edim. Birdan u qayrilib, tez men tomon yurdi. Temir qo'li bilan meni yerga ag'dardi. Matros Konselni ham xuddi shunday qildi.

Boshda nogahoniy bu hujumning sababini bilolmay qoldim. Ammo kapitanning o'zi ham yonimga cho'zilib, qimirlamay yotganini ko'rib tinchlandim.

Men suv o'simliklari butalari ostida nima bo'lganini bilmay yotganimda, birdan ustimizdan allaqanday yo'g'on narsalar yiltirab o'tayotganiga ko'zim tushib qoldi. Yuragim to'xtab qolganday bo'ldi. Bu bahaybat narsalar bir juft akula ekan. Bu dahshatli maxluqlarning dumi juda katta, bir urganda odamni tars ikkiga yorib tashlaydigan, chakklari temirday va xira ko'zlari shisha singari edi.

Konsel klassifikatsiyalash bilan bandmidi, bilmadim, ammo o'zim haqimda shuni ayta olaman-ki, ularning kumushrang qorni va katta-katta o'tkir tishlariga tabiiyotshunos olim emas, balki o'lja sifatida qarardim.

Yaxshiyam baxtimizga bu dahshatli yirtqichlarning ko'zlari juda xira ko'radi. Ular naq boshimiz ustidan hech narsani ko'rmay suzib o'tishdi. Baxtimiz chopib o'rmon ichkarisida sher bilan uchrashuvdan ham dahshatliroq xavfdan qutuldik.

Yarim soatdan so'ng biz projektori yo'limizni yoritib turgan «Nautilus»ga yetib oldik. Tashqaridagi eshik ochiq qolgan edi. Biz kabinaga kiritishimiz bilan kapitan Nemo uni zarb bilan urib yop-

**di.** Shundan soʻng u tugmani bosdi. Men kema ichidagi nasoslar shovqinini eshitdim va atrofidagi suv sathi pasayayotganini sezdim. Bir necha minut ichida kabina suvdan tamoman xoli boʻldi. Shundan soʻng ichki eshik ochilib, biz kiyim yechadigan yerga oʻtdik.

Ustimdagi skafandrni yechib olishgach, qattiq charchoq, uyqu bosish va darmonsizlikdan gandaraklab, bu ajoyib suvosti ekskursiyasidan juda mamnun holda xonamga kirib bordim.

## *Oʻn sakkizinchi bob*

### **TINCH OKEAN OSTIDAN 16000 KILOMETR**

Ertasi kuni, 18-noyabrda, men juda tetik va tiniqib uygʻondim. Men «Nautilus» palubasiga kapitani yordamchisi oʻzining odatdagi iborasini qaytarayotgan daqiqada chiqib qoldim. Birdan boshimga bu ibora: «Hech narsa koʻrinmaydi» degan maʼnoni anglatadi, degan fikr keldi.

Haqiqatan ham okean sathida mutlaqo hech narsa koʻrinmas edi. Ufqda bitta ham yelkan yoʻq. Krespo orolining togʻlari tundayoq koʻrinmay qolganga oʻxshaydi. Dengiz barcha boʻyoqlarni oʻzida singdirib, moviy rangdagina jilvalanar edi.

Okean tongining ajoyib manzarasini zavq bilan kuzatayotganimda, palubaga kapitan Nemo chiqdi. U goʻyo meni koʻrmaganday astronomik kuzatuvlari bilan mashgʻul boʻldi.

Ishini tugatib, shturval budkasi oldiga bordi va tirsaklarini tiragancha, okeanni kuzata boshladi.

Shu orada palubaga yigirma chogʻli matros chiqdi. Bularning barchasi barvasta va baquvvat kishilar edi. Matroslar tunda tashlangan toʻrlarni yigʻishtirib ola boshladilar. Ular turli millat kishilari

edilar. Ular orasida bir necha irlandiyalik, fransuz, slavyan, bir grek, asli Krit orolidan bo'lgan yana bir kishi bor edi. Ularning hammalari ham juda kamgap va o'zaro allaqanday tushunib bo'lmaydigan va men kelib chiqishini ajratolmagan bir tilda fikr almashar edilar.

Matroslar to'rlarni palubaga tortib chiqardilar. Bu katta qop shaklidagi normandcha to'rlarni eslatar, uning og'zidan ichki aylanasi tomon yog'och va zanjirlar o'tkazilgan bo'lib, yarim ochiq holda suvda qoldirilar edi. Qop kema quyrug'iga po'lat simlar bilan bog'langan bo'lib, yo'lida uchragan narsani yig'ib olar edi.

Shu kuni o'zlarining sinchkovliklari oqibatida okean hayvonot olamining namunalaridan baliqchi baliqlar to'rga ilingan edilar. Bu baliqlar benihoya xunukliklari, badnafsliliklari va g'alati suzishlari tufayli «dengiz alvastilari» deb atalganlar. Bu baliqlar dengiz tubida turib oldingi suzgichlari bilan bir joydan ikkinchi joyga sakraydilar. To'rda qashqa tikanqorinlilar ham tipirchilab yotardi; osoyish-ta vaqtida bu baliqning qorni ichiga tortilib turar, ammo xavf-xatar yaqinlashayotganini sezgunday bo'lsa, u o'zini shishirib, qavat-qavat terisini yoyar, shar holatiga aylanib, dahshatli tikanlar bilan qoplagan qornini g'animga tutar edi. Shundan so'ng to'rlardan «Nautilus» palubasiga bir nechta sarg'ishroq ilonbaliq; uzun tanasi dum suzgichlari o'rniga ingichka ip bilan tugaydigan ikkita kumush kulrang ingichka dum; tanasining pastki qismini uzun to'g'ri suzgich egallagan ikkita tangali to'g'ripat; qo'ng'ir qashqalari bo'lgan sarg'ish kulrang treska; ko'plab turli-tuman bichoklar<sup>1</sup> va nihoyat juda tez harakat qilishlariga qaramay, to'rdan

---

<sup>1</sup> Bichok – baliqning bir turi.

qutulolmagan bir nechta yirik ajoyib tuneslarni agʻdarishdi.

Toʻrlardan kamida ming qadoq baliq chiqdi. Ov juda zoʻr boʻlmasa-da, chakki emas edi.

Har holda, toʻrlar bir necha soat mobaynida kema ortidan sudralib, yoʻlda uchragan bor narsanigina yigʻishtirib olgan edi.

Ovlangan baliqlarning hammasini matroslar kambuzga<sup>1</sup> olib borishdi: ulardan bir qismi kundalik taomda yeyilishi, qolgani esa gʻamlab qoʻyilishi kerak edi.

Baliq ovi tugadi; kema hozir suvga shoʻngʻiydi, deb oʻylab, endi xonamga qaytmoqchi boʻlib turgan edim, ammo toʻsatdan kapitan Nemo menga yaqinlashib, soʻz boshladi:

– Okeanga qarang, professor! Qalay, sizga ham bu tirik mavjudot baʼzan qahrnok, baʼzan esa muloyim boʻlib tuyuladimi? Kecha kechqurun u ham biz singari uyquga ketdi, bugun esa sokin tundan keyin ruhi tetiklashib, yaxshi kayfiyatda uygʻondi.

«Na salom bor, na xayr-xoʻsh! – oʻyladim men. – Chetdan qaraganda, bu odam men bilan ancha oldin boshlagan suhbatini davom ettirayotganday boʻlib koʻrinadi!»

– Qarang, – deya soʻzini davom ettirdi kapitan Nemo, – mana, u quyoshning erkalashlari bilan uygʻonyapti, hozir oʻzining kunduzgi hayotini boshlaydi. Uning organizmida hayotiy faoliyatning uygʻonayotganini kuzatish naqadar zavqli! Uning yuragi, qon tomirlari bor... Men olim Morining okeanda jonivorlardagi qon aylanishiga oʻxshash harakat borligi haqidagi fikriga tamomi-la qoʻshilaman.

Kapitan Nemo mendan javob kutmayotgani aniq koʻrinib turar edi. Shuning uchun men oʻzimni

---

<sup>1</sup> Kambuz – kema oshxonasi



uning gaplariga «juda to'g'ri», «haq gapni aytyapsiz», «ha albatta» degan mantiqsiz luqmalar tashlab turish ehtiyojidan xoli etdim.

Kapitan o'ziga o'zi so'zlayotganday har bir gapidan keyin uzoq jim bo'lib qolardi. Bu ovoz chiqarib fikrlashning xuddi o'zi.

– Ha, – dedi u, – harorat almashuvi, tuz va mikroorganizmlar mavjudligi tufayli okeanda doimiy o'zgarishlar bo'lib turadi. Haroratning almashib turishidan turlicha suv zichligi hosil bo'ladi, buning natijasida esa oqim va qarshi oqimlar kelib chiqadi. Qutb tomonlarda juda oz va ekvatorial zonalarda esa ko'plab bo'lib turadigan suvning bug'lanishi tropik va qutb suvlarining tez-tez almashib turishiga olib keladi. Bundan tashqari, men suvning hamisha yuqoridan pastga va pastdan yuqoriga harakat qilib turishini payqadim; bu okeanning chinakam nafas olishini ifodalaydi. Quyosh nurlaridan qizigan zarra dengiz sathidan uning qa'riga tushadi, noldan yuqori ikki darajagacha sovib o'zining me'yoridagi zichligiga erishadi va sovub yengillashgach, yana suv sathiga ko'tariladi. Siz bu hodisaning natijalarini qutbda ko'rasiz va o'shanda nega suvning faqat sathi muzlashini bilib olasiz.

Kapitan Nemo og'zidagi gapni aytib bo'lguncha xayolimdan: «Qutbda? Nahotki, bu jasur kishi bizni o'sha yoqqa olib bormoqchi bo'lsa?» degan fikr o'tdi.

Shu orada kapitan jim bo'lib qoldi; uning nigohi o'zi juda sinchiklab va mehr bilan tinmay kuzatayotgan okeanga qadalgan edi.

Birpas jim turgach, yana gapira ketdi:

– Dengizda tuz juda ko'p. Dengiz suvidagi erigan tuzlarning hammasini yig'ganda, u to'rt yarim million kub milya hajmni qoplar edi. Bordi-yu, pro-

fessor, siz bu tuzlarni butun yer shari bo'ylab bir tekis yoyib chiqsangiz, uning qalinligi o'n metrdan oshgan bo'lur edi. Ammo siz suvda tuzning bo'lishi tabiat injiqligidan deb o'ylamang tag'in. Mutlaqo! Tuz dengiz suvining bug'lanishini kamaytiradi, shamolning juda ko'p bug'ni olib ketishiga yo'l qo'ymaydi va bu bilan sayyoramizdagi mo'tadil iqlimli zonalarini yomg'irdan saqlaydi. Bu yer yuzida stixiya ishini bir me'yorda tutish yo'lida qilinayotgan katta va faxrli ishdir!

Kapitan Nemo yana jim bo'lib, paluba bo'ylab bir necha qadam yurgach, so'zida davom etdi:

– Eng mayda tirik organizmlar, millionlab to'dasi bir tomchiga sig'ib ketadigan va sakkiz yuz mingi bir milligramm keladigan bakteriyalarga kelsak, ularning rolini ham kamsitib bo'lmaydi. Ular dengiz tuzlarini yutadilar, suvda erigan qattiq jismlarni yig'ib oladilar. Hu pastda zoofitlar, marjonlar va poliplar koloniyasini barpo etadilar va butun boshli qit'alarni vujudga keltiradilar. Ammo okean suvi tinch turmaydi. U hamisha gorizontaal yo'nalishda ham, vertikal bo'ylab ham harakatlanib turadi va organizmlarni ozuqa bilan ta'minlaydi. Suvning doim shunaqa yuqoriga va pastga siljib, muntazam ravishda harakatda bo'lishi dengizda abadiy hayot vujudga keltirib turadi. Ko'pchilik odamlar uchun o'lik, ammo son-sanoqsiz hayvonot va men uchun hayotbaxsh muhit hisoblangan okeanning barcha qismlarida juda jo'shqin, qit'alardagiga nisbatan samaraliroq, bitmas-tuganmas, abadiy va gullab-yashnaydigan hayotni vujudga keltiradi!

Kapitan Nemo bu so'zlarni aytayotganda uning butun qiyofasi tamoman o'zgardi. Uning so'zlari menda g'oyat katta taassurot qoldirdi.

– Chinakam hayot ham shu yerda, faqat shu yer-

da! – deb qo‘shib qo‘ydi u. – Men suvosti shaharlari «Nautilus» singari har kuni ertalab toza havodan nafas olish uchun okean sathiga ko‘tariladigan suvosti uylari to‘dasi bo‘lishiga ishonaman, – ha, erkin, hech kimga tobe bo‘lmagan shaharlar!.. Kim biladi, balki biror zo‘ravon...

Kapitan Nemo fikrini to‘la ifoda etmadi va yanib, qo‘l siltadi.

Keyin bu qayg‘uli fikrlardan o‘zini xoli etmoqchi bo‘lganday bevosita menga murojaat qilib so‘radi:

– Janob professor, okean chuqurligi qanchaligini bilasizmi?

– Men so‘nggi o‘lchovlar vaqtida olingan raqamlarnigina bilaman, kapitan...

– Shu raqamlarni menga ayta olasizmi?

– Marhamat, esimda qolganlarining hammasini sizga aytib berishim mumkin. Adashmasam, tadqiqotlar shuni aniqladiki, Atlantik okeanning shimoliy qismlaridagi o‘rtacha chuqurlik uch ming to‘qqiz yuz metr ga yetadi. O‘rtayer dengizida esa bir ming ikki yuz metr. Atlantik okeanining janubiy qismida, taxminan kenglikning o‘ttiz beshinchi gradusida chuqurlik ayniqsa yaxshi o‘lchangan. Ularning natijalari bunday: o‘n ikki ming metr, o‘n to‘rt ming to‘qson bir metr va o‘n besh ming bir yuz qirq to‘qqiz metr<sup>1</sup>. Olimlarning ta‘kidlashlaricha, dengiz tubi bab-baravar qilib tekislanganda, uning chuqurligi butun yer kurrasi bo‘ylab taxminan uch ming sakkiz yuz metr ga teng bo‘lar edi.

– Juda soz, professor, – dedi kapitan Nemo. – Sizga bundan durustroq ma‘lumot berish umididaman. Bordi-yu, sizni Tinch okeanning shu qis-

---

<sup>1</sup> Hozirgi zamon fanining ma‘lumotlariga ko‘ra okeanning eng chuqur yerlari 10 kilometr dan sal oshadi.

midagi chuqurlik qiziqtiradigan bo'lsa, aytishim mumkinki, u to'rt ming metrdan oshmaydi.

Kapitan Nemo shu so'zlarni aytib, lyuk tomon yurdi va temir narvondan pastga tushdi. Men ham uning ketidan salonga kirdim. Parrak o'sha zahoti harakatga kelib, lag yigirma milya tezlikni ko'rsatdi.

Keyingi kunlar, hatto haftalarda kapitan Nemo huzurimga kamdan kam tashrif buyurdi. Men u bilan har gal oradan anchagina vaqt o'tganda uchra-shib turdim. Kapitanning yordamchisi har kuni ertalab o'z vaqtida kuzatuv o'tkazib, olingan natijalarni kartaga tushirib borar edi.

Konsel bilan Ned Lend har kuni soatlab men bilan birga bo'lardilar. Konsel sherigiga suvosti sayrimizning mo'jizalarini hikoya qilganda, garpunchi unda ishtirok etmaganiga endi astoydil achinar edi.

Ammo men uni yana okean o'rmonlarini sayr qilish imkoniyati bo'lib qolar, deb umidvor etar edim. Deyarli har kuni salon derazalaridagi temir to'siqlar bir necha soatga ochilar va har gal biz suvosti dunyosining mo'jizalaridan hayratlanar edik.

«Nautilus» endilikda yuz va yuz ellik metr oralig'idagi chuqurlikda janubi sharq tomonga suzar edi. Ammo bir kuni chuqurlikka tushishga ishtiyoqmand kapitanning allaqanday injiqligi natijasida, u kemani dengiz tubiga qarab ikki ming metrga tushirdi. Yuz gradusli termometr noldan yuqori to'rt-u chorak gradusni ko'rsatar edi. Bu harorat shu chuqurlikdagi barcha kengliklarda bir xil bo'lsa kerak.

Yigirma oltinchi noyabr, tungi soat uchda «Nautilus» Rak tropigini uzunlikning 172-gradusida kesib o'tdi. Ertasi kuni biz 1779-yilning 14-fevralida mashhur kapitan Kuk halok bo'lgan Sandvichev orollari yonidan o'tdik.

Biz yer aylanasi bo'ylab sayohatimizning bosh-

lanishidan buyon to'rt ming sakkiz yuz oltmish lyo<sup>1</sup> masofani bosib o'tdik.

29-noyabrda ertalab palubaga chiqib, shamol esayotgan tomonda, ikki milya masofada, Gavay orollar tizmasini tashkil etuvchi mitti oroldan eng kattasi – Gavayni ko'rdim. Men haydalgan dalalarni, sohil bo'ylab yastanib yotgan tog' etaklari va tog' tepaliklarini, balandligi dengiz sathidan besh ming metr keladigan Muna-Rea tepaligi ostidagi vulqonlarni aniq ko'rdim.

«Nautilus» hamon janubi sharq tomon borar edi. U 1-dekabrda ekvatorni uzunlikning 142-gradusida kesib o'tdi, 4-dekabrda esa, hech qanday esda qoladigan voqeasiz Markiz orollari gruppasiga yetib keldik.

Men janubiy kenglikning 8-gradus 57-minutida va g'arbiy uzunlikning 139-gradus 32-minutida joylashgan Markiz orollaridan eng yirigi Nukagivada Martin cho'qqisini ko'rdim. Ammo kapitan Nemo yerga yaqinlashishni xush ko'rmasligi uchun tog'ni qoplab olgan qalin o'rmonlardan bo'lak hech narsani ko'rib bo'lmadi.

Bu yerdagi suvga tashlangan to'rlarga go'shti juda mazali ko'kish tovlanadigan oltinrang bir necha makrel va kumushrang tovlanadigan havorang yashil sarganlar ilindi. Bu baliqlar darhol dasturxonimizni bezadi.

Fransiya bayrog'i hilpirab turgan bu ajoyib orollar bilan xayrlashgach, 4-dan 11-dekabrgacha «Nautilus» yana salkam ikki ming milya yurdi. O'tayotganda har narsaga qiziquvchan kalmarlarning juda katta to'dasini uchratdik. Esda qoladigan

---

<sup>1</sup> Lyo – fransuzcha uzunlik o'lchovi; kilometr lyosi 4 kilometrga teng. Fransiyada metr sistemasi qabul qilinguncha meridian gradusining 1/25 qismi, ya'ni 4445 metr lyo deb atalgan.

voqea faqat shu bo'ldi. Kalmarlar boshoyoqlar sinfi va ikki jabralilar kenja sinfiga mansub. Sepiya va argonavtlar ham shularga taalluqlidir. Bu mollusklar negadir ilgarigi tabiatshunoslar diqqatini o'ziga jalb etgan bo'lib, ular qadimgi notiqlar tomonidan istiora tarzida foydalanishda alohida o'rin tutishidan tashqari, zodagonlar dasturxonini bezashda yaxshigina shuhrat qozongan edi. Har holda mashhur Galendan oldin o'tgan qadimgi yunon tabibi Ateney shunday deb ta'kidlaydi.

Kalmarlar to'dasini «Nautilus» 9-dan 10-dekabrga o'tar kechasi uchratdi. Bu molluskalarning bir necha millioni mo'tadil zonalardan issiqroq yerlarga seldlar va sardinlar suzgan yo'ldan ko'chib o'tardilar.

Biz ularni qalin billur oyna orqali ko'rib turar edik; kalmarlar o'zlarining o'nta oyog'ini tinmay harakatga keltirib, orqalari bilan oldinga tomon suzar edi. Tabiat kalmarlarning oyoqlarini boshlariga o'rnatgan.

«Nautilus» qanchalik tez suzmasin, bir necha soat davomida kalmarlar qurshovida yurdi; biz to'rlarni tashlab, ana shu molluskalardan juda ko'pini tutib oldik.

Dengiz bizni zeriktirmas edi. U ko'z oldimizda yangi-yangi manzaralar, ajoyib tomoshalar ko'rsatib, ularni tinmay o'zgartirar, ko'rinish va joylar ham soat sayin almashar edi. U bizni ovuntiribgina qolmay, eng yashirin sirlarigacha bilib olish imkoniyatini berar edi.

11-dekabr kunduzi salonda kapitan Nemo kutubxonasidan olingan kitobni o'qib o'tirar edim. Ned Lend bilan Konsel oyna oldida juda yaxshi yoritilgan suvni tomosha qilib o'tirishardi. «Nautilus» qimirlamay turardi. U rezervuarlarini to'

latib, ming metr chuqurlikda, okeanning hech narsa uchramaydigan, onda-sonda eng yirik baliqlarigina suzadigan yerida turar edi.

Men Jak Masening «Oshqozon xizmatkori» degan ajoyib kitobini o‘qib, muallifning mislsiz mahorati va oqil so‘zlariga qoyil qolib o‘tirganimda, birdan Konsel chaqirib qoldi.

– Xo‘jam bir minutgina oyna oldiga kelib ketolmaydilar mi? – dedi u qandaydir g‘alati ohangda.

– Nima bo‘ldi, Konsel?

– Xo‘jamning o‘zlari kelib ko‘rsinlar! Men kitobni bir chekkaga qo‘yib, oynaga yopishib qaray boshladim.

Elektr projektor yorqin yog‘du taratayotgan suv bo‘shlig‘ida allaqanday ulkan qora narsa qimir etmay turar edi. Men bu bahaybat maxluqni yaxshilab ko‘rib olish niyatida sinchiklab tikila boshladim. To‘satdan xayolimga yashin tezligida shu fikr keldi.

– Kema bu! – deb qichqirib yubordim.

– Ha, – deb javob qaytardi kanadalik, – bu cho‘kib qolgan kema...

Ned Lend adashmagan edi. Ko‘z oldimda cho‘kkan kema turar edi. Korpusining yaxshigina saqlanganiga qaraganda, halokat bundan bir necha soat oldin bo‘lganga o‘xshardi. Palubada bo‘yi ikki futga yetar-yetmas keladigan uchta xodaning qaq-qayib turishi kema hayot-mamot uchun kurashda machtalarini qurbon etganini ko‘rsatar edi. Ammo bu ham yordam bermagan...

Bu cho‘kkan kemaning ko‘rinishi qanchalik ayanchli edi!

Ammo uning palubasidagi manzara yanada mudhishroq, unda bir necha jasad yotar edi. Men oltita jasad sanadim: to‘rt erkak – ulardan biri rul

oldida turardi va lyuk tuynugidan gavdasining yarmini chiqarib, qo'lida bola ushlab turgan ayol.

Ayol yosh edi. Projektorning yorqin yog'dusida men hatto uning yuzini aniq ko'ra oldim, u hali o'lmaganday edi. So'nggi kuchini to'plab, bolani boshi uzra ko'targan; bechora ushoqqina bola jajjigina qo'lchalari bilan onasining bo'ynini quchgancha o'libdi...

Uch matros jasadi g'ayritabiiy bir holda qotib qolipti – aftidan, o'lim ularni cho'kayotgan kema palubasida o'zlarini o'ragan arqonni yechishga unayotganlarida quchganga o'xshardi. To'rtinchisi, rul boshqaruvchi, qaddini g'oz tutganicha osoyishta va jiddiy holda turardi. Uning qo'llari rulni ushlagancha qotib qolibdi.

Keksa rul boshqaruvchi, aftidan, uch machtali kema okean tubiga qarab cho'kayotganda ham rulni qo'yib yubormaganga o'xshaydi...

Naqadar dahshatli manzara! Biz kema halokati manzarasidan ko'z uzolmas edik...

Odam go'shtining hidini sezib, katta akulalar yaqinlashayotganini ko'rdim...

«Nautilus» cho'kkan kema atrofidan aylanib o'tayotganida, uning quyruq tomonidagi yozuv ko'zga chalindi:

«Florida»  
Zunderland

## ***O' n t o' q q i z i n c h i b o b***

### **VANIKORO**

Bu fojiali voqea xuddi shunday qator to'qnashuvlarning birinchisi edi. Keyinchalik biz «Nautilus» oynasidan suvda cho'kib, chirib qolgan kemalarni tez-tez uchratib turdik. Okean tubidagi ancha



chuqur suv qatlamlarida to'plar, zambarak o'qlari, langarlar, zanjirlar va zang bosgan minglab boshqa temir narsalarni ko'rdik.

O'n birinchi dekabrda biz bir vaqtlar Bugenvil «Xavfli orollar guruhi» deb nom bergan Paumotu orollar tizmasiga yaqinlashdik; bu tizmadagi orollar sharq – janubi sharqdan g'arb – shimoli g'arb tomon janubiy kenglikning 13-gradus 3-minuti – 20-gradus 50-minutida va g'arbiy uzunlikning 125-gradus 30-minuti – 151-gradus 30-minuti oralig'ida ikki ming kilometrdan ortiq yerni ishg'ol etib yotardi. Guruhning sharqiy chekkasidagi orol Dyusi, g'arbidagisi Lazarev oroli deb atalar edi.

Bu orollar tizmasi uch yuz yetmish kvadratli maydonni ishg'ol etgan bo'lib, oltmishta orolcha guruhidan iboratdir. Fransiyaga qarashli Gambe orollar to'dasi ham shu jumlagacha kiradi. Bular marjon orollaridir. Poliplar sekin, ammo tinmay olib borayotgan ish bu marjonlarni suvdan ko'tarib ertami, kechmi ularni o'zaro bog'laydi. Shundan so'ng bu yangi orol qo'shni orollar bilan qo'shiladi hamda bir tomondan Yangi Zelandiya va Yangi Kaledoniya, boshqa yoqdan Markiz orollari oralig'ida yangi qit'a paydo bo'ladi.

Shu nazariya haqida kapitan Nemoga so'z ochgandim, u menga sovuqqonlik bilan javob berdi:

– Yer yangi qit'alarga emas, balki yangi odamlarga muhtoj!

«Nautilus» yo'li tasodifan butun tizmada diqqatga sazovor Klermon-Tonner oroli tomon tushib qolgandi. Bu tasodif menga madrepor marjonlari to'dasini o'rganish imkonini berdi. Bu marjonlar Tinch okeanning shu qismidagi orollarni hosil etgan edi.

Madrepor marjonlari ohak qobirg'ali tirik to'

qimadan iborat. Marjonlarning qobirg'a tuzilishidagi farqi mashhur ustozim Miln-Edvardsga ularni besh to'daga bo'lish uchun asos bo'lgan. O'zidan shilliq modda ajratadigan, mikroskopdagi-na ko'rinadigan bu tirik mavjudotlarning milliard-milliardi bir to'dani tashkil etadi. Ulardan ajralib chiqadigan ohakdan qoyalar, cho'qqilar, orolchalar va orollar hosil bo'ladi. Bu yerda ular dengizdan ajralgan ohak halqa yoki dengizga suvosti yoriqlari bilan qo'shib turadigan kichik ko'llar vujudga keltiradilar; yangi Kaledoniya yoki butun bir orollar, chunonchi Paumot orollar tizmasi kabi qoyalarni sohildan ajratadigan to'siqlar bunyod etadilar. Boshqa joylarda, chunonchi Mavrikiya orollarida, qirrali qoyalar etagida okean tubi juda pastda qolib ketadigan baland devorlar ko'taradilar.

Biz Klermon-Tonner oroli sohillaridan bir necha kabelt masofada suzar edik. U yerda men jajji quruvchilarning ulkan ishlariga qarab juda qoyil qoldim.

Konsel mendan bunday devorni tiklash uchun qancha vaqt kerak bo'ladi, deb so'rab qoldi. Men olimlarning hisoblariga ko'ra bunday devor yuz yilda duymning sakkizdan bir qismi miqdorida ko'tariladi<sup>1</sup>, deganimda u juda hayron qoldi.

– Binobarin, balandligi uch yuz metrli bu devorni tiklashga...

– Bir yuz to'qson ikki ming yil kerak bo'ladi, do'stim Konsel! Bundan chiqdi, Tavrot yerni ancha yoshartirgan ekan-da. Agar almisoqdan qolgan o'rmonlarning ko'mirga aylanishi uchun juda ko'p muddatlar o'tganini eslasak, unda Tavrotda aytilgan fikrlar yanada ishonchsizroq bo'lib qolarkan!

---

<sup>1</sup> Professor Aronaks adashayotgan edi, marjon qoyalar ancha tez, yiliga bir necha santimetr ko'tarilishlari mumkin.

«Nautilus» okean sathiga ko'tarilganda, suvdan xiyol ko'tarilib turgan, qalin o'rmon qoplagan Klermon-Tonner orolini ikir-chikirigacha yaxshilab ko'rib oldim. Dovul va bo'ronlar uning ohakli tuprog'i hosildorligini oshirgan bo'lsa kerak. Kunlardan birida dovul qo'shni yerdan olib kelgan qandaydir kichikkina bir urug' dengiz baliqlari va suv o'simliklari qoldiqlari bilan o'g'itlangan orol yeriga kelib tushgan. Shundan so'ng to'lqinlar uning qirg'og'iga minglab milya naridagi palma daraxtining norjil yong'og'ini keltirib tashlagan. Urug' unib, daraxtlar paydo bo'lgan. Daraxtlar esa bug'lanishni kamaytirgan. Irmoqlar hosil bo'lgan. O'simliklar ko'paya boshladi. Bo'ron yaqin yerlardan uchirib kelgan yosh daraxtlardan tushgan turli-tuman hasharotlar, qurt-qumursqalar birinchi bo'lib orolda istiqomat qila boshladilar. Shundan so'ng toshbaqalar sohil qumloqlariga tuxum qo'ya boshladilar. Kichik-kichik daraxtlar ustiga qushlar in qo'yishdi. Shunday qilib, bu yerda asta-sekin hayvonot dunyosi rivojlandi. Nihoyat, ko'kalamzor va hayvonlarning ko'pligini ko'rgan odamlar ham orolga ko'chib kela boshladilar.

Mikroskop orqaligina ko'rinadigan jonivorlarning mehnati bilan bunyodga kelgan bu orollarda ana shu tarzda hayot boshlangan.

Kechga borib Klermon-Tonner oroli ko'zga ko'rinmay qoldi va «Nautilus» yo'lini tamoman o'zgartirdi. Uzunlikning 135-gradusida Kozerog tropigiga yetgan suvosti kemasi tropik zonaning ichida g'arb – shimoli g'arb tomon yo'l tutdi. Tropik quyoshning nurlari chidab bo'lmas darajada issiq bo'lishiga qaramay, bizni issiq bezovta qilmas edi; o'ttiz-qirq metr chuqurlikda suv harorati o'n-o'n ikki darajadan oshmas edi.

O'n beshinchi dekabrda biz Tinch okean durdonasi hisoblangan ajoyib Taiti orolining g'arbrog'idan o'tdik. Ertalab shamol esayotgan tomonda, bizdan bir necha milya narida, shu orolning baland tog' cho'qqilari ko'rindi.

Uning suvlaridan bir necha ajoyib makrel baliqlari, tunes va dengiz ilonining xili-ikki rangli pelamida tutdik.

«Nautilus» sakkiz ming bir yuz milya masofani bosib o'tdi. «Argo» va «Dyuk-of-Portlend» ekipajlari halok bo'lgan Tonga-Tabu orollar tizmasi yonidan suzib o'tayotgan kuni «Nautilus»ning lagi to'qqiz ming yetti yuz yigirma milyani ko'rsatar edi.

Shundan so'ng yovvoyi odamlar «Yunion» kemasining komandasini va «Nazokatli Jozefina» komandiri kapitan Byuroni o'ldirgan Fidji orollarini aylanib o'tdik. Bu orollar tizmasi janubiy kenglikning 6 va 2-gradusi hamda g'arbiy uzunlikning 174-179-gradusi oralig'da shimoldan janubga to'rt yuz va sharqdan g'arbga uch yuz oltmish kilometrgacha cho'zilib borgan edi.

U bir necha orollar, orolchalar va qoyalardan iborat bo'lib, eng yiriklari – Viti-Levu, Vanua-Levu va Kandubondir.

Bu orollar Tasman tomonidan 1643-yili ochilgan. Xuddi o'sha yili Torichelli barometrni ixtiro etgan, Lyudovik XIV esa Fransiya taxtiga o'tirgan edi. XVIII asrning ikkinchi yarmida bu yerga Kuk, so'ngra d'Antrkasto kelib ketdilar va nihoyat 1827-yili Dyumon-Dyurvil bu geografik chigallikning barchasini oydinlashtirdi.

«Nautilus» Laperuz kemalarining sirli halokatini birinchi bo'lib aniqlagan kapitan Dillonning dahshatli sarguzashtlari bilan hammaning esida qolgan Vailea ko'rfaziga yaqinlashdi.

Biz bu ko'rfazning tubiga bir necha marta to'r tashlab, ko'plab ustritsalar ovladik. Biz ularni das-turxonga qo'yilishi bilanoq, zo'r ishtaha bilan ye-dik. Vailea ko'rfazining ustritsalar suzadigan sayoz yerlari juda ko'p.

Har bir ustritsa ikki milliontagacha tuxum qo'yadi. Agar ularning ko'payishiga yo'l qo'ymay qirib tashlaydigan minglab dushmanlari bo'lma-ganda, ko'rfaz ustritsalarga to'lib ketardi.

Ned Lend o'zining badnafsligidan pushaymon bo'lmaganining birdan bir sababi shuki, ustritsalar juda tez hazm bo'ladigan birdan bir taomdir. Dar-voqe, katta kishining kundalik normal ovqatida uch yuz o'n besh gramm azot moddasi bo'lishi kerak. Buning uchun esa bu boshsiz molluskalardan ikki yuzga yaqinini yeyishi kerak bo'ladi.

Yigirma beshinchi dekabrda «Nautilus» Yangi Gebrid tizma orollari orasidan suzib o'tdi. Bu orol-larni 1606-yilda Kviros ochgan; 1768-yilda Bugenvil bu yerlarni tadqiq etgan va 1773-yilda Kuk uni ho-zirgi nomi bilan atagan. Biz Arru orolining yongi-nasidan o'tdik. Tushlik kuzatuv paytida men palu-baga chiqib, bu orolni ko'rdim. U tamoman o'rmon bilan qoplangan bo'lib, baland tog' cho'qqisi bilan tugallangan edi.

Kapitan Nemoni ko'rmaganimga ham sakkiz kuncha bo'lgan edi. 27-dekabrda ertalab u salonga kirib, xuddi atigi besh minut oldin chiqib ketgan kishiday bosh silkib qo'ya qoldi. Men «Nautilus» qa-yerda ketayotganini xaritadan qidirayotgan edim.

Kapitan stolga yaqinlashib, barmog'ini karta us-tiga qo'yib, birgina so'z aytdi:

– Vanikoro.

Bu so'z uning og'zidan o'qday otilib chiqdi. Bu

Laperuz kemalari halokatga uchragan orolchanning nomi edi.

Men o'rnimdan irg'ib turdim.

– «Nautilus» Vanikoroga boryaptimi?

– Ha, professor, – deb javob berdi kapitan.

– Demak, men «Bussol» va «Astrolyabiya» halokatga uchragan o'sha mashhur orolni ko'rarkanman-da! Vanikoroga qachon yetib boramiz?

– Yetib keldik, professor.

Men kapitan Nemo bilan palubaga chiqib, sinchiklab ufqqa tikildim. Shimoli sharq tomonda ikkita orol ko'zga tashlanar edi. Shubhasiz, vulqon portlashi natijasida paydo bo'lgan bu orollar taxminan qirq milya uzunlikda marjonlar bilan to'silgan edi.

«Nautilus» torgina bo'g'oz orqali marjonlar to'sig'idan ichkariga kirgach, to'lqinlar kelib uriladigan chiziqning naryog'ida, chuqurligi ellik-oltmish metr keladigan gavanga o'tib oldi. Baland palma daraxtlari ostida bizning yaqinlashuvimizni g'oyat hayratlanib kuzatayotgan bir necha yovvoyi odamlarga ko'zim tushdi. Ular «Nautilus»ning urchuqsimon qora korpusini ko'rib, katta kit kelyapti, deb o'ylagan bo'lsalar kerak.

Kapitan Nemo Laperuz halokati haqida nimalarni bilishimni so'radi. – Hammaga ma'lum bo'lgan gaplarni, xolos, – deb javob berdim men.

– Juda soz. Ammo o'sha hammaga ma'lum bo'lgan narsadan meni xabardor qila olasizmi? – deb so'radi kapitan Nemo kinoya aralash.

– Jonim bilan, – javob berdim men.

Shunday qilib men unga Dyumon-Dyurvil axbotining mazmunini gapirib berdim.

O'sha voqeaning qisqa bayoni quyidagicha:

Laperuz va uning yordamchisi kapitan de Langel 1785-yili Lyudovik XVI tomonidan ikkita kor-

vet<sup>1</sup> – «Bussol» va «Astrolyabiya»da yer yuzini suzib chiqishga yuboriladi.

1791-yilda Fransiya hukumati Laperuz kemalarining uzoq vaqt yo‘q bo‘lib ketganidan xavotirlanib, Bruni d’Antrkasto qo‘mondonligida ikkita – «Qidiruv» va «Umid» harbiy kemalari sostavidan iborat qutqarish ekspeditsiyasini tuzdi. Bu kemalar 28-sentabrda Brestdan suzib ketdi. Ikki oydan keyin «Elbermel» kemasining kapitani Bouen hukumatga Janubiy Georgiya sohillarida halokat qoldiqlari uchraganini xabar qildi. Ammo d’Antrkasto bu gapdan xabarsiz, ochig‘ini aytgan-da, aniq biror ma‘lumotsiz, Admiralteystva oroli tomon yo‘l tutgan edi. Kapitan Gunterning raportida Laperuz korvetlari shu yerda halokatga uchragan deb ko‘rsatilgan edi.

D’Antrkastoning qidirishlari zoye ketdi. «Qidiruv» va «Umid» kemalari Vanikoro yonidan to‘xtamay o‘tib ketdilar. Safar katta baxtsizlik bilan tugadi. D’Antrkastoning o‘zi, uning ikki yordamchisi va ekspeditsiyasi tarkibidagi juda ko‘p matroslar hayot bilan vidolashdilar.

Birinchi bo‘lib Laperuz kemalari halokatining chinakam izini keksa dengizchi kapitan Dilon topdi. 1824-yil 15-mayda uning kemasi «Avliyo Patrik» Yangi Dilon Gebrid orollar turkumiga kiradigan Tikopia oroli yonida to‘xtadi. O‘sha yerda mahalliy kishilardan biri unga o‘yib ishlangan, allaqanday yozuv izlari saqlanib qolgan kumush qilich dastasini sotdi. O‘sha kishi yana Dilonga bundan olti yil muqaddam Vanikoroda shu orolga yaqin qoyaga urilib, parchalanib ketgan kemalarda ilgari matros bo‘lib xizmat qilgan ikki yevropalikni ko‘rganini aytdi.

---

<sup>1</sup> Korvet – uch machtali qadimgi urush kemasi.

Dilon gap nom-nishonsiz yo'qolib ketib, butun dunyoga shov-shuv bo'lgan Laperuz kemalari haqida borayotganini payqadi. U mahalliy kishining aytishicha, halokatning juda ko'p izlari hozirgacha saqlanib qolgan Vanikoroga borishga ahd qildi. Ammo shamol va oqimlar uning bu niyatini amalga oshirishiga yo'l qo'ymadi.

Dilon Kalkuttaga qaytdi. U yerda o'z kashfiyoti bilan Osiyo jamiyati va Ost-Indiya kompaniyasini qiziqtirib qo'ydi va uning ixtiyoriga yana «Qidiruv» deb nom olgan o'sha kemani berishdi. 1827-yilning 23-yanvarida Fransiya vakili hamrohligida Dilon Kalkuttadan suzib ketdi.

Tinch okeanning turli yerlarida bir necha marta to'xtab, nihoyat 1827-yilning 7-iyunida «Qidiruv» hozir «Nautilus» turgan Vanu gavanida langar tashladi.

Dilon bu yerda halokatdan keyin qolgan juda ko'p qoldiqlarni: langarlar, uskunalar, bloklar<sup>1</sup>, toshotar qurol, o'n sakkiz qadoqli to'p o'qi, singan astronomik asboblardan va nihoyat «Meni Bazen quygan» degan yozuvli, Brest quyuv korxonasining tamg'asi va «1785» sanasi bo'lgan quyma qo'ng'iroq topdi. Endi hech qanday shubhaga o'rin qolmagan edi.

Dilon ko'proq dalillar to'plash maqsadida Vanikoroda 1827-yilning oktabr oyigacha turdi. Shundan so'ng u langar ko'tarib, Yangi Zelandiya orqali Kalkuttaga jo'nab ketdi. U yerdan Dilon Fransiya bordi. Bu yerda uni juda yaxshi kutib olishdi.

Xuddi shu vaqtda «Astrolyabiya» kemasi komandiri Dyumon-Dyurvil Laperuz kemasining yo'qolishi munosabati bilan, Dilon topgan yangilikdan xabarsiz, halokat izini butunlay boshqa tomondan

---

<sup>1</sup> Blok – og'ir yuklarni ko'taradigan maxsus asboblardan.



qidirishni davom ettirmoqda edi. Bir kit ovlovchi kishi ularga Yangi Kaledoniya va Luziadadagi yovvoyi odamlarda Avliyo Lyudovik medali va ordenini ko'rganini aytdi.

Dilon Vanikorodan ketib, oradan ikki oy o'tgach, Dyumon-Dyurvil Gobart-Tounda langar tashladi. Dilonning ishi o'ngidan kelganini u shu yerdagina bilib qoldi. Xuddi shu yerda Kalkuttadan chiqqan «Yunion» kemasining kapitan yordamchisi Jems Gobbs degan odamdan ba'zi narsalarni bilib oldi. Bu kishi janubiy kenglikning 8-gradus 18-minuti va sharqiy uzunlikning 15-gradus va 30-minutida joylashgan orolga kelib to'xtagach, mahalliy aholi qo'lida uzun temir parchalari va qizil gazmol laxtaklarini ko'rganini aytadi.

Dyumon-Dyurvil bu biri biriga qovushmaydigan poyintar-soyintar xabarlardan diqqati oshib, ishonishni ham, ishonmaslikni ham bilmay, har holda kapitan Dilon izidan borishga qaror qildi.

1828-yil o'ninchi fevralda «Astrolyabiya» Tikopia oroliga kelib, shu yerda turg'un bo'lib qolgan oq tanli matrosni kemaga lotsman qilib oldi-da, Vanikoro tomon yo'l oldi. «Astrolyabiya» bu orolga 12-fevralda yetib kelib, uning marjon halqasidan narida to'qqiz kun turib qoldi va Vanu gavaniga 20-fevraldagina kirdi.

Yigirma uchinchi «Astrolyabiya» matros-lari orolni aylanib chiqib, halokatning uncha muhim bo'lmagan bir necha qoldiqlarini topib kelishdi. Mahalliy kishilar baxtsizlik sodir bo'lgan joyni ularga ko'rsatishdan bosh tortdilar va barcha so'roqlarga o'zlarini tushunmaslikka olib javob bermadilar yoki bilmaymiz deb qo'ya qoldilar. Mahalliy kishilar o'zlarini bunday tutishlari ular halokatga yo'liqqanlar bilan yomon munosabatda bo'lishgan degan fikrga

olib kelar edi. Chindan ham ular, aftidan, Dyumon-Dyurvilni Laperuz va uning baxtsiz hamrohlari uchun o'ch olishga kelgan deb qo'rqishayotganga o'xshardi.

Biroq 26-fevralda evaziga mukofotlar berilishini eshitib va o'ch olish xavfi yo'qligiga ishonch hosil qilishgach, mahalliy kishilar kapitan yordamchisi Jakinoga halokat sodir bo'lgan joyni ko'rsatishdi.

U yerda to'rt-besh metr chuqurlikda Panu va Vanu qoyalari orasida langarlar, to'plar, muvozanat saqlagichlar, allaqachon ohak qoplagan temir va qo'rg'oshin parchalari yotar edi. «Astrolyabiya» eshkakli kemachalari o'sha yerga bordi va dengiz tubidan bir ming sakkiz yuz qadoq keladigan langarni, sakkiz qadoqli o'q uzadigan to'pni, bitta qo'rg'oshin parchasi va ikkita mis toshotar qurolni arang ko'tarib olishdi.

Dyumon-Dyurvil mahalliy kishilardan surishtirib, Laperuz orol sohilida o'zining har ikki kemasidan ajralganidan keyin ularning qoldiqlaridan uchinchi bir kichik kema yasab, ochiq dengizga ketganini bilib oldi... Qayoqqa ketishgan? Bunisini hech kim bilmas edi.

Shundan so'ng «Astrolyabiya» komandiri mangifer daraxti ostida jasur dengizchi va uning do'stlari xotirasiga haykal tiklashni buyurdi. Bu marjon supacha ustiga o'rnatilgan oddiy to'rt qirrali piramida edi. Mahalliy kishilar buzib olmasin, deb haykalga bir parcha ham temir ishlatishmadi.

Shundan so'ng Dyumon-Dyurvil darhol langarni ko'tarmoqchi edi.

Biroq «Astrolyabiya» komandasining bu yerlarda keng tarqalgan bezgakdan tinka-madori qurigan, buning ustiga uning o'zi ham betob edi. Shu sababli u qaytish uchun yo'lga faqat 17-martdagina chiqqan oldi.

Shu orada Fransiya hukumati Dyumon-Dyurvilni Dilon topgan yangilikdan xabarsiz deb o'ylab, Vanikoroga Legoarn de-Tromelen qo'mondonligida «Bayonezka» korvetini yubordi.

«Bayonezka» «Astrolyabiya» suzib ketgach, oradan bir necha oy o'tgandan keyin Vanikoro sohillariga langar tashladi va hech qanday yangi hujjatlar topmasa-da, yovvoyi odamlar Laperuzga o'rnatilgan haykalga tegishmaganini o'z ko'zi bilan ko'rdi.

Men kapitan Nemoga shularnigina aytdim.

– Shunday qilib,– dedi u menga,– Vanikoroda halokatga uchragandan keyin qurilgan uchinchi ke-  
maning qayerda halok bo'lgani shu kungacha hech kimga ma'lum emas ekan-da?

– Buni hech kim bilmaydi.

Kapitan Nemo menga hech nima demay salonga boshladi. «Nautilus» bir necha metr pastga tushdi va oynalardagi temir to'sqichlar ochildi.

Men peshanamni oynaga tirab, marjon qatlamlari, zoofitlar va suv o'simliklari ostida, har tomonda suzib yurgan baliqlar orasida Dyumon-Dyurvil ekspeditsiyasi topolmagan halokat qoldiqlarini: langarlar, to'plar, machtalar, zanjirlar, to'p o'qlarini ko'rdim. Endilikda ularning barini zoofitlar qoplab olgan.

Shu fojiali qoldiqlarni ko'zdan kechirayotganimda kapitan Nemo g'amgin ohangda gap boshladi:

– Kapitan Laperuzning ekspeditsiyasi Fransiya sohillaridan 1785-yilning yettinchi dekabrda «Bussol» va «Astrolyabiya» korvetlarida suzib ketgan. Ular avval Botani-Bey, Yangi Kaledoniya-ga kirganlar, so'ngra Santa-Krutsu tomon yo'l olib, Gavay orollari turkumiga mansub Namukada to'xtashgan. Nihoyat, Laperuz kemalari Vanikoroning noma'lum qoyalariga yaqinlashgan. Oldin-

da suzayotgan «Bussol» korveti janubiy sohildagi qoyalarga borib urilgan. «Astrolyabiya» yordamga oshiqqan va o'z navbatida u ham qoyaga borib urilgan. Birinchi korvet deyarli o'sha zahotiyoq halok bo'lgan. Ikkinchisi, shamol esayotgan joydagi sayoz yerga tiqilgani uchun bir necha kun saqlanib qolgan. Mahalliy kishilar halokatga yo'liqqanlarni xayrixohlik bilan kutib olishgan. Laperuz orolga tushib, ikki katta korvet parchalaridan kichik kema qurishga kirishgan. Bir necha matroslar o'z xohishlari bilan Vanikoro orolida qolishgan. Kasallikdan holdan toyib, tinkasi qurigan boshqa kishilar Laperuz bilan birga Solomon orollari tomon suzib ketadilar va orollar to' dasining asosiysida, Umidsizlik va Qanoat burunlari orasida bitta qolmay halok bo'ladilar.

– Siz qayerdan bilasiz bularni? – deya qichqirib yubordim men.

– Men ular halok bo'lgan so'nggi joydan mana bu narsani topib oldim.

Kapitan Nemo shunday dedi-yu, qopqog'iga Fransiya gerbi o'yilgan temir sandiqchani oldi. Sandiqchanning hamma yog'i sho'r suvda zanglagan edi. U sandiqchani ochdi va menga sarg'aygan hujjatlar o'ramini ko'rsatdi.

Bu kapitan Laperuzga dengiz ministri tomonidan berilgan ko'rsatma bo'lib, uning hoshiyalarida Lyudovik XVI ning qo'li bilan bitilgan yozuvlar bor edi.

– Ha, mana buni dengizchiga munosib o'lim desa bo'ladi! – dedi kapitan Nemo. – U osoyishta marjon qabrida orom topib yotibdi. Qani endi men va mening do'stlarim qabri ham shunaqa bo'lsa...

## *Yigirmanchi bob*

### **TORRES BO'G'OZI**

27-dan 28-dekabrga o'tar kechasi «Nautilus» Vanikorodan chiqib, juda katta tezlik bilan janubi g'arb tomon yo'l oldi. U uch kunda Vanikoro bilan Yangi Gvineyaning janubi sharqiy qismi oralig'idagi masofani, ya'ni uch ming kilometrdan ortiq yo'lni bosib o'tdi.

1863-yilning birinchi yanvarida erta tongda, Konsel men bilan «Nautilus» palubasida uchrashdi.

– Xo'jam yangi yilda baxt-saodat tilasam ruxsat beradilarmi? – deb so'radi.

– Bo'lmasam-chi, Konsel, albatta, sening bu tilaklaringni Parijda Botanika bog'idagi kabinetimda o'tirgan paytlarimdagiday qabul qilaman. Tabriklaganing uchun rahmat, o'zingni ham tabriklayman. Faqat bir narsani so'rab olishimga ruxsat bersang: yangi yilda baxt-saodat tilashingni qaysi ma'noda tushunish kerak? Sen bu baxtni asirlikning tugashida debmi yoki shu ajoyib sayohatning davom etishida deb tushunasanmi?

– Ochig'ini aytsam, xo'jamga nima deb javob berishimni ham bilmayman. Biz juda ajoyib narsalarni ko'rayotganimiz va bu yerda o'tkazilgan ikki oy davomida zerikishga qo'l tegmaganiga shubhalanmasa ham bo'ladi. Keyingi paytlarda ko'rinayotgan har bir manzara g'oyat hayratlanarli. Agar shu zaylda davom etsa, oxiri nima bo'lishini tasavvur qilish juda qiyin! Menimcha, hech qachon bunday imkoniyatga boshqa ega bo'lolmasak kerak...

– Hech qachon!.. Haq gapni aytding, Konsel.

– Bundan tashqari, kapitan Nemo o'zining lotincha Hech kim degan ismiga juda monand odam

ekan: uning bu dunyoda bori-yo'g'i bizga sira bilinmaydi!

– To'g'ri aytasan, Konsel.

– Shuning uchun xo'jamga biz uchun hamma narsani ko'rib olishga imkoniyat beradigan yilni baxtli deb aytishga jur'at etar edim!

– Hamma narsani ko'rib olishga deysanmi, Konsel? Bunisini oshirib yubordingmi, deyman. Aytganday, bu borada Nedning fikri qanday ekan?

– Ned Lend, albatta, buning aksini o'ylaydi, – deb javob berdi Konsel. – U juda yuzaki o'ylaydigan odam, qorin bandasi. Hamisha baliqlarga qarayverish va baliqdan tayyorlangan taom yeyish joniga tegdi. Seli oqib turgan qovurilgan go'shtlar-u, kunda ma'lum miqdorda viski, jin yoki brendilarga<sup>1</sup> o'rganib qolgan bu anglo-saksga non, go'sht, vino ning yo'qligi juda og'ir kechyapti.

– Men esa bundan sira xafa emasman, – dedim men. – Men «Nautilus» qoidalariga yaxshigina ko'nikib oldim.

– Men ham xuddi shunday, – deb javob berdi Konsel. – Shuning uchun Ned Lend bu yerdan qochib ketishni jon-dilidan qanchalik istayotgan bo'lsa, men shunchalik jon-dilimdan qolishga tayyorman. Shunday qilib, boshlanayotgan yil men uchun baxtsizlik keltirsa, unga baxt keltiradi yoki buning aksi. Xullas, bizdan biron tamiz, albatta, mamnun bo'lamiz. Xo'jamga esa men uning ko'ngliga ni maiki xush kelsa, shuni istashga xayrixohman.

– Rahmat, Konsel. Faqat yangi yil sovg'alari masalasini hal etishni hozircha unutib, qattiq qo'l qisishish bilangina chegaralanib qolishimizni so'rayman. Men bundan bo'lak taklif kiritishga qodir emasman.

<sup>1</sup> Spirtli ichimliklar.

– Xo‘jam sira ham hozirgidek saxiy bo‘lmagan edilar, – deb javob berdi Konsel.

Ikkinchi yanvarda lag biz Yapon dengizidan chiqib ketganimizdan buyon o‘n bir ming uch yuz qirq milya masofani bosib o‘tganimizni ko‘rsatib turar edi.

«Nautilus» oldida Avstraliyaning shimoli sharqiy qirg‘oqlariga borib taqaladigan marjon dengizining xavfli zonolari bor edi.

Kemamiz 1770-yilning 10-iyunida kapitan Kuk kemalari halokatga yo‘liqishga oz qolgan aldamchi qoyalar to‘sig‘idan bir necha milya masofada suzar edi. Kukning o‘zi tushgan kema qoyaga urilgan-u, ammo to‘qnashuv paytida ko‘chib ketgan marjon bo‘lagi teshilgan joyni to‘sib qo‘ygani tufayligina g‘arq bo‘lmay qolgandi.

Uch yuz oltmish lyo keladigan va toshqin dengiz har gal urilganda momaqaldiroqni eslatadigan ovoz chiqaruvchi bu to‘siqni juda ko‘rgim keldi.

Ammo ayni vaqtda chuqurlikka tushiradigan rul «Nautilus»ni suvning pastki qatlamlariga olib ketdi va men bu marjon devorlarni ko‘rishdan mahrum bo‘lib qolaverdim. Men to‘rga tushgan baliqlarni ko‘zdan kechirib, bu yerlarning hayvonot dunyosi bilangina tanisha oldim, kolos.

Boshqa turli-tuman skumbriyalar qatorida kattaligi rosmana tuneschalik keladiganlarini ham ko‘rdim. Ularning ko‘kimtir tanasida tasma-tasma chiziqlari bo‘lib, o‘lganida bu chiziqlar yo‘qolib ketadi. Bu skumbriyalar to‘da-to‘da bo‘lib bizga ergashib borar, ayni vaqtda juda kamyob tansiq taom ham edilar. To‘rga bulardan boshqa uzunligi besh santimetrdan oshmaydigan, ammo juda mazali sparlar va chinakam dengiz qaldirg‘ochlari – trigllar ham ko‘plab tushar edi. To‘rning sirtmog‘idan

molluskalar va zoofitlar orasida, shuningdek, alsionariy, tirik bola tugʻuvchilar namunalarini, baydarakalar, bolgʻachalarni topib olar edim.

Marjon dengizini kesib oʻtganimizdan ikki kun keyin, 4-yanvarda, biz Yangi Gvineya sohillari koʻrinib turadigan joydan chiqib qoldik. Kapitan Nemo men bilan uchrashganda Hind okeaniga Torres boʻgʻozi orqali oʻtish niyatini bildirdi. Bu haqda u boshqa hech narsa demagan boʻlsa-da, Ned Lend uchun shuning oʻzi ham kifoya edi: u Yevropa dengizlariga yaqinlashayotganimizdan mamnun edi.

Torres boʻgʻozi ham oʻzining xatarli qoyalari va uning sohillarida yashaydigan qabilalarning vahshiyliги bilan yomonotliq boʻlib qolgan. U Avstraliyani Yangi Gvineyadan ajratib turadi.

Peshinda kapitan yordamchisi sekstant yordamida quyoshning balandligini aniqlayotganda, men zinapoya boʻlib koʻtarilib, qirrali choʻqqilar bilan tugallanadigan Arfalks togʻi choʻqqilarini koʻrdim.

«Nautilus» dunyodagi eng xatarli boʻgʻozning kiverishiga yaqinlashdi. Eng shijoatli dengizchilar ham unga kirish oldidan bir zum toʻxtab, oʻylanib qolar edilar. Bu boʻgʻozni Lui Pats de-Torres janubiy dengizlardan Melaneziyaga qaytayotganida ochgan edi; bu yerda 1840-yili Dyumon-Dyurvil ekspeditsiyasi sayozlikda halokatga uchrashiga sal qolgan edi. Hatto sayozlik va qoyalardan qoʻrqmaydigan «Nautilus» ham uning marjon qoyalaridan ehtiyot boʻlishi kerak edi.

Torres boʻgʻozining eni taxminan bir yuz oʻttiz besh-bir yuz qirq kilometr edi. Undagi juda koʻp orol va orolchalar, tik suvosti qoyalari orasidan suzib oʻtish gʻoyat mushkul ish edi.

Shularni hisobga olgan kapitan Nemo barcha



ehtiyot choralarni ko'rib qo'ydi: «Nautilus» suvga yarim cho'kkan holda juda sekin suzib borar edi.

Vintining parraklari horigan kitning dumi singari suvga sekin urilardi.

Men va mening do'stlarim bu vaziyatdan foydalanib, hamisha kimsasiz yotadigan palubaga chiqdik va rul boshqaruvchining hujrasi ortida turdik. Kapitan Nemo hujraning ichida turib, «Nautilus»ni shaxsan o'zi boshqarayotgan edi.

Ko'z oldimda injener-gidrograf Vinsendon Dyumulen va Dyumon-Dyurvilning yer yuzini keyingi marta aylanib chiqish ekspeditsiyasida qatnashgan ekspeditsiya michmani – keyinchalik admiral bo'lgan – Kupvan-Dyubua tomonidan tuzilgan ajoyib karta namoyon bo'ldi. Shu karta hamda kapitan King tuzgan karta Torres bo'g'ozining o'tib bo'lmas darajada aylanma yo'llarini oydinlashtirib bergan eng yaxshi kartalar hisoblanadi. Men ularni sinchiklab ko'zdan kechirdim.

«Nautilus» atrofida dengiz shiddat bilan shovullar edi. Janubi sharqdan shimoli g'arbga soatiga ikki yarim milya tezlik bilan kelayotgan kuchli oqim deyarli har qadamda suvdan chiqib turgan qoyalarga kelib urilardi.

– Xavfli joy! – dedi menga Ned Lend.

– Ha, chindan ham, hatto istagan joydan suza oladigan «Nautilus»day kema uchun ham juda xavfli, – javob berdim men.

– Chamamda, bu la'nati kapitan suzayotgan yo'lini yaxshi biladiganga o'xshaydi, yo'qsa nariroqda men shunaqangi marjon bijillab yotgan joylarni ko'ryapmanki, unga «Nautilus» tegishi bilan parcha-parcha bo'lib ketishi hech gap emas!

Ha, chindan ham ahvol juda og'ir edi. Ammo «Nautilus» xuddi sehrlanganday, eng dahshat-

li qoyalarga ham chap berib o'tar edi. U Dyumon-Dyurvilning halokatiga oz qolgan «Astrolyabiya» va «G'ayratli» kemalari ochgan yo'ldan bormayotgan edi. Suvosti kemasi ancha shimolroqdan yo'l tutdi va Myorrey orolini ortda qoldirgandan keyingina Kumberlendga kiradigan yo'lga – janubi g'arbga qaytdi. Men endi kapitan Nemo «Nautilus»ni yo'ldan to'g'ri olib o'tsa kerak, deb o'ylab turganimda suvosti kemasi to'satdan shimoli g'arbga burilib, son-sanoqsiz orollar va orolchalar oralab, Taunda oroli va Xavfli kanal tomon suzib ketdi.

Men hayratlanib o'zimdan o'zim, nahotki, kapitan Nemo shu qadar ehtiyotsizlik bilan Dyumon-Dyurvilning har ikki kemasi sayozlikka tiqilib qolgan kanalga kirsam, deb so'rardim. Ammo shu vaqt «Nautilus» yo'nalishini yana o'zgartirib, g'arb tomon – Gveboroar oroli tomon suza boshladi.

Kunduz soat uchlarga yaqinlashgan edi. Suv quyilish joyiga yetib qolgan edik. To'lqinlanish tindi. «Nautilus» Gveboroarga yaqinlashdi. Biz palma daraxtlari bilan qoplangan sohildan bor-yo'g'i ikki milya masofada edik.

Birdan qattiq silkinish meni palubaga otib yubordi. «Nautilus» qoyaga urilib, o'ng tomonga xiyol qiyshayib to'xtadi.

O'rnimdan tursam, palubaga kapitan Nemo bilan uning yordamchisi chiqishibdi. Ular kemani ko'zdan kechira turib, menga noma'lum tilda qisqa-qisqa jumalalarda fikr almashishar edilar.

Ahvol mana shunaqa edi. Shtirbort ortida ko'rinib turgan Gveboroar oroli shimoldan janubga ulkan qo'lday yastanib yotardi. Suv kamayganidan sharqda qoyalarning uchlari chiqib turar edi.

Biz sayozlikka yaxshigina tiqilgan edik. Buning ustiga suv unchalik ko'tarilmaydigan yerda. Ammo

kema korpusi shu qadar mustahkam ediki, bu urilishdan zarracha ham shikastlanmadi. Biroq bordiyu, «Nautilus» bu sayozlikdan chiqolmasa, unda bir umr shu qoyaga qadalib qolaverish xavfi bor edi. Bu: kapitan Nemo kemasi tamom, degan gap.

Kapitan Nemo o'z odaticha tashvishsiz va osoyishta holatda menga yaqinlashib kelayotganida, xayolimdan shu fikr o'tayotgan edi. Uning yuzida na sarosima, na hayajon bor edi.

– Halokatmi? – so'radim men undan.

– Yo'q, arzimagan ishkal, – deya javob berdi u.

– Har holda bu voqea sizni hamisha qochib yurgan yerda yashashga majbur qilishi mumkin.

Kapitan Nemo menga g'alati bir qarab qo'yib, bosh chayqab rad javobini berdi. Aftidan, menga, hech narsa, hech qachon uni yerga qaytishga majbur qilolmaydi, degan ma'noni uqtirmoqchi edi shekilli.

Shundan so'ng u menga bunday dedi:

– Nima deyapsiz, professor! «Nautilus» sira nochor ahvolda qolmaydi. U hali sizni okean mo'jizalari bilan tanishtirishni davom ettiradi. Bizning sayohatimiz endigina boshlandi va sizning hamrohingiz bo'lish sharafidan bu qadar tez benasib qolishni istamayman!

– Ammo, kapitan, – deya e'tiroz bildirdim men uning so'zlaridagi kinoyani tushunmaganday bo'lib, – «Nautilus» suv eng ko'tarilib turgan paytda sayozlikka tiqilib qoldi. Tinch okeanda suv ortiqcha ko'tarilmasligiga e'tibor bergandirsiz; «Nautilus»ni qanday bo'lmasin yengillashtirish chorasini ko'rmasangiz uni qaysi yo'l bilan suvga tushirishingizga aqlim yetmay turibdi.

– Siz haqsiz, professor, – deb javob berdi Nemo, – Tinch okeanda suvning ko'payish miqdori

juda oz, ammo shunga qaramay, Torres bo'g'ozida suv bir yarim metrgacha ko'tarilib tushadi. Bugun to'rtinchi yanvar. Besh kundan keyin oy to'lishadi. Yerning sodiq yo'ldoshi hisoblangan oy dengiz suvini yetarli miqdorda ko'tarib, o'zining arziyas shu xizmati bilan og'irimni yengil qilmasa, qoyil emasman.

Kapitan shu so'zlarni aytdi-yu, uni kuzatib chiqqan yordamchisi bilan «Nautilus» ichiga kirib ketdi.

Suvosti kemasi yer tagidan chiqqan kabi, marjonlarning yemirib bo'lmas sement singari moddalari bilan qoyaga jipslashtirib qo'yilganday qimir etmay turardi.

– Xo'sh, bu yog'i nima bo'ldi, janob professor? – so'radi kapitan ketishi bilan yonimga kelib turgan Ned Lend.

– Gap bunday, do'stim Ned: biz tinchgina o'tirib, to'qqizinchi yanvarda suvning ko'payishini kutamiz. Aftidan, oy bizni sayozlikdan chiqaradiganga o'xshaydi.

– Faqat shuning o'zimi?

– Shuning o'zi!

– Kapitan ham sayozlikdan chiqish uchun langarlarni ko'tarib, mashinani jadallab ishga solishni o'ylamayotgan ekan-da?

– Bizni sayozlikdan suvning o'zi olib chiqadigan bo'lgach, bu tashvishlarning nima hojati bor? – deya loqaydlik bilan javob berdi Konsel.

Kanadalik norozi qiyofada Konselga qarab oldida, yelkasini qisdi. Unda tahqirlangan dengizchining holati namoyon bo'lib turar edi.

– Meni bir aytdi deysizlar, janob professor, – deya menga murojaat qildi u, – mana shu temir tog'ora endilikda hech qachon suvda ham, suv ostida ham suzmaydi! Endi u temir-tersak qilib so-

tishgagina yaraydi, xolos. Shuning uchun kapitan Nemoni davramizdan mahrum etish vaqti yetdi deb o'ylayman!

– Bilasizmi, do'stim Ned, – deb javob berdim men, – hamma ham siz singari bu ajoyib kemanding istiqboliga bu qadar umidsizlik bilan boqmaydi. To'rt kun sabr qiling – biz Tinch okeanda suvning ko'tarilish kuchining qay darajada ekanini bilib olamiz. Kezi kelganda shuni ham aytib qo'yayki, qochish Angliya yoki Provans sohillari ko'ringanda o'rinli edi. Ammo Yangi Gvineya sohillari yonida bu masalada shoshilish yaramaydi. Axir «Nautilus» sayozlikdan chiqolmay qolgan taqdirda ham bu ishni amalga oshirish uchun kech bo'lmaydi-ku.

– Xo'p, loaqal yerga ham tushib bo'lmaydimi? – xafa bo'lib so'radi Ned Lend. – Mana, orol. Orolida daraxtlar o'sadi. Ularning ostida quruqlik jonivorlari kezib yuribdi – tirik kotletlar, rostbiflar va bifshtekslar... Bir burdagina go'shtni qanchalik rohatlanib yerdim!

– Mana bu masalada Ned haq, – dedi Konsel. – Men uning bu fikriga to'la qo'shilaman. Xo'jam do'stlari kapitan Nemoni, loaqal qattiq yerda yurishni unutmash uchun bo'lsa-da, sohilga borib kelishimizga ruxsat ololmaydilar mi?

– Men undan ruxsat so'rashim mumkin, ammo ruxsat bermasligiga imonim komil. Shunga qaramay xo'jam bir urinib ko'rsinlar, – dedi Konsel, – juda bo'lmaganda biz kapitan Nemoni iltifoti qanchalik ekanligini bilib olamiz-ku.

Hayratlanganimni yashirib o'tirmayman, kapitan Nemo iltimosimni o'sha zahoti astoydil qabul etdi. U hatto kemaga qaytishga va'da berishimni ham talab etmadi. Sirasini aytganda, Yangi Gvineya oroli bo'ylab sayohat qilish shu qadar xavf-

li ishki, men Ned Lendga u yoqqa borishga maslahat ham bermas edim. Mahalliy aholi – papuaslar qo‘liga tushgandan ko‘ra «Nautilus»da bandi bo‘lib qolish ming marta afzal edi.

Men kapitan Nemoning biz bilan borish-bor-masligini so‘rashga jur‘at etolmadim. Ochig‘i, biz bilan borishga matroslardan hech biriga javob berilmasligiga imonim komil edi, binobarin, qayiqni Ned Lendning o‘zi boshqarishi kerak bo‘ladi. Ammo yer bizdan nari borsa ikki milya masofada va yaxshi dengizchi hisoblangan kanadalikning yengilgina qayiqni katta kemalar uchungina halokatli qoyalar orasidan osongina olib borishi hech gap emas edi.

Ertasi kuni, 5-yanvarda, qayiqni uyasidan ajratib, suvga tushirishdi.

Bu ishni ikki matros osonlik bilan bajardi. Eshkaklar qayiqning ichida edi. Bizning o‘tirg‘ichlardan joy olishimizgina qolgan edi, xolos.

Ertalab soat sakkizda biz miltiq va boltalar bilan qurollanib, «Nautilus» bortidan suzib ketdik.

Dengiz ancha sokin edi. Sohildan yengil shabada esib turardi. Konsel bilan men eshkakda edik. Biz jon-jahdimiz bilan qayiqni haydardik, Ned esa uni qoyalar orasidagi tor yo‘llardan olib o‘tar edi.

Qayiq rulga to‘la bo‘ysunib, o‘qday uchib borar edi.

Ned Lend hayajonini yashirmayotgan edi. U o‘zini erkinlikka chiqqan bandiday his etar, tez orada yana qamoqxonaga qaytishini o‘ylamas edi.

– Biz hozir go‘sh t yeymiz! – bu so‘zlarni u deyarli ashula qilib aytdi. – Yana qanaqa go‘sh t deng! Haqiqiy, chinakam yovvoyi qush go‘sh t! Faqat nonsiz... Men baliq bemaza taom deyolmayman, ammo o‘zlaring o‘ylanglar, doim faqat baliq, yana baliq yeyaverish ham bo‘lmaydi-da! Qovurilgan bir

burdagina toza go'sht me'daga tekkan bir xildagi dasturxonni ko'rkam bezaydi!

– Yuxo! – dedi Konsel. – Shu gaplarning o'zidanoq so'laklarim oqib ketdi...

– Faqat bu o'rmonlarda qush bor-yo'qligini bilish-u, basharti, bo'lganda ham ovchining o'zi uni ko'rganida qushga aylanadigan darajada katta emasligini aniqlash qoldi, xolos, – deb luqma tashladim men.

– Bo'lmagan gap, janob professor, – deya e'tiroz bildirdi Ned Lend bolta tig'iday o'tkir tishlarini ko'rsatib. – Men hatto sherni ham yeyishga tayyorman, ha, bu orolda boshqa jonivor bo'lmasa, bir burda yaxshi qovurilgan sher go'shtini!

– Ned shunchaki meni qo'rqitmoqchi, – dedi Konsel.

– Birinchi ko'ringan jonivor qaysi naslga taalluqli bo'lmasin, u xoh tetapoya bo'lgan to'rt oyoqli, xoh ikki oyoqli parranda – uni miltig'imdanda mo'ljallab otilgan o'q bilan kutib olishga tayyorman!

– O'h-ho'! – xitob qildim men. – Lend yana telbalikni boshlayapti!

– Tashvishlanmang, professor, – e'tiroz bildirdi kanadalik, – eshkakni dadilroq haydang! Yarim soat ham o'tmay oldingizga did bilan tayyorlangan taom qo'yaman.

Soat sakkiz yarimda «Nautilus»ning qayig'i Gveboroar orolini o'rab olgan marjon halqadan o'tib, qumloq sohilga kelib to'xtadi.

## *Yigirma birinchi bob*

### **QURUQLIKDA O'TKAZILGAN BIR NECHA KUN**

Esimda, qattiq yerga qadam bosishim bilan a'zoyi badanim jimirlab ketdi. Ned Lend yerning

mustahkamligini sinaganday uni deysib ko'rdi. Bu yog'ini surishtirsangiz, kapitan Nemoning ta'biri bilan aytganda, «Nautilus»ning yo'lovchilari, yana aniqrog'i, kapitanning bandilari bo'lganimizdan buyon oradan hali ikki oy ham o'tgani yo'q.

Bir necha minutdan so'ng biz dengiz sohilidan miltiq otlsa o'qi kelib tushadigan masofada edik. Bu orolning tuprog'i deyarli tamoman marjon ohagidan tashkil topgan edi. Biroq qurib qolgan dar-yolarning o'zani granit parchalari bilan to'lib-toshganiga qarab, orol vulqon otilishidan paydo bo'lgan deb taxmin qilish mumkin.

Butun ufq ajoyib qalin o'rmonzor bilan qoplangan edi. Ayrimlarining balandligi ikki yuz futga yetadigan ulkan daraxtlar – bir-birlari bilan xiyol shamol bo'lsa qimirlab turadigan chinakam tabiiy to'r belanchaklar singari chirmovuqlar bilan chatishib ketgan edi.

Bu yerda mimozalar, fikuslar, egiluvchan daraxtlar va cheksiz palmalar bor edi. Daraxtlar ostida, ularning yashil shoxlari himoyasida ulkan orxideyalar<sup>1</sup> gullab yotar edi.

Ammo butun fikr-u zikri foyda beradigan narsa bilan band bo'lgan kanadalikning e'tiborini ajoyibotlar – Yangi Gvineya o'simlik dunyosining bu go'zal namunalari jalb etolmas edi. Kokos palmasiga tosh otib bir necha kokos tushirdi, uni olib bizga tutdi. Biz kokos sutini ichib, mevasini maza qilib yeb oldik. Bu ishimiz o'zimizga «Nautilus»ning odatdagi taomlariga norozilikday bo'lib tuyuldi.

– Ajoyib, – dedi Ned Lend.

– Juda mazali! – uni qo'llab-quvvatladi Konsel.

– Siz nima deysiz, nahotki Nemo «Nautilus» bor-

---

<sup>1</sup> Orxideya – guli g'alati shaklda ochiladigan juda xushbo'y tropik o'simlik.



tiga ana shu kokoslardan biroz olib kirishni man etsa? – deya mendan so‘radi kanadalik.

– Man etmasa kerak deb o‘ylayman, – javob berdim men, – ammo uning o‘zi bunga qo‘l urmasligiga imonim komil.

– O‘ziga qiyin! – dedi Konsel.

– Biz uchun esa yana ham yaxshi! – uning so‘zini ilib ketdi Ned Lend. – Bizga ko‘proq qoladi.

– Sabr qiling, do‘stim Ned! – dedim men ikkinchi palmaga ham hujum qilish uchun shaylanib turgan kanadalikka qarab. – Kokos yong‘og‘i ajoyib narsa, ammo u bilan qayiqni to‘latib olishdan oldin, menimcha, orolda foydasi bundan kam bo‘lmagan boshqa mahsulotlar ham bor-yo‘qligini aniqlash kerak. Menimcha, «Nautilus»da ho‘l sabzavotlar ham kunimizga yarasa kerak.

– Xo‘jam haqlar, – dedi Konsel, – men qayiqni uch qismga bo‘lishni taklif etaman: birinchisini mevalarga, ikkinchisini sabzavotga, uchinchisini esa, to‘g‘risi, hali birorta uchratmagan bo‘lsak ham yovvoyi qushlarga qoldirsak.

– Konsel, noumid bo‘lish yaramaydi, – e‘tiroz bildirdi kanadalik.

– Shunday qilib, sayohatimizni davom ettirishni taklif etaman, biroq har qadamda hushyor turmoq lozim. Orol kimsasiz tuyulsa-da, ammo baribirozuqa tanlashda biz singari injiqlik qilmaydigan odamlar chiqib qolishi mumkin.

– O‘h-he-he! – deya qichqirdi Ned Lend bu so‘zlarni eshitgach, jag‘larini shaqirlatib.

– Ho‘, Ned, sizga nima bo‘ldi? – xitob qildi Konsel.

– Xudo haqqi, chin so‘zim, – dedi kanadalik, – men odamxo‘rlikning lazzatini payqayotganday bo‘lyapman.

– Ned! Ned! Nima dedingiz? – xitob qildi Konsel. – Bundan chiqdi, siz odamxo‘r ekansiz-da? Demak, siz bilan bir kayutada yashab hamisha xavf ostida turgan ekanman-da? Demak, kunlarning birida yarim yeyilgan holda turishim xavfi bor ekan-da menda?

– Do‘stim Konsel, men sizni yaxshi ko‘raman, ammo hech qanday ehtiyojsiz yeb qo‘yish darajasi-da emas, albatta.

– Sizga ishonmayman, – deb javob berdi Konsel. – Kelinglar, ov qilaylik. Bu odamxo‘rga tezroq birorta qush topib bermasak, yaqin kunlarda xo‘jam sobiq xizmatkorining burdalarinigina topishi mumkin.

Ned bilan Konsel hazil-mutoyibasi bilan bo‘lib o‘rmon etagiga borib qolibmiz. Quyuq daraxtzorlar oralab yurib, ikki soat davomida o‘rmonning u boshidan bu boshiga borib keldik.

Tasodif bizga yaxshigina imkon berdi: tropik mintaqaning eng foydali o‘simliklaridan biriga duch keltirdi; u bizga «Nautilus» bortida juda ilhaq bo‘lgan ozuqani topib berdi.

Men Gveboroar orolida juda ko‘p o‘sadigan non daraxti haqida gapiryapman; biz osonlik bilan uning malayyaliklar orasida «rim» nomini olgan urug‘siz turini topdik.

Non daraxti atrofidagi boshqa daraxtlardan o‘zining balandligi qirq fut keladigan tanasining tikligi bilan ajralib turar edi. Uning juda chiroyli dum-dumaloq ko‘p pallali katta barglardan iborat tepa qismi tabiatshunos diqqatini darhol o‘ziga jalb etadi. Kattaligi bir detsimetr keladigan, olti qirrali g‘adir-budur sharsimon mevalari juda ko‘p barglar orasida osilib turar edi. Bu foydali daraxt hech qanday qarovsiz va betashvishgina yiliga sakkiz oy meva beradi.

Bu mevalar Ned Lendga ma‘lum edi.

U o'zining juda ko'p safarlari davomida bu mevalardan tanovul qilib ko'rgan va uni qanday tayyorlashni bilar edi.

– Janob professor, – dedi u, – men bu daraxtning yumshoq mevasini darhol tatib ko'rmasam, o'lib qolaman!

– Yeb ko'ring, Ned, yeb ko'ring. Axir biz bu yerga shuning uchun keldik-da, tatib ko'rishimiz kerak. Tortinmang!

– Bu ko'p vaqtimizni olmaydi, – dedi u.

Kanadalik qalin oyna yordamida quruq shoxlardan tezda gulxan yoqdi.

Olov charsillab yonar edi.

Shu orada Konsel bilan men yaxshiroq non daraxtini tanladik.

Ulardan ayrimlarining mevalari hali yetilmagan va qalin terisi oppoq lahmni yopib turardi. Ammo ko'plari xuddi uzib olishni kutib turganday sarg'ayib pishib qolgan.

Konsel Nedga shunaqa mevalardan o'ntachasini uzib olib kelib berdi.

Kanadalik urug'siz bu mevalarni tilimlab kesib cho'g' ustiga qo'ydi. Bu ishlarni qilarkan, u tinmay gapirardi:

– Hozir ko'rasiz, professor, bu qanaqa mazali nonligini!

– Ayniqsa odam ikki oy davomida umuman non ko'rmagandan keyin, – deb qo'shib qo'ydi Konsel.

– Bu hatto non ham emas, – deya so'zini davom ettirdi kanadalik, – bu eng mazali pirojniy. Siz uni hech tatib ko'rganmisiz, janob professor?

– Yo'q, Ned.

– Unday bo'lsa, bu dunyoda ko'rolmaydigan rohatga hozirlaning. Agar siz yana bir bo'lak talab qilmasangiz, men garpunchilar qiroli emasman!

Bir necha minutdan so'ng bo'laklarning olovga qaratilgan tomoni tamoman qoraya boshladi. Har bir bo'lakning o'rtasida artishokning hidini eslatadigan oq lahm ko'tarildi.

Ochig'ini aytsam, non chindan ham juda mazali ekan, men uni zo'r ishtaha bilan yedim.

– Afsus, – dedim men, – bu lahm uzoq vaqt turmasa kerak... Shuning uchun, menimcha, uni bortga g'amlab olib borishga hojat ham yo'qdir.

– Nima deyapsiz, janob professor! – jahli chiqib xitob qildi Ned Lend. – Siz nazariyotchi tabiatshunos sifatida gapiryapsiz. Men bo'lsam amaliyotchi novvoy sifatida ish tutaman. Konsel, bu mevalardan g'amlayvering, qaytishimizda bortga olib ketamiz.

– Ularni qanday qilib saqlaysiz?

– Ularning lahm yeridan xamir qoraman. U achigandan keyin, uzoq vaqt buzilmay saqlanaveradi. Yemoqchi bo'lganingizda ularni «Nautilus» oshxonasida qaynatish kerak, ta'mi xiyol achiganroq bo'lishiga qaramay, yeb, uzoq tamshanib qolasiz.

– Noningizning bekam-u ko'stligini ko'rib turibman, bundan bo'lak narsaning hojati ham yo'qdir...

– Aksincha, janob professor, – e'tiroz bildirdi kanadalik, – yanada lazzatliroq bo'lishi uchun meva-sabzavot kerak bo'ladi.

– Nima ham derdik, qani, kelinglar bo'lmasa, meva va sabzavot qidiraylik.

Non daraxtidan meva yig'ib bo'lgach, biz yana «yer dasturxoni» uchun yangi mahsulotlar qidirishga kirishdik.

Qidiruvimiz zoye ketmadi va biz tushgacha anchagina banan g'amlab oldik. Bu ajoyib nozik tropik mevasi yil bo'yi pishib yotadi. Uni xomligicha ham yeyaverishadi. Biz banandan tashqari, mazali mango mevalari va bir necha yirik ananas topdik. Bu-

larni yig'ib olishga ko'p vaqt sarflagan bo'lsak-da, bunga achinmadik.

Konsel Ned Lenddan ko'z uzmas edi. Garpunchi oldinda borar, buta yoki daraxtlar yonidan o'ta turib g'amlash uchun eng yaxshi mevalarni uzib borar edi.

– Xo'sh, qalay, – dedi nihoyat Konsel, – endi xursandirsiz, do'stim Ned? Siz istagan narsalaringizning hammasini oldingizmi?

– Hm... – g'oldiradi kanadalik.

– Nima, hali xursand bo'lganingiz yo'qmi?

– Bu o'tlarning hammasi – ovqatga qo'shib beriladigan tatimlik, meva-cheva, shirinliklar. Sho'rvaning o'zi qani? Kabob qani?

– Ha, ha, Ned, – dedim men, – marhamat qilib bizni kotletga to'ydirish borasida bergan va'dangizni unutmang! Negadir kotletni ko'rmayapman...

– Janob professor, – deb javob berdi kanadalik, – ov tugashi u yoqda tursin, hatto hali boshlangani ham yo'q. Sabr qiling! Ertami, kechmi biz baribir biror qanotli yoki to'rt oyoqli ovga uchraymiz, bu yerda bo'lmasa, boshqa biron joyda...

– Shu bilan birga bugun bo'lmasa, boshqa biron kun, – deya kanadalikning gapirish ohangida davom ettirdi Konsel. – Ammo o'rmonning juda ichkarisiga kirib borish yaramaydi. Qayiqqa qaytishni maslahat berardim.

– Nima? Darrov-a? – qichqirdi Ned.

– Biz qorong'i tushguncha bortga qaytishimiz kerak, – dedim men.

– Xo'p, hozir soat necha? – xafa bo'lib so'radi kanadalik.

– Kamida soat ikki, – javob berdi Konsel.

– Qarang, quruqlikda vaqt qanchalik tez o'tadiya! – dedi chuqur xo'rsinib Ned Lend.

Biz qaytishda o'rmondan keldik. Yo'l-yo'lakay karam palmasining barglarini yig'ib olish uchun daraxtlarning uchiga ehiqdik, malayyaliklar «abru» deb ataydigan loviya va ajoyib yams to'pladik.

Biz qayiqqa qaytganimizda charchoqdan a'zoyi badanimiz zirqirar edi. Ammo Ned Lendning fikricha, biz oziq-ovqatni kam yig'gan edik. Ammo unga baxt hamisha kulib boqardi. Qayiqqa o'tirib olgandan keyin u birdan balandligi yigirma besh-o'ttiz fut keladigan bir necha sago daraxtlarini ko'rib qoldi.

Bular ham non daraxtlariday foydali va Melaneziyada haqli ravishda eng qimmatli ozuqalardan biri hisoblanadi.

Ned Lend ularni nima qilishni bilar edi. Boltani olib, bir necha minut ichida ikkita-uchta daraxtni qulatdi. Men kanadalikning har bir harakatini ochiqqan odam emas, balki tabiatshunos sifatida kuzatib turdim. U ishni har bir poyadan bosh barmoq qalinligida po'stloqni shilib tashlashdan boshladi; shunda bir-biriga chatishib ketgan ipsimon tolalar yalang'ochlanib, ular orasida yopishqoq un ko'rindi. Ana shu un Melaneziya aholisining asosiy ozuqasi bo'lib xizmat qilayotgan narsa edi.

Nihoyat kech soat beshda g'amlagan narsalarimizni qayiqqa ortib, orol sohilidan suzib ketdik va yarim soatda «Nautilus»ga yetib oldik.

Bizni hech kim kutib olmadi. Ulkan temir silindr go'yo kimsasiz edi.

Narsalarni tashib bo'lgach, xonamga tushdim. U yerda kechki ovqat muhayyo edi. Ovqatlanib olgach, uxladim.

Ertasi kuni, 5-yanvarda, hech qanday yangilik sodir bo'lgani yo'q. Kema ichi jimjit, hayot nishonasi sezilmaydi. Qayiq qo'ygan joyimizda, bort

yonida chayqalib turar edi. Biz Gveboroar oroliga qaytishga qaror qildik.

Ned Lend bu gal oldingiga nisbatan ov o'ngidan keladi deb umid qilardi. Bundan tashqari, biz o'rmonning boshqa tomonini ko'rmoqchi edik.

Quyosh chiqishi bilanoq yo'lga tushdik. Qayiq sohilga intilayotgan to'lqin ustida bir zumda orolga yetib bordi.

Biz qayiqdan tushdik va Ned Lendning tuyg'ulariga ishonib, uzun oyoq kanadalikdan orqada qolmaslik uchun ildam borardik.

Ned Lend bizni orolning g'arbiy qismi ichkarisiga boshlab bordi. Bir necha irmoqlardan kechib o'tib, bir tomoni ajoyib o'rmon bilan o'ralgan yalanglikka chiqdik. Irmoqlar bo'yida bir necha baliqchi qushlar qanot qoqib yurar, ammo ulardan biron-tasi ham miltiqdan o'tsa bo'ladigan darajada yaqin kelgani yo'q.

Qushlarning bu xatti-harakati meni ular ikki oyoqli mavjudotlarni birinchi marta ko'rayotganlari yo'q va odamdan nima kutish mumkinligini bilishsa kerak, degan xayolga olib bordi. Men bundan hozir orolda hech kim yashamasa ham, ammo yaqin orada bu yerga odamlar kelib ketgan, degan xulosa-ga keldim.

Yalanglikdan o'tib, juda ko'p qushlar sayrayotgan kichkina o'rmonga yetdik.

– Hozircha bu qushlar, xolos, – dedi Konsel.

– Ammo bularning orasida yesa bo'ladiganlari ham bor, – deb javob berdi garpunchi.

– Bilmadim-ov, og'ayni, – e'tiroz bildirdi Konsel. – Menimcha, bular to'tiqush.

– Ey, do'stim Konsel, – jiddiy turib so'zlay boshladi kanadalik, – yeyishga narsasi yo'q odamlar uchun to'tiqush ham tustovuq o'rnini bosaveradi!

– Gapingizga qo‘shilaman, – dedim men, – chindan ham yaxshilab pishirilgan to‘tiqush juda laz-  
zatli bo‘ladi.

Darhaqiqat, daraxtlarning qalin shoxlari ostida birov ularga gap o‘rgatgudek bo‘lsa, odamlar tilida so‘zlasha oladigan olam-jahon to‘tiqush g‘ujg‘on bo‘lib yurardi.

Ular ham xuddi shuni kutib turgandek, turli rangda tuslanayotgan modalari bilan shoxdan shoxga sakrab, daraxtdan daraxtga uchib chug‘urlashar edilar. Bu yerda to‘tiqushlar guruhining barcha xillari: bamaylixotir va kekkayma kakadu, allaqanday falsafiy muammoni yechish bilan bandday juda jiddiy va yorqin tusli ararlar, uchayotganda turli tuman quroqni shamol ko‘kka olib ketayotganday bo‘lib ko‘rinadigan, odam tilini boshqalariga nisbatan yaxshiroq o‘zlashtira oladigan zukko to‘tiqush – jakolar va bu ajoyib, ammo aksari yeyilmaydigan qushlarning ko‘pgina boshqa xillari ham bor edi.

Biroq bu kolleksiya orasida birgina eksponat yetishmas edi: men faqat shu o‘lkalarda bo‘ladigan va Arru hamda Yangi Gvineya orollari chegarasidan sira nari ketmaydigan qush haqida so‘z yurit-  
yapman. Qarangki, baxt menga ham kulib boqar ekan, shu qushni ko‘rishga muyassar bo‘ldim.

Siyrak o‘rmondan o‘tib, butalar bilan qoplangan o‘tloq yonidan chiqib qoldik. Oyoq tovushlarimiz bir juft allaqanday qushni cho‘chitib yubordi; men ularning patlari faqat shamolga qarshi uchishga moslashganini ko‘rdim. Ularning to‘lqinday mavj urib uchishi, havoda juda latofat bilan charx urishi, patlarining ta‘rifga sig‘maydigan turli rangda jilvalanishi – bularning bari diqqatni jalb etib, ko‘zni quvnatar edi. Men ularni bir ko‘rishdayoq tanidim.

– Bu jannat qushlari! – deya qichqirdim.



– Uzun ko‘kraklilar bo‘limi, chumchuqsimonlar to‘dasi, jannat qushlari oilasi, – dedi o‘sha zahotiyoq Konsel.

– Balki kakliklar oilasidir? – so‘radi Ned Lend.

– Yo‘q, do‘stim Ned, – dedim men. – Ammo bular kaklik bo‘lmasa ham, o‘z abjirligingizni ko‘rsatib, shu ajoyib tropik qushlaridan birini ushlab olishimga ko‘maklashsangiz, sizdan juda minnatdor bo‘lardim.

– Urinib ko‘raman, janob professor, ochig‘i, miltiqdan ko‘ra ko‘proq garpunga o‘rgangan bo‘lsam ham.

Jannat qushlari bilan savdo qiladigan malayyaliklar ularni turli yo‘llar bilan ovlaydilar. Ular goh jannat qushlari hammadan ko‘proq in qo‘yadigan daraxt uchlariga tuzoq o‘rnatardilar; goh juda yopishqoq maxsus yelim yordamida ovlardilar; goh shu qushlar suv ichishga o‘rgangan hovuzlarni zaharlar edilar. Ammo biz bunday qilolmas edik.

Bizlar, qiyin bo‘lsa-da, ularni uchib ketayotgan paytidagina otib olishimiz mumkin edi. Darhaqiqat, biz juda ko‘p o‘q sarfladig-u, ammo bu qushlardan birontasini ham qulata olmadik.

Ertalab soat o‘n birlarda orol markazidagi tepalikning birinchi dovonidan oshib o‘tgan bo‘lsak-da, bironta ham jonivorni uchratolmadik. Bizni ochlik qiynay boshladi. Ovimiz o‘ngidan kelishiga ishonib, o‘zimiz bilan hech qanaqa oziq-ovqat olmaganimizdan juda achindik.

Ammo xuddi shu payt baxtimizga Konsel ikki o‘q bilan ketma-ket oq kaptar va vyaxirni qulatsa bo‘ladimi. Bunga uning o‘zi ham hayron qoldi. Biz tezda ularning patlarini yulib, xivich sixlarga o‘tkazib, quruq shoxlardan yoqqan gulxanimizda pishira boshladik.

Konsel qushlarni kabob qilayotgan paytida Ned Lend non daraxtining mevalarini tayyorladi.

Vyaxir bilan kaptarning oxirgi suyagigacha mujib tashladik. Yutoqib turgan odamlardan boshqa nimani ham kutish mumkin. Bu qushlarning asosiy ozuqasi bo'lgan muskat yong'og'i ularning go'shtiga xushbo'y ta'm bergan edi. Shuning uchun ham juda ajoyib kabob bo'lipti.

– Bular xuddi qo'ziqorin bilan boqilgan semiz tovuqlardek mazali-ya! – dedi Konsel.

– Xo'sh, Ned, – so'radim men, – yana nima yetmaydi sizga?

– To'rt oyoqli ov, janob professor, – deb javob berdi kanadalik. – Bu qushchalar – shunchaki ermak, chinakam taom emas. Shuning uchun men biron-ta haqiqiy to'rt oyoqli hayvonni otib, urib yumshatilgan kotlet qilmaguncha ko'nglim joyiga tushmaydi.

– Men bo'lsam, Ned, jannat qushini tutib olmagunimcha ko'nglim tinchimaydi.

– Demak, ovni davom ettiramiz, – dedi Konsel. – Faqat orqaga qaytamiz, dengizga yaqinroq yerga. Biz tog' tizmalariga yetib qolibmiz. O'rmonning juda ichkarisiga kirmaganimiz ma'qul deyman.

Konsel haq bo'lganidan uning maslahatiga ko'ndik. Bir soatcha yurgach, deyarli faqat sago daraxtlaridan iborat o'rmonga yetib keldik.

Oyoqlarimiz ostidan bir necha marta ilonlar o'r-malab chiqdi, ammo bular zaharli emas edi. Biz o'q yetadigan masofaga borishimiz bilan jannat qushlari uchib ketishar edi. Ularni yaqinroqdan ko'rish umididan ham voz kechayotganimda, oldinda borayotgan Konsel to'satdan engashdi va hayajon ichida meni chaqirdi. U qo'lida jannat qushining ajoyib nusxasini ushlab turar edi.

– Qoyil, Konsel! – xitob qildim men.

– Xo‘jam juda oshirib yubordilar deyman, – javob berdi u.

– Yo‘q, yo‘q, do‘stim, sen mo‘jiza ko‘rsatding. Jannat qushini tirikligicha tutib olish, buning ustiga qo‘lda, bu misli ko‘rilmagan hodisa!

– Agar xo‘jam uni yaqinroqdan ko‘rishga muvassar bo‘lsalar, bunda mening xizmatim unchalik katta emasligiga ishonch hosil etadilar.

– Nega bundoq deysan, Konsel?

– Chunki bu qush o‘lgiday mast!

– Mast!

– Ha, muskat daraxti ostidan terib yegan muskat yong‘og‘idan mast bo‘lgan. Binobarin, men uni yengilgina ushlab ola qoldim. Diqqat qilib qarang-a, Ned, mana bu o‘zini tuta bilmaslikning qanchalik ziyonligiga yaqqol dalildir!

– Bilasizmi, Konsel, mening keyingi ikki oy mobaynida ichgan arog‘imga piching qilishingiz uyat! – deb javob berdi kanadalik.

Shu orada men qushni ko‘zdan kechirdim. Konsel meni aldamagan ekan: jannat qushi chindan ham muskat yong‘og‘ining boshni aylantiradigan sharbatidan tamoman chorasiz holga tushib qolgan edi. U uchish u yoqda tursin, hatto zo‘rg‘a yurar edi.

Konsel tutib olgan nusxa jannat qushlarining Yangi Gvineya va unga qo‘shni yerlarda ko‘p uchraydigan sakkiz xilining eng chiroylilaridan biriga mansub edi. Bu xil jannat qushlari «zumrad» deb atalib, eng kamyoblaridan edi. Uning kattaligi o‘ttiz santimetrcha keladi. Bu qushning boshi kichkina, tumshug‘iga yaqin o‘rnashgan ko‘zlari ham kichkina. Uning rangi juda chiroyli, turli-tuman bo‘yoqlardan iborat edi: tumshug‘i sariq, changal va tirnoqlari to‘q jigarrang, jimjimador hoshiyali qa-

notlari och jigarrang, toji och sariq, bo'yni zumrad yashil va ko'krak hamda qorni qo'ng'ir. Yoy singari qayrilma yumshoq va hurpaygan juda nozik hamda chiroyli ikki pati dumini bezab turar edi. Umuman, bu qush juda chiroyli va mahalliy aholi atagan «Quyosh qushi» degan nomiga monand edi.

Menda bu nodir nusxani tirikligicha Parijga olib borib, uni hozirgacha jannat qushlarining bironta ham tirik nusxasi bo'lmagan zoologiya bog'iga taqdim etish istagi paydo bo'ldi.

– Bu chindan ham kamyob qushmi? – so'radi Ned Lend yeyilmaydigan qush bir chaqa bo'lib ko'rinadigan ovchi singari.

– Ha, Ned, xuddi shunday va buning ustiga jannat qushini tirikligicha ushlab juda mushkul. Ammo bu qushlarning o'ligi ham juda qadrlanadi. Shuning uchun ham mahalliy aholi bu qushni Yevropada qalbaki marvarid va brilliantlar yasaganlaridek, soxtalashtira boshladilar.

– Nima! – xitob qildi Konsel. – Ular jannat qushlarini soxta qila boshladilar deysizmi?

– Ha, Konsel.

– Xo'jam uni qanday soxtalashtirishni ham biladilarmi hali?

– Bilaman, Konsel. Jannat qushlarining dumidagi ajoyib patlar yozgi musson<sup>1</sup> paytida tushib ketadi. Qushni «soxtalashtiruvchilar» ana shu patlarni yig'ib oladilar va uni birorta sho'ri qurigan to'tiqushning patini yulib, dumiga yopishtiradilar yoki tikib qo'yadilar. So'ngra o'rnini bo'yaydilar, qushchani «yarqiratadilar-u...» o'ziga xos bu san'at mahsulini Yevropaga – muzeylarga yoki ishqibozlarga yuboradilar.

---

<sup>1</sup> *Musson* – qishda dengiz tomonga, yozda esa qirg'oqqa tomon esadigan shamol.

– Nima qilibdi, – luqma tashladi Ned Lend, – ular nolimasalar ham bo‘ladi. Axir ular patini oladilar-ku, yeyishga mo‘ljallanmagan qush uchun eng keraklisi uning patida.

Mening orzum jannat qushini ushlab olish edi. U ro‘yobga chiqdi. Ammo Ned Lendning kotlet haqidagi orzusi hali-beri ushaladiganga o‘xshamas edi!

Har holda kanadalik kunduz soat ikkida mahalliy aholi «bari-utang» deb ataydigan o‘rmon to‘ng‘izini otish sharafiga muyassar bo‘ldi.

Bizga chinakam kabob keltirgan Nedning o‘qi umumxursandchilik bilan kutib olindi.

Ned Lend ovi yurishganidan mamnun edi. To‘ng‘iz elektr o‘qi tekkan zahoti qulab jon berdi. Kanadalik uni naridan beri tozalab, kechki ovqatga bir tilim go‘sh tidan oldi. Shundan so‘ng ov yana davom ettirildi, yana Ned Lend bilan Konsel o‘zlarini ko‘rsatishdi.

Butalar orasidan o‘ta turib, ikki do‘st kengurular galasini cho‘chitib yuborganlarini o‘zlari ham bilmay qolishdi. Kengurular egiluvchan oyoqlarida baland sakrashib, qocha boshlashdi.

Ular qanchalik tez chopishmasin, elektr o‘qlari ulardan uchqurroq chiqdi.

– O, janob professor, – deya qichqirdi o‘zining muvaffaqiyatli ovidan sarmast bo‘lgan Ned Lend, – qanday ajoyib o‘lja-ya, ayniqsa dimlab yesa! Mana buni «Nautilus» uchun g‘amlangan ozuqa desa bo‘ladi! Ikki, uch, to‘rtta kenguru. Yana buning ustiga butun bir tog‘ bo‘lib yotgan bu go‘sh tnlarni yolg‘iz o‘zimiz yeyishimizni, ana u eshaklar esa hatto hidlab ham ko‘rmasligini aytmay sizmi!

Menimcha, kanadalik shodligini baham ko‘rish uchun shu bir zum tinmaganida, butun galani qirib tashlashi hech gap emas edi. Hozir esa u Kon-

selning ma'lum qilishicha, kengurular oilasiga, ikki qorinlilar bo'limiga mansub bo'lgan bu ajoyib sut-emizuvchilarning o'n ikkitasi bilan qanoatlanishiga to'g'ri keldi.

Otib o'ldirilgan kengurular kichkinalari edi. Ular quyonsimon kengurular turiga mansubdir. Bular tun jonivorlari bo'lib, kunduzi qattiq uxlaydilar. Kengurularning bu turi juda tez chopishdan tashqari hayratga soladigan darajada abjirliklari bilan ham ajralib turadilar. Bu jonivorning o'zi katta bo'lmasa-da, terisi juda yuksak baholanadi.

Biz ovimizdan juda mamnun edik. Xursand bo'lgan Ned ertasiga shu ajoyib orolga kelib, u yerdagi yeyiladigan bari to'rtoyoqli jonivorlarni ovlashni o'ylayotgan edi. Ammo u, ish boshqacha bo'lib ketishini oldindan bilmagan edi.

Kech soat oltilarga yaqin biz dengiz qirg'og'iga chiqdik. Qayiq qoldirib ketgan joyimizda turgan edi. Uzoqdan uzun qoyaday bo'lib tuyulayotgan «Nautilus» bizdan ikki milya masofada suvdan chiqib turar edi.

Ned Lend fursatni boy bermay, ovqat tayyorlashga kirishdi. U oshpazlik san'atining ustasi edi. Havoni birpasda «bari-utang» go'shtidan tayyorlanayotgan, urib yumshatilgan kotletning xushbo'y hidi qopladi...

Men ham kanadalik singari bir parcha qovurilgan go'shtdan benihoya xursand bo'layotganday edim. Men kanadalikni kechirganimday, kitobxon ham buning uchun meni kechirar degan umiddaman...

Shunday qilib, maqtasa arzigudek ovqat bo'ldi. Ikki vyaxir qo'shimcha taom bo'ldi. Sago xamiri, non daraxtining mevalari, mango daraxtining bir necha mevalari, olti ananas va kokos yong'og'ining

juda qiyomiga yetgan sharbati kayfiyatimizni chog' etdi. Qadrdon do'stlarim va men kuchli ovqatdan og'irlashdik.

– Bugun «Nautilus»ga qaytmasak nima qiladi? – taklif etdi Konsel.

– Bugun ham, ertaga ham va hech qachon qaytmasak-chi? – qo'shib qo'ydi Ned Lend. Shu payt oyog'imiz ostiga tosh kelib tushdi.

## *Yigirma ikkinchi bob*

### **KAPITAN NEMONING CHAQMOG'I**

Biz o'tirgan joyimizda o'rmonga qaradik. Qo'limni og'zimga olib borishga ulgurmay qotib qoldim.

– Osmondan tosh yog'mas edi-yu, – dedi Konsel. – Bordi-yu, shunday bo'lsa, ular aerolit deyiladi.

Mo'ljalga aniqroq otilgan ikkinchi tosh Konselning aytganini tasdiqlaganday uning qo'lidan vya-xirning mazaligina oyog'ini urib tushirdi.

O'rnimizdan sapchib turdik, qurollarimizni yelkamizga tirab, uchalamiz ham hujumni daf etishga shaylandik.

– Nahotki, maymunlar bo'lsa? – xitob qildi Ned Lend.

– Shunga yaqin, – deb javob berdi Konsel. – Bu yovvoyi odamlar.

– Qayiqqa! – deb buyurdim va dengiz tomon yurdim.

Chindan ham chekinish kerak edi. Yuz qadamcha narida, ufqni bizdan to'sib qo'ygan o'rmon etagida, katta yo'ylar va sopqonlar bilan qurollangan yigirma chog'lik yovvoyi odam ko'rindi.

Qayiq bizdan yigirma metrcha narida edi.

Yovvoyi odamlar shoshilmay, ammo yovuz niyat bilan biz tomon kelishayotgan edi. Tosh va kamon o'qlari yomg'irday yog'ildi.

Ned Lend xavf ostida bo'lganimizga qaramay g'amlab olingan oziq-ovqatlarni tashlab yuborishga ko'nmadi, ovlangan to'ng'iz va kenguru go'shtlarini qayiqqa ko'tarib bordi.

Biz oziq-ovqat va qurol-yarog'larni ikki minut ichida qayiqqa tashib olib, uni surib chiqardik, eshkaklarni halqasiga o'rnatib suzishga o'tirdik. Qirg'oqdan ikki kabelt uzoqlashmasimizdan, yuzlab yovvoyi odamlar huhulab, hayqirib beligacha dengizga tushib oldi. Men ularning hayqirig'i «Nautilus» komandasi diqqatini jalb etadi, deb adashgan ekanman: suvosti kemasining palubasi bo'm-bo'shligicha qolaverdi.

Yigirma minutda «Nautilus»ga yetib keldik.

Lyuk ochiq edi. Qayiqni bortga bog'lab, kemaga tushdik.

Men organ ovozi taralayotgan salonga kirdim. Kapitan Nemo shu qadar berilib chalayotgan ediki, mening kirganimni ham sezmad.

– Kapitan, – dedim men. U eshitmadi.

– Kapitan, – deb qaytardim men qo'limni uning yelkasiga tegizib. U cho'chib, shu zahoti o'girilib qaradi.

– Ha, sizmidingiz, janob professor, – dedi u. – Qalay, ov yaxshi o'tdimi? Qanaqa o'simliklarni topib keldingiz?

– A'lo darajada, kapitan, rahmat. Ammo yashirib o'tirmayman, ortimizdan ikki oyoqlilar galasini ergashtirib keldik, menimcha, ularning bu yerda turishi bizni xavf-xatardan xoli qoldirmaydi...

– Ikki oyoqlilar?

– Yovvoyi odamlar.



– Yovvoyi odamlar? – mazax qilganday cho‘zib so‘radi Nemo. – Sayyoramizdagi yerlardan biriga qadam qo‘yishingiz bilan yovvoyi odamlarga duch kelganingiz sizni taajjublantirdimi? Yovvoyi odamlar qayerda ham yo‘q deysiz!.. Xo‘sh, siz yovvoyi deb atayotgan bu odamlarning boshqalardan nima-si yomon?

– Ammo, kapitan...

– Menga kelganda shuni aytib qo‘ymoqchimanki, yovvoyi odamlarni hamma yerda ham uchratganman.

– Har holda, – deb javob berdim men, – siz bu to‘da «Nautilus»ga hujum qilmasin desangiz, ehtiyot choralarni ko‘rib qo‘yishingizni maslahat berardim.

– Tinchlaning, bundan tashvishlanmasangiz ham bo‘ladi.

– Biroq bu yovvoyi odamlar juda ko‘pchilik!

– Qancha?

– Yuzdan kam emas!

– Janob Aronaks, – dedi kapitan, yana barmoqlarini organ klavishlariga qo‘yar ekan, – sohilga Yangi Gvineyada yashovchi butun mahalliy aholi yig‘ilgan taqdirda ham «Nautilus» xavf-xatardan xoli qolaveradi.

Kapitanning barmoqlari musiqa asbobi klavishlari ustida o‘rmay boshladi. U faqat qora klavishlarni urayotgandi. Bu esa chalinayotgan kuyga minor ohangini berar edi. Ko‘p o‘tmay u mening shu yerdaligimni ham unutib, butun vujudi bilan musiqaga berilib ketdi. Men uning diqqatini qayta bo‘lishga jur‘at etolmay, sekin chiqib ketdim.

Palubaga chiqdim. Hamma yoqda tun hukmron edi. Kenglikning bu yerlarida oqshom tushmay, kun o‘z o‘rnini tunga beradi. Gveboroar oroli qorong‘ida

arang ko'rinar edi. Biroq sohilda yoqilgan juda ko'p gulxanlardan ko'tarilayotgan alanga yovvoyi odamlar ketishni, hatto xayollariga ham keltirmayotganliklaridan dalolat berar edi.

Men surunkasiga bir necha soat goh bu yerdagi odamlar haqida o'ylab, goh shu tropik tuning go'zalligiga maftun bo'lib palubada yolg'iz turar edim. Ammo endi hech nimadan xavfsiramadim, chunki kapitan Nemodagi ishonch menga ham yuqqan edi.

Ko'zim osmonning shimoliy qismidagi yulduzlarga tushganda, xayollar meni Fransiyaga yetaklar edi, chunki ular bir necha soatdan keyin mening Vatanim bilan diydor ko'rishadilar.

Oy yulduzlar yog'dusini o'chirib, tik ko'tarila boshladi. Yerning bu sodiq yo'ldoshi ikki kundan keyin dengiz suvini ko'tarib, «Nautilus»ni marjon o'rindig'idan qutqarish uchun xuddi shu yo'l bilan osmonda sayr etishi haqida o'yladim.

Yarim kechaga yaqin qorayib turgan suv sathi ham daraxtlar ostida orom olayotgan qirg'oq singari sokinligiga ishonch hosil etgach, kayutamga qaytdim va xotirjam uxladim.

Tun osoyishta o'tdi. Yovvoyi odamlar suvda yotgan bahaybat maxluqni ko'rishning o'zidayoq qo'rqib qolganga o'xshardilar. Ochiq qoldirilgan lyukdan ular bemaol «Nautilus» ichiga kirib kelishlari mumkin edi.

8-yanvar ertalab soat oltida men yana palubaga ko'tarildim. Tong tun ko'lankasini endigina quvayotgan edi.

Ko'p o'tmay parchalab tashlangan tuman ortidan orol ko'rindi: oldin qirg'oq, so'ngra esa daraxtlarning uchlari ham ko'zga tashlandi.

Mahalliy kishilar hamon sohilda, faqat ular

endi anchagina ko'payishib, besh-olti yuz kishiga yetibdi. Ulardan ayrimlari suv pasayganidan foydalanib, uchlari ko'rinib turgan qoyalar ustidan yurib «Nautilus»ga ikki kabeltdan ortiq kelmaydigan masofada yaqinlashib olishdi.

Men durbinsiz ham ularni aniq ko'rib turardim. Bular bo'ylari juda baland, qomatlari kelishgan, peshanalari do'ng, ammo burunlari puchuq emas, tishlari oppoq papuaslar edi; jingalak sochlari qizilga bo'yalganidan yaltiroq qora tanlaridan keskin ajralib turardi. Quloqlarining zirak taqiladigan yumshoq joyi ikkiga bo'linib, suyak baldoqning og'irligi pastga tortib turar edi.

Ko'pchilik erkaklar qip-yalang'och edilar. U yerda turgan bir necha ayollarning o'tdan to'qilgan va bellariga chirmovuq tasma bilan bog'langan yubkalari tizzalariga tushib turar edi. Ayrimlarining, yo'l boshchilari bo'lsa ajab emas, bo'yinlariga yarim halqa yoki oq va qizil shisha marjonlar taqilgandi.

Yovvoyi odamlarning hammasi o'q-yoy va qalqonlar bilan qurollangan edilar. Ko'plarining orqalarida ichiga tosh solingan to'r xalta osig'liq bo'lib, sopqon uchun mo'ljallangan bu toshlarni ular zo'r mahorat bilan otar edilar.

Yo'l boshchilaridan biri «Nautilus»ga yaqinroq kelib, uni diqqat bilan ko'zdan kechira boshladi. U mo'tabar zotlardan bo'lsa kerak, ustida banan yaprog'idan qilingan yopinchi'gi bor edi.

Menga juda yaqin turgan bu yovvoyi odamni osongina otib tashlashim mumkin edi, ammo, yaxshisi, uning o'zi yovuzlik niyatini oshkor etmaguncha sabr qilaman, degan qarorga keldim.

Suv pasayayotgan paytda yovvoyi odamlar «Nautilus» atrofida daydib yurishdi. Ammo ularda biron dushmanlik nishonasi ko'rinmadi.

Ularning «asse» degan soʻzni tez-tez qaytara-yotganlarini eshitdim va imo-ishoralariga qarab, meni sohilga daʼvat qilayotganlarini tushundim. Lekin bu taklifni rad qilishni afzal koʻrdim.

Oʻsha kuni qayiq, shubhasiz, «Nautilus» bor-tidan nari ketmadi. Bu esa koʻproq oziq-ovqat gʻamlab olish niyatida boʻlgan Ned Lendni qattiq gʻazablantirdi.

Vaqtни tezroq oʻtkazish uchun hamma ishga mohir kanadalik Gveboroar orolidan olib kelingan goʻsht va «non»dan konserva tayyorlashga kirishdi.

Ertalab soat oʻn birlarga yaqin, suv toʻlqinlari qoya uchlarini ham koʻma boshlagach, yovvoyi odamlar sohilga qaytdilar.

Sohilda olomon koʻpaya boshladi, aftidan «Nautilus»ning kelgani haqidagi xabar yaqin atrofdagi butun orollarga tarqalganga oʻxshardi va binobarin mahalliy aholi har tarafdin Gveboroar tomon oqib kelayotgan edi. Ammo birorta qayiq koʻrinmas edi.

Shundoqqina koʻrinib turgan, ammo borish mumkin boʻlmagan yer vaqti juda sekin oʻtar va binobarin oʻzimni biror ish bilan mashgʻul etish uchungina draga<sup>1</sup> bilan dengiz tubini qira boshladim. Tiniq suvda juda koʻp chigʻanoqlar, zoofitlar va dengiz oʻsimliklari aniq koʻrinib turar edi. Bu joylarning hayvonot va oʻsimlik dunyosi bilan tanishuvda fursatni boy berib boʻlmas edi. Chunki kapitan Nemo hisobdan adashmagan boʻlsa, Yangi Gvineyadan ketishimizga ikki kun qolgan edi. Konsel menga yengil draga olib keldi.

– Yovvoyi odamlar oʻzlarini qanday tutyaptilar? – soʻradi Konsel. – Xoʻjamning ruxsatlari bilan aytmoqchimanki, ular nazarimda jahldor odamlarga oʻxshamaydi.

---

<sup>1</sup> *Draga* – suvostini kovlaydigan asbob.

– Baribir ular odamxo‘r, do‘stim!

– Odamxo‘r albatta ablah bo‘lishi kerakmi? – e‘tiroz bildirdi Konsel. – Mazaxo‘rak bo‘lsa-da, ammo ayni vaqtda yaxshi odamligicha qolishi ham mumkin. Biri ikkinchisiga sira bog‘liq emas.

– Ha, mayli, Konsel, sen aytganicha bo‘la qolsin, – bular vijdonli odamxo‘rlar va ular o‘z asirlarini odob, axloqning barcha qoidalariga amal qilganlari holda yeydilar. Ammo meni vijdonli odamlar yeb qo‘yishlarini ham istamayman, shuning uchun men doim sergak turaman, chunki «Nautilus» kapitani hech qanday ehtiyot choralari ko‘rmayapti. Qani, endi ishga!

Ikki soat davomida biz jon-jahdimiz bilan draga tashladik, ammo biron durustroq narsa tutolmadik. Draga «Midas quloqlari» deb atashadigan chig‘anoqlar, arfalar, bolg‘achalarning bundan oldin menga sira uchramagan eng chiroyli nusxalari bilan to‘lib chiqardi. Shuningdek, biz bir necha goloturiylar, marvarid chig‘anoqlar va o‘n ikkitacha kichik toshbaqalar (buni biz oshxonaga topshirishga qaror qildik) tutib oldik. Xuddi ana shu vaqtda, kutilmaganda, mo‘jiza ko‘rdim. Juda kamdan kam uchraydigan xunuk narsa desa o‘rinliroq bo‘lur edi. Endigina draga tashlagan Konsel uni o‘sha zahoti ichi to‘la chig‘anoqlar bilan ko‘tarib oldi. Mening dragani tortib olib, uning ichidan bitta chig‘anoqni ushlab, insonga xos bo‘lmagan ovozda konxiologga o‘xshab qichqirib yuborganimdan u juda hayratda qoldi.

– Xo‘jamga bir nima bo‘ldimi? – taajjublelanib so‘radi Konsel. – Biron narsa chaqib oldimi xo‘jamni?

– Yo‘q, do‘stim, ammo men bu topilma uchun barmog‘imni ham jon deb berardim!

– Qanaqa topilma?

– Mana shu chig‘anoqqa! – ko‘tarinki ruhda dedim men.

– Axir bu eng oddiy zaytun turkumidagi taroqsimon jabralilar guruhi, qorinoyoqlilar sinfi, molluskalar tipidagi jimjimador zaytun-ku...

– Juda to‘g‘ri, Konsel, ammo bu chig‘anoq o‘ngdan chapga buralish o‘rniga chapdan o‘ngga buralyapti!

– Nahotki? – qichqirdi Konsel.

– Ha, azizim. Bu chapaqay chig‘anoq!

– Chapaqay chig‘anoq? – qaytarib so‘radi Konsel qaltiroq ovozda.

– Uning buralishini qara.

– Men hech qachon bu qadar hayajonlanmaganimga xo‘jam ishonarmikinlar, – dedi Konsel chig‘anoqni ixlos bilan qo‘liga olar ekan.

Chindan ham hayajonlanish o‘rinli edi. Hamмага ma‘lumki, tabiatda harakat ko‘pincha o‘ngdan chapga bo‘ladi. Yulduzlar va ularning yo‘ldoshlari o‘ngdan chapga harakat qiladi. Odamning chap qo‘liga nisbatan o‘ng qo‘li ko‘proq taraqqiy etgan, shuning uchun ham butun asbob-uskunalar, apparatlar, qulflarni o‘ngdan chapga qarab ishlatishga mo‘ljallab yasagan. Tabiat ham molluskalar buralishida shu qonunga, agar uni shunday deb atash joiz bo‘lsa, rioya qiladi; molluskalarning hammasi o‘ngdan chapga buraladi. Juda kamdan kam uchraydigan chapaqay chig‘anoqlarga uning ishqibozlari qancha so‘rasang berishadi.

Konsel bilan men topib olgan bebaho boyligimizni ko‘zdan kechirish bilan mashg‘ul edik. Men hatto uni Parijdagi tabiiyot tarixi muzeyiga qanday in‘om etish haqida xayol ham sura boshlagan edim, to‘satdan yovvoyi odam otgan tosh Konselning qo‘lidagi bu bebaho narsani sindirib yubordi.

Men jon-jahdim bilan qichqirib yubordim. Konsel darhol mening miltig'imni olib, o'n metr nari-dan turib sopqon otgan yovvoyi odamga o'qtaldi. Men Konselni to'xtatmoqchi edim, ammo ulgurol-madim. U tepkini bosdi va o'q yovvoyi odamning bilagidagi ko'zmunchoqdan qilingan bilaguzugini uzib yubordi.

– Konsel! – qichqirdim norozi ohangda. – Konsel!

– Nima? Axir bu odamxo'r bizga birinchi bo'lib hujum qilganini xo'jam ko'rmayaptilarmi?

– Hech qanday chig'anoq odam hayotidan aziz emas, Konsel!

– O'hh, ablah!.. U mening yelkamni urib sindirsa yaxshiroq bo'lardi! – xitob qildi Konsel. Konsel bu gapni juda astoydil aytganiga qaramay, o'zining haqligiga meni ishontirolmadi.

Biz chapaqay chig'anoqning chiroyiga mahliyo bo'lib turgan daqiqalarda ahvol o'zgaribdi. Mahalliy kishilarning yigirmadan ortiq qayig'i «Nautilus»ni o'rab oldi. Daraxt tanasidan o'yib ishlangan bu qayiqlar ensiz, uzun, tez suzishga moslashtirilgan bo'lib, borti yoniga o'rnatilgan ikki qavatli bambuk langar suvda muvozanatni saqlar edi.

Papuaslar ilgari ham yevropaliklar bilan uchrashganlari va kemalarini ko'rganliklari bilinib turar edi. Ammo machtasiz, mo'risiz, suvdan arang chiqib turgan bu temir sigara haqida nima deb o'ylashayotgan ekan ular? Har holda yaxshi fikrda emasdilar, chunki ancha vaqtgacha unga yaqinlasholmay turdilar. Ammo bizning tajovuz qilmayotganimizni ko'rgach, ular asta-sekin «Nautilus»ga o'rgandilar, biroz daddillashib, endi u bilan yaqindan tanishishga qaror qilgan edilar. Ammo xuddi ana shu yaqindan tanishuvga xalaqit berish zarur edi.

Bizning ovozsiz otiladigan multiqlarimizni momaqaldiroq singari ovoz chiqaradigan qurolga o'rgangan yovvoyi odamlar pisand ham qilmas edilar. Chaqmoq ham momaqaldirog'i bo'lmaganda odamlarni qo'rqitmas edi. Vaholanki, momaqaldiroq emas, balki chaqmoqning xavfliligi hammaga ayon.

Xuddi shu daqiqalarda bir necha qayiq «Nautilus» atrofiga kelib taqaldi va palubaga yoy o'qlari yog'ila boshladi.

– Ming la'nat, – xitob qildi Konsel. – Do'lday yog'ilyapti-ya. Balki zaharlangan hamdir...

– Kapitan Nemoni ogoh etish kerak, – dedim men lyuk tomon yurib. Salonga kirdim, ammo u yerda hech kim yo'q edi.

Shunda men kapitan Nemo turadigan xonaning eshigini taqillatib ko'rdim.

– Kiring, – degan ovoz eshitildi eshik ortidan.

Kapitan Nemo allaqanday murakkab hisob-kitob ustida bosh qotirib o'tirgan ekan: oldida yotgan bir to'da qog'ozga matematik belgilar chizilgan.

– Bezovta qildim shekilli? – odob yuzasidan so'radim.

– Ha, janob professor, – javob berdi kapitan, – ammo biron jiddiy ishingiz bo'lsa kerak, deb o'ylayman?

– Juda jiddiy. Bizni mahalliy kishilarning qayiq-lari o'rab olishdi va uzog'i bilan bir necha minutdan keyin yuzlab yovvoyi odamlar bizga hujum qilsa ham ajab emas.

– Aha, – dedi kapitan o'ta osoyishtalik bilan, – ular qayiq-larda kelishdimi?

– Ha, kapitan.

– Unday bo'lsa lyukni yopib qo'yishning o'zi kifoya.



– Men ham sizga xuddi shuni maslahat bermoqchi edim.

– Bundan ko‘ra osonroq narsa yo‘q, – deb javob berdi kapitan Nemo.

Shunday dedi-yu, elektr qo‘ng‘iroq tugmasini bosib, komanda kayutasiga tegishli buyruqni berdi.

– Mana bo‘ldi, – dedi u menga bir daqiqalik jimlikdan so‘ng. – Qayiq joyiga olib kirib qo‘yilib, lyuk yopildi. «Avraam Linkoln» zambaragidan otilgan o‘q ham ojizlik qilgan bortni yovvoyi odamlar sindirib kirishidan qo‘rqmasangiz kerak, deb o‘ylayman.

– Yo‘q, qo‘rqmayman. Ammo yana bir xavf bor, kapitan.

– Qanday xavf, professor?

– Ertaga xuddi shu vaqtda havoni yangilash uchun lyuklarni ochishga to‘g‘ri keladi.

– Juda to‘g‘ri, professor, lekin mening kemam ham kitlar singari nafas oladi.

– Ammo xuddi shu vaqt papuaslar palubada bo‘lsa-chi, siz ularning kemaga kirishlariga menimcha qarshilik ko‘rsata olmasangiz kerak...

– Demak, professor, siz ularning «Nautilus» boriga chiqishlariga ishonchingiz komil ekan-da?

– Xuddi shunday.

– Mayli, nima ham derdik... Ularga xalaqit berishga biror zarurat sezmayapman. Axir ular qashshoq, nobop yovvoyilar, xolos. Men esa «Nautilus»ning Gveboroar oroliga kelib ketishi ana shu bebaxt kishilardan loaqal birontasining o‘limiga sabab bo‘lishini istamayman.

Ta‘zim qilib ketmoqchi edim. Ammo kapitan Nemo meni to‘xtatib, yoniga o‘tirishga taklif etdi. U bizning orolga qilgan sayohatimiz, ov haqida qiziqib so‘ray boshladi va kanadalikning go‘shiga

shunchalik ilhaq bo'lganining sababini tushunmayotganday qilib ko'rsatdi o'zini.

Shundan keyin suhbat mavzusi o'zgardi. Kapitan Nemo dilkashlik qilmasa-da, har holda oldingilardan ko'ra ko'proq iltifot ko'rsatdi.

Darvoqe, Dyumon-Dyurvil kemalari halok bo'lishiga sal qolgan o'sha bo'g'ozga kelib sayozlikka tiqilgan «Nautilus»ning ahvoli haqida ham gapirildi.

Bu borada kapitan Nemo bunday dedi:

– Dyurvil eng buyuk dengizchilardan va Fransiya-dagi eng ma'rifatparvar kishilardan biri. Fransuz kapitani Kuk. Bechora olim! Janubiy qutb muzlari, Okeaniya marjonlari, Tinch okean orollaridagi odamxo'rlar bilan olisha-olisha, oxiri shahar atrofiga qatnovchi temiryo'l poyezdi halokatida o'lib ketsa-ya! Agar taqdir hayotining so'nggi daqiqalarida unga idrok etib ko'rish imkoniyatini berganda bu shijoatli odamning qanchalar aziyat chekishi mumkinligini tasavvur eta olasizmi?!

Kapitan Nemo bu so'zlarni aytayotganida ancha hayajonlanayotganday edi. Bu hayajonlanishni u o'zi uchun sharaf deb bilardi.

Biz buyuk fransuz dengizchisi suzgan barcha joylarni, uning yer yuzi bo'ylab qilgan sayohatini, ikki marta Shimoliy qutbni ochishga intilgani, lekin bularning muvaffaqiyatsizlik bilan tugaganini, shunday bo'lsa-da, bu Adel va Lui-Filipp yerlarini ochishga olib kelganini kartada ko'zdan kechirdik.

Nihoyat, biz Tinch okeandagi eng muhim orollar atrofida gidrografik tadqiqotlar olib borganini xotirladik.

– Dyurvil okean sathida qilgan ishlarni men uning qa'rida olib boryapman; ammo mening tadqiqotlarim to'laroq va aniqroq bo'lib, ancha kam

mehnat va kuch talab qiladi. Dyumon-Dyurvilning hamisha boʻron va dovullar silkitib turgan «Astrolyabiya» va «Intilish» kemalarini haqiqiy suvosti uyi, osoyishta kabinetlarida ishlashga hech nima xalaqit bermaydigan «Nautilus» bilan tenglashtirib boʻlmaydi, albatta.

– Ammo, kapitan, bir jihatdan «Nautilus»ning taqdiri ham «Astrolyabiya» va «Intilish»nikiga oʻxshaydi, – dedim men.

– Qaysi jihatdan, janob professor?

– Shu jihatdanki, «Nautilus» ham xuddi oʻsha kemalar kelib toʻxtagan joyda sayozlikka tiqilib qoldi.

– «Nautilus» sayozlikka tiqilib qolgani yoʻq, – dedi sovuqqina qilib kapitan Nemo. – «Nautilus» sayozlikda yotib, dam olyapti va men Dyumon-Dyurvil kemalarini suvga tushirish uchun chekkan azoblardan xoliman. «Astrolyabiya» va «Intilish»ning halokatiga oz qolgan edi, lekin «Nautilus» hech qanday xavf-xatarga duch kelmaydi. Ertaga oʻzim belgilagan kun va soatda suv oqimi uni sekin koʻtarib qoʻyadi hamda u yana yoʻliga ravona boʻladi.

– Kapitan, – deb soʻz boshladim men, – hech shubham yoʻqki...

– Ertaga, – deya soʻzimni boʻldi kapitan Nemo stuldan turar ekan, – kunduz soat ikki-yu qirqda «Nautilus» sayozlikdan koʻtariladi va Torres boʻgʻozidan beshikast chiqib ketadi!

Kapitan Nemo bu soʻzlarni dona-dona qilib aytdi-da, gavdasini xiyol egib, taʻzim qildi. Bu bilan u gapim tamom degan maʼnoni anglatmoqchi edi. Ketishdan boʻlak ilojim qolmadi.

Xonamga qaytib kelib, u yerda Konselni uchratdim. Uni kapitan bilan boʻlgan suhbatimning natijasi qiziqtirayotgan edi.

– Do‘stim, – dedim unga. – «Nautilus»ga mahalliy kishilar tahdid qilishyapti desam, kapitan bu gaplarimga kuldi. Kapitan Nemoga esa ishonish mumkin. Bemalol uxlayver!

– Xo‘jamning menda ishlari yo‘qmi hozir?

– Yo‘q, rahmat, do‘stim. Ned Lend nima qil-yapti?

– Xo‘jamning ruxsatlari bilan aytishim mumkin. Hozir Ned Lend kenguru go‘sh tidan shunaqa qiyma tayyorlayaptiki, yemagan armonda qoladi!

Xonada yolg‘iz qolgach, o‘rnimga kirib cho‘zildim, ammo yaxshi uxlay olmadim.

Boshim ustida – temir qoplangan palubada yurgan yovvoyi odamlarning oyoq dupurlari va ularning qichqiriqlari eshitilib turar edi.

Tun osoyishta o‘tdi. «Nautilus» komandasi, odatdagiday ko‘rinmas, ovozi ham chiqmas edi. Go‘yo yovvoyi odamlarning palubada bo‘lishi ularni chumolilar galasi chopib yurishganchalik ham tashvishlantirmas edi.

Men ertalab soat oltida turdim. Lyuklar hali ochilmagan edi. Demak, havo kechadan buyon yangilangani yo‘q. Sirasini aytganda, bu unchalik sezilmas ham edi. Chunki rezervuarlar o‘z vaqtida suvosti kemasining siyraklashgan atmosferasidagi kislorod o‘rnini to‘latib turardi.

Men peshingacha kayutamda ishlab o‘tirdim, kapitan Nemoni hatto uzoqdan ham ko‘r madim. Kema bortida jo‘nab ketishga hozirlik ko‘rishning nishonasi ham sezilmas edi.

Men ancha vaqtgacha kutib o‘tirdim, so‘ngra salonga o‘tdim. Soat ikki yarimni ko‘rsatar edi. Yana o‘n minutdan so‘ng suv ko‘tarilishi o‘zining yuqori nuqtasiga yetishi va agar kapitan Nemo hisobda adashmagan bo‘lsa, «Nautilus» dengiz sathiga

chiqishi kerak edi. Aks holda, u o'zining marjon o'rnida yana bir necha oy qolib ketishi turgan gap.

Ko'p o'tmay kema korpusi qimirlay boshladi. Kema qoplamasi g'adir-budur marjonlarga tegib g'ijirlaganini eshitib qoldim.

Soat ikkidan o'ttiz besh minut o'tganda kapitan Nemo salonga kirib keldi.

– Hozir jo'nab ketamiz, – dedi u.

– Aha, – deya po'ng'illadim men.

– Lyuklarni ochishga buyruq berdim.

– Papuaslar-chi?

– Papuaslar deysizmi? – kapitan Nemo yelkasini qisdi.

– Axir ular «Nautilus»ning ichiga kirib olishlari mumkin.

– Qanday qilib?

– Siz ochishga buyruq bergan lyuk orqali.

– Janob Aronaks, – bamaylixotir javob qaytardi kapitan Nemo, – «Nautilus» lyuki orqali, hatto u ochiq bo'lgan taqdirda ham hamisha kirib bo'la-vermaydi. Men kapitanga tikilib qoldim.

– Tushunmayapsiz shekilli? – so'radi u.

– Yo'q.

– Unday bo'lsa men bilan yuring. Hozir ko'rasiz.

Biz lyukka olib chiqadigan zinapoya oldiga kelib to'xtadik. U yerda Ned Lend bilan Konsel bir necha matroslarning lyukni ochayotganini zo'r qiziqish bilan tomosha qilib turishar edi. Palubadan dahshatli qichqiriq va faryodlar eshitalardi.

Lyuk tavaqalari ikki yoqqa ochildi. Shu zahoti tuynukda yigirmata g'azablangan bashara namoyon bo'ldi.

Ammo trap panjarasiga birinchi bo'lib qo'lini qo'ygan yovvoyi odamni allaqanday noma'lum kuch

itqitib tashladi. U sakrab tushdi va faryod chekkanicha qochdi.

Uning o'nta o'rtog'i ham trapga tegib, shu holga tushdilar.

Konsel hayajonini yashira olmas edi.

Hamisha jangovarligi bilan ajralib turadigan Ned Lend qochayotgan yovni quvmoqchi bo'lib, qo'li bilan panjarani ushlab ulgurmay, u ham orqaga itqitib tashlandi.

– Ming la'nat-e! – shang'illadi u. – Meni chaqmoq urdi!

Bu so'zlardan so'ng menga masala ayon bo'ldi.

Trap panjarasiga yuqori kuchlanishli tok o'tkazilgan edi. Unga kim tegsa, zo'r kuch bilan itqitib tashlanar edi. Agar kapitan Nemo panjaraga o'zining butun batareyalaridan tok yuborguday bo'lsa u tekkan odamni o'ldirishi hech gapmas. Ammo u hujum qilayotganlar bilan kema orasiga o'lim keltiradigan emas, o'tkazmaydigan to'siq qo'yish bilan chegaralangan edi.

Shu orada o'lguday qo'rqqan papuaslar shoshapisha chekina boshladilar. Biz o'zimizni kulgidan arang tiyib, telbalarcha bo'ralab so'kinayotgan Ned Lendni tinchlantirar edik.

Xuddi shu daqiqada «Nautilus» oqim to'lqini bilan sayozlikdan ko'tarildi. Soat roppa-rosa ikkiyu qirq. Bu – kapitan Nemo belgilagan vaqt.

Kema parragi suvni juda sekin ura boshladi. Biroq aylanishi borgan sari ortib, shikastlanmay suv sathiga but-butun ko'tarilgan «Nautilus» Torres bo'g'ozining xavfli suvidan chiqib ketdi.

## *Yigirma uchinchi bob*

### YANA QAMOQXONADA

Ertasi kuni, 10-yanvarda, «Nautilus» yana ochiq okeanda suzib borardi. Ammo bu gal u juda katta tezlik bilan – soatiga kamida o‘ttiz besh milyadan suzar edi. Parrak shunchalik tez harakat qilar edi-ki, bir minutda necha marta aylanayotganini sanamoqchi edim, ko‘zim ilg‘ab ololmadi.

Bu mo‘jizakor kuch elektr quvvati ekanligini va u «Nautilus»ni harakatga keltiribgina qolmay, ham yoritishi, ham isitishi, ham tashqi muhitdan himoya etib, hech kim yaqin kelolmaydigan chaqmoq to‘siq qo‘ya olishini eslaganimda, bularning bariga qoyil qolar edim. Bularning ijodkoridan yanada ko‘proq hayratlanardim.

Biz to‘ppa-to‘g‘ri g‘arbgaga suzar edik. 11-yanvarda uzunlikning 135-gradusida va shimoliy kenglikning 10-gradusida joylashgan hamda Karpentariya qo‘ltig‘iga kirishdan ihota qilib turgan Vesel burunidan o‘tdik. Bu yerda suvosti qoyalari juda ko‘p bo‘lsa-da, ammo ular bir-biridan ancha uzoq masofada va kartada ham juda aniq ko‘rsatilgan edi.

«Nautilus» yo‘limiz ustidagi uzunlikning 130-gradusi o‘ninchi parallelida chapdan Mone qoyalari va o‘ngdan Viktoriya cho‘qqilari oralig‘idan osongina o‘tib ketdi.

O‘ni uchinchi yanvarda biz uzunlikning 122-gradusida joylashgan Timor dengizi va shu nomdagi orol suvlariga kirdik. Bir ming olti yuz yigirma besh kvadrat lyo maydonni ishg‘ol etgan bu orol bir necha rojalar<sup>1</sup> tomonidan boshqarilar edi. Orol

---

<sup>1</sup> Roja – Hindistonda feodal knyazlar va yerli hokimlarning unvoni.

hukmronlari o'zlarini timsoh farzandlari deb ataydilar, ya'ni ular o'zlarini yer yuzidagi tug'ma oliyjanob mavjudotlar deb hisoblar edilar. Rojalarning yirtqich «ajdodlari» orol daryolarida juda ko'p va ular monarxlar bilan chatishib ketganliklari uchun aholining izzat-hurmatiga sazovor edilar. Ularga mehribonlik, xushomadgo'ylik qilishadi, yemishiga yosh qizlarni in'om etishadi. Bironta musofir bu muqaddas sudraluvchiga qo'l ko'targuday bo'lsa, sho'ri qurir edi.

Ammo bu g'oyat qabih jirkanchliklar bilan «Nautilus»ning mutlaqo ishi yo'q edi. Biz Timor orolini tush paytida, kapitan yordamchisi navbatdagi kuzatuv olib borayotganda bir necha daqiqagina ko'rdik. Shu gruppaga kiruvchi kichkinagina Rotti orolini ham xuddi shunday bir nafasgina ko'ra oldim; bu orolning ayollari go'zalliklari bilan mashhur va ular Melaneziya qul bozorlarida yuqori baholanar edilar.

Bu yerdan «Nautilus» janubi g'arbga, Hind okeani tomon burilib ketdi.

Kapitan Nemoning injiqligi bizni qayoqqa boshlab borishini bilmas edik. Balki Osiyo qirg'oqlarigadir? Ehtimol, Yevropa qit'asigadir?

Kapitan Nemoning aholi yashaydigan yerga doimiy nafrati tufayli bu taxminlarning qay biri haqiqatga yaqinligini bilish g'oyat qiyin masala edi.

Demak, biz yana janubroq surilar ekanmiz-da? Balki «Nautilus» Yaxshi Umid va Gorn burunlarini aylanib o'tib janubiy qutbgacha suzib borar? Suvosti kemasi keng quloch yoyishi mumkin bo'lgan Tinch okean suvlariga qaysi yo'l bilan qaytar ekanmiz?

Bu savollarga kelajakka javob berishi mumkin edi.



Biz yovuz stixiya hukmronligiga o'tib, uzoqqa uloqtirilgan qattiq yerning so'nggi istehkomlari Karte, Giberni, Seringapatam va Skott suvosti qoyalari yonidan o'tib, 14-yanvarda quruqlikdan uzoqdagi ochiq dengizga chiqib oldik. «Nautilus» sekin, bir maromda suza boshladi. Injiq va beqaror kema goh faqat katta chuqurliklarda suzar, goho esa uzoq muddat okean sathini tark etmas edi.

Suzayotganimizda kapitan Nemo turli chuqurliklarda dengiz suvining haroratini tekshirish yuzasidan juda qiziq kuzatuvlar olib bordi. Odatdagi sharoitda bu kuzatishlar ancha murakkab asboblar yordamida: metallar o'tkazuvchanligidagi tafovutga asoslangan termometrik zondlar yoki apparatlarda olib boriladi. Ammo bu asboblarga hamisha ishonib bo'lavermaydi, ayniqsa katta chuqurliklarda suv bosimiga ko'pincha oynasi bardosh berolmaydigan termometr zondlarga ishonish qiyin edi. Buning ustiga olingan ma'lumotlarni tekshirib ko'rish ham qiyin, chunki qayta tajriba o'tkazish juda katta qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'ladi.

Kapitan Nemo esa istagan chuqurliklarga tushaveradi va suvning turli qatlamlarida termometr o'sha zahotiyiq juda aniq hamda ishonchli raqamlarni ko'rsatardi.

Shunday qilib, kapitan Nemo goh suv to'latilgan rezervuarlar yordamida, goh chuqurlikka olib tushadigan rullar vositasida okean sathidan asta-sekin uch, to'rt, besh, yetti, to'qqiz va o'n ming metr chuqurlikka tushib, barcha kengliklarda ming metrdan pastda suv harorati hamisha Selsiyning to'rt yarim gradusiga teng bo'ladi, degan qat'iy xulosaga keldi.

Men bu tadqiqotlarni zo'r qiziqish bilan kuza-tib bordim. Ko'pincha o'z-o'zimdand: bu ilmiy tad-

qiqotlar kapitan Nemoga nimaga kerak ekan? – deb so‘rar edim. Nahotki, u insoniyat manfaatini o‘ylayotgan bo‘lsa?

Bu haqiqatga to‘g‘ri kelmas edi – axir uning barcha ishlari o‘zi bilan birga oqibat pirovardida allaqaysi uzoq dengiz tubidan makon tutishi kerak.

Ehtimol, u o‘z ilmiy ishlarini men orqali jahonga taqdim etishga qaror qilgandir? Demak, unda ertami, kechmi u menga o‘zining suvosti kemasi-ni tark etib quruqlikka, odamlar orasiga borishimga ruxsat beradimi?

Afsuski, hozircha bunga umid bog‘laydigan hech qanday asos yo‘q edi...

Shunga qaramay, bir kuni kapitan Nemo o‘zi-ning yer kurrasidagi eng muhim dengizlarda suv zichligi yuzasidan olib borgan tadqiqotlarining natijasi haqida gapirib qoldi. Sirasini aytganda, juda katta ilmiy ahamiyatga molik bo‘lgan uning ma‘lumotlaridan, yo‘l-yo‘lakay men fanga sira aloqasi bo‘lmagan, ammo shaxsan o‘zim uchun muhim bir xulosa chiqarib oldim.

Bu 15-yanvarda ertalab sodir bo‘ldi. Men kapitan Nemo bilan «Nautilus» palubasida sayr qilib yurganimda, u mendan to‘satdan, dengiz suvi zichligi hamma yerda bir xil emasligini bilasizmi, deb so‘rab qoldi. Men, yo‘q, deb javob berdim va fan bu haqda aniq ma‘lumotlarga ega emasligini qo‘shib qo‘ydim.

– Bu tadqiqotni o‘zim olib bordim, – dedi menga kapitan Nemo, – ayni vaqtda uning aniqligiga kafo-latni ham bera olaman.

– Bu juda soz, – deb javob berdim men, – ammo «Nautilus» – bu o‘zicha bir olam va binobarin undagi olimlarning kashfiyoti yer kurrasidagi aholiga hech qachon yetib bormaydi.

– Siz haqsiz, professor, – dedi kapitan Nemo

biroz o'ylanib olgach.– «Nautilus» chindan ham o'zicha bir olam. U ham quyosh atrofida aylana-yotgan sayyoralar singari yerdan uzoqda. Yerdan Saturn yoki Yupiter olimlari olib borayotgan ishdan xabarsiz qolayotganlari singari «Nautilus» olimlari ishlarining ham xuddi shunday noma'lumligicha qolaveradi. Biroq sizga, taqdiri tasodifan «Nautilus» taqdiri bilan bog'lanib qolgan kishiga, o'z kuzatuvlarining natijasini aytib bera olaman.

– Diqqat bilan eshityapman, kapitan.

– Sizga, janob professor, dengiz suvining zichligi chuchuk suvga nisbatan ortiqdigi ma'lum albatta, shundaymi? Ammo ana shu zichlik hamma yerdan bir xil emas. Aslida agar chuchuk suv zichligini birlik deb qabul etilsa, unda Atlantik okean suvining zichligi bir butun mingdan yigirma sakkizni, Tinch okeanniki bir butun mingdan yigirma oltini tashkil etadi; O'rtayer dengizida suvning zichligi ham shuncha...

«Ha-a, – o'yladim men, – demak, u O'rtayer dengizida ham bo'lib turar ekan!»

– ... Bir butun mingdan o'ttiz bir, Ion dengizida bir butun mingdan o'n sakkiz va Adriatika dengizining suvida bir butun mingdan yigirma to'qqiz.

Masala ayon, demak, «Nautilus» yer kurrasidagi eng gavjum dengizlarda ham bo'lgan. Bu gaplardan so'ng men shunday xulosaga keldim: vaqti kelib, balki yaqin orada, u ancha madaniylashgan mamlakatlarga ham yaqinlashuvi mumkin.

Bu yangilik Ned Lendni xursand qilsa kerak.

Keyingi kunlarda biz birgalikda bir necha tadqiqotlar o'tkazdik: turli chuqurliklardagi suv tarkibida qancha tuz borligini, suvning tok o'tkazish darajasini, rangi va tiniqligini aniqlash va hokazolar. Birga o'tkazilgan shu vaqt ichida kapitan

Nemoning o'ta ixtirochiligi meni hayratga soldi. Uning ixtirochiligi bilan menga nisbatan juda uzoqni ko'rib ish tutishigina raqobat qila olar edi. Biroq bu tajribalar tugagach, u yana g'oyib bo'ldi va men ilgarigiday suvosti kemasi bortida yolg'iz qoldim.

O'n oltinchi yanvarda «Nautilus» dengiz sathidan bir necha metr pastda uxlab qolganday edi. Elektr mashinalari yurishdan to'xtadi va harakatsiz qolgan vint kemani oqimga tashlab qo'ydi.

Menimcha, mashinalar uzoq vaqt juda katta tezlikda suzishi oqibatida yetgan zararni bartaraf etish uchun joriy remontga to'xtatilgan bo'lsa kerak.

Shu kuni men va o'rtoqlarim g'alati bir voqea-ning shohidi bo'ldik. Salon derazalaridagi to'siq ochilgan bo'lsa-da, «Nautilus» projektori ishlamayotgani, ko'kni esa qora bulutlar qoplaganidan suvning ostki qatlamlari yetarli yoritilmagan va atrofmizda nim qorong'ilik hukmron edi.

Men g'alati ko'rinayotgan dengizni kuzatayotganimda, «Nautilus» to'satdan yorqin yog'du taralayotgan joyga kelib qoldi. Oldiniga men elektr projektor ishlay boshlab, suv qatlamlarini yoritdi, deb o'yladim. Biroq sinchiklab qarasam bu taxmin xato ekan.

Oqim «Nautilus»ni fosforli shu'lalanuvchi suv qatlamiga olib kelgan bo'lib, atrofdagi qorong'ilikda bu yog'du ko'zni qamashtiradigan darajada yorqin ko'rinayotgan edi. Yorug'lik taratadigan, ko'zga ko'rinmas son-sanoqsiz jonivorlardan chiqayotgan bu nurlar suvosti kemasining metall korpusida sinib, yanada yorqinroq ko'rinardi. Yarqirab turgan dengizda birdan qizdirilgan pechdagi eriyotgan qo'rg'oshin oqimiga o'xshash yog'du taralib ketdi; bu yog'du oldida fosforli qatlamning ba'zi yerlari qorong'iday bo'lib tuyulardi. Yo'q, bu

yog'du bizning bir xilda nur taratadigan projektorimizga sira o'xshamas edi. Unda kuch va harakat sezilib turardi. Bu yog'duning tirik mavjudot ekanligi daf'atan ko'zga tashlanar edi.

Bir necha soat «Nautilus» ana shu shu'lalanib turgan suvda suzdi. Salamandralar<sup>1</sup> singari ulkan dengiz jonivorlarining shu yog'du ichida yurganini ko'rganimizda yanada ko'proq hayratlandik. Bu sovuq yog'duda charchoq bilmas akrobat – delfinlar, uzunligi uch metrli va nayzalari necha marta lab salon oynasiga tegayotgan nayzashoxlar cho'milishar edi. Shundan so'ng spinoroglar, makrel va yuzlab boshqa xil mayda baliqlar ko'rindi.

Bu manzaraning allaqanday g'alati bir maf-tunkor kuchi bor edi. Ehtimol, atmosfera sharoiti bu yorug'likni kuchaytirayotgandir? Balki dengiz sathida momaqaldiroq bo'layotgandir? Biroq «Nautilus» suzayotgan bir necha metr chuqurlikda havoning aynigani bilinmas va biz sokin suvda bir maromda tebranardik.

Shunday qilib, bizlar yangidan yangi mo'jizalar oralab sekin suzib borardik. Konsel ko'zini to'rt qilib, zoofitlar, bo'g'inoyoqlilar, molluskalar va baliqlarni tinmay tasniflayotgan edi.

Kunlar juda tez o'tayotganidan men ularni hisoblamay ham qo'ydim. Ned Lend o'z odaticha, dasturxonimizning xilma-xil bo'lishi payida edi.

Biz shilliq qurt singari chig'anog'imizni sira tark etmas edik. Shilliq qurtga aylanib qolish hech gap emasligini o'z tajribamda sinab ko'rdim.

Biz shu tarzda hayot kechirishga o'rganib qoldik, bu ancha oson va betashvish edi va binobarin yer

---

<sup>1</sup> *Salamandra* – ham suvda, ham quruqlikda yashaydigan kaltakesaksimon jonivor.

kurrasida hayot mutlaqo boshqacha ekanligini ta-moman unutib yubordik.

Ammo to'satdan sodir bo'lgan bir voqea bizni haqiqiy ahvolni idrok etishga qaytardi.

O'n sakkizinchi yanvarda «Nautilus» uzunlik-ning 105-gradusida va janubiy kenglikning 15-gradusida borar edi. Havo momaqaldiroqli, dengiz-da baland to'lqinlar sayr etar edi. Sharqdan shamol dovul singari kuch bilan esmoqda edi. Bir necha kun surunkasiga tushib ketgan barometr endilikda bo'ron yaqinlashayotganini ko'rsatib turardi.

Men kapitan yordamchisi kuzatuv olib borayot-gan paytda palubaga chiqdim. U odatdagiday o'sha so'zlarni qaytaradi, deb o'ylab turgan edim. Ammo o'sha kuni u oldingiga o'xshamagan, ammo xud-di ilgarigiday tushunib bo'lmaydigan boshqa so'z-larni aytdi. Shundan so'ng o'sha zahotiyuq palu-baga kapitan Nemo chiqdi va durbinni ko'ziga tutib, ufqqa nazar tashladi.

Kapitan Nemo durbinni ufqdagi bir nuqtaga qa-dab, bir necha minut davomida qimirlamay turdi. Shundan so'ng durbinni tushirib, yordamchisi bilan tushunilmaydigan tilda bir necha og'iz gaplashib oldi.

So'nggi so'zlari kapitan yordamchisining nima-dandir hayajonlanayotganini, o'zini arang bosib turganini ko'rsatar edi. Kapitan Nemo o'zini ancha vazmin tutib, o'ziga xos sovuqqonlikni saqlayot-gan edi. Nazarimda, kapitan yordamchisiga tanbeh berganday bo'ldi, u esa bunga javoban bir nima deb ishontirdi yoki va'da qildi.

Har holda ularning gap ohangi menda shunday taassurot qoldirdi.

Men ufqning hozirgina kapitan Nemo va uning yordamchisi durbindan qaragan yeriga juda diq-

qat bilan tikildim-u, ammo hech narsa ko'rinmadi. Uzoqdan suv bilan osmon qo'shilib ketib bir chiziq hosil etganday va bu to'g'ri chiziqni hech narsa to'smayotgan edi.

Shu orada kapitan Nemo yon-beriga qaramay, palubaning u boshidan bu boshiga yurar edi, ehtimol meni ko'rmagan hamdir. U ilgorigiday shoshilmay odimlar, ammo odatdagidan biroz boshqacharoq.

Ahyon-ahyonda u to'xtab, qo'lini ko'kragi ustida chambarak qilib dengizga tikilar edi.

Ulkan suv sahrosining nimasiga qararkin? «Nautilus» bilan eng yaqin yerning oralig'idagi masofa bir necha o'n milya edi.

Kapitan yordamchisi durbinni yana ko'ziga olib bordi. So'ng palubada o'zini u yoqdan bu yoqqa urib chopa boshladi, ba'zan to'satdan to'xtab qolib, tepinib, yani yugurishda davom etar edi. Endi u hayajonini yashirishga ham intilmas edi.

Har holda bu sir tez orada oydinlashuvi kerak edi, chunki kapitan Nemoning buyrug'iga binoan mashinalar bor kuchi bilan ishlay boshladi.

Shu daqiqada yordamchi yana o'z boshlig'ini chaqirib qoldi. U yurishdan to'xtab, durbinni ko'rsatilgan nuqtaga qaratdi. U uzoq muddat durbinni ko'zidan uzmay turdi. Hamisha vazmin bu odamlarning ana shu g'alati qiliqlaridan taajjublanib, salonga tushdim va doim foydalanayotgan ajoyib durbinimni olib chiqdim. Ufqqa qarash uchun durbinni ko'zimga olib bordim. Biroq durbinni kerakli tomonga qaratganimcha ham yo'q ediki, uni qo'limdan tortib olishdi.

Shartta qayrilib qaradim. Qarshimda kapitan Nemo turar edi. Ammo men uni taniy olmay qol-dim. Rangi quv o'chgan edi. Ko'zlari ma'yus

chaqnar edi. Og'zi xiyol ochilib, tishlari ko'rindi. Uning tortishib turgan gavdasi, musht qilib tugilgan qo'llari, yelkasining ichiga tortilgan boshi butun vujudini qattiq qahr va g'azab qamrab olganini ifodalar edi.

U qotib turardi. Qo'limdan tortib olgan durbini palubada yotar edi.

Nahotki shu qadar jahlini chiqargan bo'lsam? Balki bu g'alati odam «Nautilus»ning bandisiga man etilgan biron sirni bilib oldi deb o'ylayotgandir?

Biroq uning jahli chiqqaniga men sababchi emas edim. U hatto menga qaramasdi. Nigohi ufqdagi o'sha ko'rinmas nuqtaga qadalgan edi.

Ammo kapitan Nemo o'z tuyg'ularini yana jilovlab oldi. Uning g'azabdan o'zgargan yuzi yana odatdagi sovuq osoyishta holatiga qaytdi. U yordamchisiga bir necha tushunilmaydigan so'zlarni aytdi, shundan so'ng menga yuzlandi.

– Janob Aronaks, – dedi u hokimona ohangda, – men sizdan shartnomamiz shartlaridan birini bajarishingizni talab etmoqchiman.

– Qaysi shartini, kapitan?

– Siz va sheriklaringiz o'zim ozod qilguncha bandda turishlaringiz kerak.

– Buyrug'ingizga itoat etishga majburman, – deb javob qaytardim men unga qattiq tikilib turib, – ammo bir narsani so'rashga ruxsat bersangiz.

– Yo'q, ruxsat bermayman!

Bahslashib o'tirish befoyda, chunki menda unga qarshilik ko'rsatadigan darajada qudrat yo'q edi.

Bo'ysunishga to'g'ri keldi.

Men Ned Lend va Konsel turadigan kayutaga tushib, ularga kapitanning buyrug'ini yetkazdim.

Mening bu haqdagi gapim kanadalikka qancha-



lik ta'sir qilganini tasavvur etish kitobxonga havola. Sirasini aytganda, uzoq gapirib o'tirishga bizda vaqt ham qolmagan edi. Eshik oldida kutib turgan to'rt matros bizni «Nautilus»ga tushgan birinchi kunimizda qamab qo'yishgan o'sha kayutaga boshlab borishdi.

Ned Lend endi qarshilik ko'rsatmoqchi bo'lib turganida, burni oldida eshik taraqq etib yopildi.

– Bu nima qilganlari, xo'jam aytolmaydilar mi? – deb so'radi Konsel.

Men o'rtoqlarimga palubada bo'lib o'tgan voqealarni batafsil gapirib berdim. Ular mendan ham ko'proq taajjublanishdi, ammo bundan bizni qamrab olayotgan sir ayon bo'lgani yo'q.

Men chuqur o'ygaga toldim. Kapitan Nemoning juda g'alati aft-angori ko'z oldimdan sira nari ketmas edi. Turli-tuman bema'ni o'y va taxminlardan boshim qotib, hech narsani idrok etolmaydigan darajaga yetganimda, to'satdan Ned Lendning ovozi meni o'zimga keltirdi:

– Buni qarang, stol ustida nonushta!

Darhaqiqat, stol ustida idish-tovoqlar turar edi. Kapitan Nemo «Nautilus»ning tezligini oshirish to'g'risida buyruq berganda, birato'la nonushtani ham aytganga o'xshaydi.

– Xo'jam bir maslahat berishimga ruxsat beradilar mi?

– Bo'lmasa-chi, do'stim, – javob berdim men.

– Unday bo'lsa, nonushta qilib olishingizni maslahat berar edim. Ehtiyot shart. Axir, nima bo'lishini bilmaymiz-ku.

– To'g'ri aytasan, Konsel.

– Afsuski, – deya xo'rsindi Ned Lend, – bizga faqat baliqdan tayyorlangan taomlar berishibdi, o'zimiz g'amlagan narsalardan esa hech vaqo yo'q...

– Bizga hech qanaqa nonushta bermaganlarida nima deya olardingiz, Ned? Bu o‘rinli gap kanadalikni shu zahotiy oq tiyib qo‘ydi. Stol atrofiga o‘rnashib oldik. Nonushta vaqtida hamma jim o‘tirdi.

Men ozginagina yedim. Konsel o‘sha «ehtiyot shart» uchun o‘zini ko‘proq taom yeb olishga majbur etardi, Ned Lend esa noroziligiga qaramay, biror burda ozuqaning ham nobud bo‘lishiga yo‘l qo‘ymadi.

Nonushtadan so‘ng har birimiz o‘z burchagimizga o‘tirib oldik.

Xuddi shu vaqt kameramizni yoritib turgan yarim shar o‘chdi va biz zim-ziyo qorong‘ilikda qoldik. Ned Lend fursatni boy bermay xurрак torta boshladi. Ko‘p o‘tmay Konsel ham uyquga ketgani meni taajjublantirdi. Meni ham chidab bo‘lmas darajada uyqu bosayotganini his etgach, do‘stlarimning to‘satdan uyquga ketishi sababini o‘z-o‘zimdanda so‘ray boshladim.

Men ko‘zlarimni ochiq tutishga qanchalik urinmay, qovoqlarim og‘irlashgach, beixtiyor yumilib qoldi. Meni mudroq qiynay boshladi. Bizga berilgan taomlarga uyqu keltiradigan moddalar qo‘shilganga o‘xshardi.

Demak, kapitan Nemoga o‘z harakatlarini yashirish uchun bizni zim-ziyo zindonga tashlagani kifoya qilmay, buning ustiga uxlab qolishimiz ham zarur bo‘lib qolibdi-da?

Uyqu aralash lyuklarning yopilayotganini eshitib qoldim. Dengiz sathida turganda bo‘layotgan yengil chayqalish ham tindi. Aftidan, «Nautilus» abadiy sukunat hukmron bo‘lgan okean qa‘riga tushganga o‘xshardi.

Men hamon uyqu bilan olishar edim. Ammo iloji

bo'lmadi. Nafas olishim og'irlashib, barmoqlarimning uchidan boshlangan dahshatli sovuq yuragimgacha yetib kelayotganini seza boshladim. Qo'rg'oshinday og'irlashgan qovoqlarimni ko'tarib bo'lmas edi. Alahlay-alahlay og'ir uyquga ketdim. Ko'p o'tmay hech narsa ko'rinmay qolib, o'zimdand ketdim.

## *Yigirma to'rtinchi bob*

### **MARJONLAR OLAMIDA**

Ertasi kuni uyqudan boshim g'uvullab turdim. O'z kayutamda yotganimni ko'rib g'oyat taajjublandim. Og'aynilarimni ham uxlab yotganlarida o'z kayutalariga ko'chirishgandir. Binobarin, ular ham o'tgan tundagi voqealarni menchalik bilishsa kerak, shuning uchun kelajak bu sirning pardasini ochishiga umid bog'lashdan bo'lak choram qolmagan edi.

Kayutadan chiqqim keldi. Ammo men ozodmi-kinman yoki ilgarigiday bandimanmi? Yo'q, har-tugul tamoman ozod ekanman. Eshikni ochib, yo'lak orqali palubaga olib chiqadigan trapga o'tdim. Voqealar bo'lib o'tishidan oldin yopilgan lyuk lang ochiq edi.

Palubaga chiqdim.

U yerda Ned Lend bilan Konsel meni kutib turishgan ekan. Ularni so'roqqa tutdim. Hech narsani bilishmas edi. Kecha kechqurun og'ir uyquga ketishganlaricha bugun ertalab o'z kayutalarida uyg'onishgan edilar.

«Nautilus» odatdagiday osoyishta va sirli edi. U dengiz sathida bir maromda suzardi. Unda hech qanday o'zgarish sodir bo'lmaganday.

Ned Lend ufqni ko'zdan kechirdi. Dengiz bo'm-bo'sh – hatto kanadalikning o'tkir ko'zlari ham

uzoqda na yelkan, na paroxod mo'rilari, na yerni ko'ra oldi. G'arbdan esgan kuchli shamol dengizni qattiq to'lqinlantirdi.

«Nautilus» yaxshigina chayqala boshladi.

Havoni yangilagach, «Nautilus», zarurat tug'ilgan o'sha zahotiyuq, ko'tarilishi uchun bo'lsa kerak, o'n besh metr chuqurlikka sho'ng'idi. Bu manovr 19-yanvarda odatdan tashqari bir necha marta qaytarildi. Har gal kapitan yordamchisi palubaga ko'tarilib, o'sha yerdan lyuk tomonga qarab odatdagi so'zlarni qaytarar edi.

Kapitan Nemo ko'rinmas edi. O'sha kuni komandadan menga tartib-u maqom bilan ovqat keltiradigan tepsa-tebranmas styuardnigina ko'rdim.

Kunduz soat ikkilarda xotiralarimni tartibga solayotgandim, salonga kapitan Nemo kirib keldi. Unga ta'zim qildim. U bunga javoban boshini xiyol egdi-yu, biror so'z demadi. U kechagi voqealarga doir biron narsani gapirib berar, degan umidda ishimni davom ettiraverdim. Biroq u indamadi.

Men yer ostidan unga qarab oldim. U juda horiganga o'xshardi; ko'zlari uyqudan qolgandek qizargan; yuzi o'ta g'amgin, hatto musibat sharpasi tushib turar edi.

U xonada yura boshladi, divanga o'tirar, yana o'rnidan turar, duch kelgan kitobni qo'liga olib, shu zahotiyuq tashlar, asboblar oldiga kelib, ularga tikilar, ammo odatdagiday yozmas edi. Aftidan, u bir zum bir joyda tek turolmayotganday edi.

Nihoyat u menga yaqinlashib, so'radi:

– Siz vrach emasmisiz, janob Aronaks?

Bu men uchun kutilmagan savol bo'lgandan, birpas javob bermay, unga tikilib qoldim.

– Siz vrach emasmisiz, deb so'rayapman. Zero,

naturalist hamkasblaringizdan ko'pchiligi tibbiy ma'lumot ham olishgan-ku...

– Ha, klinikada vrach hamda ordinator edim. Muzeysga kirgunimcha bir necha yil meditsina sohasida ishlaganman, – deb javob berdim men.

– Juda soz, – dedi kapitan.

Javobimdan mamnun bo'lganga o'xshardi. Biroq mendan nima istayotganini bilmaganimdan yangi savollarga ularning mazmuniga qarab javob berishni o'ylayotgan edim.

– Janob professor, – deya davom etdi kapitan, – matroslarimdan biriga meditsina yordami ko'rsata olasizmi?

– Kemada bemor bormi?

– Ha.

– Men tayyorman, boshlang.

– Yuring.

Ochig'ini aytsam, yuragim gupullab ura boshladi. Negadir xayolimga darhol shu bemor matrosning kasali bilan tungi voqealar aloqador bo'lsa kerak, degan fikr keldi va bemordan ko'ra shu sir meni ko'proq qiziqtirib qo'ydi.

Kapitan Nemo meni kema quyrug'iga boshlab bordi va matroslar kubrigining yonidagi kichkina kayuta eshigini ochdi.

Kayutada yuzidan jasorat barq urib turgan, qirq yoshlar chamasidagi chinakam anglo-saks yotar edi.

Men unga engashdim. U kasal emas, yarador edi. Uning qon bo'lib ketgan bintlar bilan tang'ilgan boshi yostiqda edi.

Men bintlarni yechdim. Yarador ko'zlarini katta-katta ochib menga tikilib turdi-yu, ammo bintlarini yechishga xalaqit bermadi, hatto biror marta ingramadi ham.

Jarohat juda og'ir edi. Bosh kosa qandaydir o'tmas narsa bilan urib yorilgan bo'lib, miya ochilib qolgan ekan. Miya to'qimalari qattiq zararlangani shundoqqina ko'rinib turibdi. Kulranggina miyada qotib qolgan qonlar dasturxonga vinodan yuqqan dog'larga o'xshardi. Xullas, yarador bir vaqtning o'zida ham miyasi chayqalib lat yegan, ham o'sha yerning o'ziga qon quyilgan.

Bechora zo'rg'a nafas olardi. Ora-sira yuzi tiri-shib qolar edi. Qarshimda harakat markazlari ishla-may qolgan miya shamollashining xuddi o'zi yotar edi.

Bemorning tomir urishi tez-tez o'zgarib turar-di. Oyoq va qo'l uchlari muzlay boshladi. O'lim ya-qinlashayotganini va uni hech narsa bilan qaytarib bo'lmasligini yaqqol ko'rib turibman.

Yarani qayta bog'lab, kapitan Nemoga qaradim.

– Bu odam qanday qilib yaralangan edi? – so'radim men.

– Buning biron ahamiyati bormi? – javob be-rişdan o'zini olib qochdi u. – «Nautilus» zarb bilan urilib, mashina richagi sindi va shu odamga kelib tegdi. Buni qo'ying-u, uning salomatligi haqida fik-ringiz qanday?

Duduqlanib qoldim.

– Gapiravering, – dedi kapitan Nemo, – u fran-suz tilini tushunmaydi. Men yaradorga yana bir qa-rab olgach, dedim:

– Bu odam uzog'i bilan ikki soat yashaydi.

– Uni olib qolishning hech iloji yo'qmi?

– Mutlaqo. Kapitan Nemo asabiylashib mushtla-rini qisdi.

Ko'zlaridan yosh dumaladi. Men bir necha minut jon berayotgan kishidan ko'z uzmay qarab turdim. Hayot asta-sekin uni tark eta boshlagan edi.

Elektrning sovuq yog'dusi uning rangparligini yanada bo'rttirib ko'rsatayotgan edi.

Men uning qashshoqlik va baxtsiz hayot izi barvaqt ajinlar hosil etgan oqil yuzini ko'zdan kechirdim.

Men muzlayotgan lablar so'nggi so'zlarni aytib, bu hayot sirini ifoda etar degan umidda edim.

Biroq kapitan Nemo menga murojaat qildi:

– Sizni ortiq ushlab o'tirmay bo'lmasa, janob professor.

Ketishga to'g'ri keldi.

Men kapitanni jon berayotgan matros to'shagi oldida qoldirib, qattiq ta'sirlangan holda kayutamga qaytdim.

Kun bo'yi yuragim g'ash bo'lib, ezilib yurdim. Kechasi yaxshi uxlay olmadim. Uyqumda uzoqdan yig'i va motam kuylari eshilib turdi.

Ertasi kuni tongotarda palubaga chiqdim. Kapitan Nemo o'sha kuni mendan oldinroq chiqqan ekan. U menga yaqinlashdi.

– Janob professor, – dedi u, – bugun suvosti sayriga chiqishga hushing'iz bormi?

– Do'stlarim ham unda ishtirok etishlari mumkinmi?

– Agar borishmoqchi bo'lsa.

– Taklifingizni mamnuniyat bilan qabul etaman.

– Unday bo'lsa, skafandrni kiyib oling.

Jon berayotgan yoki marhum haqida bir og'iz ham so'z yo'q. Men Ned Lend va Konsel oldiga kirib, kapitan Nemoning taklifini aytdim.

Konsel jon deb rozi bo'ldi, kanadalik ham bu gal rad etmadi.

Soat ertalabki sakkiz ham bo'lgani yo'q edi. Soat sakkiz yarimda biz skafandrlarni kiyib, Rukveyrol

rezervuarlari va elektr fonarlar bilan qurollanib olgan edik.

Har ikki eshik birin-ketin ochildi va biz kapitan Nemo hamda o'n ikki nafar matros hamrohligida o'n metr chuqurlikdagi «Nautilus» hordiq chiqarayotgan toshloq yerga tushdik.

Xiyol pastlashib ketgan o'zan bora-bora bizni o'ttiz metrlar chamasi chuqurlikdagi yerga olib bordi. Biz Tinch okeandagi birinchi sayohatimizda ko'rganimizdagi o'zandan tamomila farq qiladigan havzaga tushdik. Bu yerda na yumshoq qum, na suvosti o'tloqlari, na dengiz o'rmonlari bor edi. Kapitan Nemo boshlab borayotgan bu yerning o'ziga xosligi darhol ko'zga tashlanadi. Bu marjonlar olami edi.

Zoofitlar bo'limi, alsionoriylar kichik sinfida gorgoniy guruhi bor; olimlar tomonidan har uchalla – minerallar, o'simliklar va hayvonot olamiga aloqador deb topilgan, tabiat yaratgan bu ajabtovur marjonlar shu guruhga mansubdir. Qadimgilarga dori xizmatini o'tagan va zamonamiz ayollarining qimmatbaho taqinchoqlariga aylangan bu marjonlar 1744-yildagina ingliz Trembley tomonidan uzilkesil hayvonot olamiga kiritilgan edi.

Marjon – bu toshsimon, mo'rt poliqlar hosil etadigan mayda hayvonot to'dalaridir. Bu poliqlar kurtaklash yo'li bilan ko'payadi. Ular umumiy hayot kechirishsa-da, ayni vaqtda to'daning har bir a'zosi o'zicha mustaqil yashaydi.

Bu qiziq zoofitlar haqidagi so'nggi tadqiqotlarni o'qigan edim. Tabiat okean qa'riga o'tqazgan va toshga aylangan marjon daraxtlardan iborat bu o'rmonni ko'rish men uchun juda qiziqarli edi.

Biz fonarlarimizni yoqib, marjonlar yaqindagina hosil etgan, vaqt o'tishi bilan esa Tinch okean-



ning bu qismini Hind okeanidan to'sib qo'yadigan devor yonidan yurdik. Yo'l-yo'lakay qalin marjon daraxtzorlarini aylanib o'tishga to'g'ri keldi. Faqat yerdagi daraxtlardan farqli o'laroq bu daraxtsimon o'simliklarning bir uchi qoyalarga yopishgan bo'lib, yuqoridan pastga qarab o'sar edi.

Fonarlarimizdan taralayotgan yog'du oqish daraxtlarga tushib, ajoyib manzara hosil etar edi. Ba'zan bu toshga aylangan daraxtlar suv harakati-dan qimirlayotganday bo'lib tuyulardi; hozirgina gullari qiyg'os ochilgan yoki g'unchadan lab ocha-yotgan nafis va mayin tikanakli shoxlarni uzib ol-gim kelar edi. Yengil, tutqich bermas tezsuzar ba-liqchalar ularga xiyol tegib, qushlar to'dasiday o'tib ketishardi. Biroq men bu tirik gullarga qo'l urishim bilan butun turkum junbishga kirar edi. Oq shox-chalar o'zlarining qizil g'illoflariga yashirinib olar-dilar, gullar ko'z o'ngimizda so'lib, yashnab turgan buta quruq toshga aylanib olar edi.

Tasodif meni eng nodir zoofitlar to'dasiga olib bordi. Bu marjonlar o'zining zeboligi bilan O'rta-yer dengizining Fransiya, Italiya va Afrika qir-g'oqlaridan yig'ib olinadigan marjonlardan sira qo-lishmas edi.

Ajoyib marjonlarning tovlanishi zargarlar ular-ning eng yaxshi nusxalariga beradigan: «qonli gul» va «qonli ko'pik» kabi nomlarga tamoman mos tu-shar edi.

Ko'p o'tmay butalar tez-tez uchraydigan bo'lib, daraxtlar esa balandlashib bordi. Oldimizda me'-morchilikning ertaklardagiday uzun yo'laklari na-moyon bo'ldi.

Kapitan Nemo qorong'i, xiyol qiyalab ketgan yo'lakka tushib ketdi. Bu yo'lak bora-bora bizni yuz metr chuqurlikka olib bordi.

Marjon daraxtlar orasida men boshqalari – bo‘g‘inlaridan, shoxlagan poliplarning juda qiziq turlarini, to‘qimalarini ohak qoplab, tamoman toshga aylangan bo‘lsa-da, tashqi ko‘rinishidan chinakam suv o‘tlariga o‘xshash bir necha yashil va qizil marjon butalarini ham ko‘rdim. Biroq bir mutafakkirning ta‘biri bilan aytganda, «marjonlar – bu ehtimol hayotning tosh uyqudan uyg‘ona boshlagan, ammo hali harakatga kirmagan paytidir».

Nihoyat, ikki soat yurib taxminan uch yuz metr chuqurlikka, ya‘ni marjonlar hosil bo‘lishi tugagan yergacha tushdik. Bu yerda marjon daraxtlarning alohida guruhlari emas, bir-birlari bilan turli rangdagi dengiz chirmovuqlari yordamida juda chiroyli gulchambarlar hosil etib tutashib ketgan butun boshli sokin o‘rmon yastanib yotar edi. Biz ularning qalin qorong‘i suv qatlamlari tomon bo‘y cho‘zgan peshtoqlaridan qaddimizni bukmay o‘tardik, oyoqlarimiz ostida esa tubipor, astra, meandrin, fungiy va kiriofiliylar gilamday rang-barang gullab yotardi.

Qanday ajoyib manzara! Ming afsuski, taassurotlarimizni baham ko‘ra olmas edik! Shunday unutilmas daqiqalarda boshing oyna va misdan iborat shlem asiri bo‘lib turganini his etish qanchalik og‘ir! Nega endi biz yonimizdan o‘qday uchib o‘tayotgan mana shu baliqlar singari suvda yashay olmaymiz yoki yaxshisi, uzoq vaqt suvda ham, quruqlikda ham turib, har ikkala muhit – havoda va suvda o‘zini birday yaxshi his eta oladigan amfibiyadek emasmiz?

Shu orada kapitan Nemo to‘xtadi. Unga qarab o‘rtoqlarim bilan men ham to‘xtadim. «Nautilus» matrosleri o‘z boshliqlari atrofida yarim halqa bo‘lib saf tortishganiga ko‘zim tushdi.

Sinchiklab qaraganimda ulardan to‘rt kishi yel-

kalarida allaqanday cho'zinchoq narsani ko'tarib turishganini ko'rdim.

Biz chor atrofi baland marjon o'rmon bilan o'ralgan kenggina o'tloqning o'rtasida turar edik. Fonarlarimizning dengiz tubiga tushib turgan xira yog'dusidan ulkan soyalar hosil bo'lgan edi.

O'tloqning atrofi tim qorong'i va faqat unda-bunda qonli yog'du yaltillab, o'sha zahotiyoq o'chayotgan edi. Bu – fonardan taralayotgan nurning bir zungina marjonlarda sinib qaytishi edi.

Ned Lend bilan Konsel yonimda turishardi. Faqat hozirgina xayolimizga suvosti sayrimiz ma'lum maqsadni ko'zlab qilingani haqidagi fikr keldi.

Suv tubini ko'zdan kechira turib, bir narsa e'tiborimni o'ziga jalb qildi: ko'p joyda qator tepaliklar do'ppayib turar edi; ularning tartib bilan turishi inson qo'li bilan qilinganidan dalolat berar edi.

Kapitan Nemoning ishorasi bilan matroslardan biri oldinga chiqib, belidagi cho'kichini yechib, o'zandan chuqur kovlay boshladi.

Endi menga hamma narsa ayon bo'ldi.

Bu o'tloq – qabriston, matros kovlayotgan chuqur esa – qabr; matroslarning yelkasidagi cho'zinchoq narsa – tunda o'lgan kishining jasadi edi.

Kapitan Nemo va uning matroslari bu yerga o'z do'stlarining jasadini okean qa'ridagi shu birodarlar qabristoniga dafn etish uchun kelgan edilar.

Men hech qachon bu qadar hayajonlanmagan edim. Biron narsa meni hech shunchalik larzaga solgani yo'q.

Qarshimda sodir bo'layotgan voqealarni ko'rishga toqatim yo'q edi, ayni vaqtda bu manzaradan bir sekund ham ko'z uzolmas edim.

Bu orada o'ra okeanning marjon tubi tomon asta-sekin chuqurlashayotgan edi. Cho'kich zar-

bidan cho'chigan baliqlar o'zini har tomonga urib qochar edi.

Temir cho'kich suv qa'riga tushib qolgan bir parcha toshga borib tegib bo'g'iq ovoz chiqarganini ham eshitdim.

O'ra uzunasiga va eniga qarab kengaymoqda edi. Nihoyat, u odamni sig'dirsa bo'ladigan holga yetkazildi.

Shundan so'ng murda ko'targanlar o'raga yaqinlashishdi. Oq matoga o'ralgan jasad suv bilan to'lgan qabr ichiga sirg'alib tushdi.

Kapitan Nemo va matroslar qabr atrofida qo'llarini ko'kraklari ustiga chambarak qilib turar edilar. Biz bu manzaradan qattiq hayajonlanib ularning motamlariga xalaqit bermaslik uchun bir qadam orqaga chekindik.

Qabrni marjon parchalari bilan berkitib, uni to'g'ri shaklga keltirishdi.

Bu ish bajarilgach, kapitan Nemo va uning hamrohlari bir tizzalarini egib, yerga qo'ydilar va so'nggi vidolashuv belgisi sifatida qo'llarini yuqoriga ko'tardilar...

Shundan so'ng motam marosimi tugab, «Nautilus» tomon yo'l oldik.

Biz yana marjon o'rmon peshtoqlari ostidan o'tib, marjon devor etagidan chiqdik. Bu yerdan baland tepalik boshlandi. Bir soatlik mashaqqatli yurishdan so'ng nihoyat olisdan «Nautilus» chiroqlari ko'rindi. Biz to'g'ri o'shanga qarab yurdik va peshindan keyin – soat ikkida bortga yetib oldik.

Ust-boshimni almashtirgach, hozirgi o'z ko'zlarim bilan ko'rgan marosimdan g'am-anduhga tushgan holda o'sha zahoti palubaga chiqib oldim.

Ko'p o'tmay kapitan Nemo ham yonimga keldi. Men undan so'radim:

– Demak, men oldindan aytganimday, o‘sha odam tunda vafot etibdi-da?

– Ha, janob Aronaks, – deya javob berdi kapitan.

– Endi u o‘zining ko‘pgina o‘rtoqlari qatorida, suv ostidagi marjon qabrda, abadiy uyquga ketdi, a?

– Ha, u hamma tomonidan unutilgan bo‘lsa-da, ammo biz unutmagan yerda yotipti...

Shunday deb kapitan Nemo yig‘isini qaytarish uchun yuzini qo‘llari bilan bekitsa ham bo‘lmadi.

Uzoq jimlikdan so‘ng u bunday dedi:

– U yerda, suv qa‘rida, bizning sokin qabristonimiz joylashgan...

– U yerda, akulalar borolmaydigan joyda, marhum do‘stlaringiz osuda uyquda yotishipty.

– Ha, – deya bo‘g‘iq ovozda javob berdi kapitan Nemo, – akulalar va odamlar borolmaydigan joy.

## IKKINCH QISM

### *Birinchi bob*

#### HIND OKEANI

Shu satrlardan suvosti sayohatimiz hisobotining ikkinchi bosqichi boshlanadi. Birinchisi menda g‘oyat kuchli taassurot qoldirgan marjon qabristondagi hayajonli manzara bilan tugagan edi.

Kapitan Nemoning hayoti bepoyon okean kengliklarida shu tarzda o‘tib borardi. U hatto shu okeanning eng maxfiy joyida o‘ziga qabr ham tayyorlab qo‘ygan edi.

U yerda, suv qa‘rida, «Nautilus» marhumlari sirli kapitanning o‘lganlaridan keyin ham hayot paytlardagidek bir-birlari bilan chambarchas bog‘langan

yor-do'st va birodarlarining abadiy oromini buzishga bironta ham dengiz maxluqi jur'at qilolmaydi... Ularning oromgohlariga, kapitan Nemo aytganidek, dengiz maxluqlari va «odamlarning ham» qo'li yetmaydi.

Kishilik jamiyatiga abadiy va sira o'zgarmas qat'iy ishonchsizlik!

Konsel ilgari surayotgan taxminlar endilikda meni qanoatlantirmay qo'ydi.

Bu ajoyib kishining ta'kidlashicha, olimlar tomonidan tan olinmagan kapitan Nemo unga nisbatan befarq qaralgani uchun dunyodan nafratlanadigan bo'lib qolgan. Ba'zan esa Konsel «Nautilus» komandiri olimlar kalaka qilgan buyuk odam va binobarin u jamiyatning omi va befarqligi bilan kurashib charchagan, erkin hayot kechirish uchun odam oyog'i yetmaydigan uzlatga chekingan, deydi. Ammo, menimcha, bu taxmin ham kapitan Nemo qiyofasini ochib berolmas edi.

Aslida esa, bizni qorong'i xonaga qamab, buning ustiga uxlatib qo'yishgan o'sha tungi sir, men ufqni ko'rib ulgurmay, kapitan Nemo qo'limdagi durbinni shosha-pisha yulib olishi, «Nautilus»ning to'qnashuvi natijasida matroslardan birining o'lasini bo'lib yaralanishi, – bularning barchasi Konselning taxminlarini rad etib turibdi. Yo'q, kapitan Nemo odamlar orasidan qochish bilangina cheklanib qolmadi. Uning buyuk ixtirosi – suvosti kemasi erkin harakat etishiga hech narsa xalaqit bermaydigan qarorgohgina bo'lib qolmay, balki o'ch olish uchun dahshatli qurol sifatida xizmat qilayotgani ham ehtimoldan xoli emas.

Biroq hozircha menda bu taxminlarning to'g'riligini ko'rsatadigan hech qanday dalil yo'q edi. Qalin mavhumlik pardasi o'rab turgan bir sharoit-

da bu taxmin ham yo'lchi yulduz xizmatini o'tashi mumkin. Shuning uchun kundalik yozuvimni davom ettiraman va agar ta'bir joiz bo'lsa, ularni voqealar ayni talab etgan tarzda yoritib boraman...

Sirasini aytganda, bizni kapitan Nemo bilan bog'lab turadigan hech qanday majburiyat yo'q. U «Nautilus»dan qochish imkoniyati yo'qligini biladi. Shuning uchun u bizdan hatto kemada qolishga so'z berishimizni ham talab etmadi. Zimmamizda hech qanday majburiyat yo'q. Biz odob yuzasidagina mehmon deb atalayotgan bo'lsak-da, aslida oddiy bandidan sira farqimiz yo'q edi.

Ned Lend ozodlikka chiqish niyatidan qaytgani yo'q. U dastlabki qulay fursatdanoq foydalana olishiga ishonchi komil. Men ham unga ergashsam kerak. Ammo shunga qaramay, suvosti mo'jizalaridan osonlikcha ko'ngil uzolmasman. Bu mo'jizalar bilan tanishuv imkoniyatiga kapitan Nemoning himmati tufayligina erishgan edim.

Hozir ham men bu odam qarshisida ta'zim etishim kerakmi yoki yomon ko'rishim kerakmi, u jabrdiydami yoki jallodmi – sira tushunolmayman. Ochig'ini aytsam, «Nautilus» bilan bir umrga xayrlashishdan oldin, boshlanishi juda ajoyib bo'lgan bu butun dunyo suvosti sayohatini oxiriga yetkazishni istar edim. Dengizlarda yashirilib yotgan barcha mo'jizalarni ko'rgim bor. Hatto bilimga nisbatan qonmayotgan tashnaligim yo'lida jonimdan ayrilsam ham, mengacha biron kishiga ko'rish nasib qilmagan hamma narsalarni ko'rishni istar edim. Hozirgacha men nimani bilib oldim? Hech narsani yoki deyarli hech narsani, zero, biz Tinch okean bo'ylab atigi olti ming lyo masofani bosib o'tdik.

Shu orada «Nautilus» odamlar yashaydigan yerga yaqinlashmoqda. Bordi-yu, qochishga ozgina bo'lsa

ham imkoniyat tugʻilib, men ilmga tashnaligimni qondirish maqsadida ogʻaynilarim manfaatiga xiyanat qilsam – bu kechirilmas shafqatsizlik boʻladi. Men ularga ergashib borishim, balki yoʻl boshlashim kerak boʻlar. Biroq qochishga qulay fursat kelmikini? Tazyiq ostida ozodlikdan mahrum etilgan kishi buni orzu qilar edi, ammo olim qachondir shunday imkoniyat tugʻilishidan choʻchirdi.

Shu kuni, 21-yanvarda, peshinda kapitan yordamchisi odatdagiday kuzatuv olib borish uchun palubaga chiqdi.

Men ham palubaga chiqdim va sigara cheka turib, uni kuzata boshladim. Men bu odamning fransuz tilida soʻzlamasligiga shubhalanmasdim. Chunki koʻpincha ataylab ovoz chiqarib kishiga beixtiyor taʼsir etuvchi tanbehlar berardim. Biroq u hamisha sira oʻzgarmay jim turaverardi.

U sekstantni koʻziga tutib, quyoshning ufqqa ogʻish balandligini aniqlayotganida, palubaga «Nautilus» matrosalaridan biri chiqdi. Bu Krespo oroli oʻrmoniga qilgan saylimizda bizga hamroh boʻlgan oʻsha barzangi edi. U proyektor oynasini tozalashga kirishdi.

Men bu asbobni qiziqish bilan koʻzdan kechirdim. Har ikki tomonidagi qabariq oyna aylana shaklida joylashtirilganidan manba yorugʻligini bir dasta qilib yigʻib, yuz baravar kuchaytirib sochardi. Bu manba eng koʻp yorugʻlik sochadigan qilib qurilgan edi. Elektr yoyi sunʼiy ravishda hosil etilgan havosiz boʻshliqni yoritar edi, bu esa ravshanlik darajasini doim bir meʼyorda tutar va ayni choqda oraligʻida yoy hosil boʻladigan grafitning oʻtkir damini saqlar edi.

Bu esa kapitan Nemo uchun ayniqsa muhim. Chunki u grafit zaxirasini osonlikcha toʻldirolmasa



kerak. Biroq havosiz bo'shliqda grafit dami g'oyat sekin qaytar edi.

«Nautilus» suvga sho'ng'ishga hozirlanayotganda, men salonga qaytdim. Lyuk yopildi. Yuz metrcha pastga tushgach, to'g'ri g'arbga suzib ketdik.

Endilikda biz Hind okeanida, besh yuz ellik million gektar maydonni ishg'ol etgan bepoyon suv sahrosida suzib borardik. Okean suvi shu qadar tiniq ediki, unga zaifroq kishi kema palubasidan turib qarasa, boshi aylanib ketardi.

«Nautilus» odatda yuz-ikki yuz metr chuqurlikda suzar edi. Surunkasiga bir necha kun shunday bo'ldi. Mening o'rnimda boshqa biror odam bo'lganida, bir xildagi bu sayohatdan siqilib ketishi mumkin edi. Ammo har kuni ertalab tuz hidi anqib turadigan musaffo havoda palubada sayr etish, salon derazasidan okean mo'jizalarini kuzatish, kapitan Nemo kutubxonasidagi kitoblarni mutolaa qilish, kundalik yozib borish – bularning hammasi barcha kunlarimni band etar, siqilish yoki charchoqqa bir daqiqa ham vaqt qoldirmas edi.

Ned Lend ham, Konsel ham va mening o'zim ham g'oyat sog'lom kishilarmiz. «Nautilus»da berilayotgan ovqat, umuman olganda, bizni to'la qanoatlantirar va kanadalik xafa bo'lmaganda, men umumiy dasturxonga turli yo'llar bilan u qo'shimcha qilib qo'yayotgan «yer» taomlaridan jon deb voz kechar edim. Buning ustiga bizni hamisha qamrab turgan havoning mo'tadilligi natijasida kishi hatto tumov ham bo'lmas edi. Tumovga chalingan taqdirda ham «Nautilus» dorixonasida Provansda «dengiz shiviti» deb atalib, yo'tal va tumovga eng yaxshi davo hisoblangan daraxtsimon dendrofilliy marjonlarining yetarlicha kukuni bor.

Bir necha kungacha ertalablari palubaga chiqib, suv qushlari, ayniqsa chayka va pomorniklarning ko'pligidan hayratga tushdim. «Nautilus» matroslari ovlagan bu «suv qushlari»dan juda mazali taom tayyorlashar edi. Yirik qushlar orasida sohildan uzoqqa uchib, charchaganda to'liqlarga qo'nib dam oladigan, surnayburunlilar guruhiga mansub chiroyli albatroslar diqqatni o'ziga tortar edi. Eshkakoyoqlilar oilasidan bu yerda dengiz sathiga yaqin suzadigan baliqlarni ovlovchi tezuchar fregatlar<sup>1</sup>, kattaligi kaptarcha, oq qo'shparlarining cheti pushti rangligidan to'q qora qanotlari yanada yaqqol ko'rinib turadigan juda ko'p faetonlar uchib yurar edi.

«Nautilus» to'rlariga har kuni turli-tuman dengiz toshbaqalari tushar edi; ayniqsa juda qiziq toshbaqa – karettta yoki savdoda g'oyat yuqori baholanadigan yarim aylana shaklidagi qabariq kosali bissani alohida ta'kidlab ko'rsatmoqchiman. Bu toshbaqalar burun kataklari teshigining go'shtdor qopqog'ini bekitib olib, suv ostida uzoq muddat tura oldadi. Ba'zi bir karettalar dengiz hayvonlardan o'zini himoya etish xizmatini o'taydigan kosasiga bekinib uxlayotganida to'rga tushgan edi. Bu toshbaqalarning go'shti bemaza, ammo ularning tuxumlari juda laziz taom hisoblanadi.

Baliqlarga kelganda shuni aytish kerakki, ularni salonning ochiq derazasidan har gal kuzatganimizda mahliyo bo'lib qolar edik. Bu yerda men baliqlarning shu vaqtgacha sira uchratmagan bir necha turlarini ko'rdim.

Dastavval kuzovkalar – faqat issiq suvlarda, ayniqsa Qizil dengiz, Hind okeani va Markaziy Amerika sohillariga yaqin joylarda yashaydigan baliqlar haqida gapirmoqchiman. Bu baliqlar toshbaqalar,

---

<sup>1</sup> *Fregat* – dengizda yashovchi katta qush.

qisqichbaqasimonlar va dengiz tipratikanlari singari kosa bilan yopilgan bo'ladi. Ammo ularning kosalari tosh yoki ohakli bo'lmay, balki bir-biri bilan bog'langan suyak plastinkadan iboratdir. Bunday kosada kuzovkalarining yonlari qattiq va mutlaqo egilmas uch qirrali, to'rt qirrali yoki besh qirrali qutichaga o'xshardi. Bizga go'shti juda lazzatli uchburchak kuzovkalar, katta ko'zlari ustida shoxga o'xshash uzun tikanaklari bo'lgani uchun shoxdor deb atalgan to'rt qirra kosali kuzovkalar ham uchradi.

Yana, qamchiga o'xshash uzun dumlari o'tkir tikanak bilan qoplangan tukli skatlarni uchratdik. Ular dumlari bilan hatto odam uchun xavfli darajada qattiq ura oladilar.

Konsel olib borgan yozuvlarda baliqlarning yana bir necha turlari: Tinch okeanda uchratganimiz ignaqorinlilar; uzunburun skatlar; tangacha va tuksiz yalang'och elektr skatlar; uzunligi bir yarim metr va eni bir metr, qoramtir, yelkasida marmarga o'xshagan oqishroq qashqalari bo'lgan marmar elektr skatlar va boshqalar ham bor edi.

Boshqa turlarning namunalaridan tuxumsimon dumsiz baliqlarni; jayraga o'xshab o'zini shishirib sharga aylanadigan, hamma yog'i tikan bilan qoplangan taram-taram chizikli to'q jigarrang, deyarli qora ikki tishlilarni; boshqa okeanlardagidek dengiz otbaliqlarini; og'izchasi juda oldinga cho'ziladigan va qanotga o'xshab yonma-yon joylashgan keng suzg'ichlari ularga juda g'alati qiyofa beradigan ola baliqlarni; zangor havorang chiziqalar va tangachalar bilan qoplangan sariq qush-baliqlarni ham qayd qilib o'tmoqchiman. Ularning go'shtlari oq va mazali bo'ladi.

Shuningdek, biz o'zining juda katta suzgichlarini yozib, ulardan yelkan sifatida foydalanadigan to'q ko'k yelkanlilarni; erkaklari oq kumushrang tanasi juda uzun va ingichka lentasimon oddiy sochdumlilarni; nihoyat Remington va boshqa qurol fabrika egalarining tushiga ham kirmagan aslaha bilan qurollangan hasharotlarni va bir tomchi zaryadlangan suv vositasida o'ldiradigan okean pashshatutkichlarini ham ko'rdik.

21-dan 23-yanvargacha «Nautilus» sutkasiga besh yuz qirq milyadan yo'l bosdi. Boshqacha qilib aytganda, biz soatiga yigirma ikki yarim milya tezlikda borar edik. Bunday katta tezlikda projektorning yorqin yog'dusiga mahliyo bo'lib bizdan ortda qolmay suzayotgan baliqlarinigina ko'ra olardik. Ammo ularning ko'pi deyarli o'sha zahotiy oq ortda qolib, ayrimlarigina biroz joygacha biz bilan yonma-yon suzib borardi.

Yigirma to'rtinchida ertalab biz junubiy kenglikning 12-gradus 5-minuti va uzunlikning 94-gradus 33-minutida joylashgan Killing orolini ko'rdik. Bu marjon oroli bo'lib, ajoyib kokos palmalari bilan qoplangan edi. Bir vaqtlar bu orolga Charlz Darvin va kapitan Fits-Roy kelib ketishgan. «Nautilus» odam yashamaydigan bu orol sohillariga juda yaqin o'tdi. Dragaga suvdan juda ko'p xilmaxil poliplar, shu jumladan kapitan Nemo kolleksiyasidan o'rin olgan delfinlarning bir necha g'alati nusxalari ilindi.

Tez orada Killing oroli ko'rinmay qoldi va «Nautilus» shimoli g'arbga, Hindiston yarimoroli boshlanishining janubiy chekkasi tomon suzib ketdi.

– Biz madaniylashgan mamlakatlarga yaqinlashyapmiz, – dedi menga shu kuni Ned Lend. – Bu yovvoyi odamlari bug'udan ham ko'p bo'lgan Yangi

Gvineyadan durustroq. Hindistonda, janob professor, tosh yo'llar hamda ingliz, fransuz, hind shaharlari bor. U yerda har qadamda vatandoshingizni uchratishingiz mumkin. Qalay, sizningcha, kapitan Nemo bilan xayrlashadigan payt yetmadimikin?

– Yo'q, yo'q! – deya qat'iy javob berdim men kanadalikka. – «Nautilus» endi odam yashaydigan yerlarga yaqinlashyapti. U Yevropa tomon yo'l oladi. Bizni o'sha yoqqa olib borsin. Yevropa qirg'oqlariga yaqinlashginimizdan keyin qochish haqida o'ylash vaqti keladi. Shuni ham aytib qo'ymoqchimanki, kapitan Nemo bizni Gveboroar oroliga qo'yganidek Malabar yoki Koromandel qirg'oqlariga ham bema'lol javob berishiga sira ishonmayman.

– Nima qipti, janob professor, unda uning ruxsatisiz harakat qilishga to'g'ri keladi.

Men kanadalikka javob bermadim. U bilan bahslashib o'tirgim kelmadi. Men tasodif tufayli suvosti kemasiga tushganman, binobarin bu imkoniyatdan oxirigacha foydalanishga astoydil qaror qilgan edim.

Killing orolidan o'tgach, «Nautilus» juda sekin suza boshladi. Biz tez-tez katta chuqurliklarga sho'ng'irdik. Dengiz sathidan ikki, ba'zan uch kilometr chuqurlikka tushar edik, ammo o'n uch kilometr chuqurlikka tashlangan zond suv tubiga yetmaganiga qaramay, Hind okeanining eng chuqur joyi qanchaligini bir marta ham tadqiq etmadik.

Suvning pastki qatlamlarida harorat bu yerda ham Tinch okeandagidek – noldan yuqori to'rt daraja. Men faqat bir narsaga e'tibor berdim: uncha chuqur bo'lmagan joylardagi suvning yuza qatlamlarida harorat hamisha chuqur joylardagiga qaraganda past.

25-yanvarda okean tamoman bo‘m-bo‘sh edi va «Nautilus» kun bo‘yi uning sathida o‘zining kuchli vintlari bilan to‘lqinlarni yorib, suv tomchilarini yuksaklarga favvora singari otib suzdi. «Nautilus»ni faqat uzoqdangina ko‘rgan kemalar uni ulkan kit deb faraz qilganlariga ajablanmasa ham bo‘ladi.

Men kun bo‘yi palubada turib, dengizga tikildim. Ufq hamisha bo‘shligicha turdi. Faqat peshindan keyin soat to‘rtlarga yaqin uzoqdan g‘arbga ketayotgan kema ko‘rindi. Bir necha minut davomida ufqda uning machtalari aniq ko‘rinib turdi, ammo kemadan suvdan biroz chiqib turgan «Nautilus»ni ko‘rib bo‘lmas edi.

Men bu kemani Melburn va qirol Georg buruni orqali Seylon-Sidney yo‘lida xizmat qiladigan Yarimorol va Sharqiy kemachilik shirkatiga mansub deb o‘yladim.

Kech soat beshda, juda qisqa tropik oqshomiga ozgina vaqt qolganda Konsel bilan men ajoyib bir manzaraning shohidi bo‘ldik.

Juda chiroyli bir molluska bor. Qadimgilarning aytishicha, u bilan uchrashuv baxtdan nishona ekan. Aristotel, Atenei va Pliniylar uning odat va ta‘bini o‘rganib, uni ta‘riflashga qadimgi Yunon va Rimning butun nazmiy durdona so‘zlarini ayamadilar. Ular bu molluskani «nautilus» yoki «pompilius» deb atadilar. Hozirgi zamon faniga argonavt nomi bilan mashhurdir.

Biz okean sathida suzib yurgan argonavtlarning butun boshli bir to‘dasini uchratdik. Ular bir necha yuzlab edi. Bu latif molluskalar nafas olganda yutgan suvlarini chiqaradigan qadahchalari yordamida orqalari bilan olg‘a suzardilar. Ularning sakkizta changalidan oltita ingichka va uzunlari suv

sathida suzardi, ayni vaqtda gektokotil deb ataladigan ancha qattiq va yoy shaklida qayrilgan ikkita so'nggisi yelkan singari shamolga qaratilgan edi.

Men suvda argonavtlarning burama chig'anoqlarini aniq ko'rdim. Kyuve ularni haqli ravishda chiroyli qayiqqa o'xshatgan edi. Darhaqiqat, ular qayiqni eslatadi. Bu qayiqni argonavtlarning o'zlari ohakli tuzlar yig'indisidan «qurib olganlar». Molluska u bilan birikib o'smagan bo'lsa-da, hamisha ko'tarib yuradi.

– Argonavt istagan vaqtida o'z qayig'ini tashlab keta oladi, ammo u sira bunday qilmaydi, – dedim men Konselga.

– Xuddi kapitan Nemoga o'xshab, – deya javob berdi Konsel. – Shuning uchun u o'z kemasini «Argonavt» deb atasa yaxshi bo'lar ekan.

«Nautilus» deyarli bir soat ana shu molluska to'dalarining hamrohligida suzdi. Biroq, bilmadim, negadir birdan ularni qo'rquv bosdi. Komanda berilganday barcha yelkanlar bab-baravar tushirildi, oldinga cho'zilgan changallar tortib olindi, tanalari bujmaydi, qayiqalar o'z og'irlik markazini o'zgartirdi va butun flotiliya bir zumda suvostiga kirib g'oyib bo'ldi.

Hozirga qadar bironta eskadra shunaqa murakab manyovrni bunchalik kelishib va aniqlik bilan bajarmagan edi.

Xuddi shu daqiqada quyosh botdi va deyarli o'sha zahotiy oq tun boshlandi. Yengil shabada mavjidan «Nautilus» asta tebranib borar edi.

Keyingi kun, 26-yanvarda, biz ekvatorni sakson ikkinchi meridiandan kesib o'tdik va shimoliy yarim shar suvlariga kirdik.

Shu kuni akulalarning juda katta to'dasi bizga hamroh bo'lib bordi. Bular – yelkasi qoramtir, qorni oq va o'n bir qator tishi, bo'ynida katta qora

qashqasi va atrofiqa oq hoshiyasi xuddi ko'zga o'xshagan, tikan patli va dumaloq tumshug'i qora tangachalar bilan qoplangan akulalar edi.

Bu ulkan yirtqichlar bir necha marta dahshat bilan salon derazasiga tashlandilar. Bunday daqiqalarda Ned Lendning g'azabi qaynab ketardi. U suv sathiga chiqib olib, bu bahaybat maxluqlarni, ayniqsa salon derazasiga o'zini zarb bilan urgan uzunligi besh metrli ulkan sher akulalarni ovlagisi kelayotgan edi.

Ammo shu payt «Nautilus» tezlikni oshirdi va eng tezsuzar akulalarni ham zum o'tmay ortda qoldirdi.

Kech soat yettiga yaqin «Nautilus» dengiz sathiga ko'tarildi va sutday oppoq to'lqin bo'ylab suzib ketdi. Qancha tikilmay, okean chindan ham sutga o'xshardi.

Balki oy yog'dusida shunday bo'lib ko'rinayotgandir? Yo'q, oy tug'ganiga endigina ikki kun bo'lgani uchun u hali chiqmagan va hozirgina botgan quyosh nurining yog'dusidan yallig'lanib turgan osmon ham suvning oqligi oldida qorayib ko'rinayotgan edi.

Konsel bu ajoyib holatni ko'rib, ko'zlariga ishonmas edi.

U tushuntirib berishni so'rab menga murojaat qildi. Hartugul u qiziqayotgan narsani tushuntira oldim.

– Bu sut dengizi deb ataladi, – dedim men. – Dengiz sathidagi sutrang – oq dog'lar – Hindiston qirg'oqlarida tez-tez sodir bo'lib turadigan hodisa.

– Xo'sh, xo'jam aytolmaydilar, nega dengiz bunaqa oqarib qoldi? – so'radi Konsel. – Axir dengiz suvi chindan ham sutga aylanib qolmagandir-ku?

– Shubhasiz, bunday bo'lgani yo'q, do'stim. Suv-



ning seni hayratlantirayotgan bu rangi son-sanoqsiz oddiy jonivorlarning ishi. Ular rangsiz nur taratadigan shilliq bo'lakchalar bo'lib, qalinligi sochday va uzunligi taxminan bir millimetrning beshdan bir qismiga tengdir. Bu jonivorlar bir-biriga yopishib, ba'zan bir necha kilometrga cho'zilib ketadigan yaxlit maydonlarni hosil etadi.

– Bir necha kilometrlarga? – xitob qildi Konsel.

– Ha, do'stim. Ammo ularning qanchaligini sanayman deb ovora bo'lma. Baribir buning uddasidan chiqolmaysan. Adashmasam ba'zi bir dengizchilar qirq va undan ham ko'proq milyaga cho'zilib ketgan sut dengizini ko'rishgan!

Mening maslahatimga qaramay, Konsel fikran ulardan har birining yo'g'onligi soch tolasiday va uzunligi bir millimetrning beshdan biriga teng bo'lganda qirq kvadrat milya maydonga qanchasi sig'ishini hisoblay boshlagan edi.

Bir necha soat davomida «Nautilus» o'zining o'tkir tumshug'i bilan sut dengizining oqish suvlarini yorib bordi va men uning xuddi quyruq mag'zava orasida ketayotganday sira ovoz chiqarmay siljiyotganiga e'tibor berdim.

Yarim kechaga yaqin oldimizda dengiz to'satdan odatdagi rangini qayta kasb etdi, ammo quyruq tomonda ko'z ilg'agan joygacha suv oqligi aks etgan osmon shimol yog'dusining jimirlashidan yoritilganday bo'lib tuyular edi.

## ***I k k i n c h i b o b***

### **KAPITAN NEMONING YANGI TAKLIFI**

28-yanvar peshinda shimoliy kenglikning 9-gradus 4-minutida dengiz sathiga ko'tarilgan «Nautilus» g'arb tomonda sakkiz milya chamasi maso-

fada ko'zga tashlanib turgan allaqanday yerning ro'parasidan chiqib qoldi. Dastavval qalashib yotgan, ancha baland, ammo ko'rinishdan anglab bo'lmaydigan allaqanday tog' ko'zga tashlandi; ayrim tog'larning balandligi ikki ming futdan oshar edi. Kuzatishlar poyoniga yetgach, men salonga tushdim va xaritadaagi belgiga qarab biz Hindistonning durdonasi hisoblangan Seylon oroli sohilida suzayotganimizni ko'rdim.

Men yer yuzidagi bu eng serunum orol to'g'risida kitob qidirish uchun kutubxonaga bordim va X.K. Sirrning «Seylon va singalezlar» degan asarini topdim. Shu payt salonga kapitan Nemo va uning yordamchisi kirib kelishdi.

Kapitan xaritaga qaradi. So'ng menga yuzlanib dedi:

– Seylon oroli marvaridlari bilan mashhur. Marvarid izlanadigan joyga borishni istaysizmi, janob Aronaks?

– Jon deb borar edim, kapitan.

– Juda soz. Buni amalga oshirish juda oson. Faqat biz marvarid qidiruvchilarni emas, balki joyning o'zini ko'ra olamiz, chunki hali ov mavsumi boshlanmagan. Buning unchalik ahamiyati yo'q. Men hozir Manaar qo'ltig'i tomon yo'l olishni buyuraman. Biz u yerga tunda yetib boramiz.

Kapitan noma'lum tilda o'z yordamchisiga bir necha og'iz so'z aytdi va u shoshilganicha chiqib ketdi. «Nautilus» shu zahotiyoq suvga sho'ng'idi, manometrning ko'rsatishicha, u o'ttiz fut chuqurlikka tushdi.

Xaritani olib, Manaar qo'ltig'ini qidirdim va uni shu nomdagi kichik orol yonida shimoliy kenglikning 9-gradusida, Seylonning shimoli g'arb sohilidan topdim.

Unga yetib olish uchun biz orolning butun g'arbiy qirg'og'i yonidan o'tishimiz kerak edi.

Kapitan yana gapira ketdi.

– Janob Aronaks, – deya so'z boshladi u, – marvarid Bengal qo'ltig'i, Hind dengizi, Xitoy va Yapon dengizlari, Amerikaning janubiy qirg'oqlarini yuvib turadigan dengizlarda, Panama qo'ltig'ida, Kaliforniya qo'ltig'ida izlanadi. Ammo marvarid qidiruvchilarning ovi, ayniqsa, Seylonda yurishadi. Afsuski biz bu yerga juda erta kelib qoldik. Marvarid qidiruvchilar Manaarga martning o'rtalarisiz kelishmaydi – o'sha vaqtda bu yerga uch yuztacha kema yig'ilib o'ttiz kun davomida ana shu serdaromad ish bilan shug'ullanishadi. Har bir kema komandasida o'nta eshkakchi va o'nta sho'ng'uvchi bo'ladi. Sho'ng'uvchilar ikkiga bo'linib, suvga navbatmanavbat tushadilar. Oyoqlari orasiga tosh qistirib olib, uning yordamida o'n ikki metr chuqurlikka sho'ng'iydilar, mo'ljalda joyga yetib olgach, toshni qo'yib yuboradilar. So'ngra eshkakchilar arqon bilan bog'langan toshni kemaga tortib oladilar.

– Demak, hanuz o'sha vahshiyona usuldan foydalanilayotgan ekan-da?

– Ha, – deb javob berdi kapitan Nemo, – marvarid sochmalari 1802-yili Amen shartnomasiga binoan dunyodagi eng industrilashgan mamlakat Angliya mulkiga o'tgan bo'lishiga qaramay, bu ishda hech narsa o'zgargani yo'q.

– Menimcha, sizning skafandrlaringiz bu ishda juda qo'l kelgan bo'lar edi.

– Albatta, chunki marvarid qidiruvchilar suv ostida uzoq turolmasliklari tabiiy. Persival degan ingliz o'z sayohatnomasida Seylonda, suv ostida besh minut turgan bir marvarid qidiruvchini aytib o'tgan, ammo men bunga hanuz ishonmay yuraman. Men

suv ostida ellik yetti sekund, ya'ni deyarli bir minut, ayrim juda kuchlilari esa hatto sakson yetti sekund – qariyb bir yarim minut tura oladigan suzuvchilarni bilaman! Biroq bundaylari juda oz, shu sho'rlıklar ham kemaga qaytgach, quloq va burunlaridan qon aralash suv kelar edi. Menimcha, marvarid qidiruvchi suvda o'ttiz sekunddan ortiq turolmasa kerak, shu qisqa fursat ichida ham u topib olgan marvarid chig'anoqlarini uzib to'riga solishga ulgurishi kerak. Marvarid qidiruvchilikni kasb qilib olgan kishilar boshqalar yashaydigan o'rtacha yoshga etolmaydilar; ularning ko'plari yosh o'ladilar; yaxshi ko'rolmaydigan bo'lib qoladilar, ko'zlari yiringlanadi, butun badanlariga juda yomon yara toshadi. Ko'pincha ular yurak yorilishdan suv ostida to'satdan o'lib qoladilar.

– Ha, – dedim men, – bu juda og'ir kasb... Birgina xotinlarning tantiqligi deb qancha umr va kuch qurbon etilishini aytmay sizmi!.. Ammo shuni ayting-chi, kapitan, o'sha kema bir kunda nechta chig'anoq yig'a oladi?

– Bir ish kunida qirqdan ellik minggacha. Aytishlaricha, 1814-yilda Angliya hukumati davlat uchun marvarid yig'ishni uyushtirganida, qidiruvchilar yigirma kunda yetmish olti million chig'anoq yig'gan ekanlar.

– Har holda marvarid qidiruvchiga yaxshigina haq to'lashsa kerak?

– Aksincha, juda oz. Panamada ular haftada bir dollardan ortiq ishlay olmaydilar. Ko'pincha ular marvaridi bo'lgan har bir chig'anoqqa bir su<sup>1</sup> qimmatidagi mis chaqa olar edilar. Ammo ular yig'gan chig'anoqlarning qanchasida marvarid bo'lmaydi!

---

<sup>1</sup> Su – pul birligi.

– Korxonada egasini boyitadigan har bir marvaridga bir su? Bu – qabihlik! – dedim men.

– Shunday qilib, janob professor, – dedi kapitan Nemo, – siz va hamrohlaringiz Manaar qo‘ltig‘ining marvarid o‘zanini ko‘rish sharafiga muyassar bo‘lasizlar. Shu vaqtda tasodifan u yerda bironta marvarid qidiruvchi bo‘lsa, sizlar bu ishning texnikasi bilan ham tanisha olasizlar.

– Bu juda qiziq bo‘lardi.

– Ha, aytganday, professor, siz akulalardan qo‘rqmaysizmi?

– Akulalardan? – qichqirib yubordim men.

Bu savolni men shunchaki berilgan deb o‘yladim.

– Xo‘sh, javob bermadingiz-ku? – deya qistadi kapitan Nemo.

– Ochig‘ini aytsam, kapitan, – dedim men biroz indamay turgach, – men hali bu baliqchalarga unchalik ko‘nikkanim yo‘q...

– Biz esa ularga shu qadar ko‘nikib ketdikki, hatto e‘tibor ham bermaymiz. Yaqinda siz ham ularga xuddi shunday qaraydigan bo‘lasiz, – deb javob berdi kapitan. – Biz yaxshigina qurollangan bo‘lamiz, binobarin, to‘g‘ri kelib qolsa bironta akula ham ovlaymiz. Bu juda qiziq ov. Xullas, professor, ertaga-cha xayr. Ertalab vaqtli jo‘naymiz.

Kapitan Nemo bu so‘zlarni juda beparvolik bilan aytib, salondan chiqdi.

Agar sizni Shveysariya tog‘larida ayiq ovlashga taklif qilishsa balki: «Juda soz, ertaga, albatta, ayiq oviga boramiz», – deb javob bergan bo‘lur edingiz. Bordi-yu, sizdan: «Atlas tekisligiga sher ovlashga yoki Hindiston changalzorlarida yo‘lbars ovlashga hushingiz qalay?» – deb so‘rashsa, siz ehtimol: «Mayli, yo‘lbars yoki sher ovlashga borsa bo‘ladi,

bu qiziq narsa», deb o'ylab javob bersangiz kerak. Ammo sizni kema palubasidan turib emas, ularning orasida yurib akula ovlashga taklif etishsa, uni qabul etishdan oldin, albatta, jiddiy o'ylanib qolsangiz kerak.

Iqror bo'lib aytamanki, kapitan Nemo salondan chiqib ketgach, peshanamdagi sovuq terni artib olishga majbur bo'ldim.

«Yaxshilab o'ylab ol, – dedim o'zimga o'zim, – shoshilishning hojati yo'q. Krespo orolining suvosti o'rmonida suvsar ovi bo'lsa boshqa gap: buni vaqtichog'lik desa bo'ladi. Ammo, albatta, akula uchratishingizni bila turib, dengiz tubida yurishning o'zi bo'ladimi? Ayrim joylarda, jumladan, Andaman orolida negrlar bir qo'lda xanjar va boshqasida sirtmoq ushlab akulaga hujum qilishdan qo'rqmasliklarini bilaman. Ammo bu ulkan yirtqichlar bilan yakkama-yakka jangga tashlangan dovyuraklardan ko'pi tirik qaytmasliklarini ham bilaman».

Ko'z oldimdan xayolan akula galalari o'ta boshladi; men ularning ulkan og'izlarida odamni tishlab ikkiga yorib tashlashga qodir bir necha qator tishlarini ko'rdim, ular xuddi biqinimga sanchilayotganday bo'lib tuyuldi...

Bundan tashqari, kapitanning menga beparvogi-na shu taklifni qilishining o'ziga tushunolmay turibman. Go'yo u meni o'rmonga qandaydir beozor tulkini ovlashga chaqirayotganday.

«Konsel rad etsa kerak, – deb o'yladim men.

– Bu esa menga ham kapitan Nemoning taklifini rad etish imkonini beradi».

Ned Lendga kelganda, ochig'ini aytsam, men uning oqilona ish tutishiga deyarli ishonmas edim. Xavf qanchalik dahshatli bo'lmasin, bu jangovar shaxsni hamisha o'ziga jalb etar edi.

Men yana SIRR kitobini qo‘limga oldim-u, ammo uni tamoman beixtiyor varaqladim: uning sahifalaridan dahshatli og‘izlarini ochib turgan akulalar menga tikilayotganday edi.

Shu payt salonga Ned Lend bilan Konsel kirib kelishdi. Ularning har ikkalasining kayfiyati chog‘, hatto quvnoq edilar. Ularni nima kutayotganidan xabarsiz edilar.

– Xudo haqqi, – deya menga murojaat qildi Lend, – kapitaningiz Nemo qurgur hozirgina bizga juda iltifotli bir taklif aytdi.

– Nima, – dedim men, – demak, sizlar ham xabardorsiz...

– Xo‘jamning ijozatlari bilan, – deya javob berdi Konsel, – shuni aytmoqchimanki, «Nautilus» komandiri bizni Manaar qo‘ltig‘idagi ajoyib marvarid konini borib ko‘rishga taklif etdi. U biz bilan juda yaxshi muomalada bo‘lib, o‘zini chinakam jentelmenlarday tutdi.

– U sizlarga boshqa hech nima demadimi?

– Kapitan bu kichik suvosti sayriga sizni ham ishtirok etishga taklif etganini hisobga olmagan-da, – deya javob berdi kanadalik, – boshqa hech nima.

– Bu qanaqasi, – dedim men. – Ammo u sizlarga boshqa hech narsaning tafsilotini aytib...

– Hech narsaning, janob professor. Siz, albatta, biz bilan birga borasiz-a, to‘g‘rimi?

– Menmi?.. Albatta. Siz suvosti sayohatlarining nimaligini tushunib yetayotganga o‘xshaysiz, mister Lend?

– Ha, juda ham qiziq ekan... Juda qiziq.

– Ammo, balki xavfli hamdir, – dedim men go‘yo hech narsa bilmaganday bo‘lib.

– Marvarid turgan sayozlikka oddiy sayrning nimaligi xavfli bo‘lsin? – e‘tiroz bildirdi Ned Lend.

O‘z-o‘zidan ayyonki kapitan Nemo akular haqidagi gapni aytib, o‘rtog‘larimni cho‘chitib qo‘yishni lozim topmagan. Men ularga go‘yo biron yerlari kamayib qolganday hayajonlanib qaradim.

O‘rtoqlarimni bo‘ladigan xavfdan xabardor qilib qo‘yishim kerakmikin? Albatta. Ammo nimadan boshlashimni bilmasdim.

– Xo‘jam bizga, – dedi Konsel, – marvarid qanday olinishini aytib berishga rozi bo‘larmikanlar?

– Marvaridning qanday olinishinimi yoki u bilan bog‘liq bo‘lgan xavflarnimi? – so‘radim men gapni sekin o‘zimga kerakli tomonga burishga imkoniyat tug‘ilganini ko‘rib.

– Qanday olinishi haqida, – deb javob berdi kanadalik. – Odam hamisha o‘zi boradigan yo‘lni yaxshi bilib olishi kerak.

– Bunday bo‘lsa, yaqinroq o‘tiringlar, do‘stlarim, men sizlarga marvarid qidirish to‘g‘risida SIRRning kitobidan bilib olganlarimning hammasini so‘zlab beraman.

Ned bilan Konsel divanga kelib, yonimga o‘tirishdi. Dastavval kanadalik savol berdi:

– Janob professor, marvaridning o‘zi nima?

– Shoir uchun, do‘stim Ned, marvarid – bu dengizning ko‘z yoshlari, – deya so‘z boshladim men. – Sharq xalqlari uchun – bu qotib qolgan shabnam, ayollar uchun – u xira yaltillaydigan, bezak sifatida barmoqlarga, bo‘yinga yoki quloqlarga taqiladigan qimmatbaho tuxumsimon tosh; kimyogar uchun – fosfor kislotali tuzlarning karbonat angidridli kalsiy bilan birikmasi; nihoyat, tabiatshunos uchun – u ayrim qo‘shabaqa chig‘anoqlarda uchraydigan oddiy kasallik – shish...

– Molluskalar turkumi, plastinka jabralilar sinfiga taalluqli... – deya ilib ketdi Konsel.



– Juda to‘g‘ri, mening olim do‘stim. Sadaf ajratadigan, ya‘ni og‘zining ich tomonidan havorang, ko‘kimtir, binafsharang yoki oq modda chiqaradigan chig‘anoqlarning hammasi marvarid beradi.

– Yeyiladigan chig‘anoqlar ham shundaymi? – so‘radi kanadalik.

– Ha, Shotlandiya, Uels, Irlandiya, Saksoniya, Bogemiya va Fransiyaning ayrim ko‘llaridagi yeyiladigan chig‘anoqlar ham.

– Shunday deng, – dedi kanadalik. – Buni hisobga olib qo‘yamiz. Vaqti kelib kerak bo‘ladi!

– Ammo marvaridni asosan marvarid chig‘anoqlar beradi. Marvarid – bu dumaloq shakldagi sadaf shish. Marvarid yo chig‘anoqning og‘ziga yopishib oladi yoki molluska tanasining qatlarida in quradi. Marvarid qayerda paydo bo‘lmasin, chig‘anoqning og‘zidami, tanasidami uning o‘zagi bo‘ladi va shu umumiy markaz atrofida yil sayin yupqa qatlamlar bilan sadaf ajralib chiqadi. Qurib qolgan urug‘ yoki molluska og‘ziga tasodifan tushib qolgan qum zarrasi o‘zak vazifasini o‘tashi mumkin.

– Bitta chig‘anoqda bir necha marvarid ham bo‘lishi mumkinmi? – so‘radi Konsel.

– Bunaqasi ham bo‘ladi. Ba‘zi bir chig‘anoqlardan butun bir marvarid shodasi o‘sib chiqadi. Shunday chig‘anoqlar borki, o‘zlarida, – to‘g‘risini ayt-sam men bunga unchalik ishonmayman, – kamida bir yuz ellik akulani sig‘dira oladilar.

– Bir yuz ellik akulani?! – qichqirib yubordi Ned Lend.

– «Akula» dedimmi?– taajjublanib so‘radim.– Men marvarid demoqchi edim. Akulalar aqlga sig‘maydi-ku!

– Albatta, – dedi Konsel. – Ammo xo‘jam mar-

varidni chig'anoqlardan qanday qilib chiqarib olishlarini aytib berolmaydilar?

– Buning turli yo'llari bor. Ba'zan marvarid chig'anoqning og'ziga yopishib turgan bo'lsa, uni qisqichchalar bilan oladilar. Ammo ko'pincha yig'ib olingan chig'anoqlarni sohilning o'zida to'shalgan bo'ryalarga yoyib qo'yadilar; o'n kundan keyin molluskalar ayniy boshlaganda, ularni dengiz suvi quyilgan katta hovuzlarga soladilar, shundan so'ng chig'anoqlarning og'zini ochib yuvadilar. Keyin saralovchilarga navbat keladi: dastavval chig'anoqlarning og'ziga yopishib qolgan marvaridlarni ajratib, ulardan alohida sotiladigan sadaf plastinkalarni oladilar va nihoyat chig'anoqlarning tanalarini suyulib ketguncha qaynatadilar va suyuqlik ichidan eng mayda marvaridlargacha terib oladilar.

– Marvaridlarning bahosi faqat uning katta-kichikligiga bog'liqmi? – so'radi Konsel.

– Yo'q, faqat katta-kichikligiga emas, – deb javob berdim men, – shakliga, «suviga», ya'ni rangi, yaltiroqligi va ko'zni quvnatadigan darajada tuslanib tovlanishiga ham bog'liq. Eng yirik marvaridlar molluska tanasining qatlarida hosil bo'ladi. Ular oq, ko'plari tiniq emas, ammo ba'zilar shishaga o'xshash shaffof bo'ladi. Ularning ko'pi dumaloq yoki noksimon shakldadir. Dumaloq marvaridlar bilaguzukka, noksimonlari zirak yoki popuklarga ishlatiladi. Bularning har ikki xili ham donalab sotiladi. Chig'anoqlarning og'ziga yopishib qolgan marvaridlarning shakli bir tekis emas, shuning uchun ular birinchilariga nisbatan arzon turadi va bular o'lchab sotiladi. Nihoyat, uchinchi navi – bu mayda marvaridlardir. Ular o'lchov idishlarga solib sotiladi va asosan turli kashtalarga, ayniqsa ibodatxonada kiyiladigan ust-boshlarga ishlatiladi.

– Marvaridlarni navlarga ajratish ham ancha qiyin va uzoq davom etadigan ish bo‘lsa kerak, a? – so‘radi kanadalik.

– Yo‘q, do‘stim, bu juda oson. Bu ish o‘n bitta elak yoki g‘alvir yordamida bajariladi. Yigirmadan saksongacha teshigi bo‘lgan g‘alvirdan o‘tmagan marvarid birinchi navga; yuztadan sakkiz yuztagacha teshikli g‘alvirdan o‘tmaganlari ikkinchi navga; sakkiz yuz ming teshikli g‘alvirda elanadigan marvaridlar esa uchinchi navga o‘tkaziladi.

– Bu juda ajoyib, – dedi Konsel. – Demak, saralovchilar ishi mexanizatsiyalashtirilgan ekanda... Xo‘jam marvarid korxonalarini ishga solish qancha daromad berishini aytolmaydilarimi?

– SIRR ma‘lumotlariga ishonadigan bo‘lsak, – javob berdim men, – unda Seylondagi marvarid sayozliklari yiliga uch million akulaga ijaraga qo‘yiladi.

– Frankka! – tuzatdi meni Konsel.

– Albatta, frank! Uch million frankka, – deb qaytardim men. – Ammo, menimcha, hozir bu sayozliklar ilgarigiday daromad bermasa kerak. Amerikadagi sayozliklar ham xuddi shunday. Karl V davrida ular yiliga to‘rt million franklik marvarid bergan, hozir marvarid olish uchdan ikkiga kamaydi. Umuman olganda, dunyodagi barcha marvarid konlari yiliga taxminan to‘qqiz million frank marvarid beradi.

– Ammo ba‘zi bir marvaridlar juda katta pulga sotilishini eshitganman, – dedi Konsel.

– Ha, do‘stim. Yuliy Sezar Servilliga bizning pulga bir yuz yigirma ming frank turadigan marvarid tuhfa qilgani tarixdan ma‘lum.

– Men, – dedi kanadalik, – qadimda allaqaysi bir xonim marvaridni sirkada eritib ichganini eshitgan-dim.

– Bu Kleopatra! – xitob qildi Konsel.

– Ta'mi juda bemaza bo'lsa kerak, – dedi Ned Lend.

– Bu haddan tashqari bemaza, Ned, – deya javob berdi Konsel, – ammo bir kichkina stakan shunday sirka bir yuz ellik ming frank turishini aytmaydizmi?

– Afsuski, bu xonim mening xotinim bo'lmagan, – dedi kanadalik o'zining zalvorli mushtumlariga tikilib.

– Ned Lend Kleopatraning eri! – xaxolab kulib yubordi Konsel.

– Endi uylanmoqchi edim, Konsel, – tortinmay javob berdi kanadalik, – ishim yurishmaganiga men aybdor emas-ku. Hatto qaylig'im Ket Tenderga marvarid shodasi ham sotib olgan edim, ammo u nimagadir boshqa odamga turmushga chiqib ketdi. O'sha marvarid shodasi menga atigi bir yarim dollarga tushgan bo'lsa ham, ammo so'zlarimga ishoning, janob professor, uning bironta toshi hatto yigirma teshikli elakdan ham o'tmas edi.

– Azizim Ned! – kuldim men. – U marjon oddiy dumaloq shishadan qilinib, marvarid essensiyasiga botirib olingan, sun'iy marvariddan tizilgan.

– Har holda, – deya e'tiroz bildirdi kanadalik, – o'sha essensiya ham arzon bo'lmasa kerak.

– Juda arzon. Mayda baliq – ukleykalarining azot kislotasida eritilgan tangachalari. Bu essensiya arzimagan chaqa turadi.

– Endi tushundim Ket Tender nega boshqa kishiga turmushga chiqib ketganini, – dedi Ned Lend faylasufona, osoyishtalik bilan.

– Endi yana qimmatbaho marvarid haqidagi suhbatimizga qaytaylik. Men aminmanki, yer yuzidagi bironta hokimi mutlaqda ham kapitan Nemoga tegishli marvariddan qimmatlarini topib bo'lmaydi.

– Mana shumi?– so‘radi Konsel vitrina oynasi tagida qora duxoba ustidagi qimmatbaho toshni ko‘rsatib.

– Xuddi shuning o‘zi. Uning bahosi ikki million desam adashmasam kerak...

– Frank! – dedi shoshilib menga Konsel.

– Xuddi shunday, ikki million frank. Uni topib olish uchun kapitan Nemoning bir engashgani kifoya bo‘lgan...

– Ko‘rdingizmi! – qichqirib yubordi Ned Lend. – Kim biladi, ajab emas ertagi sayr vaqtida biz ham shunaqasini topib olsak?

– Hmm! – deya g‘o‘ldirab qo‘ydi Konsel.

– Xo‘sh, nega endi bo‘lishi mumkin emas?

– «Nautilus»da bizga millionlarning nima keragi bor?

– Kemada ular, albatta, hech narsaga kerak emas, ammo... boshqa joylarda...

– Boshqa joylarda!.. – Konsel bosh qimirlatib qo‘ydi.

– Ned Lend haq, – dedim men. – Agar biz Yevropa yoki Amerikaga bir necha million frank baholanadigan marvarid olib borganimizda, bu – suvosti sarguzashtlarimizning qadr-qimmatini oshirib, uni ancha ishontirarli qilib ko‘rsatar edi.

– Shubhasiz! – deya qo‘shildi kanadalik.

– Ammo ayting-chi, – yana so‘z boshladi masalaning moddiy tomonidan ko‘ra ilmiy tomoniga ko‘proq qiziqayotgan Konsel, – marvarid izlashning biron-bir xavfli tomoni ham bormi?

– Yo‘q, – tezgina javob berdim men, – ayniqsa oldindan ayrim ehtiyot choralari ko‘rib qo‘yilganda.

– Bunday hunarning qanaqa xavfli tomoni bo‘lishi mumkin? – so‘radi Ned Lend. – Ortiqcha bir qultum suv yutiladimi.

– Axir gap faqat shuning o‘zidagina emas-ku, Ned. Aytganday, – deb qo‘shib qo‘ydim men kapitan Nemo singari beparvolik bilan gapirishga harakat qilib, – siz akuladan qo‘rqmaysizmi, Ned?

– Meni aytyapsizmi?! – xitob qildi Ned. – Men, kasbi garpunchi bo‘lgan odam akuladan qo‘rqsinmi!

– Gap akulani qarmoqqa ilintirgach, kema palubasiga tortib olib, bolta bilan dumini qirqib, qornini yorib, yuragini yulib olib, yana o‘zini qaytib dengizga tashlash ustida borayotgani yo‘q...

– Demak, siz so‘rayotganingiz...

– Ha, xuddi shunday!

– Suvdami?

– Suvda!

– Agar o‘zim bilan yaxshi garpun olib olsam...

Bilasizmi, janob professor, umuman olganda u juda beso‘naqay hayvon. Sizni yamlash uchun u, albatta, yelkasiga ag‘darilishi kerak, shu orada esa uning yuragiga garpun urishga ulgurasiz.

Ned Lend «yamlash» so‘zini shu qadar ifodali qilib aytardiki, badanimdan xuddi chumoli o‘rmlaganday bo‘ldi.

– Sen-chi, Konsel, akulalar haqida qanday fikrdasan? – so‘radim men.

– Men xo‘jam bilan mutlaqo ochiqchasiga gaplashaman... – so‘z boshladi Konsel. «Ayni muddao!» o‘yladim men.

– ...xo‘jam akulalardan qo‘rqmagach, nega endi men, uning sodiq xizmatkori ulardan qo‘rqishim kerak!

## Uchinchibob

### O'N MILLION FRANK TURADIGAN MARVARID

Tun boshlandi. O'rnimga kirib yotdim, ammo yaxshi uxlay olmadim. Tinmay akulalar tushimga kirdi, sovuq ter bosib bir necha bor uyg'onib ketdim.

Ertasi kuni ertalab soat to'rtida xizmatimga Nemo tayinlagan styuard meni uyg'otdi. Men tezda o'rnimdan turib kiyindim-da, salonga chiqdim.

U yerda meni kapitan Nemo kutib turar edi.

– Tayyormisiz, janob Aronaks? – so'radi u.

– Mutlaqo tayyorman, kapitan.

– Unday bo'lsa, marhamat, orqamdan yuring.

– Hamrohlarim-chi, kapitan?

– Ularni aytib qo'yishgan, bizni kutishyapti.

– Skafandrlarni kiyib olamizmi?

– Hozircha yo'q. «Nautilus» sohilga yaqin bo'rolmaydi, men uni Manaar qo'ltig'ining marvarid konlaridan ancha olisda to'xtatdim. Shuning uchun qayiqni tayyorlab qo'yishlarini aytdim, u bizni sayozlikning xuddi o'zigacha olib boradi, ortiqcha charchashdan ham qutulamiz. Skafandrlar qayiqda turibdi va biz ularni suvga sho'ng'ishimiz oldidan kiyib olamiz.

Biz palubaga ko'tarildik. U yerda Ned Lend bilan Konsel bizni kutib turishardi.

Suvga tushirilib, «Nautilus» bortiga bog'lab qo'yilgan qayiqning eshkaklarida besh nafar matros o'tirardi.

Hali tong yorishmagan, tun zim-ziyo edi. Yakkam-dukkam yulduzlar ko'kni o'rab olgan qalin bulutlar orasida yiltillab turar edi.

Men yer tomonga qaradim, ammo ufqning to'rtidan uch qismini qoplagan qandaydir noaniq zulmatnigina ko'rdim.

Tunda Seylon orolining g'arbiy qirg'og'i bo'ylab suzib kelgan «Nautilus» hozir qo'ltiqqa kira-verishda yoki to'g'rirog'i Seylon qirg'og'i va Ma-naar oroli hosil etgan ko'rfazda turar edi. Zim-ziyo suv sathi ostida dunyoda eng yirik marvarid koni, deyarli yigirma milyaga cho'zilib ketgan bitmas-tuganmas xazina yotar edi.

Kapitan Nemo, Ned Lend, Konsel va men qayiqning quyruq tomoniga o'tirib oldik. Matros-lardan biri rulga turdi, qolganlari eshkaklarni ush-lab oldilar va langar ko'tarilishi bilan biz yo'lga tushdik.

Qayiq janubga tomon yo'l oldi. Eshkakchilar shoshilmas edilar. Ular eshkakni harbiy-dengiz flotlaridagidek oradan o'n sekund o'tkazib suvga tushirayotganlariga e'tibor berdim. Qayiq o'z ha-rakati bilan suzayotganida ko'tarilgan eshkaklar-dan to'lqinlar ustiga tomayotgan suvning chakilla-shi eshutilib turardi. Qirg'oq tomondan esayotgan yengil shabada qayiqni xiyol chayqatar va to'lqin o'rkachlari uning tumshug'iga shapillab urilib, parchalanib ketardi.

Biz jim o'tirar edik. Kapitan Nemo nima haqda o'ylayotgan ekan? Balki, shu yer haqidadir, biz unga juda yaqinlashayotganimizni o'ylayotganmikin?

Ehtimol, Ned Lend ham yer haqida o'ylayot-gandir, ammo uning fikricha, har holda biz yerdan ancha uzoqdamiz.

Konselga kelganda, u hech narsa to'g'risida o'ylamay, faqat va'da qilingan tomoshani sabr-sizlik bilan kutayotganday edi.

Besh yarimda tongning dastlabki nurlari ufqda tog'ni namoyon etdi. Sharqi pasttekislikdan iborat orolning janub tomoni tog'lik edi. Biz undan besh milya masofada edik.



Orol bilan qayig'imiz oralig'ida dengiz bo'm-bo'sh edi. Na bironta kemacha, na suvga sho'ng'uvchilar ko'rinardi.

Kapitan Nemo to'g'ri aytgan ekan: biz bu yerga juda erta kelibmiz.

Ertalab soat oltida na tong, na oqshomi bo'ladigan tropik mamlakatlardagidek to'satdan kun chiqdi. Quyosh nurlari ufqni berkitib turgan bulut pardasini yorib chiqdi va kunduz mash'alasi tezda ko'kka ko'tarildi.

Endi men yerni, hatto sohildagi ayrim daraxtlarni ham aniq ko'rdim.

Qayiq Janubiy qirg'oqlari yarim doira shakldagi Manaar oroli tomonga burildi. Kapitan Nemo o'rnidan turib, dengizga qaradi.

Uning ishorasi bilan qayiq to'xtadi va suvga langar tashlandi. Langar bir metrcha cho'kdi, xolos. Bu yerda marvarid koni shu qadar sayoz edi.

Suv oqimi shu zahotiyiq qayiqni zanjir yetgan-cha orqaga, ochiq dengiz tomon tortdi.

– Mana, yetib ham keldik, professor, – dedi kapitan Nemo. – Bu kimsasiz ko'rfazni ko'ryapsizmi? Bir oydan keyin unga yuzlab korxonalar kema-lari yig'iladi va minglab jasur sho'ng'uvchilar ana shu suvga tushadilar. Bu ko'rfaz marvarid qidirish-ga juda qulay: u shamoldan tog'lar bilan ihota qilingan va unda sira kuchli to'lqin bo'lmaydi – bu sho'ng'uvchilarning ishlashi uchun g'oyat muhim hisoblangan shart-sharoitdir. Endi biz skafandrlarni kiyib, sayrimizni boshlaymiz.

Men javob qaytarmay va bu xavfli suvdan ko'z uzmay, matroslardan birining yordamida og'ir skafandrni kiya boshladim. Kapitan Nemo va ikkala do'stim ham skafandrlarini kiyishayotgan edilar. Ma'lum bo'lishicha, «Nautilus» matroslaridan bi-

rontasi ham qo'ltiqdagi suvosti sayohatimizda bizga hamroh bo'lmas ekan.

Ko'p o'tmay biz bo'ynimizgacha kauchuk kiyimga kirib oldik va yelkalarimizga siqiq havo solingan rezervuarlarni osib qo'yishdi. Qayiqda Rumkorf apparatlari va elektr fonarlar yo'q edi. Shlemni boshimga kiyib olishdan oldin kapitanni bundan ogoh etdim.

– Bizga fonar kerak bo'lmaydi, – deb javob berdi u. – Biz chuqurlikka bormaymiz, sayozlikni esa quyosh bemalol yoritadi. Bundan tashqari, bu suvlarda elektr fonarlarini yoqish kechirib bo'lmas darajadagi ehtiyotsizlik bo'lardi: uning yog'dusi xavfli yirtqichlarning diqqatini o'ziga jalb etishi mumkin.

Kapitan Nemo shu so'zlarni aytayotganida, men Ned Lend va Konselga qaradim. Biroq bu ajralmas birodarlar mis shlemlarni allaqachon boshlariga ilib olgan edilar. Ular hech narsa eshitolmadilar.

Kapitan Nemoga beradigan so'nggi savolim qoldi, xolos.

– Miltiqlar qani? – so'radim men. – Nahotki, qurollanmasdan borsak?

– Miltiq deysizmi? Ularning nima keragi bor? – e'tiroz bildirdi kapitan Nemo. – Tog'liklar hech vaqt ayiq oviga miltiq ko'tarib boradilarmi? Qo'ldagi xanjar har qanday o'qdan ham ishonchliroq. Dami o'tkirligini qarang. Belingizga qistirib oling, ketdik.

Men hamrohlarimga qaradim. Ular ham biz singari qurollanib olgan edilar va bundan tashqari Ned Lendning qo'lida «Nautilus»dan olib olgan katta garpun ham bor edi.

Boshimni og'ir mis shlemga tiqib, uni burashlariga ruxsat berish va siqiq havo to'latilgan rezervuar murvatini ochishdan bo'lak ilojim qolmagan edi.

Bir daqiqadan so'ng matroslar bizni birin-ketin suvga tushirishdi va taxminan bir yarim metrlar chuqurlikda oyoqlarimiz qum qatlamlariga tegdi.

Kapitan Nemo qo'li bilan ishora qilgach, biz uning ketidan qiyalik bo'ylab suvostiga tusha boshladik.

Ruhimni ezayotgan ko'ngilg'ashlik to'satdan tarqaldi. Men tamoman tinchlanib, suvosti hayotining ajoyib manzaralariga maftun bo'ldim.

Quyosh suvostini yaxshigina yoritmoqda edi. Hatto mayda jismlar ham aniq ko'rinardi. O'n minutcha yurgach, biz besh metr chuqurlikka tushdik, bu yerda suv tubi qattiq va tekis edi.

Biz dumidagidan boshqa suzgichi bo'lmagan birpatlilar guruhidan bir necha to'da baliqlarni cho'chitib yubordik. Men uzunligi salkam bir yarim metr keladigan, yelkasi va qorni sarg'ish-kulrang, xitoy ilonboshlilaridan kattaligi va rangparligi bilan ajralib turadigan yo'l-yo'l ilonboshlilarni ko'rdim. Shundan so'ng bizga yelkasidagi suzgichi yoqaga o'xshagan yorqin rangdagi yelkan baliqlar uchradi. Bu yeyiladigan baliq, quritilgan va sirkalanganlari mahalliy aholi orasida juda taniqli taom hisoblanaidi. Men imo-ishora bilan Konsel diqqatini tanasi mayda tangachalar bilan qoplangan karanga baliqlar oilasiga mansub stavridaga jalb etdim. Stavridalar yuqoridan ko'kish-kulrang, pastdan kumushrang bo'lib, uzunligi o'ttiz santimetr dan oshmaydi.

Bu orada ko'tarilayotgan quyosh suvni borgan sari yorqinroq yoritmoqda edi.

Suv tubining ko'rinishi asta o'zgara borardi.

Mayda, zich o'rnashib olgan qum o'rnini nimasi bilandir tosh yo'lni eslatadigan xuddi ataylab qoya parchalari yotqizilgan va zoofitlar hamda mollusklar gilamday qoplagan yer egalladi.

Men bu yerda faqat Qizil dengiz va Hind okeanida uchraydigan va ustritsalar oilasiga mansub chig'anog'ining og'zi yupqa va notekis platsenlarni; chig'anog'i dumaloq to'q sariq lyutsin; «Nautilus»ni ajoyib bo'yoq bilan ta'minlaydigan bir necha Eron qirmizlari; Hindiston bozorlarida sotiladigan, yeyiladigan chig'anoqlar va nihoyat ajoyib yelpig'ichlari okean hayvonot olamining eng go'zal namunasi hisoblangan okulinlarni ko'rdim.

Suv ostida son-sanoqsiz bo'g'inoyoqlilar o'rma-lab yurishardi. Bular orasida tanasi dumaloqroq, bir yog'ida xartum, ikkinchi yog'ida yetti juft oyog'i joylashgan qorni bo'lgan ko'pbo'g'inlilar; deyarli qirilib bitgan, tumshug'i yo'q paleostraklar; Charlz Darvin kuzatgan bahaybat dengiz qisqichbaqalari bor edi. Tabiat bu qisqichbaqalarga g'oyat zo'r kuch baxsh etgan; ular sohildagi daraxtlarga chiqib, kokos uzishar, yerga tushib yorilgach, o'zlarining qudratli qisqichlari bilan ochishardi. Ular bu yerda, yorqin yog'du tushib turgan suvlarda qoyalari orasida arang sudralib yuruvchi malabar qisqichbaqalariga nisbatan hayratga soladigan darajada tez suzishardi.

Ertalab soat yettilarga yaqin biz nihoyat millionlab chig'anoqlar sochilib yotgan marvarid konga yetib keldik. Yeyiladigan chig'anoqlar harakat qilish qobiliyatidan mahrum bo'lmasa, ulardan farqli o'laroq bu qimmatbaho molluskalar o'zlaridan ajralib chiqadigan shilimshiq moddalari yordamida qoyalarga yopishib olib, qaytib qimirlamas edi.

Marvarid hosil bo'ladigan molluskalar usti bir oz g'adir-budur, og'zi qalin bir xildagi dumaloq chig'anoqlardan iboratdir.

Ba'zi chig'anoqlarning ustida har tomonga ta-

ralayotgan nurlar kabi yashil chiziqlar bo'ladi. Bu yosh chig'anoqlar edi. Boshqa, yoshi o'n va undan oshganlari qo'ng'ir, hatto deyarli qora edilar va enlari o'n besh santimetrغا borardi.

Kapitan Nemo qo'li bilan uyulib yotgan behisob chig'anoqlarga ishora qildi va bu xazina chindan ham bitmas-tuganmasligini tushundim. Chunki saxiy tabiat bu boyliklarni inson yetkazgan zararidan ko'ra ko'proq miqdorda qayta yaratib turadi.

Insonning buzg'unchilik tuyg'usiga sodiq bo'lgan Ned Lend yonidagi osig'lik to'rni shosha-pisha eng yaxshi chig'anoqlarga to'lata boshladi.

Biroq bizning to'xtab qolishimiz mumkin emas edi. Tanish yo'llardan komil ishonch bilan borayotgan kapitandan ortda qolmaslik kerak edi. Biz bir necha marta qo'l ko'tarsa dengiz sathiga yetadigan yerlarga ham chiqib qoldik. Biroq o'sha zahoti suv tubi yana qiyalab, pastga qarab ketar edi.

Ko'pincha piramidaga o'xshagan baland qoyalarni aylanib o'tishga to'g'ri keldi. Uning yoriqlari va kovaklarida yirik qisqichbaqasimonlar in qo'yib yotardi. Allaqanday afsonaviy harbiy mashinalarni eslatuvchi bu qisqichbaqasimonlar o'zlarining uzun oyoqlarida tebranib, bizdan ko'z uzmay qarab turishardi.

Nihoyat, dengiz o'simlik dunyosining eng chiroyli namunalari bilan qoplangan qoyada juda g'alati qilib o'yilgan xushmanzara g'orning kiraverishiga kelib qoldik. Avvaliga nazarimda g'or ichi zim-ziyo zulmatday, quyosh nurlari uning kiraverishida so'nib qolganday bo'lib tuyuldi, biroq g'or ichini to'latgan suv yaltillayotgan edi; tiniq va quyosh nurlarini shimib olgan noma'lum rangda edi.

Kapitan Nemo g'orga kirdi. Biz ham unga ergashdik.

Ko'p o'tmay ko'zlarim g'ordagi qorong'ilikka ko'nikib qoldi. Ba'zi yerlarda bir tomoni devorga kirgan, o'zi esa granit ustida o'rnashgan to'rt qirrali ustunlar ko'tarib turgan g'or qubbalariga ko'zim tushdi. Ular toskan me'morchiligining ulkan ustunlariga o'xshab ketar edi.

Bizni bu suvosti g'orining ichkarisiga boshlab kelish g'alati yo'l boshchimizga nechun zarur bo'lib qoldi ekan?

Oradan ko'p o'tmay men buning sababini tushunib oldim.

Qiyalikdan pastga tushib biz kattagina cho'kmaga kirib qoldik. Bu yerda kapitan Nemo to'xtab, boshda biz ko'rmagan narsaga ishora qildi. Bu nihoyat bahaybat tridakna bo'lib, diametri ikki metr, ya'ni «Nautilus» salonidagidan ham katta edi.

Men bu g'aroyib molluskaga yaqinroq bordim.

U granit maydonchaga yopishib olib, bu g'orning sokin suvlarida yolg'iz o'sar edi.

Chamamda bu tridaknaning vazni uch yuz kilogramm kelardi. Bunday ustritsaning kamida o'n besh kilogramm go'shti bo'lsa kerak.

Kapitan Nemo bu tridaknaning mavjudligini ilgari bilgan bo'lishi kerak. Bu yerga uning birinchi kelishi ham emas va binobarin, bizni tabiat yaratgan shu mo'jizani ko'rsatish uchun g'orga boshlab keldi, deb o'ylagan edim.

Ammo xato o'ylabman. Kapitan Nemoning o'zi chig'anoqdan xabar olishi kerak ekan.

Chig'anoqning katta tavaqasi yarim ochiq ekan. Kapitan yopilib qolmasin deb uning orasiga xanjar qo'ydi. So'ngra u molluskaning kungurali terisi chetidan biroz ko'tardi.

Molluska tanasining qatlari orasida kattaligi kokos yong'og'lday marvarid erkin o'sayotgan ekan.

Dum-dumaloq silliq shakli, nihoyatda tiniqligi va soʻz bilan ifodalab boʻlmaydigan darajada tuslanishi uning qiymatini juda oshirib yuborgan edi.

Men qiziqib qolib, uni yaqindan bilish, ushlab chamalab koʻrish uchun qoʻlimni choʻzdim. Ammo kapitan Nemo meni toʻxtatib chigʻanoq tavaqasidan xanjarini olgan edi, u shu zahoti yopildi.

Kapitanning maqsadini tushundim: u asta-sekin oʻssin deb, marvaridni molluska terisining orasida qoldirgan. Molluska ajratadigan modda har yili marvarid qatlamini koʻpaytirib borardi. Gʻorda ana shunday moʻjizali narsa yetishayotganini birgina kapitan Nemoning oʻzi bilar edi, xolos. U buni vaqti kelib oʻz muzeyiga olish uchun oʻstirayotgan edi. Ehtimol bu marvaridni hosil etish uchun uning oʻzi molluskaning terisi ostiga koʻzmunchoq yoki temir soqqa qoʻygan boʻlishi ham mumkin.

Nima boʻlganda ham oʻzim eshitgan va «Nautilus» muzeyi vitrinasida koʻrganlarim bilan taqqoslab men bu marvaridni kamida oʻn million frank turadi, deb baholadim. Buni qimmatbaho tosh emas, balki misli koʻrilmagan noyob narsa desak toʻgʻriroq boʻlar edi. Zero, yer yuzida qulogʻi bunday zirakning ogʻirligini koʻtara oladigan bironta ayol boʻlmagan.

Ajoyib tridaknaning koʻrigi tugadi. Kapitan Nemo gʻordan chiqdi va biz qiyalikdan yana marvarid sayozligiga koʻtarildik.

Biz dalada sayr qilib yurgandek sochilib borar edik. Har birimiz istagan joyimizda toʻxtar, boshqalardan ancha ortda qolib ketar edik.

Shuni ham aytish kerakki, sayrga chiqish oldidan meni ezayotgan xavf-xatar haqida butunlay oʻylamay qoʻydim.

Suv tubi tobora koʻtarilib bordi va nihoyat sa-

yoʻzligi bir metr ga ham yetmaydigan joyda boshim okean sathiga chiqib qoldi. Konsel menga yetib oldi va shlemning oynasini shlemim oynasiga qoʻyib, koʻzlari bilan doʻstona salom izhor etdi. Biroq bu sa-yozlik bir necha oʻn metrgagina bordi, soʻng biz yana oʻz muhitimizga shoʻngʻidik. Endilikda men okeanni shunday deb atashga oʻzimni haqli deb bilaman.

Shunday qilib, yana oʻn minutlar chamasi oʻtdi. Kapitan Nemo birdan toʻxtab qoldi. Nazarimda u yoʻldan adashganday boʻlib tuyuldi. Yoʻq, unday emas ekan u yaqinroq borishimizni ishora qildi va biz yetib borgach, qoʻlini choʻzib, allaqanday nar-sani koʻrsatdi.

Diqqat bilan qaray boshladim.

Mendan besh metrlar narida soya koʻrindi. Xayo-limdan akulalar haqidagi dahshatli fikr oʻtdi. Ammo bekorga hayajonlangan ekanman: gap boshqa narsa ustida borayotgan ekan.

Bu – odam, tirik odam, baliqchi hind edi. Afti-dan, marvarid chigʻanogʻini olish uchun shoʻngʻigan boʻlsa kerak. Oʻzidan biroz narida, boshi ustida tur-gan qayiq tagtoʻsinini koʻrdim. U shoʻngʻib, oʻsha zahotiy oq suv sathiga koʻtarilardi. Suvga tusha-yotganda u oyoqlari orasida uchi arqon bilan qa-yiq quyrugʻiga bogʻlangan katta toshni qisib turar edi: bu uning suv tubiga tezroq yetib olishiga yor-dam berardi. Taxminan besh metrlar chuqurlikka tushgach, u toshni qoʻyib yuborib, tiz choʻkib olar, toʻrini tezgina qoʻliga ilingan chigʻanoqlar bilan toʻlatardi. Shundan soʻng u suv sathiga koʻtarilib, toʻrdagi chigʻanoqlarni qayiqqa tashlab, toshni tor-tib olgach, yana suvga shoʻngʻirdi. Suv ostida har gal u oʻttiz sekunddan ortiq turmas edi.

Gʻavvos bizning turganimizni sezmedi. Qoya so-yasi bizni undan toʻsib turar edi.



O'zi singari mavjudotlar suv ostida uning yonida har bir harakatini kuzatib turganini bechora hind qayoqdan xayoliga keltirsin?

U bir necha marta sho'ng'ib chiqdi. U chig'anoqlar dengiz tubiga qattiq yopishib qolgani sababli har sho'ng'iganida o'ntadan ortiq yig'ib ololmas edi. Hayotini xavf ostida qoldirib olib chiqqan chig'anoqlarining nechtasi marvaridsiz bo'ladi!

Men g'avvosning ishini zo'r diqqat bilan kuza-tardim. U ma'lum bir vaqtning o'zida sho'ng'ib, yana suv sathiga ko'tarilardi. Yarim soat davomida uning ishiga hech narsa xalaqit bermadi.

Men bu diqqatga sazovor ishga berilib, uning xavf-xatarini ham unutib, shu qadar mahliyo bo'lib qolibmanki, to'satdan hindning qo'rquv ichida dengiz tubiga oyog'ini tirab tezda yuqoriga sakraganini ko'rib qoldim.

Qo'rqishning sababi ayon bo'ldi. Ulkan bir soya bechora g'avvosning ustiga kelib qolgan edi. Bu – ko'zlari o'tday chaqnab, og'zini katta ochib hind tomon suzib kelayotgan bahaybat akula edi.

Men qo'rquvdan dong qotib, qimirlashga ham majolim kelmadi. Yuho yirtqich o'zini to'g'ri bechora hindga tashladi. Chap berib, o'zini akulaning ochiq og'zidan olib qochdi, ammo ko'kragiga uning dumidan kelib tushgan zarbdan qocholmay, o'sha zahoti o'zidan ketib yiqildi.

Bu voqea bir necha sekund ichida bo'lib o'tdi. Akula yelkasiga ag'darilib, hindni ikkiga bo'lib tashlashga hozirlik ko'rayotganida, to'satdan yonimda turgan kapitan Nemoning xanjarini sug'urib qat'iyat bilan dahshatli maxluq tomon yugurganini ko'rib qoldim.

U dahshatli yirtqich bilan yakkama-yakka jangga shaylangan edi!

Akula shoʻrlik gʻavvosni endi yutaman deb turganida, toʻsatdan yangi gʻanimni koʻrib qoldi. Oʻsha zahotiy oq qorniga agʻdarilib, kapitan Nemo tomon tashlandi.

Bu dahshatli olishuv manzarasi hali-hali batafsilligicha koʻz oʻngimda. Kapitan Nemo ulkan aku-  
laning yetib kelishini gʻalati osoyishtalik bilan ku-  
tib turdi. Akula unga tashlanganda, kapitan misli  
koʻrilmagan chaqqonlik bilan chap bera turib, qor-  
niga xanjarni dastasigacha sanchdi.

Ammo bu bilan ish bitmagan edi. Olishuv shun-  
dan keyingina boshlandi.

Boshqacha qilib aytganda, akula boʻkirib yubor-  
di.

Uning jarohatidan sharillab qon oqa boshladi. Atrofimizda suv qizarib, shu qadar boʻtana boʻlib ketdiki, men hatto keyin nima boʻlganini koʻrolmay qoldim.

Birozdan keyingina, suv oqargach, jasoratli ka-  
pitan akula suzgichidan ushlab olib, uning qorniga  
xanjarni gʻazab bilan qulochkashlab urib olishayot-  
ganini, ammo hal qiluvchi soʻnggi tigʻni yurakka  
sanchishga qulay vaziyat boʻlmayotganini koʻrdim.  
Akula qahr bilan toʻlgʻanib, suvni shu qadar kuch  
bilan chayqatdiki, oʻzimni zoʻrgʻa tutib oldim.  
Men kapitan Nemoga yordamga tashlanmoqchi  
boʻldim-u, ammo qoʻrquvdan shu qadar qotib qol-  
gan edimki, turgan oʻrnimdan bir qadam ham jilol-  
masdim.

Olishayotganlar ahvoli oʻzgarayotganini dard-u  
alam bilan kuzatib turardim. Akula kapitanni toʻshi  
bilan urib dengiz tubiga agʻdardi. Akulaning bahay-  
bat ogʻzi ochildi va Ned Lend oraga tushmaganida  
bir sekund ichida kapitan Nemo hayot bilan vido-  
lashgan boʻlur edi.

Kanadalik fikr tezligida akulaga tashlandi va garpun uchini unga zarb bilan sanchdi.

Suv yangi qon oqimidan yana loyqalandi va akula dumi bilan suvni qattiq chayqatdi. Ned Lend bexato urgan edi. Uning garpuni yirtqichning xuddi yuragini shikastlantirdi. Bu jon talvasasi edi. Bahaybat maxluq qaltirab, suvni shu qadar to'ldirib, Konsel ikkimiz ag'darilib tushdik.

Shu orada Ned Lend kapitanning o'rnidan turib olishiga yordamlashdi. Olishuvda biron yeri hatto timdalanmagan kapitan o'rnidan tura, zudlik bilan sal narida qimirlamay yotgan hinduga yaqinlashdi, uning jonsiz tanasini ko'tarib, oyog'ini dengiz tubiga tirab, suv sathiga tomon sakradi.

Biz uchalamiz unga ergashdik va bir necha sekunddan so'ng g'avvosning qayig'iga chiqib oldik.

Kapitan Nemoning dastlabki tashvishi sho'rlikni o'ziga keltirish edi. Hind suv ostida ko'p yotgani yo'q – akula bilan olishuv bir necha sekundgina davom etdi, binobarin yordam berish borasida kechikilmagan edi. Ammo ikkinchi tomondan akulaning dumi bilan urilgan dahshatli zarb uni halok qilgan bo'lishi mumkin.

Baxtiga bunday bo'lmagan ekan. Konsel bilan kapitan Nemoning zo'r berib tez-tez ishqalashlari tufayli suvga cho'kkan kishi asta-sekin o'ziga kela boshladi. U ko'zlarini ochdi.

Kattakon to'rtta mis bosh uning ustida engashib turganini ko'rganda qanchalik taajjublangani va hatto qo'rqib ketganini tasavvur qiling-a!

Kapitan Nemo belidan marvarid solingan to'rini yechib, qutqarilgan kishiga uzatdi. Suv odamining bu ajoyib tuhfasini seylonlik bechora hind qaltirab turgan qo'llari bilan oldi. Yuzidagi qo'rquv va taajjubdan ayni vaqtda ham hayotini saqlab qol-

gan, ham kutilmaganda shunday boyluk in'om etgan g'ayritabiyy mavjudotlarga qanday minnatdorchilik bildirish lozimligini bilmayotgani so'zsiz ko'rinib turardi.

Kapitan Nemoning ishorasi bilan biz qayiqdan tushib, marvarid koniga qaytdik va yarim soat yurgach, «Nautilus» qayig'i bog'langan langarga yetdik.

Qayiqqa chiqib olgach, matroslar yordamida og'ir mis shlemlardan bo'shab oldik.

Kapitan Nemoning birinchi so'zi Ned Lendga qaratilgan edi.

– Sizdan minnatdorman, mister Lend!– dedi u.

– Arzimaydi, kapitan, – deb javob berdi kandalik. – Men sizdan qarzimni uzdim, xolos.

Kapitanning yuzida sovuq bir tabassum jilvalandi-yu, shu bilan tamom.

– «Nautilus»ga! – buyurdi u.

Qayiq to'liqlar bo'ylab o'qday uchib ketdi. Bir necha daqiqadan so'ng suv betiga qalqib chiqqan akula murdasi yaqinidan suzib o'tdik. Qirrali tumshug'i va deyarli yelka suzgichlarigacha davom etib ketgan o'roqsimon uzun ko'krak suzgichlari, nihoyat kulrang yelkasi va oq qorniga qarab men uning chinakam akulalar oilasiga mansub eng xavfli turlaridan biri – havorang akulaligini ko'rdim.

Konsel o'ldirilgan yirtqichga sof ilmiy nuqtayi nazardan qarayotgan edi. Aminmanki, shu daqiqada u o'zicha bu maxluqni kemirchaklilar kichik sinfi, chinakam akulalar oilasi, havorang akulalar turiga taalluqli deb to'g'ri chamalayotgan edi.

Men qimir etmay yotgan bu nimtalangan go'shtni ko'zdan kechirayotganimda to'satdan uning yalmog'iz urug'-aymoqlaridan oltitachasi qayiq oldida paydo bo'lib qoldi. Bizga mutlaqo e'ti-

bor bermay, havorang akulaning murdasiga yopirilib, uning tanasidan yulib olingan parchalarni birbirlaridan tortqilay boshladilar.

Sakkiz yarimda biz «Nautilus»ga qaytdik.

Kayutamga kirgach, xotiramda bugungi ertalabdan beri bo'lgan voqealarni jonlantira boshladim. Ulardan ikki xulosa chiqarish mumkin edi; birinchisi shuki, jasurlikda kapitan Nemo bilan raqobat qiladigan odam yo'q va ikkinchisi – insoniyatdan nafratlanishiga va undan bezib dengiz qa'riga qochgan bo'lishiga qaramay, umrida birinchi uchragan notanish bir qashshoqning hayotini saqlab qolish uchun o'z hayotini tahlika ostida qoldirishga tayyor edi.

Bu g'alati odam o'zi haqida nima demasin, insonparvarlik tuyg'ularini butunicha yo'q qila olmagan ko'rinib turar edi.

Men unga shuni aytganimda, hayajonini yashirolmay javob berdi:

– Bu hind mazlumlar mamlakatidan edi, professor. So'nggi nafasimgacha barcha mazlumlar tomonida bo'laman va har bir mazlum kishi mening og'am edi, hozir ham og'am, bundan keyin ham og'am bo'lib qoladi.

## *T o ' r t i n c h i b o b*

### **QIZIL DENGIZ**

29-yanvarda kunduzi Seylon oroli ufq ortida ko'rinmay qolgach, «Nautilus» katta tezlik bilan Maldiv orolini Lakkadiv orolidan ajratib turgan bo'g'ozning aylanma yo'lidan suzib borar edi. Biz Lakkadiv orollar tizmasining o'n to'qqiz yirik orollaridan biri – shimoliy kenglikning 10-gradus 1-minuti va 14-gradus 30-minutida hamda sharqiy

uzunlikning 69-gradus 0-minuti va 50-gradus 72-minutida joylashgan, 1499-yilda Vasko-de-Gama ochgan Kittan marvarid oroli yonidan o'tdik.

Suvosti kemasi Yapon dengizidan chiqqanidan o'sha kungacha o'n olti ming ikki yuz yigirma milya bosib o'tgan edi.

Ertasi kuni, 30-yanvarda, «Nautilus» dengiz sat-higa ko'tarilganda yer ko'rinmay qolgan edi.

Kema endi shimol – shimoli g'arb, Arabiston bilan Hindiston yarimoroli oralig'ida yotgan va Fors qo'ltig'iga kiraverish vazifasini o'taydigan Ummon qo'ltig'i tomon yo'l oldi.

Kapitan Nemo bizni qayoqqa olib ketyapti? Men bu savolga o'zimga ham, shu haqda so'ragan Ned Lendga esa umuman javob bera olmas edim.

– Biz, do'stim Ned, kapitan Nemoning boshi oq-qan tomonga ketyapmiz, – deb javob berdim unga.

– Bu bizni, yaxshilikka olib bormasa kerak, – dedi kanadalik. – Fors qo'ltig'iga kiradigan birgina yo'l bor, chiqadigan yo'l ham shuning o'zi, bordi-yu, biz unga kirsak, unda, albatta, orqaga qaytishga to'g'ri keladi.

– Nima qipti, qaytaveramiz-da, Ned. Agar Fors qo'ltig'idan keyin kapitan Nemo Qizil dengizga o'tmoqchi bo'lsa, Bobil-Mandab bo'g'ozi uning kemasi o'tkazib yuborishga hamisha tayyor.

– Janob professor, Qizil dengiz Fors qo'ltig'i singari yopiqligini mendan yaxshi bilasiz, – deya e'tiroz bildirdi Ned Lend, – chunki hali Suvaysh kanali qazilmagan, binobarin, hatto «Nautilus»day kema ham bo'lajak to'g'on darvozalari uchun qazilgan chuqurdan o'ta olmaydi. Shunday qilib, Qizil dengiz bizni Yevropaga sira yaqinlashtirmaydi.

– Ammo men sizga Yevropaga yaqinlashyapmiz deganim ham yo'q.

– Unda taxminingiz qanday?

– Menimcha, Arabiston va Misr sohillaridan o‘tgach, «Nautilus» yo Mozambik bo‘g‘ozi yoki Maskaren orollari yonidan o‘tib, yana Hind okeaniga qaytadi va Yaxshi Umid buruniga boradi.

– Shunday bo‘ladi deb, faraz qilaylik, – deya so‘zini davom ettirdi unga xos bo‘lmagan qat‘iyat bilan Ned Lend. – Xo‘sh, Yaxshi Umid buruniga yetib olganimizdan keyin nima bo‘ladi?..

– «Nautilus» uni ortda qoldirib, biz hali bo‘lmagan o‘sha Atlantik okeanga chiqib oladi. To‘g‘risini ayting-chi, do‘stim Ned, nahotki, bitmas-tuganmas shu suvosti manzaralari sizni charchatib qo‘ygan bo‘lsa? Menga kelganda, ochig‘ini aytsam, biror inson hatto orzu ham qilolmaydigan bu ajoyib sayohat oxirlab qolganda astoydil xafa bo‘laman.

– Nahotki, siz, janob professor, – deya e‘tiroz bildirdi kanadalik, – uch oydan buyon shu suvosti kemasida bandi bo‘lib yotganingizni unutgan bo‘lsangiz?

– Bunisi esimda yo‘q, Ned, va eslashni ham istamayman! Men «Nautilus»da o‘tkazayotgan soatlarni ham, kunlarni ham sanamayapman.

– Bu ishning oxiri nima bo‘larkin?

– Vaqt-soati yetganda ko‘ramiz! Bu ishni tezlashtirish uchun qo‘shimcha biror chora ko‘rish qo‘limizdan kelmaydi, behuda tortishuvga esa hojat yo‘q. Bordi-yu, mening jasoratli Nedim, menga kelib: «Qochishga qulay fursat yetdi!» deganida jon deb siz bilan o‘tirib olib, qutulish yo‘llarini muhokama etardim. Biroq hozircha bunday qulay fursat bo‘lganicha yo‘q va ochig‘ini aytsam, kapitan Nemoning, umuman qachondir Yevropa dengizlariga o‘tishiga ortiqcha ishonmayman ham.

Bu qisqa dialogdan men «Nautilus» va uning sirli

kapitanining mutaassibona muxlisi bo'lib qolganim ko'rinib turibdi.

Ned Lendga kelsak, fikrini quyidagi hikmatli so'zlar bilan tugatdi:

- Aytganlaringizning hammasi to'g'ri, ammo menimcha, zo'ravonlik bor joyda halovat bo'lmaydi!

Keyingi to'rt kun davomida, 3-fevralgacha, «Nautilus» Ummon qo'ltig'ida turli tezlik va chuqurliklarda suzib yurdi.

U ma'lum bir yo'nalishni tanlamay, tasmollab ketayotganga o'xshardi; ammo shu kunlar ichida biz Rak tropigini biron marta ham kesib o'tganimiz yo'q.

Bu dengiz bilan xayrlashishdan oldin biz bir necha minut davomida Ummonning asosiy shahri Masqatni kuzatib turdik. Men uning ajoyib manzarasiga mahliyo bo'ldim: qoramtir qoyalar oldidagi oq uylar va istehkomlar chindan ham nihoyat darajada go'zal edi.

Men machitlarning dum-dumaloq gumbazlari, ko'kka bo'y cho'zgan mineralari, ko'kalamzor ayvonlarini zavq bilan tomosha qildim.

Biroq bu manzara ko'pga cho'zilmadi, «Nautilus» yana zim-ziyo suv qa'riga sho'ng'idi.

Shundan so'ng kemamiz Gadramaut yaqinidan unda-munda qadimiy vayronalari bo'lgan tuya o'rkachlariday baland-past tog' tizmalari yonidan Arabiston sohillari bo'ylab quruqlikdan olti milya uzoqlikda suzdi.

Nihoyat, 5-fevralda biz Hind okeanining suvlari Qizil dengizga quyiladigan Bobil-Mandab bo'g'oziga chinakam voronka bo'lib turgan Aden qo'ltig'iga kirib bordik.

6-fevralda «Nautilus» Aden shahri ko'rinadigan



yerda dengiz sathiga ko'tarildi. Bu shahar shu nomdagi burunda joylashgan bo'lib, uni qit'a bilan torgina bo'yincha bog'lab turar edi.

Aden o'zining tabiiy sharoitiga ko'ra haqiqiy Arabiston Gibraltari hisoblanib, 1839-yilda inglizlar tomonidan zabt etilgan va endilikda u olib bo'lmaydigan qal'aga aylangan edi. Tarixchi Edridning aytishicha, butun dengiz bo'yida bir vaqtlar eng gavjum va boy savdo markazi bo'lgan bu shaharning sakkiz qirrali minoralarini uzoqdan ko'rdim.

Kapitan Nemo «Nautilus»ni Adendan orqaga qaytarishiga ishonchim komil edi. Biroq xato qilgan ekanman.

Ertasi kuni, 7-fevralda, biz Bobil-Mandab bo'g'oziga kirdik. Bu bo'g'oz arabchada «Ko'z yoshi eshigi» degan mazmunni ifodalaydi. Bo'g'ozning uzunligi hammasi bo'lib ellik ikki kilometr va «Nautilus» uni juda tez suzib, salkam bir soat ichida bosib o'tdi. Ammo men hech qayerni, hatto inglizlar Adening dengizga hukmronligini mustahkamlash uchun bosib olgan Perim oroli sohillarini ham ko'rolmadim. Suvaysh bo'ynini Bombay, Kalkutta, Melburn va avliyo Mavrikiya oroli bilan bog'laydigan bo'g'oz suvlaridan haddan ziyod ingliz va fransuz kemalari qatnab turgani uchun «Nautilus» suv sathida emas, balki muttasil suvga cho'kkan holda suzdi.

Nihoyat, peshinda biz Qizil dengiz suvlariga kirdik.

Qizil dengiz! Uning sathiga bulutlar sira yomg'ir bo'lib quyilmaydi! Ko'k gumbazi bu dengiz uzra bulutlar bilan qovog'ini solmaydi! Unga bironta katta daryo kelib quyilmaydi! Qizigan quyosh dengiz su-

vini ko'p miqdorda bug'latib, har yili uning sathidan bir yarim metr suvni olib ketadi.

Agar bu g'alati qo'ltiq okeandan uzilib, ko'lga aylanganida u allaqachon qurib qolgan bo'lishi ham mumkin edi.

Qizil dengiz bo'yiga ikki ming olti yuz kilometr, eniga o'rta hisobda ikki yuz qirq kilometr keladi. U Ptolemeylar, fir'avnlari<sup>1</sup> va Rim imperiyasi davrida dunyodagi eng katta savdo yo'li edi.

Suvaysh kanalining ochilishi bu dengizning ilgirigi mavqeyini qayta tiklaydi.

Men kapitan Nemoning nima sababdan bu qo'ltiqqa kelib qolganligini tushunib olishga harakat ham qilmadim. Biroq «Nautilus»ning bu yerga kelib qolganidan benihoya xursand edim.

Endilikda biz oldimizdan kelayotgan kemalarga uchramaslik uchun goh dengiz sathida, goh suv ostida shoshilmay, bir me'yorda suzib borar edik, binobarin, men bu ajoyib suv havzasi bilan tanishish imkoniyatiga ega bo'ldim.

8-fevralda quyosh o'z jamolini ko'rsatishi bilan biz vayronalar shahri, nuragan devorlari bir zambarak ovozdanoq qulay deb turgan Mokkani ko'rdik. Vayronalar orasida xurmo daraxtlari ildiz otib ko'm-ko'k bo'lib o'sib yotardi. Bir vaqtlar Mokkani aylanasi uch kilometr keladigan tasmaday oltita bozor, yigirma olti masjid, o'n to'rtta qo'rg'on o'rab turardi.

«Nautilus» suvi ancha chuqur bo'lgan Afrika sohillariga yaqinlashib borardi. U yerda biz suvga cho'kib, ajoyib qip-qizil marjon butalari va suvosti qoyalari gilamday qoplab yotgan yo'sinlar va fukuslarni zavq bilan tomosha qildik. Liviya sohillariga borib taqaladigan bu suvosti qoyalari va

---

<sup>1</sup> Fir'avni – qadimgi Misr podshohlarining unvoni.

orolchalar naqadar xushmanzara! Ammo «Nautilus» ko'p o'tmay yetib kelgan sharqiy sohillarning suvosti manzaralari undan ham go'zal va rang-barang edi. Tixam yonida zoofitlar suv ostidagina o'sib qolmay, ularning ajoyib chirmovuqlari dengiz sathidan ham bir necha metrgacha ko'tarilgan edi. Ammo, ochig'i, suv ustidagi zoofitlar suv ostidagilariga nisbatan ancha rangsiz edi.

Qanchadan qancha unutilmas damlarni salon derazasi yonida o'tirib o'tkazdim. Elektr proyektor yog'dusida suvosti o'simlik va hayvonot olamining qanchadan qancha yangi namunalarini: appendikulariyalar, salplar, rangi qora mineralga o'xshagan aktiniyalar, turkum-turkum bo'lib yashaydigan son-sanoqsiz chig'anoqlar, nihoyat hozirgacha men hech qayerda uchratmagan bulutlar sinfining minglab xillarini ko'rdim.

Bulutlar – hanuz ba'zi tabiatshunoslar o'ylayotgancha, o'simlik emas, balki boshlang'ich bosqichdagi jonivor, u hatto taraqqiyotda marjonlarga nisbatan ham ancha past turadi.

Bulutlarning hayvonot olamiga mansubligiga hech qanday shubha yo'q va shu bilan birga qadimgilarning izidan borib, ularni hayvonot va o'simlik oralig'idagi allaqanday olamga taqash to'g'risida so'z ham bo'lishi mumkin emas.

Shuni ham aytib qo'yay, tabiatshunoslar hanuz bulutlarning tuzilishi masalasida muayyan bir fikrga kelganlari yo'q.

Ba'zilar bu mayda jonivorlarning butun bir turkumini, boshqalar, shu jumladan Miln-Edwards har bir bulutni alohida bir jonivor deb hisoblashadi.

Bulutlar sinfi bir necha ming turdan iborat. Bulutlar barcha dengizlarda, shuningdek, ayrim dar-yolar va ko'llarda ham yashaydi. Biroq ko'pincha

ular O'rtayer dengizi, Gretsiya dengizlarida, Suriya sohillari va Qizil dengizda uchraydilar. Bu yerda asosan har biri yuz ellik frankka sotiladigan juda nafis, yumshoq, oqish Suriya va Tripolitan bulutlari yashaydi.

Suvaysh bo'ynining o'tib bo'lmas devori to'sib turgan Yaqin Sharq mamlakatlarida bulutlarni uch-ratishga umid bog'lab bo'lmasligi sababli men Qizil dengizdagi bulutlarni zo'r diqqat bilan ko'zdan ke-chira boshladim.

«Nautilus» serqoya sharqiy sohildan sakkiz-o'n metr chuqurlikda suzayotganida, men Konselni chaqirib, derazadan birgalashib qarab turar edik.

Bu yerda bulutlarning hamma: tanasimon, barg-simon, sharsimon, panjasimon turlari bor edi. Fand-an ko'ra poeziyaga moyilroq ovlovchilarning sa-vatcha, bokal, yigiruvchi, sherpanja, tovsudum, Neptun qo'lqopi deb bergan nomlari ularning tash-qi ko'rinishiga tamoman monand edi. Kalla-pocha sho'rvasining yaxnasiga o'xshagan yarim suyuq modda bulutlarning tolasimon to'qimalariga ozuqa berib, har bir hujayraga ingichka tola orqali hayot bag'ishlaydi. Ozuqalangan hujayra tortilib, o'zidagi ortiqcha suvni siqib chiqaradi. Polip o'lgach, yaxna-ga o'xshagan bu modda yo'qoladi; u aynib, o'zidan ammiak ajratadi va jonivor havoda sariq tolalarga aylanadi va undan egiluvchanligi, suv o'tkazish da-rajasiqa qarab turli maqsadlarda foydalaniladi.

Bulutlar qoyalarga, molluskalarning chig'anoqlariga, hatto zoofitlarning tanasiga ham ila-shadi.

Ular kichikkina yoriqqa ham, qoyalarning chu-qurchalariga ham o'rnashib olib, marvarid polip-lari singari goh eniga, goh bo'yiga, goh pastga qa-rab o'sadi.

Men Konselga bulutlarni dragada ham, qo'lda ham ovlashlarini, qo'lda ovlash afzalligi, chunki g'avvoslar uning hujayralarini uzmay, avaylab olishlarini, dragada esa bunga sira amal qilib bo'lmasligini aytdim.

Bulutlar atrofida g'ij-g'ij bo'lib yurgan boshqa zoofitlar ichida o'zining chiroyli tashqi ko'rinishi bilan ajralib turadigan meduzalar ayniqsa ko'p edi. Molluskalardan bu yerda kalmarlar, o'rma-lovchilarga oid dengiz toshbaqalaridan sho'rvabop deb ataladigan xili yoki go'shti so'yilgan kunning o'zida ishtaha bilan yeyiladigan yashil toshbaqa bor edi.

Baliqlar juda ko'p edi. O'sha kunlari «Nautilus» o'ljasining turlari quyidagilardan iborat edi: skatlar, shu jumladan, eni bir yarim metrgacha yetadigan, vazni salkam o'n ikki kilogrammik burgutsimon skat yoki dengiz burguti, to'rt qirrali suyak kosasi va ko'zi ustida shoxga o'xshash nayzalari bo'lgan shoxdor kuzovkalar; tanasi g'alati rangli, oldi och sariq, orqasi qo'ng'irroq, usti esa bosh-oyoq marmar naqshli ilonbaliqlar oilasiga mansub yirtqich baliq murenlar; karang baliqlar oilasiga mansub sariq rangli, atrofi esa qora hamda jigarrang tasma bilan o'ralgan shoxdor zanklar; och qirmizi va to'q tasmali kolbasimon cho'rtanbaliqlar oilasiga mansub so'rg'ichlar – bu baliqlar kemirchak o'simtasidan hosil bo'lgan so'rg'ichlari yordamida toshlar yoki chig'anoqlarga juda mahkam yopishib oladilar va ov ko'ringanda o'zlarini tashlash yoki dushmandan saqlanish uchungina harakatsiz holatdan chiqadilar. Bundan tashqari, to'rga biz boshqa dengizlarda ko'rgan ko'plab turli baliqlar ham tushgan edi.

9-fevralda «Nautilus» Qizil dengizning eng ser-

bar joyidan, g'arbda Suakin va sharqda Yaman orasidan suzib borar edi.

Peshinda, kapitan yordamchisi kuzatuv ishlarini tugatgach, kapitan Nemo yonimga, palubaga chiqdi.

Men «Nautilus»ni qayoqqa boshlayotganini bilib olmaganimcha, uni qo'yib yubormaslikka ahd qildim.

Kapitan Nemo meni ko'rishi bilan o'zi yaqinlashib, sigara tutdi va gap boshladi:

– Qizil dengiz sizga yoqdimi, professor? Uning baliqlari, bulutlar va marjon o'rmonlarini ko'rib bo'ldingizmi? Sohillarida joylashgan shaharlarni ham tomosha qildingizmi?

– Minnatdorman, kapitan. Bu imkoniyatni men ga «Nautilus» berdi. Qanday oqil kema!

– Ha, professor, oqil, dadil va mustahkam! U Qizil dengizning na qo'rqinchli bo'ronlaridan, na oqimlaridan, na qoyalaridan qo'rqadi.

– Darhaqiqat shunday, – dedim men, – bu eng xavfli dengizlardan biri hisoblanadi; adashmasam, u qadim zamonlardan badnom bo'lib qolgan.

– Ha, to'g'ri, u qadim zamonlardan yomonotliq. Yunon, shu bilan birga Rim tarixchilari ham u haqda juda yomon fikrdalar. Strabonning aytishicha, yog'ingarchilik va shimol shamollari ko'tarilgan paytlarda u odam yoqtirmay qoladi. Uni Kolzum qo'ltig'i deb ataydigan arab tarixchisi Edridning hikoya qilishicha, ko'pgina kemalar uning qumloq sayozliklarida halok bo'ladi va tunda hech kim unda suzishga jur'at etolmaydi. Uning aytishicha, bu dengiz o'zining dahshatli dovullari bilan nom chiqargan, orollari mehmon yoqtirmaydigan va «sathida ham, qa'rida ham diqqatni jalb etadigan hech

narsasi yo‘q», Arrian, Agatarxid va Artemidorlar ham shu fikrga qo‘shildilar...<sup>1</sup>

– Ko‘rinib turibdiki, bu tarixchilar «Nautilus»da suzmaganlar, – deb qo‘shib qo‘ydim men.

– Juda to‘g‘ri, – kuldi kapitan Nemo. – Ammo sirasini aytganda, bu masalada hozirgi zamon tarixchilarining ham ahvoli qadimgilaridan farq qilmaydi. Bug‘da yashirilib yotgan mexanik kuchni aniqlash uchun juda ko‘p asrlar kerak bo‘ldi. Kim biladi, loaqal yuz yildan so‘ng jahon ikkinchi «Nautilus»ni ko‘ra olarmikin? Taraqqiyot, janob professor, shoshilayotgani yo‘q!

– To‘g‘ri, – dedim men, – kemangiz o‘z davrini bir necha asr bo‘lmagan taqdirda ham, butun bir asr oldindan belgilab oldi. Ammo uning siri ixtirochisi bilan birga dafn etilishi qanday katta baxtsizlik!

Kapitan Nemo javob bermadi. Bir necha daqiqalik jimlikdan so‘ng u yana so‘zini davom ettirdi:

– Adashmasam, biz qadimgi tarixchilarning Qizil dengizda suzishning xavfli tomonlari haqidagi fikrlari ustida gapirayotgan edik shekilli?

– Ha, – dedim men. – Ular xavfsirashni haddidan oshirib yuborganlar, deb hisoblayapsizmi?

– Ha desa ham bo‘ladi, yo‘q desa ham, janob professor, – deb javob berdi menga kapitan Nemo.

Aftidan u Qizil dengizni obdan o‘rgangan. – Puxta qurilgan, bo‘ysundirilgan bug‘ning sharo-fati bilan erkin yo‘l tanlay oladigan, hozirgi zamon kemalari uchun sira xavfsiz hisoblangan narsa qadimgi dengizchilarning kemalari uchun kutilmagan tasodiflarga to‘la bo‘lishi mumkin edi. Palma po‘stlog‘idan qilingan arqon bilan tortilib, teshiklariga qora moy yoki delfin moyi surilgan taxta kemalarni tasavvur qilish qiyin emas! Ularda kema-

---

<sup>1</sup> Qadimgi Gretsiyaning tarixchi va geograflari.

chilikka zarur birorta asbob-uskuna bo'lmaganidan noma'lum oqimlar girdobida tavakkal qilib suzganlar. Bunday sharoitlarda halokatga yo'liqish juda oson bo'lgan. Ammo hozirgi kunda Suvaysh bo'yini bilan janubiy yarim shar dengizlari oralig'idagi reyslarda qatnovchi kemalar Qizil dengizning bo'ronlari va mussonlaridan sira cho'chimasa ham bo'ladi. Bu kemalarning kapitanlari, komandasi va yo'lovchilari suzib ketish oldidan da'fi ofat uchun qurbonlik bermasalar va qaytgandan keyin esa ibodatxonaga kirib, marhamatlari uchun xudolarga sajda qilmasalar ham bo'lardi.

– Ha, bug' dengizchilar qalbidagi shukrona tuyg'ularini yo'qotdi, – dedim men hazil qilib. – Ha, aytganday, siz bu dengiz tarixini shu qadar atrofli-cha o'rganibsiz, balki uni nega qizil deb atashlarini tushuntirib berarsiz?

– Qadimgilar unga bu nomni ayrim qismlarida suvining rangi g'alati bo'lgani uchun berishgan, – deb javob berdi kapitan Nemo.

– Ammo hozirgacha biz juda tiniq, mutlaqo bo'yalmagan suvini ko'rdik.

– To'g'ri, ammo biz bo'g'ozning oxiriga yetganimizda, u yerda suvning qizg'ishroq tovlanishiga ishonch hosil etasiz. Bir gal Tor ko'rfazida qon to'la ko'lday qip-qizil suvni ko'rganim esimda.

– Suv rangining bundayligiga sabab nima? Mikroskop ostidagina ko'rinadigan suv o'tlarimi?

– Ha. Bu qirq mingi bir kvadrat millimetrda joylashadigan va mikroskop ostidagina ko'rinadigan trixodesmik o'simlikchalari ajratgan shilliq modda. Tor ko'rfaziga borgach, ajab emas bu kamdan kam uchraydigan hodisaning shohidi bo'lsangiz.

– Demak, siz Qizil dengizga «Nautilus»da birinchi marta kelishingiz emas ekan-da, kapitan?



– Yo‘q, birinchi marta emas. Bu yerga Suvaysh kanalini endi qaziy boshlaganlarida kelganman.

– «Nautilus»day këmaga bu kanalning sira foydasi tegmaydi, – dedim men.

– Ammo unga bo‘lmasa, butun jahonga foydasi bor, – deb javob berdi kapitan Nemo. – Qadimgilar O‘rtayer dengizi bilan Qizil dengiz o‘rtasida to‘ppa-to‘g‘ri suv yo‘li ochish savdo-sotiq uchun qanchalik foyda berishini juda yaxshi tushunganlar. Ammo ular dengizdan dengizgacha oddiy kanal qazish mumkinligini o‘ylab o‘tirmay, mashaqqatliroq yo‘l tutganlar: Nil oqimini Qizil dengiz bilan qo‘shganlar. Ana shu Nil kanalini qazish ishlari, ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, fir‘avn Sezostris<sup>1</sup> davrida boshlangan. Har holda shu narsa aniqki, eramizdan avvalgi olti yuz o‘n beshinchi yilda fir‘avn Nexo Nildan suv olib, Misrning Arabiston tomonidagi pasttekislik orqali o‘tadigan kanalni qazish yuzasidan ish boshlagan edi. Bu kanal orqali Nildan Qizil dengizgacha kemalar to‘rt kunda suzib o‘tishlari, uning kengligi esa ikki kema yonma-yon sig‘adigan bo‘lishi kerak edi. Kanal qurilishi Gistasping o‘g‘li Doro<sup>2</sup> hukmronlik qilgan davrda boshlanib, aftidan, Ptolemey II davrida tugatilganga o‘xshaydi.

Strabon uni ishga tushirilgandan keyin ko‘rgan, ammo kanal uncha chuqur bo‘lmagani uchun kemalar Nilda suv ko‘paygan bahor oylaridagina qatnay olardi. Kanal Antoninlar<sup>3</sup> asrigacha ishlab

---

<sup>1</sup> *Sezostris* – misrlik fir‘avn. Hayotining aniq sanalari nomalrum. Ba‘zi qadimgi tarixchilar taxminan eramizdan 1300 yil oldin yashagan Ramzes II ning o‘zi, deb ataydilar.

<sup>2</sup> *Doro* – Gistasping o‘g‘li (eramizgacha 550–486-yillar). Eron shohi.

<sup>3</sup> Yetti Rim imperiyasi hukmronlik qilgan davr shunday deb ataladi (Neron, Trayan, Andrian, Antonin, Mark Avdeliy, Verus, Kommod) – eramizgacha 96-yildan eramizning 92-yiligacha.

turdi; shundan so'ng u yemirila boshladi, sayozlashib, kema qatnamaydigan bo'lib qoldi. Xalifa Umar ko'rsatmasi bilan u qayta tiklangan edi, ammo eramizning yetti yuz oltmish birinchi yoki yetti yuz oltmish ikkinchi yilida, xalifa al-Manzur unga qarshi isyon ko'targan Abdulloh Muhammadbiyning qo'shinlariga oziq-ovqat yo'lini to'sish maqsadida kanalni butunlay ko'mib tashladi. Misrga yurish vaqtida general Bonapart bu kanal izlarini Suvaysh yonidagi cho'ldan topgan va birdan toshqin kelib, halok bo'lishiga oz qolgan edi.

– Demak, kapitan, qadimgilar uddasidan chiqolmagan ishni, ya'ni ikki dengizni birlashtirib, Kadiksdan Hindistongacha yo'lni to'qqiz ming kilometrga qisqartirishni Lesseps<sup>1</sup> amalga oshiradi. Yaqin kelajakda u Afrika qit'asini Suvaysh kanali bilan Osiyodan uzib, katta orolga aylantiradi.

– Ammo, afsuski, men sizlarga Suvaysh kanalini ko'rsata olmayman, – deb so'zida davom etdi kapitan Nemo, – ammo indinga O'rtayer dengiziga kirganimizda Port-Saidning cho'zilib ketgan sohil-larini ko'rasizlar.

– O'rtayer dengiziga?!– qichqirib yubordim men.

– Ha, janob professor. Nega bunchalik ajablan-yapsiz?

– Meni sizning indinga u yerda bo'lishimiz haqidagi gaplaringiz ajablantiryapti.

– Rostdanmi?

– «Nautilus» bortida yurganimdan buyon hech narsaga ajablanmaslikka odatlanayozgan bo'lsam ham, bu shunday.

– Ammo har holda nega endi bu xabar sizni bu qadar ajablantirdi?

---

<sup>1</sup> Lesseps – Suvaysh va Panama kanallarini qazish ishlarini tashkil etgan kishi.

– «Nautilus» bizni indinga O'rtayer dengiziga olib borish uchun bosib o'tadigan juda katta tezlik! Axir u Yaxshi Umid buruni yonidan butun Afrika sohillari bo'ylab aylanib o'tishi kerak-ku!

– Ammo kim sizga «Nautilus» butun Afrikani aylanib o'tadi dedi? U Yaxshi Umid buruni yonidan o'tadi, deb kim aytdi?

– Ammo... bordi-yu, «Nautilus» Suvaysh bo'yni quruqligidan yoki osmondan uchib o'tmasa...

– Nega endi uning ostidan o'tib bo'lmas ekan, janob professor?

– Bo'yin ostidan?

– Albatta-da, – osoyishta javob berdi kapitan Nemo. – Tabiat ana shu tasmaday tor yer ostida odamlar uning ustidan zo'r berib qilayotgan ishni allaqachon amalga oshirib qo'ygan.

– Qanday qilib! U yerdan o'tadigan joy bormi?

– Ha, men Arabiston tunneli deb atagan suvosti yo'li. U Suvayshdan boshlanib, Port-Saidda tugaydi.

– Biroq Suvaysh bo'yini ko'chma qumlardan iborat-ku?

– Faqat ma'lum joygacha. Ammo ellik metr chuqurlikdan esa juda qattiq granit devor boshlanadi.

– Demak, siz bu tunnelni tasodifan topib olgan ekansiz-da? – so'radim men.

– Tasodifan va ayni vaqtda ongli ravishda, shuni ham aytib qo'yayki, bu tunnelni ochishda ongilik tasodifdan ko'ra ko'proq bo'lgan.

– Men sizni juda diqqat bilan eshityapman, kapitan, ammo idrokim quloqlaringa ishonmay qo'yyapti.

– Oh, nimasini aytasiz, janob professor, quloqlar bo'la turib eshitmaslik barcha davrlarga taalluqlidir! Bu o'tadigan joy mavjud bo'libgina qolmay, balki men undan bir necha marta foydalan-

ganman ham. Agar shu yo‘l bo‘lmaganida, men Qizil dengizning bu boshi berk joyiga kirmas edim!

– Bu tunnelni qanday ochdingiz deb so‘rasam ezmalik bo‘lasmikin?

– Bir-birlaridan sira ajralmaslik nasib etgan odamlar orasida qanday sir bo‘lishi mumkin! – deya javob berdi kapitan Nemo.

Men o‘zimni uning nimaga shama qilayotganini tushunmaganga solib, kapitan Nemoning so‘zlari-ni eshitishga shaylandim.

– Mantiq yuzasidan olib borilgan oddiy mulohaza va tabiatshunosga xos sinchkovlik meni tunnel mavjud, degan fikrga olib keldi. Men Qizil va O‘rtayer dengizlarida ma‘lum miqdorda tamoman bir xildagi – uchar, ola bug‘a, yo‘l-yo‘l qil tishli va boshqa baliqlarga e‘tibor berdim. O‘zimga-o‘zim savol berdim: bu narsa ikki dengizni birlashtiradigan yo‘l borligidan dalolat bermasmikin? Agar shunday yo‘l mavjud bo‘lsa, yerosti oqimining yo‘nalishi, albatta Qizil dengizdan O‘rtayer dengiziga borishi kerak, chunki suv sathi birinchisida keyingisiga nisbatan baland. Bu masalani yechish uchun men Suvaysh atrofidan ma‘lum miqdorda baliq ovladim, har birining dumiga mis halqa kiygizib, yana suvga tashladim. Bir necha oylardan keyin Suriya sohillarida to‘rlaringa men dumiga halqa kiygizgan bir necha baliq ilindi. Shunday qilib, ikki dengiz orasida yerostidan yo‘l borligiga menda shubha qolmadi. «Nautilus»da mana shu o‘tish joyini qidirib topdim va tavakkal qilib kirdim... Shunday qilib, bir-ikki kundan keyin, janob professor, siz ham mening Arabiston tunnelim bilan tanishasiz.

## B e s h i n c h i b o b

### ARABISTON TUNNELI

Men o'sha kuniyoq Konsel va Ned Lendga kapitan Nemo bilan bo'lgan suhbatimning bevosita ularni qiziqtiradigan yerlarni aytib berdim.

Men ularga ikki kundan keyin O'rtayer dengizining suvlarida suzishimizni aytganimda, Konsel chapak chalib yubordi, Ned Lend esa yelkalarini qisdi.

– Suvosti tunnelimi? – xitob qildi u. – Ikki dengizni birlashtiradigan yo'l? Bu haqda hech kim hech qachon eshitmagan!

– Do'stim Ned, – deb javob berdi unga Konsel, – siz «Nautilus» haqida sira eshitganmidingiz? Yo'q. Shunga qaramay, u mavjud ekan. Shuning uchun bor narsani sira eshitmaganingiz uchun inkor etib, yelkalaringizni qismang!

– Kim haq bo'lib chiqishini ko'ramiz, – dedi Ned Lend boshini chayqab. – Men bu tunnelning mavjudligiga jilla bo'lmasa O'rtayer dengiziga tezroq chiqib olish uchun ham jon deb ishonishga tayyorman.

O'sha kecha dengiz sathida suzgan «Nautilus» shimoliy kenglikning 21-gradus 30-minutida Arabiston sohiliga yaqinlashdi. Men Misr, Suriya, Turkiya va Hindiston bilan qizg'in savdo olib boradigan muhim savdo markazi Jiddani ko'rdim. Biz turgan masofadan ham shahardagi imoratlarni, suv sayozligi uchun sohilga yaqin kelolmagani sababli uning qulay joylariga bog'lab qo'yilgan kemalarni juda aniq ko'rdim.

Botayotgan quyosh nuri shaharning oq binolari ustida jilolanib, ko'zni qamashtirar edi.

Shaharning bir chekkasida o'troq arablarning

taxta va qamishdan qilingan kulbalari joylashgan edi. Ammo ko'p o'tmay Jidda tun qorong'iligiga singib, g'oyib bo'ldi va «Nautilus» biroz shu'lalanib turgan suvga sho'ng'idi.

Ertasi kuni, 10-fevralda, suv sathiga ko'tarilib, o'zimizdan sal narida juda ko'p kemalarni ko'rdik, shuning uchun «Nautilus» zudlik bilan yana suvga sho'ng'idi. Biroq peshinda, odatdagi kuzatuvlar olib boriladigan paytda, dengiz bo'm-bo'sh edi va bizning kemamiz yana suv sathiga ko'tarildi.

Men Ned Lend va Konsel bilan birga palubaga chiqdim. Sharqda, tuman ichida pasttekis sohil zo'rg'a ko'zga chalinar edi.

Biz qayiqcha do'ngagiga suyanib, undan mundan laqillab turganimizda, Ned Lend to'satdan dengizdagi allaqanday nuqtani ko'rsatib, mendan so'radi:

– Siz o'sha yoqda hech nimani ko'rmayapsizmi, janob professor?

– Yo'q, – javob berdim. – Men uzoqdagi narsalarni sizchalik yaxshi ko'rolmasligimni bilasiz-ku axir!

– Yaxshilab qarang, – deya qistay boshladi Ned, – huv ana, shtiribort to'g'risida, nahotki, birorta qimirlayotgan narsani ko'rmayotgan bo'lsangiz?

– Ha, to'g'ri, – dedim men diqqat bilan qaragach, – dengiz sathida allaqanday uzun qoramtir narsani ko'ryapman.

– Yana bitta «Nautilus»mikin? – so'radi Konsel.

– Yo'q, – javob berdi kanadalik, – ammo adashmasam bu allaqanday dengiz maxluqi.

– Qizil dengizda kit bo'ladimi? – so'radi Konsel.

– Ahyon-ahyonda uchrab turadi, – deb javob berdim men.

Chindan ham uzunchoq qora jism bizdan nari

borsa bir milya masofada edi. Uzoqdan u dengizdan chiqib turgan katta qoyaga o'xshardi. Ammo aslida uning nimaligini aniqlay olganimcha yo'q edi.

– Yo'q, bu kit emas, – deb ta'kidladi ko'zini maxluqdan bir sekund ham uzmagan Ned Lend.

– Kitlar eski tanishlarim va men ularning hamma qiliqlarini yaxshi bilaman.

– Sabr qilaylik, – taklif kiritdi Konsel. – «Nautilus» o'sha yoqqa boryapti, bir necha minutdan so'ng biz uning nimaligini bilib olamiz.

– Ha, ha! U harakat qilyapti... U suvga sho'ng'iydi! – xitob qildi Ned Lend. – Ming la'nat! Nima ekan bu? Uning kitlar yoki kashalotlarga o'xshash ikkiga bo'lingan dumi yo'q, suzgichlari esa uchi kesilgan g'o'laga o'xshaydi.

– Ammo... – deb so'z boshlagan edim men.

– Qarang, – deya so'zimni bo'ldi kanadalik, – u ko'kragini yuqoriga qilib yelkasiga ag'darilyapti.

– Ha, bu allaqanday vasvasachi sirena<sup>1</sup>, – deb kuldi Konsel.

Konselning so'zlari meni darhol o'zimga keltirdi. Biz yarim ayol, yarim baliq deb afsona tarqalgan sirenalar turkumidan namuna ko'rib turibmiz deb tushundim.

– Yo'q, – dedim men Konselga, – bu sirena emas, o'sha turkumdagi boshqa kam uchraydigan maxluqlardan. Bu – dyugon.

Bu orada Ned Lend maxluqdan ko'z uzmay qarab turar edi. Uning oshiqqan ko'zlari chaqnaq turardi. U birinchi imkoniyatdayoq dyugonga hujum qilish uchun o'zini dengizga tashlashga shaylanayotganday bo'lib tuyular edi.

---

<sup>1</sup> *Sirena* – grek afsonalarida tanasi odam, oyoqlari baliqning dumi shaklida bo'lgan suv parisi.

– Eh, janob professor, – deya xitob qildi u hayajondan qaltirayotgan ovozda, – men hali bunaqasini sira ham ovlamagan edim!

Bu soʻzlarda Ned Lend oʻzining ichki qiyofasini namoyon etdi.

Palubaga kapitan Nemo chiqdi. U dyugonni koʻrdi va kanadalikka qarab, uning sabrsizlanayotganini koʻrdi.

U Ned Lendga murojaat qildi:

– Bordi-yu, hozir qoʻlingizda garpuningiz boʻlganda, chidab turolmasdingiz, toʻgʻrimi?

– Xuddi shunday, kapitan.

– Bir kungina oʻzingizning garpunchilik kasbingizga qaytib, ovdagi muvaffaqiyatlaringiz roʻyxatiga yana bir gʻalabani kiritishga qarshi emas-misiz?

– Jon derdim!

– Unday boʻlsa, marhamat, ishga kirishing!

– Rahmat, kapitan, – dedi Ned Lend. Uning koʻzlari chaqnab ketdi.

– Faqat bir shart bor, bexato urasiz! Bilib qoʻying, buni sizning manfaatingizni koʻzlab ayt-yapman.

– Dyugon shunaqa xavfli maxluqmi? – soʻradim men. Kanadalik pisand qilmaganday yelkasini qisdi.

– Ha, – deb javob berdi kapitan. – Baʼzan bu maxluq ovchiga tashlanib, ularning qayiqlarini agʻdarib yuboradi. Biroq mister Lend uchun bu xavf qoʻrqinchli emas. Uning nigohi oʻtkir va juda chap-dast. Men unga bexato otasan deganimning boisi xavfli boʻlgani uchun emas, shuning uchunki, dyugonning goʻshti juda lazzatli, mister Lendning lazzatli taomga oʻchligidan esa xabarim bor.

– Shunaqami! – xitob qildi kanadalik. – Bu maxluq aytganlaringizdan tashqari mazali ham deng!



– Ha, mister Lend. Mazasi mol go'shtidan sira qolishmaydi va Melaneziyada shohlar dasturxonini bezaydi. Keyingi paytlarda dyugonni shu qadar jon-jahdlari bilan ovlashyaptiki, u ham o'z urug'i lamantin singari tez orada qirilib ketsa ajab emas.

– Unday bo'lsa, kapitan, – dedi jiddiy turib Konsel, – bu dyugonni balki ovlash kerak emasdir? Bordi-yu bu oxirgi namunasi bo'lsa-chi? Unda bu ni fan manfaati uchun saqlab qolish kerak.

– Shunday taqdirda ham, – deya e'tiroz bildirdi kanadalik, – oshpazlik ehtiyoji uchun uni, albatta, ovlash kerak!

– Boshlang, mister Lend, – deya qaytardi kapitan Nemo.

Shu daqiqada «Nautilus» komandasidan yetti kishi palubaga ko'tarildi. Ular odatdagiday jim va vazmin edilar. Ulardan biri kit ovlovchi kemalarda ishlatiladigan garpun bilan arqonni olib keldi.

Qayiqni suvga tushirdilar, olti eshkakchi va rul boshqaruvchi o'rinlarini egallashdi. Ned Lend, Konsel va men qayiqning quyruq tomoniga o'tirib oldik.

– Biz bilan bormaysizmi, kapitan? – so'radim men.

– Yo'q, professor. Omadingiz kelsin.

Qayiqcha bortdan bo'shadi va olti eshkakchi uni olg'a surdi. «Nautilus»dan ikki milyacha masofadan ko'rinib turgan dyugonga tomon qayiqcha tez suzib ketdi.

Unga bir necha kabelt masofa qolgach, eshkakchilar sekinroq suza boshladilar va eshkaklarni suvga tovush chiqarmay ehtiyotkorlik bilan tushirar edilar.

Garpun ushlagan Ned Lend qayiq tumshug'ida turardi.

Kit ovlanadigan garpun odatda juda uzun va

baquvvat arqonga bog'langan bo'lib, yaralangan maxluq uni tortishi bilan osongina yechilib borardi. Biroq bu gal arqon juda kalta – uzunligi yigirma metrga borar-bormas va uning ikkinchi uchi yaralangan maxluq suv ostida qaysi tomonga suzishini ko'rsatishi kerak bo'lgan bo'sh bochkachaga bog'langan edi.

O'rnimdan turib, kanadalikning dushmanini ko'zdan kechirdim. Dyugon lamantinga juda o'xshar edi. Uning cho'zinchoq tanasi uzun dum bilan, yon suzgichlari esa chinakam barmoqlari bilan tugar edi. Dyugonning lamantindan farqi shuki, uning yuqori jag'ida uzun va o'tkir ikkita chinakam qoziq tishi bo'ladi.

Ned Lend ovlashga shaylangan dyugon juda ulkan maxluq edi. U sira qimirlamas, suv sathida uxlab qolganga o'xshardi. Bunday sharoit kanadalik uchun ayni muddao bo'lib, uning ishini ancha yengillashtirar edi.

Qayiq ehtiyotkorlik bilan maxluqqa besh-olti metr qolguncha yaqinlashib bordi. Matroslar eshkaklarni ko'tarishdi.

Ned Lend orqaga tashlanib, qulochkashlab garpunni irg'itdi.

Hushtak ovozi eshitildi-yu, dyugon ko'zdan g'oyib bo'ldi. Aftidan kuch bilan itqitilgan garpun faqat suvga tekkanga o'xshardi.

– Ming la'nat! – o'kirdi qattiq hayajonlangan kanadalik. – Mo'ljalga urolmadimmi?

– Yo'q, – deb javob berdim men. – Maxluq yaralangan. Mana qon izlari. Biroq garpun suvga tushdi.

– Garpunimni olinglar! – xitob qildi Ned Lend. – Garpunimni!

Matroslar eshkaklarni yana suvga tushirdilar

va ruldagi kishi qayiqni suv yuziga qalqib chiqqan bochkacha tomon burdi.

Garpun olingach, qayiq yaralangan maxluqning izidan bordi. U nafas olish uchun ora-chora suv sat-higa suzib chiqar edi. Juda tez suzayotganiga qaraganda, yara uni holsizlantirmaganga o'xshaydi. O'n ikki chayir qo'l harakatga keltirayotgan qayiq uning izidan suzib emas, uchib borardi. Bir necha marta u dyugonga yetayozganda, kanadalik ikkinchi zarbni urishga shaylanardi-yu, ammo maxluq har gal tezda suvga sho'ng'ib, xavfdan qutulib qolar edi.

Ned Lendning qahr va toqatsizligi qanchalikka borib yetganini ko'rsangiz edi. U sho'rlik maxluqni bisotidagi butun ingliz qarg'ishlari bilan la'natladi. Dyugon biz ayyorlik bilan tuzayotgan butun rejalarimizni barbod etayotgani hatto menga ham alam qilardi.

Biz deyarli bir soat davomida dyugonning ketidan shu alfozda quvib yurdik. Endi umidsizlana boshlagan edim, ta'qib qilayotganimiz uchun o'ch olmoqchi bo'lganday maxluq birdan hujumga o'tish maqsadida qayiq tomon suza boshladi.

Bu manyovr kanadalikning e'tiboridan chetda qolmadi.

– Diqqat! – deya qichqirdi u. Rulda o'tirgan kishi o'zining g'alati tilida bir necha og'iz so'z aytdi. U komandani ehtiyot bo'lishga undadi shekilli.

Dyugon qayiq tomon yigirma fut yaqinlashib, birdan to'xtadi, tumshug'ining ostida emas, balki ustida joylashgan burun kataklari orqali juda ko'p havo tortib, so'ng bizga tashlandi.

Zarbdan o'zimizni muhofaza etolmadik. Ammo rulda o'tirgan kishining to'g'ridan kelgan zarbga mohirlik bilan chap bergani tufayli qayiq biroz lo-

pillab, uning ichiga bir-ikki tonna suv kirdi, biz keyinchalik uni to'kib tashladik.

Ned Lend qayiq tumshug'idan turib, tishlari bilan qayiqning bortiga yopishib olgan, Afrika sheri bug'ini ko'taradiganday suvdan uzishga urinayotgan gigant maxluqni garpun bilan tinmay yaralar edi.

Biz hammamiz bir-birimizning ustimizga yiqildik. Qahr-g'azabga to'lib-toshgan garpunchi chaqqonlik qilib, to'g'ri maxluqning yuragiga tushirmaganida, bu hangomaning nima bilan tugashi noma'lum edi.

Qayiq bortida tishning g'ijirlagani eshitildi va dyugon garpun bilan birga cho'ka boshladi.

Ammo ko'p o'tmay suv sathiga bochkacha, zum o'tmay ketidan yelkasiga ag'darilgan dyugon ko'tarildi. Qayiq uni shatakka olib «Nautilus» yoniga bordi.

Dyugon go'shtini chig'iriqlar yordamida «Nautilus» palubasiga arang ko'tarib olishdi: uning vazni besh ming kilogrammdan ortiq edi.

Go'shtni maydalash bevosita Ned Lend rahbarligida o'tdi, bu ishni u hech kimga ishonib topshirmadi.

O'sha kuni kechqurunoq styuard menga kema oshpazi dyugon go'shtidan boplab tayyorlagan taom keltirib qo'ydi. Menga u mol go'shtidan ham ko'ra ko'proq ma'qul tushdi.

Keyingi kun, 11-fevralda, «Nautilus» omborxonasi yangi qush go'shti bilan to'ldirildi. Suvosti kemasining palubasiga bir to'da qaldirg'och kelib qo'ndi. Bular Nil qaldirg'ochlarining faqat Misrda uchraydigan turi bo'lib, tumshug'i qora, kulrang boshining uch tomoni ingichkalashib borgan, ko'zining atrofini oq donachalar qoplagan, yelkasi,

qanotlari va dumi kulrang, ko'kragi, qorni oq hamda panjalari qizil edi. Shuningdek, biz bir necha o'nlab boshi va gardani oq, tanasini qora qashqa qoplagan yovvoyi Nil o'rdaklarini ham ushlab oldik. Bu qushlarning go'shti ham juda mazali ekan.

Shu kuni «Nautilus», hech qayoqqa shoshilmayotganday juda sekin suzib borar edi. Biz Suvayshga yaqinlashgan sari Qizil dengizning suvi ancha kamtuz bo'lib borishini payqab qoldim.

Kech soat beshlarga yaqin biz shimolda Suvaysh qo'ltig'i bilan Akobi qo'ltig'i oralig'ida toshloq Arabistonning oxiri hisoblangan Ros-Muhammad burunini ko'rdik.

«Nautilus» Suvaysh qo'ltig'iga kirdi. Ros-Muhammad buruni uzra baland tog' aniq ko'zga tashlanib turardi. Bu Oreb tog'i edi.

Kechqurun soat oltida «Nautilus» suvga goh cho'kib, goh uning sathiga ko'tarilib ko'rfazning ichkarisida joylashgan Tor ko'rinadigan yerdan o'tdi. Bu ko'rfazning suvi kapitan Nemo menga aytganiday, darhaqiqat, qizg'ish tovlanar edi.

Tun vazmin sukunat ichida to'satdan boshlandi. Bu sukunatni soqoqushlarning qichqiriqlari, to'lqinlarning shovullashi-yu, olis-olislardan paroxodlarning huvullashlarigina buzib turar edi.

Soat sakkiz bilan to'qqizlar orasida «Nautilus» bir necha metr suvostiga tushdi. Mening hisobimcha, biz Suvaysh yaqinida edik.

Salon derazasidan men projektorlar bilan yorqin yoritilgan qoyali sohil tubini ko'rib turardim. Nazarimda bo'g'oz borgan sari torayayotganday tuyulardi.

Soat 9 dan 15 minut o'tganda kema yana suv sathiga chiqib oldi.

Men kapitan Nemoning Arabiston tunnelini tez-

roq ko‘rishga oshiqardim. O‘zimni qo‘yishga joy topolmay toza havodan nafas olish uchun palubaga chiqdim.

Ko‘p o‘tmay men uzoqdan, bizdan taxminan bir yarim milyalar narida, kechki tumanda xira ko‘rinayotgan yog‘duni ko‘rdim.

– Bu suzgich mayoq, – yonimda turgan kishining ovozi eshitildi.

Men kutilmaganda bu ovozni eshitib cho‘chib tushdim. Qayrilib qarasam, kapitan Nemo turibdi.

– Bu Suvayshning suzgich mayog‘i, – deb qaytardi u. – Hozir biz tunnelga kiriladigan yo‘lga yetib boramiz.

– Unga kirish ham uncha oson bo‘lmasa kerak deb o‘ylayman? – deya so‘radim men.

– Ha, bu ancha xavfli joy. Shuning uchun tunnelga kirish oldidan rulni boshqariladigan hujraga kirib, kemani shaxsan o‘zim idora etishni odat qilib olganman. Endi esa, janob professor, pastga tushsangiz: «Nautilus» suvga sho‘ng‘iydi va shu bo‘yi Arabiston tunnelidan o‘tgach, O‘rtayer dengizida suv sathiga ko‘tariladi.

Men kapitan Nemoga ergashdim. Lyuk yopilib, rezervuarlarga suv to‘ldirildi va kema yana o‘n metr chuqurlikka sho‘ng‘idi.

Endi kayutamga ketaman deb turgandim, kapitan Nemo chaqirib qoldi.

– Janob professor, – dedi u, – shturval hujrasida men bilan birga navbatchilik qilishni istamaysizmi?

– Shuni sizdan so‘rashga jur‘at etolmay turgan edim, – deb javob berdim.

– Unday bo‘lsa, yuring. Siz u yerdan turib bu yerosti va ayni chog‘da suv ostidan suzayotganda nimaiki ko‘rish mumkin bo‘lsa, hammasini ko‘ra olasiz.

Biz palubaga olib chiqadigan trapning o'rtasigacha ko'tarildik. Bu yerda kapitan Nemo eshikni ochdi va biz tor hamda pastak yo'lakka chiqdik. Yo'lakning oxirida kema tumshug'ida do'ppayib turadigan shturval hujrasi joylashgan edi.

Bu bo'yi va eni olti futdan keladigan, ya'ni hajmi taxminan Missisipi va Gudzon bo'ylab suzadigan paroxodlardagichalik kayuta edi. Hujraning o'rtasiga shturval o'rnatilgan bo'lib, u tumshuqdagi boshqariladigan rul bilan shturtrosalar vositasida ulangan edi. Kayutaning to'rttala devoridagi ikki tomoni qabariq oyna solingan to'rtta illuminator-dan rul boshqaruvchi to'rt tomonni ko'ra olardi.

Hujra qorong'i edi, ammo birozdan keyin ko'zlarim bu qorong'ilikka o'rganib, men ikki qo'li bilan shturvalni ushlab turgan rul boshqaruvchini ko'rdim.

– Endi, – dedi kapitan Nemo, – tunnelga kiradigan yo'lni qidiramiz.

Shturval hujrasi bilan mashina bo'limi elektr simlari bilan bog'langan bo'lib, kapitan bir necha shartli signallar vositasida shu yerda turib, kema tezligini oshirish yoki kamaytirish to'g'risida buyruq berishi mumkin edi.

Kapitan Nemo metall tugmachani bosishi bilan kema parragining aylanish tezligi kamaydi.

Men jim turib qit'aning mustahkam etagi – biz qariyb bir soatdan buyon yonidan bir necha metr berida borayotganimiz tik granit devorga tikilib qoldim.

Kapitan Nemo kompasdan ko'z uzmay turar va rul boshqaruvchi uning ko'rsatmasi bilan shturvalni burib, kema yo'nalishini muttasil o'zgartirib borardi.

Soat 10 dan 15 minut o'tganda kapitan Nemo o'zi shturvalda turib oldi.

Ko'z oldimizda keng va chuqur yo'lakka olib kiradigan teshik namoyon bo'ldi.

«Nautilus» unga dadillik bilan kirdi.

Kemaning temir qoplamasi odatdan tashqari g'uvullay boshladi. Bu Qizil dengizning pastlikka – O'rtayer dengiziga qarab shovullab tushayotgan suvining shovqini edi. Harakatni sekinlashtirish uchun mashina butun tezligi bilan parrakni teskari aylantirayotganiga qaramay, suv oqimi kemani o'qday olg'a surib ketdi.

Boshni aylantiradigan darajadagi bu tezlikda tunnel devorlarida projektordan taralayotgan nurnigina ko'rish mumkin edi. Yuragim qinidan chiqqunday tez ura boshladi va men uning urishini sekinlatish uchun qo'lim bilan bosib turardim.

Soat 10 dan 35 minut o'tganda kapitan Nemo shturvalni rul boshqaruvchiga berdida menga qarab dedi:

– Biz O'rtayer dengizidamiz.

«Nautilus» suv oqimi bilan yigirma minutga qolmay yer ostida Suvaysh bo'ynidan o'tdi...

## ***Oltinchi bob***

### **GREK TIZMA OROLLARI**

Keyingi kuni, 12-fevralda, erta tongda «Nautilus» suv sathiga ko'tarildi. Men palubaga chiqishga shoshildim.

Bizdan uch milya janubda ertalabki tuman ichida qadimiy Peluzium g'ira-shira ko'rinib turardi.

Kuchli suv oqimi bizni zum o'tmay bir dengizdan ikkinchisiga olib o'tdi. Bu tomon pastlik bo'lgani uchun tunneldan osonlik bilan kelindi-yu, u



orqali O'rtayer dengizidan Qizil dengizga qaytish sira mumkin bo'lmasa kerak.

Ertalab soat yettilarga yaqin Ned Lend bilan Konsel yonimga kelishdi. Bu ajralmas ikki do'st tuni bilan bemalol uxlab, «Nautilus» ko'rsatgan jasordan bexabar qolgan edilar.

– Xo'sh, janob professor, – kinoya bilan so'radi kanadalik, – va'da qilingan O'rtayer dengizi qani?

– Biz uning sathida suzib boryapmiz, do'stim Ned, – deb javob berdim men.

– Nima! – xitob qildi Konsel. – Demak, tunda...

– Juda to'g'ri, shu tunda yigirma minut ichida biz o'tib bo'lmas bo'yindan suzib chiqdik!

– Ishonmayman, – dedi Ned Lend.

– Bekor qilasiz, mister Lend, – deb javob berdim men. – Siz janubda ko'rayotgan pasttekis sohil – bu Misr sohili.

– Meni laqillatib bo'lmaydi, janob professor, – e'tiroz bildirdi o'jar kanadalik.

– Xo'jam aytgandan keyin, unga ishonmoq kerak! – dedi Konsel.

– Ha, aytganday, Ned, – deya davom ettirdim men, – kapitan Nemo tunnelini menga shaxsan o'zi ko'rsatdi. «Nautilus»ni tor yo'lakdan o'zi boshqarib o'tayotganida, men shturval hujrasida uning yonida turdim.

– Eshityapsizmi, Ned? – deb so'radi Konsel.

– Ko'zingiz juda o'tkir, Ned, – deb qo'shib qo'ydim men – sizni aldamayotganimga osonlikcha ishonch hosil qilishingiz mumkin. Qarang, o'sha yoqda Port-Said gavani ko'rinayotgan bo'lishi kerak.

Kanadalik ko'zlarini ko'rsatilgan tomonga tikdi.

– Ha-ya, – dedi u, – haq ekansiz, janob professor, kapitaningiz ham ishiga pishiqlik ekan. Biz

O'rtayer dengizidamiz. Juda soz. Keling, o'z ishlarimiz haqida gaplashib olaylik, ammo hech kim bizni poylamasligi kerak.

Kanadalik gapni qayoqqa burayotganini juda yaxshi tushundim.

«Har holda Ned Lend talab qilgach, bu haqda gaplashib olish shart», deb o'yladim.

Shunday qilib, uchalamiz projektor do'ppayib turgan joyga borib o'tirib oldik:

– Mana endi qulog'imiz sizda, Ned, – dedim men. – Bizga nima demoqchi edingiz?

– Mening gapim juda qisqa bo'ladi, – deb javob berdi kanadalik. – Yevropaga yaqinlashyapmiz va kapitan Nemoning xayoliga bizni Qutb dengizi yoki Okeaniya ostiga olib tushib ketish kelmasdan turib «Nautilus» bilan xayrlashishni taklif etaman.

Ha, kanadalik bilan bu mavzuda bahslashib o'tirgim kelmadi. Men hech qanaqasiga o'rtoqlarimning ozodligiga tahdid solmoqchi emasman, ammo ikkinchi tomondan esa kapitan Nemo bilan bu qadar tez xayrlashish istagim ham yo'q. U tufayli, uning ajoyib keması tufayli men har kuni o'z bilimimni oshirib bordim, dengiz tubidagi hayot haqidagi kitobimni, agar ta'bir joiz bo'lsa, shu hayot taraqqiyotining markazida turib qayta yozdim. Okean mo'jizalarini bu qadar mukammal o'rganish imkoniyatini boshqa qayerdan topa olaman? Shubhasiz, hech qayerdan! Shuning uchun ham yer yuzi bo'ylab ilmiy ekspeditsiyamiz tugamaguncha suvosti kemasini tashlab ketgim yo'q edi.

– Do'stim Ned, – dedim men, – ochig'ini ayting-chi, shu suvosti kemasida nahotki zerikkan bo'lsangiz? Nahotki, bizni shu yerga olib kelib tashlagan taqdirni la'natlasangiz?

Kanadalik darhol javob bermadi. Qo'llarini ko'kragi ustida chambarak qilib turib aytdi:

– To'g'risini aytsam, suv ostida suzganimdan achinayotganim yo'q. Vaqti kelib men buni mamnuniyat bilan xotirlayman. Biroq shunday bo'lishi uchun suvosti sayohatimizga chek qo'yish kerak. Bu haqdagi mening fikrim shu!

– Sayohat poyoniga yetadi, Ned.

– Qayerda? Qachon?

– Qayerda? Bilmayman. Qachon? Sizga aniq ayta olmayman, biroq dengiz bizga o'zining oxirgi sirini ochib bergan zahoti, deb o'ylayman. Bu dunyoda har bir boshlangan ish ertami yoki kechmi poyoniga yetishi kerak.

– Men xo'jamning aytganlariga tamoman qo'shilaman, – deb qo'ydi Konsel. – Menimcha, kapitan Nemo birga butun dengiz va okeanlarni aylanib bo'lgach, bizni tashlab ketaverishi mumkin.

– Tashlab ketadi?– jahli chiqdi kanadalikning.– Siz u bizni tashlab ketaverishi ham mumkin dedingizmi?

– Bu so'zlarga o'chakishavermang, Ned Lend,– gapga aralashdim men. – Bizning kapitan Nemo dan qo'rqadigan joyimiz yo'q, bu masalada men Konselning fikriga qo'shila olmayman. Ammo ikkinchi tomondan, u bizni o'z xohishi bilan qo'yib yuboradi, deb umid qilmasak ham bo'ladi. Biz «Nautilus»ning barcha sirlarini bilamiz, binobarin u bu sirlarning biz bilan birga butun dunyoga yoyilishiga yo'l qo'yishiga aql bovar qilmaydi.

– Unday bo'lsa siz nimaga umid qilasiz? – so'radi kanadalik.

– Ertami, kechmi biz foydalanib qolishimiz mumkin bo'lgan qulay fursat kelishiga. Bu qulay

fursat olti-yetti oydan keyin ham xuddi hozirgidek kelishi mumkin.

– Hm, – to‘ng‘illadi Ned Lend. – Marhamat qilib ayting-chi, janob tabiatshunos, olti oydan keyin biz qayerda bo‘lishimizni oldindan bilasizmi?

– Balki yana shu yerda bo‘larmiz, balki Xitoyda. «Nautilus» juda tezyurar kema, buni bilasiz. U okeanda qaldirg‘och havoda uchganday yoki tezyurar poyezd yerda yurganday katta tezlikda suzib yuradi. U serqatnov dengizlardan cho‘chimaydi – biz bunga amin bo‘ldik. Olti oydan keyin yana Fransiya yoki Angliya sohillariga qaytmaydi va qochishga bugundagidan ko‘ra qulayroq fursat bo‘lmaydi deb kim ayta oladi?

– Janob professor, – dedi kanadalik, – sizning dalillaringiz asossiz. Siz aytgan hamma gaplar kelasi zamon: «Bu yerda bo‘lamiz. U yerda bo‘lamiz». Men esa hozirgi zamoni gapiraman: «Biz bundan shu yerda foydalanib qolamiz».

Ned Lendning mantiqan to‘g‘ri mulohazasiga qarshi e‘tiroz bildirishga asosim yo‘q edi, bino-barin bu bahsda o‘zimni mag‘lub his etdim. O‘z taklifimni himoya qiladigan boshqa asosim yo‘q edi.

– Janob professor, – deb so‘zini davom ettirdi Ned, – bir daqiqagina sira aqlga sig‘maydigan narsani kapitan Nemoning o‘zi bizga ozodlik berdi, deb faraz qilaylik. Bunga siz rozi bo‘larmidingiz?

– Bilmadim.

– Bordi-yu, bu taklifni boshqa sira qaytarmayman desa-chi, – unda nima qilar edingiz? Men hech narsa deyolmadim.

– Do‘stim Konselning bu to‘g‘ridagi fikri qalay? – so‘radi kanadalik.

– Do‘stingiz Konsel bu to‘g‘rida aniq bir narsa aytolmaydi, – deb bamaylixotir javob berdi fla-

mandiyalik. – U masalaning u yoki bu tarzda hal etilishidan manfaatdor emas. Xo‘jayini, xuddi shuningdek do‘sti Ned Lend singari u ham bo‘ydoq. Uni vatanida na xotini, na bolalari, na qarindoshurug‘lari kutadi. U xo‘jasining qo‘lida ishlaydi va bu xizmatidan ketish niyati yo‘q. U chuqur qayg‘u bilan shuni ma‘lum qiladiki, bu masala ovozga qo‘yilganda qatnashib, o‘z ovozi bilan u yoki bu tomonning posangisini bosmoqchi emas. Duelda faqat ikki kishi ishtirok etadi: bir tomondan xo‘jasi va ikkinchi tomondan Ned Lend. Shunga ko‘ra do‘stingiz Konsel jim turib, kim qancha zarba berganini hisoblaydi.

Konselning bu nutqini eshitib, o‘zimni kulgidan tiyolmadim. Aftidan, kanadalik Konsel unga qarshi chiqmaganidan ich-ichidan mamnun bo‘lganga o‘xshardi.

– Konsel bu bahsda ishtirok etmas ekan. Biz uni o‘zaro hal etmog‘imiz kerak. Men fikrimni aytdim. Siz meni eshitdingiz. Siz nima deya olasiz? – dedi Ned Lend.

Biron-bir fikrga kelish kerak edi. Gapni aylanti-rib o‘tirishni yomon ko‘raman.

– Javobimni tinglang, do‘stim Ned, – dedim men. – Siz bahsda meni yengdingiz va dalil-laringizni bosib tushadigan biror jiddiy e‘tiroz bil-dira olmayman. Kapitan Nemoning o‘zi bizni qo‘yib yuborishini kutib o‘tirish befoyda. Eng oddiy eh-tiyotkorlik uchun ham u bunday qilmaydi. Ammo o‘sha ehtiyotkorlikning o‘zi bizdan birinchi qulay fursat kelishi bilanoq «Nautilus»ni tark etishni ta-qozo etadi.

– Juda soz, janob professor! Mana endi oqilona fikr aytdingiz!

– Biroq yana bir narsani aytib qo‘yay, – dedim

men. – O‘sha fursat chindan ham qulay bo‘lishi kerak. Birinchi urinishdayoq ishimiz o‘ngidan kelishi kerak. Chunki bordi-yu, uddasidan chiqolmasak, unda hech qachon qulay fursat bo‘lmaydi va kapitan Nemo ham qochmoqchi bo‘lganimiz uchun bizni sira kechirmaydi.

– Bu gapingiz to‘g‘ri, – dedi Ned Lend. – Ammo siz ta‘kidlayotgan narsa hozir qochishimizga qanchalik taalluqli bo‘lsa, ikki yildan keyingisiga ham shunchalik aloqadordir. Bundan rad etib bo‘lmaydigan shunday xulosaga kelish mumkin: qochishga qulay fursat kelishi bilan undan darhol foydalanish kerak.

– Men roziman. Qani, endi ayting-chi, Ned: «Qulay fursat» deb nimani ko‘zda tutyapsiz?

– «Nautilus» Yevropa sohillaridan birontasiga yaqinlashgandagi qorong‘i tunni.

– Suzib qutulib ketishni o‘ylaysizmi?

– Ha, «Nautilus» suv sathida sohilga yaqin yerda suzayotganida. Bordi-yu, kema suv ostida bo‘lib, qirg‘oq olisda bo‘lsa, unda...

– Shunday bo‘lgan taqdirda-chi?..

– Shunday bo‘lgan taqdirda qayiqni olish kerak. Uni qanday qilib olishni men bilaman. Biz uning ichiga kirib, boltlarni bo‘shatamiz va suv sathiga shu qadar ustalik bilan chiqib olamizki, hatto shturval hujrasidagi rul boshqaruvchi ham qanday qochganimizni payqamay qoladi.

– Mayli. Ned. Qulay fursatni poylayvering. Faqat esingizda bo‘lsin, muvaffaqiyatsizlikka uchrasak, halok bo‘ldik, deyavering!

– Esimda bo‘ladi, janob professor!

– Mana, hamma narsani kelishib oldik, endi, Ned Lend, loyihangiz haqidagi fikrimni bilishni istaysizmi?

– Albatta, janob professor.

– Men o‘ylaymanki – yana ta’kidlayman: umid qilaman emas, o‘ylaymanki – bunday qulay fursat yaqin orada bo‘lmaydi.

– Nega?

– Shuning uchunki, menimcha kapitan Nemo bizning ozodlikka chiqish niyatidan qaytmaganimizni tushunib turibdi, binobarin, Yevropa sohil-lariga yaqin yerdan o‘tayotganimizda u ancha hush-yor turishi tabiiy.

– Men xo‘jamning fikriga qo‘shilaman, – dedi Konsel.

– Tirik bo‘lsak – ko‘ramiz, – deb javob berdi Ned Lend boshini qaysarlik bilan liqillatib.

– Yaxshi, – dedim men, – endi bas qilaylik! Bu haqda ortiqcha gapirishning hojati yo‘q. Qochishga qaror qilgan kunni ogohlantirib qo‘ying va biz hech narsani surishtirmay, sizga ergashib ketaveramiz. Biz sizga ko‘r-ko‘rona ishonamiz, Ned!

Shunday qilib, juda muhim samaralar beradigan bu gapga xotima berildi.

Vaqtida aytib qo‘yay, kanadalikni qanchalik ranjitmasin, bundan keyingi voqealar mening tax-minlarim to‘g‘riligini ko‘rsatdi. Kapitan Nemo bu serqatnov dengizlarda yo bizga ishonmadi, yoki O‘rtayer dengizi suvlarida suzadigan ko‘pgina turli millat kemalari bilan uchrashib qolishdan qo‘rqdi, har holda biz doim suv ostida va sohildan olis yer-dan yurdik. «Nautilus» yo suv sathiga faqat shtur-val hujrasi ko‘rinadigan darajada ko‘tarilardi, yoki katta chuqurliklarga tushib olardi. Ha, aytganday, Grek tizma orollari bilan Kichik Osiyo oralig‘ida biz ikki ming metr chuqurlikka tushganda ham o‘zanga yetolmadik.

Biz Dodekanez guruhiga mansub bo‘lgan Kar-

pafos oroli yonidan o'tganimizni men kapitan Nemo uning qayerda joylashganini xaritadan ko'rsatgandan keyingina bilib oldim.

Keyingi kuni, 14-fevralda, men bir necha soat vaqtimni Grek tizma orollaridagi baliqlarni o'rganishga bag'ishlamoqchi edim. Biroq negadir salon derazalaridagi temir to'siq kuni bilan yopiq turdi.

«Nautilus» qayerdaligini xaritadan kuzatib, uning Krit oroli tomon borayotganini ko'rdim. Men «Avraam Linkoln» bortiga chiqqan paytimda bu orol turklar zulmiga qarshi bosh ko'targan edi. Qo'zg'olon ko'targan kritiklarning taqdiri nima bo'lganini bilmayman, shubhasiz, insoniyat olamidan tamomila aloqasini uzgan kapitan Nemo bu haqda menga biron narsa deyolmas edi.

Men kechqurun kapitan Nemo bilan salonda uchrashganimda bu voqeani loqaqal biron ishora bilan ham sezdim. Kapitan nazarimda xomush va nimadandir tashvishlanayotganday edi. Odatiga xilof ravishda u to'satdan salondagi har ikki to'siqni ochishni buyurdi va bir derazadan ikkinchisiga o'tib, sinchiklab suvga tikildi. U nimani ko'rmoqchi edi? Bunisini bilolmadim, shuning uchun ko'z oldimdan o'tayotgan baliqlarni kuzata boshladim.

Boshqa ko'pgina baliqlar orasida men oddiy xalq tilida bichok deb ataluvchi dengiz kolbenlarini ko'rdim: bu baliqlar, ko'pincha Nil deltasi yaqinidagi sho'r suvda uchraydi.

Shundan so'ng men sparlar yoki dengiz tovonbaliq oilasiga mansub bo'lgan shu'lalanuvchi pagralarni ko'rdim. Misrliklar bu baliqlarni muqaddas hisoblashar va ularning Nil suvlariga kirib kelishi odatda daryoda suvning ko'payishi, ya'ni yaxshi



hosildorlik nishonasi sifatida katta dabdabali diniy marosimlar bilan nishonlanardi.

Yonimizdan xeylinlar – uzunligi o‘ttiz santimetr, tangachalari tiniq ko‘kish, unda-munda qizil qashqalari bo‘lgan qiltanoqli baliqlar to‘dasi suzib o‘tdi. Bu baliqlar faqat suv o‘tlari bilan oziqlangan uchun go‘shiti juda mazali edi. Xeylinlar qadimgi Rimdayoq juda tansiq taom sifatida ustiga muren suti, tovusning miyasi va qaldirg‘och tili qo‘yilib, dasturxonga tortilar edi.

Bu dengizlarda yashaydigan yana bir baliq menga qadimiy Rim davrlarini eslatdi. Bu lotsman bo‘lib, bu baliqcha hamisha akulalarning yonida yurar edi; qadimgilarning e‘tiqodicha, bu kichkina baliqcha kemanding tagto‘siniga yopishib olsa, uni to‘xtatishi mumkin emish.

Shuningdek, men qadimiy Gretsiyaning muqaddas balig‘i ajoyib anthiaslarni ko‘rdim. Aqidalarga ko‘ra, bu baliq o‘zi yashaydigan joydan bahaybat maxluqlarni yo‘q qila olarmish. Bu baliqlarning nomi – *anthias*– «gul» ma‘nosini anglatib, ular bu nomga juda mos – qizil bo‘yoqning och pushtidan tortib yoqut rangigacha tovlanardilar.

Shu dengiz mo‘jizasidan ko‘z uzolmay turganimda, to‘satdan kutilmagan manzara meni benihoya taajjublantirib qo‘ydi. Suv ostida beliga charm xaltacha osib olgan odam paydo bo‘lib qoldi. U tirik edi. Bir necha marta suv sathiga qaytib, so‘ng yana suvga sho‘ng‘ir edi.

Men kapitan Nemoga qarab, hayajon ichida xitob qildim:

– Odam cho‘kyapti! Qanday bo‘lmasin uni qutqarib qolish kerak! Kapitan Nemo menga javob bermay, shoshilib oyna oldiga bordi. Suzayotgan odam

yana sho'ng'idi va ko'zlarini derazaga tikib, bizga qaradi.

Kapitan Nemoning unga bir narsa ishora qilib ko'rsatganini ko'rib, g'oyat hayratlandim. Suvdagi kishi unga javoban bosh qimirlatdi-da, tez dengiz sathiga suzib ketdi va qaytib kelmadi.

– Undan xavotir bo'lmang, – dedi menga kapitan Nemo. – U Matapan burunidan, ismi Nikolay, laqabi «Baliq». Uni grek tizma orollarining hamma-sida bilishadi. Ajoyib suzuvchi! Suv uning stixiyasi va tinmay bir oroldan ikkinchisiga, ba'zan hatto Kritgacha yetib, suvda quruqlikdagiga ko'ra ko'proq vaqtini o'tkazadi.

– Siz uni taniysizmi, kapitan Nemo?

– Nega endi uni tanimay, janob Aronaks?

Shunday dedi-yu, kapitan salon devoriga ishlangan shkaf oldiga bordi. Uning yonida tunuka qoplangan sandiq turar edi. Sandiq qopqog'idagi mis taxtachaga «Nautilus» shiori – «Harakatchanlik harakatda» va kemanding bosh harfi «N» o'yib yozilgan edi.

Kapitan Nemo menga boshqa e'tibor qilmay, shkafni ochdi, unda juda ko'p quyma metallar taxlanib yotardi.

Bu – oltin parchalari edi.

«Nautilus»ga shu qadar ko'p miqdordagi bunday metall qayoqdan kelib qoldi? Kapitan Nemo oltinni qayerdan olgan va hozir u bu oltinlarni nima qilmoqchi?

Men bir og'iz ham so'z aytmay, qarab turardim.

Kapitan Nemo shkafdan oltin parchalarini oldi va uni sandiq to'lguncha bittadan terib chiqdi.

Mening hisobimcha sandiqqa u kamida ming kilogramm, salkam besh million franklik oltin soldi.

Kapitan sandiq qopqog'ini yopib, ustiga yangi yunon tilida bo'lsa kerak, adres yozdi.

U bu ishlarni qilib bo'lgach, komanda xonasiga ulangan qo'ng'iroq tugmachasini bosdi. O'sha zahotiy oq sakkiz matros kelib, salondagi sandiqni zo'rg'a sudrab olib chiqib ketishdi.

Ularni sandiqni blok yordamida trapdan palubaga olib chiqishayotganlarini eshitib turdim. Shu payt kapitan Nemo menga qarab:

– Ha, aytganday, nima deyotgan edingiz, janob professor?

– Hech narsa deganim yo'q, – deb javob berdim men.

– Unday bo'lsa, menga ruxsat, tuningiz xayrli o'tsin.

Shunday deb u salondan chiqdi.

Kayutamga ichimga g'ulg'ula tushib qaytdim..

Uxlayman deb bekorga urinardim. Men suvda paydo bo'lgan kishi bilan sandiqdagi oltin quy-malari o'rtasida qanday mantiqiy bog'lanish borligini bilolmay xunob edim.

Yengil chayqalish boshlanganidan «Nautilus» suv sathiga ko'tarilganini fahmladim.

Shundan so'ng palubada oyoq tovushlari eshitildi. Qayiqni o'rnidan olib suvga tushirayotganlarini sezdim. U «Nautilus» bortiga bir urildi-da, so'ng shovqin tindi.

Ikki soat o'tgach, shovqin yana eshitila boshladi. Qayiqni suvdan chiqarib o'rniga mahkamlashayotgan edi. So'ng «Nautilus» yana suvga sho'ng'idi.

Demak, millionlar belgilangan joyga yetkazilgan edi. Biroq qit'aning qayeriga? Kapitan Nemoning vositachisi kim bo'ldi ekan?

Ertasi kuni men Konsel bilan Ned Lendga o'tgan tungi voqealarni so'zlab berdim.

O'rtoqlarim ham men singari g'oyat taajjublanishdi.

– Xo'sh, u bu millionlarni qayerdan oladi? – so'radi Ned Lend.

Men bu savolga javob berolmadim.

Nonushtadan so'ng men salonga o'tib, ishlay boshladim.

Peshindan keyingi soat beshgacha boshimni ko'tarmay kundaligimni yozdim. To'satdan isiy boshladim.

Kamzulimni yechdim, biroq bu ham foyda bermadi. Nafas olish borgan sari og'irlashib borar edi.

Sira tushunolmadim: biz tropiklardan uzoqdamiz, buning ustiga «Nautilus»ga suv ostida baribir yuqoridagi havo harorati ta'sir eta olmasdi. Monometr miliga qaradim: biz oltmish fut chuqurlikda suzayotgan edik.

Ishimni davom ettirmoqchi bo'ldim, ammo issiq borgan sari ko'tarilib, chidab bo'lmaydigan darajaga yetdi.

«Kemaga o't tushdimikin?» o'yladim men.

Salondan endi chiqaman deb turganimda, to'satdan kapitan Nemo paydo bo'lib qoldi. U to'g'ri termometr tomon yurdi, simob ustuniga qaradi va menga o'girilib dedi:

– Harorat qirq ikki!

– Buni sezib turibman, kapitan, – deb javob berdim men. – Agar harorat yana ko'tariladigan bo'lsa holimiz xarob.

– O, janob professor, harorat biz istagan taqdir-dagina ko'tarilishi mumkin.

– Demak, siz uni istaganingizcha oshirishingiz yoki kamaytirishingiz mumkin ekan-da?

– Yo‘q, biroq men haroratni ko‘taradigan bu o‘choq oldidan uzoqlashuvim yoki yaqinlashuvim mumkin.

– Demak, bu o‘choq «Nautilus»dan tashqarida ekan-da?

– Albatta. Biz qaynar suvda suzyapmiz.

– Nahotki, shunday bo‘lsa?! – xitob qildim men.

– O‘zingiz o‘ylab ko‘ring.

To‘siq ochildi va men «Nautilus» atrofida tamoman oppoq suvni ko‘rdim. Oltinugurtli bug‘ qozondagiday qaynab turgan suv ustiga yoyilayotgan edi. Men barmog‘imni oynaga tegizdim, u shu qadar issiq ediki, o‘sha zahoti qo‘limni tortib olishga majbur bo‘ldim.

– Biz qayerdamiz? – so‘radim men.

– Santorin oroli yonida, janob professor, – javob berdi kapitan. – Aniqroq bilishni istasangiz – Nea-Kammeni va Palea-Kammeni oralig‘idagi bo‘g‘ozda. Men sizga bu kamdan kam uchraydigan hodisani – suvosti vulqonining qaynab chiqishini ko‘rsatmoqchi edim.

– Men esa, – luqma tashladim, – yangi orollarning paydo bo‘lishi allaqachon to‘xtagan deb o‘ylagan ekanman...

– Vulqonli joylarda birorta jarayonni ham tugallangan deb hisoblab bo‘lmaydi, – deb javob berdi kapitan Nemo. – Axir yer shari ilgarigiday ichki olov bilan to‘lgan. Agar tarixchilardan Kassiodor bilan Pliniyga ishonch bilan qarajak, eramizning o‘n to‘qqizinchi yilida yaqinda vujudga kelgan mana shu uch orol o‘rnida yangi orol – Teyya paydo bo‘lgan. So‘ngra u to‘lqinlar ostida yo‘qolib, oltmish to‘qqizinchi yili yana olamga keldi va shundan so‘ng mutlaqo g‘oyib bo‘lib ketdi. O‘sha vaqtdan boshlab bizning kunlarimizgacha bu yerda vulqon

otilishi to'xtab qoldi. Biroq ming sakkiz yuz oltmish oltinchi yil uchinchi fevralda, Nea-Kammeni yonida, oltingugurtli bug' bulutlari orasida qo'qqisdan suvdan yangi orolcha qad ko'tardi. Uni Georg oroli deb atadilar. Oltinchi fevralda u Nea-Kammeni bilan qo'shib ketdi. Yetti kundan keyin, o'n uchinchi fevralda, suv ostidan yana bir orolcha – Nea-Kammenidan o'n metrli torgina bo'g'oz bilan ajralib turgan Afroesa paydo bo'ldi. Bu kamdan kam uchraydigan hodisaning sodir bo'lish paytida men tasodifan shu suvda edim va uning butun bosqichlarini kuzatdim. Afroesa orolchasining shakli deyarli dumaloq bo'lib, diametri uch yuz fut va balandligi o'ttiz fut. U shishasimon qora lavadan iborat bo'lib, ora-chora dala shpatlari<sup>1</sup> sochilgan edi. Nihoyat o'ninchi martda Nea-Kammeni yonida dengizdan yana ham kichikroq uchinchi orolcha – Reka ko'tarildi va har uchala orolcha qo'shib ketdi.

– Hozir biz turganimiz qanaqa bo'g'oz? – so'radim men.

– Mana bu bo'g'oz, – dedi kapitan Nemo xaritadan grek tizma orollarini ko'rsatib. – Ko'ryapsizmi, xaritaga yangi orolchalarni ham qo'shib qo'yanman.

– Bu bo'g'ozning o'zani ham biron vaqt suvdan ko'tarilsa kerak?

– Shunday bo'lishi mumkin, janob professor, zero, bir ming sakkiz yuz oltmish oltinchi yildan buyon Palea-Kammenidagi avliyo Nikolay porti ro'parasida sakkizta yangi orolcha paydo bo'ldi. Bundan shu narsa yaqqol ko'rinib turibdiki, yaqin orada Nea va Palea-Kammeni qo'shib ketadi. Tinch okeanda yangi orollar barpo etish – marjonlarning ishi. Bu suvlarda esa yangi orollarni vulqon-

<sup>1</sup> *Shpat* – silikatlar jinsidan bo'lgan ba'zi minerallarning nomi.

larning faoliyati vujudga keltirmoqda. Ko'ryapsizmi, janob professor, hayot suv ostida bir minut ham tinmay qanchalik qaynamoqda.

Men yana deraza oldiga keldim. «Nautilus» qimirlamay turardi. Chidab bo'lmaydigan darajada issiq edi. Suvning rangi allaqanday temir tuzi aralashmasida oqdan qizilga aylandi.

Deraza oynasi germetik usulda qoplamaga mahkamlanganiga qaramay, salonni oltingugurtning nafasni bo'g'adigan hidi tutib ketdi. Suvda qizil nurlar manbayini ko'rib qoldim. Bu shu qadar yorqin ediki, uning oldida projektorimiz nurlari xiralashib qoldi.

Mendan ter quyilib, nafasim bo'g'ila boshladi. Bu hol yana bir necha daqiqa davom etsa pishib ketishim hech gap emas!

– Bu qaynoq suvda ortiq turishning hojati yo'q, – dedim men kapitanga.

– Ha, bu ehtiyotsizlik bo'ladi, – loqaydlik bilan javob berdi u.

U allaqanday tugmachani bosdi. «Nautilus» yana yo'lga tushdi va qolsak halokatga olib keladigan bu o't ichidan tezda uzoqlashib ketdi. Chorak soatdan so'ng biz dengiz sathida jonholatda toza havodan nafas ola boshladik.

Xayolimga, bordi-yu, Ned Lend qochish uchun shunday joyni tanlaganida tiriklayin pishardik, degan fikr keldi...

Ertasi kuni, 16-fevralda, «Nautilus» Matapan burunini ortda qoldirib, grek tizma orollaridan chiqib ketdi.

### O'RTAYER DENGIZI BO'YLAB QIRQ SAKKIZ SOAT

Teran O'rtayer dengizi qadimgi yahudiylarning «Ulkan dengiz»i, qadimgi greklar «Dengiz»i, qadimgi rimliklarning «Bizning dengiz», baland tog'lar bilan o'ralgan, apelsin daraxtlari, aloy, kaktus, dengiz qarag'aylaridan iborat, gullagan bog'lar bilan qoplangan, mirtaning<sup>1</sup> ajoyib hidi anqib turadigan toza havosi bilan shuhrat qozongan, O'rtayer dengizi azaldan suv bilan o't o'rtasidagi kurash davom etadigan maydon bo'lib kelgan. Bu yerda Pluton bilan Neptun<sup>2</sup> dunyo hukmronligi uchun kurashdilar.

«O'rtayer dengizi sohillarida, – deb yozgan edi Mishle, – dunyoda iqlimi ajoyib bu joyda inson kuchiga kuch, sog'ligiga sog'liq qo'shiladi». Biroq men ikki million yuz ming kvadrat kilometr maydonni ishgor etgan, o'z go'zalligi bilan dong taratgan bu suv havzasini bir necha lahzagina ko'ra oldim.

Shu bir lahzalik taassurotlarimni kengaytirish uchun kapitan Nemo dan ham hech narsani so'rab ololmadim, chunki bu g'alati odam O'rtayer dengizi bo'ylab suzayotganimizda biror marta ham ko'zga ko'rinmadi. Shuni ham aytish kerakki, biz shitob bilan suzayotgan edik va «Nautilus» suv ostida ikki kecha-kunduzda ikki ming to'rt yuz kilometr yo'l bosdi: grek tizma orollaridan 16-fevralda chiqqan bo'lsak, 18-fevral tong otarda biz Gibraltar bo'g'ozini ortda qoldirgan edik.

Kapitan Nemo hamma yog'i o'zi qochgan quruqlik bilan o'rab olingan bu dengizni yoqtirmasligini sezdim. Ehtimol, uning to'lqinlari va shamoli o'zi

<sup>1</sup> *Mirta – xushbo'y, oq gulli, doim yashil o'simlik butasi.*

<sup>2</sup> Grek mifologiyasida Pluton yerosti dunyosining xudosi. Neptun – dengiz xudosi.



bilan birga achchiq xotiralarni esga solayotgandir yoki bir umrga yo'qotgan narsasiga achinish va afsuslanish hissini uyg'otayotgandir. Balki bu yerda okeanlardagidek erkin hamda bemalol suza olmayotgani va «Nautilus» yaqinlashib qolgan Yevropa va Afrika sohillari orasida siqilib qolayotgani uni asabiylashtirayotgandir?

Nima bo'lganda ham biz soatiga o'n ikki lyo yoki qirq sakkiz kilometr dan suzar edik. Ned Lend, unga qanchalik og'ir bo'lmasin, qochish haqida hech narsa o'ylamayotgani o'z-o'zidan ayon edi. U sekundiga o'n ikki-o'n uch metr tezlikda ketayotganda qayiqdan foydalana olmas edi. Bu xuddi shu tezlikda ketayotgan poyezddan sakrash bilan barobar, bu ishga jazm qilgan dovyurakning esa holiga voy. Buning ustiga «Nautilus» havo zaxirasini to'ldirish uchun suv sathiga tundagina chiqib, boshqa vaqtlarda esa kompas va lagga qarab suzdi.

Shuning uchun ham men O'rtayer dengizini tezyurar poyezdning ko'zi oldidan yashin tezlikda lipillab o'tadigan yo'l yoqasidagi joylarni emas, uzoqdagi ufqningina ko'ra oladigan yo'lovchisi singari kuzatdim.

Ammo shunga qaramay, Konsel bilan men suzgichlarining baquvvatligi tufayli ma'lum joygacha «Nautilus» tezligi bilan bahslashgan O'rtayer dengizidagi bir necha baliqlarni ko'zdan kechira oldik.

Biz soatlab salon derazasi oldida turardik va o'shandagi shoshilinch yozuvlar endilikda menga bu suvlarning ixtiologik<sup>1</sup> manzaralarini umumiy tarzda yozish imkoniyatini beradi.

O'rtayer dengizidagi juda ko'p turg'un baliqlardan ba'zilarini boshqalariga nisbatan uzoqroq kuzatdim, boshqalarini bir zumgina ko'rdim, uchin-

---

<sup>1</sup> *Ixtiologiya* – baliqlar haqidagi fan.

chi bir xillarini esa tez suzganimizdan umuman ko'rolmadim.

Shunday qilib, ularni ana shu fantastik tasniflash asosida yozaman, to'g'rirog'i, bu mening bir lahzalik taassurotlarimnigina ko'rsatadi.

Projektorning yorqin nurlari bilan charog'on bo'lib turgan qalin suv qatlamlarida uzunligi bir metr keladigan ingichka, deyarli barcha dengizlarda uchraydigan ilonbaliqlar suzib yurishardi. Yo'g'onligi besh fut keladigan, terisi g'adir-budur, yoshlari ayniqsa nafis, qarilari esa yirik va o'tkir tikanaklar bilan qoplangan tikanli skatlar suv oqizib ketayotgan katta ro'mollar singari chayqalishardi. Ko'z oldimizda skatlarning boshqa xillari ham o'tib turar, men ularning qadimgi greklar dengiz burgutlari degan nomga monandmi yoki hozirgi dengizchilar irganib qo'yishgan kalamush, qurbaqa va ko'rshapalak laqablariga loyiqqligini aniqlashga ham ulgurolmay qoldim.

Baliqchilar uchun, ayniqsa, xavfli hisoblangan delfin-akulalar oilasiga mansub seld akulalari biz bilan kim o'zarga o'ynashardi. Shuningdek, biz akulalar bo'limi, selyaxiyalar guruhiga kiradigan uzunligi sakkiz futdan oshadigan baliqlar – dengiz tul-kilarini ham ko'rdik: bu dengiz jonivorlarida bilish qobiliyati kuchli, ularning orqalari va biqinlari to'q havorang, tanasining pastki qismi oq qashqa.

Yana bizga spar baliqlari oilasiga mansub doradilar uchradi; ulardan ayrimlarining uzunligi bir yuz o'ttiz santimetrغا yetar edi; doradilarning ko'k kumushrang tanalari tovlanib turar, ayniqsa, sariq rangli suzgichlari ularga alohida ko'rk berar edi.

Uzunligi ikki-uch metr keladigan osyotralar salon derazasiga tikilishar, tezlikda biz bilan bahs-lasha olmagach, mayda jigarrang qashqalari bo'l-

gan havorangga moyil yelkalarini ko'rsatishib qolib ketishardi. Osyotralar tana tuzilishi bilan akulalarga o'xshasalar-da, ammo kuchlilikda ularga teng kelolmaydilar; hayotlarining ko'p qismini ular dengizda o'tkazadi, bahorda esa daryolarga o'tadilar va Volga, Dunay, Po, Reyn, Luara va Oder oqimlarida suzadilar; ular seld, makrel va boshqa kichik baliqlar bilan oziqlanadilar.

Hammasidan ham O'rtayer dengizidagi suvda yashaydigan tuneslar bilan yaxshilab tanishib oldim. Ularning yelkalari to'q ko'k bo'lib, ko'krak qafasi havorang, biqinlari bilan qorni oqish qashqali kulrang. Aytishlariga qaraganda, tuneslar kemalar soyasida borib, tropik quyoshining o'tli haroratidan o'zlarini saqlar ekanlar va «Nautilus» bilan suzganlarida ham, bir vaqtlar Laperuz kemalariga hamroh bo'lganlaridek, bu odatlarini tark etmadilar. Ular soatlab «Nautilus»dan bir santimetr ham ortda qolmay birga suzib bordilar.

Tabiat ularni kim o'zarga qatnashmoq uchun yaratganday. Men bu baliqlarni qiziqish bilan ko'zdan kechirdim: ularning boshi kichkina va cho'zinchoq, urchuqsimon tanalarining uzunligi uch, hatto to'rt metr, ko'krak va dum suzgichlari juda baquvvat. Tuneslar ayrim qushlar galasi singari tizilishib, to'g'ri uchburchak hosil etib suzar edilar. Ana shunga asoslanib qadimgilar tuneslarni geometriya va strategiya elementlarini biladilar deb ta'kidlar edilar.

Biroq tuneslarning «olimligi» ularni Provans baliqchilaridan qutultirolmasdi. Ular tuneslarni qadimiy Propontida va Ispaniya aholisi singari yuksak baholar edilar. Har yili yuz minglab ana shu ajoyib baliqlar ko'r-ko'rona va telbalarcha Marsel to'rlariga ilinardi.

O'rtayer dengiziga xos bo'lgan spinoroglarni, dengiz otchalarini, oybaliqlarni, kuzovkalarni, seldlarni, bichoklarni, dengiz yorshlarini, gubanlarni, qilichbardorlarni, ferinklarni, ignabaliqlarni, anchouslarni va yuzlab boshqa xil baliqlarni ko'zdan kechira olmaganimga meni emas, bu joylardan juda katta tezlik bilan o'tib ketgan «Nautilus»ni ayblamoq kerak.

Dengiz sutemizuvchilariga kelganda shuni aytish kerakki, Adriatik dengizidan o'tayotganimizda men ikkita kashalotni, so'ng bir necha delfinlarni va nihoyat monax degan laqab olgan va chindan ham dominikan monaxlariga o'xshab ketadigan, faqat bo'yi uch metr keladigan oltitacha tulen ko'rdim.

Konsel eni olti fut, kosasining ustida yettita uzunchoq do'ngligi yoki qovurg'alari bo'lgan juda ulkan toshbaqani ko'ribdi. Mening o'zim bu toshbaqani ko'rmaganimga juda achindim, chunki Konselning ta'riflashicha, bu toshbaqaning juda kamdan kam uchraydigan terili turi edi.

Zoofitlardan bir necha sekund davomida salon derazasining oynasiga yopishib olgan galeolyariyning ajoyib nusxasini ko'rishga muyassar bo'ldim. U shoxlab ketgan jimjimador tolaga o'xshardi, uning juda nozik shoxlari Flandriyaning birorta kashtachisi tikolmaydigan nafis shakllar hosil etgan edi. Afsuski men bu ajoyib nusxani ololmadim.

Agar shu kuni, 16-fevralda, kechqurun «Nautilus» to'satdan sekin suza boshlamaganida men O'rtayer dengizida boshqa bironta ham zoofit ko'rolmas edim.

Voqea bunday bo'lgan edi.

Biz Sitsiliya bilan Tunis orasidan borar edik. Bu tor joyda dengiz tubi birdan ko'tarilgan. Bu yerdan

suvosti tizmasining cho‘qqisi o‘tgan bo‘lib, uning ustida suv chuqurligi arang o‘n yetti metrga yetadi, vaholanki, bu joyning har ikki yoni taxminan yetmish metr chuqurcha. «Nautilus» ana shu suvosti to‘sig‘iga o‘zini urib olmaslik uchun juda ehtiyotkorlik bilan suzib o‘tdi.

Men Konselga xaritadan bu suvosti cho‘qqilari tizmasi qayerda joylashganini ko‘rsatdim.

– Xo‘jamning ruxsatlari bilan shuni aytmoqchimanki, bu tog‘ tizmasi menimcha, Yevropa bilan Afrikani qo‘shib turadigan bo‘yin bo‘lishi kerak, – dedi u.

– To‘g‘ri aytasan, do‘stim, – dedim men, – u butun Sitsiliya bo‘g‘ozini to‘sib qo‘ygan. Smit tadqiqotlarida ko‘rsatilishicha, bir vaqtlar Addar buruni bilan Marsala orasida bu qit‘alarni birlashtiradigan tasmaday qattiq yer bo‘lgan.

– Bunga tamoman ishonaman, – dedi Konsel.

– Yana shuni qo‘shimcha qilmoqchimanki, Gibraltar bilan Seuta orasidan ham shunaqa to‘siq o‘tgan. Qadimgi geologiya davrida bu to‘siq O‘rtayer dengizini tamoman bo‘g‘ib turgan.

– Agar, – so‘z boshladi Konsel, – kunlardan birida yana vulqon otilib, bu bo‘yinchani suv ostidan ko‘tarsa...

– Bunday bo‘lishi ehtimoldan uzoq, – deya uning so‘zini bo‘ldim men.

– Xo‘jam ruxsat bersalar, fikrimni oxiriga yetkazsam: bordi-yu, bu voqea sodir bo‘lganda ham Suvaysh kanalini qazishga juda ko‘p mehnat qilgan sho‘rlik Lessepsga achinaman!

– Albatta, Konsel, ammo tashvishlanmay qo‘ya qol, bunday bo‘lmaydi! Yer ostidagi olovning kuchi asta-sekin so‘nadi. Yer paydo bo‘lgan dastlabki paytlardagi nihoyat darajada ko‘p vulqonlar birin-

ketin soʻna boshlaydilar; yer ostidagi issiqlik kuchsizlanadi; yerning ostki qatlamlari harorati asrlar oʻtishi bilan pasayib boradi, afsuski, bu issiqlik hayot manbai boʻlgan bizning sayyoramiz uchun baxtsizlikdir...

– Biroq quyosh...

– Birgina quyoshning oʻzi yetarli emas, Konsel. U murda tanasiga issiqlik yugurtira oladimi?

– Menimcha, yoʻq.

– Modomiki shunday ekan, doʻstim, bir kun ke-lib Yer muzlab qolgan murdaga aylanadi. Unda ham oʻz hayot issiqligini allaqachon yoʻqotgan Oy singari hech zot yashamaydigan boʻladi.

– Necha asrdan soʻng shunday boʻladi? – soʻradi Konsel.

– Bir necha yuz ming yildan soʻng, – javob berdim men.

– Unday boʻlsa biz oʻzimizning suvosti sayohatimizni oxirigacha yetkazishga ulgurar ekanmiz, faqat bunga Ned Lend xalaqit bermasa.

Yerning kelajagidan biroz tinchlangan Konsel «Nautilus»ning oʻrtacha tezlikda suzayotganidan foydalanib, yana suvosti hayotini kuzata boshladi.

Vulqon otilishidan vujudga kelgan choʻqqilarda Bugenvil meduzalari, bulutlar, goloturiy, kama-lakning barcha ranglarida tovlanadigan dengiz bodringlari koʻrinib turardi, yoʻgʻonligi bir metr keladigan, qirmizi rangi atrofidagi suvga qizillik kirita-yotgan komatullar; poyalari uzun gidroaktiniylar; midiylarning juda koʻp yeyiladigan xillari; oyoqlari kulrang, atrofi zaytun tukli hurpaygan qalin soch bilan qoplangan yashil aktiniylar sayr qilishardi.

Konsel mollyuskalarni kuzata boshladi va taroqsimon pektunkulyuslarning juda koʻp namunalari – ustma-ust qalashib ketgan spondoliylar,

dengiz kapalaklari degan laqablariga mos tushadigan sariq suzgichlari ro'molsimonlar, dengiz quyonlari nomi bilan ma'lum bo'lgan chig'anoq va apliziylarni; go'shtdor, yesa bo'ladigan yuraksimonlar, chig'anoqlari qimmatbaho sadaf bilan qoplangan dengiz quloqchalarini; Langedokda ustritsalarga qaraganda lazzatliroq taom hisoblanadigan midiylarni; uchburchak donatsiyalar, dengiz xurmolari, zolidlar, daraxt yo'nuvchilar, g'altaklar, sinerariylar va ko'pgina boshqalarini birma-bir sanab chiqdi. Biroq Sitsiliya bo'g'ozidagi to'siqdan o'tib olgach, «Nautilus» yana ilgarigi tezlikda suza boshlagani sababli Konsel kuzatuvlarini oxiriga yetkaza olmadi.

Xayr sizga, molluskalar, zoofitlar, bo'g'inoyoqlilar! Endi salon oynasidan soyaday lipillab o'tayotgan katta baliqlardan bo'lak hech narsani ajratib bo'lmasdi.

16- dan 17-fevralga o'tar kechasi O'rtayer dengizining eng chuqur joyi uch ming metr dan oshmaydigan ikkinchi havzasiga kelib qoldik. Bu yerda «Nautilus» to'satdan suv tubiga sho'ng'idi.

Biroq bu yerda bizni tabiat mo'jizalari bilan birga hayajonlantiradigan ham qayg'urtiradigan manzara kutib turardi. Biz endi O'rtayer dengizining juda ko'p kemalar halokatga uchragan joyida borar edik. Jazoir bilan Provans oralig'ida qancha kema halokatga uchragani yoki yo'qolganini kim sanay oladi?

O'rtayer dengizi Tinch okeanning ko'z ilg'amas kengliklari oldida ko'lday bir gap. Ammo bu ko'l injiq va asov, uning suvi pand beradigan va beqaror; bugun u o'zining ko'zni qamashtiradigan to'lqinlarida suzayotgan mo'rtgina qayiqchani allalab ardoqlasa, ertasi kuni esa oyoqqa turib asovlash-

gach, qisqa, ammo tez-tez urib turadigan poʻrtanasi bilan eng katta kemani ham parcha-parcha qilib it-qitadi.

Chuqur suv qatlamlarida tez suzib borayotganimizda koʻz oldimdan qanchadan qancha halokatga uchragan kemalar oʻtmadi! Baʼzilari suv ostida koʻp yotganidan marjon bilan qoplanibdi; yaqinda halokatga uchraganlari endi zanglay boshlabdi.

Bora-borguncha bizning yoʻlimizda langarlar, toʻplar, eshkak oʻqlari, mashina qismlari, siniq silindrlar, portlab ketgan qozonlar, baʼzi joylarda esa kemalarning yaxlit korpuslari – ulardan baʼzilari tumshugʻi pastga qarab, boshqalari esa toʻntarilib yotardi.

Bu kemalardan ayrimlari toʻqnashuv natijasida, baʼzilari esa qoyalarga urilib halokatga uchragan edi. Men dengiz oʻzaniga machtalari sinmay toʻgʻri tushib, oʻz holicha but-butun turgan kemalarni ham koʻrdim... Ular goʻyo bir pana joyda langar tashlab, suzishga farmoyish kutib turganday edi.

«Nautilus» projektorining yogʻdusini taratib, ularning yonidan oʻtayotganida xuddi zum oʻtmay flagshtokda bayroq hilpirab, roʻparadagi kelayotgan kema bilan salomlashib, unga oq yoʻl tilaydiganдай boʻlib tuyular edi...

Ammo bayroq hilpiramadi: bu dengiz qabristonida tanho oʻlim va sukunat hukmron edi...

«Nautilus» Gibraltar boʻgʻoziga yaqinlashgan sari dengiz oʻzanida qaygʻuli halokat qoldiqlari tobora koʻpaya borgan ekan. Yevropa va Afrika sohillari oraligʻi yaqinlashgan sari kemalar halokati koʻpaya borgan. Bu yerda men koʻplab temir korpuslarni, tik yoki yonboshlab qolib, afsonaviy hayvonlarni eslatadigan pachoqlangan paroxod qoldiqlarini koʻrdim.



Bitta g'ildirakli paroxod ayniqsa qattiq hayajonlantirdi; uning borti go'yo yirtib tashlanganday, mo'rilari egilgan, g'ildiraklaridan faqat pachoqlangan temir sinchgina qolgan, ruli quyruqdan ko'chib, zanjirda osilib turar edi, korpusi zanglagan... Ichida qancha odam halok bo'lgan ekan? Bu dahshatli halokatni so'zlab berish uchun qancha odam tirik qolgan? Yoki to'lqinlar bu sirni pinhon saqlayotganmikin?..

Xayolimga bu o'sha yigirma yil oldin sirli ravishda yo'qolib, butun dunyoni hayajonlantirgan «Atlas» paroxodi emasmikin, degan fikr keldi.

– Qanchadan qancha boyliklar ko'milib yotgan, qancha odamning so'nggi oromgohiga aylangan bu ulkan qabriston – O'rtayer dengizi o'zanidagi sirlar haqida qanday dahshatli kitob yozish mumkin edi-ya!

Bu orada jamiki narsaga parvoyi falak «Nautilus» suvosti poygasini davom ettirmoqda edi. 18-fevralda kechasi soat uchlarda u Gibraltar bo'g'ozining kiraverishiga yetib keldi.

U yerda ikki oqim bor: yuqori oqim ilgaridan ma'lum bo'lib, u Atlantik okean suvlarini O'rtayer dengiziga olib kiradi va uning qarshisidan keladigan quyi oqimlarning mavjudligi mantiq yo'li bilan isbotlangan edi.

Darhaqiqat, O'rtayer dengizi sathi unga Atlantik okeani va daryolardan uzluksiz quyiladigan suv tufayli muttasil ko'tarilib borishi kerak edi, chunki uning bir me'yorda saqlanishi uchun birgina bug'lanishning o'zi kifoya qilmaydi. Shunga qaramay bu yerda suv sathi ko'tarilmaydi, binobarin ikkinchi oqimning mavjudligini faraz etish muqarrar va u Gibraltar bo'g'ozining tubidan o'tib, O'rtayer

dengizidagi ortiqcha suvlarni Atlantik okeanga olib ketishi kerak edi.

Bu haqiqatan ham shunday bo'lib chiqdi. «Nautilus» ana shu yo'l-yo'lakay oqimdan foydalanib, tor bo'g'ozdan tez suzib o'tdi.

Ko'z o'ngimdan bir lahzagina, Pliniyning ayti-shicha, orolcha bilan birga suvga cho'kkan hashamatli Gerkules ibodatxonasining vayronalari gavalandi va bir necha daqiqadan so'ng biz Atlantik okean sathiga ko'tarildik.

## **S a k k i z i n c h i b o b**

### **VIGO KO'RFAZI**

Atlantik okean! Sathi yigirma besh million kvadrat milyaga yastanib yotgan, eni o'rta hisobda ikki ming yetti yuz milya va uzunligi salkam to'qqiz million milyaga cho'zilgan ulkan suv yalangligidir.

Bu ulkan dengiz qadim zamonlarda deyarli noma'lum bo'lgan. Ehtimol faqat qadimiy gollandlar hisoblangan korfagenlar o'zlarining savdo ishlari bilan Yevropa va Afrikaning g'arbiy qirg'oqlarini aylanib o'tgan bo'lishlari mumkin.

Bu okeanning ilon izi sohillari juda katta masofaga cho'zilib ketgan bo'lib, dunyodagi eng mashhur avliyo Lavrentiy, Missisipi, Amazonka, La-Plata, Orinoko, Niger, Elba, Luara, Reyn kabi jahondagi eng madaniylashgan va eng yovvoyi mamlakatlardagi yerlarni sug'oradigan daryolar unga quyiladi. Barcha mamlakat va barcha xalqlarning kemalari hamma tomonlarga yuradigan va dengizlarga dahshat soluvchi ikki burun – Gorn va Bur burunlari bilan tugaydigan ulug'vor suv sathi.

«Nautilus» o'tkir tumshug'i bilan Atlantik okean suvlarini kesib, uch yarim oy mobaynida salkam o'n

ming lyo masofani – Yer ekvatorining uzunligiga teng keladigan yo‘lni bosib o‘tib, suzishni davom etar edi. Endi u qaysi tomonga yo‘l oladi? Ertangi kun bizga qanaqa tasodiflar olib keladi?

«Nautilus» Gibraltar bo‘g‘ozidan chiqqach, ochiq okeanga yo‘l oldi. U yana suv sathiga ko‘tarildi, binobarin biz uchun ilgarigiday har kuni ochiq havoda sayr qilish imkoniyati tug‘ildi.

Dastlab suv sathiga ko‘tarilganimizda men, Ned Lend va Konsel tezda palubaga chiqdik.

Yigirma milya narida Ispan yarimorolining janubi g‘arbi bilan tutashib ketgan avliyo Vinsent buruni xiyol ko‘rinib turar edi.

Anchagina kuchli janub shamoli marhamatsiz dengizda katta to‘lqin hosil etdi. «Nautilus» qattiq chayqala boshladi. Minut sayin shaloplab sho‘r suv kelib tushayotgan palubada uzoq turib bo‘lmas edi.

Biroz toza havoda turgach, kema ichiga tushishga oshiqdik.

Men kayutamga qaytdim. Konsel ham kayutasi-ga ketdi, biroq nimadandir tashvishlangan kanadalik mening orqamdan yurdi. O‘rtayer dengizidan tez o‘tilgani sababli, u tuzgan rejasini ro‘yobga chiqarolmadi va binobarin, qattiq iztirob chekayotganini yashirishga urinmas ham edi.

Kayuta eshigini yopishim bilan u stulga o‘tirdi va jimgina menga qarab qoldi.

– Sizga og‘ir, buni tushunib turibman, do‘stim Ned, – dedim men unga. – Ammo tashvish chekavermang, bu masalada o‘zingizni ayblashga o‘rin yo‘q. O‘sha biz suzgan sharoitda qochish haqida o‘ylash telbalik bo‘lur edi.

Ned Lend javob bermadi. Chimrilgan qoshlari va mahkam qisilgan lablari uning bir narsa haqida qattiq o‘ylayotganidan guvohlik berar edi.

– Menga qarang, – so‘zimni davom ettirdim, – aql bilan ish qiling! Hech narsa yo‘qotganimiz yo‘q. Biz hozir Portugaliya sohillari bo‘ylab shimol tomonga ko‘tarilamiz. Fransiya va Angliya yonidan o‘tamiz, u yerda ham osonlik bilan boshpana topsa bo‘ladi. Bordi-yu, «Nautilus» Gibraltar bo‘g‘ozidan chiqib, janubga, deyarli quruqlik bo‘lmagan tomonga yo‘l tutganida edi, tashvishingizga men ham sherik bo‘lur edim. Biroq endi kapitan Nemo serqatnov dengizlarni chetlab o‘tolmasligini bilib turibmiz, bunday sharoitda esa bir necha kundan so‘ng qochishning mutlaqo xavfsiz rejasini tuza olishingizga imonim komil.

Ned Lend menga yana ham tikilibroq turdi-da, so‘ng qimtilgan lablari ochilib, so‘z qotdi:

– Bugun kechasi qochamiz!

Men bir narsa chaqib olganday sapchib ketdim. Ochig‘ini aytsam, bu xabarni eshitishni kutmagan edim.

Kanadalikka e‘tiroz bildirmoqchi edim, ammo nima deyishimni bilolmay qoldim.

– Biz siz bilan qulay fursatni kutamiz deb shartlashganmiz, – deb so‘zini davom ettirdi Ned Lend. – Shunday fursat keldi. Bugun kechasi biz ispan sohilidan atigi bir necha milya masofada bo‘lamiz. Hozir kechalar qorong‘i, oy yo‘q. Shamol bor kuchi bilan quturmoqda. Menga so‘z bergansiz, professor, binobarin, sizga ishonaman.

Men indamay turar edim. Kanadalik o‘rnidan turib, menga yaqinlashdi.

– Bugun, soat to‘qqizda! – dedi u. – Bu haqda Konselni xabardor qilganman. Bu vaqtda kapitan Nemo uyiga kirib olsa kerak, balki uxlashi ham mumkin. Bizlarni na mexanik, na matroslar ko‘ra oladi. Konsel bilan men palubaga chiqadigan trap

ostiga yashirinamiz. Siz, janob professor, signalimni kutubxonada kutib turasiz. Eshkaklar, machtalar, yelkan qayiqda bo'ladi. Men unga hatto biroz oziq-ovqat ham olib borib qo'ydim. Bundan tashqari, qayiqni «Nautilus» palubasidan bo'shatib olish uchun murvatlarni buraydigan ingliz kalitini ham topib qo'yanman. Xullas, hamma narsa taxt. Kechgacha xayr!

– Dengiz juda toshqin, – dedim men.

– Gapingizga qo'shilaman, – dedi kanadalik, – ammo bunga e'tibor bermaslikka to'g'ri keladi. Ozodlikka erishish uchun biroz tavakkal qilish kerak. Aytganday, «Nautilus»ning qayig'i mustahkam, binobarin, shunday havoda ham shamol oqimi bo'ylab bir necha milya suzish hech gap emas. Kim biladi, balki ertaga biz Yevropa sohilidan yuzlab milya narida bo'larmiz? Agar omadimiz kelib qolsa, unda kechasi soat o'n bilan o'n bir orasida ispan sohilining biror-bir joyiga yetib olamiz. Bordiyu, shunday bo'lmasa, unda xuddi shu vaqtda biz olamdan o'tgan bo'lamiz. Shunday qilib, kechgacha xayr!

Kanadalik shunday dedi-yu, meni tamoman sarosimada qoldirib, kayutadan chiqib ketdi. Men nimagadir qochishning vaqt-soati yetganda, Ned Lend bilan hamma narsani bafurja kelishib olish va hatto bahslashish ham mumkin, deb o'ylagan edim. Biroq qaysar kanadalik menga hatto bir so'z ham ayt-tirmadi. Sirasini aytganda, unga nima ham deb e'tiroz bildirar edim? Ned Lend har qanaqasiga haq edi. Bu darhaqiqat boshqa vaqtlardagiga nisbatan qulay fursat va u bundan foydalanib qolishga qaror qilgan edi...

O'z shaxsiy manfaatim deb bergan so'zimdan qaytib, o'rtoqlarimning taqdiriga befarq qarashga

haqqim bormidi? Ertaga kapitan Nemo bizni yana har qanday yerdan olis bo'lgan suv sahrosiga olib chiqsa-chi?

Shu payt qattiq hushtak ovozi eshitildi. «Nautilus» rezervuarlariga suv to'latib, okean qa'riga cho'kmoqchi edi.

Hayajonlanayotganimni yuzimdan sezib qolmasin deb, kapitan Nemo bilan uchrashmaslik uchun kayutadan chiqmadim.

Bir tomondan yana ozodlikka chiqish istagi va ikkinchi yoqdan jahon bo'ylab suvosti sayohatimni tugatmay bu ajoyib kemadan ajrash zarurligidan afsuslanish bilan o'sha kun naqadar og'ir kechdi!

Bu okeanni, ya'ni Atlantikamni Tinch va Hind okeanlari singari ocholmay to'satdan tashlab ketish: Dunyodagi eng diqqatga sazovor bu kitobning ikki jildinigina o'qib, qolgan jildlarini o'qishdan ixtiyoriy ravishda voz kechish!

Kayutamda naqadar noxush soatlarni kechirar edim! Men o'rtoqlarim bilan birga quruqlikdagi havo singari ozod bo'lishimni ko'z oldimga keltirib, o'zimga shu bilangina tasalli berishga harakat qilardim-u, ammo ko'pincha beixtiyor biror ko'zda tutilmagan to'siq Ned Lendning rejalariga xalaqit berishini orzu qilardim.

Men «Nautilus»ning qayoqqa borayotganini – quruqlikkami yoki undan uzoqlashyaptimi – shuni bilish uchun kompasni ko'rishga ikki marta salonga kirdim.

Biroq ishlar joyida! «Nautilus» Portugaliya yonidan suzib borar edi. Kema uning qirg'oqlari bo'ylab to'g'ri shimol tomon yo'l tutgan edi.

Boshqa iloj yo'q, qochishga hozirlik ko'rish kerak.

Yukim uncha ko'p emas edi – u yozuvlarimdan-gina iborat.

O'z-o'zimga savol berar edim: Ned Lend o'zining telbalik bilan ko'zlagan ishini amalga oshira olgan taqdirda kapitan Nemo nima deb o'ylarkin? Bordi-yu, qocholmay qo'lga tushsak, «Nautilus»ning g'alati kapitani nima qilarkin?

Undan nolishimga, shubhasiz, hech qanday asosim yo'q edi. Aksincha! Bundan ham oliyjanobroq va yaxshi mehmondo'stlik haqida o'ylash o'rinsiz edi. Ammo ikkinchi tomondan qochganim uchun u meni noshukurlikda ayblashga ham haqsiz edi. Men qochishga urinmaslikka unga so'z berganim yo'q. Biz so'z olib so'ng ozodlikka chiqarilgan bandilar emas edik, – kemada qamab saqlamayotganliklarining birdan bir sababi «Nautilus»dan qochib bo'lmaydi, degan qat'iy ishonchlaridir. Bundan tashqari, kapitan Nemoning biz uning kemasini abadiy tashlab ketmasligimizni qayta-qayta ta'kidlashi ham qochish yo'lidagi har qanday urinishimiz aybini bo'ynimizdan soqit qilar edi.

Men kapitanni Santorin oroli sohillariga yaqin yerda gaplashganimizdan buyon boshqa uchratmadim. Nahotki tasodif meni qochishimiz oldidan u bilan uchrashtirib qo'ysa? Men ayni vaqtda shunday bo'lishini ham istardim, ham bundan qo'rqar edim.

Meniki bilan yonma-yon bo'lgan kayutasida emasmikan, deb quloq soldim. Biroq pardevordan hech qanday ovoz eshitilmadi. Kayutada hech kim yo'qqa o'xshardi.

Haqiqatan ham bu g'alati odam «Nautilus» bordidamikin, deb o'z-o'zimdand so'radim. Allaqanday sirli topshiriqni bajarish uchun qayiq «Nautilus»ni tashlab ketgan o'sha esda qolgan tundan keyin kapitan Nemo to'g'risidagi fikrim biroz o'zgardi.

Uning barcha ta'kidlashlariga qaramay, baribir quruqlik bilan qandaydir aloqa bog'lab turadi, degan xulosaga keldim. «Nautilus»dan sira chiqmagani aniqmikin? Axir ba'zan men u bilan haftalab uchrashmas edim. Shu vaqt ichida u nima qilar edi? Ilgarilari men, u vaqt-vaqti bilan mizantropiya<sup>1</sup> balosiga giriftor bo'lib yotadi, deb o'ylardim, endilikda esa xayolimga u quruqlikka chiqib, menga mutlaqo noma'lum biror vazifani bajaradi, degan fikr keldi.

Mana shunga o'xshash ming xil xayol menga tinchlik bermay qo'ydi. Biz o'zimizning tutgan g'alati mavqeyimiz bilan sira haqiqatga to'g'ri kelmaydigan taxminlar qilishimiz tabiiy edi.

Juda qiynalib ketdim. Kutishimizning poyoni yo'qday tuyulardi menga. Soat millari juda sekinlik bilan aylanardi.

Ovqatni odatdagiday kayutamga olib kirib berishdi. Bo'ladigan voqealardan hayajonlanayotganimdan ishtaham bo'g'ilgandi. Dasturxon ustidan turganimda, soat yetti bo'lgan edi. Ned Lendga borib qo'shiladigan damgacha bir yuz yigirma minut bor – men esa har minutni hisob-lab turardim.

Hayajonim tobora oshib borar edi. Bir joyda o'tirolmas edim. Men tarang tortilgan asablarimni bosish uchun xonaning u boshidan bu boshiga yurar edim. Yurak yutib qilgan bu ishimiz halokatga olib boradi, degan fikr meni ortiqcha tashvishlantirmas edi; rejamiz «Nautilus»dan chiqib ketishimizdan oldin fosh bo'lish xavfi va bu xiyonatimizdan g'azablangan yoki undan ham battarroq ranjigan kapitan Nemo qarshisida turishimiz meni ko'proq ezardi va shuni o'ylaganimda yuragim qattiqroq urardi.

Salonni so'nggi bor ko'zdan kechirgim keldi.

---

<sup>1</sup> Mizantropiya – odamovilik, insonni sevmaslik.



Tor yo‘lak orqali juda ajoyib va foydali damlarni o‘tkazgan o‘sha mashhur muzeyga o‘tdim. Men u yerda to‘plangan boyliklarni bir umrga quvg‘in qilingan va shu ketgancha qaytib bu yerga kelmasligini bilgan odamday ko‘zdan kechira boshladim. Men chindan ham bu ajoyib san‘at asarlari, tabiatning bu mo‘jizalari bilan bir umrga ajralishim kerak edi. Hayotimning keyingi oylari shular orasida o‘tgan edi. Salon oynasidan Atlantik okean suviga so‘nggi bor qaragim keldi. Biroq to‘siqlar berk va korpusning temir qoplamasi uning sirlarini mendan yashirib turar edi.

Salonda yurib, kapitan Nemoning xonasiga olib kiradigan eshikka yaqinlashdim. Eshik qiya turganini ko‘rib, ajablandim. Orqaga tisarildim: bordiyu, kapitan Nemo xonasida bo‘lsa, meni ko‘rib qolishi mumkin. Biroq sira tovush chiqmagani uchun yana eshikka yaqinlashdim. Xonada hech kim yo‘q edi.

Eshikni lang ochib, ichkariga kirdim. Xonada hech narsa o‘zgarmagan, jihozlar o‘sha-o‘sha, sananjom turar edi.

Devorlarga osig‘liq turgan bir necha ofort<sup>1</sup> diqqatimni jalb etib qoldi. Xonada oldingi gal bo‘lganimda bularni ko‘rmagan edim. Ofortlarga o‘z hayotlarini biror buyuk g‘oyaga bag‘ishlagan tarixiy arboblarning tasviri tushirilgan edi. Bular: Polshani ozod etish uchun kurashgan Kostyushko, Botsarisa – hozirgi zamon Gretsiyasining Leonidi<sup>2</sup>, Irlandiya mustaqilligi uchun kurashgan, de’Konnell, Shimoliy Amerika Ittifoqining asoschisi Georg Va-

---

<sup>1</sup> *Ofort* – mis taxtachaga o‘yilgan yoki kislota yordamida ruxga o‘yib tushirilgan gravyura.

<sup>2</sup> *Leonid* – spartan shohi; uncha katta bo‘lmagan otryadga boshchilik qilib, Gretsiyada Fermopilga o‘tish yo‘lini forslarning behisob qo‘shinlaridan himoya etib, o‘z otryadi bilan halok bo‘lgan.

shington, quldor-fanatik o'qidan halok bo'lgan Lin-koln va nihoyat negrlarni qullikdan ozod etish ishi uchun qiynoqqa solinib, dorga tortilgan Jon Bro-unning Viktor Gyugo qo'li bilan qalamda chizilgan vahimali va g'alati portretlari edi.

Nega kapitan Nemo bu portretlarni o'z yotoq-xonasiga osib qo'ydi ekan? U bilan bu qahramon-lar orasida qanaqa aloqa bo'lgan? Balki bu port-retlar to'dasi uning hayotidagi jumboqni yechish-da menga yordam berar? Balki u ezilgan xalqning yo'l boshchisi bo'lib, so'nggi paytlardagi biror siyo-siy yoki ijtimoiy harakatda ishtirok etgandir? Bal-ki u shimoliy va janubiy shtatlar o'rtasida bo'lib o'tgan bir umr xotiradan o'chmas qonli grajdanlar urushining qatnashchisidir?

Birdan soat sakkiz marta zang urdi. Soat bol-g'achasining birinchi zang urishidayoq meni shirin xayol og'ushidan uyg'otdi.

Ko'z ilg'amas bir narsa xayolimdagi sirga sherik bo'layotganday cho'chib ketdim va tezda xonadan chiqdim.

Salonga chiqib, birinchi navbatda kompasga qa-radim. Uning mili birday, shimol tomon ketayotga-nimizni ko'rsatar edi. Lag kemandagi o'rtacha tezlik bilan suzayotganini, manometr taxminan oltmish metr chuqurlikni ko'rsatar edi.

Shunday qilib, sharoit Ned Lend rejalarini amal-ga oshirish uchun juda qulay edi.

Kayutamga qaytib kelib, issiq kiyindim: oyo-g'imga uzun dengiz etiklarini, boshimga mo'yna quloqchinimni va egnimga astariga tulen terisi ti-kilgan issiq kamzulimni kiyib oldim. Men tayyor edim. Faqat kutib turish qolgan edi.

«Nautilus»da hukmron bo'lgan sukunatni vint aylanishidan chiqayotgan ovozigina buzayotgan edi.

Men eshik oldida quloqlarimni ding qilib, kutilmaganida Ned Lend «jinoiy» rejalarini amalga oshirayotganda qo'lg'a tushganini ifodalovchi biror kishining qattiq qichqirig'ini eshitishdan cho'chib turar edim. Men telbalarcha hayajonlana boshladim... O'zimni osoyishta tutaman deb behuda urinar edim.

Soat to'qqizga bir necha minut qolganda qulog'imni kapitanning kayutasini menikidan ajratib turgan devorga qo'yib, tingladim. U yerdan hech qanday ovoz chiqmas edi. Kayutadan chiqib, salonga kirdim. U yer nim qorong'i, ammo hech kim yo'q edi.

Kutubxona eshigini ochdim. U yerda ham nim qorong'i bo'lib, bo'm-bo'sh edi.

Ned Lendning signalini kutish uchun trapga olib chiqadigan eshik oldiga borib turdim.

Shu payt vint aylanishidan chiqayotgan ovoz ancha pasayib, so'ng umuman tindi. «Nautilus» nega to'xtab qoldi? Bu to'xtash Ned Lendga rejasini amalga oshirish uchun ko'maklasharmidi yoki xalaqit berarmidi? Bunisini bilmas edim.

Endi sukunatni yuragimning qattiq urib turishigina buzar edi.

To'satdan kema bir silkinib qo'ydi. «Nautilus» okean o'zaniga tushganini sezdim. Ko'proq hayajonlana boshladim. Kanadalikning signalidan darak yo'q edi. Ned Lendning yoniga borib, qochishni qoldirishga ko'ndirish istagi tug'ildi. Biz bu kecha odatdagidan boshqacha sharoitda suzadiganday bo'lib tuyuldi menga.

Shu payt kutubxona ostonasida kapitan Nemo paydo bo'ldi. Meni ko'rib, salomlashmadi, ammo juda iltifot bilan gapirdi:

– O, janob professor, sizni izlayotgan edim. Ispaniya tarixini bilasizmi?

„ Hozirgi g'oyat sarosimador va tashvishli holatimda u mendan o'z vataning tarixini bilasanmi, deb so'raganida ham, hech nima deb javob berolmas edim.

– Savolimni eshitdingizmi? – so'radi kapitan Nemo. – Ispaniya tarixini bilasizmi?

– Juda chala, – nihoyat kuch yig'ib, javob qaytardim.

– Voy-bo'y, bunaqa olimlardan! – dedi kapitan. – Ular o'z mutaxassisliklaridan bo'lak hech narsani bilmaydilar! O'tiring, – qo'shib qo'ydi u, shu tarixdan qiziq bir voqeani gapirib beraman.

Kapitan divanga yaxshilab o'rnashib oldi. Men ham kapitan Nemoga ergashib, qorong'iroq burchakni egallab oldim.

– Janob professor, – deya so'z boshladi u, – yaxshilab quloq soling. Hikoyam siz uchun qiziq bo'ladi. Chunki, u o'zingizga berib javobsiz qoldirgan bir savolingizga boshqa yo'l bilan bo'lsa ham javob beradi.

– Qulog'im sizda, kapitan, – deya javob berdim bu muqaddimadan tashvishga tushib.

Kapitan bu gapni nimaga aytayotganini bilmay, uning bu hikoyasi bizning amalga oshmay qolgan qochishimiz bilan bog'liq emasmikin, deb o'z-o'zimdanda so'radim.

– Ruxsat bersangiz, janob professor, so'zini davom ettirdi kapitan, – biz 1702-yildan boshlaymiz. Esingizdadir, o'sha davrda Pireneyani bir chertishda yer bilan yakson qilib yuboraman deb, katta ketgan fransuz qiroli Lyudovik XIV nevarasi gersog Anjuyskiyni ispan taxtiga o'tqizib qo'ygan edi.

Filipp V nomi bilan podsholik qilgan bu anchagina layoqatsiz shahzoda zabardast tashqi dushmanlarning qarshiligiga duch kelib qoldi.

Chindan ham bir yil oldin, 1701-yilda, Gollandiya, Avstriya va Angliya qirollari Gaagada ispan tojini Filipp V boshidan olish va ularni vaqt-soati yetmay Karl III deb nomlagan ersgersogga kiygizish maqsadida ittifoq tuzgan edilar.

Ispaniya ana shu ittifoqqa qarshi kurashmog'i kerak edi. Biroq uning soldatlari ham, matros-lari ham yo'q edi. Ammo yetarli miqdorda puli bor edi. Biroq shunisi ham borki, basharti Amerika oltini to'latilgan galionlar uning ko'rfaziga qarshiliksiz kira olsa.

Xuddi 1702-yilning oxirida Ispaniya Amerikadan katta boylik yuklangan transport kutayotgan bo'lib, admiral Shato-Reno qo'mondonligida Fransiyaning yigirma uch kemadan iborat eskadrasi uni qo'riqlab kelayotgan edi. Bu qo'riqchilar Ispaniya dushmanlarining birlashgan floti Atlantik okeanda izg'ib yurgani uchun zarur edi.

Transport Kadiks tomon yo'l tutdi, biroq admiral Kadiks suvlarida ingliz eskadrasi soqchilik qilib yurganini bilgach, biror fransuz portiga kirishga qaror qildi.

Biroq ispan kapitanlari bunday qarorga norozilik bildirishdi. Ular birorta ispan portiga kirishni talab etishdi. Kadiksga kirish mumkin bo'lmagani uchun inglizlar tomonidan qamal qilinmagan Vigo ko'rfaziga kirishni ma'qul topdilar.

Admiral Shato-Reno irodasi bo'sh kishi bo'lgani uchun bu talabga ko'ndi va galionlar Vigo ko'rfaziga kirdi.

Ammo baxtga qarshi bu ko'rfaz dengiz tomondan lang ochiq bo'lib, unga kiradigan yo'lni to'sish imkoniyati yo'q edi. Shuning uchun dushman ittifoqining floti yetib kelguncha galionlarni zudlik bilan bo'shatib olish zarur edi; agar to'satdan imtiyoz

buzilgani borasidagi bema'ni ish qo'zg'almaganida hammasi muvaffaqiyatli tugari edi... Siz hikoyamni diqqat bilan tinglayapsizmi? – birdan so'zini bo'lib mendan so'radi kapitan Nemo.

– Juda diqqat bilan tinglayapman, – javob berdim dovdirab uning nima maqsadda menga tarixdan leksiya o'qiyotganining sababini bilolmay.

– Xullas, so'zimni davom ettiraman. Mana bunday bo'ldi. Kadiks savdogarlarining imtiyozlari bor edi. Bu imtiyozga ko'ra o'sha vaqtda Vest-Indiya deb atalgan Amerikadan keltirilgan butun yuklar Kadiksda tushirilishi kerak edi. Shunday qilib, oltin parchalari yuklangan galionlarning Vigo ko'rfaziga tushirilishi ularning imtiyozlariga xilof edi. Savdogarlar Madridga arz qilishdi va bo'shang Filipp V dan Kadiksni ittifoqchilar qamalidan chiqarilguncha kemalarni Vigo ko'rfazida to'xtatib qo'yish haqida farmon olishga erishdilar.

Biroq Madridda bu qarorga kelishguncha 1702-yilning yigirma ikkinchi oktabrida ingliz kemalari Vigo ko'rfaziga kirishdi. Dushman kuchliligiga qaramay, admiral Shato-Reno mardona kurashdi. Biroq oltin transport dushman qo'lga tushishi muqarrarligini ko'rib, u galionlarga o't qo'yib, cho'ktiradi, shunday qilib, ular yuklari bilan birga suvga cho'kishdi...

Kapitan Nemo jim bo'lib qoldi. Ochig'ini aytsam, bu voqea nega men uchun qiziqligini tushunmayotgan edim.

– Keyin-chi? – so'radim men.

– Keyin deysizmi? Keyin shuki, biz hozir Vigo ko'rfazining o'zanida turibmiz; uning sirlariga nazar solmoq o'z qo'limizda.

Kapitan Nemo o'rnidan turdi va menga orqasidan yurishni taklif etdi.

Men o'zimni qo'lga olib, bamaylixotir unga er-gashdim.

Salon qorong'i edi; ochib qo'yilgan to'siqlar or-tidan okeanda yaltirab turgan dengiz suvi ko'zga tashlanar edi. Men oynaga yaqinlashdim.

Projektor atrofidagi suvni yarim milya masofa-da yoritib turgan edi. Uning yog'dusi shu qadar kuchli ediki, har bir qum zarrasigacha aniq ko'rish mumkin edi.

Skafandrlarni kiyib olgan «Nautilus» matros-la-ri o'zandagi boshqa siniq narsalar orasidan yarim chirigan bochkalar, pachoqlangan yashiklarni tor-tib olishayotgan edilar. Bu yashik va bochkalarning ichidan oltin, kumush va qimmatbaho toshlar so-chilar edi. Qum usti boylikka to'ldi.

Yelkasiga yashik yoki bochka o'ngarib olgan matros-lar qimmatbaho yuklarini kemaga keltirib tax-lashar va yana g'amlash uchun o'sha bitmas-tuganmas xazina tomon borardilar.

Endi menga hamma narsa ayon bo'ldi. Bu de-ngiz jang maydoni edi. Bu yerga 1702-yilning 22-oktabrida ispan qiroliga oltin olib borayotgan ga-lionlar cho'kkan edi. Kapitan Nemo bu sochma kon-dan o'ziga kerak vaqtida oltin olar edi. Bu bochka va yashiklar faqat ungagina, yolg'iz uning o'zigagina tegishli edi. U bu millionlarning bevosita va yakka-yu yagona merosxo'ri edi.

– Siz, janob professor, – deya kulib so'radi men-dan kapitan Nemo, – dengiz o'z bag'rida shuncha boylikni yashirib yotishini bilarmidingiz?

– Men dengiz suvida ikki million tonnaga yaqin kumush eritmasi borligini bilardim, xolos.

– Gapingiz to'g'ri, bu kumushni suvdan ajra-tib olish uchun undan keladigan kirimdan chiqimi katta bo'lar edi. Bu yerda esa odamlar yo'qotgan

narsani olish uchun egilishning o'zi kifoya. Xazina sifatida faqat Vigo ko'rfazining o'zigina xizmat qilayotgani yo'q: suvosti xaritamda boyligi bundan kam bo'lmagan yana minglab halokat joylari belgilab qo'yilgan. Boyliklarim milliardlar bilan o'lchanishiga endi tushunib yetgandirsiz?

– Juda yaxshi tushunib turibman, kapitan. Ruxsatingiz bilan faqat shuni aytmoqchimanki, xuddi shu Vigo ko'rfazidan oltin olishda siz bilan raqobat qilishi mumkin bo'lgan bir savdo jamiyatini g'aflatda qoldirgansiz.

– Qaysi savdo jamiyatini?

– Cho'kkan galionlarni izlab topish ishlarini olib borish uchun ispan hukumatidan imtiyoz olgan jamiyatni. Bu jamiyat aksionerlarining tushlariga ham o'sha besh yuz million kiradigan bo'ldi, chunki cho'kkan galionlar xuddi shuncha, ya'ni besh yuz million baholangan edi.

– Besh yuz million deysizmi? – qaytarib so'radi kapitan Nemo. – Ular shu yerda edi, ammo hozir yo'q.

– Tushunarli, – dedim men. – Shuning uchun bu ish qatnashchilarini bundan ogohlantirib qo'yilsa chakki bo'lmas edi. Ammo bu ogohlantirishni ular qanday qabul qilishlarini kim bilsin? Axir o'zingiz bilasiz-ku, korchalonlar yo'qolgan puldan ko'ra aqlga sig'maydigan umidlarning barbod bo'lganiga ko'proq achinadilar. Sirasini aytganda, men bu korchalonlarga achinmayman! Men ko'proq yuz minglab qashshoqlarning og'irini yengil qilishi mumkin bo'lgan shu pullar hech qachon ularga borib tegmasligiga achinaman...

Men gapimni tugatmasdan bu gap kapitan Nemoni ranjitganini payqadim.

– Hech qachon ularga borib tegmasligiga dey-



sizmi? – xitob qildi kapitan. – Demak, sizningcha, modomiki bu pullarni men olgan ekanman, ular yo‘qolgan ekan-da? Nahotki, bu xazinalarni o‘zi uchun yig‘yapti, deb o‘ylasangiz? Meni shular yordamida xayrli ish qilmayapti, deb sizga kim aytdi? Yer yuzida ko‘mak va yordamga muhtoj, o‘ch olishga da‘vat etuvchi sira arimas kulfat, ezilgan xalqlar, baxtsizlik borligini bilaman. Nahotki, siz...

Kapitan Nemo shunday deb birdan jim qoldi. Ehtimol u jahl ustida ortiqcha gapirib qo‘yganiga pushaymon bo‘lgandir.

Ammo men endi busiz ham hammasini tushungan edim. Uning suv ostida mustaqillik qidirganining sabablari qanday bo‘lishidan qat‘i nazar, biroq baribir birinchi navbatda odamligicha qolibdi. Insoniyat chekayotgan azob-uqubatni ko‘rib yurakbag‘ri qon bo‘lganidan saxiy qo‘llari bilan ezilgan xalqlarga yordam bermoqda edi.

«Nautilus» qo‘zg‘olon ko‘tarilgan Krit oroli yonida bo‘lgan kuni kapitan Nemo jo‘natgan millionlar kimga tegishli ekanligini endi tushundim!

## *T o ‘ q q i z i n c h i b o b*

### **YO‘QOLGAN QIT‘A**

Ertasi kuni, 19-fevralda, ertalab kayutamga kanadalik kirib keldi. Uning kelishini kutgan edim.

Ned Lend g‘amgin ko‘rinardi.

– Bu yog‘iga nima deysiz, janob professor? – deya so‘z boshladi u.

– Nima derdim, Ned? – javob berdim men. – Tasodif rejamizni buzdi.

– Ha... – Qayoqdanam bu la‘nati kapitanning xayoliga kemasini xuddi biz qochadigan daqiqada to‘xtatish kelib qoldi!

– Nima ham qila olardik, Ned, u o‘z xazinachisini ko‘rishi kerak ekan-da.

– Xazinachisini? Nedning ko‘zlari katta ochildi.

– To‘g‘rirog‘i, o‘z xazinasining kassasini. Har qanday davlatning juda katta boylik saqlaydigan xazinasidan ham ishonchliroq okean tubini ko‘zda tutyapman.

Shundan so‘ng Ned Lendga o‘tgan kecha bo‘lgan voqealarni so‘zlab berdim va mening bu hikoyam uni kapitan bilan yarashtirib, qochish haqidagi fikridan qaytarishga majbur qiladi, degan umidda edim.

Hikoyamning birdan bir natijasi shu bo‘ldiki, Ned Lend Vigo jangi bo‘lib o‘tgan o‘sha yerlarda sayr qilmaganidan qattiq achindi.

– Biroq, – dedi u, o‘ziga tinchlik bermayotgan fikrga qaytib, – hali hech narsa yo‘qotilgani yo‘q. Kecha kechqurun amalga oshirolmagan ishni bugun qilishimiz mumkin...

– «Nautilus» qayoqqa qarab ketyapti? – uning so‘zini bo‘ldim men.

– Bilmadim.

– Peshinda xaritaga qaraymiz. Kanadalik Konselning yoniga ketdi. Kiyinib, shoshilinch salonga chiqdim.

Kompas menga ortiqcha tinchlantiradigan yangilikni xabar qilmadi: «Nautilus» janubi g‘arb tomon ketayotgan edi. Biz Yevropaga orqamiz bilan turib qolgan edik.

Men natijasi o‘sha zahotiyuq xaritaga tushiriladigan peshindan keyingi kuzatishlarni sabrsizlik bilan kutar edim.

Soat o‘n bir yarimda nasoslar rezervuarlarni bo‘shatdi va «Nautilus» okean sathiga suzib chiqdi. Men yugurib palubaga chiqdim: Ned Lend mendan

oldinroq chiqqan ekan. Hech qanday yer ko'rinmas edi. Faqat ko'z ilg'amas dengiz. Ufqda bir necha yelkanli kema ko'rindi. Osmonni bulut qoplagan edi. Aftidan, bo'ron yaqinlashayotganga o'xshardi.

Bundan ranjigan Ned Lend bulutlar pardasini ko'zi bilan teshib yuborguday bo'lib qarar edi: u tuman ichidan o'zi qidirayotgan quruqlikni ko'rish umidida edi.

Peshinda birpasgina quyosh chiqdi. Bundan foydalangan kapitan yordamchisi kuzatishlarini olib bordi. Dengiz qattiq chayqala boshlagani uchun «Nautilus» o'sha zahotiy oq yana suvga sho'ng'idi.

Bir soatdan keyin kemanding qayerda ketayotgani xaritaga tushirilgach, men uzunlikning 16-gradus 17-minutida va kenglikning 33-gradus 22-minutida eng yaqin yerdan olti yuz kilometr masofada turganimizni ko'rdim. Bunday sharoitda qochish haqida o'ylab ham bo'lmas edi.

Bu xabardan kanadalikning qanchalik diqqati oshganligini tasavvur etish qiyin emas edi.

Menga kelganda, shuni aytish kerakki, bundan unchalik xafa ham bo'lmadim. Aksincha, yelkandan tog' ag'darilganday bo'ldi va men jon-dilimdan kundalik ishlarimga sho'ng'ib ketdim.

Kechqurun vaqt allamahol bo'lganida, soat o'n birlarga yaqin kayutamga kutilmaganda kapitan Nemo kirib qoldi. U mendan juda mehribonlik bilan kecha anchagacha uxlamay yurganimiz charchatib qo'ymadimi, deb so'radi. Men sira charchamaganimni aytdim.

– Unday bo'lsa, janob professor, men sizni ajoyib bir ekspeditsiyada qatnashishga taklif qilaman, – dedi u.

– Marhamat, kapitan.

– Siz shu paytgacha dengiz o'zanini kunduzi,

quyosh nur sochib turganda ko'rdingiz. Uni qorong'i tunda ko'rishni istaysizmi?

– Jon derdim.

– Oldindan aytib qo'yay, bu juda charchatadigan sayr bo'ladi. Ancha yayov yurib, tog'ga ham chiqishga to'g'ri keladi. O'zingizga ma'lumki, bu yerlarning yo'llari qarovsiz yotadi.

– Siz bu gaplaringiz bilan qiziqishimni oshiryapsiz, kapitan. Men hoziroq izingizdan borishga tayyorman.

– Unday bo'lsa, kiyinish xonasiga yuring, skafandrlarni kiyib olish kerak.

Yechinadigan xonada men na kema ekipajining matroslari va na o'rtoqlarim bu ekspeditsiyada bizga hamroh bo'lmasliklarini ko'rdim. Kapitan Nemo hatto Ned Lend bilan Konselni taklif qilishni ham aytmadi.

Biz tezda skafandrlarning ichiga kirib oldik. Juda ko'p havo zaxirasi bo'lgan rezervuarlarni yelkamizga osishdi. Ammo Rumkorf apparatlari va elektr lampalarni o'zimiz bilan olmadik.

Men bu haqda kapitanni ogohlantirdim.

– Ular bizga kerak bo'lmaydi, – deb javob berdi u.

Nazarimda yaxshi eshitolmaganday bo'ldim-u, ammo savolimni qaytarolmadim, chunki kapitan boshini shlemga tiqqan edi. Men ham shlemni kiyib oldim. Qo'linga tunuka qoplangan hassa berishdi va odatdagi bir necha minutlik tayyorgarliklardan so'ng biz Atlantik okean tubida uch yuz metr chuqurlikda ketib borardik.

Vaqt yarim kechaga yaqinlashgan edi. Atrof juda qorong'i, ammo kapitan Nemo menga «Nautilus»dan chamasi ikki milya narida gulxanday lovullab turgan allaqanday qizil cho'g'ni ko'rsatdi. Bu

qanaqa olov bo'ldi, nimadan chiqyapti, suv ostida qanday va nimaga yonib turibdi u – bunisi menga noma'lum edi. Nima bo'lganda ham u bizning yo'limizni yoritib turgan edi.

Kapitan Nemo bilan yonma-yon to'g'ri o'sha olov tomon borardik.

Boshda tekis o'zan, endi sezilarli darajada tiklasha bordi.

Biz hassaga tayangancha katta-katta odimlab borardik, ammo shunga qaramay, umuman juda sekin ilgarilardik, chunki oyoqlarimiz suv ostidagi har xil yig'indilarga yopishib qolar edi.

Bora-borguncha boshim ustida allaqanday taraqlagan ovoz eshitilib turdi. Ba'zan u dupir-dupir etib, balandlashib, baraban ovozini eslatar edi. Ko'p o'tmay men shovqinning sababini tushundim. Okean ustida yomg'ir yog'ayotgan bo'lib, ba'zan to'lqinlarning uchiga shatirlab urilardi.

Boshda men shalabbo bo'lsam kerak, deb qo'rqdim, ammo bu fikr shu qadar bema'ni tuyuldi, o'sha zahoti xaxolab kulib yubordim. Suv ostida turib, yomg'irdan qo'rqishni qarang! Biroq hamma gap shundaki, skafandr ichida suvda yurganingizni his etmaysiz, faqat atrofingizdagi muhit havodan zichroq ekanliginigina payqaysiz, xolos.

Yarim soat yurganimizdan so'ng toshloq yer boshlandi. Meduzalar va ko'zga ko'rinmas chig'anoqsimonlar xira fosforli yog'du taratib turardilar.

Ba'zi toshlar, zoofitlar yana boshqalari suv o'tlari bilan qoplangan edi.

Loy gilami ustida har qadamda tiyg'anib borardim va hassam bo'lmaganda, hech so'zsiz bir necha marta yiqilishim aniq edi. Orqamga qarab, uzoqdan

«Nautilus»ning xiralasha boshlagan proyektorini koʻrdim.

Okean oʻzanidagi uyib tashlangan toshlar duch kelgancha emas, balki allaqanday qatʼiy tartib bilan yotardiki, buning sirini tushunolmadim.

Olisda allaqanday uzun oʻra yoki joʻyak qorongʻida goh koʻrinib, goh koʻzdan gʻoyib boʻlardi. Men oʻzim tushunolmaydigan yana allaqanday gʻaroyibotlarga zehn soldim. Nazarimda qoʻrgʻoshin qoqilgan vazmin choriqlarim suyaklar ustidan gʻichirlatib bosib borayotganday edi.

Biz borayotgan bu bepoyon vodiy qanaqa gʻalati joy boʻldi ekan!

Men buni kapitandan soʻrab olmoqchi edim, ammo u matroslar hamrohligida borayotganida fikrini imo-ishora bilan tushuntiradigan shartli tilni bilmas edim.

Bu orada bizga yoʻlchi yulduz boʻlib xizmat qilayotgan qizgʻish rang yana-da kuchayib, endi butun ufqqa yoyilgan edi. Suv ostida yonayotgan bu olov qiziqishimni gʻoyat oshirib yubordi. U nima – elektr yogʻdumikin? Yoki yerdagi olimlarga ayon boʻlmagan allaqanday kamdan kam uchraydigan voqeami? Balki, bu biror kishi yoqib turgan olovmi-kin, degan xayolga ham bordim. Bu yerda, shu chuqur suv qatlamlarida balki, men kapitan Nemoning oʻziday gʻalati hayot kechiradigan doʻstlari va maslakdoshlari bilan uchrasharman? Nahotki, men bu yerda insonlar adolatsizligidan horib, okean qaʼrida oʻziga mustaqil va osoyishta makon tanlagan butun boshli quvgʻindilar jamoasini uchratsam?

Bu bemaʼni, ahmoqona xayollar menga hech tinchlik bermasdi. Buning ajablanadigan joyi ham yoʻq. Kun sayin yangidan yangi moʻjizalar koʻri-

nishidan tinimsiz hayratlanish holatida dengiz qa'rida kapitan Nemo orzu qiladigan suvosti shaharlaridan biriga duch kelganimda ham sira ajablanmagan bo'lar edim.

Yo'limiz tobora yorishib bormoqda edi. Yorug'lik manbaysi suv tubidan taxminan sakkiz yuz fut balandlikdagi tog' cho'qqisi ortida edi. Atrofimda taralib turgan yog'du o'sha manbaning suvda singan nurlari bo'lib, uning o'zi ilgarigiday ko'zga ko'rinmas edi.

Kapitan Nemo aylanma toshloq yo'ldan sira ikkilanmay borardi. U bu qorong'i yo'lni yaxshi bilar edi. Adashib qolishidan cho'chimay, dadil borishiga qaraganda, u bu yo'ldan tez-tez o'tib turgan bo'lsa ham ajab emas. Men kapitan ortidan komil ishonch bilan borardim. U menga g'ayritabiiy bir mavjudot, suvosti mutafakkiri sifatida gavdalanar va uning qora soyasi ufqning oq fonida ko'rinib turgan baland qomatiga mahliyo bo'lib boqardim.

Soat tungi birga yaqinlashgan edi. Biz tog' etagiga keldik. Ammo unga to'g'ridan chiqishning sira iloji bo'lmagani uchun qalin o'rmon bo'ylab ketgan torgina yo'lakdan tirisha-tirmasha chiqa boshladik.

Ha, u o'rmon, garchand qurigan, bargsiz, sho'r suv ichida ko'mirga aylangan daraxtlardan iborat bo'lsa-da, rosmana o'rmon edi. U yer-bu yerda ulkan qarag'aylar hamon qad ko'tarib turar edi.

U hali qatlamlarga ajralmagan, qurigan ildizlari esa suv yuvib ketgan yerga hamon yopishib tik turgan toshko'mir edi; toshga aylanib qolgan daraxtlarning shoxlari har tomonga tarvaqaylab, yoritilgan suvda qurishib, tim qoraligicha yaqqol ko'zga tashlanar edi.

Suv o'simliklari qoplagan so'qmoq yo'llarda minglab chig'anoqsimonlar g'ujg'on o'ynashardi.

Men qoyalar ustiga chiqardim, bir vaqtlar boʻronlar qulatgan daraxtlar tanalari ustidan hatlardim, yoʻlni toʻsib qoʻygan dengiz chirmovuqlarining torlarini uzib tashlardim, yurib turib shoxdan shoxga uchayotganday suzayotgan baliqlarni choʻchitar edim.

Qiziqib ketib charchoq ham sezmay, yoʻlboshchimdan ortda qolmay borardim, aftidan, u ham hali charchamagan koʻrinardi.

Naqadar unutilmas manzara! Uni soʻz bilan ifodalab boʻlarmidi?! Suvda pastki qismi nim qorongʻi va uchlari qizarib turgan daraxtlar va qoyalarni, singan nurlarning har tomonga taralib, kamalak singari tovlanishini qaysi boʻyoq bilan chizib boʻladi?

Biz choʻqqidan choʻqqiga sakrab oʻtib, hozirgina ortimizda qolgan qoyaning pastga dumalab ketishidan hosil boʻlgan boʻgʻiq ovozni eshitardik.

Oʻng-u soʻldagi qorongʻi yoʻlkalar uzoqlarga choʻzilib ketgan boʻlib, ularni koʻz ilgʻamas edi. Biz xuddi odam qoʻli bilan saranjomlab qoʻyilganday oʻtloqlarni koʻrdik va shunda oʻz-oʻzimdand soʻrardim: toʻsatdan oldimizdan shu suvosti oʻlkasida yashaydigan biror odam chiqib qolsa-ya!

Kapitan Nemo hamon ilgarilab borar edi. Men undan keyinda qolmaslik uchun shaxdam qadamlar bilan orqasidan borardim. Hassa menga juda katta yordam berdi. Xato tashlagan bir qadamingiz ham bu torgina yoʻlkalarda tubsiz halokatli jarliklarga olib tushar edi. Ammo boshim aylanmay ishonch bilan olgʻa yurardim.

Men shunday daralardan sakrar edimki, mabodo yerdagi muzliklarda bunday chuqurlik uchraguday boʻlsa, orqaga qaytgan boʻlardim. Oyogʻim ostiga qaramay va koʻz oʻngimda yastanib yotgan antiqa



go'zalliklardan tinmay hayratlanib, jarliklarga tashlab qo'yilgan daraxtlarning omonat yog'ochlaridan sira cho'chimay o'tib olar edim. Poydevorlarida juda g'alati og'ib qolgan ulug'vor qoyalar mutanosiblikning har qanday qonunlarini rad etganday turar edilar. Ularning yonida, so'qmoq ustida yo'nib qo'ygan kabi tosh jinlari «Yer»dagi har qanday tortish kuchi qonunlariga zid burchak hosil etib osilib turar edi.

Mening o'zim ham suvdagi muhitning ta'sir etayotganini sezib turar edim: og'ir kiyimlarim, boshimdagi mis shlem va chorig'im tagcharmi o'rniga qo'rg'oshin qoqilganiga qaramay, deyarli tikka devorlarga tog' echkisiday yengilgina chiqardim.

Hikoyamning shu o'rinlari haqiqatga to'g'ri kelmayotganday tuyulayotganini o'zim ham sezib turibman. Men bir qarashda ehtimoldan uzoq, ma'nisiz bo'lib tuyuladigan, biroq, ayni choqda haqiqatan ham mavjud voqealar tafsilotini yozishim kerak. Men talmovsirayotganim ham, xayol surayotganim ham yo'q. Barcha aytganlarimni o'zim ko'rdim va his etdim!

Sayohatimiz boshlanganidan ikki soat keyin o'rmondan yuqoriga ko'tarildik va bizdan tog' cho'qqisigacha endi yuz futlar chamasi qolgan edi.

Bu yerda onda-sonda bir-biriga chirmashib, allaqanday g'alati naqsh hosil etgan butalargina ko'zga tashlanar edi. Oyoqlarimiz ostidan gala-gala baliqlar baland o'tlar orasidan cho'chib chiqadigan qushlar singari har tomonga qochishardi.

Yaxlit qoya o'tib bo'lmaydigan darajada katta yoriqlar, chuqur g'orlar, tubi yo'q jarliklar bilan tilingan bo'lib, pastda nazarimda har xil dahshatli narsalar ko'rina boshladi. Qisqichbaqa panjasimi, bir ulkan changal to'satdan yo'limizni to'sib, biz

yaqinlashgach, qattiq qarsillaganda yuragimga zarb bilan qon quyilib keldi. Qorong'ida minglab yorqin nuqtalar yaltilladi. Bu uyasida yashirib yotgan dahshatli qisqichbaqalar, qoziq tishga o'xshash panjalarini harakatlantirayotgan ulkan omarlar<sup>1</sup>, changallari ilonlardan iborat tirik to'siq singari buralayotgan qo'rqinchli sakkizoyoqlarning ko'zlari edi.

Bu - hali menga ma'lum bo'lmagan bahaybat maxluqlar olami edi. Qoyalar ularning ikkinchi kosalari bo'lib xizmat etayotgan bu bo'g'inoyoqlilar qaysi turlarga taalluqli ekan? Ularning mavjudligini tabiat qay yo'sinda sir saqlay oldi? Ular ana shu okean qa'rida necha asrdan buyon yashayapti?

Afsuski, ularni durustroq ko'rib olish uchun to'xtay olmas edim. Bu dahshatli mavjudotlarga allaqachon ko'nikib qolgan kapitan Nemo ularga e'tibor ham bermay o'tib ketayotgan edi.

Biz tog' ustidagi birinchi maydonchaga chiqqanimizda, u yerda meni yangi tasodif kutib turgan ekan. Bu baland uyilib yotgan toshlar bo'lib, inson qo'li bilan yaratilgan saroylar, ibodatxonalar, uylarning vayronalari ekanligi ko'rinib turar edi. Endilikda bularning barini chaman bo'lib gullayotgan zoofitlar qoplab, yashil suv o'tlarining chirmovuqlari o'ragan edi.

Biroq bu qanday quruqlik bo'ldi va qaysi halokat uni dengiz qa'riga cho'ktirdi? Men qayerda edim? Kapitan Nemoning fantaziyasi meni qayerlarga boshlab keldi?

Men undan shularni so'ramoqchi edim. Chaqirish imkoni bo'lmagani uchun uning yengidan tortdim. Biroq shlem ostida boshini chayqab: «Yur! Nariroqqa yur, nariroqqa!» deganday qo'li bilan tog' cho'qqisiga ishora qildi.

---

<sup>1</sup> *Omar* – juda katta dengiz qisqichbaqasi.

So'nggi kuchimni to'plab, uning ortidan bordim va yaxlit qoyadan yigirma metrcha yugurib, bir zumda tog'ning eng cho'qqisiga chiqdim.

O'zimiz chiqqan qiyalikka qayrilib qaradim. Biz chiqqan tomonda tog'ning balandligi vodiyaning cho'qqigacha yetti yuz futdan oshmas edi. Biroq ikkinchi tarafi kamida bir yarim ming fut pastga qiyalab ketgan edi.

Hayratlangan ko'zlarim oldida ulkan, juda yorqin pasttekislik yastanib yotar edi. Bizdan ellik fut chamasini pastroqda katta krater bor edi. Lava oqimlari olov sharshara singari qiyalik bo'ylab pastga oqib tushardi. Bu vulqon ulkan mash'ala singari uning etagida yastanib yotgan pasttekislikning ufqigacha yoritib turar edi.

Vulqondan alanga emas, lava otilib chiqardi. Yer qatlamlarida qizib, oqish rangga aylangan lava oqimi suvga tushib, o'zi sovuguncha suvni bug'ga aylantirib turardi. Haroratning har xilligi tufayli hosil bo'lgan suvning kuchli oqimi bug'ni bir chekkaga surib borar, olov lava oqimi esa tog' etaklarigacha dumalab tushardi.

Ko'z o'ngimda tomlari va devorlari qulagan vayrona uyumlar, ibodatxonaning to'ntarilgan peshtoqlari, yerda yotgan ustunlari bilan o'lik shahar namoyon bo'ldi. Bu imoratlar toskan uslubiga o'xshar edi.

Olisda, tekislikda, ulkan vodoprovod vayronalari osilib yotardi; tog' etaklariga yaqinroq yerda nimasi bilandir Afina Parfenonini<sup>1</sup> eslatadigan ulug'vor Akropolning qoldiqlari ko'zga tashlanardi; u yerda, qirg'oq bo'yida saqlanib qolgan ba'zi joylar, savdo kemalari va harbiy triremalar uchun boshpana vaziri-

---

<sup>1</sup> *Parfenon* – Afina-Pallada xudosining ibodatxonasi, qadimiy arxitekturasi uchun yaxshi namunasi.

fasini o'taydigan antik port burchaklari; nariroqda qator buzilgan devorlar – ilgarigi ko'chalarning izlari bor edi.

Bu kapitan Nemo ko'zim oldida jonlantirgan yangi Pompeya edi.

Men qayerdaman? Qanday bo'lmasin buni bilmocqi edim. Buning uchun boshimni asirlikda tutib turgan mis shlemni olib tashlashga ham tayyor edim.

Ammo kapitan Nemoning o'zi menga yaqinlashdi. Engashib bir parcha bo'r oldi-yu, qora bazalt qoya oldiga kelib, unga birgina so'z yozdi.

### «A t l a n t i d a»

Miyamda go'yo yashin chaqnadi. Atlantida! Platon<sup>1</sup> Atlantidasi! Origen, Porfiriyy, d'Anvil, Maltbren, Gumboldtlar esa uning mavjudligini inkor etib, bu yo'qolgan qit'a chiroyli qilib to'qilgan afsonadan boshqa narsa emas deb hisoblaganlar. Mavjudligini Pliniy, Amian-Marsellin, Tertullian, Engel, Sherer, Turnefor, Byuffon, d'Avezaklar tan olgan Atlantida. O'zida halokat izlarini saqlab qolgan o'sha Atlantida ko'z oldimda yastanib yotibdi!

Shunday qilib, uning Yevropada ham, Osiyoda ham, Liviyada<sup>2</sup> ham emas, Gerkules ustunlarining<sup>3</sup> naryog'idaligini va u yerda qadimiy greklar dastlabki janglarini olib borgan atlantlar qabilasi yashashidan bo'lak narsani hech kim bilmaydigan o'sha suvga cho'kkan mamlakat shu yerda ekan.

Platon yilnomalarida o'sha qahramonona davrning ulug'vor ishlari yozib qoldirilgan. Timey bilan

<sup>1</sup> Platon (eramizgacha 427–348-yillar) – yunon faylasufi.

<sup>2</sup> Liviya – Afrikaning qadimiy nomi.

<sup>3</sup> Gerkules ustunlari – Gibraltar qoyalarining qadimgi nomi.

Kritias o'rtasidagi dialogda Atlantida haqida mana bunday deyiladi:

Kunlardan bir kuni Solon o'sha vaqtdayoq sakkiz yuz yoshga kirgan, bu haqda uning muqaddas ibodatxonasi devorida o'yib yozilgan sana guvohlik beradigan Sais shahrining bir necha donishmand qariyalari bilan suhbatlashib qoladi. O'sha qariyalardan biri unga Saisdan ham qadimiyroq boshqa bir shaharning tarixini hikoya qilib berdi. To'qqiz yuz asr davomida mavjud bo'lgan bu shahar atlantlar tomonidan zabt etilgan va qisman vayron qilingan.

Uning hikoya qilishicha, atlantlar hukmronligi hatto Misrgacha borib yetgan. Ular, shuningdek Elladani<sup>1</sup> ham bo'ysundirmoqchi bo'lganlar-u, ammo ellinlarning qahramonona qarshiligiga duch kelib chekinganlar.

Halokat – suv toshqini, zilzila sodir bo'ladi...

Atlantida bir kecha-kunduzda yer yuzidan yo'q bo'lib ketadi. Faqat uning eng baland cho'qqilari – Madeyra, Azor orollari, Kanar orollari, Yashil Burun oroligina okean sathida saqlanib qoldi...

Kapitan Nemo yozib ko'rsatgan so'z xayolimda ana shunday tarixiy xotiralarni jonlantirdi.

Xullas, taqdir bugun meni ana shu yo'qolib ketgan qit'a tog'laridan birining cho'qqisiga olib kelgan, ko'p ming yillar burun mavjud bo'lgan imoratlarning vayronalarini qo'lim bilan ushlagga imkon bergan edi! Ilk bor yerda yashagan kishilar yurgan tuproqqa oyoq bosgandim! Juda uzoq o'tmishda yashagan, ming yillardan buyon tosh uyquda yotgan shu daraxtlar soyasida hayvon skeletlari qo'rg'oshin qoqilgan choriqlarim ostida qisirlar edi.

Oh, qani edi vaqt bermalol bo'lsa! Tikka tog'dan pastga tushib, qachonlardir balki Afrika bilan Ame-

---

<sup>1</sup> Ellada – Qadimiy Gretsiya.

rikani birlashtirib turgan bu bepoyon qit'aning u boshidan bu boshigacha kezib chiqardim; men dunyo toshqinidan ancha ilgari mavjud bo'lgan qit'aning barcha shaharlarida bo'lardim. Bu shaharlarni yuz yillab yashagan shu qadar zabardast pahlavonlar qurganki, ular bunyod etgan imoratlar ming yillar davomida suvning vayron etuvchi hamlasiga ham bardosh berib turar edi!..

Balki vaqti kelib vulqon yoki yer qobig'ining siljishi natijasida dengiz o'z qa'riga olgan bu vayronalar yana suv sathiga chiqib qolishi ham mumkin. Axir biz okeanning bu qismida hali so'nimgan bir necha vulqonlar borligini bilamiz-ku. Ana shu chuqurliklari besaranjom suv sathida suzib yurganda kemalari qattiq chayqalganini sezgan dengizchilar oz bo'lmagan. Ulardan ba'zilari quturgan sti-xiya kurashining bo'g'iq ovozi eshitgan bo'lsalar, boshqalari suv sathida qalqib yurgan vulqon kulini ko'rganlar. Sayyoraning bu qismi ekvatorgacha boshdan oyoq tinimsiz yonib turadigan vulqonlar maskanidir. Kim biladi, balki chindan ham uzoq kelajakda, lava qatlamlarining tez-tez otilib turishi natijasida to'planib, olovli tog' cho'qqilari yana okean sathiga ko'tarilishi mumkindir?

Xayol og'ushiga g'arq bo'lib, ayni vaqtda bu ulug'vor manzarani boricha xotiramda saqlab qolishga intilayotgan paytimda, kapitan Nemo suv o'tlari qoplagan ustunga suyanib, harakatsiz va gung odamday turar edi. U yo'qolib ketgan avlodlarni o'ylayotganmikin? Kelajak avlodlarning taqdiri to'g'risida o'ziga savol berayotganmikin? Yoki zamonaviylikka nafrat bilan qarovchi shu g'alati kishi tasavvurida qadimgilar hayoti bilan yashab ko'rish uchun bu yerga kelganmikin? Uning nima

haqda o'ylayotganini bilish uchun istagan narsani berishga tayyor edim!

Bir soat mobaynida shu yerning o'zida lavaning olov oqimlari quyoshday ravshan yoritib turgan bepoyon tekislikni tomosha qildik.

Ichki qatlamlarida lava qaynashi natijasida ba'zan tog' cho'qqilari qaldirab ketardi. Bo'g'iq shovqin suv orqali aniq o'tib, dahshatli va dabdabali eshitilar edi.

Shu vaqt oy nurlari suv qatlamlaridan o'tib, cho'kib qolgan qit'ani bir necha minut yoritib turdi. Odamni lol qoldiradigan bu manzarani so'z bilan ifodalab bo'lmaydi.

Kapitan Nemo to'satdan ustun yonidan nari ketdi, bepoyon yalanglikka so'nggi bor nazar tashladi va shundan keyin menga orqasidan yurishni ishora qildi.

Biz tezda tog'dan tushdik. Ko'mirga aylangan o'rmondan chiqishimiz bilan uzoqdan «Nautilus»-ning yulduzday charaqlab turgan proyektorini ko'rdim.

Kapitan to'g'ri o'shanga qarab yurdi. Biz bortga qaytganimizda, tongning dastlabki nurlari okean ustidagi ufqni yoritmoqda edi.

## **O' n i n c h i b o b**

### **SUVOSTI KONLARI**

Ertasi kuni, 20-fevralda, men juda kech uyg'ondim. Tungi sayrdan shu qadar charchagan ekanmanki, soat o'n birgacha uxlabman.

Tezgina kiyinib, salonga chiqdim: «Nautilus»-ning qaysi tomonga ketayotganini bilishga oshiqar edim.

Asboblarni u soatiga yigirma milya tezlikda va

yuz metr chuqurlikda ilgarigiday janubga ketayotganini ko'rsatib turardi.

Salonga Konsel kirdi. Men unga tungi sayohatimizni so'zlab berdim. Shu payt derazadagi to'siqlar surildi va uning o'zi suvga cho'kkan qit'aning bir qismini ko'ra oldi.

«Nautilus» Atlantidaning «yeri»dan bor-yo'g'i o'n metrlar berida suzib borardi. U shamol uchi-rayotgan havo shari singari tez ilgarilardi, sirasini aytganda, biz olayotgan taassurotlarni tezyurar poyezd vagoni oynasidan tez-tez almashib turadigan manzarani tomosha qilib ketayotgan yo'lovchi holati bilan qiyos qilsa to'g'riroq bo'lar edi.

Ko'z oldimizdan o'simlik olamidan mineral olamiga o'tgan afsonaviy shakldagi qoyalar, o'rmonlar, butalar, assidiy gilami bilan qoplangan binolarning vayronalari va tosh uyumlari, anemonlar, uzun suv o'simliklari, nihoyat, yerosti olovi faoliyatining tilsiz guvohi bo'lgan lavalarning parchalari lipillab o'tib turardi.

«Nautilus» projektorining nurlari zulmatni yorib, bu ajoyib manzarani ko'z oldimizda namoyon etayotganda endilikda mavjudligi men uchun so'zsiz bo'lib qolgan atlantlar va Atlantida haqida Konselga hikoya qilib borardim.

Biroq nimadir Konselning diqqatini jalb etib, u hikoyamni parishonxotirlik bilan eshitar edi. Zum o'tmay tarixning bu ulug'vor jumbog'iga uning shu qadar befarq qarayotganining sababini tushundim. Darhaqiqat, yonimizdan baliqlar o'tayotgan edi. Baliqlarni ko'rganda esa Konsel tasnif xayoliga botadi va shu payt olamni suv bossa ham to'pig'iga chiqmaydi. Atlantida haqidagi hikoyamni to'xtatib, unga qo'shib baliqlar bilan mashg'ul bo'lishdan bo'lak choram qolmadi.



Sirasini aytganda, Atlantik okeanning baliqlari boshqa okeanlarda ko'rganlarimizdan unchalik farq qilmas edi. Bular – uzunligi besh metr va suvdan sakrab chiqa oladigan darajada qudratli ulkan skatlar; akulalarning turli xillari, shu jumladan yashil va ko'k tusda tovlanadigan, uzunligi o'n besh futli, tishlari o'tkir uchburchak shaklida bo'lib, rangi dengiz suviga o'xshagani uchun to'lqinlarda deyarli ko'rinmaydigan akulalar edi. Bu yerda yana spar baliqlari naslidan bo'lgan to'q jigarrang sargalar, O'rtayer dengizida ko'rganimizga o'xshagan osyotralar, uzun naysimon tumshug'i och kulrang va ko'ndalangiga to'q qo'ng'ir yo'l-yo'l qashqali nayza baliqlar ham bor edi. Bu baliqlar suvda ilon singari to'lg'anib suzadi.

Qiltanoqli baliqlar orasida Konsel dengiz ajdaholari yoki dengiz chayonlari deb ataladigan va zaharli hisoblangan baliqlarni ham ro'yxatga olib qo'ydi. Chindan ham ajdahoning yelkasi va boshidagi nayzalarning ikkitadan jo'yagi bor edi; nayzalar o'lja tanasiga sanchilgach, jarohatlangan joyga o'sha jo'yaklar orqali zaharli shilimshiq modda quyiladi. Ajdaholar kulrang-qizg'ish rangda bo'lib, yelkalari jigarrang, qorni esa oqish. Ajdahoning butun badani qoramtir g'alati dog'lar bilan qoplangan.

Konsel yana ko'kimtir tovlanadigan ajoyib sarg'ish oltin makrellarni, go'zal skumbriyalarni, doiraga o'xshagan va hayratomiz darajada chiroyli rangdagi, yuqori tomoni ko'k, yonlari binafsharang, qorni pushtirang, suzgichlari esa qip-qizil oy-baliqlarni ko'rdi.

Biroq dengiz hayvonot olamining ana shu xilmaxil namunalarini ko'zdan kechirish, ayni vaqtda Atlantida tekisliklarini tomosha qilishimga xalaqit bermas edi. Ba'zan injiq dengiz tubining baland-

pastliklari «Nautilus»ni sekinlashga majbur etar edi. O'shanda u suvosti qayrilishlarida chinakam chaqqon baliqday ustalik bilan suzib o'tardi.

Aylanma tepaliklardan o'tish qiyin bo'lganda, kema aerostat singari suvning yuqori qatlamlariga chiqib, to'siqdan oshib o'tib, yana bir necha metr pastlikka tushar va ilgarigiday tez suzaverar edi.

Bu zayldagi suzishimiz ajoyib sayr bo'lib, kishiga havo sharida yurganday tuyulardi. Ammo undan farqi shu ediki, bizning «shar» rul boshqaruvchining har bir harakatiga itoat qilar edi.

Tushdan keyin soat to'rtlarda shox-shabbalar aralash balchiq bilan qoplangan dengiz tubining ko'rinishi o'zgara boshladi. Endi yer asosan toshloq, konglomeratlar<sup>1</sup>, vulqon toshlari, qotib qolgan lava quyilmalari va oltingugurtli obsidianlar bilan qoplangan edi. Bu yerda tekislik tugab, tog'lik yer boshlansa kerak, deb o'yladim. Darhaqiqat, ko'p o'tmay men ufq janub tomondan baland tog' bilan to'silganini ko'rdim. Undan o'tib bo'lmasa kerak, chunki tog' cho'qqilari okean sathigacha ko'tarilib, suvga uchi chiqib turgan bo'lishi mumkin. Bu yo qit'a, yo Yashil Burun yoki Kanar orollaridan biri bo'lsa ham ajab emas.

Keyingi kunlarda astronomik kuzatuvlar karta-ga tushirilmayotgani uchun, – balki atayin shunday qilinayotgandir, – men qayerda suzib bora-yotganimizni ko'z oldimga keltirolmas edim. Bu granit devor, menimcha, atlantlar qit'asining tugaganini ko'rsatsa kerak, ammo biz uning bir qisminigina ko'rdik.

Men kuzatuvlarimni tunda ham to'xtatmadim.

---

<sup>1</sup> *Konglomerat* – har xil mineral bo'laklari va qumning loy, ohak vositasi bilan bir-biriga mahkam yopishuvidan hosil bo'lgan tog' jinsi.

Konsel uxlash uchun kayutasiga ketdi, men esa salonda yolg'iz qoldim. «Nautilus» suzishni sekinlatib, g'ira-shira ko'rinayotgan massivlar ustidan tegay-tegay deb, to'xtab qolguday bo'lib, goh okean sathiga ko'tarilib borar edi.

Shunday daqiqalarda yupqa suv qatlami orqali men bir necha yorqin yulduzlar turkumini, jumladan Orionning ketidan miltillab turgan besh-olti yulduzni ko'rdim.

To'satdan to'siqlar berkilmaganda deraza oldida yana soatlab turib dengiz va osmon ajoyibotlarini jon deb tomosha qilgan bo'lardim.

Shu daqiqada «Nautilus» tik yuqoriga ko'tarilgan devor oldiga kelib qolgan edi. U bu to'siqdan qanday qilib o'tishiga aqlim yetmadi. Kayutamga qaytishga to'g'ri keldi. «Nautilus» qimirlamay turar edi. Men vaqtiliq turishga ahd qilib, uxlab qoldim.

Biroq ertasi kuni men soat sakkizga yaqin uyg'ondim va shu zahotiyiq salonga o'tdim. Manometr «Nautilus» okean sathida suzayotganini ko'rsatib turar edi. Sirasini aytganda, buni men palubada u yoqdan bu yoqqa yura boshlagan odamlarning oyoq tovushidan ham bilib turgan edim. Ammo okean sathida suzganda bo'ladigan chayqalish sira sezilmas edi.

Lyuk tomonga o'tdim. U ochiq edi. Biroq men kutgan yorug'lik o'rniga atrofni o'ragan zim-ziyo qorong'ilikka duch keldim.

Biz qayerdamiz? Nahotki, men bir kecha-yu kunduz uxlab qolib, hozir tun bo'lsa?

Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas, osmonda bitta ham yulduz miltillamayapti va umuman tun hech qachon bunaqangi qorong'i bo'lmaydi.

Men gap nimadaligini bilmay turganimda to'satdan qorong'ilikda kimdir menga murojaat qildi:

- Sizmisiz, janob professor?
- Ha, kapitan Nemo! Biz qayerdamiz?
- Yer ostida, janob professor.
- Yer ostida?! – qichqirib yubordim men. – «Nautilus» suzyaptimi?
- U hamisha suzaveradi.
- Ammo... hech narsani tushunmayapman...
- Biroz sabr qiling. Hozir proyektor yonadi va hammasini tushunib olasiz.

Men proyektor doʻngligiga oʻtirib sabr qilib kuta boshladim. Shu qadar zim-ziyo qorongʻi ediki, hatto kapitan Nemoni ham koʻrolmadim.

Yuqoriga qarab xuddi boshim ustida dumaloq tuynukdan tushayotgan allaqanday gʻalati shuʻlani koʻrdim. Xuddi shu daqiqada yalt etib proyektor yondi va uning koʻzni qamashtiruvchi nuri boyagi gʻalati shuʻlani yoʻq qilib yubordi.

Koʻzlarim yorugʻlikka koʻnikkach, atrofni kuzata boshladim.

«Nautilus» allaqanday port qirgʻogʻiga oʻxshash sohil yaqinida qimir etmay turar edi. Suvosti kemasi hamma tomoni tosh devor bilan oʻralgan koʻl sathida edi. Koʻl diametri taxminan ikki milyacha kelardi; binobarin, uning aylanasi olti milyaga borib qolardi. Koʻlda suv sathi okeandagicha edi. Shunga koʻra bu koʻl albatta okean bilan tutashgan boʻlishi kerak. Ha, aytganday, buni manometr koʻrsatkichi ham tasdiqlab turar edi.

Suv ustida osilib turgan baland devorlar besh yuz yoki olti yuz metr balandlikda ulkan gumbaz shaklida tutashgan edi. Ana shu gumbazning eng yuqorisida boyagi xira shuʻla sohib turgan tuynuk boʻlib, u yerdan quyosh nurlarining aksi tushayotgan boʻlsa kerak.

Bu ulkan gʻorning ichini sinchiklab koʻzdan ke-

chirishdan oldin, hatto o'zimga bu g'or tabiiymikin yoki inson qo'li yaratgan sun'iyimikin degan savol bermay turib, men kapitan Nemodan so'radim:

– Biz qayerda turibmiz?

– Biror tektonik<sup>1</sup> silkinish natijasida dengiz suvi kirib, o'chib qolgan vulqonning qoq o'rtasidamiz, – deb javob berdi u. – Siz uxlab yotganingizda, janob professor, «Nautilus» okean sathidan o'n metr chuqurlikda o'tadigan tabiiy kanal orqali dengizdan ajralib turgan ana shu joyga kirib oldi. Bu – «Nautilus»ni yomon ko'zlardan asraydigan va har qanday kuchli shamollardan himoya qiladigan ishonchli va mustahkam gavanlardan biridir. Ayting-chi, sizning qit'a va orollaringizda kemaga quturgan to'fondan ana shu g'or singari ishonchli boshpana bo'la oladigan loaqal birorta port bormi?!

– Siz haqsiz, – dedim men, – bu yerda xavf-xatardan tamoman xolisiz, kapitan Nemo. Bu o'chib qolgan vulqon qa'rida sizga nima xavf sola olardi? Ammo ayting-chi, g'or gumbazida nazarimda tuyenuk ko'rindimi yoki u chindan ham bormi?

– Bor, bu qachonlardir oltingugurt bug'i va olov purkab turgan sobiq vulqonning og'zi. Endilikda u mening gavanimni biz nafas olayotgan toza, hayotbaxsh havo bilan ta'minlab turish uchun xizmat qilmoqda.

– Bu qanaqa vulqon?

– Bu vulqon okeanning shu qismidagi juda ko'p orolchalardan birida ko'tarilgan. O'tkinchi kemalar bunga dengizdan chiqib turgan qoya deb qarashadi, biz uchun esa bu dunyodagi eng xavfsiz port. Uni tasodifan topdim va bu tasodif menga ozmuncha xizmat qilayotgani yo'q.

---

<sup>1</sup> *Tektonika* – yer qobig'ining tuzilishi va unda yuz beradigan o'zgarishlar.

– Bu yerga vulqonning og‘zidan kirib bo‘lmaydimi?

– Turgan yerimizdan vulqon og‘ziga ko‘tarilish imkoniyati bo‘lmaganiday, undan kirish ham sira mumkin emas. Taxminan yuz futlarcha devordan ko‘tarilish mumkin, ammo undan u yog‘iga u o‘tmas burchak hosil etish uchun egila borib, gumbaz bo‘lib tutashadi, binobarin, yuqoriga chiqishning sira iloji yo‘q.

– Tabiat hamma yerda va hamisha sizga yordamga kelayotganini ko‘rib turibman, kapitan. Bu yerosti ko‘lida xavf-xatardan tamoman xolisiz va hech qanaqa chaqirilmagan mehmon sizni bezovta qilolmaydi. Biroq sizga pana joyning nima keragi bor? Axir «Nautilus» gavanga muhtoj emas-ku!

– Gapingiz to‘g‘ri, janob professor, ammo u harakat qilish uchun elektrga, elektr quvvati hosil etish uchun batareyalarga, bu batareyalarni ta‘minlash uchun natriyga, natriy olish uchun toshko‘mirga va toshko‘mir qazish uchun uning konlariga muhtoj. Dengiz juda qadim geologik davrlarda o‘sgan butun boshli o‘rmonlarni o‘z bag‘riga olgan; qotib toshko‘mirga aylangan bu o‘rmonlar men uchun bitmas-tuganmas yoqilg‘i omborlaridir.

– Demak matroslaringiz bu yerda konchilarga aylanar ekan-da?

– Xuddi shunday. Bu konlar ham Nyu-Kestlning ko‘mir shaxtalari singari suv ostida. Skafandr kiyib, qo‘llariga cho‘kich va bel ushlagan matroslarim bu yerdan ko‘mir qazib chiqarishadi. Bu bilan yerdagi konlardan ko‘mir qidirish tashvishidan meni xalos etadilar. Natriy olish uchun toshko‘mirni yoqqanimda tuynukdan chiqqan tutun bu tog‘ni yonar vulqonday qilib ko‘rsatadi.

– Matroslaringiz qanday qilib ko‘mir qazib olishlarini ko‘ra olamanmi?

– Yo‘q, bu galcha ko‘rolmaysiz. Men jahon bo‘ylab qiladigan suvosti sayohatni davom ettirishga shoshilyapman. Bu yerda saqlanayotgan tayyor natriy zaxiralarini olaman, xolos. Uni kemaga ortib bo‘lgach, – bunga uzog‘i bilan bir kun kerak, – biz yana yo‘lga tushamiz. Shuning uchun dengizdan ajralib turgan bu g‘or bilan yaxshilab tanishmoqchi bo‘lsangiz, ixtiyorimizdagi shu bir kundan foydalanib qoling, janob professor.

Kapitanga minnatdorchilik bildirdim-da, hali kayutalaridan chiqmagan o‘rtoqlarim oldiga ketdim.

Men ularga qayerda turganimizni bildirmay, orqamdan yurishlarini aytdim.

Ular palubaga chiqishdi. Konsel odaticha hech narsaga taajjublanmay suv ostida uxlab, yer ostida uyg‘onganini tabiiy bir hol deb bildi. Ned Lendga kelganda shuni aytish kerakki, uni bir narsa: bu g‘ordan ochiq havoga chiqadigan biror yo‘l yo‘qmikan, degan savol qiziqtirib qoldi.

Nonushtadan so‘ng ertalabki soat o‘nlarga yaqin biz sohilga tushdik.

– Mana, biz yana yerdamiz! – dedi Konsel.

– Axir bu qanaqasiga yer bo‘lsin! – e‘tiroz bildirdi kanadalik. – buning ustiga, biz yerda emas, yer ostidamiz-ku.

Ko‘l bilan g‘or devorining etagi orasi qumloq bo‘lib, eng keng joyining eni besh yuz futdan oshmas edi. Ana shu qumloq sohil bo‘ylab butun ko‘lni osonlik bilan aylanib chiqsa bo‘lar edi.

Devor taglarida vulqondan otilib chiqqan parchalar, qoya bo‘laklari va ulkan jilvir toshlar tartibsiz uyulib yotar edi.

Yerosti olovida erib, so‘ng qotib qolgan bu tosh-

larning yuzasi projektor nurida ming xil rangda jilolar edi. Oyog'imiz ostidan havoga ko'tarilayotgan shaffof minerallar changi son-sanoqsiz yaltiroq qurtlar singari atrofga sochilardi.

Ko'ldan uzoqlashgan sari yer narvon pillapoyalariga o'xshab ko'tarilib borar, biroq juda ehtiyot bo'lib yurishga to'g'ri kelardi. Chunki toshlar yopishib turmaganidan oyoq ostida liqillab yotar edi.

Bu ulkan g'orning bir vaqtlar vulqon ekanligi har qadamda tasdiqlanib borar edi.

Men bunga hamrohlarim diqqatini ham jalb etdim.

– Bu g'orning ichi qaynab turgan lava bilan to'la suyuq olov karnay ichiga eritilgan temir solib qo'yilganday tog' tuynugigacha ko'tarilgan paytini tasavvur qila olasizmi?

– Juda yaxshi tasavvur qilaman, – deb javob berdi Konsel. – Ammo xo'jam aytolmaydilar, nega erish jarayoni to'xtab qolib, endilikda qizib yotgan vulqon ichiga suv tushib olgan?

– Bu o'zgarish, Konsel, – dedim men, – zilzila tufayli ro'y berib, buning natijasida tog' qiyaligi yorilgan bo'lishi ehtimoldan xoli emas. «Nautilus» ham bu g'orga ana shu yoriqdan o'tgan. Undan Atlantik okean suvi vulqonning markaziy o'chog'iga otilib kirgan. Bu yerda o't bilan suv o'rtasida dahshatli olishuv bo'lib, suvning g'alabasi bilan tugagan. O'shandan buyon juda ko'p asrlar o'tgan bo'lishi kerak va suv ko'mib tashlagan vulqon sokin yerosti ko'liga aylangan.

– Juda soz, – dedi Ned Lend, – gaplaringizga tamomila qo'shilaman, ammo ming afsuski, siz aytgan o'sha tuynuk, janob professor, dengiz sathining ustida emas, balki ostida ekan. Shuning aksi bo'lganida, bizga qo'l kelar edi.



– Siz shuni unutmangki, Ned, – deya e'tiroz bildirdi Konsel, – agar bu kanal suv ostida bo'lmaganida, «Nautilus» kira olmas va o'shanda uning bizga hech qanday nafi tegmas edi.

– Unda vulqon ham yonib turgan holatida qolishini gapirib o'tirmasa ham bo'ladi, – deb qo'shib qo'ydim men. – Afsuslanishingiz behuda, Ned Lend.

Biz hamon ko'tarilib borar edik. So'qmoq tobora tiklashib va torayib borardi. Katta yo'limizdan yoriqlar chiqib qolar va ulardan hatlab o'tishga to'g'ri kelar edi.

Ba'zan so'qmoq ustiga qulagan qoya yo'limizni to'sib qo'yib, aylanma yo'l izlashga, yotib olib emaklashga, oyoq-qo'llarimiz bilan baravar yer timdalashga majbur qilar edi. Biroq Konselning chaqqonligi va Ned Lendning kuch-quvvati tufayli biz bu to'siqlarning barchasini bartaraf etar edik.

Taxminan o'ttiz metr balandlikka ko'tarilgach, yer xususiyati o'zgardi, ammo baribir yurish o'ng'aylashgani yo'q. Bu yerda traxitlar va vulqon konglomeratlari qora bazalt bilan almashdi, ulardan ba'zilarining usti silliq, ba'zilari faqat lava puffakchalari qotib qolganidan biroz g'adir-budur, ayrimlari esa tik ko'tarilib, to'g'ri prizma hosil qilgan bo'lib, bu yerdagi pastak gumbazning tabiiy ustunlari vazifasini o'tab turardi. Bu umuman tabiat yaratgan arxitektura san'atining ajoyib namunasi edi.

Bazalt qoyalari orasida lava oqimlari ilon iziday qotib, ularga slanes jinslari va kristallanmagan oltingugurtning enli oqmalari tasmaday yopishgan edi. Krater tuynugidan tushib turgan kunning tarqoq va xira yog'dusi o'chgan vulqon qa'riga abadiy ko'milgan ana shu jinslarni g'ira-shira yoritar edi.

Taxminan yetmish besh metr balandlikda bizning yuqoriga ko'tarilishimizga o'tib bo'lmas bir to'siq xalaqit berib qoldi; bu yerda devor g'or ichkarisi tomon juda keskin qiyalashib ketgan edi; biz yuqoriga ko'tarilishdan voz kechib, pastakkina ra-voq bo'ylab ketdik.

Bu yerda o'simlik olami o'lik tabiat oldida tiz cho'kib, taslim bo'lmagan edi. Toshlar oralig'idagi chuqurlikda bir necha butalar, hatto ayrim daraxtlar o'sib, devor tirqishi va kavaklariga ildiz otgan edi.

Men bu yerda zaharli sharbat chiqaradigan ix-roj butalarini; so'lib, hidsizlangan, buning ustiga o'zining «kungaboqar» degan nomiga sira mos kelmaydigan – chunki quyosh nurlari ulargacha sira yetib bormagan, bir necha hazorang gullarni ko'rdim, so'lg'in xrizantema ko'rinishdan kasalga chalingan sabur yonida o'sar edi; nihoyat qotib qolgan lava oqimlari orasida o'zining juda nafis hidini saqlab qolgan binafshalar gullab yotar edi. Ochig'ini aytganda, men ularni rohatlanib hidladim.

Biz borayotgan so'qmoqning ba'zi joylaridan butun ko'l ko'rinib turar edi. «Nautilus» projektori yoritib turgan oynaday silliq ko'l sathini na to'lqin, na qilt etgan shamol tebratar edi.

«Nautilus» tamoman harakatsiz turardi. Uning palubasida va qirg'oqda matroslar yurishardi, ularning qora soyalari yog'du tushayotgan qoyalarda aniq ko'rinib turar edi.

Biz butun g'orni gir aylangan qoya zinapoyalarining eng yuqorisiga yetgan edik.

Bir necha yirtqich qushlar havoda charx urar yoki chiqib bo'lmaydigan qoyalarga qo'ygan inlarida o'tirishardilar.

Bular oq to'shli, yo'rgakli qirg'iy va baqiroq qirg'iylar edi.

Tik qiyalikda juda ko'rkam, semiz tuvdolar u yoqdan bu yoqqa yurishardi. Kanadalik bu mazali qushni ko'rganida ko'zi ochofatlarcha chaqnaganini va uning qurol ola kelmaganiga qanchalik achinganini tasavvur etish qiyin emas. U qo'rg'oshin o'rnida tosh ishlatishga harakat qildi va ko'pgina muvaffaqiyatsizliklardan so'ng yirik bir tuvdoni urishga muvaffaq bo'ldi. Jarohatlangan qushni tutib olguncha kanadalikning hayoti bir necha bor qil ustida turdi, desa mubolag'a bo'lmaydi.

Ammo nima bo'lganda ham qush eson-omon uning safar to'rvasidan joy oldi.

Qoyalardan o'tishning sira iloji bo'lmay qolgach, sohilga tushishga to'g'ri keldi. Bizning ustimizda, ancha balandda, pastdan qaraganda quduqning katta og'ziga o'xshagan tuynukdan yorug'lik tushib turardi. Biz turgan yerdan bir parcha zangori osmon va g'arb shamoli quvayotgan bulut ko'zga tashlanardi. Uning parchalari ba'zan tuynuk ustida bir daqiqagina tuman tutuni singari qotib qolar edi. Bundan ishonch bilan bulutlar uncha balandda emas, degan xulosa chiqarib olish mumkin, chunki tog' cho'qqisi okean sathidan nari borsa sakkiz yuz fut balandlikda edi.

Ko'lning qumloq sohiliga qaytgach, men uning o'simlik va hayvonot dunyosi bilan tanisha boshladim. O'simlik dunyosining namunasi sifatida ovqatga solinsa mazali qiladigan soyabongullilarning uncha katta bo'lmagan turi va ukrop anchagina joyni gilam singari qoplab yotar edi. Konsel undan bir necha bog' yig'ib oldi. Hayvonot olamiga kelganda, uning namunasi sifatida minglab turli xil chig'anoqlar, qisqichbaqalar, omarlar va barcha tur va hajmdagi ko'plab molluskalar bor edi.

Biz bu yerda parqu kabi yumshoq qum qatlami

bilan qoplangan ajoyib g'orga duch keldik. Qoyalarga tarmashaverib horigan men bilan o'rtoqlarim qum ko'rpasi ustiga rohatlanib cho'zildik. Yeros-ti olovi g'or devorlarining ustini silliqlab, olmos singari yarqirab turgan shaffof mineral bilan qoplangan edi.

Ned Lend devorlarning qalinligini bilib olish uchun ularni dukullatib ura boshladi. Men uning behuda urinishini ko'rib, o'zimni kulgidan tiyolmadim. Gap aylanib, shubhasiz, yana qochishga kelib taqaldi. Men Ned Lendni ishontirib qo'yish kerak, degan qarorga kelib, kapitan Nemo balki natriy zapasini to'ldirish uchungina janub tomonga tushgandir, binobarin, yana shimolga, Yevropa yoki Amerika sohillari tomonga qaytishiga umid bog'lash uchun barcha asos bor, dedim unga, o'shanda kanadalik qochib qutulishga yana bir bor urinib ko'rishi mumkin.

Biz qariyib bir soat vaqtни shu ajoyib g'orda o'tkazdik. Juda qizg'in boshlangan suhbatimiz endi deyarli so'nayozgandi. Bizni nimagadir mudroq bosa boshladi. Qaytish uchun shoshilishga ehtiyoj sezmaganim sababli, uyqumni qochirishga urinib o'tirmadim.

Tush ko'ribman, axir biz o'z tushlarimizga hamisha hukmimizni o'tkaza olmaymiz-da, – tushimda molluskalar singari juda boshlang'ich o'sish jarayonini boshimdan kechirayotgan emishman va ikki tavaqali chig'anog'im shu g'orda emish.

Konselning to'satdan qichqirishi meni uyg'otib yubordi.

– Turing, tezroq turing! – qichqirdi u.

– Nima bo'ldi? – deb so'radim qumga o'tirib olib.

– Suv!

Sakrab turib ketdim. Dengiz suvi g'orimizga to-

shib kelayotgandi va biz molluskalar bo'lmaganimiz uchun o'zimizni qutqarishimiz zarur edi.

Bir necha minut ichida biz g'orning suv chiqolmaydigan devoriga ko'tarildik.

– Nima bo'lyapti? – deb so'radi Konsel. – Yana tabiatning biror yangi mo'jizasimi?

– Yo'q, do'stim, – deb javob berdim men, – bu oddiy suv ko'tarilishi, ha, sal bo'lmasa bizni g'aflatda qoldirishi mumkin bo'lgan oddiy quyilish. Suv quyilishi paytida g'ordan tashqarida okean sathi ko'tarildi va ikki bir-biri bilan bog'langan idishdagi suyuqlik baravar bo'lishining qat'iy qonuniga muvofiq ko'lda ham suv sathi ko'tarildi. Biz yengilyelpi vanna qabul qilish bilan qutulganimizga shukur qilishimiz kerak. Qani, endi «Nautilus»ga qaytaylik, ust-boshimizni almashtirib olishimiz lozim.

Chorak kam bir soatda biz butun ko'lni gir aylanib, «Nautilus»ning narigi tomonidan keldik.

Matroslar natriy ortishni tugatishayotgan edilar va «Nautilus» shu zahotiyuq yo'lini davom ettirishi mumkin edi.

Biroq kapitan Nemo jo'nab ketish haqida buyruq bermay turardi. Suvosti kanalidan bildirmay chiqib ketish uchun tunni kutayotganmikin? Shunday bo'lishi ham mumkin.

Ertangi tong «Nautilus»ni gavanida emas, quruqlikdan olisda, Atlantik okean sathidan bir necha metr pastda suzib ketayotganda uchratdi.

## ***O'n birinchi bob***

### **SARGASSO DENGIZI**

Biroq «Nautilus» hamon Yevropadan uzoqlashmoqda edi. Yaqin oradagi uning sohilini ko'rish umididan voz kechib turishga to'g'ri keldi.

Kapitan Nemo janub tomon yo'l olgan edi.

U kemasini qayoqqa olib ketyapti?

Bunisini bilolmadim.

Shu kuni «Nautilus» Atlantik okeanning eng qiziq joylaridan suzdi. Katta issiq okean oqimi – Golfstrim mavjudligi hammaga ayon. U Florida sohillaridan Shpitsbergen tomon oqadi. Biroq Meksika qo'ltig'iga yetmay, shimoliy kenglikning qirg to'rtinchi gradusida bu oqim ikki tarmoqqa bo'linib ketadi: bulardan ko'prog'i Irlandiya va Norvegiya sohillari yonidan o'tadi, kamrog'i esa janubga, Azor orollari tomon buriladi, so'ng Afrika qirg'og'iga borib, keng yarim doira yasaydi-da, Antil orollariga qaytadi.

Ana shu ikkinchi tarmoq – aslida tarmoq emas, doira desa to'g'riroq bo'ladi – Atlantik okeanning Sargasso dengizi nomini olgan kamqatnov va sokin qismini iliq suv oqimi bilan gir aylantirib to'sib qo'ygan.

Shunday qilib, Sargasso dengizi Atlantik okeandagi chinakam ko'lga o'xshab qolgan. U shu qadar cho'zilib ketganki, o'z yo'lida Golfstrim suvi uning atrofini uch yilda aylanib chiqadi.

Sirasini aytganda, Sargasso dengizi butun Atlantidaning dengizga cho'kkan qismi ustida yastanib yotadi. Hatto ayrim olimlar uning sathida qalqib yuradigan o'tlar ana shu yo'qolib ketgan qit'aning keng dalalarida o'sgan degan taxminlarni ham aytishgan. Biroq bu taxmin haqiqatga unchalik to'g'ri kelmasdi; o'sha Golfstrim bu yo'sin va o'tlarni Sargasso dengiziga Yevropa va Amerika qirg'oqlaridan olib kelgan bo'lishi ehtimolga yaqinroqdir.

Ana shu vaziyat boshqalar qatorida Kolumbni ham Yangi Dunyo mavjudligi haqidagi fikrga olib kelgan. Shijoatli tadqiqotchi Sargasso dengizi-

dan o'tayotganida, yo'sin va o'tlar uning kemalari yo'lini to'sib, komandani rosa qo'rqitdi va suzish muddati rosa uch haftaga kechikdi.

Hozir «Nautilus» suzayotgan dengiz mana shu-naqa edi. U suv o'tlari gilami bilan qoplangan chinakam yaylovga o'xshab ketar va shu qadar qalin va mustahkam ediki, kema uni tumshug'i bilan zo'rg'a kesib borardi. Shuning uchun ham kapitan Nemo Sargasso dengizining bu o'tib bo'lmas to'siqlarida parrakni sindirib qo'ymaslik yoki shikastlantirmaslik uchun bir necha o'n metr chuqurlikda suzar edi.

«Sargasso dengizi» degan nom ispan so'zi «Sargazzo»dan olingan bo'lib, «suv o'tlari», ya'ni yo'sin demakdir. Yo'sinlar asosan suzib yurib, bu gigant havzani o'simlik bilan qoplaydi.

Nega endi Atlantik okeanning ana shu sokin burchagida bu qadar ko'p yo'sin yig'ilgan, degan savolga «Yer yuzining fizik geografiyasi» kitobining avtor Meri javob berdi.

«Bu hodisaning qanday sodir bo'lganiga javob, – deb izoh beradi u o'z kitobida, – hammaga ma'lum tajribadan kelib chiqadi. Agar suv solingan idishga bir parcha po'kak, payraha yoki boshqa suzadigan jismlar tashlansa va suv harakatga keltirilsa, tez orada sochilib yotgan parchalar idish markaziga, ya'ni harakat kamroq bo'lgan yerga yig'iladi. Bizni qiziqtirayotgan masalada Atlantik okeanni idish deb faraz etsak, Golfstrim – bu aylanma oqim, Sargasso dengizi esa idish markazi bo'lib, suzadigan barcha jismlar unga yig'ilib keladi».

Men Morining fikriga tamoman qo'shilaman.

Men bu hodisani boshqa olimlarning oyog'i yetmagan yerda – suvosti sharoitida o'rgandim. Kema-miz uzra qo'ng'ir yo'sinlar va o'tlar suzar edi: Anda va Qoyali tog'larida bo'ron ag'angatgan va okeanga

Amazonka yoki Missisipi suvlari orqali oqib kelgan daraxt tanalari, kema rangoutlari, quyruqlari, qoplama yoki korpuslarining bo'laklari kabi ko'pgina halokat qoldiqlari suzar edi, ular yopishib olgan chig'anoqlar qatlamidan shu qadar og'irlashgan ediki, hatto endi suv sathiga suzib chiqolmas edi.

Vaqt kelib Morining – Sargasso dengizida to'plangan ana shu barcha narsalar uzoq asrlar davomida dengiz suvi ta'sirida minerallasadi va bitmas-tuganmas toshko'mir qatlamlariga aylana-di, degan fikri ham tasdiqlanishiga sira shubham yo'q. Bu – odamlar yer yuzi konlaridagi butun ko'mirni ishlatib bo'lgan taqdirda tabiat har ehtimolga qarshi tayyorlab qo'ygan yoqilg'i omborlari edi.

Tartibsiz holda yotgan shu o'tlar va yo'sinlar orasida men ustida mayda tuklardan iborat hurpaygan toji silkinib turgan antiniylar va ko'plab yashil, qizil, ko'k meduzalarni, shu jumladan havorangga moyil, soyaboni binafsharang hoshiyali meduzani ko'rdim.

22-fevralda kun bo'yi Sargasso dengizi ostida bo'ldik. Dengiz o'tlari bilan oziqlanadigan baliqlarga yemish bu yerda juda serob edi. Biroq ertasi kuni okean asl holiga qaytdi.

Keyingi kunlar davomida, 23-fevraldan 12-martgacha «Nautilus» sutkasiga to'rt yuz kilometr dan yo'l bosib, sira og'ishmay janub tomon yurdi. Aftidan, kapitan Nemo jahon bo'ylab suvosti sayohati rejalarini amalga oshirayotganga o'xshardi, binobarin, men «Nautilus» Gori burunidan o'tgach, Tinch okeanning janubiy qismiga qaytishiga ishonardim.

Xullas, Ned Lendning ehtiyotkorligi to'g'ri bo'lib chiqdi. Orollar kamdan kam uchraydigan bu bepo-



yon suv sahosida qochish haqida o'ylash befoyda edi. Biroq ikkinchi tomondan kapitan Nemo rejasi-ning amalga oshirilishiga xalaqit beradigan imkoniyatimiz ham yo'q edi.

Taqdirga tan berishdan bo'lak ilojimiz qolmagan edi.

Ammo qochishga qulay fursat kelishiga umid qolmagan ekan, ozodlikka chiqishning yana bir yo'lini ishga solish mumkin. Jahon bo'ylab sayohat poyoniga yetgach, kapitan Nemo uning sirlarini hech qachon fosh etmaslikka va'da berib, evaziga bizni ozodlikka chiqarishini so'rashga umidvor edim. Bu burchimizni sharaf bilan bajargan bo'lar edik va uning siri biz bilan birga o'lar edi.

Biroq avvalo bu taklifga kapitan Nemo nima deyishini aniqlamoq kerak edi. Axir u boshda o'z sirini fosh etmaslik uchun bizni umr bo'yi «Nautilus»ning bandilari qilib saqlashini qat'iy tarzda aytgan edi. To'rt oy davomida biror marta ham mening bu masalaga qaytmaganimni sukut alomati rizo qabilida u o'z rejalariga qo'shilganimning ifodasi deb tushungan bo'lishi mumkin.

Hozir bu haqda gap ochsa, u shubhalanib qoladi, bu esa vaqti kelib yana qochishga qulay fursat yetganda, uni amalga oshirishimizga faqat xalaqit berishi mumkin.

Mana shunday mulohazalar xayolimni tamoman band etgan edi. Bu haqdagi o'ylarimni Konselga aytdim. Bu fikrlar uni ham mendan kam tashvishga solmadi. Umuman olganda, men tushkunlikka osonlikcha berilmasam-da, ammo jamiyatga qaytishimizga umid kun sayin so'nayotganini sezar dim va kapitan Nemoning g'oyat qat'iylik bilan borgan sari Atlantik okeanning janubiga qarab keta-

yotgani esa bu umidsizlikni tobora kuchaytirmoqda edi.

Keyingi o'n sakkiz kunlik suzishimiz davomida biror esda qoladigan voqea sodir bo'lgani yo'q. Men kapitan bilan kamdan kam uchrashardim. U ko'p ishlar edi. Kutubxonada ko'pincha u ochiq qoldirgan kitoblarga ko'zim tushar, bularning ko'pi tabiiyot tarixiga doir edi. Dengiz osti sirlari haqidagi kitobimning hoshiyalari uning turli belgilari bilan to'lib ketgan, ularning ko'pida mening nazariyalarim va jumla tuzishlarimga e'tiroz bildirilgan edi. Ammo kapitan Nemo xatolarimni belgilab qo'yish bilangina qanoatlanar, men bilan esa bahslashmas edi.

Ba'zan uning organ chalayotganini eshitar edim. U juda hayajonlanib, mahorat bilan, ammo faqat tunda, hamma yoqni zulmat pardasi qoplab, «Nautilus» okean sahrosida qattiq uyquga ketganda chalar edi.

Shu kunlarda biz ko'pincha okean sathida suzdik. Dengiz bo'm-bo'sh edi. Ahyon-ahyondagina uzoqda allaqanday yelkanli kema Hindistonga yoki Yaxshi Umid buruni tomon shoshilib ketayotganini ko'rib qolar edik.

Bir kuni ortimizdan kit ovlaydigan kema quvib qoldi, aftidan, bizni juda katta kit deb o'yladi, shekilli. Ammo kapitan Nemo sho'rlik dengizchilarning bekordan bekorga vaqt va mehnat sarflashlarini istamadi va suvga sho'ng'ib qo'ya qoldi.

Bu voqea Ned Lendni juda qiziqtirib qoldi. Menimcha kanadalik bizning temir kitimizni gapun sanchib o'ldirib bo'lmasligiga astoydil afsuslanayotgan edi, desam xato qilmagan bo'laman.

Bu yerning baliqlari shimoliy kengliklarda ko'rgan baliqlarimizdan kam farq qilar edi. Ba'zan

yonimizdan dengiz itlari – baliqchilarning aytishlaricha, nihoyat darajada yuxoliklari bilan farq qiladigan katta baliqlar suzib o‘tar edi.

O‘ynoqi delfinlar bizni kun bo‘yi kuzatib boshar edi. Ular bo‘rilar qishda ovga chiqqanlari kabi besh-oltitadan bo‘lib suzib borishardi. Delfinlar yuholikda dengiz itlaridan qolishmas edi.

Delfinlar oilasining o‘n turi bor. Biz uchratgan nusxalar oddiy delfinlar turiga mansub edi. Ularning old tomoni ingichkalashib borgan boshlari uncha katta bo‘lmay, basharalari tumshuqsimon ensiz edi. Tanalarining uzunligi taxminan ikki metrga borardi.

Bu dengizlarda tikan patli baliqlar guruhiga mansub gorbillar yoki qora ssiyenlar singari ajoyib namunalar uchradi. Ba‘zi bir avtorlar – olimlardan ko‘ra ko‘proq shoirlarning ta’kidlashlaricha bu baliqlar ohang taratib ashula ayta olarmish va ularning to‘dalari eng yaxshi ashulachilar ansamblidan durustroq konsert berishi mumkin emish. Bu gap yolg‘on deyishga jur‘at etolmayman, biroq afsuski, yo‘lda uchratgan ssiyenlar bizga serenada kuylab berishgani yo‘q.

Nihoyat, juda ko‘p miqdorda uchar baliqlarni uchratganimizni ham aytib qo‘yay. Delfinlarning ana shu uchar baliqlarni ovlashidan ko‘ra ajoyibroq tomosha bo‘lmasa kerak. Delfinlarning hisoblari juda aniq: uchish trayektoriyasi qanchalik uzun bo‘lmasin, baribir uchib ketayotgan baliq chornocho delfinlarning ochib turgan og‘ziga kelib tushadi!

Biz uchratgan baliqlarning ko‘pi trigl turiga mansub edi. Tunda ular uchar yulduz singari havoda egri chizikli yog‘du hosil etar edilar.

Sayohatimiz boshlanganidan buyon biz o‘n uch

ming lyo yoki ellik ming kilometr yo'l bosdik. Hozir biz janubiy kenglikning 45-gradus 37-minutida va g'arbiy uzunlikning 37-gradus 53-minutida edik.

Bu joylarda «Gerold» kapitani Dengem tashlagan zond o'n to'rt ming metrda ham dengiz tubiga yetmagan. Xuddi shu yerning o'zida Amerikaning «Kongress» kemasidan leytenant Parker hatto o'n besh ming bir yuz qirq metrda ham tubini topolmagan ekan.

Kapitan Nemo ana shu o'lchovlarning to'g'rili-gini bilish uchun «Nautilus»da oxirgi chuqurlik-kacha sho'ng'ishga qaror qildi.

Salon derazalaridagi to'siqlar ochildi va men asboblardagi ko'rsatkichlarni yozish va kuzatuv olib borish uchun deraza yoniga o'tirdim.

«Nautilus» bu katta chuqurlikka tushish uchun hozirlik ko'ra boshladi. O'z-o'zidan ayonki, bu chuqurlikka rezervuarlarni to'latish yo'li bilan tushish haqida gap ham bo'lishi mumkin emas. Hech qanday qo'shimcha ballast ham bu maqsadni amalga oshirish uchun yetarli bo'lmasligini aytib ham o'tirmaymiz. Yana bir narsani unutmaslik kerakki, dengiz sathiga chiqish uchun suv tubida rezervuarlardagi barcha suvlarni siqib chiqarishga to'g'ri keldi, bunga esa kuchli tashqi bosim tufayli – hatto «Nautilus» nasoslarining kuchi ham yetmas edi.

Kapitan Nemo okean tubiga qiya diagonal bo'ylab tez suzib tushishga qaror qilgan edi. Chuqurlik rullari 45 gradus qiyalikka qo'yilib, vint so'nggi tezlikda aylanar edi. Uning parraklari suvni zo'r kuch bilan kesardi. Bu qudratli kuchdan butun kema qaldirab, o'sha zahoti itoatkorlik bilan pastga uchib ketdi.

Kapitan Nemo mening yonimga keldi va biz birgalikda tez harakat qilayotgan manometr milini ku-

zatdik. «Nautilus» tez orada baliqlar yashaydigan zonadan o'tib ketdi.

Baliqlarning ayrim turlari okeanning sathiga yaqin yerida yoki daryolarda yashasa, ba'zilar faqat chuqur suv qatlamlaridagina yashaydi. Ana shu katta chuqurliklardagina yashaydigan baliqlar orasida men geksanxlarni – olti jabrali eshkaksimon tishli har xil akulalarni, ko'zlari katta-katta teleskoplarni va nihoyat bosim bir yuz yigirma atmosferaga teng keladigan bir ming ikki yuz metr chuqurlikda yashaydigan grenderlarni uchratdim.

Men kapitan Nemo dan, katta chuqurliklarda sira baliq uchratganmisiz, deb so'radim.

– Baliq? – qaytardi u. – Bu chuqurliklarda ular juda kam bo'ladi. Xo'sh, bu haqda hozirgi zamon fani qanday fikrda?

– Bu haqda quyidagilarnigina bilamiz: suv sathidan uning pastki qatlamlariga tushgan sari hayvonotdan ko'ra o'simlik olami tezroq yo'qola boradi. Biz bilamizki, hali tirik mavjudotlar uchraydigan yerlarda, bironta ham o'simlik topib bo'lmaydi. Bizga ma'lumki, ustritsalar hamda boshqa chig'anoqlar suv ostida ikki ming metr chuqurlikda ham yashaydilar va qutb dengizlarining qahramoni Mak Klinton bir kuni ikki yarim ming metr chuqurlikdan tirik dengiz yulduzini qarmoqqa ilintirdi. Nihoyat, shu narsa ham ma'lumki, «Buldog» ingliz kemasi ekipaji ham to'rt ming metr chuqurlikda tirik dengiz yulduzini qarmoqqa ilintirgan edi. Biz biladigan narsalarning hammasi ana shulardan iborat. Biroq siz kapitan Nemo, bizning fanimiz hech narsani bilmaydi, deyishingiz mumkin, albatta, to'g'rimi?

– Yo'q, janob professor, men bunday beadablikka bormayman. Ruxsat bersangiz, yana bir narsa-

ni so'rab olsam, tirik mavjudotlar shunday chuqurlikda ham yashay olishini qanday izohlaysiz?

– Bu – ikki narsa bilan izohlanadi, – deb javob berdim men.– Birinchidan, suvning tuzi va zichligi turlicha bo'lgan har xil chuqurliklarda tik oqimlar dengiz tipratikanlari va yulduzlarining oddiy hayot kechirishi uchun yetarli miqdorda harakatlanib turadi...

– To'g'ri, – dedi kapitan.

– ...va ikkinchidan, hayot uchun eng zarur bo'lgan suvda erigan kislorodning miqdori chuqur qatlamlarda kamaymaydi, aksincha ko'payadi, bu qatlamlardagi yuqori bosim esa uning quyuqlashuviga imkon beradi.

– To'ppa-to'g'ri, siz buni ham bilasizmi? – xitob qildi kapitan Nemo taajjublanganini yashirmay. – Bu narsa sizga ma'lum bo'lganidan g'oyat mamnunman, chunki fakt aniq, isbotga muhtoj emas. Men faqat shuni qo'shib qo'ymoqchimanki, uncha chuqur bo'lmagan joylardan ushlab olingan baliqlarning suzgich qovug'ida kislorodga nisbatan azot ko'p bo'ladi, chuqur joylardan ovlangan xuddi o'shanaqa baliqlarda esa hamisha azotga nisbatan kislorod ko'p. Bu sizning taxminingiz to'g'riligini ko'rsatadi. Keling, yaxshisi kuzatuvlarimizni davom ettira qolaylik.

Men yana manometrqa qaradim. Uning mili olti ming metr chuqurlikni ko'rsatib turar edi. Biz bir soatdan buyon suzayotgan edik va diagonal bo'ylab sirg'alib tushayotgan «Nautilus» hamon suvga sho'ng'ishni davom ettirar edi. Bu yerda suv baland tog' havosidan tiniqligi bilan ajralib turar edi.

Yana bir soat o'tgach, biz o'n uch ming metr chuqurlikka yetdik, ammo okean tubi hali ko'rinmas edi.

Biroq biz o'n to'rt ming metr chuqurlikka tushgach, men olisdan suvda ajralib turgan tog' cho'qqilarini ko'rdim. Sirasini aytganda, bu cho'qqilarning balandligi Himolay yoki Monblan tog'larichalik, balki ulardan ham yuksakroq bo'lishi mumkin. Biz ilgariqiday bu tubsiz suvning chuqurligini aniqlay olmadik.

«Nautilus» juda katta bosimga duch kelayotganiga qaramay, biz sho'ng'ishni davom ettirayotgan edik. Men suvosti kemasi temir qoplamasining parchinlari qaldirayotganini, vertikal kuch ta'sirida gorizontaal bosimning oshib borayotganini, devorlarning dirillashini, salon derazalari suv bosimidan egilayotganini his etib turar edim. Agar kemamiz yaxlit quymaligi uchun mustahkam bo'lmaganida, bir onda pachog'i chiqib ketar edi.

Biz suvda, qorayib turgan tog' qiyaliklari yaqinidan o'tayotganimizda men unda bir necha chig'anoq va dengiz yulduzini ko'rdim. Biroq ko'p o'tmay hayvonot olamining ana shu so'nggi namunalari ham yo'qolib, «Nautilus» nafas olsa bo'ladigan qatlamdan chiqib ketgan havo shari singari hayot mavjud bo'lgan joy chegarasidan o'tdi.

Biz endi o'n olti ming metr chuqurlikda edik va «Nautilus» qoplamasi bir ming olti yuz atmosfera, boshqacha qilib aytganda, o'z sathining har bir kvadrat santimetriga tushayotgan bir ming olti yuz kilogramm bosimga bardosh berib turar edi.

– Taajjub: sira hayot bo'lmagan joyda suzishimizni qarang! – deya xitob qildim men. – Qarang, kapitan, mana bu ulug'vor qoyalarga, tirik mavjudot ko'rinmaydigan tog'larga, zarracha hayot nishonalari haqida so'z ham yuritib bo'lmaydigan okeanning so'nggi nuqtasiga qarang! Afsuski bu haqda bizda noaniq xotiralargina saqlanib qoladi, xolos.

– Shu xotiralarni aniq qilish ham mumkin, – dedi kapitan.

– Bu bilan nima demoqchisiz? – so‘radim men. – Gapingizni tushunmayapman.

– Aytmoqchimanki, ana shu manzaraning fotosuratini olishdan ko‘ra osonroq narsa yo‘q.

Men kapitan Nemoning bu yangi taklifidan taajjublanishga ham ulgurmay, bir matros salonga fotografiya apparatini olib kirdi.

Projektor yorqin nurlarida yastanib yotgan manzara ko‘z oldimizda odamni hayratga soladigan darajada tiniq va aniq namoyon bo‘ldi. Tiniqlik va suvning qilt etmay harakatsiz turishi fotosuratga olish uchun hatto tabiiy, quyosh nurlari tushib turganidan ham yaxshiroq sharoit yaratib bergan edi. Biz apparat obyektivini suvosti tog‘iga qaratib, ajoyib bir surat oldik.

Kun yorug‘ini sira ko‘rmagan qadimgi qoyalar yer sathining ustki granit qavati, tog‘ jinslarining uyilishidan hosil bo‘lgan chuqur g‘orlar va nihoyat suv fonida flamandiyalik rassom qo‘li bilan yaratilgan juda aniq ko‘rinayotgan cho‘qqilar shakli fotosuratda alohida ajralib turardi.

Biroq surat qumloq o‘zanda mahkam o‘rnashib, projektor nurlarida yarqirab turgan ana shu qora, ataylab yo‘nilgan silliq, zarracha ham dog‘i bo‘lmagan tamoman bir xildagi qoyalarda hayot nishonasi sira yo‘qligidan olingan taassurotni aks ettirmagan edi.

Kapitan Nemo suratga olib bo‘lgach, menga murojaat qildi:

– Ko‘tarilishga to‘g‘ri keladi, janob professor. «Nautilus» korpusini bunday bosim ostida uzoq vaqt saqlab bo‘lmaydi.

– Fikringizga qo‘shilaman, kapitan.



– O‘zingizni mahkam tuting, – dedi u.

Men kapitan Nemodan bu bilan nima demoqchiligini va nega men o‘zimni mahkam tutishim kerakligini so‘rab ulgurmay, to‘satdan polga ag‘anab ketdim.

Kapitan Nemoning buyrug‘i bilan «Nautilus» vinti to‘xtatilib, chuqurlikka olib tushadigan rullar tik holatga keltirilgan edi. «Nautilus» o‘sha sekundning o‘zidayoq havo shari singari vizillab yuqoriga ko‘tarilib ketdi. Ko‘tarilish tezligi chindan ham kishini esankiratib qo‘yardi. U suvni bo‘g‘iq ovoz bilan kesar edi.

Atrofdagi narsalarni ajratib bo‘lmas edi – to‘rt minutda u o‘n olti ming metr yerga ko‘tarilib, uchar baliq singari suvdan sakrab chiqib yana tushdi va yon-beridan suvni ko‘tarib juda balandga sachratib yubordi.

## ***O‘n ikkinchi bob***

### **KASHALOTLAR VA KITLAR**

13-dan 14-martga o‘tar kechasi «Nautilus» yana janub tomon yo‘l oldi. Gori buruni kengligida g‘arbga, Tinch okean tomonga burilib, shu bilan jahon bo‘ylab sayohatimizni tugatamiz deb o‘ylagan edim. Biroq xato qilgan ekanman: «Nautilus» hamon janub tomon suzar edi.

U qayoqqa yo‘l oldi ekan? Nahotki, qutbga bo‘lsa? Bu bema‘nilik.

Men kapitan Nemoning beboshligini ko‘rib, Ned Lend uni boshdayoq xush ko‘rmagani to‘g‘ri ekan, degan xulosaga keldim.

Kanadalik oxirgi paytlarda o‘zining qochish haqidagi rejalarni menga gapirmaydigan bo‘lib qolgan edi. U ancha kamgap va o‘zi bilan o‘zi bo‘lib

qoldi. Bizning uzoq vaqt tutqunlikda qolib ketayotganimiz unga og'irlik qilayotgan edi. Qahrg'azabga to'layotganini sezib turar edim. Kapitan Nemo bilan uchrashganda, uning ko'zlarida qayg'u o'ti chaqnar va men har gal tabiiy qiziqqonlik kanadalikni biror falokatga boshlamasa, deb qo'rqib turar edim.

Shu kuni 14-martda, Konsel bilan Ned Lend kayutamga kirib kelishdi.

Men ulardan nimaga kelganlarini so'radim.

– Faqat bitta savol, professor, – deb javob berdi menga kanadalik.

– Qulog'im sizda, Ned.

– Sizningcha, «Nautilus»da necha kishi bor?

– Bilmadim, do'stim.

– Nazarimda, – deya davom ettirdi Ned, – bu kemani boshqarish uchun katta ekipajga hojat bo'lmasa kerak.

– To'g'ri, – deb javob berdim, men, – uning mashinalari mukammal, binobarin, komandada o'n kishi bo'lsa, kema barcha zarur ishlarni bema'lol bajarishi mumkin.

– Shunday ekan, kapitan Nemoning komandasi katta bo'lmasa kerak, – dedi Ned Lend.

– Bunchalik bo'lmasa kerak, – deya e'tiroz bildirdim men.

– Nega? Men Ned Lendga tikilib qaradim. Uning maqsadini bilib olish qiyin emas edi.

– Shuning uchunki, – dedim men unga, – bordiyu, kapitan Nemo haqida o'ylayotganlarim to'g'ri bo'lsa, unda «Nautilus» oddiy kema emas-u, ayni vaqtda kapitan singari yer bilan har qanday aloqasini uzganlar uchun boshpana hamdir.

– Ehtimol, – deb javob berdi hozirgacha jim turgan Konsel, – xo'jam haqdirlar. Biroq shunday

bo'lishiga qaramay, «Nautilus» juda cheklangan miqdordagina odam sig'dira oladi. Xo'jam undagi komanda sostavi ko'pi bilan necha kishidan iborat bo'lishi mumkinligini aytmaydilar mi?

– Men buni qayoqdan bilay, Konsel.

– Oddiy hisob-kitob vositasida. Xo'jamga kema hajmi ma'lum, binobarin, unga qancha havo sig'ishi ham. Ikkinchi yoqdan – odamning nafas olishi uchun qancha havo zarurligini ham bilgan holda, «Nautilus»ning har yigirma to'rt soatda havo zaxirasini yangilab turishini nazarda tutganda...

Men Konselning gapni qayoqqa burayotganini tushunib uning uzundan uzoq nutqini bo'lib qo'ydim.

– Tushunarli, tushunarli, – dedim men. – Bu hisob-kitobni qilish qiyin emas-u, ammo uning natijasi g'oyat noaniq bo'ladi.

– Noaniq bo'lsa ham mayli, – gapida turib oldi Ned Lend.

– Mana bo'lmasa o'sha hisob. Odam bir soatda nafas olish uchun yuz litr havo tarkibidagi kislorodni sarf etadi yoki bir kecha-kunduzda unga nafas olish uchun ikki ming to'rt yuz litr havo zarur. Binobarin, noma'lum sonni topish uchun «Nautilus» hajmini ikki ming to'rt yuzga bo'lish kerak, vassalom...

– Juda to'g'ri, – dedi Konsel.

– «Nautilus»ning hajmi bir ming besh yuz tonna, – deb davom ettirdim men, – har bir tonnada esa ming litr bo'lishini hisobga olganda, kemaning umumiy hajmi bir yarim million litr, buni ikki ming to'rt yuzga bo'lganda kema hajmi... – men tezgina qog'ozga yozib hisobladim, – ayni holda olti yuz yigirma beshga tengdir. Boshqacha qilib aytganda, «Nautilus»dagi havo yigirma to'rt soat davomida roppa-rosa olti yuz yigirma besh kishiga yetar ekan.

– Olti yuz yigirma besh kishi? – xitob qildi Ned Lend.

– Ammo men sizlarga kafil bo‘la olamanki, bizning hammamizni – matroslar, yo‘lovchilar va komandirlarni qo‘shib hisoblaganda ham o‘shancha odamning o‘ndan birichalik bo‘lolmaymiz.

– Shuncha bo‘lgan taqdirda ham uch kishi uchun juda ko‘p, – deya shivirladi Konsel.

– Shuning uchun, mening sho‘rlik Nedim, sizga sabr qilishnigina maslahat bera olaman.

– Faqat sabr qilishgina emas, – deb qo‘shib qo‘ydi Konsel, – balki ko‘nikish ham kerak. Konsel topib gapirdi.

– Axir nima bo‘lganda ham, – deya so‘zini davom ettirdi u, – kapitan Nemo faqat janubga qarab ketavermasa kerak. Biron yerda, chunonchi, jilla bo‘lmasa, muzliklarda to‘xtaydi-ku, axir! Vaqt-soati kelib u madaniylashgan mamlakatlar yaqinidagi dengiz sohillariga qaytishga majbur bo‘ladi. Ana o‘shanda yana qochish haqida o‘ylashga fursat keladi.

Kanadalik bosh chayqab, peshonasini qashladida, indamay kayutadan chiqib ketdi.

– Xo‘jam ruxsat bersalar bir narsani ta‘kid-lamoqchi edim, – dedi Konsel. – Sho‘rlik Ned hamisha amalga oshirib bo‘lmaydigan narsalarni o‘ylab yuradi. U tinmay o‘tgan baxtiyor kunlarini xotirlaydi. Bizning nazarimizda erishib bo‘lmaydigan barcha narsalar unga jo‘ngina ko‘rinadi. Xotiralar uni ezib qo‘yib, kuni bilan ma‘yus yuradi. Uning ahvolini tushunish kerak. Bu yerda u nima bilan shug‘ullanadi? Hech narsa bilan! U xo‘jam singari olim emas; suvosti dunyosi unga bizchalik quvonch baxsh etolmaydi. Ned Lend kechalari o‘z vatanidagi biron kichik mayxonaga kirib chiqish

imkoniyatiga ega bo'lish uchun har qanday xavf-xatarga tik borishga tayyor.

Konsel haq edi. Jo'shqin erkin hayotga o'rganib qolgan kanadalik uchun «Nautilus»dagi bir xildagi hayot juda og'ir kechayotgani g'oyat tabiiydir. Uni qiziqtiradigan voqealar ham juda kamdan kam bo'layotgan edi.

Ammo xuddi shu kuni shunday voqea ro'y berdiki, bu unga erkinlikda yurgan baxtiyor damlarni eslatgan bo'lsa ham ajab emas.

Soat o'n birlarga yaqin okean sathida suzib borayotgan «Nautilus» kitlar to'dasiga duch keldi. Bu uchrashuv meni taajjublantirgani yo'q; odamlar erinmay va astoydil ovlashga jazm qilib yuradigan bu sutemizuvchilar kit ovlovchilar kam uchraydigan yuqori kengliklarga boshpana qidirib kelishini bilar edim.

Kitlar dengiz ishida hamisha muhim rol o'ynab kelganlar va geografik kashfiyotlarni ochishda ham ularning ta'siri g'oyat sezilarli bo'lgan. Kitlar barcha davrlar va xalqlar ovchilarining e'tiborini – boshda basklarning, so'ngra assiriyaliklar, inglizlar va gollandiyaliklarning e'tiborini jalb etgan. Okeandagi xavf-xatarlarga qarshi kurashaverib bu ovchilar hech narsadan qo'rqmaydigan bo'lib qolgan, binobarin, ular okeanning u boshidan bu boshiga suzib yuraverar edilar.

Kitlar shimoliy hamda janubiy qutb dengizlariga kelishni juda xush ko'rardi. Qadimiy rivoyatlarga ko'ra, bir gal ovchilar shu qadar ichkariga kirib boribdilarki, qutbgacha nari borsa yetti lyo qolibdi. Bu rivoyat garchand to'qilgan bo'lsa-da, ammo vaqti kelib u haqiqatga aylanadi va yerning ana shu noma'lum nuqtasiga xuddi o'sha kit oviga ishqiboz kishilar borib qolishi ehtimolga juda yaqindir.

Biz palubada turar edik. Dengiz juda sokin: bu kengliklarda mart oyida ob-havo hamisha yaxshi bo'ladi.

Kanadalik olisdagi kitni birinchi bo'lib ko'rdi.

Men ham ko'rsatilgan tomonga diqqat bilan nazar tashlab, «Nautilus»dan besh milyacha narida goh yuqoriga ko'tarilib, goh suvga sho'ng'iyotgan allaqanday qora nuqtani ko'rdim.

– Ehh, – deya qichqirdi Ned Lend. – Agar hozir kit ovlovchi kemada bo'lganimda, bu uchrashuv menga qanchalik quvonch baxsh etgan bo'lar edi! Juda katta ekan. Bug' va suv tomchilari favvorasini qanchalik balandga otayotganini ko'ring. Bu jomashovga mixlab qo'yilganimni qarang!

– Nazarimda, Ned, siz hali ham o'zingizni gapunchi deb his qilyapsiz shekilli, – dedim men.

– Kit ovlovchi kishi o'z kasbini unutmidi? Bu ov keltiradigan rohatga to'yib bo'larmidi?

– Siz bu dengizlarda hech ov qilganmisiz, Ned?

– Sira, janob professor. Men doim shimoliy dengizlarda ishlaganman. Bering bo'g'ozigacha borganman, Devis bo'g'oziga yetganman...

– Demak, siz bu kitlarni bilmaysiz. Sirasini aytganda, siz ularni bilishingiz ham qiyin, chunki janub kitlari shimolga ekvatorning issiq suvlaridan o'tishga jur'at etisholmaydi.

– Qo'ysangizchi, janob professor? Nimalarni to'qiyapsiz! – norozilik bilan e'tiroz bildirdi kanadalik.

– Men hech narsani to'qiyotganim yo'q, bor gapni aytyapman.

– Shunchalik bo'lmasa kerak! Shaxsan mening o'zim oltmish beshinchi yilda, ya'ni nari borsa bundan ikki yarim yil oldin Grenlandiya sohillarida bir kitni urgan edim, unda hali Bering bo'g'ozini kit ov-

lovchi kema tamg'asi bosilgan garpun ham turgan ekan! Xo'sh, qani, ayting-chi, Amerikadan g'arbda yaralangan maxluq agar taxminan Gorn buruni yoki Yaxshi Umid buruni orqali kelmasa, ya'ni ekvatorni kesib o'tmaganda, qanday qilib sharqda biqinni garpunga tutar edi?

– Men do'stim Nedning gaplariga tamomila qo'shilaman va sabrsizlik bilan xo'jamdan javob kutaman, – dedi Konsel.

– Xo'jangizning javobi shuki, do'stlarim, kitlarning har xil turlari turlicha dengizlarda yashaydi va boshqasiga sira o'tmaydi. Agar kitlardan biri Bering bo'g'ozidan Devis bo'g'oziga o'tar ekan, demak bu dengizlar orasidan yo Amerika yoki Osiyo sohilida o'tadigan yo'l bo'lishi kerak.

– Meni shunga ishonadi deb o'ylaysizmi? – ko'zini qisib so'radi kanadalik.

– Xo'jamga ishonmoq kerak, – deb javob berdi Konsel.

– Demak, bu suvlarda sira ov qilmaganim uchun bu yerdagi kitlarni bilmaydi demoqchisizda? – deya so'zini davom ettirdi garpunchi.

– Xuddi shunday.

– Nima qipti, Ned, demak, sizning ular bilan tanishishingizga ko'proq asos bor, – dedi Konsel.

– Qarang-qarang! – deya qichqirdi kanadalik. – Kit yaqinlashyapti. U to'g'ri bizga qarab kelyapti. U qo'limdan hech narsa kelmasligini bilib, meni kalaka qilyapti!

Ned depsinib qo'ydi. Kit ovlovchining barmoqlari xayolida garpunni siqayotganday musht bo'lib tugildi.

– Bu kitlarning kattaligi ham, – deya so'zini davom ettirdi u, – shimoldagilarday keladimi?

– Deyarli o'shancha, Ned.

– Buni so‘raganimning sababi shuki, janob professor, uzunligi yuz futga yetadigan katta kitlarni ham ko‘rganman. Keksa kit ovlovchilar Aleut orollari atrofida yashaydigan kitlarning uzunligi yuz ellik futga yetishini hikoya qilib berishgan.

– Menimcha, oshirib yuborishgan, Ned, – deya e‘tiroz bildirdim men. – Hayotda bunaqa kitlar bo‘lmaydi, kashalotlar esa kitlardan ham kichik.

– O‘ho‘, – deya qichqirdi kanadalik okeandan ko‘z uzmay, – kit hamon yaqinlashib kelyapti! Ko‘p o‘tmay u «Nautilus» yonidan o‘tib ketadi!

Ayni choqda suhbatimizni davom ettirib, menga murojaat qildi:

– Siz kashalotlarni allaqanday mayda baliqlar-day qilib ko‘rsatib gapiryapsiz. Vaholanki, juda katta kashalotlar ham bor. Bilasizmi, ular juda aqlli maxluq. Menga hikoya qilib berishlaricha, ulardan ayrimlari yo‘sinlarga o‘ralib, suv sathiga chiqar ekanlar. Odamlar ularni orol deb faraz qilisharkan. Ularning yonida kemani to‘xtatib, o‘tirib olishar va o‘t yoqishar ekan...

– Uy solisharkan, – deya kanadalikning ohangida qo‘shib qo‘ydi Konsel.

– Ha, ha! – uning so‘zini tasdiqladi Ned Lend. – So‘ngra ajoyib kunlardan birida kashalot suvga sho‘ng‘ib, ustida turganlarni okean qa‘riga olib ketar ekan.

– Dengizchi Sindbod sarguzashtlarining xuddi o‘zi-ya, – deya kuldim men. – Ammo, mister Lend, men sizning bunaqa yolg‘on-yashiq to‘qishga usta ekanligingizni bilmagan ekanman! Bunaqa kashalotlarning bo‘lishiga o‘zingiz ishonmasangiz kerak, deb o‘ylayman?

– Janob olim, – deya jiddiy javob berdi kanadalik, – kitlardan hamma narsani kutish mum-



kin. Ana uni qarang, qanchalik tez suzib ketyaptiya! Suvga sho'ng'ishini ko'ring! Bu maxluqlar yer yuzini o'n besh kunda aylanib chiqa oladi, deyishadi!

– Bunga shubham yo'q.

– Garov o'ynayman, janob professor, dunyo paydo bo'lganda kitlar hozirgidan ham tezroq suzganlarini siz bilmaysiz.

– Rostdanmi, Ned? Haqiqatan ham men buni bilmas ekanman. Nega bunday bo'lgan?

– Chunki avvallari ularning dumi baliqnikiday tik bo'lgan, binobarin, ular suvni chapdan o'ngga va o'ngdan chapga urib suzishgan. Biroq keyinchalik, xudo qarasa, kitlar juda tez suzayotganday bo'lib tuyulibdi va ularning dumini burib qo'yibdi: o'shandan buyon hamma kitlarning dumlari yotiq bo'lib qolgan va suvni yuqoridan pastga hamda pastdan yuqoriga qarab uradi, bu esa, shubhasiz, tezlikni susaytirgan.

– Xo'sh, men shu gaplarga ishonishim kerakmi? – Nedning ovozigga taqlid qilib so'radim.

– Shart emas, – deb javob berdi, – ammo bunisi ham holva, uzunligi uch yuz fut va vazni besh yuz ming kilogramm keladigan kitlarni ko'rganman desam nima deysiz?

– Bu esa haddan oshganingiz bo'ladi, – deb javob berdim men. – Ammo ba'zi bir kitsimonlar chindan ham juda katta bo'ladilar. Aytishlaricha, shularning ayrimlaridan bir yuz yigirma-bir yuz o'ttiz tonna yog' eritib olar ekanlar.

– Buni o'z ko'zim bilan ko'rganman, – dedi kanadalik.

– Sizga, Ned, ayrim kitlarning kattaligi yuzta filni qo'shib olganchalik keladi, desa ishonganchalik

bajonidil ishonaman. Shunday juda ulkan bir narsa, g'oyat tez harakat qilib uchib borayotganda nima bo'lishini bir ko'z oldingizga keltiring-a!

– Kit kemani cho'ktira oladi, deganlari rostmi? – so'radi Konsel.

– Men bunga ishonmayman, – deb javob berdim. – Ammo ana shu eng janubiy kengliklarda 1820-yil kit «Esseks»ga hujum qilib, uni sekundiga to'rt metr tezlikda orqaga surgan deb hikoya qili-shadi. To'liqlar kemani quyruq tomonidan suvga to'latgan va u o'sha zahotiyoyq cho'kib ketgan.

Ned menga qarab ayyorona kulib qo'ydi.

– Bir gal, – dedi u, – bunday bo'ldi: kit meni dumi bilan urib yubordi, albatta, shaxsan o'zimni emas, qayig'imni. Men bilan birga o'rtoqlarim os-monga qarab olti metrcha uchib ketdik. Ammo ho-zirgina janob professor hikoya qilib bergan kit oldi-da bu – bolachasi, emizikli chaqaloq edi!

– Bu maxluqlar uzoq umr ko'rishadimi? – so'radi Konsel.

– Ming yillab, – deb ikkilanmay javob berdi ka-nadalik.

– Siz buni qayoqdan bilasiz, Ned?

– Shunday deyishadi.

– Nega shunday deyishadi?

– Chunki bu narsa har bir kishiga ma'lum.

– Yo'q. Ned, bu narsa hech kimga ma'lum emas.

Bu faqat taxmin. Bu taxmin quyidagi mulohazaga asoslangan. Bundan to'rt yuz yilcha muqaddam kit-larni birinchi marta ov qila boshlaganlarida, ular hozirgilaridan ancha katta bo'lgan. Shuning uchun hozirgi kitlarning kichkinaligini hali ular o'zlarining taraqqiyot bosqichlarini to'la o'tmaganlaridan deb faraz qilinsa tabiiy bo'ladi. Byufonni kitlar ming

yildan yashaydi deyishga undagan narsa ham xuddi shuning o'zi. Tushunarlimi?

Biroq Ned Lend menga quloq ham solmas, gaplarimni ham eshitmas edi. Kit yaqinlashar va kanadalik uni ko'zlari bilan yeb qo'ygudek edi.

– O'h-ho', – deya qichqirdi u to'satdan, – bu bit-ta kit emas! Ular o'nta... yigirmata... butun bir gala! Biz esa hech narsa qilolmaymiz? Shunaqa vaqtda qo'l-oyoq bog'liqligini qarang-a!

– Ammo, do'stim Ned, nega endi siz kapitan Nemodan ularni ovlashga ruxsat so'ramayapsiz? – so'radi Konsel.

Konsel og'zidagi gapni aytib ulgurmay, Ned Lend kapitanni qidirib pastga otilib tushib ketdi.

Bir necha minutdan keyin ular palubaga birga chiqishdi.

Kapitan Nemo «Nautilus»dan taxminan bir milya narida suv sathida lapanglayotgan kitlar galasini ko'zdan kechira boshladi.

– Bu janub kitlari, – dedi u. – Bu gala butun boshli bir kit ovlovchi flotni boyitishga yetar edi.

– Kapitan, loaqal garpunchilik kasbimni esimdandan chiqarmasligim uchun ham ularni ovlashimga ruxsat bersangiz?

– Jonivorlarni bekordan bekorga o'ldirishning nima keragi bor? – e'tiroz bildirdi kapitan. – Bizga vorvanning<sup>1</sup> mutlaqo keragi yo'q.

– Ammo, kapitan, Qizil dengizda siz menga dyugonni ovlashimga ruxsat bergan edingiz, – deya, yana turib oldi kanadalik.

– Dyugonning go'shtini g'amlab oldik. Endi esa siz faqat qatl etish uchun qotil bo'lishga ruxsat so'rayapsiz. Men vahshiylik bilan, vaqtni xush

---

<sup>1</sup> Vorvan – dengiz hayvonlarining eritilgan moyi.

o'tkazishga yo'l qo'yolmayman. Beozor va yuvvosh janub kitini o'ldirish bilan, mister Ned, siz va sizning maslakdoshlaringiz yovuz ish qilgan bo'lasizlar... Ular shu alfozda Baffin qo'ltig'idagi butun tirik mavjudotlarni qirib tashladilar, endi esa mana bu foydali hayvonlarni bitta ham qo'ymay qirmoqchilar. Bu sho'rlik kitlarni o'z holiga qo'ysangizchi. Shusiz ham ularning tabiiy dushmanlari – kashalotlar va nayzabardorlar yetarli.

Kutilmagan bu pand-nasihatlar davomida kanadalikning qiyofasi qanday bo'lganini tasavvur qilish qiyin emas. Kasbi kit ovlash bo'lgan kishiga bunaqa saboq berish – behudaga javrash bilan barobar.

Ned Lend kapitan Nemoga tikilib qolgan, aftidan, u nima haqda gapirayotganini mutlaqo tushunmas edi.

Biroq kapitan haq edi. Kit ovlovchilarning telbalarcha vahshiyliги yaqin orada okeanda so'nggi kitlarning ham qirilib ketishiga olib keladi.

Ned Lend hushtak chalib, tishlari orasidan «Yanki dudl»<sup>1</sup> kuyini taratdi va bizga orqasini o'girib oldi.

Shu orada kapitan Nemo, kitlar galasini kuzata turib, menga dedi:

– Men hozirgina kitlarning odamdan boshqa tabiiy dushmanlari ham ko'p bo'ladi, deb aytganim haq gap. Mana shu galaga hozir kuchli dushman bilan to'qnashishga to'g'ri keladi. Janob professor, huv, olisda, shamol esayotgan tomonda bizdan sakkiz milyacha narida harakat qilayotgan qora nuqtalarni ko'ryapsizmi?

– Ko'ryapman, kapitan, – javob berdim men.

---

<sup>1</sup> «Yanki dudl» – Angliya hukmronligidan ozod bo'lish davridagi Shimoliy Amerikaning vatanparvarlik qo'shig'i.

– Bu – kashalotlar, juda dahshatli maxluqlar... Men ularning butun boshli to‘dalari – ikki yuz, uch yuztasiga duch kelganman! Mana bu shafqatsiz va zararli maxluqlarni haqiqatan qirib tashlasa arziydi.

Bu so‘zlardan keyin kanadalik keskin burildi.

– Unday bo‘lsa, kapitan, – dedim men, – kitlarning manfaati uchun mister Lendga ruxsat bersa bo‘lar...

– O‘zini xavf-xatar ostida qoldirishga zarurat yo‘q, – deya so‘zimni bo‘ldi kapitan. – «Nautilus»ning o‘zi kashalotlarni tumtaraqay qilib yuboradi. Uning po‘lat tishlari bor, u mister Lendning garpunidan qolishmaydi.

Kanadalik ro‘yirost yelkasini qisdi. Uning turishi yaqqol: «Kashalotlarni kema tumshug‘i bilan qirib tashlashni hech eshitganmisiz?!» degan ma‘noni anglatib turar edi.

– Shoshmay turing, janob professor, – dedi kapitan, – men hali umringizda ko‘rmagan ovni ko‘rsataman. Og‘zi-yu tishlari bo‘lgan bu yirtqichlarga zig‘ircha ham shafqat qilish kerak emas!

«Og‘zi-yu tishlari bo‘lgan» – ba‘zan uzunligi yigirma besh metrga boradigan bu katta bosh kashalotga bundan ham yaxshi ta‘rif topish qiyin. Bu kit-simon maxluqning ulkan boshi tanasining uchdan bir qismidan ham ko‘prog‘ini tashkil etar edi. Kashalot og‘zining «Kit mo‘ylovi» shox plastinkalari bo‘lgan kit og‘zidan farqi shuki, kashalotnikida har biri ikki funtdan keladigan o‘ttiz to‘qqiz-ellik ikkita o‘tkir tishi bor. Kashalot bosh suyagining orqa tomonida o‘zaro bog‘liq ikki xona bo‘lib, har biri uch yuz-to‘rt yuz kilogrammdan juda qimmatbaho hisoblanadigan yog‘simon suyuqlik – spermatseta bilan to‘la.

– Hech shubha yo‘qki, kashalot dunyodagi eng

beso'naqay va badbashara maxluqdir. Uning boshi nihoyat darajada notekisligi bilan kishini hayratga soladi. Chunonchi ikkita burun pallasi o'rniga bitta, chap ko'zi esa o'ng ko'zidan ancha kichik, bu – ilgari zamonlarda ovchilarning unga hamisha chap tomondan hujum qilishiga sabab bo'lgan.

Shu orada yirtqichlar galasi yaqinlashar edi. Kashalotlar allaqachon kitlarni ko'rishgan va ularga hujum qilishga shaylanishar edi.

Bu tengsiz jangda kitlar yengilishini oldindan aytish mumkin, buning sababi esa kashalotlar faqat kitlardan kuchli bo'lgani va yaxshi qurollanganidagina emas, balki nafas olish uchun yuzaga chiqmay, suv ostida kitlarga nisbatan uzoqroq tura olishida hamdir.

Kitlarga yordamga borish vaqti keldi. «Nautilus» suvga sho'ng'idi. Konsel, Ned Lend va men salon derazasi yoniga o'tirib oldik.

Kapitan Nemo kema yangi – qirib tashlash qurolli vazifasini o'tayotganda, uni shaxsan o'zi boshqarish maqsadida shturval hujrasiga bordi.

Vintning aylanishi tezlashdi va «Nautilus» bor kuchi bilan ilgariladi.

«Nautilus» yetib kelganda kashalotlar bilan kitlar o'rtasidagi jang boshlangan edi. Kapitan Nemo o'z kemasini kashalotlar galasini ikkiga bo'lishni mo'ljallab yo'naltirdi.

Boshda kashalotlar yangi dushman paydo bo'lganiga ortiqcha parvo qilmadilar, ammo tezda ular o'z xatolarini tushundilar.

Ko'z o'ngimizda chinakam jang boshlandi! Hatto Ned Lend ham dong qotib qolib, pirovardida qattiq chapak chalib yubordi.

«Nautilus» ulkan garpunga, o'z kapitani qo'lida itoatkor qurolga aylandi. «Nautilus» go'shtdor ka-

shalotlar tomon uchib borib, ularni tilib yuborar va badbashara maxluqning tirqirab qon oqayotgan ikkiga bo'lingan gavdasini ortda qoldirib ketar edi. «Nautilus» o'z qoplamasiga dumlarning dahshatli zarb bilan kelib urilayotganini, quturgan kashalotlarning kuch bilan itarayotganini sezmas edi. U bitta yirtqichni qulatgach, o'zini ikkinchisiga otardi, vaqtni bekor ketkizmaslik va mo'ljaldagi o'ljani qo'ldan chiqarmaslik uchun o'qi atrofida aylanib olg'a intilardi, orqaga qaytardi, bordi-yu, kashalot undan qochib suvostiga tushsa, sho'ng'irdi, qaytib chiqsa, yuzaga chiqib olib, yonidan, oldidan, orqa tomondan hujum qilardi va har qanday tezlikda ham qaysi yoqdan urmasin – kashalotni bo'lib tashlar va burdalar edi.

Qanday dahshatli kushxona! Suv sathida qiy-chuv! Qo'rqib ketgan kashalotlarning qattiq chin-qirib nafas olishi! Ulkan dumlar harakatidan hatto suvning hamisha sokin pastki qatlamlari ham junbishga keldi...

Bu qirg'in bir soatdan oshiqroq davom etib, birona kashalot ham omon qolmadi. Kashalotlar bir necha bor o'nta-o'n ikkitadan bo'lib to'dalashib hujumga o'tishar, birlashgan zarba bilan «Nautilus»ni ag'darmoqchi bo'lardilar. Salon derazalaridan dahshatli tishlarini yalang'ochlab, og'izlarini katta ochganlari, g'azab bilan yongan ko'zlari ko'rinib turar edi.

Ned Lend o'zini tutolmay, ularni la'natlar, mushtumini ko'rsatib dag'dag'a qilardi.

Kashalotlar o'rmondagi hayvonni quvib charchatgach, xippa bo'yniga yopishadigan itlar kabi suvosti kemasi bortiga tishlari bilan yopishib olgan edi.

Biroq «Nautilus» na biron og'irlik, na dush-

manlarining zo‘r berib urinishlarini sezardi. U navbatdagi o‘ljasini quvishni bir sekundga ham to‘xtatmay, kashalotlarni yo orqasidan dengiz qa‘riga olib tushar yoki suv sathiga sudrab chiqarar edi.

Nihoyat kashalotlar galasi siyraklashdi. To‘lqin tindi. «Nautilus» suv sathiga ko‘tarildi. Lyuk ochildi va biz shoshilib palubaga chiqdik.

Dengiz burdalab tashlangan nimtalar bilan to‘lgan edi. Bordi-yu, suvda kashalotlar orasida juda katta vayron etuvchi kuchga ega bo‘lgan snaryad portlagan taqdirda ham, u bu katta go‘sh t bo‘laklarini bundan ortiq yorib, burdalab, parcha-parcha qilib tashlay olmas edi. Bir necha milyagacha butun atrofda suv qizil rangga bo‘yalgan va «Nautilus» go‘yo qon okeanida suzayotganday edi.

Kapitan Nemo bizning yonimizga keldi.

– Xo‘sh, mister Lend, bu yog‘iga nima deysiz?– kanadalikka murojaat qildi u.

– Hech narsa deyolmayman, kapitan, – deb javob berdi bu orada zavq-shavqi so‘nib qolgan kanadalik. – Siz bizga juda dahshatli tomosha ko‘rsatdingiz, bu shubhasiz. Ammo men qassob emas, ovchiman, siz bo‘lsangiz bizga kushxonani ko‘rsatdingiz...

– Bu yovuz va yirtqich hayvonlarga keltirilgan qirg‘in edi, – deya e‘tiroz bildirdi kapitan Nemo,– «Nautilus» ham qassob boltasi emas.

– Baribir menga o‘zimning garpunim yaxshi,– dedi kanadalik.

– Har kimning o‘z quroli bo‘ladi, – deb javob berdi kapitan, Ned Lendga tikilib turib.

Men, Ned kapitanga qo‘pol gapirib qo‘ymasin deb qo‘rqib turardim – buning oqibati bizning hammamiz uchun yaxshi bo‘lmas edi. Biroq hartugul, shu daqiqada kanadalikning diqqatini «Nautilus» oldiga suzib borayotgan kit o‘ziga tortib qoldi.



Bu jonivor kashalotlar hujumidan qochib qutulishga ulgurolmay qolgan. Uning janubiy kitligini ko'rib turibman, qop-qora, boshi yanchilgan. Anatomik jihatdan oddiy kitlardan farqi shuki, ularning yettita bo'yin umurtqasi bo'ladi va shimoldagi urug'lariga nisbatan qovurg'asi ikkita ortiqroq.

Sho'rlik kit yonboshlab yotar edi. Qorning an-chagina joylarini kashalotlar jarohatlagandi. U o'lik edi. Qiymalangan suzgichi ostida tirik saqlab qololmagan bolasi yotardi. O'lgan urg'ochi kitning ochiq qolgan og'zidan kit mo'ylovi plastinkalari orasidan irmoqdan oqayotganday shildirab suv tushar edi.

Kapitan Nemo «Nautilus»ni nimta yonida to'xtatishni buyurdi. Ikki matros maxluqning biqiniga chiqib olishdi va men ularning sut beradigan bezlaridan sut sog'ib olayotganlarini ko'rib hayron qoldim. Shunday qilib ular uch bochkani to'latib olishdi.

Kapitan menga hali sovumagan ana shu sutdan bir kosacha ichishni taklif etdi. Men bu taklifni eshitishim bilanoq yuzimni burishtirib, ijirg'anayotganimni yashirolmadim. Ammo u kit suti juda mazali va sigirnikidan sira ajratib bo'lmaydi deb ishontira boshladi.

Totib ko'rdim. Bu sut chindan ham juda ajoyib ekan.

Bu uch bochka sut biz uchun g'oyat bebaho topilma bo'ldi, chunki undan olingan moy va pishloq dasturxonimizdagi oziqamiz xilini ko'paytirdi.

Shu kundan boshlab Ned Lendning kapitan Nemoga borgan sari yov qarash qilayotganini ko'rib xafa bo'ldim va kit ovlovchi biror bema'ni-garchilikka yo'l qo'ymas deb, uni kuzatib yurishga jazm etdim.

## MUZLIKLARDA

«Nautilus» og'ishmay janub tomonga yo'lini davom ettirmoqda edi. U elliginchi meridian bo'ylab katta tezlik bilan suzib borardi. Nahotki, u qutbga cha bormoqchi bo'lsa? Men bunga ishonmas edim, chunki janubiy qutb mamlakatlarida mart shimoliy mamlakatlardagi sentabrga, ya'ni kuzning boshlariga to'g'ri keladi.

14-martda uzunlikning 55-gradusida men birinchi marta oqar muzni ko'rdim. Bu uzunligi yigirma-yigirma besh futli chog'roq, ko'kish muz bo'laklari bo'lib, dengiz to'lqinlari ularga qarsillab urilib, parchalanib ketar edi.

«Nautilus» okean sathida suzib borar edi. Qutb dengizlarida tez-tez bo'lib turgan Ned Lend ilgari ham oqar muzlarni bir necha bor ko'rgan edi. Konsel bilan men bu manzarani birinchi ko'rishimiz.

Ufqda ko'zni qamashtiradigan oq chiziq tortildi. Ingliz kit ovlovchilari buni «muz jilvasi» deyshadi. Bulutlar qanchalik qalin bo'lmasin, uni to'sisholmasdi. Bu chiziq oldinda muz yalangligi borligidan darak berardi.

Darhaqiqat, ko'p o'tmay kattaroq muz parchalari paydo bo'lib, ularning jilosi atmosfera holatiga qarab goh kuchayar, goh susayar edi. Ayrim suzar muz tog'lari – aysberglarning yonlarida misga oltingugurt kislotasi tekkan kabi yashil chiziqlar bor edi. Boshqa bir xil muz parchalari ulkan ametistlar<sup>1</sup> singari naryog'i ko'rinadigan darajada tiniq edi. Uchinchilari quyosh nurlarini o'zining ming bir qirralari bilan jilolantirardi. Nihoyat, ustidagi qor bilan oqayotgan to'rtinchilari butun shahar qurili-

<sup>1</sup> *Ametist* – binafsharang, qimmatbaho tosh.

shiga yetadigan darajada ulkan marmar bo'laklariga o'xshar edi.

Janubga kirib borgan sari biz suzar muzlarni ko'proq uchrata boshladik, ayrim muz parchalari va aysberglar tobora yiriklashar edi. Arktika qushlari ularda o'ziga minglab in qurib olgan edilar.

Bular o'zlarining qiy-chuvlari bilan quloqlarimizni qomatga keltirayotgan tentakqushlar, bo'ron qushlari, puffinlar edi. Ulardan ba'zi birlari «Nautilus»ni kit nimtasi deb o'ylab, uning palubasiga qo'nib olib, tumshuqlari bilan tunukani daranglatib ura boshladilar.

Muzliklar orasida hozirgi suzib borishimizda kapitan Nemo palubaga tez-tez chiqar va uzoq turib qolar edi... U bu kimsasiz, bo'm-bo'sh joylarni zo'r diqqat bilan ko'zdan kechirar edi. Men uning odatdagi sovuq nigohi ba'zan jonlanib ketganini ko'rar edim. Balki u o'sha damlarda inson qadami yetmagan shu qutb suvlarida tanho o'zi hukmron ekani ni o'ylayotgandir? Ehtimol, shundaydir. Biroq u bu haqda ovoz chiqarib gapirmas edi. U soatlab qimir etmay turar va muzlar «Nautilus»ni o'rab olib, bu tuzoqdan chiqish zarur bo'lib qolgandagina, uyqudan uyg'onganday o'ziga kelar edi.

O'shanda u o'zi shturvalda turib «Nautilus»ni mahorat bilan boshqarar, muz maydonlari va tog'lariga chap berib o'tar edi. Ulardan ba'zilari, suv sathiga yetmish-sakson metrga chiqib turadiganlarining uzunligi bir necha milyaga cho'zilib ketgan edi.

Ko'pincha «Nautilus» yo'lini yaxlit muz devori to'sib qo'yar edi. Ammo kapitan Nemo zudlik bilan torgina yoriq topib olib, ketidan darhol yopilib qolishini bilsa-da, unga dadil kirib ketar edi.

Shunday qilib, o'z kapitanining mohir qo'li bilan

boshqarilayotgan «Nautilus» abadiy muzliklar orasidan ilgarilab borar edi.

Muzlarni uning shakli hamda hajmiga qarab aniq tasniflash mumkinligi Konselga juda ma'qul tushdi va u bu ishni tezda o'zlashtirib oldi: aysberglar yoki muz tog'lari; aysfildlar yoki muz yangligi; drayftays yoki suzar muzlar; peklar yoki muz bo'tqasi.

Havoning harorati ancha past edi: simob ustunchasi noldan yuqori ikki-uch xonadan nariga ko'tarilmas edi. Ammo ustimizda po'stin bo'lgani uchun sovqotmas edik. «Nautilus»ning ichidagi havo tashqaridagi sovuqdan qat'i nazar, elektr pechlar yordamida mo'tadil haroratda edi.

To'satdan pechlar ishlamay qolgan taqdir-da ham mo'tadil harorat vujudga keltirish uchun «Nautilus»ning bir necha metr suvga sho'ng'ishi kifoya.

Agar biz bu yerlarga bir oy ilgari kelganimizda edi, quyoshning kechasi-yu kunduzi sira botmay turishini ko'rardik. Biroq biz kechikkan edik, tun uch-to'rt soat vaqt olar va keyinchalik bu qutb yerlariga olti oy soya tashlab turish uchun u har kechakunduzda uzayib borar edi.

Biz 15-martda Yangi Shetland va Janubiy Orkney orollari joylashgan parallelni kesib o'tdik. Kapitani Nemoning aytishicha, yaqin-yaqinlargacha bu yerlar behisob tulenlarga boshpana bo'lgan, ammo Angliya va Amerika sanoatchilari o'zlarining boylik orttirish yo'lidagi ko'r-ko'rona hirslarini qondirish maqsadida urg'ochisini ham, narini ham, bolalarini ham qirib tashlashdi, ana endi bu yerlar qabriston-day huvullab yotibdi.

16-martda ertalab soat sakkizga yaqin «Nauti-

lus» ellik beshinchi meridian bo'ylab suzib borib, Janubiy Qutb doirasini kesib o'tdi.

Chor atrofimizni muzliklar o'rab, ufq ham to'silib qoldi. Shunga qaramay kapitan Nemo yoriq ketidan yoriq izlab, o'tadigan joy topar va janub tomon suzishni davom ettirar edi.

– U bizni qayoqqa olib boryapti? – deb o'z-o'zimdanda ovoz chiqarib so'radim.

– Boshi oqqan tomonga, – deb javob berdi menga Konsel. – Boradigan yo'l qolmagach, to'xtaydi.

– Bunga kafil bo'lolmayman, – javob berdim men.

Gapning ochig'i bu xatarli suzish menga ma'qul edi. Bu muz sahrosi naqadar ajoyib manzara kashf etganini so'z bilan ifodalay olmayman. Bu yerdagi muzlar sira kutilmagan shakllar hosil etgan edilar. Ba'zan muz maydoni son-sanoqsiz masjidlar va nayza uchli minoralari bo'lgan katta sharq shahriga o'xshab ketar edi. Boshqa bir joyda esa muzliklar zilziladan qulagan shahar vayronalarini eslatar edi. Biroq quyosh ufq tomon pastroqqa tushib, tik nurlar qiyalashgach, muzliklar manzarasi sehrlangan kabi tanib bo'lmas darajada o'zgarar edi. Quyosh bulut ortiga yashirinib, muzlarni tuman qoplaganda yoki ikki muz bo'lagi bir-biriga urilib, mingta to'p otilganday gumburlaganda, bu afsonaviy spektakl manzarasi yanada tezroq o'zgarar edi.

Bunday to'qnashuv paytida «Nautilus» dengiz ostida bo'lsa, ovoz suv orqali yanada kuchliroq eshitilar, ulkan muz bo'laklari tushganda suvni to'lqinlantirib, xavfli girdoblar hosil etar edi. Bunday kezlarda «Nautilus» suv ustida suzadigan oddiy kema qattiq bo'ronda uchraydigan holatga tushib, to'lqinlar uni chayqatar va irg'itib tashlar edi.

Ko'pincha muzlar orasida zarracha ham yoriq

koʻrmaganimda, muzliklar orasida qolib ketdik, deb oʻylar edim. Ammo kapitan Nemo oʻzidagi tabiiy tuygʻu tufayli yangidan yangi oʻtish joylarini topardi. U sira adashmas edi; aysberglar yon bagʻirlarida oqadigan ingichka koʻkish suv jilgʻasi unga koʻrsatkich vazifasini oʻtar edi. Shuning uchun u qutb dengizlarida birinchi bor suzayotgani yoʻq, degan qarorga keldim.

Biroq 16-martda kechga yaqin muzlar yoʻlimizni tamoman toʻsib qoʻydi. Bu hali abadiy muzliklar mintaqasi emas, balki yax qoplangan muz maydoni edi, xolos. Toʻsiq kapitan Nemoni toʻxtatolmadi. Uzoqdan kema tezligini oshirib kelib, katta kuch bilan muz devorni borib urdi. «Nautilus» pona kabi moʻrt muz orasiga kirdi va uni qarsillatib parcha-parcha qilib tashladi. Bu yerda qadimiy taran<sup>1</sup> usuli qoʻllanildi, ammo hozirgi taran kuchining nihoyasi yoʻq edi. Koʻkka koʻtarilgan muz parchalari atrofimizga doʻlday yogʻildi. Zarb shu qadar kuchli boʻldiki, kema oldida oʻsha zahoti yoʻl ochildi.

Baʼzan «Nautilus» tez suzib kelib oʻz inersiyasi bilan muz maydoni ustiga chiqar va ogʻirligi bilan uni sindirar edi. Bunda ham pirovard-natijada muz ikki tomonga chekinib, hosil boʻlgan boʻgʻozdan ilgari ketar edik.

Shu kunlarda biz tez-tez qattiq boʻronga duch kelib turdik. Baʼzan muzlarni shu qadar qalin tuman qoplardiki, palubaning bir yogʻidan ikkinchi yogʻi koʻrinmas edi. Shamol juda beqaror esardi. Tunda yogʻgan qor ertalabgacha zarang boʻlib qolar, unga bel oʻtmaganidan choʻkich bilan tozalashga toʻgʻri kelardi.

Havo harorati noldan besh daraja pastga tush-

---

<sup>1</sup> *Taran* – qadimgi urushlarda qoʻrgʻon va qalʼa devorlarini agʻdarish uchun ishlatilgan nayzali yogʻoch qurol.

ganda «Nautilus» palubasini qalin muz qatlami qoplar edi. Yelkanli kema bu yerlarda butun blok va talyalari muzlab qolib, suzolmagan bo'lardi. Bunaqa baland kengliklarda elektr kuchi bilan harakatga keltiriladigan kemagina suza olishi mumkin.

Barometr bosim pastligini ko'rsatar va undan yanada pastlashishga moyilligi bilinib turar edi. Kompas ko'rsatkichlariga sira ishonch qolmadi.

Janubiy magnit qutbiga yaqinlashgan sari kompasning jonsarak mili aql bovar qilmaydigan yo'nalishlarni ko'rsatar edi. Darhaqiqat, Gastening aniqlashicha, janubiy magnit qutbi kenglikning 70-gradus va uzunlikning 130-gradusida joylashgan. Dyuperey esa boshqacharoq koordinatlarni hisoblab chiqdi – kenglikning 70-gradus 30-minuti va uzunlikning 135-gradusi. Yo'nalishni aniqlash uchun endi kompasni kemanding turli burchaklariga olib borish, bir necha bor kuzatuvlar o'tkazish va shu yo'l bilan olingan o'rtacha raqamni to'g'ri deb topish kerak bo'lib qoldi.

Ba'zan kema qayerda ketayotganini faqat lag ko'rsatkichlariga asoslanib kartaga tushirilar edi. Ilon izi bo'lib ketgan o'tish joylarida kema yo'nalishini minut sayin o'zgartirib turishga to'g'ri kelganidan bu usul, albatta, haqiqatdan uzoqroq edi.

18-martda o'zi yo'l ochaman deb yigirma martacha uringanda ham muvaffaqiyatsizlikka uchragach, «Nautilus» tamoman muzlar orasida qolib ketdi. Bu endi na muz bo'tqasi, na suzar muz va hatto na muz maydoni, balki bir-biriga chatishib muz tog'ini barpo qilgan, qimir etmaydigan o'tib bo'lmas to'siq edi.

– Uzluksiz yaxlit muz, – dedi menga kanadalik.

Ned Lend ham boshqa qutb dengizchilari sin-

gari bu to'siqni o'tib bo'lmas deb o'ylayotganini tushunib turibman. Peshinda bir necha minutgina quyosh ko'ringanda kapitan Nemo aniq hisob chiqarib oldi. Biz uzunlikning 51-gradus 30-minutida va janubiy kenglikning 67-gradus 39-minutida suzar edik. Ko'rib turibmizki, «Nautilus» Antarktikaning ancha ichkarisiga kirib borgan edi.

Oldimizda ham, orqamizda ham endi ochiq suv ko'rinmas edi. «Nautilus» turli shakldagi muz parchalari tog'-tog' uyulib yotgan yalanglik bilan o'rab olingan bo'lib, bu manzara daryo muzi yorilishi arafasidagi tartibsizlikni eslatar, faqat u ko'lam jihati-dan juda ulkan edi. Unda-bunda balandligi ikki yuz fut va undan ham ortiqroq nayza uchli muz tepaliklari ko'zga tashlanar edi. Undan nariroqda kulrang tuman tutuni qoplagan tikka muz qoyalari tizilishib turardi. Ana shu qayg'uli manzara ustiga bu yerda sukunat hukmronligini bo'ron qushlarining qattiq qichqirishlari va qanot qoqishlarigina buzib turar edi. Bu yerda hamma narsa o'likday bo'lib tuyular edi...

«Nautilus» o'zining mardona suzishini xuddi ana shu yerda to'xtatishga majbur bo'ldi!

– Bilasizmi, janob professor, – dedi menga o'sha kuni Ned Lend, – agar kapitanimiz bu g'ovdan ham o'tishga muvaffaq bo'lsa...

– Unda nima bo'ladi, Ned?

– Unda u chinakam shovvoz!

– Nega?

– Chunki bu qalin muzlikni hech kim yorib o'tgan emas. Kapitaningiz kuchli odam, bunga shak keltirmayman. Ammo ming la'nat! – tabiatdan kuchliroq bo'lmasa kerak! Bu yerda tabiat o'tib bo'lmas g'ov qo'ygan ekan, u xohlasa, xohlamasa to'xtashga majbur bo'ladi.



– Gaplaringizda jon borga o‘xshaydi, mister Lend... Ammo har holda shu muzlar ortida nima borligini juda bilgim kelyapti. Bu devor g‘ashimga tegyapti!

– Xo‘jam haqlar, – dedi Konsel. – Devorlar olimlarning g‘ashini keltirish uchun atayin yaratiladi. Agar mening qo‘limda bo‘lganida yer yuzidagi butun devorlarni buzib tashlar edim!

– Safsata, – deb javob berdi kanadalik. – Bu devor ortida nima borligini men juda yaxshi bilaman.

– Nima bor? – so‘radim men.

– Muz, faqat muz! – javob berdi kanadalik.

– Bunga ishonchingiz komilmi, Ned? – deya e‘tiroz bildirdim men. – Ammo men bunga ishonmay turibman. Shuning uchun ham janub tomon yurish davom etishini istayman.

– O‘zingizga jabr, janob professor, – javob berdi Ned Lend. – Hali bu fikringizdan qaytasiz. Biz uzluksiz, yaxlit muz chegarasiga kelib yetdik – shuning o‘zi kifoya. Bundan u yog‘iga siz ham, kapitan Nemo ham, «Nautilus» ham bir qadam siljiy olmay-sizlar. Siz buni istaysizmi, istamaysizmi, baribir biz shimolga, ya‘ni haqiqiy odamlar yashaydigan joylarga qaytamiz.

Ned Lend bir masalada haqligini e‘tirof etishim kerak: kemalar muzliklar maydoni bo‘ylab suzishni o‘rganmagunlariga qadar ular uzluksiz yaxlit muzliklar oldida to‘xtab qolishga majbur bo‘ladilar.

Darhaqiqat, harakat qilinayotgani, muzni yorishga jon-jahdi bilan urinayotganiga qaramay, «Nautilus» qimirlamay joyida qolaverdi.

Odatda oldinga yurolmagan kema orqaga qaytadi. Biroq bu yerda olg‘a yurish mumkin bo‘lmaganidek, orqaga qaytishning ham iloji yo‘q, chunki orqamizdan butun o‘tish joylari birlashib qolgan

edi. Bordi-yu kemamiz yana biroz vaqt harakatsiz tursa, muzga yopishib yaxlab qolishi aniq edi.

Tushdan keyin soat ikkiga yaqin bu xavf ayon bo'la boshladi: suvning «Nautilus» turgan muzlamagan joyini juda tez yax qoplay boshladi. Shunga iqrор bo'lishim kerakki, kapitan Nemoning bu ishi endi menga o'ta ehtiyotsizlikday tuyula boshladi.

Shu paytda men palubada turgan edim. Paydo bo'layotgan yupqa muz qatlamini bir necha minut davomida kuzatib turgan kapitan menga savol berdi:

– Bizning bu turishimiz haqida qanday fikrdasiz, janob professor?

– Shu yerda yaxshigina tiqilib qoldik, deb o'ylayman, kapitan.

– Tiqilib qoldik? Bu nima deganingiz?

– Bu shu deganimki, biz na oldinga, na orqaga, na o'ngga, na chapga yura olamiz. Bu holat madaniylashgan mamlakatlarda «tiqilish» so'zi bilan ifodalanadi.

– Demak, siz «Nautilus» bu yerdan chiqib ketolmaydi, deb o'ylayotgan ekansiz-da?

– Men bunga unchalik ishonmayman, kapitan. Ammo hamma gap shundaki, Antarktika qishi arafasida muzlarning ko'chishiga umid qilib bo'lmaydi.

– Eh, professor, g'oyalaringizga sodiqsiz, – dedi kinoya bilan kapitan Nemo. – Ko'z o'ngin-gizga nuqul to'sig'-u g'ov kelaveradi! Ijzatingiz bilan sizga shuni aytmoqchimanki, «Nautilus» muz halqasidan chiqib ketibgina qolmay, balki hali olg'a ham yuradi!

– Janub tomonga qarab-a? – so'radim men ko'zimni kapitan Nemoga tikib.

– Ha, janob professor, u qutbning o'zginasigacha boradi!

– Qutbga?! – qichqirib yubordim men bunga ishonmayotganimni yashirolmay.

– Ha, – deya sovuqqina tasdiqladi kapitan. – Janubiy qutbga, yer yuzining barcha meridianlari kesishadigan o'sha sirli joyga. Nimani xohlasam, «Nautilus»ni shunga majbur qilishimni bilasiz-ku!

Ha, buni bilar edim. Bu odam aql bovar qilmaydigan darajada jasoratli ekanligi ham menga ayon edi. Shimoliy qutbga nisbatan borish ancha qiyinligini hisobga olganda Janubiy qutb yo'lini to'sib turgan son-sanoqsiz g'ovlarni yengishga urinishni faqat telba kishilardangina kutish mumkin.

Axir eng jasur, eng tajribali dengizchilar ham Shimoliy qutbgacha yetaman deb behuda urinib, yo mag'lubiyatga uchrab qaytganlar yoki halok bo'lganlar.

Men kapitan Nemodan: «Hali inson oyog'i tegmagan bu qutbni ilgari ochganmidingiz?» deb so'radim.

– Yo'q, – deb javob berdi u. – Biz uni birga ochamiz. Boshqalar qilolmagan ishni men qilaman. Men hali hech qachon «Nautilus»da janub tomon shu qadar uzoqqa kirib kelmagan edim; ammo yana qaytarib aytaman, biz hali yana olg'a yuramiz, qutbgacha yetamiz!

– Gaplaringizga ishonishga harakat qilaman, kapitan, – javob berdim men kinoya bilan. – Sizga ishonaman. Olg'a boraveraylik! Yo'limizni hech narsa to'sa olmaydi! Bu uzluksiz yaxlit muzlarni parchalab tashlaymiz! Portlatamiz, bo'ysunmasa uning ustidan uchib o'tish uchun «Nautilus»ga qanot taqamiz!

– Muz ustidan deysizmi, janob professor? – osoyishta javob berdi menga kapitan Nemo. – Yo'q, nega endi? Biz, yaxshisi, muz ostidan o'tamiz!

– Muz ostidan?! – xitob qildim men.

To'satdan umid chirog'i yonganday bo'ldi. Kapitan Nemo nimani mo'ljallayotganini tushundim. «Nautilus»ning mo'jizakor fazilati kapitan Nemoga yana bir marta xizmat qilishi kerak edi!

– Bir-birimizni tushuna boshlaganimizni ko'rib turibman, – deya so'z boshladi kulib kapitan. – Nazarimda siz bunga urinib ko'rish mumkinligiga shubhalanyapsiz. Mening esa bu ishning muvaffaqiyat bilan amalga oshirilishiga ishonchim komildir. Oddiy kema qilolmaydigan ishni «Nautilus» osongina bajaradi. Bordi-yu, qutb yonida qit'a uchrab qolsa, u to'xtaydi. Ammo aksincha, okean bo'lsa, unda biz qutbning o'zigacha boramiz!

– Darhaqiqat, – deya javob berdim men kapitanning mulohaza bilan aytgan gaplarini o'ylab turib, – agar okean sathini muz qoplagan bo'lsa, uning pastki qatlamlari muzlamaydi. Xato qilmasam – muzning suvga botib turgan qismi dengiz sathidagiga nisbatan ortiq, ya'ni suvostini to'rt-u, sathidagina bir deb faraz etsa bo'ladimi?

– Ha, janob professor, ularning muvozanati deyarli shunday: Dengiz sathiga chiqib turgan aysbergning har bir futiga suvga botib turgan uch futi to'g'ri keladi. Demak, bu muz tog'lari okean sathiga yuz metrdan ortiq chiqmagani uchun ular suvga nari borsa uch yuz metr cho'kib turadi. «Nautilus» uchun uch yuz metr chuqurlikka sho'ng'ish cho't bo'libdimi?

– Cho't emas!

– Bugina emas, biz yanada chuqurroqqa, barcha kengliklarda ham harorat bir me'yorda saqlanadigan suv qatlamlariga tusha olamiz va u yerdan turib ochiq havodagi o'ttiz-qirq daraja sovuqni kalaka qilgandek bema'lol yurishimiz mumkin!

– Siz haqsiz, kapitan, mutlaqo haqsiz! – deya xitob qildim men.

– Biz yengishimiz lozim bo‘ladigan birdan bir qiyinchilik shuki, – deya so‘zini davom ettirdi kapitan Nemo, – havo zaxirasini yangilamay surunkasiga bir necha sutka davomida suv ostida turishimiz mumkin.

– Faqat shuning o‘zimi? – e’tiroz bildirdim men.

– «Nautilus»da anchagina katta hajmdagi rezervuarlar bor. Ularga havo to‘latamiz va bu bizni yetarli miqdorda kislorod bilan ta‘minlaydi!

– Juda soz, janob professor, – deya yana kulib qo‘ydi kapitan. – Yana bir shubhaga solayotgan masala ustida siz bilan maslahatlashib olishga ruxsat bersangiz, chunki keyin meni telbalikda ayblashingizni istamayman.

– Nimadan shubhalanyapsiz? – so‘radim kapitan Nemo.

– Qutbdagi dengiz, agar u yerda dengiz bo‘lsa, tamoman muz bilan qoplangan bo‘lishi mumkin va, binobarin, biz uning sathiga chiqa olmaymiz.

– Nima deyapsiz, kapitan! Nahotki, siz «Nautilus»ning qoziq tishi borligini unutgan bo‘lsangiz! Siz uni diagonal bo‘ylab to‘g‘rilab, muz ostidan urasiz va osongina yo‘l ochiladi.

– Qarang-a, janob professor, bugun sizni tanib bo‘lmayapti.

– Ammo kapitan, – deya borgan sari hayajonim oshib so‘zimni davom ettirdim men, – nega endi Janubiy qutbda biz muzlamagan dengizni uchratmas ekanmiz? Sovuqlik qutblari janubiy yarim sharda ham, shimoliysida ham yer qutblari bilan to‘g‘ri kelmaydi. Binobarin, buning aksi isbotlanmagan ekan, yer sharining bu ikki bir-biriga qarama-qarshi

nuqtalarida muzlamagan dengizlar yoki yer mavjud deb faraz etishga haqlimiz.

– Men ham shu fikrdaman, janob professor, – deb javob berdi kapitan Nemo. – Faqat bir narsaga e'tibor beryapsizmi, loyihamga qarshi e'tirozlarimni shunchalik inkor qildingizki, o'zim ham unga yon bosishga majbur bo'lyapman.

Kapitan Nemo haq gapni aytdi. Endi jasorat bobida u bilan bellashayotgan edim. Janub tomon suzishga endi men uni undayotgan edim. Hatto men undan ham oshib ketdim...

Yo'q, yo'q, birpas sabr qil, tentak! Kapitan Nemo «borish» yoki «bormaslikning» hamma tomonlarini allaqachon o'ylab qo'yan va endilikda orzularga g'arq bo'lib, tap tortmay, o'zimni har tomonga urayotganimni ko'rib, meni ermak qilayotgan edi.

Bu orada kapitan Nemo bekor turmadi. Palubaga yordamchisini chaqirib, u bilan noma'lum tilda so'zlashdi. Yordamchi kapitan rejalarini oldindan bilganidanmi yoki bu topshiriqning bajarilishida hech qanday to'siq ko'rmaganidanmi, har holda uning yuzida hatto ajablanish ifodasi ham sezilmadi.

Ammo u qanchalik sovuqqon bo'lmasin, men sodiq do'stlarimga kapitan Nemoning qutbga borish niyatini aytganimdagi Konselning beparvo holatidan o'tolmas edi. Osoyishtalik bilan «xo'jam shuni istasalar» deyishi bu dovyurak odamning birdan-bir javobi bo'ldi va men undan boshqa hech narsa bilolmadim. Ned Lendga kelganda, bu tamoman boshqa gap: mening gaplarimni eshitgach, yelkani kanadalik ko'targan darajaga yetkazish amrimaholdir.

– Bilasizmi, janob professor, – dedi u, – siz va kapitaningiz Nemoga rahmim kelyapti.

– Ammo tushunsangiz-chi, axir, biz qutbga boramiz, qutbga-ya!

– Ehtimol, borishingiz mumkindir, ammo shuni bir bilingki, u yerdan qaytib kelolmaysiz!

Ned Lend shunday dedi-yu, kayutasiga ketdi. «Biror kor-hol qilib qo‘ymay», dedi u eshikni yopar ekan.

Bu orada «Nautilus» ekspeditsiyasiga hozirlik ko‘rishga kirishdi. Dvigatel harakatga keltirgan kuchli nasoslar rezervuarlarga katta bosim bilan havo joylay boshladi.

Tushdan keyin soat to‘rtlarda kapitan Nemo menga hozir lyuk yopilishini aytdi. Men yo‘limizga g‘ov bo‘lib turgan uzluksiz yaxlit muzliklarga so‘nggi bor nazar tashladim. Havo ochiq, osmonda bulut ko‘rinmasdi. Sovuq ancha baland – noldan o‘n ikki daraja past edi, ammo shamol bo‘lmagani uchun bu sovuq uncha bilinmasdi.

Matroslardan o‘ntachasi qo‘llarida cho‘kich bilan palubaga chiqishdi va «Nautilus» atrofidagi muzni urib yora boshlashdi.

Matroslar kemani tezgina bo‘shatib olishdi, chunki muz hali qalinlashmagan edi. Biz hammamiz kema ichiga tushib olganimizdan keyin lyukni yopishdi va «Nautilus» sekin suvga sho‘ng‘idi.

Men Konsel bilan birga salonga kirdim. Biz deraza yonida o‘tirib, Janubiy Muz okeani suvlarining ostki qatlamlarini tomosha qila boshladik. Tashqi muhit haroratini o‘lchaydigan termometr simobi tez ko‘tarila boshladi, manometr mili asta o‘ngga surilar edi.

Kapitan Nemo bashorat qilganiday, uch yuz metr chuqurlikda suv muzdan xoli edi. Ammo «Nautilus» sakkiz yuz metrgacha sho‘ng‘idi. Bu yerda suv ha-

rorati sathdagidan ikki darajada baland edi. O'z-o'zidan ayonki, elektr pechlari vositasida isitilayotgan «Nautilus» ichidagi harorat tashqi haroratdan qat'i nazar, hamisha bir me'yorda turar edi.

«Nautilus» barcha manevrlarni avvalgidan ham itoatkorlik va aniqlik bilan bajarar edi.

– Xo'jamning ruxsatlari bilan shuni aytmoqchimanki, menimcha, biz eson-omon o'tib olamiz, – dedi Konsel.

– Umidimiz ham shu, – deb javob berdim men qat'iyat bilan.

«Nautilus» muzdan xoli bu chuqurlikda ellik ikkinchi meridian bo'ylab to'g'ri qutbga yo'l tuta-yotgan edi. 67-gradus 30-minutdan 90-gradusgacha yigirma ikki yarim gradus yoki ikki ming kilometrdan oshiqroq yo'l bosish kerak edi. «Nautilus» soatiga taxminan ellik kilometr, ya'ni tezyurar po-yezd tezligida suzayotgan edi. Agar yo'lda to'xtab qolmasa, u qirq soatdan biroz ortiqroq vaqt ichida qutbga yetishi kerak.

Yangi manzara paydo bo'lganidan men bilan Konsel tunning bir qismini deraza yonida o'tkazdik. Projektor suvni juda yaqqol yoritayotgan edi. Biroq dengiz bo'm-bo'sh. Muz qoplangan bu suv-larda baliq yashamas edi.

«Nautilus»ning tez suzayotgani korpusining ti-nimsiz zirillashidagina sezilayotgan edi.

Tungi soat ikkiga yaqin kayutamga kirib bir necha soat uxlab olishga qaror qildim. Konsel ham uxlashga ketdi. Yo'lakdan o'tib kayutamga kira-yotganda kapitan Nemoni uchratmadim. U shtur-val hujrasida navbatchilik qilayotgan bo'lsa kerak.

Keyingi kuni, 19-martda, ertalabdanoq men yana salon derazasi yonidagi kuzatuv postimni egallab oldim. Elektr lag «Nautilus»ning oddiy tezlikda su-



zayotganini ko'rsatib turar edi. U endi dengiz sathiga birdaniga emas, balki o'z rezervuarlarini oz-ozroq bo'shata borib, asta ko'tarilar edi.

Yuragim tez-tez ura boshladi. Dengiz sathiga chiqa olarmikanmiz? Muzdan xoli joy toparmikanmiz?

Yo'q, yo'q, shoshmay tur! «Nautilus» bir tur-tinib, uzluksiz yaxlit muz sathining tagiga borib urilganini sezdim, ovozning chiqqan bo'g'iqligiga qaraganda, qalin muzga taqalgan edik. Darhaqiqat, manometr ko'rsatkichlari ham bu taxminning to'g'riligini ifodalardi – biz bir yarim ming fut suv ostida edik. Demak, tepamizda qalinligi ikki ming fut keladigan muz qatlami bo'lib, uning besh yuz futi dengiz sathiga ko'tarilgan! Binobarin, bu yerdagi uzluksiz yaxlit muz suvga sho'ng'igan yeridagimizdan qalinroq edi. Demak, tasalli beradigan biron narsa yo'q edi!

«Nautilus» kun bo'yi sathga chiqish uchun bir necha bor urinib ko'rdi, ammo har gal qalin muz shipga duch kelardi. Ayrim joylarda bu «ship» to'qqiz yuz metr chuqurlikkacha borar, ya'ni muz qatlamining qalinligi bir ming ikki yuz metrga yetib, shundan uch yuzi dengiz ustiga chiqib turar edi. Endi bunisi biz suvga sho'ng'igan paytdagi aysberglarning eng balandidan ham uch baravar ortiq edi! Men aysberglar uchi joylashib olgan joygacha bo'lgan chuqurlikni diqqat bilan o'lchardim va shu yo'l bilan bu to'ntarilgan suvosti tog' tizmasining oddiy xaritasini tuzar edim.

Kechga borib ham ahvolimiz o'zgarmadi. Soat sakkizlar chamasi edi. «Nautilus» havo zaxirasini odatda belgilanganicha bundan to'rt soat oldin yangilab olishi kerak edi. Biroq kapitan Nemo zaxira rezervuarlardan hali bir litr ham kislorod chi-

qarmaganiga qaramay, nafas olishda hech qanday qiyinchilik sezilmas edi.

Shu kecha yaxshi uxlay olmadim. Bir yoqdan umid va ikkinchi yoqdan tashvish meni hayajonlantirar edi. Bir necha bor o'rnimdan turdim. «Nautilus» hamon chiqishga yo'l axtarar edi. Tunda soat uchga yaqin salonga chiqdim va manometrغا qarab, muz qoplamaning ostki sathi ellik metr chuqurlikda o'tayoganini ko'rdim. Uzlüksiz yaxlit muz asta-sekin aysfildga – muz maydoniga aylanib borar edi. Suvosti tog'lari o'rnini suvosti tepaligi egallab olgan edi.

Men manometrdan ko'z uzmas edim. Biz projektorimiz nurida ming xil tovlanayotgan qiya muz sathi ostida diagonal bo'ylab muttasil ko'tarilib borar edik.

Bosib o'tilgan har bir kilometr dan keyin uzlüksiz yaxlit muz qatlami tobora yupqalashib borar edi.

Nihoyat, shu unutilmas kun, 19-martda ertalab soat oltida salon eshigi ochilib, ostonada kapitan Nemo paydo bo'ldi.

– Dengiz bo'm-bo'sh! – dedi u.

## *O'n to'rtinchi bob*

### JANUBIY QUTB

Men palubaga yugurdim.

Ha! Dengiz bo'm-bo'sh edi. Faqat unda-bunda ayrim muz parchalari va aysberglar suzar edi. Janub tomon ichkariroqda esa tamoman muz yo'q edi. Minglab qushlar havoda parvoz etib yurishar va to'q ko'kdan tortib zaytun rangligigacha bo'lgan turli rangdagi baliqlar to'lqinlarda g'ujg'on o'ynashardi. Selsiy termometri noldan yuqori uch darajani ko'rsatib turar edi. Ufqdan narigi tomonda arang

ko'zga chalinayotgan uzluksiz yaxlit muzliklardagi sovuqlar oldida bu bahor havosiday gap edi.

– Biz qayerdamiz? – so'radim kapitandan. Yuragim gupullab urib turar edi. – Qutbdami?

– O'zim ham bilmayman, – deb javob berdi u. – Peshinda quyosh balandligiga qarab qayerda suzayotganimizni aniqlab olaman.

– Ammo shunday tumanda quyosh ko'rinar-mikin? – bulut qoplagan osmonga qarab ishonchsizlik bilan so'radim men.

– Yarim minutgina mo'ralasa bas, shuning o'zi kifoya, – deb javob berdi kapitan. Janub tomonda «Nautilus»dan o'n milya narida dengiz sathidan ikki yuz metrcha balandlikda yolg'iz orol ko'zga tashlanib turardi. Biz o'sha tomonga yo'l tutdik, dengizda qoyalar bo'lishi mumkinligini hisobga olib, juda sekin suzar edik.

Bir soatdan so'ng biz orolning o'ziga yetib oldik. Ikki soat davomida uni aylanib chiqdik. Orol sohili to'rt-besh milya kelar edi. Torgina bo'g'oz uni allaqanday yerdan ajratib turar edi. Ehtimol, bu yangi, noma'lum qit'adir. Bu yerning mavjudligi bilan Mori taxminining to'g'riligi tasdiqlanganday bo'ldi. O'tkir zehnli olim Janubiy qutb bilan oltmishinchi parallel oralig'ida dengiz shimoliy yarim sharda sira uchramaydigan darajada ulkan suzar muzlar bilan qoplanganligiga diqqatni jalb etgan edi. Ana shu kuzatuvdan u Janubiy qutb doirasida qandaydir qit'a bor, degan xulosaga kelgan edi. Chunki aysberglar dengizda emas, balki faqat yerdagina hosil bo'la oladi. Morining hisobicha, Janubiy qutbni o'rab olgan yaxlit muzlar diametri to'rt ming kilometrli keng halqani tashkil etadi.

Shu orada «Nautilus» sayozlikka tiqilib qolmaslik uchun juda ulkan qoya chiqib turgan so-

hildan uch kabeltcha berida to'xtadi. Qayiq suvga tushirildi. Kapitan, asbob-uskunalarni ko'tarib olgan ikki matros, Konsel va men unga o'tirib oldik. Vaqt ertalab soat o'nlar chamasi edi.

Bugun hali Ned Lendni ko'rmagan edim. Aftidan, kanadalik o'zining mag'lub bo'lganini tan olgisi kelmas edi.

Eshkaklar bir necha bor eshilgach, qayiq qumloq sohilga kelib to'xtadi.

Konsel sohilga sakrab tushmoqchi bo'lib turgan edi, ammo men uni to'xtatdim.

– Kapitan Nemo, – dedim men, – bu yerga birinchi bor qadam qo'yish sharafi sizga muyassar bo'lmog'i kerak!

– To'g'ri aytasiz, janob professor, – deb javob berdi kapitan. – Aytganingizni ikkilanmay bajo keltiraman, chunki aminmanki, mengacha bu yerga hech qachon inson oyog'i tegmagan!

U shu so'zlarni ayta turib, qum ustiga yengil sakrab o'tdi. Kuchli hayajon, aftidan, uning yuragini tez urishga majbur etgan edi. U qoya ustiga chiqqida, qo'lini ko'kragi ustiga chambarak qilib olib, qimirlamay jimgina chaqmoq ko'zlari bilan shu qutb yerlarini qabul qilib olayotganday qarab turardi. Shu holatda bir necha minut turgach, bizga qarab qichqirdi:

– Marhamat, janoblar, yerga tushinglar!

Men o'sha zahotiyuq sohilga sakrab tushdim. Ketimdan Konsel ham tushdi. Matroslar qayiqda qolishdi.

Yer qizg'ish tufdan<sup>1</sup> iborat bo'lib, ustidan tuyilgan tosh yoyib qo'yilganday edi. Uning ustini o'chib qolgan lava oqimlaridan qolgan tosh qoyalari, jilvir tosh parchalari qoplagan edi.

---

<sup>1</sup> Tuf – binokorlikda ishlatiladigan toshning xili.

Orolcha, shubhasiz, vulqon otilishidan hosil bo'lgan edi. Ba'zi joylarda yer ostidan kuchli oltin-gugurt hidini anqitib tutun chiqarib turar edi. Bu yer ostidagi olov hali so'nmagani dalolat berar edi.

Bu meni sira ajablantirgani yo'q, chunki Jems Ros Antarktika suvlarida uzunlikning 167-gra-dusi va kenglikning 77-gradus 32-minutida ikkita harakatdagi vulqon – Erebus va Terrorni kashf etganini bilar edim. Men kapitan Nemoga taqlid qilib tezda qoya ustiga chiqib oldim va ufqqa qaray boshladim. Biroq vulqon og'zini topolmadim.

Orolchada o'simliklar juda kam: bir necha qurbaqa o'ti-yu, qoyalarga yopishgan yo'sinlar – butun o'simlik olami shundangina iborat edi. Hayvonot dunyosi esa birmuncha rang-barang: molluskalar, zoofitlar, jumladan, marjon polioplilar va dengiz yulduzlari hamda qushlar, yana qushlar... Bu yerda qushlar haddan ziyod edi. Ularning minglab galalari quloqlarimizni qomatga keltirgudek chug'urlab, parvoz etishar, ming-minglab to'dalari qoyalarning pog'onalarida qo'nib o'tirishar, yana minglarchasi qo'rg'oshin rangli suv uzra charx urishardi.

Bu yerda asosan quruqlikda sudralib, gavdasini ko'tarolmaydigan, ammo suvda esa baliqday yengil va epchil pingvinlar nihoyatda ko'p edi.

Ko'kda qanotlarini yoyganda to'rt metrga yetadigan va haqli ravishda okean kalxatlari deb ataladigan yirik albatrosalar: tulenlarning xavfli dushmani hisoblangan bahaybat bo'ron qushlari; o'rdakning moryanka degan bir turi; nihoyat tentak qushlarning bulutday galasi – qanotlari jigarrang hoshiyalil oqlari va Antarktikadagina yashaydigan ko'klari parvoz qilishardi.

– Bu qushlar shu qadar yog'liqki, – dedim Kon-

selga, – Farer orollarining aholisi o‘lgan qushga piliq qo‘yib, uni tayyor sham sifatida ishlatishadi.

– Tabiat uni yana biroz diqqat bilan yaratganda edi, – deya javob berdi Konsel, – u tayyor ajoyib lampa bo‘lar ekan-da. Esiz, piligini ham qo‘yib, tayyorlab bersa nima qilarkan!

Biz tushgan joydan taxminan yarim milya narida hamma yoq pingvinlar iniga o‘xshab o‘yib tashlangan edi. Kapitan Nemo matroslarga ana shu qushlardan bir necha yuztasini tutishni buyurdi, chunki ularning qoramtir go‘shiti juda mazali bo‘larkan. Kattaligi g‘ozday keladigan bu qushlarning patlari qora, ko‘kraklarida oq tangachalar va bo‘yinlarida jigarrang chiziq bo‘lib, ular o‘zlarining toshbo‘ron qilinayotganlariga qaramay, hatto qochib qutulishni ham o‘ylashmasdi.

Tuman hamon tarqalmas va soat o‘n birda ham quyosh ko‘rinmadi. Bundan qattiq hayajonlandim. Agar quyosh chiqmasa, biz kuzatuv olib borolmaymiz. Kuzatuvsiz qutbga yetdikmi yo‘qmi, qanday bilamiz?

Kapitan Nemoning oldiga borganimda, u qoyaga suyangancha jimgina dengizga tikilib turar edi. U norozi qiyofada bo‘lib, bot-bot sabrsizlik bilan ko‘zlarini ko‘kka qadardi. Ammo nima ham qila olardi! Bu jasoratli kishi osmon ustidan ham dengizdagidek hukmronlik qila olmas edi.

Tush payti ham bo‘ldi. Quyosh hamon ko‘rinmas edi. Butun osmonni qoplagan qalin bulutlar orasidan quyoshning turgan yeri loaqal biroz bo‘lsa-da sezilmas edi. Ko‘p o‘tmay qor yog‘a boshladi.

– Ertagacha sabr qilishga to‘g‘ri keladi, – dedi loqaydlik bilan kapitan va avjiga mingan qor bo‘roni ichida «Nautilus»ga qaytdik.

Biz orolchada bo'lgan vaqtimizda «Nautilus» matroslari to'r tashlab olishga ulgurishibdi. Men ovlangan baliqlarni zo'r qiziqish bilan ko'zdan kechirdim. Antarktika dengizi ancha past kengliklardagi bo'ronlardan qochgan juda ko'p baliqlarga boshpana bo'lardi-yu... ammo dengiz sherlari va tulenlariga yem qilib berar edi.

Men tangachalari qo'ng'ir rangli bir necha kumushrang baliqchalar – bichoklarni, bo'yi uch futli, tanasi silliq, oltinrang – sariq, qo'ng'ir va oq-ranglardagi, tumshug'i konus singari oldinga turtib chiqqan va uzun dumi ipga o'xshash ingichka antarktik ximerlarini ko'rdim. Menga ularning go'shti yoqmadi, ammo Konselga u ancha mazali tuyuldi.

Qor bo'roni keyingi kuni ertalabgacha davom etdi. Palubaga hatto bosh chiqarib bo'lmas edi. Salonda o'tirib, keyingi kunlardagi voqealarni kundalikka yozayotib, bo'ronni pisand etmay g'ujg'on o'ynashayotgan albatroslarning qichqiriqlarini ochiq lyukdan eshitib o'tirar edim. «Nautilus» sohil bo'ylab suzib, janub tomonga yana o'nlab milya masofani bosib o'tdi.

Ertasi kuni, 20-martda bo'ron tindi. Sovuq bir oz kuchaydi. Termometr noldan ikki daraja pastni ko'rsatar edi.

Tuman tarqaldi va men butun astronomik kuzatuvlarimizni amalga oshira olishimizga umudvor bo'la boshladim.

Kapitan Nemo hali chiqmagan edi. «Nautilus»ning qayig'i Konsel bilan meni noma'lum yerning sohiliga olib borib qo'ydi. Bu yerning ham tuprog'i vulqonlardan hosil bo'lganini yaqqol ko'rsatib turar edi. Hamma yoqda lava, shlak, bazalt izlari ko'zga tashlanardi-yu, ammo hech qayerda vulqon og'zi ko'rinmasdi. Orolchadagidek, bu

yerda ham minglab qushlar parvoz etib yurishardi. Patlilardan tashqari yonlaridan o'tayotganimizda beozor boqayotgan dengiz sut emizuvchilarining juda katta to'dalari yurishardi. Bular tulenlar edi. Ulardan ba'zilari sohilda yotishardi, boshqalari muzliklarda yurishar, yana bir to'dasi qirg'oq yonida cho'milishar yoki suvdan chiqayotgan edi. Ular biz yaqinlashayotganimizdan cho'chishmadi, aftidan, odamni birinchi bor ko'rishayotgan bo'lsa kerak.

Tulenlar to'dasi shu qadar katta ediki, bir necha yuz ovchi kemalarni ta'minlay olardi.

– Rostini aytsam, – dedi Konsel, – bizga Ned Lend hamroh bo'lmaganidan g'oyat shodman!

– Nega, Konsel?

– Chunki bu ashaddiy ovchi hamma tulenlarni qirib tashlar edi!

– U, albatta, hammasini o'ldirolmas edi-yu, ammo bu beozor jonivorlarning ba'zilariga anchagina zarari tegar edi. Bu esa beozor jonivorlarning qonini behuda to'kishni xush ko'rmaydigan kapitan Nemoga yoqmagan bo'lardi.

– U juda to'g'ri qiladi.

– Albatta, Konsel. Ammo ayt-chi, dengiz hayvonot olamining bu namunalarini sen hali tasniflaganing yo'qmi?

– Men tajriba sohasida no'noqligimni xo'jam biladilar-ku. Agar xo'jam bu jonivorlarning nomini aytganlarida edi...

– Bular tulenlar bilan dengiz sherlari...

– Sutemizuvchilar sinfiga mansub ikki turkum; bir qorinlilar sinfchasi, kurakoyoqlilar to'dasi, – deya shoshib javob berdi Konsel.

– To'g'ri, Konsel, – dedim men. – Biroq bu turkumning yana o'z turkumchalari ham bor va



adashmasam, yaqin orada biz bu yerda ularni ham ko'ramiz. Yur!

Ertalab soat sakkizlar chamasi edi. Kapitan Nemo peshinda astronomik kuzatuv olib borishi kerak. Xullas, bizning ixtiyorimizda salkam to'rt soat bor edi.

Men bu yerning ancha joyigacha kirgan keng ko'rfaz qirg'og'i bo'ylab borishni taklif etdim. Sohillar va sohil bo'yidagi muzliklar va suv ming-minglab sutemizuvchilar bilan to'lib ketgan edi. Bu yerda asosan tulenlar ko'p edi. Ular oila-oila bo'lib joylashishadi: erkak tulen oila boshi hamda qo'riqchisi va uning himoyasida bolalarini emizadigan modasi. Kuch-quvvatga to'lishgan yosh erkak «bo'ydoqlari» ularning yonida alohida suzar edilar.

Tulenlar yerda g'oyat katta mashaqqat va beso'naqay harakatlar bilan sudralishadi: boshda ular orqa oyoqlarida turadilar va butun gavdalari bilan o'zlarini oldinga tashlaydilar, so'ngra oldingi oyoqlarini bukib, ko'kraklari bilan yotib oladilar, yelkalarini ko'tarib, tanalarining orqa qismini tortib oladilar. Keyin yana orqa oyoqlarida turadilar va shu alfozda butun harakat qaytariladi. Biroq yerda yurishga no'noq tulenlar o'zlarining egiluvchan orqa suyaklari, ingichka bellari, qalin jun qoplagan pardasimon kalta qo'llari tufayli suvda juda epchillik bilan harakat qilar edi. Suv sathida va sohilda dam olayotganda bu jonivorlar juda chiroyli ko'rinadi.

Konselning diqqatini bu aqlli jonivorlarning g'oyat taraqqiy etgan, do'ng peshanalariga jalb etdim. Insondan boshqa bironta sutemizuvchida miya moddasi tulenlarnikichalik miqdorda emas. Shuning uchun ham tulenlarni osonlik bilan o'rgatib olish mumkin. Ular tezda qo'lga o'rganadilar va men

bir qator tabiatshunoslarning, tulenlar yaxshilab o'rgatilsa, ular baliq ovlash va umuman dengiz ovida it o'rnida odamga anchagina foyda keltirishlari mumkin, degan fikrlariga tamomila qo'shilaman.

Biz ularning yonidan o'tayotganimizda ko'pchilik tulenlar uxlab yotishgan edi. Men qum ustida va sohil yaqinidagi qoyalarda uzunligi bir yarim-ikki metrli, yuqori lablari qalin, yo'g'on burama mo'ylovli oddiy tulenlarni ko'rdim: ularning quloqlari borligi deyarli bilinmas, kichik uchburchak shaklidagi do'nglikkina ko'rinardi.

Shu yerning o'zida tulenlar turidan bo'lgan harakatchan, kalta xartumli dengiz fillari bor edi. Uzunligi o'n metr keladigan bu ulkan hayvonlar bizga sira e'tibor berishmas edi.

– Bu hayvonlar xavfli emasmi? – so'radi Konsel.

– Yo'q, – javob berdim men, – agar unga tegilmasa indamaydi. Ammo ularga hujum qilinsa, ayniqsa bolalariga tegiladigan bo'lsa, tulenlarning qattiq jahli chiqadi va ko'pincha ehtiyotsiz ovchilarning qayiqclarini parchalab tashlashadi.

– Shunday qilishga ular tamoman haqlilar, – dedi Konsel.

– Ha, e'tiroz bildirolmayman.

Bizdan ikki milyacha narida dengizning ancha ichkarisiga kirgan burun ko'rfazni janubiy shamollardan to'sib turar edi. U yerdagi qoyalar suvga osilib turar va ularning osti qirg'oqqa uriladigan to'lqin ko'piklari bilan qoplangan edi.

Xuddi shu yerning o'zida bizga to'satdan go'yo yaqin orada kavush qaytaruvchi mollar podasi o'tlayotgani singari qattiq ma'ragan ovoz eshitildi.

– Bu yerga ho'kiz qayoqdan kelib qoldi, – so'radi Konsel.

- Bu ho'kiz emas, morjlar, - javob berdim men.
- Urishishyaptimi?
- Yo urishishyapti, yoki o'ynashyapti.
- Xo'jam ruxsat etsalar, ularni ko'rmoqchi edim.
- Yura qol, ko'ramiz, Konsel!

Biz yana qora bazalt qoyalar yonidan ketdik. Uning xarsangtosh pog'onalariga tirmashib, muz bilan qoplangan silliq sathida sirg'anishib borardik. Men bir necha bor qoqilib yiqildim va qattiq lat yedim.

Anchagina ehtiyotkor yoki chayirligidanmi, Konsel biror marta ham yiqilmadi va meni ko'tara turib, har gal aytardi:

- Agar xo'jam oyoqlarini keribroq qo'rganlarida, muvozanatlarini saqlash ancha yengil bo'lur edi.

Burunning eng yuqorisiga chiqib olgach, biz morjlar yoyilib yurgan keng qor yalangligini ko'rdik.

Morjlar bir-birlarini quvlab, o'ynab yurishardi. Bizga eshitilgan shovqin, qahr-g'azabini emas, balki xursandchilikni ifoda etadigan qiyqiriqlari ekan.

Morjlar yotog'i atrofini aylanib o'tib, orqaga qaytmoqchi bo'ldim. Soat o'n birga yaqinlashib qolgandi. Ob-havo sharoiti kapitan Nemoning kuza-tish olib borishiga imkon bersa, joy kengligini aniqlashda ishtirok etmoqchi edim.

Ochig'i, bundan umid kam edi. Ko'k gumbazini tamoman qoplab olgan qalin bulutlar quyoshni to'sib turishardi. Go'yo hasadchi oftob yer shari-ning hech kim kelolmaydigan bu burchagini odamlardan sir saqlash uchun ataylab bulut ortida yashiringanday tuyular edi.

Biz qoya tizmasining chekkasidan o'tgan torgina yo'lkadan yurdik. Soat o'n bir yarimda biz sohilga tushgan joyimizga yetib keldik. Kapitan Nemo ba-

zalt bo'lagining cho'qqisiga chiqib turar edi. Yonida astronomik asboblari. Uning nigohi shimolga, ufqning shu vaqt bulut orqasida ko'rinmayotgan quyosh turishi kerak bo'lgan tomoniga qadalgan edi.

Men uning yonida turib, jimgina kuta boshladim. Peshin bo'ldi, ammo quyosh hamon oldingiday ko'rinmas edi.

Agar ertaga peshinda ham quyosh chiqmasa, qutbning qayerdaligini aniq bilish uchun qilinayotgan urinishdan voz kechishga to'g'ri keladi.

Bugun 20-mart. Ertaga 21-martdan kechasiyu kunduzi baravar bo'ladi, binobarin, nurlarning sinishi hisobga olinmasa, ertaga ufqda quyosh ko'rinmaydi va olti oy davom etadigan qutb tuni boshlanadi.

Sentabr oyi kecha-kunduz baravarligidan boshlab quyosh shimol ufqida chiqib, 21-dekabrgacha tobora tik ko'tarilib kun uzaya boradi. Janubiy yarim shardagi ana shu yozgi quyosh turishi kunida u yana kun sayin pastlasha boshlaydi va nihoyat ertaga ufqda so'nggi bor namoyon bo'lishi kerak.

Men xavotirlanayotganimni kapitan Nemoga aytdim.

– Gapingiz to'g'ri, janob professor, – dedi u. – Agar ertaga, yigirma birinchi martda, ufq uzra quyoshning balandligini aniqlay olmasam, unda bu ishni olti oy kechiktirishga to'g'ri keladi. Ammo bordi-yu, ertaga peshinda quyosh loaqal bir lahza-gina mo'ralasa ham, tasodif bizlarni bu yerga tengkunlikda olib kelgani tufayli uning balandligini aniqlash menga ayniqsa oson bo'ladi.

– Nega, kapitan?

– Chunki quyosh osmon gumbazida katta aylana chizsa uning ufqdan balandligini aniq belgilab olish juda qiyin. Asbob-uskunalarining ko'r-

satkichlari bunday vaqtda ko'pincha noto'g'ri bo'ladi.

– Ertaga nimasi o'zgaradi?

– Ertaga men asbob-uskunalarsiz, birgina xronometr yordamida aniq kuzatish olib borishim mumkin. Agar ertaga 21-martda peshinda quyosh aylanasi – sinishini hisobga olganda, albatta, ufqqa qoq o'rtasi bilan tursa, biz qutbning xuddi o'zida ekanligimizni ko'rsatadi.

– Bu-ku to'g'ri-ya, – dedim men. – Ammo ikkinchi tomondan bu aniqlash matematik ravishda aniq bo'la olmaydi-da, chunki tengkunlik peshinga to'g'ri kelmaydi.

– Bunisini bilaman, janob professor, ammo bu noaniqlik bir necha yuz metrgagina xatolikka sabab bo'lishi mumkin, bu esa mening ishimga xalaqit bermaydi. Shunday qilib ertagacha!

Kapitan Nemo «Nautilus»ga qaytdi. Konsel bilan men soat beshgacha shu yerda qolib, qirg'oqni kuzatdik. Ammo o'zining g'oyat kattaligi bilan e'tiborimizni o'ziga jalb etgan pingvin tuxumidan boshqa biron qiziqarli narsa topolmadik. Ko'k rangga bo'yalgan va iyerogliflarga o'xshab ketadigan nuqtachalar va chiziqlar tortilgan bu juda g'alati tuxum uchun ishqiboz odam sira ikkilanmay ming frank to'lar edi. Men bu tuxumni Konselga berdim; ehtiyotkor yordamchim uni qimmatbaho xitoy chinnisiday avaylab, eson-omon «Nautilus»ga yetkazib keldi va u yerda tuxum muzey vitrinalarining biridan o'rin oldi.

Ovqat vaqtida mazasi cho'chqa go'shti ta'mini beradigan bir parcha tulen jigarini zo'r ishtaha bilan yeb, quyoshparast hindular singari kunduz mash'alasining marhamat ko'rsatib ertaga tush paytida chiqishini iltijo qilib yotdim.

Ertasi kuni, 21-martda, ertalab soat beshda palubaga chiqsam, kapitan Nemo o'sha yerda ekan.

– Havo ochilayotganga o'xshaydi, – dedi u menga. – Umidvor bo'lib turibman. Nonushtadan so'ng sohilga borib, kuzatish uchun qulay joy tanlaymiz.

Kapitan bilan kelishib olgach, men Ned Lend oldiga bordim. Uni sohilga tushishga taklif etgim keldi. Biroq qaysar kanadalik takliflarimni qat'iyon rad etdi. U kun sayin ma'yus va asabiylashayotgan edi. Sirasini aytganda, bu galgi uning qaysarligi meni ortiqcha xafa qilmadi: sohilda juda ko'p tulenlar bo'lib, tavbasiga tayanmagan bu xudo bexabarning ularni behuda qirib tashlashiga yo'l qo'yib bo'lmas edi.

Nonushtadan so'ng men sohilga bordim. «Nautilus» tunda janub tomonga yana bir necha milya yo'l bosgandi. U endi ochiq dengizda, balandligi to'rt yuz-besh yuz metr keladigan ingichka tog'cho'qqisi ostidagi sohildan to'rt kilometrcha berida turar edi. Qayiqda mendan boshqa kapitan Nemo va ikki matros bor edi. Kapitan o'zi bilan kuzatish uchun uncha murakkab bo'lmagan asboblarini: xronometr, durbin va barometr olgan edi.

Sohilga o'tayotganimizda bir necha kitlarni ko'rdik. Bu ulkan sutemizuvchilar gala-gala bo'lib, sokin suvda g'ujg'on o'ynashar va inson qadami yetmaydigan bu janubiy qutb havzasi shafqatsizlik bilan qirilayotgan kitlar uchun bexatar boshpana bo'lganini tushundim.

Soat to'qqizda biz serqoya sohilga kelib to'xtadik. Havo tiniq. Tuman asta-sekin tarqalayotgan edi. Kapitan Nemo to'g'ri tog'ga qarab yurdi, aftidan, o'sha yerni kuzatuv joyiga aylantirmoqchi shekilli. Muz qoplangan sirpanchiq qoyalardan chiqish juda og'ir edi. Kapitan Nemo eng tik qiyaliklarga

ham shu qadar chaqqonlik bilan chiqardiki, har qanday yovvoyi echki ovlovchi havas qilgan bo'lar edi. Orqasidan zo'rg'a yetib yurar ekanman, uning chaqqonligiga ajablanardim. Ayniqsa, yerda yurishga odatlanmagan dengizchining bu epchilligi kutilmagan hol edi.

Biz ikki soatda cho'qqiga chiqib oldik. Ko'z o'ngimizda dengizning ajoyib manzarasi namoyon bo'ldi, hatto uzoqdan uzluksiz, yaxlit muzlarning qirralarigacha aniq ko'rinib turardi. Tepalik etagida ko'zni qamashtiradigan darajada oppoq qor yastanib yotar edi. Tepamizda bulutsiz, och havorang osmon. Shimoldan quyosh aylanasi ko'rinar, uning ostidan ufq chizig'i o'tgan edi. Suvdan kitlar otayotgan yuzlab favvoralar ko'tarilmoqda edi. Uzoqda, ochiq dengizda «Nautilus» to'lqinlarda uxlab yotgan kitday chayqalib turardi. Atrofdagi, ko'z ilg'agan joygacha, tosh parchalari va qoyalar tartibsiz holda yotibdi.

Cho'qqining uchiga chiqib olgan kapitan Nemo birinchi navbatda keyinchalik o'z kuzatishlariga tuzatish kiritish maqsadida barometr yordamida u joyning dengiz sathidan balandligini o'lchadi.

Soat chorak kam o'n ikkida shu vaqtgacha atmosfera nurlarining sinishi natijasida ko'rinib turgan quyosh aylanasi ufqdan chiqib, bizgacha biron kishining oyog'i tegmagan g'amgin, tashlandiq yer va dengizni o'zining qip-qizil nurlari bilan yoritdi.

Kapitan Nemo nurlarining sinishi natijasida ko'zni aldanishdan saqlaydigan oynali durbini bilan juda uzun doira bo'ylab shundoqqina ufqning ustida harakat qilayotgan kun shamini kuzata boshladi. Men qo'limdagi xronometrning sekin surilayotgan miliga qarab turar edim. Yuragim qattiq ura boshladi: agar peshinga borib quyosh aylanasing yar-

mi ufq ortiga yashirinsa, demak, biz qutbning xuddi o'zginasida bo'lamiz.

– Peshin bo'ldi! – deya qichqirdim men.

– Janubiy qutb! – deb javob berdi menga kapitan Nemo hayajonlanib.

U menga durbinni uzatdi. Undan qarab ufq chizig'i jimirlab turgan quyosh barkashini teng ikkiga bo'lib turganini ko'rdim.

Quyoshning so'nggi nurlari cho'qqi ustiga yog'du sochib turar, uning nishab yerlariga esa pastdan yuqoriga qarab tun soyasi o'rmalayotgan edi.

Kapitan Nemo qo'lini yelkamga qo'yib, menga tantanali ohangda murojaat qildi:

– Janob professor, menkim, kapitan Nemo bugun, 1868-yilning yigirma birinchi martida Janubiy qutbga yoki janubiy kenglikning 90-gradusiga yetdim va yer sharining ana shu qismiga egalik qila boshladim.

– Bu qit'aga kimning nomidan egalik e'lon qil-yapsiz, kapitan?

– Shaxsan o'z nomimdan, janob professor!

U shu so'zlarni aytdi-yu, oltin bilan «N» harfi yozilgan katta qora bayroqni yoydi va ufqqa so'nggi nurlarini taratayotgan kun mash'alasiga qarab xitob qildi:

– Xayr, quyosh! Yog'du taratayotgan mash'ala, ketaver! Shu bo'm-bo'sh dengizga sho'ng'igin va mening yangi mulkimga olti oy tun soyasini tashla.

## ***O' n b e s h i n c h i b o b***

### **TUZOQDA**

Keyingi kuni, 22-martda, ertalab soat oltida «Nautilus» komandasi qaytishga tayyorgarlik ko'ra



boshladi. So'nggi yog'du tun qorong'isiga singib ketdi. Sovuq sezilarli darajada edi. Yulduz turkumlari ko'kda g'oyat yorqin charaqlardi. Tikkada janubiy yarim sharda qutb yulduzi vazifasini bajarayotgan Janub Buti ko'zni qamashtirar edi.

Termometr noldan pastki o'n ikki darajani ko'rsatardi. Ayoq yuzni chimchilar edi. Dengizning qirg'oq tomonlarini yupqa muz qoplagan, bir necha soatdan so'ng butun dengiz muzlab qoladigan-day edi. Aftidan, olti oylik janub tuni mobaynida qutb havzasi tamoman o'tib bo'lmas darajaga yetsa kerak. Kitlar nima qiladilar? Ular yax ostidan muzlamaydigan dengizlarga ketsa ajab emas. Qattiq sovuqqa odatlanib qolgan tulenlar bilan morjlar shu muzlar olamida qolishardi. Bu jonivorlar muz yalangliklarini teshishar va uning butunlay qoplanishiga yo'l qo'yishmas edi. Shu teshiklardan ular nafas olishadi. Qushlar sovuqdan qochib shimol tomonga, issiqroq o'lkalarga ketganda, morjlar bilan tulenlar qutb qit'asining yakka-yu yagona xo'jayinlari bo'lib qoladilar.

Shu orada «Nautilus» rezervuarlarini to'latib, asta suvga cho'ka boshladi. Ming fut chuqurlikda uning vintlari ishlay boshladi va kema soatiga o'n besh milya tezlik bilan shimol tomon suzib ketdi. Kechga tomon biz uzluksiz yaxlit muzliklarning ulkan gumbazi ostida borar edik.

«Nautilus» to'satdan biror suzar muz bilan to'qnashib qolishi ehtimoli bo'lganidan ehtiyot shart salon derazalari to'siqlar bilan berkitib qo'yilgan edi. Shuning uchun men kun bo'yi yozuvlarimni tartibga soldim. Xayolim tamoman qutb haqidagi xotiralar bilan band edi.

Biz yer sharining inson qadami yetmaydigan bir yeriga sira charchamay, butun qulayliklar bilan ye-

tib oldik, suzar vagonimiz go'yo temiryo'l izlari ustidan yurib borardi.

Endilikda esa biz qulayliklar bilan kelgan izimizga qaytmoqdamiz. Bu yo'lda bizni yangi mo'jizalar kutayotganmikin? Bunga ishonchim komil, zero, dengiz xazinasi bitmas-tuganmasdir!

Tasodif bizni suvosti kemasiga tashlagandan buyon o'tgan besh yarim oy davomida o'n to'rt ming lyo yoki ellik olti ming kilometr bosib o'tdik va yo'limizda ne-ne g'aroyib, kutilmagan va qo'rqinchli sarguzashtlarni boshimizdan kechirmadik!

Ko'rganlarim tun bo'yi ko'z oldimga kelaverib, shishib qizargan qovoqlarimni bir zum ham yumolmadim. Men Krespo orolidagi suvosti ovimizni, Torres bo'g'ozida beixtiyor to'xtab qolganimizni, okean tubidagi marjon qabristonini, Seylon marvarid konini, Arabiston tunnelini, Vigo ko'rfazidagi sochma oltinlarni, Atlantidani, Janubiy qutbni xotirlar edim.

Kechasi soat uchda qattiq silkinishdan uyg'onib ketdim. O'rin ustida o'tirib olib diqqat bilan quloq so'layotganimda to'satdan «Nautilus» bir tomonga qiyshayib, meni kayuta o'rtasiga polga itqitib tashladi.

Devorni ushlab salonga kirib oldim. U yerdagi butun mebel polda ag'anab yotar edi. Baxtimizga vitrinalar yaxshi mahkamlangan ekan, kolleksiyalar zararlanmayapti. Bakbortning quyi qismi devordan butun bir fut ochilib ketganiga qaramay, shtirbort qoplamasiga osib qo'yilgan suratlar yelimlab qo'yilganday qimir etmay turar edi.

Yo'laklarda oyoq tovushlari va g'ala-g'ovur eshilar edi. Biroq kapitan Nemo ko'rinmas edi. Salonidan chiqaman deb turganimda u yerga Ned Lend bilan Konsel kirib kelishdi.

– Nima bo'ldi? – o'sha zahoti ulardan so'radim.

– Buni xo‘jamdan so‘rayman deb kelgan edim, – dedi Konsel.

– Ming la‘nat! – xitob qildi kanadalik. – Men bilaman nima bo‘lganini! «Nautilus» sayoz yerga tiqilib qoldi va uning og‘ishiga qaraganda, o‘tgan gal Torres bo‘g‘ozidagidan ko‘ra chuqurroq tiqilgan.

– Ammo, nima bo‘lsa ham, biz dengiz sathidamizmi? – so‘radim men.

– Bilmadim, – dedi Konsel.

– Buni aniqlash oson, – deya manometrغا yaqinlashdim. Uning mili uch yuz oltmish metr chuqurlikni ko‘rsatayotganini ko‘rib g‘oyat taajjublandim.

– Bu nimasi? – xitob qildim men.

– Kapitan Nemo dan so‘rash kerak, – dedi Konsel.

– Ammo shu topda uni qayoqdan topasiz? – e‘tiroz bildirdi Ned Lend.

– Orqamdan yuringlar, – dedim men o‘rtoqlarimga.

Biz salondan chiqdik. Kutubxonada hech kim yo‘q edi. Kapitan Nemo shturval hujrasida degan qarorga keldim. U yerda uni bezovta qilish noqulay edi, binobarin, salonga qaytdik.

Ned Lendning shikoyat va motamlarini qaytarib o‘tirmayman. Bu gal uning xunobi oshishiga asos bor edi. Hasratini aytib olib, biroz bo‘shasin deb indamadim, ammo savollariga javob ham bermadim.

Shu alfozda yigirma minutch a «Nautilus» yo‘lagidagi har bir ovozga diqqat bilan quloq solib turgan edik, to‘satdan salonga kapitan Nemo kirib keldi. Aftidan, u bizni ko‘rmadi shekilli. Uning odatdagi osoyishta chehrasi bu gal qattiq hayajonlanayotganini ifoda etib turar edi. U miq etmay kompas oldiga, manometrغا bordi va nihoyat karta

oldida turib, barmog'i bilan xaritaning Janubiy qutb dengizi ko'rsatilgan joyiga ishora qildi.

Uning xayolini bo'lgim kelmadi. Ammo bir necha minutdan so'ng men tomon o'girilganida, undan so'radim:

– Yana biror ishkali chiqdimi, kapitan?

– Yo'q, – javob berdi u, – bu safar ko'ngilsiz voqea.

– Jiddiymi?

– Ehtimol.

– Xavflimi?

– Yo'q.

– «Nautilus» sayozlikka tiqilib qoldimi?

– Ha.

– Qanday qilib?

– Tabiatning allaqanday tushuntirib bo'lmaydigan tuzog'i, bunda rul boshqaruvchining aybi yo'q. U xatoga yo'l qo'ygani yo'q. Biroq biz tortish qonuniga xalaqit berishga o'zimiz qiziq qilamiz. Inson joriy qilgan qonunlarni nazar-pisand etmaslik mumkin, ammo tabiat qonunlari bilan o'ynashib bo'lmaydi!

Kapitan Nemoning falsafa so'qishi hozir joiz emas edi. Ochig'i u o'z javobi bilan menga hech nimaning tushuntirib berolmadi.

– Bu hodisaga nima sabab bo'lganini aytolmay-sizmi, kapitan? – deb so'radim men.

– Juda katta muz bo'lagi, butun boshli muz tog'i ag'darilib ketdi... Aysberglar ostidan issiq oqim tek-kanda: og'irlik markazi bir o'rindan ikkinchi o'ringa ko'chadi, binobarin, ag'darilib ketadi. Suv ostida suzayotgan «Nautilus»ga shunaqa muz tog'i duch kelib qoldi. Ag'darilib ketgan aysbergning ostki qismi o'zi bilan «Nautilus»ni ham tortib, uni ko'tarida, so'ng yonboshlatib qo'ydi.

– Xo‘sh, «Nautilus» rezervuarlarini bo‘shatish yo‘li bilan uni yengillatib, sayozlikdan olib chiqsa bo‘lmaydimi?

– Biz ham hozir xuddi shunday qilamiz, janob professor. Quloq soling-a – u yoqda nasoslar ishlab, suvni siqib chiqaryapti. Manometr miliga qarang: «Nautilus» yuqoriga suzib chiqyapti, ammo u bilan birga muz tog‘i ham ko‘tarilyapti. Uning harakatini biror g‘ov to‘smaguncha, ahvolimiz o‘zgarmaydi.

Chindan ham «Nautilus» hamon shtirbort tomonga og‘ayotgan edi. Aysbergning yangi og‘irlik markazi atrofida harakati to‘xtagach, «Nautilus» ko‘tariladi. Kim biladi, bordi-yu, aysbergning aylanishini uzluksiz yaxlit muzlarning ostki sathi to‘xtaguday bo‘lsa, biz ikki muz sathi orasida qolib katta kuch bilan siqilmasmikimiz, bu-ku holva, pachog‘imiz chiqmasmikim?

Men «Nautilus» duch kelgan ko‘ngilsiz hodisaning barcha oqibatlarini haqida o‘ylayotganimda, kapitan Nemo manometr milidan ko‘z uzmay turar edi. «Nautilus» aysberg bilan to‘qnashgandagi holatiga nisbatan yuz ellik futga ko‘tarilgan edi, ammo uning og‘ish burchagi hamon shtirbort tomonda edi.

To‘satdan suvosti kemasining korpusi bir qaldirab oldi. «Nautilus» ko‘tarilayotgan edi. Salon devorida osig‘liq turgan suratlarning turish holati o‘zgara boshladi, bugina emas, devorlarning o‘zi ham sezilarli ravishda tik holatga kelayotgan edi. Biz hammamiz shunga e‘tibor berib jim turar edik. Asta-sekin kema korpusi ko‘tarilayotganini nafas olmay diqqat bilan kuzatar edik. Salon poli gorizontal holga keldi.

– Xayriyat, mana, nihoyat tiklanib oldik! – xitob qildim men.

– Ha, xayriyat, – dedi kapitan Nemo salonning chiqaverishiga bora turib.

– Xo‘sh, endi suzib ketamizmi? – so‘radim men.

– Albatta, – javob berdi u, – rezervuarlar butunlay bo‘shatilgani yo‘q, binobarin, nasoslar ulardan hamma suvni siqib chiqargach, «Nautilus» dengiz sathiga ko‘tariladi...

Kapitan chiqqan zahoti uning buyrug‘iga binoan nasoslarning ishlashi to‘xtatildi. O‘z-o‘zidan ayonki «Nautilus» ham yuqoriga ko‘tarilmay qoldi. Darhaqiqat, biz yana ko‘tariladigan bo‘lsak uzluksiz yaxlit muzlarning ostki sathiga borib urilish xavfi bor edi, binobarin, yaxshisi chuqurlikda ma‘lum bir joyda turish kerak edi.

– Baxtimizni qarang, qutulganga o‘xshaymiz! – dedi Konsel.

– Ha. Bu muz parchalari bizni osongina pachoqlab tashlashi, juda bo‘lmaganda asir qilib qo‘yishi mumkin edi. Ana unda, havo zaxirasini yangilash imkoniyatidan mahrum bo‘lgach... Baxtimiz bor ekan, eson-omon qutulib oldik!

– Agar chindan ham qutulib olgan bo‘lsak! – dedi past ovozda Ned Lend.

Men kanadalik bilan behudaga bahslashib o‘tirmadim va uning luqmasiga javob ham bermadim.

Shu payt salon to‘siqlari ochildi va biz deraza oldiga yugurdik.

Projektor yog‘dusi suvni munavvar etib turar edi. Bizdan o‘n metrcha narida jimirlayotgan muz devorlarning yonlari ko‘tarilib turgan edi. Yuqoridan ham, pastdan ham o‘sha devorlar! Yuqorida boshimiz uzra ulkan shipday bo‘lib uzluksiz yaxlit muz bo‘lagi osilib turar edi. Ag‘anab, og‘irlik markazi yon devorlariga ko‘chgan va shu holatda mustahkam o‘rnashib qolgan aysberg pastda pol vaziri

fasini o'tar edi. Shunday qilib, «Nautilus» eni yigirma metr keladigan chinakam muz tunneli orasida qolgan edi. Biz yo oldinga yoki orqaga suzib, o'sha yerdan bir necha yuz metr chuqurlikka sho'ng'ib, uzluksiz yaxlit muzliklar doirasidan bemalol chiqib ketishimiz mumkin edi.

Shipdagi lampalar yonmayotganiga qaramay, salonga yorqin yog'du tushib turar edi. Bu «Nautilus» projektori nurlarining muz devorlarda sinib qayta-yotgan aks yog'dusi edi.

Men bu yog'duning sehrli jilosini so'z bilan ifoda etolmayman, zero, nurning har bir sinishi, muz parchasining har bir do'ng yeri kristall tuzilishiga qarab turlicha rangda jilvalanar edi.

Bular go'yo son-sanoqsiz qimmatbaho toshlar – sapfir, zumradlar xazinasiga o'xshab, bir-biri bilan kesishayotgan yashil va ko'k ranglarda tovlanar edi. Qalin qabariq oyna ichiga o'rnatilgan lampa singari projektor yog'dusi ham yuz baravar oshgan edi.

– Naqadar go'zal! Ko'z qamashadigan chiroy! – deya zavqlanib gapirdi Konsel.

– Ha, – dedim men, – bu unutilmas manzara! Shunday emasmi, Ned?

– Ha, ming la'nat, haq gap! – deya e'tirof etdi kanadalik. – Men bu fikrga qo'shilayotganimga ichimdan zil ketyapman. Bunaqasini sira ko'rmagan edim! Ammo bu tomosha bizga qimmatga tushsa kerak, deb o'ylayman. Tabiat inson uning eng maxfiy sirlarigacha bilib olishini yoqtirmaydi.

Ned Lend haq edi. Bu manzara inson uchun haddan ziyod ajoyib edi. To'satdan Konselning qichqirig'idan u turgan tomonga qaradim.

– Nima bo'ldi? – deb so'radim.

– Xo'jam ko'zlarini yumib olsinlar! Xo'jam qaramasinlar!

Shunday deb Konsel qo'lini ko'zlari tomon olib bordi.

– Senga nima bo'ldi o'zi, og'ayni?

– Ko'zim qamashib ketdi!

Men beixtiyor deraza tomon qaradim-u, ammo uning g'oyat kuchli yog'dusiga bardosh berolmay o'sha zahoti ko'zimni olib qochdim.

Nima bo'lgani ayon edi: «Nautilus» shitob bilan olg'a suzib ketdi. Biz bir joyda turganimizda osoyishta jimirlayotgan projektor yog'dusi juda yorqin yaxlit nurlarga aylandi. Go'yo jimirlab turgan milliardlab brilyantlar bir dasta bo'lib qo'shildi va «Nautilus» charaqlab kesishayotgan yashin nurlari oralab uchib borar edi.

Salon to'siqlari yopildi. Quyoshga uzoqroq tikilganda to'rsimon qobiqchalar paydo bo'lib jimirlagani kabi oldimizdagi yorqin konsentrik<sup>1</sup> dumaloq narsalar yog'dusidan qo'llarimizni qamashib ketgan ko'zimizga bosdik.

Anchadan keyingina ko'zlarimiz o'z holiga kelib, atrofni ko'ra boshladik. Nihoyat qo'llarimizni ko'zimizdan oldik.

– Shunaqa manzarani ko'rganini birov menga gapirib bersa, – dedi Konsel, – o'lsamam ishonmas edim!

– Men esa bunga hozir ham ishonmayapman, – dedi kanadalik.

– Biz quruqlikka qaytganimizdan keyin, – so'zini davom ettirdi Konsel, – tabiatning bu qadar ko'p mo'jizalari oldida odamlar yashayotgan yer va inson qo'li bilan yaratilgan narsalar qanchalik ayanchli ko'rinarkin! Yo'q, endi bizni oddiy dunyo qoniqtirolmaydi!

Bizning qanchalik zavq-shavqqa to'lib-toshga-

---

<sup>1</sup> *Konsentrik* – umumiy markazli doiralar.



nimizni flamandiyaliklar ichida o'ta tepsa-tebranas Konselday odamning shunchalik hayajon bilan gapirganiga qarab ham tasavvur etsa bo'ladi! Ammo kanadalik shunday shirin tuyg'ularimizga ham zah-rini sochmay qololmadi.

– Odamlar yashaydigan yer? – deya qaytardi u boshini likillatib. – Tashvishlanmang, do'stim Konsel: biz endi u yerlarni sira ko'rolmaymiz!

Azonda, soat beshga yaqin kema yana bir turtindi, bu gal turtki old tomondan bo'ldi. «Nautilus» tumshug'i bilan muzga borib urilganini sezdim. Af-tidan, rul boshqaruvchi muz bo'laklari to'lib yotgan va kemani olib yurish oson bo'lmagan bu tunnelda yaxshi manyovr qilolmay qolganga o'xshaydi. Kapi-tan Nemo bu to'siqdan o'tgach, kema yo'nalishini o'zgartiradi va biz tunnelning ilon izi yo'llaridan yana olg'a suzimiz deb o'ylagan edim. Ammo men kut-ganning aksi bo'lib, «Nautilus» orqaga suza boshladi.

– Orqaga qaytyapmizmi? – deb so'radi Konsel.

– Ha, – deb javob berdim men. – Tunnelning bu yog'idan yo'l bo'lmasa kerak.

– Demak...

– Demak, biz orqaga qaytib, tunnelning janub tomonidan chiqib ketamiz. Bu hech gap emas. Bunga o'zimning ishonchim bo'lmasa ham, do'stlarimni ishontirishga harakat qildim.

Bu orada «Nautilus»ning orqaga suzishi tezlasha borib, nihoyat kema to'la tezlikka o'tdi.

– Bu vaqtni behuda o'tkazishdan bo'lak narsa emas, – dedi Ned Lend.

– Bu yerdan chiqadigan bo'lganimizdan keyin, ortiqcha bir necha soatning bizga nima ahamiyati bor! – dedi Konsel.

– To'g'ri, – deb javob berdi Ned Lend, – agar biz chindan ham bu yerdan chiqa olsak.

Men salondan kutubxonaga borib-kelib turibman. O'ртоqlarim bamaylixotir divanda o'tirishar edi. Birozdan so'ng men ham divanga o'tirib, o'zimni o'qishga majbur qildim, ammo ko'zlarim harflarni shunchaki ko'rardi, xolos.

Oradan chorak soat o'tgach, Konsel oldimga kelib so'radi:

– Xo'jam qiziq kitob o'qiyaptilarmi?

– Juda qiziq kitob, – deb javob berdim men.

– Bunga shubham yo'q. Chunki, xo'jam o'z kitoblarini o'qiyaptilar.

– Darhaqiqat, men tamoman o'ylamaganim holda o'zimning «Dengiz qa'rining sirlari» kitobimni ushlab turar edim. Kitobni yopib, yana salonda yura boshladim. Ned bilan Konsel menga xalaqit bermaslik uchun divandan turib, eshik tomon yurdilar.

– Do'stlarim, ketmanglar, – dedim ularga. – Tunneldan chiqib olgunimizcha birga bo'laylik.

– Xo'jam shuni istasalar, marhamat, – dedi Konsel.

Bir necha soat shu alfozda o'tdi. Men tez-tez salon devoriga osig'liq turgan asboblarga qarar edim. Manometr mili biz muttasil uch yuz metr chuqurlikda suzayotganimizni ko'rsatib turar edi. Kompas birday janub tomonga suzayotganimizni, lag bunday tor joy uchun ortiqcharoq bo'lsa-da, soatiga yigirma milya tezlikda borayotganimizni ko'rsatar edi. Ammo har bir minutning qimmatini yildan oshiq bo'lgan hozirgi sharoitda kapitan Nemo har qanday shoshilinch chora ortiqcha emasligini chuqur his etar edi.

Soat sakkizdan yigirma besh minut o'tganda kema ikkinchi bor turtindi. Bu gal turtki quyruq tomondan edi. Rangim quv o'chdi. O'ртоqlarim

o'rinlaridan sapchib turishib, menga yaqinlashishdi. Men Konselning qo'lini mahkam ushlab oldim. Biz savol nazari bilan bir-birimizga qaradik va so'zsiz so'zlashuv har qanday boshqa gapdan tushunarliroq edi.

Shu daqiqada salonga kapitan Nemo kirib keldi. Men yugurib uning oldiga bordim.

– Janubda ham yo'l berkmi? – so'radim.

– Ha, janob professor. Ag'anagan aysberg bizni qamab qo'yibdi.

– Biz tuzoqdamizmi?

– Ha.

## *O'n oltinchi bob*

### **HAVO YETMAY QOLDI**

Shunday qilib, «Nautilus» hamma tomondan o'tib bo'lmas muz devorlar bilan o'ralib qoldi. Biz muzlarga asir bo'lib qolgan edik.

Kanadalik ulkan mushtumini stolga urdi. Konsel jim turar edi. Men kapitandan ko'z uzmas edim. Uning yuziga yana sovuqqonlik yugurdi. Qo'llarini ko'kragiga chambarak qilib o'yga toldi.

«Nautilus» qimir etmay turar edi.

Kapitan Nemo so'z boshladi.

– Janoblar, – dedi u tamoman osoyishtalik bilan, – bizning hozirgi ahvolimizda hayot bilan vidolashuvning ikki imkoniyati bor.

Bu g'alati odam o'zini bizning oldimizda matematika professori talabalarga ma'ruza o'qiyotganday tutar edi.

– Birinchisi – bu muz siqib qo'yishi, ikkinchisi havo yetmay o'lish. Men ochlikdan o'lishni tamoman istisno etaman, chunki «Nautilus»da g'amlangan ozuqa, hech shubhasiz, bizdan keyin qol-

ganlarga ham yetadi. Shunday qilib, biz ana shu ikki imkoniyatni chamalab ko'ramiz.

– Menimcha, havo yetmay o'lishdan cho'chishga sira hojat yo'q, kapitan, – dedim men, – negaki «Nautilus» rezervuarlariga siqiq havo to'latilgan.

– Gapingiz to'g'ri, – javob berdi kapitan, – ular bizni ikki kunga yetadigan havo bilan ta'minlaydi. Biz esa o'ttiz olti soatdan buyon suv ostidamiz, kema ichida esa nafas olish tobora og'irlashib, havoni yangilashga zarurat tug'ilmoqda. Qirq sakkiz soatdan keyin zaxira tugaydi.

– Demak, shu muddat tugamay biz ozodlikka chiqib olishimiz kerak, kapitan!

– Biz shunga intilishimiz kerak. Muz devorni parmalab ko'ramiz.

– Qaysi tomondan? – deb so'radim.

– Buni bizga zond ko'rsatib beradi. Men hozir «Nautilus»ni muz katagimizning tubiga tushiraman va matroslar skafandr kiyib olib, muz devorlaridan qaysi biri yupqaligini aniqlaymiz.

– Salon to'siqlarini ochsa bo'ladimi?

– Albatta. Axir biz endilikda harakatsiz turibmiz-ku.

Kapitan Nemo salondan chiqib ketdi. Ko'p o'tmay eshitila boshlagan hushtak ovozi rezervuarlarga suv quyilayotganidan dalolat berardi. «Nautilus» asta-sekin muz katak ostiga, uch yuz ellik metr chuqurlikka tusha boshladi.

– Do'stlarim, – dedim men Konsel va Ned Lendga, – og'ir vaziyatga tushib qoldik, ammo o'z'laringizga xos baland ruh va shijoatlaringizni yo'qotmasliklaringizga aminman.

– Janob professor xotirjam bo'lsinlar, bunaqa vaqtda men u kishiga nolimayman, – dedi Kanada-

lik. – Men hammamizning qutulishimiz uchun ni-  
maiki zarur bo‘lsa, bajarishga tayyorman.

– Juda soz, Ned! – javob berdim kanadalikning  
qo‘lini siqib.

– Shuni ham aytib qo‘yayki, men cho‘kichni  
ham garpun singari yaxshi ishlata olaman, binoba-  
rin, kapitan Nemoga zarur bo‘lib qolsam, xizmatiga  
tayyorman.

– Cho‘zgan yordam qo‘lingizni bajonidil qabul  
qilishiga shak-shubham yo‘q. Yuring, Ned.

Men kanadalik bilan «Nautilus» matroslari ska-  
fandr kiyayotgan xonaga o‘tdim. Kanadalikning  
taklifini kapitan Nemoga aytganimda u bajonidil  
qabul etdi.

Ned Lend boshqa matroslar bilan bir vaqtning  
o‘zida skafandr kiyib oldi. Ulardan har biri yelkasi-  
ga rezervuarlardan toza havo to‘latilgan Rukveyrol  
apparatlarini ilib oldi, – bu «Nautilus»da havoning  
umumiy miqdorini kamaytirsada, bu sarfni ortiq-  
cha deb bo‘lmas edi. Rumkorf lampalariga kelgan-  
da shuni aytish kerakki, uning bu yaxshi yoritilgan  
yerda keragi yo‘q edi.

Ned skafandr ichiga kirib olgandan keyin men  
salonga qaytdim, uning to‘siqlari ochilgan edi. Kon-  
sel bilan deraza yonida o‘tirib, «Nautilus»ni o‘rab  
olgan muz devorlarni ko‘zdan kechira boshladim.

Bir necha minutdan so‘ng o‘n ikki g‘avvos muz  
ustiga chiqib olganlarini ko‘rdik. Ular orasida  
bo‘ychanligi bilan ajralib turgan Ned Lendni oson-  
lik bilan tanib olish mumkin edi. Kapitan Nemo  
ham shu to‘da ichida edi.

Muzni sindirishga kirishishdan oldin u yax-  
ni qaysi tomondan yorish qulay bo‘lishini sinab  
ko‘rish maqsadida bir necha quduq qazishni buyur-  
di. Uzun parmalar yon devorlarga kirgizildi, ammo

o'n besh metr ga borganda ham muzlamagan suvga yetmagan edi. Tunnelning shipini yorish mutlaqo befoyda, chunki u uzluksiz yaxlit muzning pastki qatlamlari bo'lib, qalinligi kamida to'rt yuz metrcha kelardi. Shunday keyin kapitan Nemo tunnelning ostini parmalashga buyurdi.

Bu yo'nalishdagi muz qatlamining qalinligi o'n metrdan oshmas ekan. Binobarin, ana shu muz g'ori ostidan «Nautilus» hajmidan kattaroq teshik ochish, ya'ni «Nautilus»ning muzdan xoli pastki suv qatlamlariga o'ta olishi uchun taxminan olti yarim ming kub metr yaxni yorish kerak edi.

G'avvoslar tezda ishga tushdilar va uni sira bo'shashtirmay g'ayrat bilan davom ettirdilar. Kapitan Nemo muzni qiyin bo'lmasin uchun «Nautilus»ning xuddi ostidan emas, balki kema korpusining chaprog'idan, sakkiz metr naridan teshishni buyurdi. G'avvoslar muz ustiga teshadigan joylarining bichimini katta qilib chizib oldilar va bir necha joyda ish boshladilar. Ularning cho'kichlari muz qatlamlariga baravar tushib, katta bo'laklarni ko'chirar edi.

Bu ishning qiziq bir tomoni bor edi: ko'chirib olingan muz parchalari, suvdan yengil bo'lgani sababli shipga qalqib chiqardi va past qanchalik yuqalashib borsa, g'or shipi shunchalik qalinlashar edi. Biroq bu narsa bizni sira cho'chitmas, chunki muzning pastki qismi har holda kamayib borayotgan edi!

Ned Lend ikki soatlik og'ir ishdan charchab salonga kirdi. U va uning o'rtoqlari o'rniga matroslarning yangi to'dasi chiqdi. Men bilan Konsel ham ularga qo'shildik. Bizning ishimizni kapitanning yordamchisi boshqarib turdi.

Boshda suv menga juda sovuqday tuyuldi, ammo

cho'kich bilan ishlagach, tezda qizib oldim. Bosim o'ttiz atmosfera bo'lishiga qaramay, bermalol harakat qilar edim.

Ikki soat ishlab, ovqatlanish, biroz dam olish uchun «Nautilus»ga qaytganimizda, men Rukveyrol apparatidagi toza havo bilan kemaning karbonat angidridi ko'payib og'irlashgan havosi orasidagi keskin farqni sezdim. Kema ichidagi havo qariyb qirq sakkiz soatdan buyon yangilanmagan va nafas olish uchun deyarli yaroqsiz bo'lib qolgan edi.

O'n ikki soat tinimsiz ishlab, biz muzdagi chiziq ichida bir metrlik qatlamnigina olib tashlagan edik. Agar keyingi har bir metr uchun ham o'n ikki soatlik mehnat talab etiladigan bo'lsa, ishni poyoniga yetkazish uchun bizga yana besh kecha-yu to'rt kunduz kerak bo'ladi.

– Besh kecha-yu va to'rt kunduz! – dedim men o'rtoqlarimga. – Rezervuarlarimizdagi havo esa atigi ikki kecha-kunduzga yetadi!

– Hali bu la'nati qamoqdan chiqqandan keyin ham, – deb qo'shib qo'ydi Ned Lend, – ma'lum vaqtgacha dengiz sathiga ko'tarilolmay uzluksiz yaxlit muzliklar ostidan suzishimiz ham kerakligini hisobga olmaganda.

Ned Lend haq edi. Chindan ham, ochiq joyga chiqqunimizcha qancha vaqt o'tishini aniqlash qiyin edi va, binobarin, biz «Nautilus» suv sathiga ko'tarilguncha hammamiz bo'g'ilib o'lmasmikinmiz. Hammamizga g'or muzliklardan nasib etgan bo'lsa ham ajab emas...

Ahvolimiz chindan ham fojiali edi. Ammo hammamiz xavf-xatarga tik boqardik va burchimizni oxirigacha ado etishga ahd qilgandik.

Men oldindan aytganimday, o'tgan bir kecha ichida muz yana bir metr chuqurlashibdi. Biroq er-

talab skafandrni kiyib, muzga chiqqach, g'orning yon devorlari bir-biriga ancha yaqinlashib qolgani ko'rib qoldim: unga tegib turgan bir qatlam suv g'avvoslar ishlamayotgani uchun muzlab qolibdi.

Bu bizning qutulishga bo'lgan umidlarimizni puchga chiqaruvchi yangi va dahshatli xavf edi. Suvning muzlab qolib, tunnel devorlarining yaqinlashib, «Nautilus»ni mo'rt oynaday majaqlab tashlash xavfini qanday qilib va nima bilan daf etish mumkin?

Men o'rtoqlarimga bu yangi xavf haqida hech nima demadim. Ularni qutulish uchun qilayotgan ishidan sovitishning nima keragi bor? Ammo kemaga kelgach, bu jiddiy mushkullikdan kapitan Nemoni ogoh etdim.

– Ko'rdim, – dedi u hayajondan asar ham sezilmaydigan vazmin ohangda. – Bu yangi xavf, ammo uni to'xtatishga ojizman. Qutulishning birdan bir yo'li shuki, bu tuzoqdan suv muzlaguncha chiqib ketish kerak. Ana shunaqa.

! «Ana shunaqa», dedi u. Uning gapirish uslubiga allaqachon ko'nikishim kerak edi!..

Kun bo'yi bir necha marta muz ustiga chiqib, cho'kichni qo'limga olib astoydil ishladim. Ish meni ancha tetiklashtirardi. Bundan tashqari, ishlash – bu «Nautilus»dan chiqib, kemanding kislorodi siyraklashib og'irlashib qolgan havosi o'rniga rezervuarlarning toza havosidan nafas olish imkoniyatiga ega bo'lish degan gap edi.

Kechga borib o'ra yana bir metrga chuqurlashdi.

Kemaga qaytganimda karbonatkislota bilan to'lgan havoni o'pkamga tortib bo'g'ilib qolishimga sal qoldi. Bizda nafas olishga zararli bu gazni yo'q qiladigan kimyoviy vosita yo'qligini qa-



rang-a?! Kislorod tanqisligiga sira duch kelmagan bo'lardik. U bizni o'rab turgan suvda istagancha topiladi. Batareyalarimizdagi elektr tokida suvni parchalash yo'li bilan osonlikcha kislorod olishimiz mumkin edi. Men bu haqda o'ylab ko'rdim-u, biroq keyinchalik bu fikrimdan qaytdim. Chunki biz nafas olayotganimizda chiqarib, butun kemani to'latgan karbonatkislotadan havoni qanday tozalaymiz? Karbonatkislotani yo'q qilish uchun katta idishlarga o'yuvchi natr to'latib, uni tinmay aralashtirish kerak edi. Biroq «Nautilus»da o'yuvchi natr yo'q edi va biz uning o'rnini bosadigan boshqa hech narsa bilan almashtirolmasdik.

Kechqurun kapitan Nemo o'z rezervuarlarining murvatini ochib, kemaga bir necha kub metr havo chiqarishga majbur bo'ldi. Agar u shunday qilmasdanda, biz ertalab turolmas edik.

Ertasi kuni, 26-martda, qazuvchilik ishimni davom ettirib, chuqurning beshinchi metriga cho'kich urdim. Tunnelning yon devorlari va shipi sezilarli darajada yaqinlashib qolgan edi. Ish sur'ati shunday davom etadigan bo'lsa, ular «Nautilus» chiqib ketib ulgurmay qo'shilishi aniq edi.

Bir zungina umidsizlikka tushib qoldim. Cho'kich qo'limdan tushib ketishiga sal qoldi. Bari-bir havo yetishmasligidan bo'g'ilib o'lishimiz yoki toshga aylangan suv ezib tashlashi aniq bo'lgandan keyin muzni yorishning nima hojati bor?

Nazarimda meni allaqanday dahshatli maxluq jag'lari orasiga olib siqayotganday va u ortiq ochilmaydiganday bo'lib tuyuldi.

Xuddi shu daqiqada bizga boshchilik qilayotgan va o'zi ham chaqqonlik bilan cho'kich urayotgan kapitan Nemo yonimdan o'tib qoldi. Men uni to'xtatib, qo'lim bilan qamoqxonamizning devori-

ga ishora qildim. Kechasi u kema tomonga kamida to'rt metr yaqinlashibdi.

Kapitan Nemo nima demoqchiligimni tushunib, orqasidan yurishga ishora qildi.

Biz kemaga qaytdik.

Skafandrni yechib, uning ketidan salonga kirdim.

– Janob Aronaks, – dedi u, – biz biron jasorat ko'rsatadigan tadbir qo'llashimiz kerak, aks holda biz muzda sementlangandan ham mustahkamroq parchinlanib qolamiz.

– Ha, – deya javob berdim men, – ammo nima ham qila olardik?

– Eh, – xitob qildi u, – agar «Nautilus»im bu bosimga dosh berib, parchalanib ketmaganida edi!

– Unda nima bo'lar edi? – so'radim kapitan Nemoning bu bilan nima demoqchi bo'lganini anglamay.

– Nahotki, siz suvning muzlashi bizga qo'l kelishini tushunmayotgan bo'lsangiz? Axir suv muzga aylangach, u ko'proq joy egallaydi va hech shubhasiz bizni asir qilib turgan muz maydonini, eng mustahkam toshlarni ham muzlab yorganday yorib tashlaydi. Nahotki, siz bu bizning halokatimiz emas, qutulishimizga yo'l ochishini tushunmasangiz!

– Ha, kapitan, bo'lishi mumkin. Ammo «Nautilus» qanchalik mustahkam bo'lmasin, u bu qadar dahshatli bosimga bardosh berolmaydi va muz devorlar uni yupqa yaproq qilib majaqlab tashlaydi.

– Bunisini bilaman, professor. Shuning uchun ham endilikda tabiatdan madad kutayotganim yo'q, balki faqat o'zimga ishonyapman. Qanday bo'lmasin suvning bundan ortiq muzlashiga yo'l qo'ymaslik kerak! Uni to'xtatish kerak! Endi faqat

yon devorlargina yaqinlashayotgani yo‘q: «Nautilus»ning tumshug‘i bilan quyruq tomonidan har biri o‘n futdan ortiq kelmaydigan suv bo‘shlig‘i qolibdi... Muz katagimiz hamma tomondan torayib kelyapti!

– Rezervuarlardagi havo zaxirasi qancha vaqtga yetadi? – deb so‘radim. Kapitan Nemo ko‘zimga tik qaradi.

– Indinga, – dedi u biroz jim turgach, – rezervuarlar bo‘shab qoladi!

Peshanamdan sovuq ter chiqib ketdi. Sirasini aytganda, bu javob meni taajjublantirmasligi kerak edi: 22-martda «Nautilus» qutbdagi ochiq dengiz suvlariga sho‘ng‘igan edi, bugun 26-mart, – bino-barin, biz besh kundan buyon kemadagi zaxira havo hisobiga yashayapmiz. Bundan tashqari, muzni teshish uchun olib borilayotgan suvosti ishlariga anchagina havo ketdi.

Hozir mana shu satrlarni yozar ekanman, boshimdan kechirilgan dahshat xotiramda xuddi kecha bo‘lib o‘tganday shu qadar ravshan turibdiki, qo‘l va oyoqlarimning tomirlari tortishib ketadi va o‘pkamga nafas kirmayotganday jonholatda havo yutaman...

Bu orada kapitan Nemo fikrini bir yerga to‘plab, jimgina xayolga tolgan edi.

To‘satdan uning xayoliga allaqanday fikr kelganini sezdim. Boshda u bu fikrni xayolidan quvmoqchiday bo‘ldi, o‘zi qoniqmagandir. Ammo keyin uning og‘zidan:

– Qaynoq suv! Qaynoq suv! – degan so‘zlar otilib chiqdi.

– Qaynoq suv? – qichqirdim men.

– Ha, professor. Biz juda tor joyda qamalib qolganmiz «Nautilus» nasoslaridan muttasil qaynoq

suv purkab turilsa, u atrofimizdagi suv haroratini ko'taradi va muzlash jarayonini to'xtatadi!

– Bu vositani sinab ko'rish kerak, – dedim men.

– Ko'ramiz, janob professor. Kema tashqarisiga qo'yilgan termometr noldan pastki yetti darajani ko'rsatib turar edi.

Kapitan Nemo ketidan kema oshxonasiga kirdim. U yerda katta qaynatkich – dengiz suvining sho'rini ketkizadigan opresnitel turardi.

Qaynatkichga to'latib suv quyildi va «Nautilus»ning elektr batareyalari butun kuchi bilan suv aylanib o'tgan spiral naychalarni qizitishga qo'yildi. Bir necha minut ichida suv qaynash nuqtasiga yetdi. Nasoslar uni tashqariga haydab chiqara boshladi, o'rniga esa o'sha zahoti yangi sovuq suv kirar edi. Elektr batareyalar chiqarayotgan issiqlik shu qadar baland ediki, spiral naychalarga kirgan muzday dengiz suvi undan yuz daraja harorat bilan chiqar edi.

Uch soat davomida tinimsiz qaynoq suv purkash natijasida simob ustunchasi bir daraja ko'tarilib, minus oltini ko'rsata boshladi. Oradan yana ikki soat o'tgach, u to'rt darajaga ko'tarildi.

– Ta'sir qildi! – dedim men termometr ko'rsatkichini kuzata turib. – Endi g'alaba bizniki!

– Ha, – dedi kapitan, – men ham shunday deb o'ylayman. Biz pachoqlanmaymiz. Endi havo yetishmay bo'g'ilib qolish xavfidan qutulish chorasini ko'rishimiz kerak.

Butun tun davomida suv harorati noldan pastki bir darajagacha ko'tarildi. Biz uni yana ko'tarishga qanchalik urinmaylik bo'lmadi. Sirasini aytganda, muzlash jarayoni to'xtagani uchun bunga ehtiyoj ham yo'q edi. Keyingi kuni, 27-martda, ertalab o'raning chuqurligi olti metr ga yetdi. Shunday qi-

lib, yana atigi to'rt metr qazish qoldi, xolos. Buning uchun yana qirq sakkiz soat lozim edi.

Shu kuni «Nautilus»ning ichida havo o'zgartirilmadi. Kapitan Nemo rezervuarlarda qolgan arzimagan havo zaxirasini suvosti ishlariga saqlab turardi. Kemada nafas olish soat sayin og'irlashib borar edi.

Zilday narsa butun og'irligi bilan ko'kragimni ezayotganday edi. Peshindan keyin soat uchda chidab bo'lmaydigan darajada qiynala boshladik. Men tinimsiz homuza tortar edim. O'pkalarim «Nautilus»ning og'irlashgan atmosferasidan jonholatda hayotbaxsh kislorod zarralarini simirishga intilardi, ammo bu zarralar nafas olgan sari tobora kamaya borar edi.

Miyam va o'zim harakat qilolmay dong qotib qoldim. Darmonsizlanib deyarli hushsiz holda yotar edim.

Mehribon Konsel mendan kam azob chekmayotganiga qaramay, yonimdan bir dam jilmadi. U qo'limni olib, meni tetiklashtirdi. Qulog'imga shivirlagani kirdi:

– Oh, qani edi havoni xo'jamga ehtiyot qilish uchun nafas olmasligimning iloji bo'lsa!

Bu so'zlarni eshitib ko'zlarimda yosh qalqidi.

Kema ichida nafas olish og'irlashgan sari ishlash navbati yetganda shunchalik bajonidil skafandrlarni kiyadigan bo'ldik. Cho'kichlar muzga urilib, jaranglardi. Yelka va bellarimiz charchoqdan zirqirab og'rirdi, qo'llarimiz qadoq bo'lib ketdi. Ammo ko'krakni to'ldirib toza havo simirganda charchoq va og'riqlar hech gap bo'lmay qolarkan.

Shunday bo'lsa-da, hech kim suv ostida keragidan ortiqcha turmas edi.

Ikki soat ishlagach, har bir kishi toza havo

to'latilgan qutqazuvchi rezervuarni kemanding og'ir atmosferasida bo'g'ilayotgan o'rtog'iga uzatishga oshiqar, bu esa unga yana hayot baxsh etar edi.

Kapitan Nemo qat'iy tartibga rioya qilishda birinchi bo'lib namuna ko'rsatar edi. Suvda ish mudдати oxiriga yetgach, u sobit qadamlar bilan kemaga, zaharli atmosferaga qaytar edi. Uning yuzi ilgarigiday osoyishta va og'zidan bitta ham noliydigan so'z chiqmas edi.

O'sha kuni ish odatdagidan ham ko'proq qunt bilan davom etar edi. Bir kecha-kunduzda muz yana ikki metr chuqurlashtirilgan, endilikda biz bilan muzdan xoli suvning oralig'i atigi ikki metr qolgan edi.

Biroq havo rezervuarlari tamoman bo'shagan va Rukveyrol apparatlaridagi zaxirasigina qolgan edi, xolos.

Kemaga kelib, skafandrni yechganimda, o'sha zahotiyoq bo'g'ilishimga sal qoldi. Tunni qanday dahshat bilan o'tkazdim! Uni ifodalash mumkin emas, chunki bunday azob-uqubatlarni so'z bilan bayon etib bo'lmaydi.

Ertalab nafas olishim yanada og'irlashgan edi. Bosh og'rig'i ustiga tez-tez boshim aylanib, mastga o'xshab kalovlanadigan bo'ldim. Yo'ldoshlarim ham xuddi shunday qiynalishayotgan edilar. Matroslardan ba'zi birlari xirillay boshlagan edi.

Qamalib qolganimizning ana shu oltinchi kuni-da kapitan Nemo cho'kich bilan ish nihoyat darajada sust ketayotganini va u oxiriga yetkazilmay havo zaxirasi tugab qolishini o'ylab, bizni ochiq suvdan ajratib turgan muz qatlamini boshqa yo'l bilan teshishga qaror qildi. Bu odam idrok etish, g'ayrati va o'ziga xos sovuqqonligini birday saqlab turar edi. Iroda kuchi bilan u o'zini jismoniy azob-

larga ko'niktirardi. U idrok etar, ixtiro qilar, intilar edi.

Uning buyrug'iga binoan «Nautilus» rezervuarlaridan bir qism suv siqib chiqarildi.

Kema muzdan ko'tarilganda uni biz qazigan ulkan chuqurning xuddi markaziga keltirishdi. So'ngra rezervuarlarga yana suv to'latildi va «Nautilus» chuqurning tubiga borib o'rnashdi.

Butun ekipaj kemaga qaytdi va ikki qavatli eshik zich yopildi.

«Nautilus» qalinligi bir metrdan oshmaydigan, buning ustiga ming yeri parmalangan muz qatlamida turar edi. Kapitan Nemo rezervuarlariga siqqancha suv solishni va shu yo'l bilan «Nautilus» og'irligini yuz ming kilogrammga yetkazishni buyurdi.

Biz chekayotgan azoblarimizni ham unutilib, quloq solib jon-jahdimiz bilan kutib turar edik. Qutulish uchun qilinayotgan tavakkal edi bu.

Quloqlarim qattiq g'uvullab turganiga qaramay, ko'p o'tmay men «Nautilus» korpusi ostida muz sharaqlayotganini eshitdim. Ovoz borgan sari kuchaymoqda edi. Biz pastlashib borardik. Muz qog'ozni yirtayotgandagiga o'xshash g'alati ovoz chiqarib yorilmoqda edi. «Nautilus» pastga tusha boshladi.

– O'tayapmiz, – deya qulog'imga shivirladi Konsel. Unga javob berishga holim kelmadi. Uning qo'lini olib mahkam siqib qo'ydim.

«Nautilus» og'ir ballasi bilan bo'shliqda ucha-yotgan o'q singari dengiz qa'riga toshday tushib ketdi.

Bir zumda batareyalardagi butun quvvat nasoslarga berildi va rezervuarlardagi suv shuvullab chiqa boshladi. Bir necha minutdan so'ng bizning pastlashuvimiz sekinlashdi, so'ngra esa tamoman

to'xtadi va manometr mili ko'tarila boshlaganimizni ko'rsatdi.

«Nautilus» vinti shu qadar tez ishlab ketdiki, butun kemaning korpusi zirillab, qaldiray boshladi va biz shimol tomon uchib ketdik.

Biroq bu muz ostidan ochiq dengizga suzib chiqquncha qancha vaqt ketadi? Yana bir kunmi? Unda men bardosh berolmayman...

Men kutubxonadagi divanda yonboshlab o'tirgan edim. Nafasim bo'g'ilayotgan edi. Yuzim ko'karib, lablarim tamoman qoraydi. Barmoqlarimni qimirlatishga ham darmonim qolmagan edi. Men hech narsani ko'rmasdim, quloqlarim eshitmasdi, vaqtni idrok etishdan mahrum bo'lgan edim. Mushaklarim qotib qoldi...

Shu ahvolda necha soat yotganimni bilmayman. Biroq o'qtin-o'qtin hushimga kelganimda jon talvasasi boshlanganini sezdim. Jon berishim muqarrarligini bildim...

To'satdan o'zimga keldim. O'pkamni toza havo siypalab o'tdi. Nahotki, suv sathiga chiqqan bo'lsak? Uzluksiz yaxlit muzlar mintaqasidan o'tganimizni qanday qilib sezmay qoldim ekan?

Yo'q, biz hamon muz ostida edik! Bu Konsel bilan Ned Lend, sodiq do'stlarim, meni qutqarish uchun o'zlarini qurbon qilayotgan edilar. Rukveyrol apparatlaridan birida biroz havo saqlanib qolgan ekan. O'zlari foydalanmay bo'g'ila turib, bu havoni in'om etib, menga hayot nafasini ufurdilar.

Hushimga kelgach, qutqaruv apparatini o'zimdanda nari itarmoqchi bo'ldim, ammo ular qo'llarimni ushlab turdilar va men bir necha minut davomida hayotbaxsh gazni rohatlanib yutdim.

Soatga qaradim. Ertalabki o'n bir edi. 28-mart boshlangan edi.



«Nautilus» dahshatli tezlik bilan – soatiga qirq milya bosib, suvni o‘qday yorib borar edi.

Kapitan Nemo qayerda qoldi ekan? Tirikmikin? Uning o‘rtoqlari omon qolishdimikin?

Shu daqiqada manometr mili dengiz sathidan atigi yigirma fut pastda ketayotganimizni ko‘rsatardi. Ochiq havodan bizni faqat yupqagina muz yalangligi ajratib turar edi. Nahotki, uni yorib bo‘lmasa?

Yo‘q, mumkin! Har holda «Nautilus» shunga hozirlik ko‘rayotgan edi.

U quyruq tomonini pastlatib o‘tkir forshtevnini ko‘tarayotganini payqadim. Kemani bunday holatga keltirish uchun quyruq tomondagi rezervuarga ozroq suv quyish kifoya edi. Shundan so‘ng kuchli vintlar vositasida yuqoriga ko‘tarildi va muz yalangligiga ulkan taran singari hujum boshladi.

«Nautilus» bir joyning o‘ziga bir necha marta uzoqdan tez suzib kelib muz qatlamini o‘z og‘irligi bilan teshib chiqqanimizcha ura boshladi.

Lyuk ochiq, to‘g‘rirog‘i, buzilgan, binobarin «Nautilus»ning burchak-burchaklarigacha toza havo oqimi kirib keldi...

## *O‘n yettinchi bob*

### **GORN BURUNIDAN AMAZONKAGA**

Palubaga qanday qilib chiqqanimizni eslay olmayman. Ehtimol u yerga meni kanadalik olib chiqqandir. Men hayotbaxsh dengiz havosidan ko‘kragimni to‘ldirib, rohatlanib nafas olar edim. Yonimda turgan Ned Lend bilan Konsel dengizning toza nafasidan to‘yguncha simirishayotgan edi.

Uzoq vaqt och yurgan odam unga berilgan taomni nihoyat darajada me‘yorida iste‘mol qi-

lishi kerak, aks holda kasal bo'lib qoladi. Biz esa tamoman boshqa gap, – bizlar o'zimizni cheklab qo'yishimizga hojat yo'q edi va binobarin, o'pkamizni to'ldirib nafas olaverib sarmast bo'ldik.

– Oh, – deya xitob qildi Konsel, – toza havo naqadar soz! Xo'jam istagancha nafas olaversinlar – bu yerda havo hammamiz uchun ham yetarli.

Ned Lend gapirmas, ammo og'zini shu qadar katta ochayotgan ediki, hatto unga akulaning ham havasi kelgan bo'lur edi. Buning ustiga u havoni naqadar zo'r kuch bilan o'pkasiga tortar edi! Kandalik uni charsillab yonayotgan pechkaday hushtak chalib simirar edi.

Tezda madorga keldik. Es-hushimiz to'la o'zimizga kelgach, u yoq-bu yoqqa qaragam, palubada yolg'iz ekanmiz. Bu yerda «Nautilus» matroslaridan hech kim ko'rinmas edi.

Kapitan Nemo ham yo'q edi. Bu g'alati odamlar kema ichida aylanayotgan havo bilan qanoatlanshayotganga o'xshardi. Ulardan hech kim toza dengiz shabadasidan bahra olishga chiqmadi!..

Mening birinchi aytgan so'zlarim hamrohlarim va sodiq do'stlarimga minnatdorchilik bo'ldi.

Jon talvasasi boshlanganda Ned Lend bilan Konsel hayotimni saqlab qolishdi. Ularning bu oliyanob ishiga so'z bilan minnatdorchilik bildirish qiyin edi!

– Qo'ying, janob professor, – deya mening minnatdorchilik so'zlarimni bo'lib qo'ydi Ned Lend, – bu haqda gapirishning hojati yo'q. Bu aytarli ish ham emas. Bunda oddiy narsaga amal qilindi: kimning hayoti zarurroq? O'z-o'zidan ravshanki – sizniki. Binobarin, birinchi navbatda uni saqlab qolishimiz kerak edi, vassalom!

– Yo'q, Ned, u sizlarnikidan zarurroq emas! Hech kimning hayoti oliyanob va himmatli odamlarning

hayotidan azizroq bo'lishi mumkin emas, sizlar esa ham oliyjanob, ham himmatli kishilarsizlar!

– Bo'ldi, bo'ldi, – deb g'udurladi xijolatomuz vaziyatda kanadalik.

– Sen-chi, azizim Konsel, juda qiynaladingmi?

– Xuddi shunday, menga qittakkina toza havo yetinqiramay qoldi, ammo yana birozdan so'ng o'shanaqa havoga ham ko'nikardim, nazarimda. Bundan tashqari, xo'jam qiynoqdan tirishib qolganini ko'rib, nafas olgim ham kelmay qo'ydi. Bunaqa vaqtda odatda aytganlariday nafas aylanmay bo'g'izimga...

Dovdirab qolgan Konsel gapini tugatolmay jim bo'lib qoldi.

– Do'stlarim, – deya hayajonlanib javob berdim men, – boshimizdan kechirgan og'ir damlar bizlarni umrbod mustahkam birodarlik iplari bilan bog'ladi, binobarin sizlar mendan istagan narsalaringizni talab etishlaringiz...

– Talab etamiz ham! – so'zimni bo'ldi kanadalik.

– Nimani? – so'radi Konsel.

– Shu la'nati «Nautilus»dan qochishga qaror qilganimizda janob professorning bizga qo'shilishini.

– Aytganday, – so'radi Konsel, – «Nautilus» qayoqqa ketyapti? Shimolga ketyapmizmi?

– Xuddi shunday, – deb javob berdim men, – biz quyoshga qarab ketyapmiz, bu yerlarda esa quyosh – bu shimol.

– Atlantik okeanganmi yoki Tinch okeanga, ya'ni serqatnov dengizlargami yoki kamqatnoviga ketayotganimizni aniqlab olsak bo'ldi ekan-da? – so'radi kanadalik.

Bu savolga javob berolmadim. Ammo har holda kapitan Nemo kemasini Osiyo va Amerika sohillaridan o'tgan o'sha bepoyon okeanga olib bormasa,

deb qo'rqyapman. Shunday qilib, u jahon bo'ylab sayohatini tugatib, dunyoning «Nautilus» o'zini erkin his etadigan o'sha qismiga qaytadi.

Bordi-yu, biz yana odam yashaydigan yerlardan uzoq bo'lgan Tinch okeanning bepoyon suvlari-ga borib qolsak, unda Ned Lend rejalarini qanday amalga oshiramiz?

Bu muhim savolga ko'p o'tmay javob olishimiz mumkin edi. «Nautilus» katta tezlikda suzib borar edi. Biz tezda Qutb doirasini ortda qoldirib, Gorn buruni tomon yo'l oldik.

31-martda kechqurun soat yettiga yaqin Amerika qit'asining ana shu so'nggi nuqtasi traversida<sup>1</sup> suzib borar edik.

Bu vaqtga kelib boshdan kechirilgan azob-uqubatlar unutila boshlandi. Muz bandisi bo'lib qolgan kunlar haqidagi xotiralar ancha so'nib qolgan edi. Biz faqat kelajak haqida o'ylayotgan edik. Kapitan Nemo salonda ham, palubada ham ko'rinmas edi.

<sup>1</sup> Kapitan yordamchisi kunda xaritaga tushirayotgan belgilar kemamiz qaysi tomonga ketayotganidan meni xabardor qilib turar edi. Shu kecha biz Atlantik okeanga boradiganga o'xshab qoldik.

Men o'z kuzatuvlarim natijasini Konsel bilan Ned Lendga aytdim.

– Bu xushxabar, – dedi kanadalik. – Ammo «Nautilus» qayoqqa ketyapti?

– Hozircha bunisini ayto olmayman, Ned.

– Balki kapitan Nemo Janubiy qutbdan so'ng Shimoliysini ham ochib, undan esa mashhur Shimoli g'arb bo'g'ozini orqali Tinch okeanga o'tmoqchidir?

– Har holda biz uni bunga gijgijlatmasmiz! – dedi Konsel.

---

<sup>1</sup> *Travers* – kema turgan yo'lga perpendikular yo'nalish.

– Ammo biz uni bu rejasini amalga oshirguncha jamiyatimizdan mahrum etishga harakat qilamiz, – deb qo‘ydi kanadalik.

– Nima bo‘lganda ham, – dedi Konsel, – o‘sha kapitan Nemo qandini ursin va men u bilan tanishganimga achinmayman.

– Ayniqsa, undan judo bo‘lganingizdan keyin, – deya kinoya bilan qo‘shib qo‘ydi kanadalik.

Ertasi kuni, 1-aprelda, «Nautilus» tushdan bir necha minut oldin dengiz sathiga ko‘tarilganda, biz allaqanday sohil ko‘rinib turgan joyda edik.

Bu Olovli Yer edi. Mahalliy aholi kulbalarining tomilarida behisob tutun burqsib turganidan uni dastlabki tadqiqotchilar shunday deb atashgan.

Janubiy kenglikning 53- va 56-gradusi hamda g‘arbiy uzunlikning 67-gradus 50-minuti va 77-gradus 15-minuti oralig‘ida joylashgan Olovli Yer orollar tizmasidan iborat bo‘lib, uzunligi bir yuz yigirma va eni uch yuz yigirma kilometr yerni ishg‘ol etgan edi. Bizdan uncha uzoq bo‘lmagan orol pasttekislik edi, biroq ufqda baland tog‘lar ko‘zga tashlandi. Sarmiento tog‘iga o‘xshatganday bo‘ldim. Bu tog‘ning ingichkalashib borgan cho‘qqisi dengizchilarga ob-havoni oldindan bildirib turar edi. Yonidan arrasimon bo‘lib ko‘rinadigan tog‘ ko‘m-ko‘k osmon fonida yorqin aks etsa, havo yaxshi bo‘ladi, tuman pardasiga o‘ralib qolsa, demak yomon havo kutiladi. Ned Lend menga shunday deb tushuntirdi.

– Xo‘sh, Ned, bu barometr to‘g‘ri ko‘rsatadimi? – deb so‘radim men.

– Juda to‘g‘ri, janob professor, – javob berdi kanadalik. Magellan bo‘g‘ozidan necha marta suzib o‘tgan bo‘lsak, u bizni biror marta ham aldagani yo‘q.

Shu daqiqada tog‘ cho‘qqisi ko‘m-ko‘k osmon

fonida yaqqol ko'zga tashlanib turar edi. Bu yaxshi havо bo'lishidan dalolat berar edi. Darhaqiqat to'g'ri chiqdi.

«Nautilus» yana suvostiga sho'ng'ib, shimol tomon suzishini shitob bilan davom ettirdi.

Kechqurun biz Falklend orollariga yetib keldik va ertasi kuni tong pallasida okean sathiga ko'tarilganimizda, men u yerdagi tog'larning dahshatli cho'qqilarini ko'rdim. Okeanning bu joyi uncha chuqur emas edi. Bu meni orollar tizmasining ikkita asosiy oroli va unga tutashgan boshqa mayda orolchalar uzoq o'tmishda Magellan yerlarining bir qismini tashkil etgan, degan fikrga olib keldi.

Falklend orollari, aftidan, mashhur Jon Devis tomonidan ochilgan bo'lishi kerak, u Devis janubiy orollari deb nomlangan edi. Ancha vaqtdan keyin uni Bokira ayol orollari deb, XVIII asrning boshlarida Sen Malo dengizchilari bu orollarni o'z shaharlari sharafiga Maluin deb, nihoyat orollar hozir ham hukmronliklarida bo'lgan inglizlar unga Falklend deb nom qo'yishgan.

Yovvoyi g'oz va o'rdaklar gala-gala bo'lib, paluba ustida charx urishardi va ulardan ko'pi o'sha kuniyoq dasturxonimizni bezadi.

Baliqlardan kolben oilasining turlari, ayniqsa, uzunligi yigirma santimetr keladigan, hamma yog'i qo'ng'iroq va sariq qashqa bilan qoplangan bichokkolbenlarni ayniqsa sinchiklab ko'zdan kechirdim.

Falklend orollaridagi tog' ko'zdan g'oyib bo'lgach, «Nautilus» suvga sho'ng'idi va yigirma-yigirma besh metr chuqurlikda Janubiy Amerika sohillari bo'ylab suzib ketdi.

Kapitan Nemo ilgarigiday ko'rinmas edi.

3-aprelgacha biz patagon suvlarida goh okean qa'riga sho'ng'ib, goh sathiga ko'tarilib suzdik.

4-aprelda «Nautilus» La-Plata deltasi hosil etgan keng liman<sup>1</sup> yonidan o'tib, sohildan ellik milyacha berida Urugvay traversiga chiqdi. Kapitan Nemo Amerika qit'asining barcha ilon izi sohillaridan o'tib, hamon shimol tomon yo'l tutayotgan edi. Suvosti kemasiga Yapon dengizida chiqqanimizdan buyon «Nautilus» o'n olti ming lyo yoki oltmish to'rt ming kilometr masofani bosib o'tgan edi.

Ertalab soat o'n birlarga yaqin biz o'ttiz yettinchi meridianda Kozerog tropigini kesib o'tdik. Aftidan, kapitan Nemoga, Ned Lendning baxtiga qarshi, aholi yashaydigan bu joylarning Braziliyaga yaqinligi yoqmadi shekilli, u o'z kemasini kishini esankiratuvchi katta tezlik bilan haydadi. Qanchalik tez harakat qilmasin, bironta baliq, biror qush «Nautilus»ni quvib yetolmasdi va shuning uchun ham biz bu dengizlardagi hayvonot dunyosini kuza-tish imkoniyatidan mahrum edik.

9-aprelgacha o'sha shiddatli tezlikda suzib bordik. Shu kuni kechqurun biz Janubiy Amerika qit'asining eng sharqiy nuqtasi – Rok buruni yoniga kelib qoldik. Biroq bu yerda «Nautilus» yo'lini o'zgartirib, ancha chuqurlikka sho'ng'idi va Rok buruni hamda Afrika sohilidagi Leon qoyasi oralig'idagi suvosti pastligi tomon suzib ketdi. Bu pastlik Antil orollari balandligida ikkiga ajraydi va shimolga borib, to'qqiz ming metr ichkarida ulkan chuqurlik bilan tugaydi. Bu yerlardan Kichik Antil orollarigacha okean tubining geologik kesimi balandligi olti ming metrli tikka qoyalardan iboratdir. Yashil Burun orollari yaqinida balandligi bundan kam bo'lmagan ikki devor o'tib, u janubda suvga cho'kkan Atlantida qit'asiga borib taqaladi. Bu ulkan vodiy tubining ba'zi yerlari tog'lar bilan qop-

---

<sup>1</sup> *Liman* – daryo etaklaridagi ko'rfaz.

langan bo'lib, suvosti manzarasini go'zallashtirib yuborgan edi. Men bu gapni asosan kapitan Nemo-ning bevosita kuzatuvlari natijasida, o'z qo'li bilan tuzilgan bo'lsa ham ajab emas, kartaga qarab ayt-yapman.

Ikki kun mobaynida bu suvlarning barcha chuqurliklarida bo'ldik. «Nautilus» o'zining chuqurlik rullarini ishga solib, tikka holatda ortida ilon izi hosil etib suzar edi.

Ammo 11-aprelda u to'satdan suv sathiga ko'tarildi va biz Amazonka daryosi quyiladigan joyda yana yerni ko'rdik. Bu daryo deltasidan dengizga shu qadar ko'p suv quyilar ediki, sohildan juda ko'p milya narida ham okean suvi chuchuklashib borar edi.

Biz ekvatoridan o'tdik. Juda yaxshi boshpana bo'la oladigan Fransiya mustamlakasi Gviana bizdan yigirma milyacha g'arbda qolib ketdi. Ammo kuchli shamol va shiddatli to'lqinlar yengil qayiqchani suvga tushirishni xayolga ham keltirishga qo'ymas edi. Bu Ned Lendga ham ayon bo'lsa kerak, qochish haqida og'iz ochmadi. Men ham oqibati albatta falokatga olib keladigan tentakona biror ishni boshlab qolmasin deb, unga bu haqda hech narsa demadim.

Sirasini aytganda, bu monelikdan men sira o'ksinmay, o'zimni ajoyib kuzatuvlar bilan ovuntirar edim. Ikki kun davomida – 11- va 12-aprelda «Nautilus» hamisha dengiz sathida bo'ldi va uning to'rlariga juda ko'p zoofitlar, baliqlar va o'rma-lovchilar tushdi.

To'rga tushgan baliqlardan biri Konselning xotirida yaxshi saqlanib qoldi, hatto anchagacha eslab yurdi.

Voqea bunday bo'lgan edi.



Matroslar tashlagan to'rga boshqa baliqlar qatorida yassi va agar dumi qirqib tashlansa dum-dumaloq skatning xili tushdi. Bu skat kattagina bo'lib, vazni yigirma kilogrammdan kam emas edi; uning qorni oq, qo'ng'ir yelkasida marmarga o'xshash katta-katta qashqalari bor, terisi silliq va suzgichlari ikki parrakli edi.

To'rdan palubaga tashlangan skat jonholatda ti-pirchilab, qorniga ag'anab olmoqchi bo'ldi va changak bo'lib paluba chetiga shu qadar yaqinlashib qoldiki, suvga dumalab tushishiga bir sekundgina kifoya edi. Ammo u Konselning diqqatini jalb etgani uchun men uni to'xtatishga ulgurmay, baliqni ikki qo'llab ushlab oldi.

Shu zahotiyuq u yarim shol holatida o'zini palubaga tashladi.

U qichqirardi:

– Oh, xo'jam, xo'jagimam! Yordam bering!

Bu – men u bilan tanishganimdan buyon sho'rlikning birinchi bor uchinchi shaxsda emas, ikkinchi shaxsda murojaat etishi edi.

Kanadalik bilan men uni oyoqqa turg'izdik va tez ishqalay boshladik. Konsel oyoq-qo'llarini idora etish darajasiga yetgach, bu abadiy tasnifchi uziq-yuliy ovozda shivirladi:

– Baliq sinfi, qiltanoqli baliqlar sinfchasi, skatlar guruhi, elektr skatlar oilasi, marmar elektr skatlar turi...

– Ha, og'ayni, – dedim men, – xuddi shu marmar elektr skat seni shu azobga solib qo'ydi.

– Xo'jamni ishontirib aytamanki, – deya e'tiroz bildirdi Konsel, – men skatdan o'ch olaman.

– Qanday qilib?

– Men uni yeyman!

– U o'sha kechasiyoq skatning go'shti juda be-

mazaligiga qaramay, aftidan, faqat o'ch olish uchungina bo'lsa kerak, aytganini qildi.

Sho'rlik Konsel elektr skatlarning eng xavfli turiga duch kelgan edi. Yaxshigina o'tkazgich hisoblangan suvda turib bu skat o'zidan bir necha metr masofadagi baliqni o'ldiradi: uning elektr zaryadi shu qadar kuchli.

Ertasiga, 12-aprelda, kunduzi «Nautilus» Marona daryosi quyiladigan joyga yaqin yerga Gollandiya mustamlakasiga yaqinlashdi.

Bu yerda biz bir necha lamantinlar oilasini ko'rdik. Bu manatlar bo'lib, dyugonlar singari si-renlar guruhiga kirar edi. Bu ulkan maxluqlarning uzunligi olti-yetti metr bo'lib, vazni salkam to'rt ming kilogrammga borar edi.

Men Konselga tadbirkor tabiat bu sutemizuvchilarga foydali ishni topshirib qo'yganini gapirib berdim: ular tulenlar bilan birga suvosti kengliklarida yashab, tropik daryolar quyiladigan joyni ifloslantiradigan o'tlardan tozalaydilar.

– Bilasizmi, – deb qo'shib qo'ydim men, – odamzod Janubiy Amerika sohillarida bu maxluqlarni butunlay qirib tashlagandan keyin nima bo'lgan? Daryolar quyiladigan joylardagi chirigan yo'sinlar ham suvni, ham havoni zaharladilar, zaharlangan havoda esa bu ajoyib mamlakatlar uchun ofat bo'lgan sariq bezgak keng tarqaladi. Butun tropik dengizlarning sohillari zaharli o'simliklar bilan to'lib ketdi, binobarin, bu kasallik Rio-de-la-Platadan Floridagacha tarqaldi.

Tusnelning fikricha, so'nggi tulenlar va kitlar qirib bitkazilgach, kelajak avlod boshiga tushadigan falokatlar oldida bu hali hech gap emas. Unda dengizlar bemalol ko'paya oladigan meduza va kalmarlar bilan to'lib-toshib, turli infeksiyalarning

katta o'chog'i bo'lib qoladi, chunki «tabiat dengizlarni tozalash vazifasini yuklagan bu katta qorinlar yo'qolib ketadi».

– «Nautilus» ekipaji bu nazariyalarga unchalik ishonmaydiganga o'xshaydi, shuning uchun ham go'shti molnikidan ancha mazaliroq manatlarning oltitachasini ovlab oldi.

Bu maxluqlarni ovlashning hech qanday qizig'i yo'q edi – manatlar o'zlarini himoya etmay, qochib qutulishga harakat ham qilmay, o'limlariga tik qarab turaverar edilar. Shunday qilib, «Nautilus» omborxonalari bir necha ming kilogramm go'sht bilan to'ldi, bu esa keyinchalik quritilib, bizga anchagacha mazali taom bo'ldi.

O'sha kuni boyliklarga to'la bu suvlardagi yana bir antiqa ov «Nautilus»da oziq-ovqat miqdorini ko'paytirdi. Palubaga tortib olingan to'rlarning halqasida boshi chetlari go'shtdor, tuxumsimon yassi shakldagi plastinka bilan tugaydigan bir necha baliqlar ilinib qolgan edi. Bu makrel baliqlari oilasiga mansub bo'lgan prilipallar edi. Ularning tuxumsimon plastinkalari harakat qilib turadigan ko'ndalang kemirchaklardan iborat bo'lib, ana shu kemirchaklar oralig'ida baliqlar bo'shliq hosil etardi, bu esa ularga istagan narsaning yuzasiga yopishib olish imkonini berar edi.

To'rlardagi barcha prilipallarni matroslarimiz o'sha zahotiyuq suv to'latilgan maxsus chelaklarga olib tashlashdi.

Baliq ovi tugagach, «Nautilus» suv sathida juda ko'p sonli yirik dengiz toshbaqalari mudrab yotgan sohilga yaqinlashib keldi.

Bu kamyob dengiz o'rmalovchilarini tutib olish uncha oson emas edi, chunki ular tiq etgan tovushdan ham uyg'onib ketadilar, mustahkam kosala-

ri esa garpundan saqlaydi. Ammo prilipallar yordamida toshbaqalarni tutib olish juda oson. Bu baliq – tirik qarmoq har qanday baliqchiga omad keltirar edi.

Matroslar prilipallarning har birining dumiga bittadan halqa kiygizishdi. Bu halqalar ularning erkin harakat qilishiga xalaqit bermaydigan darajada keng edi. Ana shu halqalarga uzun arqon bog'lab, uning bir uchini paluba panjarasiga mahkamlab qo'ydilar.

Suvga tushirilgan prilipallar o'sha zahotiy oq toshbaqalar oldiga suzib bordilar va ularning kosalariga yopishib oldilar. Ular shu qadar qattiq o'rnashib olishdiki, uzib olishdan ko'ra burdalab yulish osonroq edi. Endi ular yopishib olgan toshbaqalarni palubaga chiqarish uchun arqonni tortish kifoya edi.

Bu ov saranjomlanishi bilan Amazonka quyilishidan jo'nab ketdik va tunda «Nautilus» yana ochiq dengizda suzar edi.

## *O' n s a k k i z i n c h i b o b*

### **SAKKIZOYOQLAR**

Bir necha kungacha «Nautilus» Amerika sohilidan uzoqda suzdi. Kapitan Nemo, aftidan, Meksika qo'ltig'iga ham, Antil orollari bo'ylab o'tadigan suvlarga ham kirishni istamayotganga o'xshardi. Bunga sayozlikni sabab qilib ko'rsatib bo'lmaydi, chunki bu dengizlarning o'rtacha chuqurligi bir ming sakkiz yuz metr ga yetadi. Behisob orollar bilan to'lgan, paroxodlar tez-tez uchrab turadigan bu suvlar kapitan Nemoga shunchaki yoqmagan.

16-aprelda qariyb o'ttiz milya masofadan Martini orolini ko'rdik. Uzoqdan uning tog' qirralari aj-

ralib turar edi. Kapitanga sezdirmay qayiqni olishga erishsa yerga yoki orollar oralig'ida qatnayotgan juda ko'p kemalardan biriga chiqib olish borasidagi rejalarini shu yerda amalga oshirishga umid bog'lagan kanadalikning tarvuzi qo'ltig'idan tushdi. Ammo ochiq dengizda bu haqda o'ylab o'tirishning ham hojati yo'q edi.

Biz Ned Lend va Konsel bilan bu ahvolni atroflicha fikrlashib oldik. Roppa-rosa olti oydan buyon «Nautilus» kemasida bandimiz. O'n yetti ming lyo – oltmish sakkiz ming kilometr yo'l bosdik va Ned Lend aytganiday, vaqti kelib sayohatimiz poyoniga yetadi, deyishga hech qanday asos yo'q. Shuning uchun kanadalik menga kapitan Nemoni bizni umr bo'yi o'z kemasida saqlamoqchi bo'lsa ro'yirost aytishga majbur qilib ko'rishni taklif etdi.

Bu menga unchalik yoqmadi. Menimcha, bu tamoman befoyda urinish. Axir biz kapitan Nemo marhamatiga umid bog'lab bo'lmasligiga allaqachon ishonch hosil qilganmiz-ku! Buning ustiga oxirgi paytlarda kapitan ilgarigidan ham tundroq, biqiqroq, badjahlroq bo'lib qoldi.

U o'zini mendan olib qochayotganday edi. Men uni ahyon-ahyonda ko'rar edim. Bir vaqtlar u menga suvosti mo'jizalarini imkoniyat boricha ko'rsatib, shundan bahra olar edi; endi u salonga ham kelmay qo'ydi.

Unda qanday o'zgarish sodir bo'ldi ekan? Nimadan? Men uni ranjitganim yo'q. Balki bizning kema-daligimiz unga og'ir botayotgandir? Nima bo'lganda ham vaqti kelib shu odamning bizni ozod etishiga umid qilmas edim.

Men Ned Lenddan uning takliflarini o'ylab ko'rishga imkon berishini so'radim. Bordi-yu, bu urinish kutilgan natijani berolmasa, unda kapitan

Nemoda shubha uyg'otib qo'yadi va kanadalikning rejalarini amalga oshirishga xalaqit beradi. Bizning kema-dagi hayotimiz yanada og'irlashadi.

Shuni e'tirof etishim kerakki, birontamiz ham sog'lig'imizdan sira shikoyat qilolmas edik. Janubiy qutb muzliklaridagi qattiq sinovni hisobga olmaganda biz, na Ned, na Konsel, na men o'zimizni hech qachon bundan yaxshiroq his etmaganmiz. Foydali ovqat, sof havo, bir me'yordagi hayot, hamisha mo'tadil iqlim - bularning barisi kasalni yo'latmas edi.

Kapitan Nemo uchun yerdagi xotiralar afsuslanishiga sira o'rin qoldirmasligini, qayerda bo'lmasin, o'zini uyidagiday his etishini, shunaqa umr kechirish uning uchun a'lo hisoblanishini yaxshi tushunar edim. Ammo biz insoniyat bilan aloqamizni uzmagani edik va bunday qilishni o'ylayotganimiz ham yo'q. Chunonchi, men shov-shuvga sabab bo'ladigan suvosti kuzatuvlarimni o'zim bilan birga go'rga olib borish niyatim sira yo'q.

Endi men dengiz tubining sirlari haqida kitob yozishga shak-shubhasiz haqliman va, albatta, bu kitob ertami-kechmi ro'yobga chiqishini istar edim.

Loaqa Antil orollaridan o'tadigan mana shu suvlarni oling. Okean sathidan o'n metr chuqurlikda har kuni qanday ajoyib kuzatuvlar olib borib, kundaligimga yozganman!

Bu yerda tekkan joyni qichitqi o't singari kuydiradigan va zaharli suyuqlik ajratadigan meduzalar uchradi. Halqaga o'xshagan qurtlardan bu yerda uzunligi bir yarim metr, pushti rang xartumli va bir ming yetti yuzta harakat organi bo'lgan annelidlar bor edi. Ular suv ostida buralib, atrofga kamalak singari barcha rangda nur taratardi. Kemirchakli baliqlardan bu yerda uzunligi o'n fut va vazni ikki

yuz qirq kilogramm keladigan, ko'krak suzgichlari uchburchak, kifti do'ppaygan, ko'zlari boshining old tomonining ikki chetida lo'q bo'lib turadigan skatlar bor edi. Ular bizning derazalarimizga zich qilib qoqilgan to'siqlarday yopishib, halokatga uchragan kema parchalari singari suzar edi. Bu yerda tabiat faqat ikki – oq va qora bo'yoq bergan Amerika spinoroglari; uzunligi bir yarim metr, kalta, ammo o'tkir tishli makrellar uchradi. Shuningdek, boshidan dumigacha oltinrang tasma bilan qoplangan, suzgichlari benihoya go'zal sulton baliqlar gala-gala bo'lib suzib yurishar edi. Tabiat yaratgan bu eng go'zal baliqlar bir vaqtlar ma'buda Dianaga bag'ishlangan bo'lib, ayniqsa, davlatmand rimliklar tomonidan yuksak baholangan edi. Ular haqida hatto maqollar to'qilgan: «Sulton baliqlar uni ovlaganlarga nasib qilmaydi». Nihoyat duxoba va ipaklik kiyib olganday qoya baliqlari oilasidan oltinrang monaxlar ko'z oldimizdan Veroneze<sup>1</sup> rasmidagi sinorlar singari suzib o'tishar edi. Kichkinagina chaqqon sparlar bu baliqlar yaqinlashishi bilan duch kelgan tomonga qochishardi. Kefallar o'zlarining go'shtdor dumlari bilan suvni yorib suzishar edi. O'z nomlariga munosib oybaliqlar suzgan joylarida atroflariga oq yog'du taratar edilar.

«Nautilus» bundan chuqurroq suv qatlamlariga tushmaganida, yana allaqancha ajoyib va yangi turlarni ko'rgan bo'lur edim! Pastga qaratib qo'yilgan gorizontal rullar uni ikki, uch va uch yarim ming metr chuqurlikka olib tushib ketdi. Bu yerda hayvonot olamidani dengiz yulduzlari, meduzalar va ba'zi bir xil molluskalargina bor edi.

20-aprelda biz bir yarim ming metr chuqurlikda

---

<sup>1</sup> Veroneze – mashhur italyan rassomi.

suzdik. Eng yaqin yer suv sathida xarsangtoshlari ko'rinib turgan Bagama orollari edi. Yonlarini suv silliqлагan va ulkan yo'sinlar qoplab yotgan baland suvosti qoyalari chiqib turar edi. Bu titanlar olamiga munosib chinakam dengiz bog'i edi!

G'oyat katta bu o'simliklar bizni tabiiy ravishda bahaybat dengiz hayvonlari haqida o'ylashga majbur qildi. Biroq «Nautilus» derazalaridan uzun suvosti novdalari ustida men qisqichbaqasimonlar oilasining faqat ayrim namunalari – uzun qisqichli binafsharang qisqichbaqalarni ko'rdim.

Ned Lend baland suv o'tlari orasida bir nima bo'lyapti, deb diqqatimni jalb etayotganida soat o'n bir edi.

– Bu sakkizoyoqlar uchun juda qulay joy, – dedim men, – va bu yerda u bahaybat maxluqlarni ko'rguday bo'lsam, sira ajablanmas edim. Ammo do'stim Ned, aftidan, adashganga o'xshaydi, chunki bu yerda shubhalantiruvchi biror narsa ko'rmayapman.

– Attang, – dedi Konsel. – Eshitishimcha butun boshli kemalarni tubsiz dengiz qa'riga sudrab keta oladigan shu sakkizoyoqlardan birini jon deb tomosha qilgan bo'lardim. Bu bahaybat maxluqlar krak...

– Krak ham, boshqa hamma narsa ham shu yerda! – deb kinoya bilan uning so'zini bo'ldi Ned.

– ...krakenlar, – deya masxara qilinayotganiga sira parvo qilmay so'zini tugatdi Konsel.

– Dunyoda shunaqa bahaybat maxluqlar borligiga, – dedi Ned Lend, – sira ishonmayman.

– Nega endi? – deya e'tiroz bildirdi Konsel.

– Axir biz narvalning mavjudligiga ishongan edik-ku.

– Ammo adashgan ekanmiz, Konsel!



– Shubhasiz! Biroq boshqalar uning mavjudligiga hamon ishonishmoqda.

– Ehtimol shundaydir, Konsel, ammo menga qolsa bu bahaybat maxluqlarni o‘z qo‘lim bilan yorib ko‘rganimdagina ularning mavjudligiga ishonaman, – dedim men.

– Shunday qilib, – dedi Konsel, – xo‘jam sakkizoyoqlar borligiga ishonmas ekanlar-da?

– Ilgari birov ishonganmidi? – deya qichqirdi Ned Lend.

– Juda ko‘p odamlar ishongan, do‘stim Ned.

– Faqat baliqchilar emas! Olimlar – bo‘lishi mumkin.

– Meni kechirasiz, – Ned, – baliqchilar ham, olimlar ham.

– Ammo men, shaxsan o‘zim, – dedi Konsel juda jiddiy qiyofada, – sakkizoyoqning changalida katta kemaning chuqurlikka cho‘kayotganini o‘z ko‘zlarim bilan ko‘rganman.

– Shaxsan o‘zingiz ko‘rganmisiz? – deb so‘radi kanadalik.

– Ha, Ned.

– O‘z ko‘zlaringiz bilan, a?

– Ha, do‘stim Ned.

– Qayerda, bilsak bo‘ladimi?

– Sen-Maloda, – deb parvosizgina javob berdi Konsel.

– Portdami? – masxaraomuz so‘radi Ned.

– Yo‘q, cherkovda, – javob berdi Konsel.

– Cherkovda? – taajjub ichida xitob qildi kanadalik.

– Ha, do‘stim Ned. Bu biz xuddi hozir gapirganimizday sakkizoyoq tasvirlangan surat edi.

– Ha, bundoq deng! – deya qichqirdi Ned Lend va qah-qah otib kuldi. – Konsel meni kalaka qilyapti!

– Axir Konsel to‘g‘ri aytyapti, – dedim men. – Men bu surat haqida eshitganman. Uning sujeti afsonadan olingan, tabiiyot tarixiga doir afsonalarga qanday munosabatda bo‘lish kerakligini bilasizmi, ayniqsa, gap bahaybat maxluqlar ustida borganda. Bu o‘rinda tasavurning chegarasi bo‘lmaydi. Odamlar butun boshli kemani dengiz qa‘riga cho‘ktiradigan sakkizoyoqlar haqidagi hikoyalar bilangina kifoyalananayotganlari yo‘q. Nikolay Magnus degan kishining aytishicha, u uzunligi bir milyaga yetadigan va tirik mavjudotdan ko‘ra orolga o‘xshagan sakkizoyoqni ko‘rgan ekan. Boshqa «o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan» kishining xabar berishicha: bir kuni yepiskop Nidrosskiy katta qoya ustiga mehrob qurgan ekan. Ibodat qilib bo‘lgach, qoya o‘rnidan qo‘zg‘alib dengizda suzib ketibdi. Ma‘lum bo‘lishicha, u qoya emas, sakkizoyoq ekan.

– Hammasi shumi? – so‘radi kanadalik.

– Yo‘q, – deb javob berdim men. – Boshqa bir yepiskop, Pontoppidan Berxemskiy ustida butun bir otliq askarlar polki bemalol mashq o‘tkazgan sakkizoyoq haqida xabar qilgan.

– Ammo bu yepiskoplar qanchalik yolg‘onchiya! – dedi Ned.

– Nihoyat qadimgi tabiatshunoslar og‘zi butun bir qo‘ltiqday keladigan, o‘zi shu qadar kattaki, Gibraltar bo‘g‘ozidan sig‘magan bahaybat maxluqlar haqida hikoya qilganlar.

– Kattaligini qarang-a! – dedi kanadalik.

– Ammo shu hikoyalarning birontasida loqaq zig‘ircha haqiqat bormi? – deb so‘radi Konsel.

– Hech qanday haqiqat yo‘q, do‘stlarim. Bular da hatto haqiqatning soyasi ham yo‘q. Hikoya qiluvchilarning tasavvuriga bahona bo‘lmasa ham turtki kerak bo‘lgan. Kattagina sakkizoyoqlar va kalmar-

lar borligini inkor etib bo'lmaydi, ammo baribir ular kattalikda kitsimonlardan ortiq emas. Chunonchi, Aristotel, uzunligi besh tirsak, ya'ni uch metr-u o'n santimetr keladigan kalmarlar borligini tasdiqlagan. Bizning baliqchilarimiz uzunligi qariyb ikki metrga yetadigan kalmarlarni tez-tez uchratib turganlar. Tabiatshunoslarning hisobiga ko'ra boshoyoqli – kalmar yoki sakkizoyoqlar – diametri atigi olti futlisining rosa yigirma yetti futli changali bo'ladi. Bahaybat maxluq bo'lib ko'rinish uchun shuning o'zi tamoman kifoya!

Hozirgi kunlarda ham sakkizoyoqlarni ushlashadimi? – deb so'radi kanadalik.

– Ushlashadimi, yo'qmi, bunisini bilmayman-u, ammo dengizchilar ba'zan ularni uchratishadi. Do'stlarimdan biri, gavralik kapitan Pol Bos Hind okeanida juda katta sakkizoyoqqa duch kelganini aytgan edi. Ammo bu bahaybat hayvonlarning borligiga shubha qoldirmagan eng hayratomuz voqea 1861-yili sodir bo'lgan edi.

– U qanday voqea ekan? – deb so'radi Ned Lend.

– Hozir aytaman. 1861-yili Tenerifning shimolisharqida, deyarli biz hozir turgan kenglikda, turli joylarga yuboriladigan «Alektion» kemasining ekipaji o'zidan uncha uzoq bo'lmagan yerda dahshatli sakkizoyoqni ko'rdi. Kema komandiri Buge maxluqqa yaqinlashdi va gapun, hamda qurollardan o'q uzib, hujum boshladi, ammo ko'ngildagi natijaga erishilgani yo'q. Chunki o'q va gapunlar uning yumshoq tanasiga xamirga tushganday bo'tib qolaverar edi. Uzoq davom etgan, ammo natijasiz urinishlardan so'ng ekipaj maxluq tanasiga sirtmoq tashladi. Arqon dum suzgichiga sirg'alib tushib, unga ilinib qoldi. Bahaybat maxluqni kema bortiga tortib olishga urinib ko'rishdi, ammo u shu

qadar og'ir ediki, arqon uni ikkiga bo'lib, dumi uzildi va bu bezagidan ajrab qolgan bahaybat maxluq to'liqlar ichiga g'oyib bo'lib ketdi.

– Bo'lgan voqeami? – deb so'radi Ned.

– Shubha qilib bo'lmaydigan darajada aniq voqea, do'stim Ned. Bu sakkizoyoqni Buge sakkizoyog'i deb nomlashni taklif etishgan.

– Uzunligi qancha bo'lgan? – deb so'radi kanadalik.

– Olti metrcha bo'lsa kerak, to'g'rimi? – dedi deraza oldida turib, yana suvosti qoyalaridagi yoriqlarni ko'zdan kechira boshlagan Konsel.

– Juda to'g'ri, – javob berdim men.

– Bundan tashqari uning boshida, suvda ilon iniday buralib turadigan sakkizta changali ham bo'lganmi?

– Xuddi shunday.

– Ko'zlari kosasidan chiqqan.

– Ha, Konsel.

– Og'zi ham to'tiqushning tumshug'iga o'xshagan-u, faqat haddan tashqari kattami?

– Xuddi shunday.

– Juda soz! Xo'jamning ruxsatlari bilan, – barmaylixotir dedi Konsel, – mana, o'sha Buge sakkizoyog'i yoki juda bo'lmaganda uning eng yaqin urug'laridan biri!

Men hayrat bilan Konselga qaradim. Ned Lend deraza tomon shoshildi.

– Qanday dahshat! – qichqirib yubordi u.

Men derazaga qarab vahimadan yuzimni burishtirmay turolmadim. Ko'z oldimda har qanday eng qo'rqinchli afsonada tilga olinsa bo'ladigan dahshatli maxluq namoyon bo'ldi. Bu g'oyat ulkan, sakkiz metrcha keladigan sakkizoyoq edi. U yirik ko'kimtir ko'zlarini bizdan uzmay shiddat bilan

«Nautilus» tomon suzib kelayotgan edi. Uning sakkizta changali yoki oyoqlari xuddi boshidan chiqqani uchun ham shu xildagi hayvonlar boshoyoqlilar deb atalib, – bu uning tanasini ham ikki baravar kattaroq qilib ko'rsatar edi. Changallarining ichki tomonidagi ikki yuz ellik so'rg'ichi yaqqol ko'rinib turar va yarim aylana shaklidagi shishga o'xshardi. Ba'zan ana shu changallar salon derazasiga yopihib qolganday bo'lar edi.

Bahaybat maxluqning to'ti tumshug'iga o'xshash shoxsimon va qayrilma og'zi bir ochilib, bir yopilardi. Shuningdek uning shoxsimon moddali o'tkir o'simtalar bilan qoplangan tili shu besonaqay ombirlar orasidan qaltirab ko'rinib turar edi. Tabiatning injiqligini qarang! Molluskada qush tumshug'i!

Sakkizoyoqning urchuqsimon, o'rtasi shishgan tanasi go'shtdor bo'lib, kamida yigirma yoki yigirma besh ming kilogramm kelar edi. U turg'un bir rangda emas – tinmay to'q kulrangdan jigarrang-qizg'ish bo'lib o'zgarib turar edi. Bu molluska nimadan jahli chiqayotgan edi? Shubhasiz, so'rg'ich changallari va dahshatli jag'lari zig'ircha ham korqilmayotgan «Nautilus»dan darg'azab edi.

Bu sakkizoyoqlar naqadar dahshatli, tabiat ularga qanchalik kuch-qudrat baxsh etgan, ularning harakatlari naqadar shiddatli!

Tasodif bizni sakkizoyoqqa yo'liqtirdi, bino-barin men shu yakka-yu yagona imkoniyatdan foydalanib, boshoyoqlilarning bu namunasi bilan atroflicha tanishmoqchi bo'ldim. Maxluqni ko'rgandagi qo'rquvimni bosib, qo'limga qalam oldim va uning suratini chiza boshladim.

– Balki bu o'sha «Alektion» ushlagan sakkizoyoqdir? – dedi Konsel.

– Yo‘q, – deya e‘tiroz bildirdi kanadalik, – axir bu bus-butun-ku, u esa dumidan ajralgan!

– Bu isbot bo‘lolmaydi, – deya e‘tiroz bildirdim men. – Bu maxluqning changallari va dumi qayta o‘tib chiqaveradi, binobarin, menimcha Buge sakkizoyog‘ining dumi qayta o‘shishi uchun yetarli vaqt o‘tdi.

– Modomiki, – dedi Ned, – bu nozanin sakkizoyog‘ Bugeniki emas ekan, balki u mana bu yerda, bular orasidamikin?

Darhaqiqat, shtirbort tomondan oynada yana bir necha sakkizoyog‘ ko‘rindi. Ular yettitacha edi. Sakkizoyog‘lar «Nautilus» atrofida tantanavor yurishar va men ularning tumshuqlari kemanding temir qoplamasiga tegib g‘ijirayotganini eshitib turar edim. Kuzatish uchun ajoyib fursat! Men o‘z ishimni davom ettirdim. Maxluqlar bizdan bir qadam ham nari ketishmas, go‘yo harakatsiz turganday, – binobarin, istasam ularning aksini oynaga tushirishim ham mumkin edi, zero, juda osoyishta tezlikda suzardik.

«Nautilus» to‘satdan to‘xtadi. Qattiq turtkidan kema korpusi qaldirab ketdi.

– Biz biron narsaga urildikmi? – so‘radim men.

– Nima bo‘lganda ham bu to‘siq ortda qolib ketdi, negaki biz yana suza boshladik, – deb javob berdi kanadalik.

«Nautilus», shubhasiz, suzishga harakat qilayotgan edi, ammo o‘rnidan qo‘zg‘ala olmas edi. Uning vint parraklari to‘lqinlarni kesolmayotgan edi.

Bir daqiqadan so‘ng kapitan Nemo yordamchisi bilan salonga kirishdi.

Kapitanni anchadan buyon ko‘rmayotgan edim. Nazarimda u ancha ma‘yus ko‘rindi. Bizga sira e‘tibor bermay, ehtimol ko‘rmagani uchundir, dera-

za yoniga bordi, sakkizoyoqlarga qarab olgach, yordamchisiga bir necha og'iz so'z aytdi.

U chiqib ketdi. Ko'p o'tmay to'sqichlar yopildi va salon shipi yorishdi.

Men kapitan oldiga bordim.

– Sakkizoyoqlarning ajabtovur kolleksiyasi, – dedim men nazar-pisand etmaganday soxtalik bilan.

– To'g'ri aytyapsiz, janob tabiatshunos va biz ular bilan hayot uchun emas, o'limga yuzma-yuz turib kurashamiz!

Men hayron bo'lib kapitanga qaradim. Eshitilmaganday bo'lib tuyuldi menga.

– Hayot uchun emas, o'limga yuzma-yuz turib deysizmi? – deb qaytardim.

– Ha, professor. Vint to'xtab qoldi. Menimcha, bu sakkizoyoqlardan birontasining shox jag'lari parrakka tiqilib qolgan. Bu esa harakat qilishimizga xalaqit beryapti.

– Xo'sh, endi nima qilmoqchisiz?

– Suv sathiga chiqib, bu la'natilarni bitta qoldirmay qirib tashlaymiz.

– Og'ir ish.

– Bilib turibman! Elektr o'qlari bu yumshoq narsaga kor qilmaydi: o'qlar qarshilikka duch kelmayapti va shuning uchun portlay olmaydi. Ularga bolta bilan hujum qilishga to'g'ri keladi.

– Garpun bilan ham, kapitan, ko'magimni qabul etsangiz, – dedi kanadalik.

– Qabul etaman, mister Lend.

– Biz ham birga boramiz, – dedim men kapitanga.

Trap oldida o'n matros bolta ushlab turishardi. Men bilan Konsel ham bittadan bolta olib oldik. Ned Lend garpunini oldi.

«Nautilus» okean sathiga ko'tarildi. Dengizchilardan biri trapping so'nggi zinapoyasida turib lyuk qopqog'ining boltlarini buradi. Gaykalarini olishi bilanoq sakkizoyoq changalidagi so'rg'ichlar yordamida bo'lsa kerak, lyuk qopqog'i zarb bilan ochildi. O'sha zahotiyiq uning uzun oyoqlaridan biri ilonday to'lg'anib ichkariga kirdi.

Kapitan Nemo bu dahshatli changalni bolta bilan bo'lib tashlashi hamono zinadan sirg'alib va bu-ralib pastga dumaladi...

Bir-birimizga turtinishib tez palubaga chiqayotganimizda sakkizoyoqning boshqa ikkita changali yashin tezligida kapitan Nemo oldida turgan dengizchiga o'ralib, uni zo'r kuch bilan siqa boshladi. Kapitan Nemo qichqirib, o'zini oldinga tashladi. Biz uning ketidan chopdik. Qanday dahshatli manzara! So'rg'ichlar bilan qisib olingan sho'rlik havoga ko'tarildi-da, xirillab, nafasi bo'g'ilganicha muallaq osilib qoldi. U qichqirar edi:

– Yordam beringlar! Yordam beringlar!

Fransuz tilida aytilgan bu so'zlar meni g'oyat taajjubga soldi. Demak, kema bortida mening vatan-doshim bor ekan, balki ular bir necha kishidir? Qalblarni zir titratadigan bu baqiriqni men bir umr unutmaman!

Bechora halok bo'layotgan edi.

Bu zabardast changaldan uni kim ham qutqara olardi? Kapitan Nemo sakkizoyoqqa tezda yaqinlashib, bolta bilan uning yana bir oyog'ini qirqib tashladi. Uning yordamchisi jon-jahdi bilan «Nautilus» bortiga o'rmalab chiqqan boshqa sakkizoyoqlar bilan kurashayotgan edi. Butun ekipaj qo'llariga bolta ushlab jangga kirishdi. Kanadalik, Konsel va men o'z qurolimizni yumshoq go'shtga botirib olar edik. Havoni mushk hidi tutib ketdi.



Nazarimda bir zumgina sakkizoyoq ko'tarib turgan o'sha sho'rlik uning dahshatli so'rg'ichlaridan ajratib olinadiganday bo'lib tuyuldi. Uning sakkizta oyog'idan yettitasi qirqildi, ammo birgina changal o'z qurbonini kichik bir patday aylantirib havoda buralib turar edi. Biroq kapitan Nemo bilan yordamchisi unga tashlanganda, maxluq oshqozonida joylangan xaltachadan qoramtir suyuqlik purkab yubordi. Bizlar hech narsani ko'rolmay qoldik. Oradan bu parda ko'tarilganda, sakkizoyoq vatandoshim bilan birga g'oyib bo'lgan edi...

O'zimizni qo'yarga joy topolmadik! G'azabdan sher bo'lib ketgandik. O'n-o'n ikkitacha sakkizoyoq «Nautilus» palubasiga chiqib olgan edi. Biz palubada qon va qoramtir suyuqlik ichida to'lg'onayotgan ilonsimon changallar orasida sakrab yurardik. Bu shilimshiq changallar o'n ikki boshli ajdarniki kabi yana o'sib chiqayotganday edi.

Lend garpunining har bir zarbi sakkizoyoqlarning ko'k-yashil ko'zlariga sanchilib teshib tashlayotgan edi. Ammo to'satdan shijoatli o'rtog'imizni maxluq changali o'rab oldi, bunga u chap berolmay qolgan edi.

Dahshat va qo'rquvdan yuragim yorilib ketishiga sal qoldi! Sakkizoyoqning dahshatli tumshug'i Ned Lend ustida ochildi. Yana bir sekund o'tsa sho'rlikni ikkiga bo'lib tashlaydi! Men unga yordamga otildim. Ammo kapitan Nemo mendan oldinroq ulgurdi. U qo'lidagi boltasini maxluqning jag'iga tushirdi va mo'jiza bilan omon qolgan kanadalik oyoqqa turib, sakkizoyoqning ulkan yuragiga garpunini dastagigacha botirdi.

– Sizning oldingizda qarzdor edim, – dedi kapitan Nemo kanadalikka.

Ned indamay ta'zim etdi.

Bu jang chorak soatdan ortiq davom etmadi. Mag'lubiyatga uchragach, jarohatlangan sakkizoyoqlar jang maydonini tashlab, to'liqlar ichrag'oyib bo'ldilar.

Hamma yog'i qonga belangan kapitan Nemo projektor do'ngi oldida qimir etmay turib, yoshli ko'zlarini o'rtog'laridan birini yutgan dengizga tikkan edi.

## *O' n t o' q q i z i n c h i b o b*

### **GOLFSTRIM**

Hech qaysimizning xotiramizdan ko'tarilmaydigan bu dahshatli voqea 20-aprelda sodir bo'lgan edi. Men uni qattiq hayajonlanayotgan holda yangi taassurot bilan yozdim. So'ng qayta ko'rib chiqqach, Konsel bilan kanadalikka o'qib berdim. Ular voqea bayoni juda aniq, ammo uncha ta'sirli chiqmagan, deyishdi. Bunaqa manzarani tasvirlash uchun eng mashhur shoirlarimizdan biri, «Dengiz zahmatkashlari»ning avtori Viktor Gyugoday qobiliyat egasi bo'lish kerak.

Kapitan Nemo dengizga qarab yig'laganini aytdim. U qattiq qayg'urdi. Birga suza boshlaganimizdan buyon u ikkinchi o'rtog'idan judo bo'ldi. Buning ustiga, qanday mudhish o'lim! Bahaybat maxluq changalida ezilgan, uning temir jag'lariga yem bo'lgan o'rtog'i hatto marjon qabristonining osoyishta suvlaridagi birodarlari bilan ham yonmayon yotmaydi!

Mening o'zim olishuv vaqtida to'satdan eshitgan qichqiriqdan yurak-bag'rim ezilib ketdi. Bu fransuz sho'rlik o'zining shartli tilini unutib, halok bo'layotib ona tilida so'zladi!..

Shunday qilib, «Nautilus» matroslari orasida ka-

pitan Nemoga ham ruhan, ham jisman sodiq, uning o'zi singari insoniyat bilan aloqasini uzganlar qatorida mening vatandoshim ham bor ekan! Albatta, ular turli millat vakillaridan tashkil topgan bo'lsa kerak, bu g'alati to'dada u yolg'izmik? Bu oldimda turgan hal etilmagan muammolardan biri bo'lib qoldi.

Kapitan Nemo kayutasiga kirib ketdi va men uni bir necha kun ko'rmadim.

Ammo men suvosti kemasining holatiga qarab uning yuragi hisoblangan va barcha iztiroblarini o'zida aks ettirishidan kapitan Nemoning qayg'usi naqadar og'ir va samimiy ekanligini tushundim. «Nautilus» boshqarilmayotgan edi. U murda singari to'lqinlar surgan tomonga ketayotgan edi. Uning vinti suv kesib, yo'l bosishdan xoli, ammo arang aylanayotgan edi. Kapitan olishuv bo'lgan bu joydan sira ajralgisi kelmas, o'rtoqlaridan birini yutgan dengizdan ketolmay turar edi.

Shu alfozda o'n kun o'tdi.

Faqat 1-mayda «Nautilus» shimolga, Bagam orollari yonidan, Bagam kanalining quyilish joyiga qarab qat'iy yo'l oldi.

Biz endi sohillari, hayvonot olami va o'z harorati bo'lgan okeanning katta daryo oqimidan suzib borar edik. Men Golfstrim haqida so'zlayapman.

Darhaqiqat, bu Atlantik okeanning o'rtasidan erkin oqadigan suvi okeanniki bilan sira aralashib ketmaydigan chinakam daryo edi. Bu daryo suvi atrofini o'rab olgan dengiznikidan sho'rroq edi. Uning o'rtacha chuqurligi – uch ming fut, o'rtacha kengligi esa oltmish milya, o'rta hisobdagi tezligi soatiga to'rt kilometr.

Atlantik okeanning ekvatorial qismida shimoli-sharqiy passatlarning<sup>1</sup> doimiy ravishda esib turi-

---

<sup>1</sup> *Passat* – quruq tropik shamol.

shi ta'sirida tropik quyoshi isitgan suv sathining juda katta oqimi Atlantik okeanni kesib o'tib, Janubiy Amerika tomon shoshiladi. Uning sohillarida bu qudratli oqim Golfstrim nomini olib Antil dengizining issiq suvlaridan o'tgach, yanada qiziydi. Xuddi mana shu yerda yer yuzidagi haroratni bir me'yorda saqlashi kerak bo'lgan Golfstrim o'z vazifasini o'tashga kirishadi.

Meksika qo'ltig'iga kelib, deyarli qaynash darajasiga yetadigan bu oqim shimol tomon Amerika sohillariga ko'tarilib Nyufaundlendgacha boradi. Bu yerda Devisov bo'g'ozining sovuq oqimi ta'sirida yo'nalishini o'zgartiradi va yana katta doira yasab okeanga oqadi.

Qirq uchinchi parallelda Golfstrim ikki tarmoqqa bo'linib ketadi. Ulardan biri shimoli sharqiy passat ta'sirida Biskay qo'ltig'i va Azor orollariga qaytadi, boshqasi esa Irlandiya hamda Norvegiya qirg'oqlarini ilitib, Shpitsbergen tomon boradi va u yerda to'rt darajagacha sovub, Shimoliy qutbda dengizni muzdan xoli etadi.

Bagam kanalidan chiqaverishda Golfstrimning eni o'ttiz milya va chuqurligi uch yuz ellik metrga yetib, soatiga sakkiz kilometr tezlikda oqadi. Shimolga yaqinlasha borgan sari bu tezlik susayadi. Bu esa ayni muddao. Chunki tezlik va oqim yo'nalishi o'zgarsa, Yevropa iqlimi aql bovar qilmaydigan darajada boshqacha bo'lib qoladi.

«Nautilus» okeandagi ana shu daryo bo'ylab suzib borar edi.

Peshinda biz Konsel bilan palubada turar edik. Men unga Golfstrimning ayrim o'ziga xos xususiyatlarini so'zlab berayotgan edim.

Bu haqda gapirib bo'lgach, undan qo'lini suvga tiqib ko'rishini so'radim.

Konsel suvda na issiq, na sovuqni sezmay, juda taajjublandi.

– Buning sababi shundaki, – dedim men unga. – Meksika qo‘ltig‘idan chiqqach, Golfstrim harorati odam badanidagi haroratdan deyarli farq qilmaydi. Golfstrim – bu juda katta issiqlik manbayi, u tufayli Yevropa sohillari hamisha yam-yashil gilam bilan qoplangan. Morining hisobiga ko‘ra, tabiat Golfstrim suvini ilitishga sarflagan issiqlik energiyasi bilan kattaligi Amazonka yoki Missuriday keladigan butun bir daryodagi temirni eritilgan holda saqlay olishi mumkin ekan.

Bu yerda Golfstrim tezligi sekundiga ikki-yu chorak metrga yetar edi. Bu oqim uni o‘rab olgan dengizdan keskin farq qiladi. Uning qoramtir, sertuz suvi dengizdagi yashil to‘lqinlar fonida o‘zining tiniq, ko‘k rangi bilan yaqqol ajralib turadi.

Ularni ajratib turadigan demarkatsiya<sup>1</sup> chizig‘i shu qadar aniq ediki, Karolina orollari yaqinida «Nautilus» bir zumgina tumshug‘i bilan Golfstrim suvini kesayotganda, uning vinti okean to‘lqinlarini chayqatayotgani juda yaqqol ko‘zga tashlandi.

Golfstrim bir olam tirik mavjudotlarni oqizib boradi. Uning suvida O‘rtayer dengizida bo‘ladigan argonavtlarning katta to‘dalari sayr qilib yurishardi. Bu yerdagi kemirchakli baliqlarning ko‘p uchraydigan namoyandalari skatlar bo‘lib, ularning dumlari tanalarining deyarli uch qismini tashkil etar edi; ular uzunligi yigirma besh futcha keladigan ulkan to‘rtburchakka o‘xshardi. Yana biz boshi katta, tumshug‘i esa kalta va dumaloq, bir necha qator o‘tkir tishli, uzunligi bir metr keladigan kichik akulalarni ko‘rdik; ularning tanalari tangachalar bilan qoplanganday edi.

---

<sup>1</sup> Demarkatsiya – ajratib turadigan chegara.

Qiltanoqli baliqlar orasida faqat shu dengizlarda uchraydigan gubanlarni; usti o'tday chaqnab turgan dengiz tovonbaliqlarini; uzunligi bir metr keladigan, tanasidagi xuddi ataylab chizilgandek tasmalari nuqta hamda qashqa shaklida suzgichlarigacha davom etadigan chipor ilonboshlarni; ko'kish tovlanadigan, oltinrang ajoyib oltin makrellarni; ko'zi o'ng tomonda joylashgan paltuslar yoki fletanlarni; paltuslar oilasiga mansub bo'lgan, ammo ko'zlari va kattagina og'zi chap tomonda joylashgan romblar; karnaysimon tumshuqli, yelkasi och pushti va qorni kumushrang juda ko'p loyxo'rak baliqlarni, syomga oilasiga mansub juda ko'p baliqlarni va hokazolarni ko'rdim.

Tun qorong'isida yaltillab turadigan Golfstrim suvi projektorimiz yog'dusidan qolishmas edi. Uning yog'dusi ayniqsa momaqaldiraq boshlanishidan oldin yanada yorqinroq bo'lib ketar edi.

8-mayda hali Shimoliy Karolina kengligidagi burunida suzar edik. Bu yerda Golfstrimning eni yetmish besh milya, chuqurligi esa ikki yuz metr edi.

«Nautilus» ilgarigiday tavakkal qilib suzayotgan edi. Har qanday ehtiyot choralari unutilganday edi. Bunday sharoitda qochish uchun barcha imkoniyatlar mavjud edi. Chindan ham: aholi yashaydigan barcha sohillar bizga boshpana bo'lishi mumkin edi; dengizda Boston bilan Nyu-York yoki Meksika qo'ltig'i oralig'ida juda ko'p paroxodlar qatnamoqda edi; ikki-uch machtali yelkanli kemachalar kechasi-yu kunduzi Amerika sohillaridagi turli yerlarga yuk tashiyotgan edi. Ular bizni olib ketishiga umid bog'lash mumkin edi.

Qo'shma Shtatlar sohillaridan biz uch yuz milya masofada bo'lishimizga qaramay, bu qochish uchun «eng qulay fursat» edi.

Ammo afsuski, birgina vaziyat kanadalik rejalarning amalga oshuviga to'sqinlik qilar edi: havo juda rasvo edi. Biz tinmay momaqaldiroq bo'lib turadigan yerlarga yaqinlashayotgandik, – bu yer Golfstrim boshlab keladigan dovul va quyunlar makoni edi. Mo'rtgina qayiqqa tushib, bo'ronni qarshilab yo'lga chiqmoq – muqarrar halokatga yuz tutish bilan barobar edi.

Ned Lend buni tushunar va binobarin qahrg'azabdan tishlarini g'ijirlatib, qochishni kun sayin ortga surar edi. Nihoyat, o'z vatani dardida kasalga chalindi, uni bu xastalikdan faqat qochish davolashi mumkin edi.

– Janob professor, – derdi u menga, – tezroq qochish kerak! Sizning Nemoingiz borgan sari aholi yashaydigan yerlardan uzoqlashib, shimolga qarab ketyapti. Ammo Janubiy qutbning o'zi ham menga kifoya, Shimoliysiga toqatim yo'q, deb sizga ilgari ham aytgan edim.

– Bunaqa vaqtda qochishning iloji bo'lmasa nima qilish kerak, Ned?

– Men oldingi taklifimni qaytaraman. Kapitan bilan gaplashib ko'rish kerak. Vataningiz sohillari bo'ylab suzib borayotganimizda indamadingiz. Hozir biz mening vatanim sohillari bo'ylab suzyapmiz va men jim turolmayman! Bir necha kundan keyin «Nautilus» Yangi Shotlandiyaga yetib borishini o'ylaganimda va u yerda Nyufaundlend yonidan keng ko'rfaz boshlanishi, muqaddas Lavrentiy daryosi shu ko'rfazga quyilishini va muqaddas Lavrentiy mening jonajon daryoyimligini, jonajon shahrim Kvebekning daryosiligini – bularning barini eslaganimda jinim qo'zg'ab, qaltirab ketaman! Janob professor, ortiq chiday olmayman, o'zimni dengizga tashlayman! Bu yerda qolmayman! Diqqinafas bo'lib ketyapman!

Kanadalikning sabr kosasi to'lib-toshganga o'xshardi. Uning jo'shqin tabiati bu uzoq muddatli bandilikka ortiq bardosh berolmas edi. Uning qiyofasi kun sayin g'am-g'ussaga botib borar edi. Vattanni sog'inib, o'zim ham behol bo'lganimdan u chekayotgan azobni chuqur his etar edim.

Yer bilan aloqamizni tamoman uzganimizdan buyon oradan yetti oy o'tdi. Buning ustiga kapitan Nemoning odamoviligi, sakkizoyoqlar bilan olishuvdan so'ng kayfiyati o'zgargani, og'ziga tolqon solganday indamay yurishi – bularning bari ishni chalkashtirib yubordi. Men birinchi kunlardagi zavq-shavqni endi his etmas edim. Odamlar uchun emas, balki kitlar va boshqa dengiz jonivorlari uchun bo'laveradigan bu sharoitga ko'nikish uchun Konsel singari flamandiyalik bo'lish kerak edi. To'g'risi, agar bu ajoyib odamning o'pka o'rniga jabralari bo'lganida, yaxshigina baliq bo'la olardi.

– Shunday qilib, nima bo'ldi, janob professor? – so'radi Ned Lend javob bermayotganimni ko'rib.

– Shunday qilib, Ned Lend, siz kapitan Nemon dan bizni nima qilmoqchi ekanligini bilib olishimni istaysiz?

– Ha, professor.

– U bu haqda bir marta aytganiga qaramay, siz fikringizda qat'iymisiz?

– Ha. Men bu haqdagi uning fikrini uzilkesil bilmoqchiman. Istasangiz, o'zim haqimda, yolg'iz o'zim to'g'rimda gapirishingiz mumkin.

– Ammo men uni deyarli uchratmayapman. U mendan qochib yuripti.

– Demak, uchrashish uchun ko'proq asosingiz bor!

– Yaxshi, so'rab ko'raman, Ned.

– Qachon? – turib oldi kanadalik.



– Uni uchratganimda.

– Janob Aronaks, kapitanni o‘zimga qidirib topsam maylimi?

– Yo‘q, yo‘q, bu ishni o‘zimga qo‘yib bering. Ertaga...

– Bugun, – dedi Lend.

– Juda soz. Bugunoq uchrashaman, – deya qoldim kanadalikka, bunga uning o‘zi kirishsa hamma ishni buzib yuborishidan qo‘rqib.

Yolg‘iz qoldim. Va‘da berganim uchun uni darhol bajarishga qaror qildim. Men hamisha achchiq bo‘lsa ham haq gapni azobga soladigan mavhumlikdan afzal deb bilar edim.

Xonamga qaytdim. Devor ortidan kapitan Nemo odimlayotgani eshitildi. Bu yaxshi fursatni qo‘ldan boy berish yaramaydi. Men uning eshigini taqillatdim. Hech qanday javob bo‘lmadi. Men yana taqillatdim, so‘ng eshik qabzasini burdim. Eshik ochildi.

Kirdim. Kapitan xonasida ekan. Yozuv stoliga engashib bir nima yozayotgan edi. Oyoq tovushimni eshitmadi.

Gaplashmay ketmaslikka qaror qilib, unga yaqinlashdim. U boshini keskin ko‘tardi, qoshini chimirib, ancha qo‘pol ohangda mendan so‘radi:

– Shu yerdamidigiz? Menda ishingiz bormidi?

– Siz bilan gaplashib olishim kerak, kapitan.

– Ammo men bandman, janob, ishlayapman. Men sizga yolg‘iz qolishga to‘la huquq berdim. Nahotki, mening o‘zimni bu huquqdan mahrum deb o‘ylasangiz?

Bunday sovuq kutib olishdan bo‘lajak muzokaraning muvaffaqiyatli o‘tishiga unchalik umid qilib bo‘lmas edi. Ammo nima bo‘lsa ham ishni oxiriga yetkazishga qaror qildim.

– Janob, – dedim men sovuqqina, – siz bilan

kechiktirib bo'lmaydigan ish haqida gaplashib olishim kerak.

– Qanaqa ish ekan, professor? – deb so'radi u masxaraomuz. – Diqqat-e'tiborimdan chetda qolgan biror kashfiyot qilish baxtiga muyassar bo'ldingizmi? Dengiz biror yangi sirini ochib berdimi?

Hali javob berishga ulgurmay, u menga stoli ustida yotgan qo'lyozmasining varaqlarini ko'rsatdi va ancha jiddiy ohangda qo'shib qo'ydi:

– Mana, janob Aronaks, bir necha tilda yozilgan qo'lyozma. Bular men olib borgan ilmiy tadqiqotlarim natijalari va aminmanki, men bilan birga o'lib ketmaydi. Otim yozilgan va boshimdan kechirganlarim bitilgan bu qo'lyozma suvda cho'kmaydigan kichik apparat ichiga solinadi. «Nautilus» bortida tirik qolgan so'nggi kishi apparatni dengizga tashlaydi va to'lqinlar uni ko'tarib oladi.

Bu odamning nomi! O'z qo'li bilan bitgan hayot yo'li! Demak, shunday qilib, uning siri vaqti kelib ochilar ekan-da?

– Ammo uning bu aytganlari meni qiziqtirayotgan masalaga ko'chish uchun turtki bo'layotganini sezdim.

– Kapitan, – dedim men, – siz amalga oshirmoqchi bo'layotgan ishingizni faqat ma'qullashim mumkin. Mehnatlaringiz samarasi yo'qolib ketishi telbalik bo'lur edi. Ammo siz ixtiro qilgan vosita, nazarimda, juda ibtidoiy. Bu apparatni shamol qayoqqa olib borishini va u kimlarning qo'liga tushishini bilib bo'larmidi! Boshqa biron ishonchliroq yo'li yo'qmikan. Balki sizning o'zingiz yoki o'rtoqlaringizdan biri...

– Hech qachon, janob! – jonholatda so'zimni bo'ldi kapitan.

– Unday bo'lsa, men bilan hamrohlarim – biz,

agar ozodlik hadya etsangiz, bu qo'lyozmani as-rashga tayyormiz...

– Ozodlik? – dedi kapitan Nemo turayotib.

– Ha, kapitan, men siz bilan shu haqda gap-lashmoqchi edim. Biz yetti oydan buyon «Nau-tilus»damiz, binobarin, men bugun o'z nomimdan va o'rtoqlarim nomidan sizdan so'ramoqchiman: bizni o'z kemangizda umrbod bandi qilib saqla-moqchimisiz?

– Janob Aronaks, men sizga bundan yetti oy ol-din bergan javobimni qaytaraman: «Nautilus»ga tushgan odam uni hech qachon tashlab ketmaydi!

– Axir bu qullikning xuddi o'zi-ku!

– Buni nima deb atasangiz ham o'zingiz bilasiz.

– Qul ozodlikka intilishga haqli! Buning uchun barcha sharoit ham yaxshi sanaladi.

– Sizni bu huquqdan hech kim mahrum etayot-gani yo'q, – deb javob berdi kapitan Nemo. – Men sizni biror qasamyod bilan bog'lab qo'ydimmi?

Kapitan Nemo qo'lini ko'kragi ustiga cham-barak qilib qo'yib, menga qaradi.

– Janob, – dedim men unga, – men ham, siz ham ikkinchi marta shu masalaga qaytishni ista-mas edik. Ammo gap ochilgach, keling, uni oxiri-ga yetkazaylik. Yana qaytaraman, gap yolg'iz o'zim ustimda borayotgani yo'q! Men uchun fan qudratli tayanch, havas, ko'ngil yozish, u yog'ini ham bil-moqchi bo'lsangiz, u menga hamma narsani unutilib yuborishga yordam beradi, zavq-shavq bag'ishlaydi. Sizga o'xshab men ham vaqti kelib mehnatim nati-jalarini biror apparat bilan dengizga tashlab inso-niyatga vasiyat qilib qoldirish umidi bilangina ovu-nib mavhum hayot kechirishim mumkin. Qisqasi, men sizga qoyil qolishim, ba'zi masalalarda haqli ekanligingizga tan berishim va hatto overayi jahon

bo'lib yurishingizda hamroh bo'lganimga ma'lum darajada huzur qilishim ham mumkin. Ammo hayotingizning boshqa tomonlari ham borki, unga bu kemada faqat men bilan o'rtoqlaringina mutlaqo daxlsizmiz. Hatto qayg'ungizga sherik yoki iste'dod va aqlingizga qoyil qolib, qalblarimiz sizniki bilan hamohang tepganda ham, biz ajoyib hamda ezgu narsalarni ko'rganda beixtiyor tug'iladigan mehr tushib qolishidan o'zimizni tiydik. Sizgagina daxldor barcha narsalarga begonaligimiz bizning, hatto mening ham bu yerda turishimizga monelik qiladi. Bu, ayniqsa, Ned Lend uchun g'oyat mashaqqat. Har bir odam, u odam bo'lgani uchun ham u haqda o'ylashga sazovordir. Ozodlikni sevadigan va qullikdan hazar qiladigan odam o'ch olishga qanday rejalar tuzishi mumkinligini o'zingizdan hech so'rab ko'rdingizmi? Ayniqsa, bizning kanadalikka o'xshagan odamdan? U nimalarni o'ylab chiqarishini, nimalarga jazm qilishi mumkinligini o'zingizdan so'rab ko'rdingizmi?..

Kapitan Nemo o'rnidan turdi.

– Ned Lend nimalarni o'ylab chiqarishi va nimalarga jazm qilishini deysizmi? Bularning barisi bilan mening necha pullik ishim bor? Men uni qidirganim yo'q edi! Bu yerda uni o'zimning shaxsiy halovatim uchun ham tutib turganim yo'q. Sizga kelganda, janob Aronaks, siz hamma narsani, hatto indamaslikning ham sababini tushunadigan odamlar toifasidansiz. Sizga aytadigan boshqa gapim yo'q. Men bilan bu mavzuda gaplashib ko'rishga urinishingiz birinchi va oxirgisi bo'lsin, chunki ikkinchi marta hatto gaplaringizni ham eshitib o'tirmayman.

Men chiqib ketdim. Shu kundan boshlab muomalalarimiz zo'rma-zo'raki bo'ldi. Oramizda bo'lgan gapni har ikki o'rtog'imga aytdim.

– Endi biz, – dedi Ned Lend, – bu odamdan marhamat kutib bo‘lmasligini bilamiz. «Nautilus» Long-Aylendga yaqinlashyapti. Biz ob-havo qanday bo‘lishidan qat’iy nazar, qochishimiz kerak!

Ammo osmon borgan sari qovog‘ini solar edi. Dovul xabarchisi paydo bo‘ldi. Havoni sutday oppoq tuman o‘rab oldi. Ufqni qora bulutlar qopladi. Bulutlar dengiz ustidan pastlashib, g‘oyat tez o‘ta boshladi. Dengiz quturardi. Bo‘ron xayrixohlari bo‘lgan bo‘ron qushlaridan bo‘lak qushlar g‘oyib bo‘ldi. Barometr mili tushib ketdi.

12-mayda «Nautilus» Nyu-Yorkdan bir necha milya berida, Long-Aylendning yonida suzayotganida qattiq momaqaldiroq boshlandi. Men sti-xiyaning bu kurashini tasvirlab berishim mumkin, chunki dengiz qa‘riga kirib yashirinish o‘rniga kapitan Nemo nimagadir uning sathida qolaverdi.

Shamol janubi sharqdan sekundiga o‘n metr tezlikda esar edi; kunduzi soat uchda uning tezligi sekundiga yigirma besh metrga yetdi. Bu – chinakam dovul edi.

Kapitan Nemo palubaga chiqib oldi. Toshqin to‘lqinlar olib ketmasin deb, u o‘zini panjaraga bog‘lab qo‘ydi. Men ham bo‘rondan, ham boshini baland ko‘tarib bo‘ronni qarshilagan bu ajoyib odam bilan barobar zavqlanib, o‘zimni uning yoniga bog‘ladim.

Laxtak bulut dengizda ko‘tarilgan to‘lqinga tegib o‘tdi. Odatda katta po‘rtana oralig‘ida bo‘lib turadigan kichik to‘lqinlarni ko‘rmadim. Qurum singari qop-qora po‘rtana va to‘lqinlar qirralaridan bo‘lak hech narsa ko‘rinmas, bular ham shu qadar zichlashib ketgan ediki, hatto parchalanmas edi. Ularning balandligi borgan sari oshayotgan edi.

«Nautilus» goh yonboshlab qolar, goh tum-

shugʻi yuqoriga koʻtarilib va quyrugʻi suvga shoʻn-  
gʻigancha machta singari shiddat bilan chayqalar  
edi. Kechqurun soat beshda sharillab yomgʻir quy-  
gan boʻlsa-da, biroq u na shamolni tinchlantira oldi  
va na dengizni. Dovul sekundiga qirq besh metr,  
yaʼni soatiga qirq lyodan ortiq tezlikda boʻlayotgan  
edi. Bunday dovullar uylarni agʻanatadi, cherepitsa  
tomlarni uchirib ketadi, temir panjaralarni buzadi  
va kema palubalaridagi katta toʻplarni koptokday  
dumalatadi. Biroq «Nautilus» bu jahannam ichi-  
da bir mashhur injenerning: «Dengiz bilan kura-  
sha olmaydigan kema yoʻq, albatta u yaxshi quril-  
gan boʻlsa», degan soʻzlarini toʻla tasdiqladi. Bu –  
toʻlqinlar yemirishi mumkin boʻlgan harakatsiz  
qoya emas, bu – insonga boʻysunadigan harakat-  
dagi poʻlat urchuq edi; arqonsiz va machtasiz kema  
quturgan stixiyaga qarshi tap tortmay kurashar edi.

Men zanjirni uzgan kabi poʻrtanalarni diqqat bi-  
lan kuzatib turar edim. Ular yuz ellikdan bir yuz  
yetmish besh metrgacha uzunlikda oʻn besh metr  
balandlikka koʻtarilar va shamol tezligining yar-  
michalik tezlik bilan otilar edi. Ularning hajmi  
va quvvati dengiz chuqurligiga qarab oshar edi.  
Men toʻlqinlarning oʻziga havo yigʻib, uni dengiz  
qaʼriga olib borib, shu yoʻl bilan u yerni kislorod  
bilan taʼminlashdagi rolini oʻshanda tushundim.  
Olimlarning hisoblariga koʻra, ular tushgan suv  
sathida eng kuchli bosim har bir kvadrat futga uch  
ming kilogrammdan toʻgʻri keladi. Gebrid orollari-  
da xuddi shunaqa toʻlqinlar vazni oʻttiz uch ming  
kilogrammli qoyani oʻrnidan jildirgan. Xuddi shu  
toʻlqinlarning oʻzi 1864-yilning 23-dekabrida boʻlib  
oʻtgan boʻron vaqtida Yaponiyadagi Iyeddo<sup>1</sup> shah-  
rining bir qismini vayron etgach, soatiga yetti yuz

---

<sup>1</sup> Iyeddo – Yaponiya poytaxti Tokioning qadimgi nomi.

kilometr tezlik bilan okeandan o'tib, o'sha kunning o'zida Amerika sohillariga borib urilganlar.

Tun boshlanishi oldidan ufqda bo'ronga qarshi jon-jahdi bilan kurashayotgan katta kemani ko'rdim. U joyidan qimirlamay turar edi. Bu Nyu-York va Liverpool yoki Gavr orasida qatnaydigan paroxodlardan biri bo'lishi kerak. Ko'p o'tmay qorong'ilikka singib ketdi.

Kechqurun soat o'nda osmon alanga ichida qolganday bo'ldi. Havoni chaqmoqlar qirqib o'ta boshladi. Men ularning nihoyat darajada kuchli nuriga tik qaray olmadim, ammo kapitan Nemo osmondan ko'z uzmas edi. U bo'ron dan lazzatlanayotganga o'xshar edi.

Havoni g'oyat darajada kuchli shovqin: po'rtalarning bir-biriga urilib qarsillashi, shamolning uvullashi, momaqaldiroqning ovozi qoplab ketdi... Shamol tinmay yo'nalishini o'zgartirar va sharqdan boshlangan bo'ron shimol, g'arb va janubni aylanib, yana o'sha yoqqa qaytar edi.

Golfstrimni qarang! U bo'ron qiroli degan nomiga tamoman mos edi! Uning yo'lida uchraydigan harorati turlicha suv va havo qatlamlari xuddi ana shu dahshatli bo'ron va dovullarni hosil etadi.

Yomg'irdan so'ng chaqmoq aralash chinakamiga olov seli quyildi. Suv irmoqlari eritilgan metall oqimiga aylanganga o'xshar edi.

Go'yo kapitan Nemo o'ziga munosib o'lim istar, chaqmoq ostida o'lishni afzal ko'rgan, deb o'ylash mumkin edi.

Kema uzunasiga dahshatli kuch bilan chayqala boshlagach, «Nautilus» po'lat tumshug'ini yashin-qaytargichday havoga ko'tardi, – unga uchqunlar kelib urilganini ko'rdim.

Tamoman holdan toygach, qornimda yotib olib, lyuk oldiga emaklab keldim, uni ochib, salonga tushdim. Bu vaqtda dovul juda avjiga chiqqan edi. «Nautilus»ning ichida bir sekund ham oyoqda turib bo'lmay edi.

Kapitan Nemo yarim kechadagina pastga tushdi. Rezervuarlar suvga to'layotganini eshitdim va «Nautilus» asta-sekin dengiz qa'riga tushib ketdi.

Salondagi to'siqlar ochiq edi, binobarin men olovli suvda sharpaday gangib yurgan katta baliqlarning butun boshli to'dalarini ko'rdim. Ulardan ayrimlarini ko'zim oldida yashin urib o'ldirdi.

«Nautilus» hamon pastlashib borar edi. O'n besh metr chuqurlikda u o'ziga sokin joy topadi, deb o'ylagan edim. Ammo dengiz sathi shu qadar toshqin ediki, biz ellik metr chuqurlikdagi okean qa'riga tushishga majbur bo'ldik.

Bu chuqurlik naqadar osoyishta, qanday ajoyib olam, qanday sukunat! Dengiz sathida dahshatli dovul quturayotganini kim xayoliga keltira oladi!

## **Yigirmanchi bob**

### **KENGLIKNING 47-GRADUS 24-MINUTI VA UZUNLIKNING 17-GRADUS 28-MINUTIDA**

Bo'ron bizni sharqqa olib kelib tashladi. Nyu-York sohillariga yaqin yerdan yoki muqaddas Lavrentiy daryosi quyilishidan qochish borasida barcha umidlar barbod bo'ldi. Bechora Ned g'am-anduhga to'lib, kapitan Nemo singari yolg'izlanib qoldi. Biz Konsel bilan hech ajralmas edik.

«Nautilus» sharqqa, aniqrog'i, shimoli sharqqa keltirib tashlanganini yuqorida aytdim. U bir necha kun davomida dengizchilar uchun xavfli tuman ichida goh suv ostida, goh dengiz sathida daydib



yurdi. Bu tumanlar asosan muzlarning erishidan havoni bug' qoplashi natijasida hosil bo'ladi.

Bu yerlarda sohildagi sarob shu'lalarga intilib, qanchadan qancha kemalar halok bo'ladi! Tuman oqibatida qanchadan qancha baxtsizlik ro'y bergan. Fonarlar yonib turganiga, gudok chalishlariga, kema jomlarining dahshat bilan urilishiga qaramay qanchadan qancha kemalar halok bo'ldi! Shamol to'lqinning qirg'oqqa urilish ovozi bosib tushadigan joylarda suvosti toshlariga qanchalar kelib urilgan!

Bu joylarda dengiz tubi jang maydonini eslatishiga ajablanmasa ham bo'ladi. Bu yer halokat qoldiqlari bilan qoplangan – ba'zi birlari eski va to'zigan, boshqalari yangi, mis qoplamasi hali ham qoraymagan va ular proyektorimiz yog'dusida

Bu yerda butun ekipaji va tirik yuki – muhojirlari bilan birga dom-daraksiz yo'qolgan qanchadan qancha kemalar yotar edi. Barcha ma'lumotnomalarda ko'rsatilgan eng xavfli zonalar – Sen Pol oroli, Ras buruni, Bel Il bo'g'ozida, Lavrentiy daryosi quyiladigan joyda har yili qanchadan qancha halokat yuz beradi!

Keyingi bir necha yil mobaynidagina shu joylarda g'arq bo'lgan kemalarning qayg'uli ro'yxatiga: «Solvey», «Izida», «Paramatta», «Vengriyalik», «Kanadalik», «Anglo-saks», «Gumboldt», «Qo'shma Shtatlar» singari dovulda g'arq bo'lgan kemalarni; «Arktika» va «Lions» kabi to'qnashib halok bo'lganlarni; «Prezident», «Tinch okean», «Glazgo shahri» kabi noma'lum sabablar bilan halokatga uchragan kemalarni kiritishga to'g'ri keldi.

«Nautilus» halokat qoldiqlari oralab, xuddi murdalarni ko'zdan kechirayotganday suzib borar edi.

15-mayda biz Nyufaundlend sayozligining janu-

biy chekkasida edik. Bu sayozlik dengiz oqizib kelgan narsalardan hosil bo'lgan edi. Bular turli-tuman organik qoldiqlar yig'indisi bo'lib, bu yerga ekvatoridan Golfstrim yoki Shimoliy qutbdan Amerika sohilini aylanib o'tadigan qarama-qarshi sovuq oqim olib kelgan. Shuningdek, bu yerda milliardlab halok bo'lgan, haddan tashqari ko'p baliq ustuxonlari, molluska hamda zoofitlarning qoldiqlari uyulib yotar edi.

Nyufaundlend sayozligida dengiz aytarli darajada chuqur bo'lmay bir necha yuz futdangina iborat edi, xolos. Biroq janubroqda birdan katta chuqurlik – uch ming metrli jarlik hosil bo'lgan. Bu yerda Golfstrim kengayadi. U bu yerda butun bir dengizni hosil etadi, ammo shu bilan birga o'zining tezligi va haroratini yo'qotadi.

«Nautilus» yaqinlashib cho'chitib yuborayotgan baliqlar orasida men kattaligi yarim metr keladigan, yelkasi qoramtirroq va qorni pushti rang dumaloqsuzgichlarni, – bularning nari bilan modasi bir-biriga g'oyat sadoqatli bo'lishning ajoyib timsolidir; ta'mi mazali uzun zumrad murenlarni; boshi nimasi bilandir it boshiga o'xshab ketadigan yirik ko'zli karrakslarni; bichok va gubanlarni ajrata oldim. Ammo ko'pincha bizga treska uchrar, ularni o'zlari yoqtiradigan joylari – Nyufaundlend sayozliklarida ko'rar edik. Treska – tog' balig'i, deb dadil aytsa bo'ladi, chunki Nyufaundlend suvosti tog'ida. «Nautilus» saf tortib tizilishib yurgan treskalar orasidan o'ziga yo'l ochib borayotganida Konsel hayratini yashirolmadi.

– Bu qanaqasi bo'ldi, treska! – deya qichqirdi u. – Men bo'lsam treska ham kambala singari yalpoq bo'ladi deb yuribman.

– Bu qanaqa safsata! Treska ichak-chavog'i olib

tashlanib chiqariladigan baliq do'konlaridagina yalpoq bo'ladi. Dengizda u golavl singari urchuqsimon baliq va suzishga yaxshigina moslangan!

– Xo'jamga ko'proq ayon, – javob berdi Konsel. – Ammo bu yerda baliqlarning ko'pligini qarang – chumoli ini-ya!

– Agar ularning g'animlari – odamlar bo'lmaganida edi, do'stim, yanada beqiyos darajada ko'payar edi. Uning bittagina modasi qancha urug' qo'yishini bilasanmi?

– Faraz qilaylik, besh yuz ming.

– O'n bir million, og'ayni!

– O'n bir million! Yo'q, o'zim sanab ko'rma-guncha bunga sira ishonmayman.

– Sanab ko'r! Ammo menga ishonsang, unga ketadigan vaqtingni tejab qolasan. Treskani juda katta miqdorda tutishlarini unutma. U nihoyat darajada ko'p iste'mol qilinadi, binobarin ko'payishga g'oyat qobiliyatli bo'lmaganida, bu baliqdan allaqachon nom-nishon qolmas edi. Birgina Angliya bilan Amerikada yetmish besh ming dengizchilari bo'lgan besh ming kema treska ovlaydi. Bu kemalardan har biri mavsum davomida o'rta hisobda kamida qirq ming treska ovlaydi, demak, jami qariyb yigirma millionni tashkil etadi. Norvegiya sohillarida ham uni shu miqdorda ovlaydilar.

– Juda soz, – dedi Konsel. – Men xo'jamga ishondim va sanab o'tirmayman.

– Nimani sanab o'tirmaysan, Konsel?

– O'n bir million urug'ni. Ammo men bir narsani aytib qo'yishim kerak.

– Nimani?

– Shuniki, bordi-yu, har bir urug'dan baliq bunyodga kelganida, ikki juft treska bilan butun Angliya, Amerika va Norvegiyani boqsa bo'lar edi.

Biz kema tumshug<sup>4</sup>i qumga tegay-tegay deb Nyufaundlendning eng sayoz joylaridan o'tayotganda, men treska ovlash uchun ikki yuztadan qarmoq ilib qo'yilgan uzun ingichka arqonlarni ko'rdim; baliq ovlaydigan har bir kema ulardan bir necha o'ntasini suvga tashlaydi. Bir uchi ilgaklan-gan arqonning ikkinchi uchi dengiz sathida buykalar<sup>1</sup> yordamida saqlanar edi. «Nautilus» ana shu suvosti to'rlarining o'rtasidan suzib borar edi.

Ammo suvosti kemasi odam ko'p uchraydigan bu joylarda uzoq turmadi. U Yevropani Shimoliy Amerika bilan bog'laydigan telegraf liniyasi kabelining Atlantik okeandan kesib o'tib tugagan joyi SenJons orolida Nyufaundlend kengligigacha bordi.

«Nautilus» bu yerdan o'z yo'lini shimol tomon davom ettirish o'rniga, ostidan kabel o'tgan yassi tepalikni tadqiq etmoqchi bo'lganday sharq tomon yo'l oldi. Zond bilan necha martalab tekshirib ko'rilgani uchun bu yerlarning relyefi eng mayda ikir-chikirlarigacha ma'lum edi.

17-mayda Sen-Jonsdan besh yuz milya narida, ikki ming sakkiz yuz metr chuqurlikda qumda cho'zilib yotgan kabelni ko'rdim. Konsel, bundan xabardor qilishga ulgurmaganim uchun, uni g'oyat ulkan dengiz iloni deb o'ylab, endi o'zicha tasniflashga kirishmoqchi edi. Ammo men bu ajoyib odamni shaxtidan qaytarib qo'ydim va uni tinchlantirish uchun kabel qanday yotqizilgani haqida batafsil hikoya qilib berdim.

Dastlabki kabel 1857- va 1858-yillar mobaynida yotqizilgan edi. Ammo to'rt yuz telegramma uzatilgandan keyin u to'satdan ishlamay qo'ydi. 1863-yilda injenerlar uzunligi uch ming to'rt yuz kilometrli yangi kabel yotqizdilar; uning vazni to'rt

---

<sup>1</sup> Buyka – xatarli joylarni ko'rsatadigan alomat.

ming besh yuz tonna bo'lib, bu g'oyat og'ir yukni yotqizish uchun maxsus «Great Eastern» paroxodi jihazlandi. Biroq bu urinish ham muvaffaqiyatsizlikka uchradi.

25-mayda «Nautilus» uch ming sakkiz yuz o'ttiz olti metr chuqurlikka sho'ng'ib, xuddi kabel uzilgan joyning o'ziga kelib qoldi.

Bu Irlandiya sohillaridan olti yuz o'ttiz sakkiz milya masofadagi joyda sodir bo'lgan edi. Yevropa bilan aloqa uzilganini kunduz soat ikkida payqab qolishdi. «Great Eastern» bortidan injenerlar uzilgan joyni topdilar va kechqurun soat o'n birdagina kabelning har ikki uchini suvdan chiqarib oldilar. Kabelni ulagach, yana suvga tushirdilar. Ammo bir necha kun o'tgach, yana uzildi va bu gal kabelni okean qa'ridan chiqarib olishning iloji bo'lmadi.

Biroq injenerlar qiyinchiliklar oldida taslim bo'lmadilar. Ular anchagina mukammallashtirilgan yangi kabel tayyorladilar. Ustiga guttapercha<sup>1</sup> o'ralgan bir bog'lam sim tolali moddalardan qilingan yostiqlar yordamida ihota qilinib, temir armaturada ichiga joylandi.

«Great Eastern» 1866-yilning 13-iyulida dengizga chiqdi.

Hamma ish ko'ngildagiday ketayotgan edi. Ammo bir kun shunday voqea sodir bo'ldi. Suvga tushirish oldidan kabel bog'lamini ochayotgan injenerlar uning bir necha joyi mix bilan teshilganini ko'rib qoldilar. Buni kabelning o'rtasini buzish uchun qilingan bo'lishi kerak. Kapitan Anderson, kema ofitserlari va injenerlar yig'ilishib, bu ishni muhokama qildilar va aybdor topilsa, uni hech qan-

---

<sup>1</sup> *Guttapercha* – ba'zi tropik o'simliklarning kauchukka o'xshab qotib qoladigan shirasi; texnikada ishlatiladi.

day sudsiz kema bortidan uloqtirib tashlashga qaror qildilar. Shundan keyin jinoiy urinishlar qayta sodir bo'lmadi.

27-iyulda «Great Eastern» tumanni yorib o'tib, Amerika sohiliga yetdi. Mo'ljaldagi ish xayrli tugadi.

Men, albatta, elektr kabelni dastlabki yappa-yangi holicha, ya'ni zavod ustaxonasidan chiqqaniday ko'rishga umid qilganim yo'q.

Toshloq ustida cho'zilib yotgan temir ilon ohak po'stloqqa o'ralgan bo'lib, bu uni parmachi-molluskalardan muhofaza qilar edi.

Kabel dengiz tubida, to'liqlardan xoli joyda yotar va u orqali Yevropadan Amerikaga elektr signalning yetib borishi uchun bir sekundning yuzdan o'ttiz ikki ulushi kifoya edi. Guttapercha dengiz suvi ta'sirida mustahkamlanishini hisobga olganda, bu kabel abadiy saqlanib qoladi. Buning ustiga kabel yo'nalishi shu qadar qulay tanlanganki, har qanday sharoitda ham kuchli suv bosimidan uzilib ketadigan darajadagi chuqurlikka tushib ketmaydi.

«Nautilus» kabel yotqizilgan eng chuqur joylardan – to'rt ming to'rt yuz o'ttiz bir metr chuqurlikdan o'tdi.

U yerdan biz 1863-yilda avariya sodir bo'lgan joyga jo'nadik.

Bu yerda dengiz tubi kengligi bir yuz yigirma metrli torgina vodiy hosil etgan edi. Agar Monblanni shu yerga ko'chirish mumkin bo'lganida u butunisicha suvga cho'kib turar edi. Bu vodiyning sharqiy qismi ikki ming metrli qoya devor bilan tugar edi. Biz bu yerga 28-mayda yetib keldik. Endi «Nautilus» Irlandiyadan bir yuz ellik kilometrdan ortiq bo'lmagan masofada edi.

Balki kapitan Nemo Britaniya orollaridan yon-

lab o'tib ketmoqchidir? Yo'q. Meni taajjubga solgan narsa shundaki, u yana janub tomon, Yevropa dengizlari sari yo'l olgan edi.

Biz Engleza orolini aylanib o'tayotganda, men bir zumgina Glazgo yoki Liverpuldan kelayotgan minglab kemalarning yo'lini yoritib turgan uning mayoqlari chirog'ini ko'rdim.

Xayolimni muhim bir masala band etdi: «Nautilus» La-Manshga kirishga jur'at eta olarmikin?

Yerga yaqinlashishimiz bilan o'z katagidan chiqqan Ned mendan tinmay shuni so'rar edi. Men unga nima ham deya olar edim? Kapitan Nemo ilgarigiday ko'rinmas edi. U Amerika sohillarini ko'rsatib, kanadalikning qitig'iga tegdi; endi u Fransiya sohillari bilan mening jig'imga tegmoqchimikin?

Bu orada «Nautilus» janub tomon suzishini davom ettirdi. 30-mayda u Britaniya orollariga yaqin, Lend oroli ko'rinib turgan joydan o'tdi.

Kapitan Nemo La-Manshga kirish niyati bo'lganida, sharq tomon yo'l tutar edi.

Ammo u bunday qilmadi.

31-mayda «Nautilus» kun bo'yi meni g'oyat hayratga solib, dengizda ilon izi qilib gir aylanib yurdi. U biron qidirgan yerini topolmayotganga o'xshar edi.

Peshinda kapitan Nemoning o'zi kuzatuv olib bordi. U men bilan bir og'iz ham gaplashmadi. U har galgidan xomush edi. Nimadan bunchalik xafa bo'ldi ekan? O'zi tashlab ketgan vatani haqida biror xotira uni qiynab qo'yayotganmikin? Xayolimni anchagacha shu fikr band etib turdi. Nima bo'lganda ham biror voqea kapitan Nemoning sirini oshkor etishini oldindan sezgan edim.

Ertasi kuni, 1-iyunda «Nautilus» o'zining g'alati manyovrlarini davom ettirdi. U okeanda muayyan

bir joyni qidirayotgani aniqday bo'lib qoldi. Peshinda kapitan Nemo oldingi galgiday, kuzatuvni yana o'zi olib bordi.

Dengiz sokin, osmon tiniq edi.

Bizdan sakkiz milyacha sharqda, ufqda shitob bilan kelayotgan katta kema ko'rindi. Unda hech qanday bayroq bo'lmaganidan qaysi millat kemasi ekanligini aniqlay olmadim.

Quyosh meridiandan o'tayotganda kapitan Nemo sekstantni olib diqqat bilan kuzata boshladi. Dengiz g'oyat sokin bo'lgani uchun u bu ishni osonlik bilan bajarayotgan edi. Qimir etmay turgan «Nautilus»ni to'lqin yondan ham, quyruqdan ham chayqamas edi.

Shu paytda men palubada edim. Pelengatsiya<sup>1</sup> tugatilishi bilan kapitan Nemo:

– Shu yerda! – dedi.

U trapdan pastga tushdi. Yurishini sekinlatib, bizga qarab kelayotganday bo'lib tuyulayotgan kemani ko'rdimikin? Buni bilolmadim.

Salonga qaytdim. Lyukni yopishdi va rezervuarlarda suvning shovullashini eshitdim. «Nautilus» sho'ng'iy boshladi. Vint ishlamayotgani uchun u tik yo'nalishda cho'kayotgan edi.

Bir necha minutdan keyin u sakkiz yuz o'ttiz uch metr chuqurlikda to'xtab, tumshug'i dengiz tubiga tegdi.

Salonda chiroq o'chdi. To'siqlar ochilgach, men deraza oynalaridan yarim milya masofada projektorimiz qattiq yoritib turgan dengizni ko'rdim.

Chap tomondagi derazada sokin suvdan bo'lak hech narsani ko'rmadim. O'ng tomonda esa chuqurlikdagi allaqanday qora narsa diqqatimni o'ziga jalb

---

<sup>1</sup> *Pelengatsiya* – kompas mili bilan ko'ringan narsa yoki eshitilgan ovoz orasidagi burchakni aniqlash.



etdi. Bu narsaning usti oq chig'anoqlar bilan qoplab, qor chodiri yopinganday edi. Sinchiklab qaragam, dengiz tubiga tumshug'i bilan cho'kkan bo'lsa kerak, machtalari yo'q kema ekan. Shu qadar ohak qatlamlari qoplaganiga qaraganda, halokatga uchragan bu kema okean tubida ko'p yillardan buyon yotganga o'xshardi.

Bu qanaqa kema bo'ldi? Nega «Nautilus» uning qabrini ziyorat qilishga keldi? Balki uning halokatiga dengizdagi bo'ron sabab bo'lmagandir?

Nimaligini tushunmay boshim qotib turganda, to'satdan kapitan Nemo gapirib qoldi:

– Bir vaqtlar bu kema «Marsellik» deb atalar edi. U 1762-yili dengizga tushirilgan bo'lib, bordida yetmish to'rtta to'p bor edi. 1778-yilning o'n uchinchi avgustida La-Poy-pa-Vetriye qo'mondonligida bu kema «Preston»ga qarshi jon-jahdi bilan kurashdi. 1779-yilning to'rtinchi iyulida u admiral d'Esten eskadrasi sostavida Grenadani zabt etishda qatnashdi. 1781-yilning beshinchi sentabrida u Chizpik qo'ltig'ida graf de Grass rahbarligida jang qildi. 1794-yili Fransiya respublikasi uning nomini o'zgartirdi. O'sha yilning o'n oltinchi aprelida u Brestda admiral Van-Stabel qo'mondonligida Amerikadan g'alla ortib kelayotgan transportga soqchilik qilayotgan Vilar-Juarez eskadrasiga qo'shildi. Respublikaning ikkinchi yilida prerial<sup>1</sup>ning o'n birinchi va o'n ikkinchisida bu eskadra ingliz kemalari bilan uchrashdi. Janob professor, bugun prerialning o'n uchinchi – 1868-yilning birinchi iyuni. Roppa-rosa yetmish to'rt yil muqaddam, xuddi shu yerda, kenglikning 47-gradus 24-minuti va uzunlikning 17-gradus 28-minutida qahramonona jang-

---

<sup>1</sup> *Prerial* – Fransuz revolutsion kalendarining to'qqizinchi oyi (20–21-maydan 19–20-iyungacha).

dan so'ng yarim cho'kkan holda o'z machtalari va ekipajining to'rtidan uch qismini yo'qotgan kema taslim bo'lishdan ko'ra g'arq bo'lishni afzal bildi... Tirik qolgan uch yuz ellik olti jangchi: «Yashasin Respublika!» – deya hayqirib g'arq bo'ldi.

– Bu «Qasoskorlar?!» – deya xitob qildim men.

– Ha, janob, bu – «Qasoskor». Ajoyib nom, – deya shivirladi kapitan Nemo qo'llarini chambarak qilar ekan.

## *Yigirma birinchi bob*

### «QASOSKOR»

To'satdan shunday bo'lishi, revolutsion kema tarixining osoyishta va xolis boshlanib, pirovardida allaqanday hayajonlanish bilan tugallanishi, mohiyati diqqat-e'tiborimni o'ziga tortgan «Qasoskor» degan nom – bularning bari meni g'oyat hayratda qoldirdi. Men kapitandan ko'z uzolmay qoldim. U qo'li bilan dengizga ishora qilib, o'zi esa bu shonli halokat qoldiqlariga suqlanib boqar edi.

Ehtimol, kapitan Nemoning kimligini, uning qayerdan kelib, qayoqqa ketayotganini bilish menga hech qachon nasib etmas, biroq undagi insoniylik olimligiga nisbatan tobora yaqqolroq namoyon bo'layotganini ko'rdim.

Yo'q, kapitan Nemo va uning o'rtoqlarini bu temir devorlar ichiga insonlarni shunchaki sevmaslik emas, balki o'tib ketgan damlar ham so'ndirishga qodir bo'lolmagan kuchli va dahshatli nafrat boshlab kelgan.

Balki u qasos olishga tashna bo'lib yurgandir?

Bu orada «Nautilus» shoshilmay yuqoriga ko'tarildi va «Qasoskor» asta-sekin ko'zdan g'oyib bo'ldi. Ko'p o'tmay kema yengil chayqala boshladi,

bu dengiz sathida suzib borayotganimizni bildirar edi. Shu payt men gumburlagan bo'g'iq ovoz eshitdim.

Kapitanga qaradim. U qimir etmadi.

– Kapitan! – dedim men.

U javob bermadi. Men uni yolg'iz qoldirib, palubaga chiqdim.

Konsel bilan kanadalik o'sha yerda ekan.

– Bu qanday gumburlash? – so'radim men.

– To'p ovozi, – deb javob berdi Ned Lend.

Men boya kema ko'ringan tomonga qaradim. U shitob bilan «Nautilus»ga yaqinlashib kelayotgan edi. Oramizdagi masofa olti milyadan ortiq emas edi.

– Bu qanaqa kema, Ned?

– Garov o'ynashim mumkin, bu harbiy kema, – javob berdi kanadalik. – Bu uning anjomlari va machtalarining balandligidan yaqqol ko'rinib turibdi. Oh, qani edi u bizga hujum qilib, shu la'nati «Nautilus»ni cho'ktirib yuborsa!

– Do'stim Ned, – deya javob berdi unga Konsel, – bu kema «Nautilus»ga biron ziyon yetkaza olarmidi? Axir u bizning kemamizga na suv ostida hujum qila oladi, na dengiz qa'rida o'q uza oladi.

– Qani ayting-chi, Ned, – deb so'radim men, – siz bu kemaning qaysi millatga mansubligini aniqlay olasizmi?

Kanadalik qoshlarini chimirib va ko'zlarini qisib kema tarhiga sinchiklab qaradi.

– Yo'q, professor, – deya javob berdi u nihoyat, – uning qaysi millatga mansubligini aniqlay olmayman: bayrog'i yo'q. Ammo yana bir karra aytishim mumkinki, bu harbiy kema, negaki, uning grot-machtasida uzun vimpel<sup>1</sup> hilpirab turibdi.

---

<sup>1</sup> *Vimpel* – kema machtasiga o'rnatilgan uzun kambar bayroq.

To'g'ri bizga qarab kelayotgan kemani chorak soat davomida ko'zdan kechirdik.

Shuncha masofadan uning «Nautilus»ni tanib olganiga sira aqlim bovar qilmas edi; buning ustiga, umuman bu suvosti kemasining mavjudligi unga ayonligini tasavvur etolmasdim.

Ko'p o'tmay kanadalik, bu dandonli va ikkita zirhlangan palubasi bo'lgan katta harbiy kema, deb aytdi. Uning trubasidan quyuvq qora tutun chiqar edi. Uning yig'ib qo'yilgan yelkanlari reyalarga<sup>1</sup> tushib ketgan edi. Unda bayroq yo'q edi. Oradagi masofa tufayli havoda ensiz lenta singari hilpirab turgan vimpelining rangini ajratib bo'lmadi.

Kema tez yaqinlashib kelar edi. Bordi-yu, kaptan Nemo uning yanada yaqinlashuviga yo'l qo'yib bersa, bizning qutulib ketishimizga imkoniyat tug'iladi.

– Professor, – dedi Ned Lend, – bu kema bilan oramiz bir milya qolganda o'zimni dengizga tashlayman, siz ham shunday qilasiz!

Men kanadalikning bu taklifiga hech narsa demay, ko'z oldimizda tobora ulg'ayib borayotgan kema qarab turaverdim. U xoh ingliz, xoh fransuz, xoh amerika yoki rus kemasimi – ungacha suzib yeta olsak, baribir bizni qabul qilib oladi.

– Suzish borasida oz bo'lsa ham tajribamiz borligini xo'jam unutmagandirlar, – dedi Konsel. – Bordi-yu, do'stimiz Nedning maslahatiga ko'nadigan bo'lsalar, xo'jamni shatakka olishimga ishonaverishlari mumkin.

Men javobga endigina og'iz rostlagan edim, to'satdan harbiy kema tumshug'ida oq tutun ko'ringdi. Oradan bir necha sekund o'tgach, suv og'ir jism

---

<sup>1</sup> *Reya* – mactada yelkanni tikib qo'yadigan ko'ndalang yog'och.

tushganidan ko'pirib, «Nautilus»ning quyruq tomoniga ko'tarilib tushdi. To'pning gumburlagan ovo-zidan quloqlarim batang keldi.

– Bu qanaqasi? Bizga qarab o'q uzishyaptimi? – deya qichqirdim men.

– Matonatli kishilar, – shivirladi kanadalik.

– Demak, ular bizni halokatga uchragan deb o'ylamayotgan ekan-da! – deya xitob qildim men.

– Agar xo'jam istasalar... – deya so'z boshladi Konsel.

Shu payt yanada yaqinroq joyga tushgan to'p o'qidan sachragan suv parchalari uni boshdan oyog'igacha shalabbo qildi.

– Xo'jam izn bersalar shuni aytmoqchimanki, – deya so'zini davom ettirdi Konsel, – ular bizni bahaybat maxluq deb o'ylab, o'q uzishyapti.

– Ammo ular odamlarga uchraganlarini ko'rishlari kerak-ku, axir! – xitob qildim men.

– Balki, xuddi shuning uchun ham o'q uzishayotgandir, – javob berdi Ned Lend menga ma'noli qarab qo'yib.

Bu so'zlar ko'zimni moshday ochib qo'ydi. Hech shubha yo'qki, bahaybat maxluqning mavjudligi to'g'risidagi taxminlar endilikda butun dunyoga ma'lum. «Avraam Linkoln»ning to'qnashuvida kanadalik o'z garpunini bahaybat maxluqqa urganda, kapitan Faragut bu «bahaybat maxluq» suvosti kemasidan boshqa narsa emasligini, bu esa ulkan dengiz maxluqidan ham xavfliroq ekanligini bildi.

Lol qoldiruvchi bu xabar barcha xalqlarni hayajonga solgan va binobarin endilikda butun mamlakatlarning harbiy kemalari bizning izimizga tushgan deb o'ylash mumkin.

Shunday qilinishi adolat yuzasidandir, zero, kapitan o'z kemasini qasos olishga safarbar etgani-

ni hisobga olganda, «Nautilus» dahshatli va qoʻr-qinchli qurolning eng choʻqqisi edi.

Endilikda oʻsha tuni Hind okeanida kapitan Nemo bizni temir qafasga solib qoʻyganida, «Nautilus» allaqanday kema bilan jang qilganiga ortiq shubham qolmadi. Endilikda menda marjon qabristondan makon tutgan kishi «Nautilus» qoʻzgʻagan jangning qurboni boʻlganiga ortiq shubha qolmadi.

Kapitan Nemoning sirli hayoti ustidagi parda xiyol koʻtarildi. Garchand uning shaxsi aniqlanmagan boʻlsa-da, har holda turli millat vakillari birlashib, allaqanday xayoliy bir maxluqni emas, balki butun insoniyatga shafqatsiz nafrat bilan qarashga ahdlashib, endilikda oʻsha ashaddiy dushman – insonni taʼqib etmoqda edilar.

Bu fikr xayolimdan oʻtar ekan, yaqinlashib kelayotgan kemada biz doʻstlarimizga emas, balki shafqatsiz dushmanga duch kelishimiz oʻz-oʻzidan ayon boʻldi.

Bu orada atrofimizga hamon toʻp oʻqi yogʻilib turgan edi. Ulardan ayrimlari suv sathiga maʼlum bir burchak ostida tushib, ancha joygacha sakrab ketib, soʻngra toʻlqinlar ichiga kirib gʻoyib boʻlardi. Biroq bitta ham oʻq «Nautilus»ga tegmas edi.

Harbiy kema endi bizdan nari borsa uch milya masofada edi.

Toʻplardan oʻq uzish tobora kuchayib borayotganiga qaramay, kapitan Nemo palubada koʻrinmas edi.

Sirasini aytganda, bordi-yu, ana shu konussimon oʻqlardan biri toʻppa-toʻgʻri «Nautilus» korpusiga kelib tushganida, uning zarbi suvosti kemasiga jiddiy xavf tugʻdirishi mumkin edi.

Kanadalik menga bunday dedi:

– Janob, bizdan badgumon bo‘lishlariga yo‘l qo‘ymasligimiz kerak! Signal berishga urinib ko‘rish kerak. Jin ursin! Balki ular har holda vijdonli odamlar bilan muomala qilayotganlarini tushunib olishar!

Ned Lend cho‘ntagidan dastro‘molini oldi. Ammo dastro‘molni endi yoygan edi, temir qo‘llar uni mahkam qisib olib, zo‘r qudrat bilan palubaga ag‘anatdi.

– Badbax! – deya qichqirdi kapitan. – Seni o‘sha dandonga u bu kemaga qadalmasdan oldinroq ilib qo‘yishimni istab qoldingmi?

Kapitan Nemoning gaplarini eshitishning o‘zi dahshat, ammo uning vajohati yanada dahshatliroq edi. Uning yuzi murdaday oqardi. G‘azabdan ko‘z qorachiq-lari torayib ketdi. Ovozi bo‘kirayotganga o‘xshardi. Uzala tushib yotgan kanadalik ustiga engashib, uni palubaga mixlab qo‘yganday edi.

Nihoyat, u Ned Lendni o‘z holiga qo‘yib, to‘plardan hamon tinmay o‘q uzayotgan harbiy kema tomon yuzlandi.

– Sen mening kimligimni bilasanmi, la‘nat tang‘asi bosilgan xalq kemasi! – deya hayqirdi u momaqaldiroq singari gumburlagan ovozda. – Seni tanish uchun bayrog‘ingni ko‘rarga ko‘zim yo‘q!

Razm sol! Men hozir senga o‘z bayrog‘imni ko‘rsataman.

Kapitan Nemo shunday deb Janubiy qutbda tikkaniga o‘xshagan qora bayroqni yoydi.

Xuddi shu paytda to‘p o‘qi «Nautilus»ning quyrug‘iga kelib tegdi-yu, ammo hech qanday ziyon keltirmadi; sal bo‘lmasa kapitan Nemoga tegay deb yonidan o‘tib, dengizga tushdi.

Kapitan yelkalarini qisdi. Menga qarab qat‘iy ohangda dedi:

– Pastga tushinglar! Siz va o‘rtoqlaringiz...  
– Kapitan, – deya qichqirdim men, – nahotki bu kemaga hujum qilsangiz?

– Hujum qilibgina qolmay, cho‘ktirib ham yuboraman!

– Bu ishni qilmang!

– Albatta, shunday qilaman, – deya sovuq javob berdi kapitan Nemo. – Meni tergash sizning ishingiz emas! Ko‘rishingiz lozim bo‘lmagan narsani tasodifan ko‘rib qoldingiz. Dushmanlarim menga hujum qilishdi, ularga qaqqshatqich zarba beriladi.

– Bu kimning kemasi?

– Siz buni bilmaysizmi? Unday bo‘lsa, juda soz. Jilla bo‘lmasa bu kemanding qaysi millatga mansubligi sizga sir bo‘lib qolsin. Qani, jo‘nanglar endi!

Kanadalik, Konsel va mening ko‘nikishdan bo‘lak ilojimiz yo‘q edi. «Nautilus»ning o‘n besh matrosi kapitan Nemoni o‘rab olib, yaqinlashib kelayotgan kemaga nafrat bilan qarab turishar edi. Men trapdan tushayotganimda yana bir to‘p o‘qi «Nautilus»ning quyrug‘iga kelib urildi. Kapitan Nemoning qichqirgan ovozi eshitdim:

– Otaver, tentak kema! Behudaga o‘qlaringni sarflayver! «Nautilus»dan qochib qutula olmaysan! Biroq men seni bu yerda halok qilmoqchi emasman! Sening parchalaring oliyjanob «Qasoskor» parchalari bilan qo‘shilib ketishini istamayman.

Men o‘z xonamga ketdim. Kapitan bilan uning yordamchisi palubada qolishdi. Vint aylana boshladi. «Nautilus» tez yurib ketdi va hademay harbiy kema quvib yetolmaydigan masofaga yetdi. Biroq quvish to‘xtatilmagan edi va kapitan Nemo oradagi shu masofani saqlab bordi.

Kunduzi soat to‘rtida sabr va bardoshim chidamay trapga yaqinlashdim.



Eshik ochiq edi. Men palubaga chiqdim. U yerda kapitan hayajon ichida u yoqdan bu yoqqa odimlar edi. U bizdan nari borsa besh-olti milya masofada shamolga qarshi kelayotgan kemadan ko'z uzmas edi. Kema atrofini yovvoyi parrandaday gir aylanib, unga sharq tomon orqasidan quvib borishga imkon berayotgan edi. Ammo hozircha o'zi unga hujum qilmayotgan edi. Balki u ikkilanayotgandir?

Men yana aralashishga urinib ko'rdim. Biroq endi bir necha so'z aytgan edim, kapitan Nemo ovozimni o'chirishga majbur etdi.

– Adolat va haqqoniyat men tomonda, – dedi u. – Men ezilgan, mana u esa sitamgar! U tufayligina men sevimli va noyob hamda muqaddas hisoblangan hamma narsadan – vatandan, xotinimdan, bolalarimdan, otamdan, onamdan – hammasidan judo bo'ldim! Nimaiki nafratimga duchor bo'lgan bo'lsa, hammasi mana shu kemada! Ovozingizni o'chirsangizchi!

Men shitob bilan yaqinlashib kelayotgan harbiy kemaga so'nggi bor qarab, pastga – Ned bilan Konsel oldiga tushdim.

– Biz qochishimiz kerak! – deya qichqirdim.

– Juda soz, – dedi Ned. – Ammo bu kimning kemasi?

– Bunisini bilmadim. Ammo kimniki bo'lishidan qat'i nazar u tun boshlanmay dengiz qa'riga g'arq etiladi. Adolatdanmi yo'qmi – bunisi bizga qorong'i, biroq jinoyatga sherik bo'lgandan ko'ra birga halok bo'lganimiz afzal.

– Men ham shu fikrdaman, – sovuqqina javob berdi Ned. – Tun boshlanguncha sabr qilamiz. Tun boshlandi. Kemada sukunat hukmron edi. Kompas «Nautilus» o'z yo'nalishini o'zgartirmaganini ko'rsatib turar edi. Men uning vintining bir marom-

dagi ovozini eshitayotgan edim. Kema suv sathida suzar edi.

Kema bizni eshitadigan yoki jilla bo'lmasa ko'radigan darajada yaqinlashgan paytda qochishga qaror qildik, – uch kundan keyin oy to'lishadi, binobarin u yaxshigina yog'du taratmoqda edi. Narigi kema bortiga o'tib, uni halokatdan qutqarib qololmagan taqdirda ham, har holda vaziyat imkon berganicha barcha choralarni ko'ramiz.

Bir necha marta «Nautilus» jangga hozirlik ko'rayotganday bo'lib tuyuldi, biroq o'z dushmanining biroz yaqinlashib kelishiga imkon bergach, yana tezlikni oshirib, undan uzoqlashdi.

Tunning bir qismi osoyishta o'tdi. Biz ora-chora bir-birimizga gap qotib, qochish uchun qulay fursat poylab turar edik. Qattiq hayajonlanayotgan edik. Ned Lend kema tomon suzmoqchi ham bo'ldi. Men uni sabr qilishga majbur etdim. «Nautilus» uni ta'qib etayotgan kemaga dengiz sathida hujum qilishiga ishonchim komil edi, bunday vaziyatda qochishga imkoniyat tug'ilibgina qolmay, ish osonlashadi ham.

Tong otishidan oldin – soat uchda bezovtalanib, yana palubaga ko'tarildim. Kapitan Nemo o'sha yerda edi. U kema tumshug'ida turardi. Boshni uzra qora bayroq hilpirar edi. U kemadan ko'z uzmas edi. Uning qattiq nigohi ta'qib etuvchini gipnoz bilan shatak arqonida ortidan ergashtirib, o'ziga tortayotganday edi.

Oy meridianni kesib o'tdi. Sharqda Yupiter ko'rindi. Atrof jimjit. Osmon bilan okean osoyishtalikda kim o'zarga o'ynashayotganday edi.

Men stixiyaning bu osoyishtaligini tutqich bermas «Nautilus»ning har bir burchagidagi nafrat bilan qiyos qilganimda butun vujudim qaltirab ketar edi.

Kema bizdan ikki milya narida edi. U «Nautilus» projektoridan taralayotgan yogʻdu izidan yaqinlashib kelayotgan edi. Men uning koʻk va qizil tanib olish chiroqlarini va fok-machtasiga ilib qoʻyilgan, toʻgʻri yogʻdu taratayotgan fonusni koʻrdim. Moʻrisidan halqa-halqa alanga otilib chiqayotgan edi – aftidan kema bugʻ bosimini yuqori nuqtasigacha koʻtarganga oʻxshardi.

Men ertalab soat oltigacha palubada qoldim. Kapitan Nemo ilgorigiday meni koʻrmas edi. Harbiy kema bizdan atigi bir yarim milya masofada edi va tong otishi bilanoq yana otishmani boshlab yubordi.

«Nautilus» oʻz gʻanimiga hujum boshlaydigan dam yaqinlashayotgan edi va u amalga oshgan zahoti men va oʻrtoqlarim tergashga jurʻat etolmaydigan odamni bir umrga tashlab ketamiz. Kapitan yordamchisi palubaga chiqqach, Konsel bilan Nedni ogohlantirish uchun pastga tushmoqchi boʻldim. U bilan bir necha dengizchilar ham chiqishdi.

«Nautilus»da jangga hozirlik koʻrilayotgan edi. Bu hozirlik uncha murakkab emas edi. Palubani oʻragan panjara tushirildi. Projektor vishkasi va shturval hujrasi suvosti kemasining ichiga tortib qoʻyildi. Paluba yuzasi uzun temir sigaraga oʻxshab qoldi. Endi unda bironta ham doʻnglik qolmadi – demak, manyovr qilishiga endi hech narsa xalaqit bermas edi.

Men salonga qaytdim. Hamon dengiz sathida turgan «Nautilus»ga quyoshning dastlabki nurlari yogʻdu sochar edi. Uning qizgʻish shuʻlasi oynalarda aks etar edi.

Dahshatli 2-iyun kuni boshlandi.

Soat beshda lag menga «Nautilus» tezligini se-

kinlayotganini ko'rsatdi. Harbiy kemani o'ziga yaqinroq masofaga keltirmoqchi bo'lganini fahmladim. To'p o'qlarining ovozi borgan sari ko'proq eshitila boshladi. O'qlar suvga qattiq hushtak ovozi bilan kelib tushib atrofimizga ko'pik sachratar edi.

– Do'stlarim, – dedim men, – fursat yetdi! Qani, qo'lni qo'lga beringlar, u yog'iga tavakkal!

Ned Lend hozirning o'zidayoq tayyor, Konsel osuda, men qamrab olgan hayajondan o'zimni arang tutar edim. Biz kutubxonaga o'tdik. Trapga olib chiqadigan eshik qabzasini itarganimda to'satdan lyuk qopqog'i yopilganini eshitdim.

Kanadalik zina tomon yugurgan edi, men uni to'xtatdim. Shovullagan tanish ovoz «Nautilus» rezervuarlariga suv to'latayotganini bildim. Chindan ham ko'p o'tmay «Nautilus» dengiz sathidan o'n metr chuqurlikka sho'ng'idi.

Manyovrning maqsadi menga ayon bo'ldi. «Nautilus» mustahkam zirh bilan qoplangan harbiy kemaga yuqoridan turib hujum qilmoqchi emas edi. U kemaga suv ostidan, vaterliniyaning pastki qismidan, temir qoplama tugaydigan joydan hujum qilmoqchi edi.

Shunday qilib, biz yana bandiligimizcha qolaverdik, buning ustiga tayyorlanayotgan dahshatli fojia-ning beixtiyor shohidlari bo'lishimiz ham kerak edi. U yog'ini surishtirsangiz, o'ylashga ham fursat qolmagan edi. Mening xonamga kirib yashirinib olib, ovoz chiqarmay bir-birimizga qarab turar edik. Butun vujudimni dahshatli qo'rquv qamrab oldi. Men odatda allaqanday dahshatli voqea sodir bo'lishi oldidan odamda paydo bo'ladigan og'ir vaziyat holatida edim. Men halokatni kutar edim, tiq etgan har bir ovozga quloq tutar edim, butun vujudim quloqqa aylangan edi.

Bu orada «Nautilus» tezligini anchagina oshirdi. Aftidan u borib urish uchun tezlashayotgan edi. Uning butun korpusi qaldirardi.

Men to'satdan qichqirib yubordim. Kemalar to'qnashdi. Bu shunchaki yengil turtki edi. Shunga qaramay, po'lat dandon yog'ochga zarb bilan qadalganini sezdim. G'ijirlagan va yog'ochning yorilgan ovozi eshitildi. Ammo «Nautilus» harakat inersiyasi bilan igna matoni teshib o'tganday harbiy kemani yorib o'tdi.

Men ortiq o'zimni tutib turolmadim. Dahshatdan esim og'ib xonadan salonga chopib kirdim. Kapitan Nemo o'sha yerda edi. Oyna ortida sodir bo'lganlarni xomush turib, ma'yus, berahmlik bilan ko'zdan kechirar edi.

Suv ostida juda ulkan, shaklini yo'qotgan qora jism ko'rinib turar va «Nautilus» uning jon talvasasini ham oxirigacha ko'rish uchun u bilan birga dengiz tubiga sho'ng'ir edi. O'zimdanda o'n metrcha narida deyarli ikkiga bo'lingan kema korpusini ko'rdim; unga dahshat bilan shovullab suv kirar edi. Yuqoriroqda ikki qator to'p ko'rinib turar edi. Palubada juda ko'p qora soyalar harakat qilib turar edi.

Suv kirishi ko'payib bormoqda edi. Sho'rlik odamlar vantalariga<sup>1</sup> yopishar, machталarga tarmashib chiqishar, suvda shaloplashar edilar. Bu to'satdan toshqinga uchragan inson chumolixonasi edi.

Dahshatdan dong qotgan, sochlarim tippatik turib, arang nafas olgan holda derazadan ko'z uzishga ham madorsiz bu dahshatli manzaraga boqar edim.

Ulkan kema asta-sekin g'arq bo'ldi. «Nautilus» u bilan izma-iz tushar edi. To'satdan portlab ketdi.

---

<sup>1</sup> Vanta – machtani ushlab turadigan yo'g'on arqon.

Siqiq havo kema palubasini shu qadar zo‘r kuch bilan parchalab tashladiki, go‘yo porox ombori portlaganday bo‘ldi. Suv bosimi shu qadar kuchli ediki, «Nautilus»ni bir chekkaga itqitib tashladi.

Shundan so‘ng sho‘rlik kema tezroq g‘arq bo‘la boshladi. Qurbonlar yopishib qolgan machtalari, jasadlar og‘irligidan egilib ketgan reyalar, so‘ngra grot-machtalar arang ko‘rinar va nihoyat qora jism o‘liklardan iborat ekipaji bilan birga girdob ichiga kirib g‘oyib bo‘lib ketdi...

Men kapitan Nemo tomon burildim. Bu dahshatli sudya, chinakam g‘azab alvastisi hamon zulmatga tikilib turar edi. Hamma narsa tamom bo‘lgandan keyin u o‘z xonasi eshigi tomon borib, uni ochdi va ichkariga qadam qo‘ydi. Men uni kuza-tib turar edim.

Xona to‘ridagi devorda uning sevimli qahramonlari portretlari ostida hali juda yosh ayol va ikki kichik bola portretini ko‘rdim.

Kapitan Nemo bir zum ularga tikilib turdi-da, so‘ng tiz cho‘kib, o‘kirib yig‘lab yubordi.

## *Yigirma ikkinchi bob*

### **KAPITAN NEMONING SO‘NGGI SO‘ZLARI**

Dahshatli manzara ko‘zdan g‘oyib bo‘lib, derazalar yopildi. Biroq salonda chiroq yonmadi. «Nautilus»da qorong‘ilik va sukunat hukmron edi. Kapitan Nemo bu dahshatli joydan shitob bilan qochayotganday edi. U qaysi tomonga yo‘l tutdi ekan? – Shimolgami yoki janubga?

Kayutamga qaytganimda, u yerda meni Ned bilan Konsel vazmin sukut saqlab kutib turishar edi. Men kapitan Nemodan so‘z bilan ifodalab bo‘lmaydigan darajada dahshatga tushgan edim. U odamlar tu-

fayli qanchalik azob-uqubatga duchor bo'lmasin, baribir ularni shu tarzda jazolashga haqqi yo'q edi. Bu bilan birga u o'z qasosini olishga meni ishtirok ettirmagan bo'lsa-da, uning shohidi qilib qo'ydi. Bunisi ortiqcha edi!

Soat o'n birda elektr chiroq yondi. Men salonga o'tdim. U yerda hech kim yo'q edi. Asboblarga qaradim. «Nautilus» shimol tomonga soatiga yigirma besh milya tezlikda goh dengiz sathida, goh suv ostida o'ttiz fut chuqurlikda suzib borar edi.

Qayerda suzayotganimizni xaritadan topib, La-Mansh quyiladigan joyning yonidan o'tganimizni va hozir shimoliy dengizlarga ketayotganimizni aniqladim.

Kechga borib biz Atlantik okean bo'ylab ikki yuz lyo bosib o'tdik.

Oqshom qorong'iligi quyuqlasha borib, oy chiqquncha dengiz zulmat qo'ynida qoldi.

Shu kecha uxlay olmadim. Vahimalar tinchlik bermadi. Kema halokatining dahshatli manzarasi ko'z oldimdan sira nari ketmas edi.

Shu kundan e'tiboran har kungi bosilgan yo'lni salondagi xaritaga tushirmay qo'ydilar.

«Nautilus» shimol tumanlari oralab bir xil tezlikda Atlantik okeanning shimoli tomon qanchalik kirib borganini kim ayta olar edi? Shpitsbergen-ga yaqinlashdimikin yoki Novaya Zemlya sohillari tomon suzib ketdimikin? Balki unchalik ma'lum bo'lmagan dengizlar: Oq dengiz, Karsk va Ob' qo'ltiqlari bo'ylab Lyaxov orollar tizmasi yonidan o'tib, deyarli noma'lum Shimoliy Osiyo sohillari yaqinidan o'tgan bo'lsa ham ajab emas. Men bunga javob berolmas edim.

Men vaqt hisobidan adashib qoldim. Nazarimda endi kecha bilan kunduz odatdagiday o'z nav-

bati bilan o‘rin almashib turmayotganday edi. Men o‘zimni hayot voqeligidan ko‘ra ko‘proq Edgar Po<sup>1</sup> xayoliga o‘xshab ketadigan sirli va dahshatli girdobga kirganday his etar edim. Har daqiqada ko‘z oldimda Po asarlarining qahramoni Artur Gordon Pim singari «chodirga o‘ralgan va Yer yuzidagi tirik mavjudotlarning barisidan katta, qutbga boriladigan yo‘lni bekitadigan inson tanasi» namoyon bo‘layotganday tuyular edi.

Nazarimda, – ammo, ehtimol, menga shunday tuyulayotgandir, – bu safar omadimiz kelib o‘n besh yoki yigirma kun davom etganday va favqulodda voqea sodir bo‘lib sayohatimizga chek qo‘ymaganida, uning yana qanchaga cho‘zilishi noma‘lum edi.

Kapitan Nemo, shuningdek, uning yordamchisi kemada yo‘qday edi. Ekipajdan hech kim biron daqiqa ham ko‘rinmas edi. «Nautilus» deyarli hamma vaqt suv ostida suzib borayotgan edi. U suv sathiga havo olish uchun chiqqanida lyuk avtomatik ravishda ochilib yopilardi. Men qayerda ketayotganimizni mutlaqo tasavvur eta olmas edim.

Buning ustiga tinka-madori qurib, toqati toq bo‘lgan kanadalik kayutasidan chiqmasdi. U birday indamas edi. Konsel uni bir og‘iz ham gapirtirolmas va vatanini qo‘msab, qayg‘u-alamiga chiday olmay o‘zini bir narsa qilib qo‘ymasin, deb xavotirda edi.

Konsel Ned Lendning har bir harakatini kuzatib yurdi.

O‘z-o‘zidan ayonki, bunday sharoitda hayot kechirish juda og‘ir bo‘lib qoldi.

Bir gal – qaysi sanaligini aytolmayman – tongotarda bo‘shashib, qattiq uxlab qolibman. Uyg‘onib qaragam, tepamda Ned Lend turibdi.

---

<sup>1</sup> *Edgar Po* – Amerika yozuvchisi, fantastik hikoyalar avtori.



U menga engashib, shivirladi:

– Qochamiz!

– Qachon? – so‘radim men.

– «Nautilus»da har qanday kuzatish yo‘q bo‘lib ketdi. Kema uyquga kirganday. Shunday emasmi?

– Shunday. Biz qayerdamiz?

– Allaqanday yerga yaqin joydamiz. Men uni ertalab tuman ichida sharq tomonda yigirma milyacha masofada ko‘rdim.

– U qanaqa yer ekan?

– Bilmadim, ammo u qanaqa bo‘lmasin, biz u yerdan boshpana izlaymiz.

– To‘g‘ri, Ned... Roziman: peshonamizda dengizda halok bo‘lish yozilgan bo‘lsa ham biz shu kecha qochamiz!

– Dengiz to‘lqinli, qattiq shamol bo‘lyapti, ammo «Nautilus»ning yengil qayiqchasida yigirma milya suzish unchalik qiyin bo‘lmaydi. Men uning ichiga bildirmay u-bu yegulik va bir shisha suv olib borib qo‘ydim.

– Izingizdan borishga tayyorman!

– Shuni bilib qo‘ying: qo‘lga tushsam, o‘zimni himoya qilaman. Taslim bo‘lishdan ko‘ra o‘limga hozirman!

– Biz birga jon beramiz, do‘stim Ned.

Men hamma narsaga tayyor edim. Kanadalik ketdi. Palubaga chiqdim. U yerda oyoqda zo‘rg‘a turardi kishi – shu qadar qattiq to‘lqin bo‘layotgan edi. Osmon dahshatli edi. Biroq bu qalin tuman ortida yer bo‘lgani uchun ham qochish kerak edi. Biz bir kun, bir soatni ham qo‘ldan boy bermasligimiz kerak.

Men kapitan Nemo bilan uchrashishdan ham qo‘rqib, ayni vaqtda ham buni istab salonga qaytdim; uni ham ko‘rgim kelayotgan edi, ham yo‘q.

Unga nima deyman? U menda sodir eta oladigan qo'rqvni yashira olarmikinman? Yo'q, u bilan uch-rashmaganimiz ma'qul! Yaxshisi uni unutish kerak! Ammo har holda...

Bu kun, «Nautilus»da o'tkazadigan so'nggi kunim qanchalik cho'zilib ketdi-ya! Men hamisha yolg'iz bo'ldim. Ned Lend bilan Konsel hayajonlarini bildirib qo'yishdan qo'rqib, men bilan gaplashmas edilar.

Soat oltida men ovqatlanib oldim. Qornim och emas edi, ammo ko'nglim tortmasa ham, holdan toymaslik uchun zo'rlab yedim.

Olti yarimda Ned Lend mening xonamga kirdi. U menga bunday dedi:

– Endi qochadigan paytgacha bir-birimizni ko'rolmaymiz. Hozir soat o'nda oy chiqmayapti. Qorong'idan foydalanib qolamiz. To'g'ri qayiqqa boring. Men sizni Konsel bilan o'sha yerda kutaman.

Kanadalik javob berishimga vaqt ham qoldirmay chiqib ketdi.

Men «Nautilus» qaysi tomonga suzayotganini aniqlash uchun qaytib salonga kirdim. Biz shimol – shimoli sharq tomon yo'l olib, ellik metr chuqurlikda dahshatli tezlik bilan borayotgan edik.

Men bu muzeyda saqlanayotgan tabiat mo'jizalari va san'at asarlariga, butun yer yuzida misli bo'lmagan va ayni vaqtda uni to'plagan odam bilan birga shu yerda o'limga mahkum etiladigan kolleksiyalarga so'nggi bor nigoh tashladim. Men bularning barini uzoq vaqt xotiramda saqlashni istar edim. Men bir soat davomida oyna tagiga terilgan va shipdan elektr chiroq bilan mayin nurlanayotgan tilsiz xazina mavjiga mahliyo bo'lib turdim. So'ngra kayutamga qaytdim.

U yerda men issiq kostum kiydim, barcha yozuvlarimni yig'ib, ko'ylagimning ostiga tiqdim. Yuragim gupullab urar edi. Hozir kapitan Nemoga yo'liqqanimda hayajonim, tashvishli qiyofam, shubhasiz, meni fosh etib qo'yishi aniq edi.

U hozir nima qilayotgan ekan? Men uning kayutasi eshigi oldiga borib, quloq sola boshladim. Oyoq tovushini eshitdim. Kapitan Nemo shu yerda edi. Tiq etgan tovushdan cho'chir edim. Nazarimda, u hozir chiqib, nega qochayotganimni so'raydiganday edi. Meni tobora qo'rquv bosib, xayol ming yoqqa olib bora boshladi. Bu holat shu qadar og'ir ediki, men beixtiyor o'zimga savol berdim: xonaga kirib, kapitan bilan yuzma-yuz bo'lish yaxshiroq emasmi?

Albatta, bu tentaklik bo'lur edi, yaxshiyam baxtimga o'zimni vaqtida tutib oldim. Kayutamga qaytib kelib, o'rin ustiga cho'zildim va hayajonimni bosishga urindim.

Hayajonim asta-sekin bosildi-yu, ammo har xil fikrlar tinchlik bermas edi. Men «Nautilus»da barcha boshimdan o'tganlarni, «Avraam Linkoln» palubasidan uchib ketganimdan keyingi barcha baxtiyor va qora kunlarimni xotirlay boshladim. Suvosti ovlari, Torres bo'g'ozi, Yangi Gvineya vahshiylari, sayozlikka tiqilib qolganimiz, marjon qabriston, Arabiston tunneli, Santorin oroli, Kritdagi g'avvos, Atlantika, muz tuzoq, Janubiy qutb, uzluksiz muzliklar, sakkizoyoqlar bilan jang, Golfstrimdagi bo'ron, «Qasoskor» va nihoyat shu harbiy kemaning butun ekipaji bilan birga halok bo'lish manzarasi! Barcha mana shu manzaralar ko'z o'ngimdan teatr sahnasida tinimsiz o'zgarib turadigan dekoratsiyalarday birma-bir o'tar va butun xotiralarimda kapitan Nemo birday qatnashar edi. U endi barcha ki-

shilarga o'xshagan odam emas, balki qandaydir sirli suv mavjudoti, okean mutafakkiri edi.

Soat to'qqiz yarimga zang urdi. Boshim g'uvullardi, men uni qo'llarim bilan siqib, ko'zlarimni yumib oldim. Hech narsani o'ylamaslikka tirishar edim. Yana yarim soat kutish kerak. Meni jinni qiladigan yarim soat!..

To'satdan organning allaqanday mavhum ovozi, qandaydir qo'shiqning hazin kuyi qulog'imga chalingi. Nafasimni yutib, butun vujudim bilan kapitan Nemoni musiqa zabt etganday tinglay boshladim.

Shundan so'ng bir fikr to'satdan meni taajjublantirib qo'ydi; kapitan Nemo xonasidan chiqdi. U salonda edi. Men qayiqqa yetib borish uchun bosib o'tishim zarur bo'lgan salonda meni gapga tutib qolsa-chi! Uning birgina nigohi meni yer bilan yakson qiladi, bir og'iz so'zi meni umrbod shu kemandan chiqolmaydigan qilib qo'yishi mumkin!

Nihoyat soat o'nga zang urdi. Kayutadan chiqib, do'stlarimga borib qo'shiladigan vaqt keldi. Ortiq ikkilanib o'tirolmas edim.

Nihoyatda ehtiyotkorlik bilan eshikni ochdim. Nazarimda u qattiq g'ijirlyotganday edi. Ehtimol, mening nazarimdagina g'ijirlyotgandir. Men «Nautilus»ning qorong'i yo'laklaridan yurak urishini bosib olish uchun har qadamda bir to'xtab, piypaslab borar edim.

Nihoyat salon eshigiga yetib keldim va uni asta ochdim.

Salon zim-ziyo qorong'i edi. Organ akkordlari ohista taralar edi. Kapitan Nemo o'sha yerda edi. U meni ko'rmadi. Menimcha u kunduzgi yog'duda ham meni ko'rolmasligi mumkin edi: shu qadar muzikaga berilib ketgandi.

Kelganimni bildirmaslik uchun tiq etgan tovush

chiqarishdan qo'rqib gilam ustiga qadam qo'ydim. Salonning to'ridagi kutubxonaga olib chiqadigan eshikkacha yetib olishga besh minut ketdi.

Men uni endi ochaman deb turganimda birdan kapitan Nemoning xo'rsinganini eshitib qoldim. Bu xo'rsinish meni turgan joyimda mixlab qo'ydi. Kapitani Nemo organ oldidan ketdi; kutubxonadan g'irashira yog'du tushib turgani uchun qorong'ida ham men uning qorasini ko'rdim. U qo'llarini ko'ksida chambarak qilgani holda ohista menga yaqinlashayotgan edi. Nazarimda u yurib emas, soyaday o'rmalab kelayotganday edi. Yig'idan uning qalbi yonayotganday edi. Men shivirlab aytgan so'zlarini eshitdim, bu men eshitgan uning so'nggi so'zlari edi:

– Yetar, bas! Demak, har holda vijdon azobi bu odamni qiynoqqa solyaptimikin?..

Men beixtiyor kutubxonaga otilib kirdim. Trapdan ko'tarilib o'rtoqlarim meni kutayotgan qayiq oldiga bordim.

– Qochdik! Qochdik! – deya shivirladim men.

– Hozir! – deb javob berdi menga kanadalik.

«Nautilus» korpusidagi temir qopqoq ingliz kaliti bilan mahkam burab qo'yilar edi. Ned Lend har ehtimolga qarshi shunday kalit olgan ekan. Qayiqcha qopqog'i ham xuddi shu tariqa mahkamlanib qo'yilar edi. Kanadalik bizni suvosti kemasi bilan bog'lab turgan so'nggi narsa – ana shu gaykalarini burayotganda, kema ostidan allaqanday bo'g'iq shovqin eshitib qoldik. Bu qanday shovqin bo'lishi mumkin? Bizning yo'q bo'lib qolganimizni bilib qolishdimikin?

Ned Lend qo'limga pichoq tutayotganini sezdim.

– Ha, – deya shivirladim men, – biz o'limga yuzma-yuz turishimiz kerak.

Kanadalik ishini to'xtatdi.

Ammo birgina so'z, o'nlab marta qaytarilgan yolg'iz dahshatli so'z menga «Nautilus»dagi tushunilmas hayajonning sirini ochib berdi.

Uning bizga mutlaqo aloqasi yo'q edi.

«Malstrem, Malstrem!»

Malstrem! Bu biz eshitgan so'zlardan eng dahshatlisi edi. Shunday qilib, biz ancha xavfli joylarda, Norvegiya sohillari yaqinida edik! Nahotki, kelib-kelib «Nautilus» bu halokatli girdobga biz ozodlikka chiqishga harakat qilayotgan daqiqalarda tushsa?

Ma'lumki, suv ko'tarilgan paytlarda Farer va Lofoten orollari siqib qo'ygan bu joylarda g'oyat katta kuch bilan o'tadi. U hosil etgan girdobdan hozirgacha bironta kema butun chiqqani yo'q. Hamma yoqdan, ufqning barcha nuqtalaridan bu yerga dastlabki kuchi o'n besh kilometrgacha saqlanib boradigan dahshatli po'rtanalar keladi. Bu girdobda faqat kemalargina emas, balki kitlar va hatto arktik mamlakatlarning oq ayiqlari ham halok bo'ladi.

Kapitan Nemo beixtiyormi yoki ataylabmi o'z «Nautilus»ini ana shu yerga olib kelgan edi. Kema spiral bo'ylab harakat qilar, uning radiusi borgan sari torayayotgan edi. U bilan birga hali bordan olinmagan bizning qayiqchamiz ham dahshatli tezlik bilan aylanar edi. Men buni his etib o'tirar edim. Boshim qattiq azob berib aylana boshladi. Bizni qattiq qo'rquv qamrab olib, tomirlarimizdagi qon to'xtab qolganday bo'ldi. Yurak urishdan to'xtab qoldi nazarimda. Jon talvasasida bo'ladiganday bizdan sovuq ter chiqa boshladi. Shu mo'rtgina qayiqcha atrofida qanday dahshatli shovqin-suron! O'nlab milya masofada tinimsiz aks sado berib qaytarilayotgan qanchalik guvullash! To'lqinlarning suvosti qoyalari qirralariga urilishidan chiqayotgan

qanday dahshatli ovoz! Bunday chuqurlikda eng ulkan daraxt tanalari ham ushoq xas-cho'pga aylana-di!

**Qanday dahshat!**

Biz qattiq chayqalar edik. «Nautilus» tirik mavjudot singari to'lqinlarning kelib urilishidan o'zini himoya qilar edi. Uning po'lat muskullari qirsillar edi. Ba'zan kema tikka turganday bo'lar edi.

– «Nautilus»ni qattiq ushlab turish kerak, – dedi Ned. – Hamma gaykalarni qaytadan burab qo'yishga urinib ko'ramiz. «Nautilus»dan uzilib ketmasak, qutulib qolishimiz mumkin...

U og'zidagi gapni aytib ulgurmay qarsillagan qattiq ovoz eshitildi. Gaykalar uzilib, o'z o'rnidan chiqib ketgan qayiqcha sopqondan otilgan toshday girdobning o'rtasiga itqitib tashlandi.

Boshim bilan temir bortga urilib, qattiq silkinishdan o'zimdan ketib qoldim.

## *Yigirma uchinchi bob*

### **XOTIMA**

Shunday qilib, suvosti sayohatimiz ham poyoniga yetdi. O'sha dahshatli tunda nima bo'ldi, qayiqchamiz o'lim girdobidan qanday qilib chiqdi, Ned Lend, Konsel va men bu tubsiz joydan qay yo'l bilan qutulib qoldik – bunisini ayto olmayman. Lofoten orollaridan biridagi baliqchi kulbasida hushimga keldim. Ikkala do'stim ham eson-omon, hech qanday zarar ko'rmay ro'paramda turishar va quvonchdan qo'llarimni siqishar edilar. Biz bir-birimiz bilan mahkam quchoqlashdik.

Yilning bu paytida Fransiyaga qaytishni xayolga ham keltirib bo'lmasdi.

Shimoliy va Janubiy Norvegiya o'rtasida yo'l alo-

qalari yomon edi. Havo yurishib ketib, Shimoliy burunga qatnaydigan paroxod kelishini uzoq vaqt kutishga to'g'ri keldi.

Boshimdan kechirgan sarguzashtlarim haqidagi hikoyani shu yerda, bizni topib olgan shu sodda, ajoyib odamlar orasida qayta ko'rib chiqyapman. U ayni haqiqat. Bironta fakt tushirib qoldirilgani yo'q. Bironta voqea ham o'zgartirilmadi. Bu inson oyog'i tegmagan, vaqti kelib fan erkin yo'l ochib beradigan stixiyaga qilingan juda ajoyib tarixiy sayohat haqidagi haqiqatdir.

Menga ishonisharmikin? Bunisini bilmayman. Sirasini aytganda, menga baribir emasmi?

Salkam o'n oy davomida suv ostida sakson ming kilometr suzganim, bu jahon bo'ylab sayohat vaqtida Qizil va O'rtayer dengizlari, Atlantika, Tinch, Hind, Shimoliy va Janubiy Muz okeanlari o'zlarining eng nodir sirlarini ochganliklarining o'zi menga kifoyadir.

«Nautilus»ning taqdiri nima bo'ldi? U girdobdan qutulib chiqdimikin? Kapitan Nemo tirikmikin? Qasos olishdek dahshatli ishini hozir ham davom ettirayotganmikin yoki o'sha oxirgi qurbonlari bilan qanoatlanganmikin? Vaqti kelib to'lqinlar uning butun hayot tarixi yozilgan qo'lyozmalarini olib kelmikini? Men bu odamning otini bila olarmikinman? Halok bo'lgan kemanding qaysi millatga mansubligidan kapitan Nemoning millatini bilib olarmikinmiz?

Bunga umidvorman. Shuningdek, uning ajoyib kemasi eng dahshatli dengiz girdobida ham g'olib chiqqan va «Nautilus» qanchadan qancha kemalar halok bo'lgan joyda ham zararlanmay qolgan, deb umid qilaman! Agar shunday bo'lsa, bordi-yu, kapitan Nemo vataniga aylangan okeanda hozir ham



suzayotgan bo'lsa, uning shafqatsiz qalbidagi naf-rat yumshasin. U olam-jahon mo'jizalarni ko'radi, shu go'zalliklar undagi qasos alangasini so'ndirsin! Qahri qattiq sudya yo'qolib, o'rnini dengizni tinch-lik maqsadlari uchun tadqiq etayotgan olimga bersin. Kapitan Nemo taqdiri juda qiziq, ammo u ko'tarinki ruhda. Buni ana shu g'alati odam bilan yelkama-yelka turib o'n oy birga yashagan mendan boshqa kim bilsin! Nihoyat endi bundan olti ming yil ilgari «Ekkleziast»<sup>1</sup>ning: «Tubsizlikning chuqur-ligini qachondir biron kishi o'lganmi?» degan savoliga Yer yuzidagi jamiki odamlar orasidan ikki kishi: «Men!» – deb javob berishga haqli.

Bu – kapitan Nemo bilan men.

---

<sup>1</sup> «Ekkleziast» – Injilning shoh Solomonga mansub, deb faraz qilinadigan kitoblaridan biri.

## MUNDARIJA

### *Birinchi qism*

Birinchi bob. Harakatdagi suvosti qoyasi . . . . .	5
Ikkinchi bob. Tarafdor va qarshilar . . . . .	13
Uchinchi bob. «Xo‘jam shuni istasalar» . . . . .	21
To‘rtinchi bob. Ned Lend . . . . .	28
Beshinchi bob. Ko‘r-ko‘rona quvish . . . . .	37
Oltinchi bob. Shitob bilan . . . . .	46
Yettinchi bob. G‘alati kit . . . . .	58
Sakkizinchi bob. «Harakatchan harakatchanlikda» . .	67
To‘qqizinchi bob. Ned Lend g‘azabnok . . . . .	77
O‘ninchi bob. G‘alati odam . . . . .	86
O‘n birinchi bob. «Nautilus» . . . . .	99
O‘n ikkinchi bob. Hamma narsa elektr vositasida . .	109
O‘n uchinchi bob. Bir necha raqamlar . . . . .	118
O‘n to‘rtinchi bob. «Qora daryo» . . . . .	127
O‘n beshinchi bob. Taklifnoma . . . . .	142
O‘n oltinchi bob. Suvosti tekisligi bo‘ylab sayr . . .	152
O‘n yettinchi bob. Suvosti o‘rmoni . . . . .	160
O‘n sakkizinchi bob. Tinch okean ostidan 16000 kilometr . . . . .	169
O‘n to‘qqizinchi bob. Vanikoro . . . . .	179
Yigirmanchi bob. Torres bo‘g‘ozi . . . . .	192
Yigirma birinchi bob. Quruqlikda o‘tkazilgan bir necha kun . . . . .	202
Yigirma ikkinchi bob. Kapitan Nemoning chaqmog‘i . . . . .	218
Yigirma uchinchi bob. Yana qamoqxonada . . . . .	234
Yigirma to‘rtinchi bob. Marjonlar olamida . . . . .	246

### *Ikkinchi qism*

Birinchi bob. Hind okeani . . . . .	256
Ikkinchi bob. Kapitan Nemoning yangi taklifi . . . . .	268
Uchinchi bob. O‘n million frank turadigan marvarid . . . . .	282
To‘rtinchi bob. Qizil dengiz . . . . .	292

Beshinchi bob. Arabiston tunneli . . . . .	312
Oltinchi bob. Grek tizma orollari . . . . .	323
Yettinchi bob. O'rtayer dengizi bo'ylab qirq sakkiz soat . . . . .	339
Sakkizinchi bob. Vigo ko'rfazi . . . . .	349
To'qqizinchi bob. Yo'qolgan qit'a . . . . .	364
O'ninchi bob. Suvosti konlari . . . . .	378
O'n birinchi bob. Sargasso dengizi . . . . .	392
O'n ikkinchi bob. Kashalotlar va kitlar . . . . .	404
O'n uchinchi bob. Muzliklarda . . . . .	421
O'n to'rtinchi bob. Janubiy qutb . . . . .	437
O'n beshinchi bob. Tuzoqda . . . . .	451
O'n oltinchi bob. Havo yetmay qoldi . . . . .	462
O'n yettinchi bob. Gorn burunidan Amazonkaga . .	476
O'n sakkizinchi bob. Sakkizoyoqlar . . . . .	487
O'n to'qqizinchi bob. Golfstrim . . . . .	501
Yigirmanchi bob. Kenglikning 47-gradus 24-minuti va uzunlikning 17-gradus 28-minutida . . . . .	515
Yigirma birinchi bob. «Qasoskor» . . . . .	525
Yigirma ikkinchi bob. Kapitan Nemoning so'nggi so'zlari . . . . .	537
Yigirma uchinchi bob. Xotima . . . . .	546

*Adabiy-badiiy nashr*

**Jahon sarguzasht adabiyoti**

**JYUL VERN**

**SUV OSTIDA SAKSON MING KILOMETR**

*R o m a n*

«Sharq» nashriyot-matbaa  
aksiyadorlik kompaniyasi  
Bosh tahririyati  
Toshkent – 2016

Muharrir *B. Eshpo'latov*  
Badiiy muharrir *F. Basharova*  
Texnik muharrir *R. Boboxonova*  
Sahifalovchi *M. Atxamova*  
Musahhihlar *M. Ziyamuhamedova,*  
*Sh. Xurramova*

**Nashr litsenziyasi AI № 201, 28.08. 2011-yil.**

Bosishga ruxsat etildi 21.12.2016. Bichimi 84x108<sup>1/32</sup>. «Pt Serif» garniturası. Ofset bosma. Shartli bosma tabog'i 28,98. Nashriyot-hisob tabog'i 27,01. Adadi 44221 nusxa. Buyurtma № 4522.

**«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi 100000,  
Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41.**



Jyul Vern (1828–1905) – mashhur fransuz adibi. U Nante shahrida advokatlar oilasida dunyoga kelgan. Parijda dastlab huquqshunos bo‘lishga tayyorlangan.

Uzoq vaqt tadbirkorlik, moliya sohasida ham faoliyat yuritdi. Lekin adabiy doiradagi shaxslar bilan tanishuv va shaxsan Aleksandr Dyumaning ta’siri uning qismatini adabiyot tomon burib yubordi. U ayni paytda fan va texnika yutuqlari bilan qiziqib, fizika, astronomiya fanlarini jiddiy o‘rganishga, yangi kashfiyot va ixtirolarni o‘rganib borishga kirishdi. Sayohat ishqibozi sifatida o‘zining “Sen-Mishel” yaxtasida Yevropaning ko‘plab mamlakatlariga, Shimoliy Amerikaga ham bordi. Bularning bari keyinchalik ko‘plab ilmiy-fantastik asarlar yaratishga va ularda kelajak voqealar, ixtirolarni bashorat qilishiga sabab bo‘ldi. Dunyo adabiyotida eng sermahsul ijodkor sifatida e’tirof etilgan yozuvchi yuzga yaqin kitoblar yaratdi. Uning asarlari dunyoning ko‘plab tillariga tarjima qilingan. Yozuvchining bir qator asarlari uzoq yillardan buyon o‘zbek tilida ham qayta-qayta chop etib kelinadi.

ISBN 978-9943-26-603-2



9 789943 266032

